

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ҲУЗУРИДАГИ ХАЛҚ
ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ
МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ҲУДУДИЙ МАРКАЗИ**

*“Фаол тадбиркорлик инновацион зоялар ва
технологияларни қўллаб қувватлаш йили”га бағишланади*

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГ ХОДИМЛАР
КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ:
МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ**

мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси
МАТЕРИАЛЛАРИ

Самарқанд шаҳри, 2018 йил 30 апрель

САМАРҚАНД – 2018

УДК 371.2 (575.1)

“Халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд: 2018 йил. 388 бет.

Ушбу тўпламда “Халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги мақолалар ўрин олган. Мазкур республика илмий-амалий конференцияда - таълим соҳасида эришилган энг сўнгги ютуқлар, долзарб муаммолар муҳокама этилган. Илмий-тадқиқот институтлари, умумтаълим мактаблари, ҳудудий халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш марказлари салоҳиятини кўтариш, халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш, олий ўқув юртлари ва умумтаълим мактабларининг педагог ходимлари ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш, ёш олимларнинг илмий кўникмалари ва билимларини шакллантириш кўзда тутилган.

Масъул муҳаррир:

Ғайбуллаев О.

Таҳрир хайъати:

**Нарзикулова Ф
Усманов Б.
Махмудова М.
Ҳасанова К.
Салоҳиддинова М.
Хужамкулов А.
Оқилова К.
Холбоева Г.
Хўжакулов Ш.**

Самарқанд давлат университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази Илмий кенгашининг 2018 йил 30 мартдаги ўтказилган йиғилишининг 3/1-сонли қарори билан наизга тавсия этилган.

ISBN 978-9943-997-87-5

Тўпламдан ўрин олган мақолаларнинг савияси, сифати ва илмий далилларнинг ҳаққонийлиги ҳамда мазмуни учун муаллифлар масъулдирлар.

© Самарқанд давлат университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази , 2018

СЎЗ БОШИ

Тараққиёт стратегиямизнинг “Ижтимоий соҳани ривожлантириш” деб номланган тўртинчи йўналишда таълим ва фан соҳасини ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилиб, мактабгача таълим муассасаларининг қулайлигини таъминлаш, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим сифатини яхшилаш ҳамда уларни ривожлантириш чора-тадбирларини амалга оширишни назарда тутди. Шунингдек, таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятида бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришда тараққиёт стратегиямизнинг таълим соҳасидаги устувор йўналишлари таълим тизимини ривожланишининг янги босқичини белгилаб берди.

2017 йил 17 февралда «Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2789-сонли қарорининг қабул қилиниши республикада илмий-техник фаолиятни ривожлантиришда кенг қўламдаги тизимли ўзгаришларни амалга ошириш учун мустақкам пойдевор бўлиб хизмат қилмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрда «Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Мазкур қарор Ўзбекистон Республикасида таълим соҳасида амалга оширилаётган ишларнинг мантиқий давоми бўлиб, педагог кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш сифатини кўтаришга хизмат қилади. Хусусан, унда узлуксиз малака ошириш тизими самарадорлигини янада такомиллаштириш, ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини доимий ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Мазкур қарор ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 28 декабрдаги “Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1026-сонли қарори қабул қилинди. Шунингдек, мазкур қарорларга мувофиқ Республика миқёсида Олий таълим тизими негизида Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказлари ташкил этилганлиги, илмий салоҳиятни кўтариш, педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими самарадорлигини янада такомиллаштириш, уларнинг касбий компетентлигини доимий ривожлантириш имконини бермоқда.

Узлуксиз таълимни модернизациялаш орқали ўқув-тарбия жараёни сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган фармон ва қарорлар ана шу долзарб масалаларга ечим топишимизга кўмак беради. Малакали кадрни тайёрлашда педагогларимиз олдида қуйидаги вазифаларни қўймоқда:

– ўқув-тарбия жараёнига ўқитишнинг замонавий илғор шакллари, замонавий педагогик ва ахборот технологияларини, маънавий-маърифий тарбиялашнинг самарали шакллари ва усулларини жорий этиш;

– ўқитишнинг мазмуни, таълим-тарбия жараёни, дарс машғулотларининг сифатли ташкил этилишини таъминлашда ўқитувчининг касб маҳоратини ошириш;

– дарс жараёнида илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари асосида яратилган методик қўлланмалар, уларнинг мультимедиа иловаларидан

самарали фойдаланиш ҳамда ҳар бир ўқувчи томонидан ўзлаштирилишини назорат қилиб боришга оид илғор тажрибаларни ўрганиш ҳамда тарғиб этиш;

– мунтазам равишда фанлар метод бирлашмалари томонидан ўқитувчиларнинг илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш самарадорлигини устамалар, рағбатлантиришлар белгилаш жараёнида инобатга олиншини таъминлаш;

– ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини, болалар психологияси, ҳозирги замон таълим педагогикаси ва бу соҳадаги илғор тажрибалар, шахсга йўналтирилган таълим концепцияси ва компетенциявий ёндашув асосларини эгаллашларига эришиш;

– янги авлод дарсликларининг мазмуни компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандарти ва ўқув дастурига мос бўлишини таъминлаш;

– дарсликлар ўқув жараёнининг ахборотли моделга айланишига, ўқув материалларининг ўқувчиларни мулоқотга ундашига эришиш;

– узлуксиз таълим тизимида нафақат педагоглар фаолияти сифат-самарадорлигини ошириш, балки ота-оналарни болаларга бўладиган муносабатига ҳамда барқарор соғлом муҳитга қаратилган ишларини такомиллаштиришдир.

Малака ошириш тизими малакали, салоҳиятли, замонавий ўқитувчини шакллантириши ҳар бир ўқитувчи ўз устида мунтазам ишлаб, малакасини ошириб, ўз тажрибаларини ўқувчилар таълим-тарбиясига қаратиши лозим. Бунинг учун:

– ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг энг самарали шакл ва усулларини қўллай олиш;

– ўқувчиларни ижодий ва эркин фикрлашга, мантиқий тафаккурини ўстиришга, иқтидорли шахс сифатида камол топишига эришиш;

– ўқувчиларнинг ҳар бир ўқув фанидан компетенциявий ёндашувга асосланган билим, кўникма, малака ва компетенцияларга эга бўлишларини таъминлаш, бунинг учун муаллим ҳар бир ўқувчининг ўқув топшириқларини қандай ҳолатда ўзлаштираётганини таҳлил этиши, назорат қилиши, ўқувчининг ўзлаштира олмаган ўқув топшириқларига қайтиб, ҳар бир ўқувчи билан алоҳида ишлаши;

– ўқувчиларини билиш фаолиятига бўлган қизиқишлари ва интилишларини кучайтириш ҳамда ўз-ўзини объектив баҳолаш кўникмасини шакллантириб бориш;

– ўқитувчи ўқувчиларни севиши, ўз ишига қизиқиши, ўз билим ва тажрибасига асосланган ҳолда касбий фаолият моделларини танлай олиши, ўқувчиларнинг эҳтиёжларини билиши, ўз ўқувчилари ва атрофдагилар билан самарали ҳамкорлик ўрната олиши, зарур вазиятларда ўқувчиларни қўллаб-қувватлаши, ўқувчилар билан мулоқотга киришиш йўлларини яхши билиши, ўқувчиларга ва атрофдагиларга меҳрибон бўлиши, уларни кадрлай олиши, ўзига ишониши ва фаолияти натижаларини юқори даражада баҳолай олиши, ижтимоий масъулиятга эга бўлишига эришиш талаб этилади.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида «Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз, деб биламиз».¹-дея таъкидладилар.

¹ Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. «Халқ сўзи» газетаси, 2016 йил 7 декабрь сони.

Давр талабидан келиб чиққан ҳолда бугун ўқувчиларнинг ёши ва психофизиологик хусусиятлари, компетентлигига мос умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълимнинг умумевропа Давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилди. Юртбошимиз фикрларига асосан, ҳар бир ўқув босқичи, таълимда ўқувчилар билиши лозим бўлган билим, кўникма, малака ва компетенциялар стандарт даражасида расмийлаштирилиб ҳаётга татбиқ этилди.

Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлигининг 2018 йил 11 январдаги 03-03/48-сонли ва Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил 27 мартдаги хатлари ҳамда ҳудудий марказининг 2018 йилнинг иш режасига мувофиқ “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”га бағишланган “Халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманининг ўтказилишидан мақсад таълим тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш бўйича эришилган ютуқларни кенг жамоатчиликка етказиш, мавжуд муаммолар юзасидан маълумотлар тўплаш ва уни атрофлича таҳлил қилиш ҳамда олинган илмий-тадқиқот натижаларини муҳокама қилишдан иборатдир.

Таълим соҳасидаги барча ислоҳотлар замирида малакали кадр тайёрлаш энг долзарб масала сифатида кун тартибига қўйилаётган экан узлуксиз таълим тизимида малакали кадр тайёрлаш барқарор тараққиётга эришишнинг асосий мезонларидан бири эканлигини инобатга олиб, мураккаб, машаққатли, кутилмаган ҳолатларга бой, аммо жамиятнинг зарурий эҳтиёжи ҳисобланган таълим-тарбия тизимини янгича кўриниш ва янгича мазмунда амалга ошириш, дарс жараёнида инновацион педагогик ва ахборот технологияларни самарали қўллаш орқали таълим самарадорлигига эришиш давр тақазоси бўлмоқда. Шу нуқтаи назардан, халқ таълими тизимининг мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар, ривожланган хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибалари ҳамда илм-фан ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларига асосланган ҳолда ташкил этиш, маънавий баркамол ва интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялаш бугунги ва эртанги кунимизнинг долзарб масаласи бўлиб қолаверади.

О.Ғайбуллаев

СамДУ ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази директори

1-ШЎБА.

МАЛАКА ОШИРИШ МАРКАЗЛАРИДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАРИ.

ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ – ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Курахмедов Азамат Эркинович

Самарқанд давлат университети доценти, т.ф.н.

Расулова Дурдона Бахроновна

СамДУ ҳузуридаги вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази ўқитувчиси

Ўзбекистонда мустақилликка эришган дастлабки кунлардан бошлаб мамлакатни ривожлантиришнинг устувор йуналишларидан бири сифатида таълим тизимини ислоҳ қилиш белгилаб олинган эди. Таълим соҳасида олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар юртимизда ушбу соҳанинг изчиллик билан ривожлантирилишини ва такомиллашувини амалий ҳаётда кўрсатиб бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли, “Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2017 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3305-сонли, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 28 декабрдаги 1026 сонли қарорларнинг ижросини таъминлаш юзасидан жойларда самарали ишлар олиб борилмоқда.

Мазкур ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларда белгилаб берилган устувор вазифаларни бажариш учун ҳар бир педагог ходимдан ўз фаолиятига нисбатан инновацион тарзда ёндашиш ҳамда етарли даражада педагогик компетентликка эга бўлиш талаб этилади.

Ҳозирги кунда таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий мақсади замонавий талабларга жавоб берадиган, рақобатбардош кадрларни тайёрлашга қаратилган. Таълим тизимини янгилаш уни демократлаштиришни, ижтимоийлашувини ва инсонпарварлашувини, интегратив жараёнларни кучайтиришни, таълимнинг ишлаб чиқариш жараёни билан алоқасини такомиллаштиришни назарда тутди. Бу жараёнлар ижтимоий-маданий вазиятларнинг объектив ўзгаришлари билан боғлиқ ҳолда мазкур тизимнинг инновацион фаолиятларга бўлган эҳтиёжини белгилайди.

Таълим тизимини ҳар томонлама ривожлантириш ва янги босқичга олиб чиқиш замон талабига айланган айни даврда, мазкур тизимда хизмат юритаётган ходимларнинг фаолиятини ҳам унга мувофиқлаштириб бориш керак. Таълим муассасаларининг инновацион фаолият олиб бориши, ўз олдида қўйган мақсадига эришиш учун стратегик режа ишлаб чиқишни, белгиланган вазифаларни бажариш ва назоратни амалга ошириш, таълим муассасасининг талаб ва эҳтиёжларини инобатга олиш ҳам раҳбардан ўзига хос масъулиятни талаб этади.

Инновация (инг. innovatsion-янгилик киритиш) - тизимнинг ички тузилишини ўзгартириш демакдир. Инновациялар долзарб аҳамиятли бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлардир. Аломатига кўра инновация - амалиёт ва назариянинг муҳим қисми, ижтимоий-маданий объект сифатларини яхшилашга йўналтирилган ижтимоий субъектларнинг ҳаракат тизимидир. Инновация тегишли ижтимоий тизим тарихи ва анъаналари билан боғлиқ бўлган объектив қонунлар асосида ривожланувчи ҳамда шу тизим таркибини тубдан ўзгартирувчи мажмуавий, ижтимоий-маданий жараёндир.

Инновациянинг мақсади – сарфланган маблағ ёки кучдан энг юқори ва энг самарали натижа олишдан иборат. Бошқа турли-туман, ўз-ўзидан пайдо бўладиган ўзгаришлардан фарқли ўларок, инновация бошқарилувчи ва назорат қилинувчи ўзгаришлар механизмидир. Инновация тушунчаси XX асрнинг 60-йилларида дастлаб АҚШда ва кейинроқ Ғарбий Европа мамлакатларида кенг тарқалди. Бу тушунча ривожланган мамлакатларда кенг маънода “жаҳон бозорида интеллект ва билим асосий маҳсулот ва товар бўлиб қолади” деган формулага асосланади.

Педагогика соҳасига инновация тушунчаси XX асрнинг 80-йилларида кириб келиб, ўқув тарбия жараёнини ва унинг натижаларини яхшилашга хизмат қилувчи янгиликлар тизимини англатади. Педагогик инновациялар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, таълим мазмунининг ривожини учун истиқболли бўлади, шунингдек, умуман таълим тизимининг ривожига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Таълим тизимидаги инновациялар, уларни амалиётга киритиш, инновацион жараёнларни бошқаришни таҳлил қилиш орқали инновацион фаолият тушунчасини таърифлаш имконияти пайдо бўлди.

Инновациялар асосан қуйидаги тартибда пайдо бўлади: инновация манбаи (фан, техника, ишлаб чиқариш, таълим соҳаси), инновацион таклиф (новация, ихтиро, кашфиёт, рационализация), инновацияни руёбга чиқариш буйича фаолият (таълим бериш, татбиқ этиш, амалга ошириш).

Инновациялар долзарб, муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлардир. Улар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, таълим мазмунини ривожлантириш учун истиқболли бўлади, шунингдек, умуман таълим тизими ривожига ижобий таъсир кўрсатади.

Инновация тизимли, яхлит ва давомли бўлади, маълум амалиётда янги фаолият тизимини лойиҳалайди, амалиёт субъектларининг позицияларини тўла янгилайди, фаолиятнинг янги йўналишларини очади, янги технологиялар яратилади, фаолиятнинг янги сифат натижаларига эришилади.

Замон шиддат билан ўзгариб борар экан, таълим соҳаси ҳам у билан баробар ўзгаради ва ўқитувчидан ўз фаолиятини ўзгартиришни талаб этади. Бугун педагогнинг асосий вазифаси фақат таълим беришгина эмас, балки бошқарувчиликдан ҳам иборат бўлиб, у таълим жараёнини тўғри ташкил қилиши ва бошқариши, таълим жараёнига янгиликларни узлуксиз кирита олиши яъни инновацион фаолият юритиши талаб этилмоқда.

Инновацион фаолият - педагогик жамоани ҳаракатга келтирувчи, олға бошловчи, таракқий эттирувчи кучдир. Бу янги ижтимоий талаблар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги ёхуд амалиётнинг янги шаклланаётган мавжуд меъёр билан тўқнашуви натижасида вужудга келган муаммоларни ечишга қаратилган фаолиятдир.

Инновацион фаолият - узлуксиз равишда янгиликлар асосида ишлаш бўлиб, у узок вақт давомида шаклланади ва такомиллашиб боради. Таълим муассасаларида инновацион жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда асосий шахс бу муассаса раҳбари ҳисобланади. Бошқарувчининг вазифаси инновацион жараёни режалаштириш, ташкил этиш, бошқариш, назорат қилиш ва рақобатбардошликни таъминлашдан иборат. Шунингдек, бошқарувчи таълим муассасаси ва ходимлари фаолиятини таҳлил қилиши, самарадорлик даражасини аниқлаши, инновацияни доимий ривожлантириши талаб этилади.

Бугунги кунда ўқитиш ва таълим-тарбия бериш ишига нисбатан шаклланган янгича ёндашувларда инновацион жараёнларни бошқаришга алоҳида аҳамият берилмоқда. Инновацияларни таълим муассасасига киритилиши жараёнидаги раҳбарнинг бошқарув фаолияти мазмуни анъанавий таълим жараёнидаги бошқарувдан бирмунча фарқ қилади. Маълумки, инновацион жараёнларни бошқариш ўзига хос муаммо бўлиб, бу жараёнда раҳбарнинг бошқарув фаолияти алоҳида ўрин эгаллайди.

Таълим тизимидаги инновацион жараёнларни бошқаруви *режалаштириш, ташкил этиш, раҳбарлик* ва *назорат қилиш* сингари тўрт асосий босқичда амалга оширилади. Бу изчиллик раҳбарият томонидан тўлақонли амалга оширилса, инновацияларни таълим жараёнига татбиқ этишдаги мавжуд тўсиқлар муваффақиятли ҳал этилиши мумкин.

Режалаштириш – фаолият кўринишларидан бири бўлиб, таълим стратегияларини аниқлаш, келгусида қандай натижаларга эришиш кўзда тутилаётганлиги, бунинг учун қандай ҳаракатлар, қандай изчилликда ва қайси муддатларда бажарилиши кераклиги яъни нима, қаерда ва қайси тартибда амалга оширилиши лозимлигини белгилаб беради. Фаолиятни режалаштириш келгусида амалга ошириладиган ишнинг мақсади, таркиби, тузилмаси ва бажариш муддатларини белгилаш демакдир.

Педагогларнинг биргаликда самарали ишлашлари учун ким ва қандай ишни бажариши (функционал мажбуриятлари, ҳуқуқлари, жавобгарлиги)ни, бунда ким билан ва қай йўсинда ўзаро муносабатда бўлиш лозимлигини белгилаш (таксимлаш)ни ҳал этиш жараёни ишни *ташкил қилиш* деб аталади.

Режалаштириш ва ташкил қилишни тўғри бажариш туфайли таълим муассасаси жамоасини самарали бирлаштириш имконияти яратилади. Амалиётдан шу нарса маълумки, ўқитувчиларнинг реал бажараётган ишлари уларга қўйилаётган талабларга ҳар доим ҳам мос келавермайди.

Биргаликдаги иш самарали бўлиши учун:

биринчидан, ижрочилар улардан қачон, қандай натижалар кутилаётганлигини яхши тушунишлари;

иккинчидан, улар кутилаётган натижага эришишдан манфаатдор бўлишлари;

учинчидан, улар ўз ишларидан қониқиш ҳосил қилишлари;
тўртинчидан, жамоадаги ижтимоий-психологик муҳит унумли ишлаш учун қулай бўлиши зарур.


Педагогларнинг унумли ишлашдан манфаатдорлиги, ундан қониқишини таъминлаш, жамоада қулай ижтимоий-психологик муҳитни саклаб туриш учун бошқарув субъекти амалга оширадиган ҳатти-ҳаракатлар уйғунлиги *раҳбарлик қилиши* деб аталади.

Биргаликдаги фаолият яхши режалаштирилган ва уюштирилган бўлса ҳам бошқарувчи юз бераётган ўзгаришларга ўз вақтида муносабат билдириши, бунинг учун эса етарли ахборотга эга бўлиши лозим. Бундай ахборотни олиш ва ишнинг боришига тузатиш киритиш зарурлигини аниқлаш учун *назорат қилиши* деб аталадиган махсус бошқарув ҳаракатини амалга ошириш зарур.

Режалаштириш, ташкил этиш, раҳбарлик қилиш ва назорат қилиш мураккаб тузилма бўлиб, у вазиятни таҳлил этиш, прогнозлаш, мақсад куйиш, самарадорликни баҳолаш, иш режасини бирон-бир вариантини танлаш ҳақида қарор қабул қилишни ҳам ўз ичига олади.

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, ҳозирги кунда амалга оширилаётган замонавий ижтимоий-иқтисодий ўзгартиришлар бевосита таълим тизимига ўз таъсирини кўрсатади. Таълимни янгилаш уни демократлаштиришни, ижтимоийлашуви ва инсонпарварлашувини, бошқарувда маъмурий-буйруқбозлик тизимидан воз кечишни, интегратив жараёнларни кучайтириш, таълимнинг ишлаб чиқариш билан алоқасини такомиллаштиришни назарда тутати. Бу жараёнлар ижтимоий-маданий вазиятларнинг объектив ўзгаришлари билан боғлиқ ҳолда мазкур тизимнинг инновацион фаолиятларга бўлган эҳтиёжини белгилайди.

Таълим-тарбия жараёни самарадорлигини таъминлаш йўналишида таълим муассасалари фаолиятида илғор педагогик тажрибалар ва замонавий ахборотлар технологияларидан фойдаланилишини таъминлаш; ДТС талабларини амалиётда қўллаш ва унинг мониторингини олиб боришни ташкил этиш; таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкил этиш, педагог ходимларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш ишларини ташкил этиш; моддий-техник ва замонавий илмий-методик маҳсулотлар билан таъминлаш; таълим муассасаси ва ижтимоий муносабатларда узлуксиз алоқани таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСОВ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Шавкат Турабович Нишанов Заведующий кафедрой
методики обучения языков Регионального центра переподготовки и
повышения квалификации работников народного образования при
Джизакском государственном педагогическом институте

В последние годы всё чаще поднимается вопрос о применении новых информационных технологий в общеобразовательной школе. Это не только новые технические средства, но и новые формы и методы преподавания, новый подход к процессу обучения. Основной целью обучения иностранным языкам является формирование и развитие коммуникативной культуры школьников, обучение практическому овладению иностранным языком.

По мнению Е. С. Полат задача учителя состоит в том, чтобы создать условия практического овладения языком для каждого учащегося, выбрать такие методы обучения, которые позволили бы каждому ученику проявить свою активность, своё творчество. Задача учителя - активизировать познавательную деятельность учащегося в процессе обучения иностранным языкам. Машина может “дружелюбно” общаться с пользователем и в какие-то моменты “поддерживать” его, однако она никогда не проявит признаков раздражительности и не даст почувствовать, что ей стало скучно. В этом смысле применение компьютеров является, возможно, наиболее полезным при индивидуализации определенных аспектов преподавания”. [1.с 15-31]

На уроках английского языка с помощью компьютера можно решать целый ряд дидактических задач: формировать навыки и умения чтения, используя материалы глобальной сети; совершенствовать умения письменной речи школьников; пополнять словарный запас учащихся; формировать у школьников устойчивую мотивацию к изучению английского языка. Таким образом, актуальность данной статьи может быть аргументирована важностью проблемы и в то же время её недостаточной разработанностью для применения в условиях сельской школы.

Основная цель изучения иностранного языка в средней школе - формирование коммуникативной компетенции, все остальные цели (образовательная, воспитательная, развивающая) реализуются в процессе осуществления этой главной цели. Коммуникативный подход подразумевает обучение общению и формирование способности к межкультурному взаимодействию, что является основой функционирования Интернета. Вне общения Интернет не имеет смысла-это международное многонациональное, кросс-культурное общество, чья жизнедеятельность основана на электронном общении миллионов людей во всем мире, говорящих одновременно - самый гигантский по размерам и количеству участников разговор, который когда-либо происходил. Включаясь в него на уроке иностранного языка, мы создаем модель реального общения.

Компьютер лоялен к разнообразию ученических ответов: он не сопровождает работу учащихся хвалебными или порицательными комментариями, что развивает их самостоятельность и создает благоприятную социально-психологическую атмосферу на уроке английского языка, придавая им уверенность в себе, что является немаловажным фактором для развития их индивидуальности.

Развитие образования в наши дни органично связано с повышением уровня его информационного потенциала. Эта характерная черта во многом определяет как направление эволюции самого образования, так и будущее всего общества. Для наиболее успешного ориентирования в мировом информационном пространстве необходимо овладение учащимися информационной культурой, а также компьютерно-экранной культурой, поскольку приоритет в поиске информации все больше и больше отдается Интернет.[2.]

Как информационная система, Интернет предлагает своим пользователям многообразие информации и ресурсов. Базовый набор услуг может включать в себя:

- электронную почту (e-mail);
- телеконференции (usenet);
- видеоконференции;
- возможность публикации собственной информации, создание собственной домашней странички (homepage) и размещение ее на Web-сервере;
- доступ к информационным ресурсам:
 - справочные каталоги (Yahoo!, InfoSeek/UltraSmart, LookSmart, Galaxy);
 - поисковые системы (Alta Vista, HotBob, Open Text, WebCrawler, Excite);
 - разговор в сети (Chat).[3. с33-41]

Эти ресурсы могут быть активно использованы на уроке английского языка.


Овладение коммуникативной и межкультурной компетенцией невозможно без практики общения, и использование ресурсов Интернет на уроке иностранного языка в этом смысле просто незаменимо: виртуальная среда Интернет позволяет выйти за временные и пространственные рамки, предоставляя ее пользователям возможность аутентичного общения с реальными собеседниками на актуальные для обеих сторон темы. Однако нельзя забывать о том, что Интернет - лишь вспомогательное техническое средство обучения, и для достижения оптимальных результатов необходимо грамотно интегрировать его использование в процесс урока.

Список литературы

Азимов Э. Г. «Материалы Интернета на уроках англ. языка» //Иностранные языки в школе 2001 №1 с 15-31

Алтуфьева А. А.. Некоторые основные проблемы создания общего языка общения в системе Интернет <http://linguact.hyperlink.ru/articles/altufjeva.htm>

Варганова И.И. «К проблеме мотивации учебной деятельности» Вестник МГУ Серия 14 Психология 2000 №4 с33-41



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СЛУШАТЕЛЕЙ В ЦЕНТРАХ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

*Ф.Б Нарзикулова. К.психол.н., доцент
РЦППКИППКРНОП САМГУ*

Сегодня нет необходимости говорить много о том, что самый решающий фактор нашего продвижения вперед, обеспечения реализации наших самых заветных целей – это человеческий капитал, это растущее и вступающее в жизнь поколение молодых людей, обладающих современными знаниями и востребованными профессиями, способных взять на себя ответственность за будущее страны. Современный мир стремителен, и в этих условиях учитель должен не только успевать за прогрессом, но и опережать его, используя все доступные технические, информационно-коммуникационные, психологические средства для решения образовательных и воспитательных задач. Сегодня уже мало просто владеть материалом и пересказывать его слушателям, студентам, ученикам, от преподавателя требуется особая энергетика, основанная на собственной убежденности в верности излагаемых идей.

Важным условием эффективности учебно-воспитательного процесса в центрах повышения квалификации, является активное использование современных информационных технологий, которые повышают его привлекательность в глазах слушателей. Здесь открываются новые возможности:

сокращение времени на поиск и доступ к необходимой учебной и научной информации преподавателями и слушателями; - ускорение обновления содержания образования за счет сокращения времени преподавателей на разработку новой учебной и методической литературы; - высвобождения дополнительного времени у слушателей центров повышения квалификации для индивидуальной самостоятельной работы; - ускорение в достижении обучаемыми установленных требований к качеству образования.

Столь же значимой моделью обучения является интерактивный подход, как альтернатива традиционной системе обучения. Интерактив, предоставляет слушателям возможность для самовыражения и самореализации, самостоятельного поиска знаний по конкретной дисциплине. Сущность интерактивного обучения заключается в максимально разностороннем характере деятельности слушателей, а именно: физической (слушатели меняют рабочее место, говорят, слушают, записывают, выполняют какую-либо творческую работу); социальной (обсуждают, задают вопросы и отвечают на них, делятся впечатлениями, опытом собственной социализации); информационно-познавательной деятельностью (узнают, изучают, самостоятельно находят необходимые сведения и др.)

В условиях динамично развивающихся информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), когда компьютерная техника используется практически во всех отраслях человеческой деятельности, актуализируется проблема интеграции информатики, как учебной дисциплины с другими предметами, и их использования для усиления межпредметных связей, способствующих восприятию целостной картины мира.


Современное общество нуждается в педагоге, способном к восприятию новых идей, к активному участию в инновационных процессах. Одна из ведущих тенденций мировых образовательных систем - гармоничное соединение, а точнее «сплав» профессиональной деятельности в любой отрасли знаний, с научно-исследовательской работой. Вывод напрашивается сам собой: каков учитель, – таков и ученик. Это две открытые, взаимодополняющие системы воздействия друг на друга. Взаимопонимание учителя и ученика – путь к взаимодействию в учебно-воспитательном процессе. Именно синтез личностно-деловых качеств, профессиональный компетентности педагога и общей гуманитарной культуры позволяет учителю изучать личность ученика, диагностировать уровень развития обучаемых, понимать их, вводить в мир духовных ценностей, формировать социально-ценностные ориентации. Истинный смысл интерактивного обучения – взаимодействия друг с другом всех участников образовательного процесса, работа вместе, параллельно и сообща, что позволяет повысить качество выполняемых заданий и объективно оценивать действия своих партнеров и свое собственное поведение.

Проблема особой значимости на сегодняшний день, это создание интегративных методик обучения по всем направлениям, базирующейся на:

целостности личности слушателя, его особенностей, обусловленных индивидуальными (психологическими, биологическими), социальными и педагогическими факторами; взаимосвязи и взаимообусловленности знаний, умений и навыков тех же слушателей в межпредметных связях;

соответствие содержания возрастным особенностям слушателей, расширяющего их профессиональный опыт, кругозор, формирующего мировоззрения.

И в заключении хотелось бы отметить, что инновационные процессы не могут и не должны быть конечны. Каждый новый день выдвигает новые требования к модели специалиста и личности, с учетом развития наук, в том числе такой науки, как психология. Поэтому наша задача – опираясь на весь предыдущий опыт развития педагогической и психологической мысли, постоянно двигаться вперед, научно обосновывая и внедряя новые технологии обучения и воспитания слушателей центров повышения квалификации и обеспечивая всем субъектам образовательного процесса, как преподавателям, так и слушателям центров повышения квалификации, возможность роста их творческого инновационного потенциала.



ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ЖОРИЙ ЭТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.

*Кибриё Ҳасанова, СамДУ профессори
Нафиса Жамалова СамДУ магистри*

Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан 2018 йилни “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб қувватлаш йили” деб белгиланиш теран маъно бор. Чунки глобаллашув ва модернизация давр талаби бўлиб, унда таълим-тарбия жараёнини такомиллаштириш, янги инновацион ғояларни татбиқ этиш барча босқичлардан таълим муассасаларининг долзарб вазифасига айланди. Шунинг учун узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, барча таълим тарбия муассасаларининг моддий-техник базасани янгилаш, дарс жараёнларини тубдан ўзгартиришнинг инновацион методларни ишлаб чиқиш, лойиҳалар яратиш орқали педагогик фаолиятни юқори савияга кўтариш асосий мақсад ҳисобланади. Хусусан, долзарб муаммо шундан иборатки, метод ва методикани ўрнини энди замон талаби бўлмиш “технология”, “тарбия технологияси” тушунчалари эгаллаб олди.

“Тарбия технологияси”, “янги педагогик технологиялар”, “инновация” ва “интеграция” каби тушунчалар таълим-тарбия жараёнини таркибий қисмига айланди. Тарбия технологиясининг мақсад моҳияти туфайли янги замонавий педагог шаклланиб давр талаби билан салоҳияти ошиб бормоқда. Миллий қадриятлар асосда ахлоқий тарбия, бериш, инсоннинг ички маданий дунёси шахс сифатида шаклланишига, жамиятга, тарбияга, бошқа одамларга, ўзига нисбатан ривожланишига туртки бўлади.

Тарбия технологиясининг мақсадига эришиш учун аввало ўқитувчи шахсияти, намунаси катта роль ўйнайди. Ҳақиқат шундан иборатки, кўпинча, кичик ёшдаги мактаб ўқувчилари ўқитувчини ҳаёт раҳнамоси деб қабул қилади. Ўқитувчи ўзининг билим даражаси, ички маънавий бойлиги, ҳаққонийлиги, объективлиги, талабчанлиги ва ижодкорлиги билан фарқланиши лозим. Болаларни порлоқ келажак ҳаётга тайёрлаш учун, буюк ғояларга ишониши ва уларни яшириниб турган иқтидорини юзага чиқариш учун янги – янги технологиялардан, инновацион методлар, турли туман дидактик ўйинлардан фойдаланиб, болаларни қизиқшини ривожлантириши ҳаёт ва табиат қонунларини тушунишига ёрдам бериши лозим. Ижодий топшириқлар тузиб, баҳсу-мунозара, танқидий фикрлар билдириши, аниқлик киритиши, таҳлиллар қилиш натижасида, болалар ўзини жамиятимизнинг бир бўлаги эканлигини ҳис этишсин ва йиллар давомида ривожланиб келаётган жамиятимизни янада гуллаб яшнаши учун қандай ўз ҳиссамизни қўшишимиз мумкин деган масаласи уларга тинчлик бермасин.

Яшаш сирларини ўрганиш, менинг фикримча, албатта, илк болалик йилларидан бошланса керак. Ҳозир болалар интеллект жуда ривожланган, катталарга қараганда, болалар интернет хабарларини жуда тез тушуниб, англаб олишади. Демак, тараққиётнинг ҳам илмий, амалий, технологик чўққиларни эгаллаш учун уларнинг имкониятлари катта. Фақат болаларимизга тўғри йўл танлай олиш, ҳаётда ўз ўринларини топиб олиш йўлларини тушунтириш, ўргатиш лозим. Уларни қизиқишлари доирасини белгилаб бериш имкониятини ўйлаб олиш керак, токи болалар

тўғри объектлар тамон интилсин ва маълумотларни ўзлаштириши жараёнида адашмасин. Кўнглида уйғонган орзу ҳаваслар, унга албатта ташаббусни, ҳаракатни, изланишни, ўрганишни талаб қилади. Ҳаёт мураккаб жараён ва олинган билимлар, натижаларни ҳаётда қўллай билиш, жуда нозик муомала муносабатда амалга ошади.


Шунинг учун, болаларни аввало 3 ёшлигидан бошлаб, қайси йўналишларга қизиқтиришларини инобатга олиб, уларнинг ижодкорлик фаолиятини аниқлаш, ривожлантириш учун маълум даражада шароит яратиш бериш керак. Айнан шу мақсадда, болаларнинг ижодий истеъдодини намоён этиш учун қуйидаги шарт шароитларни яратиш лозим, деб ўйлаймиз:

а) болани ўйинчоқлар билан эркин ижодий ёндашиб ўйнаши учун, унинг ёши ва индивидуал хусусиятини ҳисобга олган ҳолда, тоза озода, осойишта, тинч-тотув, меҳрли, шодиёна муҳит яратиш бериш лозим. Чунки биз тарих саҳифаларидан шуни биламизки жуда кўп буюк алломаларимизнинг болалик даврларида, уларнинг оилаларида шоирлар, ёзувчилар, алломалар тўпланиб бир пиёла чой атрофида шеърхонлик, баҳсу мунозара ва илмий кашфиётлар масалалари муҳокама этилган. Ёш йигитлар уларга чой дамлаб, хизматда бўлиб, мажлис аҳлининг суҳбатларидан баҳраманд бўлишган. Шунда, олимлар, шоирлар, ёзувчиларга ҳавас билан тақлид қилиб, болалари улардай бўлишини орзу қилишган ва орзуларнинг ушалиши учун ҳаракат қилиб, ўқишга қизиқишган, касбу ҳунар эгаллашга интилиб, меҳнат қилганлар, ташаббускорлик билан фаолият кўрсатишган;

б) болаларга меҳр билан бажарган вазифаларини, ишини натижасини, фаолликни роҳатини англашни ўргатсак, уларнинг истеъдодини ривожланишига асосий манба бўлиши мумкин. Тарбия назариясининг ақлий, ахлоқий, жисмоний, меҳнат, иқтисодий, экологик, ҳуқуқий ва бошқа таркибий қисмларини биламиз. Шу тарбиянинг таркибий қисмлари амалиётини бажарган ишига ижодий муносабатда бўлиш натижасида ўзининг фаолиятдан хурсанд бўлиб, роҳатланса, келажак ҳаётда масъулиятли, қатъиятли, сабрли, иродаси кучли бўлиб, муаммоларни моҳиятини тезда тушуниб, енгил ечилишига эришади. Албатта, мазкур муваффақиятларга эришиш учун мактабгача таълим муассасалари тарбиячилари ва бошланғич таълим йўналиши ўқитувчиларининг зиммасига юқорида келтирилган педагогик-психологик шарт-шароитларни яратиш вазифаси юклатилади. Таълим жараёнини янгиланиши, инновацион технологияларни қўллаш натижасида оилавий тарбиядан бошлаб, мактабгача, умумий ўрта таълим, касб-ҳунар ва олий таълимда, айниқса ўқитувчиларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институтларида “Илғор таълим тарбия технологиялари ва жаҳон тажрибаси модулини ўқитишда тингловчиларга мазкур илмий- амалий маълумотларга жиддий эътибор бериб, улардан унумли фойдаланиш тавсия этилади. Бу вазифаларни юқори савияда бажариш, таъсирчанлигини янада юксак бўлиши учун, албатта ўқитувчининг ўқувчилар олдидаги обрўси, шахсий умуминсоний фазилатлари ва илмий истеъдодни мавжудлиги, болаларни кўнглига йўл топиб меҳр бера олиш қобилияти бўлганлиги катта аҳамиятга эгадир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 Ҳаракатлар стратегияси. Т.: Адолат 2017
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. //Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент; “Шарқ”, 1997, 20-29 бетлар.
3. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Т.: Истиқлол, 2003. – 176 б.
4. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм: Педагогика назарияси. (М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар) –Т.: “ЎҚИСОД-МОЛІҲА”, 2007.–380 б.
5. Таълимда илғор хорижий тажрибалар. Ўқув услубий мажмуа 2017. ТДПУ ҳузуридаги ПХҚТВУМОТМ



ИЖТИМОЙ ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛИ ДАРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Отабек Бакиров ЖДПИ ҳузуридаги
ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси*

Маълумки, ҳар қандай технология таълимнинг янги мазмунини шакллантирувчи таълим тамойилларига асосланади ва таълим олувчи шахсини тарбиялаш, унда меҳнат ва муайян

йўналишларда касбий кўникмаларни ҳосил қилишга йўналтирилади. Таълим жараёнини фаоллаштириш ва жадаллаштиришга йўналтирилган педагогик технологиялар таълим олувчиларга қаратилади, шунингдек, уларнинг шахсий ва ўқитувчи билан биргаликдаги фаолиятини ҳисобга олган ҳолда ўқув материални ўзлаштиришга шароит яратади, таълим-тарбияси бутун машғулот давомида ўқувчиларнинг фаоллиги ва қизиқувчанлигини мунтазам равишда ривожлантириб бориш мақсадини кўзда тутаяди, ўқув омилларини яратишга асосланган педагогик технология талабларини ўқув ёки ишлаб чиқариш фаолиятига тезкор жалб қилиш имконини беради. Акс ҳолда, заиф, етарли даражада тушунарли бўлмаган ёки аниқ натижани кўзланмаган топшириқлар машғулотнинг самарасиз яқунланишига олиб келиши мумкин.

Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамалакатларда ўқувчиларнинг ўқув ва ижодий фаолликларини оширувчи ҳамда таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини кафолатловчи педагогик технологияларни қўллаш борасида катта тажриба қўлланган бўлиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи технологияларни амалиётга кенг жорий этиш даркор. Ана шундай технологиялардан бири дидактик ўйинли технологиялар ҳам таълимда ўқувчиларнинг ўзлаштириш сифат самарадорлиги учун хизмат қилмоқда.

Маълумки, ўқувчиларнинг билиш фаолияти ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар дидактик ўйинли дарслар дейилади [1]. Дидактик ўйинли технологиялар ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини ўйин фаолияти билан қўшиб олиш боришдан иборат. Дидактик ўйинлар мусобақа, рақобат, ўзаро ёрдам, ҳамкорлик тарзида олиб борилади. Бунинг учун ўқитувчи дидактик ўйиндан кўзда тутилган мақсад, уни амалга ошириш йўллари, ўйин мазмуни ва иштирокчилари фаолиятини аниқлаб олади. Дидактик ўйин дарслари таълим ва тарбия бериш, ўқувчилар фаолиятини йўналтириш, касбга йўналтириш, ўқувчиларнинг мулоқат ва нутқ маданиятини ривожлантириш, улар билимларини чуқурлаштириш ва шахсни ривожлантириш вазифасини бажаради [2].

Биз қуйида Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият– энгилмас куч” асарини ўрганишда “Гроссмейстер” дидактик ўйинини ишлаб чиқдик. “Гроссмейстер”-сўзи немисча сўздан олинган бўлиб, “буюк магистр”, “катта уста” маъносини англатади. Бу ўйин қуйидаги тартибда амалга оширилади.

1-босқич. Ўқувчилар рангли карточкалар орқали 5 та гуруҳга бўлинишади, ўқитувчи ўйин тартибини эълон қилади ва доскага 5 бўлим бўйича саволларни жойлаштиради ҳамда баҳолаш тартиби билан таништиради. 1–2- саволлар содда саволлар бўлиб, кўк карточка билан рағбатлантирилади. 3–5- саволлар мураккаб саволлар ҳисобланиб, яшил карточка билан баҳоланади. Карточкаларнинг олди томонида савол рақами орқа томонида эса, савол ёзилган бўлади.

3-босқич. Гуруҳлар билан келишган ҳолда бир бўлим саволлари четга олиб қўйилади. Бу бўлим саволлари ғолиб гуруҳ билан ўйналади.

4-босқич. Савол танлаш ҳуқуқини олиш учун гуруҳларга ўқитувчи бир савол билан мурожаат қилади. (Масалан, Милетлик файласуф Фалес 3 та ўзига хос томонлар билан дунёга келганлигидан фахрланар экан. Булар нималар? Жавоб:1-ҳайвон эмас одам бўлиб дунёга келганлигидан, 2-аёл эмас эркак бўлиб дунёга келганлигидан, 3-варвар эмас, юнон бўлиб дунёга келганидан) Саволга жавоб топган гуруҳ савол танлаш ҳуқуқига эга бўлади ва ўйин бошланади.

5-босқич. Ўйин давомида тўпланган карточкалар орқали ғолиб гуруҳ аниқланади ва шу гуруҳ билан четга олиб қўйилган бўлим саволлари ўйналади. Бунда мағлуб гуруҳлар ўйиндан четлатилмайди. Улар фақатгина ғолиб гуруҳ саволга жавоб берганидан сўнг жавоб бериш ҳуқуқига эга бўлади.

6-босқич. Мутлоқ ғолиб гуруҳ аниқланади ва уларга “гроссмейстер” мақоми берилади ва рағбатлантирилади.

Саволлар

1-бўлим. Тил ва адабиёт

1. Давлат тилининг ҳуқуқий мақоми қачон мустақамланган? (1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида

4-модда. Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ўзбек тилидир)

2. “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида бир асарга нибатан шундай эътироф келтирилади: “Улар оилада энг кичик фарзандларига ҳам “сиз” деб мурожаат қилишади”. Бу қайси асар? (Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” асари)

2-бўлим. Тарих ва дин

1. “Мусулмонларнинг эътиқодини тузатувчи” деган юксак унвонга сазовор

бўлган аллома? (Мотурудий)

2. “Дин ва миллатнинг хужжати” деган юксак унвонга сазовор бўлган аллома? (Бурхониддин Марғиноний)

3. АЙСЕСКО қанақа ташкилот? (Ислом конференцияси ташкилотининг Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилот) [2].

3-бўлим. Файласуфларнинг маънавият борасидаги қарашлари

1. “Шамчироқ ёнишдан тўхтамас экан — сен тириксан. Агар у ўчса — сен ҳалок бўласан”- дейди Ибн Сино. Бунда шамчироқ нимага, шамчироқ ёғдуси нимага, шамчироқ мойи нимага ўхшатишган? (Шамчироқ-руҳ, шамчироқ ёғдуси-билим, шамчироқ мойи-Аллоҳ закоси)

2. Абу Али Ибн Сино шундай дейди: “Ҳақимнинг уч қуроли бўлмоғи лозим”. Булар қайсилар? (сўз, гиёҳ ва тиғ)

Ҳуқуқ асослари

1. Инсоннинг энг устувор ва муқаддас ҳуқуқи... (тинч ва осойишта яшаш ҳуқуқи)

2. Ислом Абдуғаниевич Каримов Ўзбекистон раҳбари сифатида қачон иш фаолиятини бошлаган? (1989 йил 23 июн)


Бугунги кунда амалий машғулот дарсларида қўлланиб келинаётган ушбу дидактик ўйин тингловчиларни таълим жараёнида фаол иштирокини таъминлаш билан бирга уларни мустақил ва тезкор фикрлашга ҳамда мавзуга оид маълумотларни жадаллик билан ўзлаштиришга хизмат қилмоқда.

Адабиётлар:

1. Колеченко А. Е. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. — СПб.: КАРО, 2002 г.

2. Республика таълим маркази. Таълим жараёнини фаоллаштириш ва жадаллаштиришга йўналтирилган педагогик технологиялар. Услубий тавсиянома..Т.2014

3. Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият”, 2008. __



ТА’ЛИМ-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI

G'.Boboqulov – SamDU o‘qituvchisi

U.Artikova- Samarqand oziq-ovqat kasb-hunar kolleji

Yosh avlodni zamon talablari darajasida o‘qitish kelajakda barkamol inson, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdek murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan o‘qituvchining g‘oyaviy e‘tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligi, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishi va boshqarishiga bog‘liqdir.

Pedagogik texnologiya o‘z tizimiga ega bo‘lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o‘zaro bog‘liqligi, bir butunligi saqlanadi. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta’limda kutilgan natijalarga erishiladi, vaqt tejiladi. Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi ishlangan model boshqa pedagoglar qo‘llaganda ham xuddi shunday samara, natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta’lim samarali yangi bosqichga ko‘tariladi; ya’ni

- o‘quvchining talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o‘quvchining o‘quv mehnatiga mas’uliyati, javobgarligi burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- unda umr bo‘yi o‘z bilimini o‘ziga boyitishiga ishonch paydo bo‘ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs sifatida jamiyatda o‘zining o‘rnini tezroq topib olishga muhit yaratiladi.

O‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish ob’ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo‘nalishi bilan belgilanishi tan olgan holda pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog‘liq vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- istiqbolli o‘qitish va tarbiyalash vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarali aniqlash;

- pedagog–o‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalar bo‘yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish;
- ilg‘or o‘qituvchilar va pedagoglar ish tajribalari va usullarini o‘rganib borish, ular yaratgan yangi metodikalarni yangi pedagogik texnologiyalar darajasiga ko‘tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunday natijalarga erishish uchun o‘qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda o‘quv- tarbiya jarayonini samarali boshqarishga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Demak, pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub‘ktiv xususiyatga ega, ya‘ni har bir pedagog o‘quv-tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy va samarali tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat‘iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va o‘qituvchilar orasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv fanlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta‘minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilishidan iboratdir.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida yangicha pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o‘quvchi shaxsiga tabaqalashgan yondashuv, ya‘ni o‘quv-jarayonini individuallashtirish tamoyilini ro‘yobga chiqirish asosida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda:

- har bir o‘quvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, tanlagan yo‘nalishlari, shaxsiy sifatleri, aqliy intellektual xususiyatlarini aniqlash;
- har bir o‘quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o‘quv topshiriqlarini tayyorlash;
- o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishning muhim jihati sifatida fan o‘qituvchilarning bilim, malaka, kasb-mahorati doirasida zamon talablariga muvofiq faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlovchi uzluksiz metodik xizmatni vujudga keltirish zarur.

INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

F.Normaxmatova SamDU huzuridagi XTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedراسi o‘qituvchisi
N.Daniyarova Samarqand Huquqshunoslik kolleji ingliz tili o‘qituvchisi

Xalqimiz “Til bilgan – el biladi” maqolini bejiz yaratmagan. Ota-bobolarimiz qadim-qadimdan boshqa chet tillarini o‘rganishga intilib kelgan. O‘rta asrlarda Abu Nasr Forobiy hazratlari 70 dan ortiq tilni o‘rganganligi bizga ma‘lum. Biror bir xorijiy tilni bilgan kishi shu xalqning urf-odati, an‘anasi haqida taassurotga ega bo‘ladi. O‘sha xalqdagi yangicha o‘zgarishlarni o‘z xalqiga yetkazadi. O‘z xalqining rivojlanishiga, taraqqiy etishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu an‘ana bugungi kunda ham davom etmoqda. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabr “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarga erkin so‘zlashadigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Dars jarayonida har xil pedagogik texnologiyalarlar va interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchining zimmasiga yuklatildi. Bu esa o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishda qiziqishini yanada orttirishga xizmat qiladi. Darslarda o‘quvchilarga faqat yozdirish va o‘qitish bilan cheklanmay, ingliz tilida gapirish, tinglash, yozish va o‘qish malakalarini shakllantiruvchi mashqlar, audiolar, matnlar berilishi talab qilinmoqda. Bu metodlardan tashqari o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida turli didaktik o‘yinlar tashkillashtirish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, ajdodlarimiz hayoti va ijodiga oid rasmlar, rivoyatlar orqali hikoya tuzish, hikoyani davom ettirish kabi topshiriqlardan foydalanilsa, o‘quvchilarda kommunikativ hamda umum madaniy kompetensiyalar shakllantiriladi. Rasmlar orqali o‘quvchilarning ingliz tilidagi og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishda foydalanish samarali natija beradi.

O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan rasmlardagi voqealarning ketma-ketligini tartibga solib, voqealarni ingliz tili grammatik qoidalarga asoslangan holda tarjima qiladilar. Rasmlardagi tasvirlangan voqealarni harakatiga qarab qaysi zamondan foydalanish mumkinligini mustaqil

aniqlaydilar. Masalan; hozirgi, o'tgan va kelasi (davom) zamonlarda gap tuzish, qaysi modal fe'llardan foydalanish, so'z turkumlari asosida hikoya va dialoglar tuzish, obrazlarga nom berish kabilarni amalga oshiradilar. O'quvchilar hikoya tuzishga qiziqib bitta yoki undan ortiq grammatik mavzularda yoritib, rasmdagi detallar nomlari, harakat belgilari, sinonim-antonim so'zlardan foydalanish malakasi, o'zlarining bilim saviyasidan kelib chiqqan holda tuzadilar. Har qanday hikoyani so'zlarda jonlantirish o'quvchilarni faol qatnashishga, fantaziya qilish, qaysi so'z turkumlaridan foydalansa, qiziqarli bo'lishini fikrlashga undaydi. Qanday qilib qiziqarli hikoya tuzishni, so'zlar tartibini xayolan tasavvur qilishni hamda bog'lab ketishni amalda qo'llaydilar. Tuzayotgan hikoyasidagi detallarni avval ingliz tilidagi nomlari, keyin esa shu so'zlar asosida iboralarni ingliz tili so'z tartibida hikoyani zanjir shaklida bayon etadilar. Bu jarayonda rasmlardagi voqealarni sodda dialoglar asosida juftliklarda yoritib berish tasavvuri uyg'onadi va o'zlarining qarashlarini ingliz tilida tasvirlashga harakat qiladilar. Savollar tuzib kerakli javoblarni ishlab chiqadilar.

O'quvchilar faolligini oshirishda rollarga bo'lib voqeani tasvirlash, yoritib berish orqali yangi fikrlar, yangi g'oyalar yaratiladi. Amaliy bajarishda o'quvchilarda bilimlar mustahkamlanib, nutqiy ko'nikma va malaka shakllanib boradi. Bundan tashqari sodda so'zlardan foydalangan o'quvchi keyinchalik shu so'zlarning ma'nodoshlarini ishlatadi va mustaqil matn, insho yaratish malakasi asta-sekin shakllanib boradi. O'quvchilar guruh-guruh bo'lib ishlaganda ularning o'zaro hamjihatligi ortadi; bir-birining fikrini tinglash, guruhlar uchun yangi sardorlar tanlash, yangi-yangi g'oyalarni o'sishiga olib keladi. Jamoada o'zaro hurmat va bilimlar almashinuvi, yangi ko'nikmalar shakllanishiga olib keladi.

Ingliz tili darslarida audiolardan foydalanib ham o'quvchilar faollashuvini oshirish mumkin. Jumladan, o'quvchilar bir-birining tuzgan hikoyalarini audio yoki video orqali diqqat bilan tinglab, o'zlarining kamchiliklarini topadilar. Shu bilan birgalikda audio dialoglar va uning tarjimalaridan foydalanish orqali ham o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishini qulaylashtirish mumkin.

Ingliz tili darslarida maqollardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Dars jarayonida mavzuga oid maqollarni tanlash va bu maqollarni berilgan topshiriq asosida bajarish o'quvchining ijodiy tushunchasi, intuitiv rivoji, sezgirligi va ingliz tilidagi so'zlarni esda saqlashi va og'zaki nutqi rivojlanadi. Masalan, "Sports and games", "Healthy life" mavzulariga "Good health is above wealth", "Good health is better than the best medicine", "Ecology", "Uzbekistan", "My working day" mavzulariga "Every bird likes its nest", "What is tasty is not healthy", "East or West home is best", "Lost time is never found again" kabi maqollarni darslarning kirish qismida tegishli maqolni tanlash va shu maqollar ustida ishlash yaxshi samara beradi. Bu maqollarni har xil usullarda qo'llash mumkin. Masalan maqoldagi so'zlarni aralash tarzda beriladi va ular tartib bilan teriladi. Ingliz tilida bu usul "Scrambled words" deb yuritiladi. Misol uchun "No place like home", "Two heads are better than one."

like no home place

than two better heads are one

Birinchi ustundagi maqollarni ikkinchi ustuni orqali to'ldirish usuli ham yaxshi samara beradi. Bu ingliz tilida "Matching" usuli deb yuritiladi. Bu usulning bir necha xil ko'rinishlari mavjud. So'zlar va ularning izohlari, sinonim so'zlar, antonim so'zlar, rasmlar va rasmlarni ifodalovchi so'zlar bir-birlari bilan taqqoslanib o'rganilishi mumkin.

Lost time.... a) will clutch at a straw

An apple a day ... b) louder than words

Actions speak c) without fire

There is no smoke... d) is never found again

A drowning man e) the doctor keeps away

Shu kabi topshiriqlar o'quvchilarni fikr yuritishga, maqolni esda saqlashga yordam beradi. Hozirgi davr talabi ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish malakasini shakllantirishga undaydi.

Kichkina sandiqchaga mashhur kishilarning hikmatli so'zlari va maqollar qog'ozlarga yozib tashlanadi. O'quvchilar birin-ketin sandiqchadagi maqollarni olib uni o'qib tarjima qilishadi yoki ma'nosini aytib beradi. Bu usul o'qish va gapirish malakasini shakllantiradi.

Masalan:

"Respect yourself, or no one else will respect you."

"Rome is not built a day."


"Doing better than saying."

"Ask no questions and hear no lies".

"Bad news travels fast".

"Do as I say, not as I do".

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatimizda mustaqil fikrlaydigan o'qimishli ijodkor yoshlar kerak. Bu ko'nikmalarni esa ularda bolalikning ilk davrlaridan boshlab shakllantirish lozim. Ingliz tili darslarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni o'z ustida ishlash, olayotdan bilimlarning kashfiyotchilari bo'lish o'zlariga bo'lgan ishonchning shakllanishiga imkoniyat yaratadi.



ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

И.Б.Аминов Самарқанд давлат университети, доцент
Т.Оқназаров. Самарқанд ДХХТЧҚТМОҲМ ўқитувчиси
Ф.Тўғизбоев Самарқанд давлат чет тиллар академик лицей ўқитувчиси

Таълим-тарбия жараёнида янги ахборот технологияларини жорий этиш тараққиётимизнинг асосий тармоқларидан бири бўлган таълим жараёнининг жадал ривожланиб боришидаги ўрни ва самарадорлиги бекиёсдир, чунки иқтидорли, мустақил, ўзига ишонч-эътиқодли ўқувчиларга билим бериш, уларни тарбиялаш, касб-ҳунарга йўналтириш ва замон талабига мос ҳар томонлама маънавий-маърифий билимга эга етук инсонлар қилиб тайёрлашда таълим-тарбия тизими муҳим асос бўлиб, унда ўқувчиларга таълим-тарбия бериш жараёнини ахборот технологиялари асосида ташкил-лаштириш ҳамда улардан самарали фойдаланиш энг муҳим мавзулардан бири бўлиб ҳисобланади.

Ахборот-коммуникацион технологиялари асосида таълим-тарбия жараёнини ташкил этишдан асосий мақсад ўқувчиларнинг фундаментал билим, кўникма ва малакаларни, маҳоратини, иқтидорини, мустақил фикр-лаш фаолиятини шакллантиришдан иборат бўлиши ва қуйидаги асосий талабларга жавоб бера олиши лозим:

фаннинг илғор ютуқлари, педагогик ва ахборот технологиялардан фойдаланиш, дарсни ўқув-тарбиявий жараёнининг замонавий қонуниятлари асосида ташкил этиш;

дарсда педагогик ва ахборот технологиялар ёрдамида барча дидактик тамойил ва қоидаларнинг оптимал нисбатларини таъминлаш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида ўқувчиларнинг қизиқишлари, лаёқати ва талабларини ҳисобга олиш асосида улар томонидан

билимларнинг пухта ўзлаштирилиши учун зарур шарт шароитларни яратиш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида ўқувчилар англаб етадиган фанлараро боғлиқликларни ўрнатиш;

илгари ўрганилган билим ва малакалари, шунингдек, ўқувчиларнинг

ривожланиш даражасига таяниш;

ахборот-коммуникацион технологиялари шахснинг ҳар томонлама ривожлантиришни мотивациялаш ва фаоллаштириш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида ўқув-тарбиявий фаолиятнинг барча босқичлари мантиқийлиги ва эмоционаллигини ошириш;

ахборот-коммуникацион технологиялари воситаларидан самарали фойдаланиш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида зарур билим, кўникма ва малакалар, фикрлаш ва фаолият рационал усулларини шакллантириш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида мавжуд билимларни доимо бойитиб бориш эҳтиёжини юзага келтириш;

ахборот-коммуникацион технологиялар асосида ҳар бир машғулотни пухта лойиҳалаштириш, режалаштириш, ташхис ва тахмин қилиш.

Ахборот-коммуникацион технологиялари асосида умумтаълим мактабларида таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширишда қуйидаги шарт шароитлар бўлиш керак:

ўқувчиларни мустақил ишлаш ва фикрлашга тайёргарлиги;

эгаллаган билимлар мотивацияси ва касбий фаолият кўникмаларини эгаллаши;

барча керакли ўқув-методик қўлланмалар ва маълумотларнинг мавжудлиги ва улардан фойдаланиш имкониятини мавжудлиги;

таълим-тарбия жараёнида режалаштирилган ишларнинг бажарилганлигини мунтазам назорат қилиб борувчи ахборот тизимининг мавжудлиги ва

фаолият кўрсатиши.

Ҳозирги кунда барча таълим муассасалари замонавий компьютер ва ахборот технологиялари воситалари билан жиҳозланмоқда. Бу эса, ўқитувчи-педагогларнинг ўз меҳнати фаолиятига янги ёндашувини, дарс бериш жараёнида замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш зарурлигини талаб этади. Ўқув жараёнида янги компьютер ва ахборот технологияларнинг жорий этилиши, ўқитувчиларнинг техникавий воситалардан фойдаланиш малака ва кўникмаларини шакллантириш билан бирга уларнинг дарс жараёнидаги ўрни, вазифалари ва ролини ўзгартиради.

Замонавий компьютерларнинг пайдо бўлиши ва улардан таълим-тарбия тизимида кенг фойдаланиш унинг имкониятларини тубдан ўзгартирди, яъни. таълим дастурлари билан таъминланган компьютерларни деярли барча дидактик масалаларни, шу жумладан ахборотни йиғиш, сақлаш ва узатиш, ўқув-тарбиявий жараёнини бошқариш, ўқувчилар билимини назорат ва таҳлил қилиш, машқларни бажариш, ўқув жараёнини ривожланиши ҳақида маълумотларни тўплаш каби бошқа масалаларни ҳал этишда татбиқ этиш мумкин.

Замонавий ахборот – коммуникацион технологияларидан фойдаланиш таълим-тарбия тизимининг қуйидаги асосий йўналишларини аниқлашга имкон беради:

таълим тизимида ўқитиладиган барча фанлар бўйича ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини аниқлаш, таҳлил ва баҳорат қилишни таъминлаш;

таълим-тарбия тизимида ўқувчиларнинг қобилияти, иқтидори, муста-қил фикрлаш, коммуникатив малакаларни, фанлар бўйича билим эгаллашни ривожлантириш ва шакллантиришга имкон берувчи жараёнларга эътиборни кучайтириш;

ўқувчилар билимини назорат қилиш учун автоматлаштирилган тест синовлари ўтказиш, баҳолаш ва бошқаришда кенг фойдаланиш.

ўқувчиларда ижодий ишлашга бўлган қизиқиш ва интилишни шакллантириш.

Шу билан бирга таълим муассасаларида ахборот технологияларини жорий қилиш, дарсларни янги интерфаол усул ва ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланган ҳолда ўтказиш, жумладан, мультимедиа, масофадан ўқитиш, Интернет технологияларидан фойдаланиш, компьютер-лаштирилган анжуманлар ўтказиш, мультимедиа элекрон қўлланма ва дарсликларни яратиш ва уларни назарий ҳамда амалий машғулотларда қўллаш шак-шубҳасиз ўз самарасини беради.

О‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA MOTIVATSIYALASHNING O‘RNI

*M.Ochilova -Nurobod tuman 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Ch. Abduraxmonova - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM o'qituvchisi*

Bizga ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, o'quv faoliyatini samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda O'zbekistonda bilimli, malakali kadrlar tayyorlash, davr talablariga javob bera oladigan pedagoglarni yetishtirib berish bugungi kun talabidir.

Har bir jamiyatning, davlatning kelajagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Davlatimiz kelajagi va uning ravnaqi dastavval, ilm-fan taraqqiyoti hamda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi va takomillanishi bilan belgilanadi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning bosh maqsadi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yuksak ma'naviy axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda milliy tizimni yaratishdir. Ayniqsa, hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yangicha fikrlaydigan, zamonaviy fikrlarga ega bo'lgan, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash masalasidir.

Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqida: “Zamonaviy ta'lim – tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizni bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor”, - deya ta'kidlagan.

Kasbiy ko'nikma va malaka, eng avvalo, har bir pedagog xodimning o'zi tomonidan oshirib boriladi. Jamiyat taraqqiyoti uchun munosib xizmat qila oladigan kadrlar tayyorlash masalasi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, yosh kadrlarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik – psixologik adabiyotlarda motivatsiya tushunchasi “harakat qilishga undovchi sabablar” sifatida ta’riflanadi. Ular kishining shaxsiy ehtiyojlariga bog’liq bo’lib, mazkur ehtiyojlarining qondirilmasligi keskinlik holatiga olib keladi va tezkor yechimni talab qiladi.

Motivatsiya o’rganish uchun asosiy shart-sharoit hisoblanadi. Chunki, o’qish jarayonida o’rganishga nisbatan qarama–qarshiliklar kelib chiqadi. O’qishga bo’lgan motivatsiya o’rganish sifati va miqdoriga kuchli ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. U motivning mavjudligi va shaxsiy erishish uchun o’z energiyasini safarbar qilishni ko’zda tutadi.

O’qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiruvchi motivlar o’qituvchining individual shaxsiy psixologik dunyoqarashidan kelib chiqib, uning ichki ehtiyojlariga bog’liq bo’ladigan holda namoyon bo’ladi. Ko’p hollarda kasbiy mahoratni oshiruvchi motivlar o’zini ustida ishlash va obro’ga ega bo’lishlik, ya’ni mustaqil irodasi bilan obro’ orttirish o’quvchanligidir. O’z ustida ishlash, o’rganish jarayonida kognetiv, psixomotorik va affektiv o’rganish sohalari farqlanadi. Kognetiv sohaga qarashli bilimlarni “Blum taksanomiyasi” orqali qo’yidagicha ifodalash mumkin:

1. Bilish jarayoni, shaxs biror mavzu haqida bilimlar (dalil va prinsiplar)ni egallaydi va shuni eslab qoladi;

2. Tushunish jarayoni, shaxs mavzuning o’zaro aloqadorligini tushunadi va shuni har xil vaziyatlarda ta’riflashi mumkin;

3. Qo’llash jarayoni, shaxs bilimlarini amaliyotda qo’llashi mumkin;

4. Tahlil jarayoni, bilimlarni alohida mavzularga bo’lishi va tegishli maqsadda qo’llashi mumkin;

5. Sintez jarayoni, shaxs bir mavzuni nafaqat boshqa mavzular bilan, balki bilimlarning boshqa sohalari bilan ham bog’lay oladi;

6. Baholash jarayonida shaxs o’zi uchun baholash instrumentlarini yaratishi va baholash mezonlarini qo’llashi mumkin;

Amaliyot shuni ko’rsatadiki o’qituvchining muvaffaqiyatiga dastlabki 3 ta vaziyat ham ta’sir qiladi. Bular:

Xatti – harakatlarga reaksiya. Biror harakat bajarilishining murakkabligi;

O’rganishga ishtiyoq. Aniq tasavvur qilingan o’quv maqsadlariga erishishga intilishi;

Tashqi turtkilar. Qiziqishi bo’lmagan o’qituvchida o’qishga bo’lgan ishtiyoqni uyg’otish maqsadida boshqa bir shaxs turtki beradi;

Bundan tashqari o’qituvchini izlanishiga undovchi motivlari har xil omillar asosida vujudga kelishi mumkin:

- Taqlid orqali o’rganish;

- Odat tufayli;


- Muvaffaqiyat tufayli;

- Urinish, xato va yutuqlar tufayli;

- Anglash, tushunib yetish orqali.

O’qituvchi ta’limiy faoliyatida mashqlarni tuzishida ongli ravishda o’rganishning turli usullaridan foydalanishi mumkin. Bu yerda anglash, tushunib yetish orqali o’rganish usuliga ko’proq e’tiborini qaratishi kerakligi alohida ko’rsatiladi, chunki u o’zining uzoq ta’siri bilan ajralib turadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, yosh avlodni ta’lim-tarbiya berishdek muhim oliyanob vazifalarni bajarayotgan, ijodiy faoliyati bugungi kun talab darajasiga javob beradigan o’qituvchining qobiliyati, xususiyatlari, xislatlari, fazilatlarini hamda mahoratning amaliy ishda, pedagogika sohasida tajriba orttirish jarayonida tarkib toptirishda motivatsiya yetakchi rol o’ynaydi. Shu bilan birga o’qituvchi o’z malakasini oshirish, o’z kasbiy mahoratini, ko’nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirishga erishmog’i lozim.



ODOBNOMA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O.To’xtayev - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM o’qituvchisi

M.Xayitova - Samarqand shahar 30-maktab o’qituvchisi

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy usullarini qo’llash, o’qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy

usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishini ta'minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Zamonaviy ta'limning vazifalari va maqsadlarining o'zgarishi, hamda kengayib borishi – ta'lim mazmunini va tuzilmasini hamda o'qitish jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Umumta'lim maktablarining 1-4 sinflarida 1998-1999 o'quv yilidan boshlab Odobnoma fani davlat o'quv rejasi asosida o'qitila boshladi. Shu munosabat bilan odobnoma dasturi 1-4 sinflar uchun mavjud dasturlar asosida zamon talabiga mos ravishda yangidan qayta ishlab chiqildi.

Odobnoma fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimiz farzandlarini odobli va axloqli, ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalash, odob-axloq me'yorlarini singdirishdan iboratdir. Bu fan o'quvchilarni momolarimiz ardoqlagan ibo, hayo, pokizalik, bobolarimiz qadrlagan g'urur, jasorat, mardlik, ajdodlarimiz e'zozlagan boy milliy merosimizdan namunalar, milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana va marosimlar, o'zbek xalqining necha asrluk unitilayozgan boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va qadriyatlarini bilan tanishtiradi. Bu noyob boyliklarni yoshlar tarbiyasida bosh me'zon ekanligini uqtiradi va unga amal qilishga undaydi. Shunday ekan, farzandlarimizni iymone'tiqodli, sof vijdonli, mehr-muhabbatli, o'z Vatanining sodiq merosxo'rlari qilib tarbiyalash Odobnomafanining bosh maqsadidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa fan o'qituvchisidan yuksak ma'naviy barkamollik talab etiladi.

Hozirgi kunda maktablarda ijodkor o'qituvchilarimiz ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmoqda. Odobnoma darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni odobnoma darsiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan birga, o'qituvchining ta'lim-tarbiya berish jarayonini ham yengillashtiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga "Aql charxi", "Bilimlar ko'chasi", "Galereya", "Sinkveyn", "Mohir suhandon" kabi metodlarni misol keltirish mumkin.

Ushbu metodlarni barcha fanlar kabi Odobnomafanida ham qo'llash mumkin. Masalan, 2-sinfda "Ota-ona – aziz va mo'tabardir" bo'limi yuzasidan tashkil etilayotgan umumlashtiruvchi darsda "Mohir suhandon" metodi quyidagicha qo'llaniladi.


Tashkillashtirish.

1. O'quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo'linadilar.
2. Mavzular nomi yozilgan varaqalar (oldindan tayyorlangan) guruhlariga topshiriladi.
3. Guruhlarga mavzu yuzasidan ma'noli va ko'proq so'zlar topish topshiriladi.
4. Ishtirokchilar topgan so'zlar ishtirokida monolog yoki dialog tuzishadi.
5. Tayyorlangan monolog yoki dialog guruh ishtirokchilari tomonidan ifodali qilib o'qitiladi.
6. Ishtirokchilarning o'qish talaffuzi va suhandonlik mahoratiga qarab baholanadi.
7. O'yin oxirida baholar umumlashtirilib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Namunaviy javoblar.

1. O'quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo'linadilar.
2. Mavzular: "Ota –onaga hurmat", "Kechiring, oyijon!", "Ayasini ayasin".
3. "Ota –onaga hurmat" matnidan so'zlar topish. Masalan: Mo'tabar, ota, ona, farzand, komil, vazifa, ko'ngil, burch, duo, boylik.
4. Monolog tuziladi. Masalan: Ota-ona aziz va mo'tabardir. Komil farzand uchun ota-ona duosidan ortiqroq boylik yo'qdir.
5. Ushbu monolog guruh ishtirokchilari tomonidan ifodali qilib o'qitiladi.
6. Ishtirokchilarning o'qish talaffuziga qarab, suhandonlik mahorati aniqlanadi.
7. O'yin oxirida baholar umumlashtirilib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

"Mohir suhandon" metodining afzalliklari shundaki, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga, mustaqil ishlashga, o'zgaralar fikrini hurmat qilishga, jamoa bo'lib ishlashga, suhandonlik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga xizmat qiladi.



ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МУТОЛАА МАДАНИЯТИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ.

Худойқулов Дилёр Исмоилович, СамДУ тадқиқотчиси.

Глобаллашув жараёнларининг зиддиятлари айниқса, маданият соҳасида кўпроқ намоён бўлмоқда. Дунё миқёсида маънавий-ахлоқий қадриятларнинг қадрсизланиши маданий хилма-хиллиги тобора камайиб бориши давримизнинг энг долзарб муммоларидан биридир.

Бугун глобаллашув таъсирида дунё миқёсида турли миллатлар ва халқлар маданиятларининг жадал суръатларда ўзаро яқинлашуви жараёни содир бўлмоқда. Бунда ахборот муҳим маданий мулоқот воситаси вазифасини бажармоқда. Таъкидлаш жоизки, ахборотлаштириш жараёнлари глобаллашувга уйғун равишда кечмоқда. Эндиликда ахборот энергия манбалари сингари стратегик ресурсга ва жаҳон истеъмол бозоридаги энг қиммат товарга айланди.

Шу боисдан ҳам глобаллашув жараёнида ёшлар тарбиясида китобхонлик, мутолаа маданиятининг ўрни ва аҳамияти ошиб боради.

Баркамол авлодни вояга етказишда китобнинг тарбиявий аҳамияти беқиёс. Бинобарин, айнан мутолаа инсонга билим ва ахборот беради, унинг маънавий оламини бойитади. Яхши китоб энг мураккаб саволларга жавоб топишда беминнат дастёрдир.

Мутолаа маданияти ўз навбатида, китобга қизиқиш, одамларнинг адабиётлар билан кенгрок танишиш рағбати, китоб ва у билан ишлаш ҳақидаги махсус билимларга эга бўлишни, шунингдек, ахборот манбаларидан тўлиқ фойдаланишда кўникма ва малакага эга бўлишни тақозо этади.

Мутолаа маданияти кишининг манбани тўлақонли тушуниши, ундан эстетик завқ олиши, муаллиф фикри ва ғоясини англаши ҳамда уни баҳолай олиши каби хусусиятларга эга бўлишини таъминлайди. Китобни танлаш, уни ўқиш, авайлаб сақлаш, шахсий кутубхона ташкил этиш, ўқилган китобларни бошқаларга тавсия эта олиш ҳам мутолаа маданиятига киради.

Ноширлик фаолияти ривожланиб, китоб мутолааси янада оммалашиб бораётгани мулоқотнинг аудио, видео воситалари, радио, телевидение, ахборот-коммуникация тармоқлари ҳаётимиздан чуқур ўрин эгаллаши билан одамларда китоб ўқишга қизиқиш йўқолади, деган фикр хато эканлигини кўрсатмоқда. Шубҳасиз, оммавий ахборот воситаларининг янги турлари пайдо бўлиши натижасида китобхонлик бирмунча пасайган бўлса-да, матбуот одамларда китоб мутолаасига қизиқишни кучайтиришга хизмат қилмоқда.

Қатор агентликларнинг жаҳонда китобга бўлган талабни ўрганиши шуни кўрсатдики, сўнгги 30 йилда бир номдаги китоб маҳсулотларини чиқариш уч баравар, адади бўйича 4 баравар кўпайди. Бугунги кунда дунёда ҳар йили қарийб бир миллион номда китоблар чоп этилади. Масалан, АҚШда киши бошига 10 та, Россияда 9,5 та, Францияда 5 та, Хитойда 3,5 та китоб босилмоқда.

Мутолаага қизиқиш сусайиши, ўз навбатида, аҳоли саводхонлиги даражаси пасайиши жамият ва давлатнинг барқарор ривожланиши учун катта таҳдидлардан саналади. Шунинг учун ҳам кўплаб ривожланган мамлакатларда бу салбий ҳолатнинг олдини олишга қарши қатъий чора-тадбирлар кўрилмоқда. Умуммиллий комплекс дастурлар ишлаб чиқиляпти. Уларда давлат ҳокимияти ҳамда бошқаруви органлари, кутубхоналар, таълим муассасалари, таълим, илм-фан ва тадбиркорлик субъектлари, соҳадаги фуқаролик жамияти институтлари ҳамда оммавий ахборот воситалари саъй-ҳаракатларини бирлаштириш бўйича тизимли чора-тадбирларни кўриш кўзда тутилади. Бунда китобхонликнинг қадри ва аҳамияти ҳақида ижтимоий онгни шакллантириш, аҳоли турли қатлами ўртасида мутолаа маданиятини манзилли қўллаб-қувватлаш ҳамда ривожлантириш, ноширлик фаолиятини такомиллаштириш, жамиятнинг интеллектуал, маънавий ва маданий эҳтиёжларига тўлиқ жавоб берадиган китоб бозорини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ҳар қайси даврда мутолаа маданиятини шакллантириш биринчи ўринда оилада ўз аксини топиш лозим бўлган ва ҳозир ҳам ана шуни тақозо қилмоқда. Жумладан, оилада шахсий кутубхона ташкил этиш, уни янги нашрлар билан тўлдириб бориш биринчи омил саналади. Кимдир шахсий кутубхонаси фондини бойитишни ва ундан фойдаланишни афзал билса, кимдир китоб мутолаа қилиш учун кутубхонани танлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3138-сонли қарорига мувофиқ, ёш авлоднинг китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш, уларнинг интеллектуал

салоҳияти ва маънавий савиясини юксалтириш мақсадида “Ёш китобхон” республика танлови ўтказилмоқда.

Халқ таълими вазирлиги ташаббуси билан “Мактаб – кутубхона – оила – жамоат ташкилотлари” хайрия марафони бутун Республикамиз ҳудудидаги умумтаълим мактабларида ўтказилмоқда. Жумладан:

- “Йилнинг энг яхши китоби”,
- “Энг яхши китобхон оила”,
- “Йилнинг энг яхши болалар китоби”,
- “Йилнинг энг яхши аудио китоби”,
- “Йилнинг энг яхши электрон китоби” танловлари ўтказилмоқда.

Бундан ташқари Ўзбекистон ёшлар иттифоқи томонидан ёшларда китоб маданиятини шакллантириш борасида ҳам бир қанча танловлар ташкил этилиб келинмоқда. Жумладан:

- “Энг ёш китобхон”,
- “Энг зукко китобхон”
- “Жаҳон адабиёти билимдони”
- “Энг ёш шоир” каби танловлардир

Бу чора-тадбирлар, аввало, аҳолининг китобхонлик маданиятини оширишга, кутубхоналарни янада янгилашга, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган адабий асарлар сонини кўпайтириш ва сифатини яхшилаш, китоб маҳсулотлари тарқалиши ҳамда етказиб берилиши тизимини ривожлантиришга қаратилгандир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, глобаллашув жараёнларида ёшларда эстетик ва ахлоқий иммунитетни шакллантиришда мутолаа маданиятига эҳтиёж юзага келади. Маданий глобаллашув шароитида миллийликка нисбатан ташқи ғоялар ва омилларнинг таъдиди кучаяди. Ахборот оқимини бошқариш қийинлашади. Глобаллашув агар зарур ҳимоя чоралари кўрилмаса миллий маданиятларнинг ўзига хослигини йўқолишига олиб келади. Ёшларга миллий ўзликни англашида, ахборот билан таъминланганлик даражасини яхшилаш мақсадида кутубхона, матбуот нашрлари ва интернет порталлари фаолиятини янада кучайтириш лозим.



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

*S.S. Umarov - SamDUHXTXQTMOHM o'qituvchisi
Temirov X.-Jomboj tuman 21 maktab*

Hozirgi kunda ta'lim mazmuni va sifati jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'lim-tarbiya jarayonida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Shuning uchun ham axborot texnologiyalarining taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan ta'lim jarayonining jadal rivojlanib borishida o'rni va samaradorligi beqiyosdir. Chunki axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ta'lim jarayonining sifati va samaradoligini oshirish jarayonida uning barcha imkoniyatlari va tashkillashtirish usullarini butunlay o'zgartirib yubordi. Shu sababli bugungi kunda barchamiz o'qitish tizimida «yangi pedagogik texnologiyalar» yoki «innovation texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik.

Bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirishning zamonaviy bosqichi fan, texnika va texnologiya rivojlanishining innovatsion texnologiyalar o'tish bilan xarakterlanadi. Bunda esa kompyuter va axborot texnologiyalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini, shu jumladan, malaka oshirish tizimini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish muammosi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanib, uni hal qilishning asosiy yechimlaridan biri, malaka oshirish tizimi faoliyatini mukammallashtirish uchun zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan keng foydalanishning zamonaviy uslubiyatini yaratishdir.

Bugungi kunda o'quv jarayonida, qolaversa, malaka oshirish tizimida axborot va kompyuter texnologiyalari vositalari asosida masofadan o'qitishni tashkil etishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Malaka oshirish tizimida pedagog-o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarning mohiyatidan xabardorliklari hamda xususiy fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida

loyihalashtirishga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi tinglovchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Malaka oshirish tizimida o'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning uslubiy ishlanmasidan farqli o'laroq, zamonaviy ta'lim texnologiyalari tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish lozim.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

malaka oshirish tizimi uchun saralangan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol usullarning majmuasini yaratish va ta'lim portaliga joylashtirish;

zamonaviy ta'lim texnologiyalarini fanlar kesimida sinflarga ajratish va ularni dars jarayonlarini tashkil etishda tatbiq etish;

barcha fanlar bo'yicha zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha uslubiy qo'llanma va dars ishlanmalar to'plamini yaratish;

ilg'or tajribali pedagog-o'qituvchilarning zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari asosida amalga oshirgan ish tajribasini aks ettiruvchi materiallar yaratish;

barcha fanlar bo'yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha turli tadbirlar, davra suhbatlari, o'quv kurslari va o'quv seminarlari tashkil etish va ularning natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

malaka oshirish tizimida pedagog-o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.


Malaka oshirish tizimida ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan: amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo'naltiruvchi ta'lim texnologiyalari; hamkorlik texnologiyalari; tinglovchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish texnologiyasi; o'quv materialini didaktik jihatdan texnologiyalashtirish va qayta ishlab chiqish texnologiyasi; o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish texnologiyasi; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi; muammoli va izlanishli ta'lim texnologiyasi; ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik texnologiyalaridan samarali foydalaniladi.

Malaka oshirish tizimida o'qituvchilarning bunday zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonida samarali qo'llash bo'yicha bilimi, malakasi, ko'nikmasi va pedagogik mahoratini yanada shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bizga ma'lumki, o'qituvchilardagi bilim, malaka, ko'nikma va pedagogik mahorat tug'ma yoki yillar davomidagi tajribalar asosida orttiriladi. Bular qaysidir o'qituvchida yetarli, qaysidir o'qituvchida kamroq bo'lishi tabiiy. Shuning uchun malaka oshirish tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash uchun, avvalo, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga erishish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda mahoratli va malakali pedagog bo'lish uchun, albatta, kompyuter va axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha bilimlarni yaxshiroq egallash zarur, chunki ularning ish faoliyati ko'proq axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog'liq bo'lganligi uchun, ushbu axborotlardan zamonaviy texnologiyalar asosida samarali foydalana olish bilim va malakasini egallash zarururiyati paydo bo'ladi.

Malaka oshirish tizimida zamonaviy texnologiyalar asosida o'qituvchi dars jarayonida tinglovchini faollashtiradigan, o'zi va tinglovchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va texnologiyalarni izlash, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, malaka oshirish jarayoni-ning yuqori sifat darajasi va samaradorligiga erishish bilim va malakalari shakllanadi..

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, malaka oshirish tizimida zamonaviy ta'lim hamda pedagogik va axborot texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish o'qituvchilarda o'z ustida ishlash, yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish va ularni darslarda tatbiq etish, har bir darsni qiziqarli va o'zaro faollik hamda hamkorlikda tashkil etish malakalarini sezilarli darajada oshiradi.



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O'YINLAR TEXNOLOGIYASI

Farida Sulaymonova, Zilola Ahrorova SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi amaliy psixologiya kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari

Bugungi kunda ta'lim tizimiga, jumladan maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrlil va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.

5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi.

6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.

7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.

8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv ob'ektdan faol sub'ektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.

3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.

5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.

6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.

7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.

8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini tahlil qilish.

Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy

ta'limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o'yinlar voqelikni bola tomonidan faol ravishda o'rganib, bilib olish vositasi ekan. Bola o'ynab turib dunyoni biladi.

O'QITUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARI VA KASBIY MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zafar Shukurovich Pardayev, SamDU huzuridagi XTXQTMOHM

Fan-texnikaning jadal rivoji, bu sohada erishilayotgan yutuqlarning benihoyat ko'pligi, axborot ko'lamining kengayib borayotganligi pedagog kadrlarning malakaviy darajasiga nisbatan yuqori talablarni qo'yimoqda. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda o'qituvchilar mutaxassislik asoslarini puxta o'zlashtirgan, yangiliklarni o'z vaqtida anglay oladigan, ayni vaqtda axborotlarning qaysi biridan ko'proq foydalanish zarur ekanligini his qiladigan bo'lishlari zarur.

Yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlar ta'lim mazmuniga ilg'or g'oyalarni singdirishni taqozo etmoqda. Zero, pedagogik tizim barcha davrlarda ham jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib kelgan. Bu vaziyatni anglash hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy mahoratini uzluksiz takomillashtirib borishni talab etadi. "Joyingda turish uchun, doimo olg'a intilish kerak" – degan ekan pedagoglardan biri. O'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi, ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashi, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlari orqali mashg'ulotlarni tashkil etishi, fundamental bilimlardan o'z o'rnida foydalana olishi uchun o'z ustida uzluksiz mustaqil ishlashi, bilimi va mahorati oshirib borishi kerak. Maqsad – jahon ta'limi standartlariga to'la javob bera oladigan, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik layoqatiga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekan, bunda o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini anglab yetish lozim.

O'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish o'qituvchidan kasbiy malaka, mahorat talab etishini nazarda tutadigan bo'lsak, pedagoglar har tomonlama (masalan, mashg'ulotlarni ilg'or ta'lim texnologiyalari va tajribalar asosida asosida tashkil etish va zamonaviyligiga erishish, samarali olib borish, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, dars berishning so'nggi, ilg'or, zamonaviy metodlari va vositalari asosida olib borishiga e'tibor qaratish va h.k.) zamon bilan hamnafas bo'la oladigan kadrlar bo'lishi lozim.

Bu borada, xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning tajribalari, mavjud ta'lim tizimida erishilayotgan tajribalarga ham murojaat etish mumkin. Jumladan, Germaniya kasb-hunar ta'limining "dual" tizimida kasb-hunar maktabi ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashida tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga asoslanib o'zining o'quv rejasini ishlab chiqadi. "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom"da belgilab berilganidek, korxonada o'z vaqtini rejalashtirishni, o'qitish joyini va o'qitish metodini erkin tanlaydi. Fransiyaning boshlang'ich maktablarida o'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi, o'qituvchi o'quvchilar bilim darajasiga shaxsiy mas'ul bo'lib, mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish uslublarini mustaqil tanlash erkinligiga ega.

Shularni inobatga olib, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ham kasbiy salohiyatini shunday oshirish kerak-ki, maktab, kollej, akademik litsey yoki oliy o'quv yurtlarida o'quv mashg'ulotlarining mavzulari, o'quv reja va dasturlari, soatlar hajmi, qachon, qanday vaziyatda, metod, vositalar asosida tuzishni, tashkil etishni, olib borishni va yuqori-ijobiy samarali natijaga erishish masalalarini mustaqil hal eta olsinlar. Buning uchun pedagoglarimizning kasbiy mahoratlarini oshirish hamda takomillashtirib borishning turli xil shakllardan unumli foydalanish zarur. Quyida ulardan birini tahlil qilib ko'ramiz.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishda mustaqil ta'limning alohida o'rni bor. Mustaqil ta'lim bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir. Mustaqil ta'limda o'qituvchining shaxsiy qiziqishi, intilishi, ehtiyoji, motivi, qat'iy qo'yilgan maqsadlari bo'lib, o'qituvchi ularga erishmog'i lozim. Ana shunda bu ta'limdan samarali natija kutish mumkin.


Mustaqillik – shaxsning alohida xususiyati, layoqati, faolligi, diqqatini jamlash qobiliyati, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida bor kuchni sarf etish kabi xususiyatlar birligidir. Demak, mustaqil

bilim olishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq ekan. Mustaqil bilim olayotgan subyektni ta'lim jarayonida hech kim o'qishga majbur etmasligi muhim omillardan bo'lib, ta'lim oluvchi bu vazifani o'z istagi bo'yicha amalga oshirishi kerak.

Mustaqil bilim olish sabablarining rivojlanishi subyektni ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi va shu bilan uning oldiga - mustaqil bilim olish qanday bo'lishi kerak degan savol va ba'zi jiddiy talablarni qo'yadi. Ya'ni, faoliyatning yakuni oldindan aniq bo'lgan o'qitish jarayonidan farqli ravishda mustaqil bilim olishda subyekt aniq bo'lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijani qayd etishi, buning uchun u bilim, ko'nikma va malakalarning aniq hajmini o'zlashtirishi kerak. Mustaqil bilim olishda maqsad, tamoyil, usul, metod, vosita va shartlarni aniq ko'rsatish, ma'lum hajmdagi ma'lumolarni o'zlashtirish ko'zda tutilib, ularni amalga oshirish so'zsiz bajarilishi lozim.

Mustaqil bilim olish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo'yish alohida ajralib turadi. Agarda ta'lim olish umumiy rivojlanishni ta'minlash xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi kasbiy shakllanish yoki kasbiy mahoratni o'stirish hisoblanadi. Bunda o'qituvchi qat'iy reja asosida ishlashi, o'z oldiga qo'ygan har bir topshiriqni astoydil, nihoyasiga yetkazib bajarishi lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirib borish, ijodkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish, o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni ketma-ketlikda, asta-sekin murakkablashtirib borish, o'zining ijobiy natijasini berib, o'qituvchi kasbiy mahoratining takomillashib borishida muhim o'rin tutadi.



O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA YA'NGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

K.S.Oqilova SamDU huzuridagi IXXQTMO markaz o'qituvchisi
Z.Haydarova Namdu huzuridagi IXXQTMO markaz o'qituvchisi

Har bir inson o'z hayotida hurmat va shuhrat qozonishni, atrofdagilarning e'tibori va e'tirofida bo'lishni, ularning qo'llab-quvvatlashini, barchaning sevgisiga, muhabbatiga yerishishni, shu bilan birga mustaqil hayot kechirishni xohlaydi. Sanab o'tilganlarning barchasiga birvarakayiga yerishishning yo'li bor, u ham bo'lsa-qiziqishingiz va qobiliyatingizga mos bo'lgan "qadrdon" kasbni tanlashdir. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdagilar ko'zi o'ngida o'zini ifoda yetishni va hayotda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topishni xohlagan, imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo'lgan o'quvchilarga xos jihatdir.

Kimki baliq tutish bilan shug'ullangan bo'lsa, bunday faoliyat uchun baliqchining o'zi ham ma'lum talablarga javob berishi zarurligi to'g'risida xabari bo'ladi. Bu talablarga: baliq va uning fe'l-atvori haqidagi bilimlar; zarur uskuna va yarog'lar; ob-havo va muhitning holati haqidagi joriy axborotlar; paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tasodiflarga tayyorgarlik; amaliy tajriba va boshqalar kiradi. Birgina baliq tutishga shuncha talab!

Kasb bizning yagona tiriklik manbaimiz yekan, unga qo'yadigan talablarimizni qondirish uchun, biz ham qandaydir talablarga javob berishimiz zarur.

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi.

Respublikamizda ta'lim islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, xususan ulkan ummon bo'lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishda va to'g'ri tanlashiga ko'maklashish masalasi ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.


Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi kasbini o'zi belgilashga tayyorlash umumta'lim maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan "Aqliy xujum", "Bumerang", "Tarozi", "Yelpig'ich", "Kichik guruhlarda ishlash", "Venn diagrammasi" "Sinkven" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya yetiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va yekin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga yega bo'ladi. "Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizasiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishonitirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi. "Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama yetiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon yetish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi.



MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK VA FIZIKA FANLARIGA INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI.

*Azamat Kadamovich Babadjanov UrDU huzuridagi XTXQTUMOHM
«Aniq va tabiiy fanlar metodikasi» kafedrasining o'qituvchisi
To'lqin Jalilovich Oqnazarov SamDU huzuridagi XTXQTUMOHM «Aniq
va tabiiy fanlar metodikasi» kafedrasining o'qituvchisi*

Matematikaning tabiatshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasining dastlabki bosqichlaridan biri dunyoning (olamning) geliosentrik modelini tan olinishidir. Hozirgi vaqtda Erning quyosh atrofida aylanishiga hech kimda shubha yo'q. Ammo Kopernik zamonida (XVI asr) faqat geosentrik modelgina tan oligan edi. Bunday xulosaga osmon jismlarining fazodagi vaziyatini kuzatish natijasida kelingan edi. Osmon jismlarini harakatini o'rganib, Kopernik olamning geliosentrik modeli gipotezasini ilgari surdi. Bunda u "ajoyib matematik soddalanish" tamoyiliga asoslandi. Keyinchalik uning gipotezasi planetalar harakat tenglamalarini sodd ko'rinishda yozilishi bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, inson sezgi organlariga ta'sir ko'rsatmaydigan, ammo inson tafakkuri tufayli ob'yektiv reallikni tavsif qila oladigan geliosentrik model g'alaba qozondi. XVII asrlardan boshlab, tabiiy fanlarda matematikaning o'rni beqiyos bo'lishiga Dekart va Galileyning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Ular fan o'rganishi kerak bo'lgan tushunchalarni qayta ko'rib chiqib, ilmiy faoliyatining fan metodologiyasini maqsad va vazifa masalalarini aniqladilar. Yangi maqsad va yangi metodologiyaning tabiatshunoslikka ulkan kuch berish bilan bir qatorda, uning matematika bilan kuchli ittifoqini ham ko'rsatdi.

Galiley va Nyuton klassik fizikani Yevklidning "Boshlang'ichlari"ga qiyoslab yaratdilar. Ular tizimlilikni va peraxriyani saqladilar. XVII asrdan boshlab, bilimning ilmiyliligi (aniqligi, haqiqiyiligi)ni uning matematikalashganligini darajasiga qarab belgilay boshladilar. "Tabiat kitobi matematika tilida yozilgan"-degan edi Galiley. Matematik tahlil, tabiiy jarayonlarning sodir bo'lish ehtimoli xarakteri bilan

bog'liq tahlilning statistik usulini rivojlanishi, matematika metodlarini tabiatshunoslikning boshqa boshqa sohalariga kirishga imkon yaratdi.

I. Kant shunday yozgan edi: "Tabiat haqidagi har qanday xususiy ta'limotda, aslini olganda unda qancha matematika bo'lsa, shuncha fanni topish mumkin".

Matematikaning asosiy afzalligi shundaki, u tabiatshunoslikning tili tarzida ham tabiiy jarayonlarni modellari manbai bo'lib ham xizmat qila oladi.

Matematika tufayli tabiatshunoslik zamonaviy fan bo'lib qolmoqda. Bunday bo'lishiga bizning vatandoshlarimiz va Rossiya olimlarining xizmatlari juda katta ekanligini ta'kidlash zarur. Shunday olimlar jumlasiga T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, V.Qobulov, V.Romonovski, A.Kolmogorov, I.Petrovskiy kiradi. Ularning mehnatlari tufayli matematika eng yuqori darajasiga ko'tarildi va juda ko'p tabiiy-ilmiy yo'nalishlar va ixtirolar tug'ilishiga imkon yaratdi. Keyinchalik esa ular sanoat sohasiga aylandi.

Tabiiy-ilmiy nazariyaning asosan mantiqan izchil tuzilishli matematik tavsif tashkil etadi. Ba'zi hollarda bevosita eksperimentga murojat qilmay ham, to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradigan mantiqiy isbotlashga xos misolni keltiraylik. Bu barcha jismlar yuqoridan bir xil, tezlanish bilan tushadi, degan fikrni isbotlashga tegishli. Aristotelning fikricha, jismlarning og'iri yengiliga qaraganda tezroq tushadi. Bunga qarshi Galiley quyidagicha mulohaza yuritadi. Ikkita og'ir va yengil jismlarni bir-biriga bog'laylik. Mazkur bog'langan jismlarni tashlab yuboraylik. Og'ir jism yengiliga qaraganda tezroq tushadi, u yengilini tezlatishga intiladi. Engili esa o'z navbatida og'irini tormozlaydi, shuning uchun bog'langan yuk qandaydir oraliq tezlik bilan xarakatlanadi. Ammo u har bir alohida qismidan og'irroq va shuning uchun u oraliq tezlik bilan emas, balki uning og'irroq qismining tezligidan katta tezlik bilan xarakatlanishi kerak edi. Qarama-qarshilik yuzaga keldi, demak boshlang'ich faraz noto'g'ri ekan.


Avstraliyalik fizik E.Shredinger elimentar zarralar xarakatining to'lqin gipotezasiga ishonib, ular xarakatiga mos tenglamani yaratishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur tenglama klassik fizikadagi yuklanga torning tebranishlari tenglamasiga shakl jihatidan o'xshab ketadi. Ammo mazkur tenglamaning har bir hadi tamomila boshqacha talqin qilinadi. Natijada Shredinger kvant mexanikaning to'lqin variantini yaratishga muvaffaq bo'ldi, unda esa mazkur tenglama markaziy o'rin egallaydi. Hozirgi zamon tabiatshunosligida matematikaning o'rni beqiyosligi ravshan. Qandaydir yangi xodisaning nazariy talqini to'liq bo'lishi uchun, mazkur xodisaning asosiy qonuniyatlarining matematik apparatini yaratish kerak bo'ladi. Tabiatshunoslik asoslari va fizika fanlaridan o'qilayotgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda tabiat garmoniyasi tushintirilishi mumkin.

Garmoniyani qabul qilish yoki sezish matematik qonuniyatlar orqali ifodalanadi. Shunday ekan, demak, barcha tabiiy fanlar kaliti matematika ekanligiga ishonch hosil qilish kerak.

Ilmiy izlanishlarda matematika fanining o'rni beqiyosdir. Tabiat xodisalari sinchiklab o'rganilsa, ularning davriy xarakterga ega ekanligiga shubha bo'lmaydi. Tabiat xodisalarini miqdoriy tahlil qilganda davriy xarakterga ega bo'lgan tenglama va funksiyalardan foydalaniladi. Elektromagnit to'lqinlar tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida axborot to'plash va uzatish vositasidir. Bu holni to'liq tushina bilish uchun ikkinchi tartibli bir jinsli yoki bir jinsli bo'lmagan differentsiyal tenglamalarni o'rganish hamda ularni yechimlarini aniqlashda davriy funksiyalar va kompleks ifodalardan foydalaniladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida ham kichik-kichik xodisalarni o'rganishda matematikaning rolini ko'rsatish mumkin. Masalan, yorug'lik-elektromagnit to'lqinlarni turli muhitlarda yutilish xodisalarini o'rganishda, xususan yutilish koeffitsientini aniqlashda eksponensiyal funksiyalarning o'ziga xos tomonlari haqidagi ma'lumotlar, jismlar ranglarining o'zgarishlarini izohlay bilish imkonini beradi.

Qadim zamonlardayoq keng tafakkurli kishilarni matematikaga katta ahamiyat berganligi ma'lum. Birinchi Akademiya-Platon akademiyasining shiori "Matematikani bilmaydiganlar bu yerga kirmaydilar"- deb yozilishining o'ziyoq fan rivojlanishining boshodan matematikaga qanday ahamiyat berilganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib tabiatshunoslik asoslari va fizika fanlarining matematika bilan o'zaro aloqadorligi orqali matematikani o'rganish, bilish, tabiat xodisalarini tushintirishlar ularni qo'llash imkoniyatini vujudga keltiradi. Tabiat garmoniyasiga matematika nuqtai nazardan qarash uchun chuqur tafakkur egasi bo'lish lozim.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Жамол Журабоевич Юлдашев Жиззах давлат педагогика институтини ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

Асрлар давомида ўқитиш деганда маълум билимлар йиғиндисини эгаллаш кўзда тутиларди. Ҳозир бир авлод ҳаёти чоғида билимлар янгиланаётган шароитида уларнинг ҳажми алоҳида мутахассислик даражасида ҳам шунчалик улканки, ҳозирги таълим услублари билан уни эгаллаш амалда қийиндир. Шунинг учун бизга янги ахборотларни ўзлаштириш ва баҳолашга қодир, ҳамда керакли қарорлар қабул қилувчи эркин фикрлайдиган ижодий шахслар, яъни биринчи Президентимиз И.Каримов ибораси билан айтганда “Бизга битирувчилар эмас, мактаб таълим ва тарбиясини кўрган шахслар керак”.

Таълим тарбия жараёнида мазкур вазифаларни амалга ошириш учун ривожлантирувчи таълим технологиясининг асосий ғояси ўқувчиларни ҳар томонлама ривожлантириш саналади. Мазкур технологиянинг асосий хусусиятлари ўқувчиларни ўз билиши фаолиятининг субъектига айлантириб, фикр юритиш механизмини шакллантиради, ривожлантиради, ўқувчиларнинг билиш фаолияти эмпирик ва назарий билиш яхлитлигига ташкил этилиб, билимларни ўрганишда дидактик усул устувор бўлади, ўқитиш жараёнининг асосини ўқувчиларнинг ўқув топшириқларини бажариш орқали вужудга келтирилган мустақил фаолияти ташкил этади; ўқувчилар ақлий фаолиятнинг ривожланишига замин тайёрлаб, бу жараёнда мустақил ва ижодий фикр юритишни шакллантириш устувор йўналиш саналади. Фикр юритишнинг бу икки типи бир бирини тўлдирди. Ўсиб келаётган авлоднинг ҳар томонлама камол топиши жамият тараққиётини таъминловчи асосий омил бўлиши билан бирга унинг шахс сифатида ўз нуқтаи назарига, мустақил фикрига эга бўлиши ҳам етакчи ўрин тутади.

Дарс - таълимнинг асосий ташкилий шакли бўлиб, муайян миқдордаги доимий ўқувчилар таркиби билан қатъий тартибда уюштирилаётган ва аниқ мақсадга йўналтирилган дидактик тадбирдир. Унинг сифат ва самараси ўқитувчининг педагогик маҳоратига боғлиқдир. Шу мақсадда қуйида педагоглар билиши зарур бўлган қисқача маълумот ва усулларни тавсия этаёман.

Бумеранг технологияси: Отилган буюмнинг отувчига қайтиб келишини таъминловчи ўроқсимон отиш куралига бумеранг дейилади. Таълимда бумеранг методининг маъноси педагог томонидан ташланган муаммоли масала ёки мавзунинг талаба-ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган ҳолда ўқитувчига оғзаки ёки ёзма шаклда қайтишидан иборат.

1. Дарсда ўрганиладиган мавзунинг режасида 4 та мавзу бўлса, аудиториядаги талабалар ҳам 4 гуруҳга ажратилади. Режадаги биринчи мавзу ўқитувчи томонидан тайёрланган жавоблари билан биринчи гуруҳ талаба-ўқувчиларининг ҳар бирига тақдим этилади. Шу тариқа режадаги бошқа мавзулар ҳам жавоблари билан биргаликда ўзига мос номердаги гуруҳларнинг талаба-ўқувчиларига тарқатилади. Ҳар бир гуруҳдаги талабалар ўзларига жавоблари билан тақдим этилган битта мавзучани ўқитувчи томонидан белгиланган регламентда ўрганиб чиқишадилар.

2. Шундан кейин 4 гуруҳ ўқувчилар аралаштирилиб, Янги таркибдаги 4 гуруҳ ташкил этилади. Бу янги гуруҳларнинг ҳар бирида дастлабки 4 гуруҳларнинг барчасидан бир нечтадан талаба-ўқувчиларнинг иштирок этишига эришилади. Натижада бутун ўқув материални яхлит жамоа бўлиб ўрганиш имконияти туғилади. Мухими, талаба-ўқувчиларда ўқув материални мустақил ўрганиш, ҳамкорликда ишлаш, билганларини бошқаларга тушунтира билиш кўникма ва малакалари шаклланади.

3. Ўқитувчи томонидан белгиланган регламентда мавзунини жамоа бўлиб ўрганиш якунлангач, талаба-ўқувчилар дастлабки гуруҳларига қайтишади ва савол-жавоблар бошланади. Ўқитувчининг ташкилотчилиги асосида саволлар бошқа гуруҳлар томонидан битта жамоага берилади. Жамоа ичидан ўзлари танлаган бир талаба-ўқувчи шерикларининг тўплаган балларини ёзиб, жамлаб, натижаларини ўқитувчига топширади. Барча гуруҳлар шу тарзда савол-жавобдан ўтказилади. Бунда қўйилган саволга тўғри жавоб берган талаба-ўқувчига 3 балл, тўғри қўшимча қилганга 2 балл, тўғри реплика қилганга 1 балл, умуман фикр билдирмаганга 0 балл қўйилади.

4. Ҳар бир гуруҳ мавзу бўйича ўзлари биттадан савол тузиб, унга жавоб беришни бошқа жамоаларга таклиф этади. Тўғри жавоб берган жамоанинг умумий балига 3 балл қўшилиб, бошқаларга 0 балл қўйилади. Ҳеч ким жавоб бера олмаса, саволни тузган жамоанинг ўзи жавоб берса, уларнинг умумий балига 3 балл қўшиб қўйилади.

5. Энди ҳар бир талаба-ўқувчининг баҳолаш учун уларга мавзу бўйича олдиндан тайёрланган тест тарқатилади. Бир гуруҳнинг иш натижаларини бошқа жамоа талаба-ўқувчилари

тайёр жавоблар асосида текшириб, ўқитувчи томонидан тақдим этилган шкала бўйича балл қўйилади.

б. Дарс ўқитувчи томонидан ўқувчилар иштирокида мустақамланади ва умумлаштирилади. Гуруҳларда тўпланган баллар эълон қилиниб, рағбатлантириш амалга оширилади. Келгуси дарс учун керак бўладиган топшириқ ва вазифалар шакллантирилади.

Гуруҳ ўқувчиларининг тайёргарлик даражасига, ўқув материалларининг ҳажми, осон ёки қийинлигига боғлиқ равишда дарс вақтида етишмовчилик кутилса, тўртинчи босқични ўтказмаслик мумкин.

Мазкур технология бир машғулот давомида ўқув материални чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган. У турли мазмун ва характерга (муаммоли, мунозарали, турли мазмунли) эга бўлган мавзуларни ўрганишга яроқли бўлиб, ўз ичига оғзаки ва ёзма иш шакллари камраб олади ҳамда бир машғулот давомида ҳар бир иштирокчининг турли топшириқларни бажариши, навбат билан ўқувчи ёки ўқитувчи ролида бўлиши, керакли баллни тўплашига имконият беради, ўқувчиларни дарс жараёнида, дарсдан ташқарида турли адабиётлар, матнлар билан ишлаш, ўрганилган материални ёдида сақлаб қолиш, сўзлаб бера олиш, фикрини эркин баён эта олишга ўргатади

Фсму Технологияси: Ушбу технология мунозарали масалаларни ҳал этишда, баҳс мунозаралар ўтказишда ёки ўқув–семинари якунида (тингловчиларнинг ўқув семинари ҳақида фикрларини билиш мақсадида), ёки ўқув режаси асосида бирон бўлим ўрганиб бўлингач қўлланилиши мумкин, чунки бу технология тингловчиларни ўз фикрини ҳимоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очик ҳолда баҳслашишга, шу билан бир қаторда ўқувчи-талабаларни ўқув жараёнида эгаллаган билимларини таҳлил этишга, қай даражада эгаллаганликларини баҳолашга ҳамда тингловчиларни баҳслашиш маданиятига ўргатади.

(Ф) – Фикрингизни баён этинг; (Ҳар бир киши ўз хатти-ҳаракати учун шахсан жавоб бериши керак.)

(С) – Фикрингиз баёнига бирон сабаб кўрсатинг; (Мен бу фикрни шунинг учун келтирдимки, бир киши қилган хато учун кўпчиликнинг жазоланганлигига гувоҳ бўлганман.)

(М) – Кўрсатилган сабабни тушунтирувчи (исботловчи) мисол келтиринг; (Айбдор жазоланса адолат галаба қозонади.)

(У) – Фикрингизни умумлаштиринг. (Адолат бор жойда ҳар доим тенглик, эркинлик, тинчлик ҳукм суради.)

Ўқитишга бундай ёндашилганда ўқувчиларнинг ҳамкорликда ишлашларига ва катта ҳажмдаги ўқув материалларининг ўзлаштирилишига эришилади. Мустақил фикрлайдиган эркин шахсни шакллантиришдек муҳим масалани ҳал этишда бола шахсига йўналтирилган бундай усуллардан фойдаланиш юқори самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ж.Ф. Йўлдошев. Ўзбекистон Республикаси таълим тараққиёти йўлида. Т, «Ўқитувчи», 1994 йил.

2. Таълим жараёнидаги ноанъанавий шакллар (Методик қўлланмалар. Тузувчилар: Толипова Ғофуров А.Т.) Т, 1994 йил.

3. Йўлдошев Ж.Ф., С.А. Усмонов Педагогик технология асослари. Қўлланма,-Т.: -2004 йил.

4. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт).-Т.,Молия нашриёти. 2003 йил.

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Ф.Ш. Номозов, Суванов Ш.
Самарқанд давлат университети

Республикамизда компьютер ва ахборот технологиялари, телеком-муникация ва маълумот узатиш тармоқлари, интернет хизматларини ривожлантириш, уларни дунё стандартларига етказиш ва шу асосда ахборотлашган жамият сари жадал интилиш мақсадида кенг қўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Ана шунга асосан бугунги кунда жамиятни ахборотлаштиришнинг асосий

йўналишларидан бири жамиятимизда яшаётган, билим олаётган ёки маълум бир соҳада фаолият кўрсатаётган барча инсонларни ахборот маданиятини шакллантиришдан иборатдир.

Ахборотлашган жамиятга ўтишнинг бошланғич босқичида ҳосил бўладиган ва қайта ишланаётган ахборотлар ҳажми кун сайин ортиб ҳамда замонавий компьютер ва телекоммунацион технологиялари воситалари тез суръатлар билан мукаммаллашиб ва такомиллашиб борди. Бундай шароитда таълим тизимини, шу жумладан талабаларни керакли ахборот манбалари билан таъминлаш, уларни тўплаш, сақлаш ва қайта ишлаш усуллари бўйича керакли билим ва малакаларини, яъни ахборот маданиятини шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Таълим тизимида педагогик фаолиятнинг ижтимоий ва профессионал шартлари доимий ўзгариб турадиган шароитда ушбу вазифани амалга оширишнинг муҳим омиллари-дан бири бу ахборот коммуникацион технологиялари воситаларидан фойдаланишдир.

Шунинг учун ҳам замонавий ахборот ва компьютер технологиялари таълим, шу жумладан малака ошириш тизимининг сифат ва самарадорлигини ошириш асосий воситалардан бири бўлиб, нафақат таълим сифатини кескин ошишида, балки жамиятни ахборотлаштиришда, республика иқтисодиётини ривожланишида ва жаҳон ахборот муҳитида республикамиз ўзининг муносиб ўрнига эга бўлишида муҳим омил бўлиб ҳисобланади.

Малака ошириш тизимида фан ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси механизмларини ривожлантириш, уни амалиётга жорий этиш, дарс ва мустақил билим олиш жараёнини индивидуаллаштириш ҳамда замонавий таълим тизими технологиясини, унинг воситаларини ишлаб чиқиш, ўзлаштириш, янги педагогик ва ахборот технологиялари асосида тингловчиларни ўқитишни жадаллаштириш ана шундай долзарб вазифалар сирасига киради, чунки машғулот ўтиш жараёнини мукаммаллаштиришда ахборотларни ҳар хил кўринишларда тасвирлаш ва динамик образларини яратиш имкониятларидан фойдаланиш зарурияти пайдо бўлади. Шунинг учун тингловчиларни ахборот-коммуникацион технологиялари бўйича замон талаблари асосида билим ва малакаларини шакллантириш лозимдир.

Ана шунинг учун ҳам, бугунги кунда малака ошириш тизимини компьютер, мультимедиа электрон қўлланмалар, интернет, электрон маълумотлар базаси, масофадан ўқитиш каби янги ахборот технологиялари асосида ташкил этишни янада юқори даражага олиб чиқиш ҳамда дарс жараёнида ўқув, ўқитиш, моделлаштириш, амалий, ахборотли ва бошқа дастурлардан кенг фойдаланишга оид бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Педагогик ва ахборот технологиялари воситаларидан малака ошириш тизимида фойдаланишнинг самарадорлиги педагогик кадрларнинг ўқув жараёнига шу технологияларни қўллашга оид билим, малака ҳамда кўникмаларининг даражаси ва тажрибасига ҳам боғлиқ бўлади. Бошқача айтганда, малака ошириш тизимида ахборот технологияларидан мукаммал фойдаланиш учун асосий эътибор, энг аввало, зарур бўлган шароитни яратиш ҳамда таълим -тарбия жараёнларида замонавий электрон ахборот ва услубий ресурсларидан самарали фойдаланишга қаратилиши лозим.

Малака ошириш тизимида педагог-ўқитувчиларнинг замонавий ахборот ва компьютер технологияларининг моҳиятидан хабардорликлари ҳамда хусусий фанлар асосларини ўқитишга йўналтирилган машғулотлар жараёнини янги ахборот технологиялари асосида ташкил этиш, таълим жараёнини мукаммал андоза асосида лойиҳалаштиришга эришиш, мазкур лойиҳалардан оқилона фойдалана олиш кўникмаларига эга бўлиши тингловчилар томонидан назарий билимларнинг пухта, чуқур ўзлаш-тирилиши, уларда амалий кўникма ва малакаларнинг ҳосил бўлишининг кафолати бўла олади.

Ахборот коммуникацион технологияларни таълим жараёнига жорий этиш ўқитувчилардан бир қатор кўникма ва малакаларга эга бўлишликни талаб этади: дидактик материалларни ва фаолиятига оид хужжатларни тайёрлашда матн муҳарриридан самарали фойдаланиш, намоиш дастурларидан фойдаланиб мультимедиа тақдиротларини тайёрлаш, график муҳаррирлар ёрдамида кўргазмали қуроллар тайёрлаш, Интернет тармоғида ишлаш, унда маълумотларни излаш ва мулоқот қилиш.

Буларни амалга ошириш учун қуйидаги ишларларни амалга ошириш керак бўлади:

малака ошириш тизими учун сараланган замонавий таълим технологиялари ва интерфаол усулларнинг банкни яратиш ва таълим порталига жойлаштириш;

замонавий таълим технологияларини фанлар кесимида синфларга ажратиш ва уларни дарс жараёнларини ташкил этишда татбиқ этиш;

барча фанлар бўйича замонавий таълим ва ахборот технологияларини амалиётга жорий этиш бўйича услубий қўлланма ва дарс ишланмалар тўпламини яратиш;

илғор тажрибали педагогик-ўқитувчиларнинг замонавий компьютер ва ахборот технологиялари асосида амалга оширган иш тажрибасини акс эттирувчи материаллар яратиш;

барча фанлар бўйича замонавий таълим технологияларини амалиётга жорий этиш бўйича турли тадбирлар, давра суҳбатлари, ўқув курслари ва ўқув семинарлари ташкил этиш ва уларнинг натижаларини таълим жараёнига татбиқ этиш;

малака ошириш тизимида педагог-ўқитувчиларнинг замонавий таълим ва ахборот технологиялари асосида дарсларни ташкил этиш билим, малака

ва кўникмаларини шакллантириш.

Малака ошириш тизимида таълим самарадорлигини ошириш учун қуйидаги замонавий таълим технологиялари: амалий фаолият соҳасини ри-вожлантиришга йўналтирувчи таълим технологиялари; ҳамкорлик техноло-гиялари; тингловчи фаолиятини фаоллаштириш ва жадаллаштириш техноло-гияси; ўқув материални дидактик жиҳатдан технологиялаштириш ва қайта ишлаб чиқиш технологияси; ўқув жараёнини самарали бошқариш ва ташкил этиш технологияси; ривожлантирувчи таълим технологияси; муаммоли, изланишли таълим технологияси; ижодий қобилиятни ривожлантиришга йўналтирилган эвристик технологияларидан самарали фойдаланилади.

Малака ошириш тизимида ўқитувчиларнинг бундай замонавий таълим технологияларидан дарс жараёнида самарали қўллаш бўйича билими, малакаси, кўникмаси ва педагогик маҳоратини янада шакллантириш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Бизга маълумки ўқитувчилардаги билим, малака, кўникма ва педагогик маҳорат туғма ёки йиллар давомидаги тажрибалар асосида орттирилади. Булар қайсидир ўқитувчида етарли, қайсидир ўқитувчида камроқ бўлиши табиий. Шунинг учун малака ошириш тизимида педагогик ва ахборот технологияларни самарали ва ўринли қўллаш учун аввало, ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ошириш учун, албатта, компьютер ва ахборот технологиялари соҳаси бўйича билимларни яхшироқ эгаллаш зарур. Педагогларнинг иш фаолияти кўпроқ ахборотларни тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатиш билан боғлиқ бўлганлиги учун, ушбу ахборотлардан замонавий компьютер ва ахборот технологиялари асосида самарали фойдалана олиш билим ва малакасини эгаллаш зарурурияти пайдо бўлади. Шу билан бирга педагог кадрлар ахборот технологиялари, уларнинг имкониятлари ва уларни инсониятнинг барча фаолиятларига, шу жумладан телекоммуникация соҳасидаги фаолиятига таъсири тўғрисида маълумотга эга бўлишлари керак:

турли соҳаларда ахборот технологиялари ва тизимлари, уларни қўлла-нилиши билан боғлиқ бўлган асосий тушунчаларни ўзлаштириш;

ахборотларнинг тури, уларни турли компьютер хотираларида тасвир-лаш билан боғлиқ бўлган асосий тушунчаларни ўзлаштириш;


маълумотларни қайта ишлаш тушунчаларини ўрганиш ва ўзлаштириш, ҳамда турли маълумотлар тузилмалари билан ишлаш кўникмаларини ўзлаштириш;

телекоммуникация тизимларида рўй берадиган асосий ахборот жараёнлари билан танишиш;

масофавий таълим ва мультимедиа технологиялари, уларнинг дастурий ва техник воситалари билан танишиш.

Ҳар бир педагог ходим жамиятни, қолаверса таълим соҳасини ахборотлаштириш жараёнида етук мутахассис сифатида вақт сайин ошиб бораётган ахборот оқимида бемалол йўл топа олиши учун, у компьютер ва ахборот-коммуникацион, телекоммуникацион ва бошқа замонавий технологиялар ёрдамида тегишли ахборотни ола билиши, қайта ишлай олиши ва ундан фойдалана олиши керак бўлади. Бу эса ўз навбатида, малака ошириш тизимининг сифат ва самарадорлигини таъминлашнинг асосий воситалари сифатида ўқув ва амалий дастурлари, мультимедиа технологиялари, электрон ўқув адабиётлари, масофадан ўқитиш тизими, Интернет тармоғи ҳамда амалий дастурлар мажмуаси кенг қўлланилмоқда.

Хулоса ўрнида шунини таъкидлаш мумкинки, малака ошириш тизимида замонавий ахборот технологиялардан самарали фойдаланиш ўқитувчиларда ўз устида ишлаш, янги замонавий таълим ва ахборот технологияларини ўрганиш ва уларни дарсларда татбиқ этиш, ҳар бир дарсни қизиқарли ва ўзаро фаоллик ҳамда ҳамкорликда ташкил этиш малакаларини сезиларли даражада оширади.



BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING FOYDALANISH

N.Yunusova SamDU huzuridagi IXTXQTMO markaz o`qituvchisi
D.Ibodullayeva Tayloq tuman 3-maktab biologiya fan o`qituvchisi

Ta'lim samaradorligini oshirish, o`quvchilarni bilim salohiyatinig rivojlanishida interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Dars jarayonida o`quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to`g`ri va maqsadli foydalanish, har bir o`tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta`riflarni o`zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Metodlar asosida o`tilgan dars an`anaviy darslardan ko`ra yaxshi samara beradi. O`quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularning musatqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, asosan yosh-avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo`sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir

Interfaol mashg`ulotda ishtirok etish uchun o`quvchilarning tayyorgarliklariga o`ziga xos talablar qo`yiladi, bular mashg`ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o`zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o`zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o`z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko`nikmalari rivojlanadi. Shu sababli hozirgi kunda biologiya darslarida ham interfaol metodlardan keng foydalanib dars o`tish, o`quvchilarni to`liq o`quv jarayoniga jalb qilish tobora takomillashib bormoqda. Biologiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo`llash dars samaradorligini va o`quvchilar qiziqishini yanada oshiradi. Bizga ma`lumki, biologiya fani 5-9-sinflar kesimida o`tiladi. Turli sinflarda har xil yoshdagi bolalar o`qiydi. Darslarda bolalarga beriladigan topshiriqlar bolaning yoshiga qarab, psixologik jihatdan yondashgan holda berilishi kerak. Biologiya darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni quyidagi metodlarini qo`llash mumkin.

5-6-7 sinflarda biologiya fanini oqi`tish davomida darsda “Bliss-so`rov”, “Aql charxi”, “Chaqmoq savollar”, “Zanjir” metodlari va “Arra”, “Uyasini top” “Venn diagrammasi”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Klaster”, “Sxema” metodlarini va “Raqamlar tilga kirganda”, “O`rgimchak to`ri”, “Domino”, “So`z ichidan so`z toping” o`yinlarini dars o`tish davomida qo`llab borish mumkin.

8-9-sinfda Biologiya fanini oqitishda dars jarayonida “BBB”, “Raqamli diktant”, “Baliq skeleti”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Debat”, “Muammoli vaziyat”, “Keys-stadi” “Har kim har kimga o`rgatadi” “Qiyosiy diktant” kabi interfaol metodlarni qo`llash o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini va muammolarni hal qilish, masalalar yechish malakasini oshiradi. Masalan:

1- Nazorat topshirig`i “Qiyosiy diktant” texnologiyaning o`quvchi namunasi

1. Botanik M. Shleyden va zoolog T. Shvann. 2. R. Virxov. 3. A. Levenjuk 1680 yil. 4. I. Guk. 5. Ya. Purkine 1839 yilda. 6. B. Braun 1831 yild. 7. Yo. To`raqulov. 8. J. Hamidov .

Kashfiyotlar	1	2	3	4	5	6	7	8
Protoplazma								
Qizil qon tanachalarini								
Sellula								
Hujayra nazariyasi								
Hujayrasiz hayot yo`q								
Hujayrada yadro borligi								
Mikroskopni ixtiro qilgan								
To`qima tushunchasini fanga kiritgan								


1- Nazorat topshirig`i “Qiyosiy diktant” metodining o`qituvchi namunasi.

1. Botanik M. Shleyden va zoolog T. Shvann. 2. R. Virxov. 3. A. Levenjuk 1680 yil. 4. I. Guk. 5. Ya. Purkine 1839 yilda. 6. B. Braun 1831 yild. 7. F. Stelluti . 8.


Kashfiyotlar	1	2	3	4	5	6	7	8
Protoplazma					+			
Qizil qon tanachalarini			+					
Sellula				+				
Hujayra nazariyasi	+							
Hujayrasiz hayot yo`q		+						
Hujayrada yadro borligi						+		
Mikroskopni ixtiro qilgan							+	
To`qima tushunchasini fanga								+

kiriygan

2-Nazorat topshiriq. "Sxema" metodining o'quvchi namunasi
Qirqquloqning hayot sikli aks ettirilgan quyidagi sxemani to'ldiring



2-Nazorat topshirig'i "Sxema" metodining o'qituvchi namunasi
Qirqquloqning hayot sikli aks ettirilgan quyidagi sxemani to'ldiring



3-Nazorat topshirig'i "Biologik mashq" o'quvchi namunasi

1-Tirik mavjudotlarga xos eng muhim umumiy belgilardan biri ularning.....
tuzilganligidir.

2-Hujayrani.....fani o'rganadi.

3-Sitolodiya yunoncha.....hujayra.....fan ta'limot deyiladi

4-Tuban o'simliklarda.....hujayra yuksak o'simliklarda.....hujayra.

5-Hujayra.....tomonidan kashf etilgan.

6-Hujayra.....yilda kashf etilgan.

7-Hujayrani.....ko'rib bo'lmaydi.

8-Hujayrani.....ko'rsatadigan asboblar yordamida o'rganiladi.

2-Nazorat topshirig'i "Biologik mashq" o'qituvchi namunasi.

1-Tirik mavjudotlarga xos eng muhim umumiy belgilardan biri ularning hujayralardan
tuzilganligi.

2-Hujayrani sitalogiya fani o'rganadi.

3-Sitalogiya yunoncha "kitos" hujayra "logos" fan, ta'limot deyiladi.

4-Tuban o'simliklarda bita hujayra, yuksak o'simliklarda ko'p hujayra bo'ladi.

5-Hujayra Robert Guk tomonidan kashf etilgan.


6-Hujayra 1665-yilda kashf etilgan.

7-Hujayrani oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi.

8-Hujayrani kattalashtirib ko'rsatadigan asboblar yordamida o'rganiladi.

Interfaol metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi.
O'quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularning musatqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda

pedagoglarga oldiga qo'yilgan asosiy talab, keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli o'quvchilarni tarbiyalashdan iboratdir.



TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

X.Набиева - ABXTXKTУMOXМ катта ўқитувчиси

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikasiya texnologiyalar, ishlab chiqarish soxalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, xar bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim masalalaridan biri o'quvchilarning layoqatini, qobiliyatini xisobga olgan xolda kasbga yo'naltirilishidir. O'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash asosiy maqsadlarimizdan biridir. Yaxshi kasb-hunar egasi bulish insonning eng katta ziynati bo'lib, uning butun xayoti davomida katta foyda keltiradi. Uni farogatga, kamolotga yetkazadi, insonning xunar tufayli izzat-ikrom topishiga zamin yaratadi. O'z farzandlarini ilmi-hunarli qilib voyaga yetkazish millatimizga xos xislat bo'lib, ota-bobolarimiz farzandining savodini chiqarishi, hunarli qilish uchun eng yaxshi ustalariga shogirdlikka berganlar. Boshqa shaharlarga, bilim olish uchun yuborganlar. Xalqimizda ilm-xunar doimo ulug'lanib kelingan. Ilm-hunarli bo'lishga doim da'vat qilingan. Shunday ekan biz xamma vaqt ajdodlarga insoniyat erishayotgan eng yuksak marralarga qaratishimiz lozim. Texnologiya darslarida o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish Hozirgi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, zamonaviy ishlab chiqarish texnikasi va mehnat taksimotining xar jihatdan puxta ilmiy asosda tashkil etishni o'sib kelayotgan yosh avlodga xar tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'quvchi yoshlardan ayniqsa, mexnatsevarlik, mustaqillik, onglilik, faollik namoyon qilishini rivojlantirishni taqozo etadi.

Shuning uchun yosh va tajribali Texnologiya fani o'qituvchilari psixologiya-difektologlar maxsus maktablarning raxbarlari ta'lim-tarbiya jarayonida masalaning ana shu tomoniga ko'prok e'tiborni qaratmogi lozim. Shunday ekan barcha yosh o'qituvchilarni ilg'or pedagogik texnologiya asosida nazariy va ijtimoiy jihatdan qurollantirish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya darslarining samaradorligi va ta'limiy rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi rolini oshirish buyicha kilinadigan ishlar kuyidagi yunilish buyicha belgilanadi. - Yosh o'qituvchilarning ilmiy nazariy va metodik darajasini oshirish xakida gamxurlik. -Yosh o'qituvchilarning o'quv tarbiya ishlarit ustidan samarali nazoratni tashkil etish va mexnat ta'limi o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvi yullarini ishlab chikish. O'quvchilarda mexnatga mas'ul munosabatni tarbiyalash buyicha ish olib borish va kamchiliklarning oldini olish, bilim malaka va kunikmalarini yuksak sifatga ega bulishi uchun kurashish, bu ishga yosh va iqtidorli o'qituvchilarni jalb qilish. Ilgor va tajribali o'qituvchilari o'quvchilarga kasb-xunar tanlash bilan boglik bulgan Texnologiya darslariga qiziqish uyg'otish ko'rgazmali va amaliy harakatlar yordamida mehnat topshiriqlarni bajarishga o'rgatish kerak.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish qobiliyati. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim,malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Texnologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi: –texnologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini kundalik hayotida qo'llay olish hamda ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish qobiliyatidir.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, o'quvchilarga texnologiya fanini yo'nalishlari bo'yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.


O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan innovatsion pedagogik faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati xamda o'quvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p hollarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq, etganda, birinchi o'ringa texnik va tashkiliy masalalar, keyingi o'ringa esa o'qituvchi va o'quvchilarni innovatsion jarayonlarga tayyorlash masalalari qo'yiladi. Innovatsiyalarni tatbiq etishga o'qituvchilarning psixologik tayyorligi pedagogik innovatsion jarayonning muxim sharti hisoblanadi.

Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo'naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida axamiyat qaratish lozim.

Ilgor pedagogik texnologiyaga, interfaol usullardan foydalanishga, o'zi xam yangilik yaratuvchilarga ya'ni xilma-xil uslublarni o'ylab topilishini amalga qo'llashi;

- Yosh mutaxassislarining maktabga moslashishi davrida olib borilayotgan ishlar.
- Yosh mutaxassisni tajribali o'qituvchilarga birlashtirib qo'yish
- Maktabda tashkil qilinadigan «Yosh o'qituvchilar» klubiga a'zo qilib qo'yishi kerak.
- Maktabda ustoz-shogird rukni ostida turli musobaqalar o'tkazish.
- Murabbiy ustozlar tajribalarini ochiq darslar, sinfdan tashkari ishlari orqali keng targ'ibot qilish.
- Maktab rahbari hamda murabbiy o'qituvchining vazifasi endigina o'z ijodini boshlagan yosh o'qituvchining qobiliyatining ijodkorligini rivojlantirish.

Demak, o'qituvchi juda bilimli, maxoratli, ijodkor, talabchan, qiziquvchan, tashabbuskor bo'lishi talab etiladi.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

М.Эшбоев Учитель школы №35 Иштиханского района

С изобретением компьютера, а так же после создания всемирной компьютерной сети Интернет многие стороны человеческой жизни качественно изменились. Эти изменения коснулись также и образования. В большинстве случаев процесс подготовки уроков в современных школах осуществляется с помощью информационных технологий. В наше время компьютерные технологии часто являются незаменимыми во время проведения занятий в школах, так как дают возможность оживить урок, вызвать интерес к предметам.

Применение информационных технологий в преподавании родного языка и литературы способствует совершенствованию практических умений и навыков, позволяет эффективнее организовать самостоятельную работу и индивидуализировать процесс обучения, повышает интерес к урокам словесности, активизирует познавательную деятельность учащихся и развивает творческий потенциал.

Задача учителя-словесника – сделать каждый урок привлекательным и по-настоящему современным. Надо научить детей бережно, умело обращаться со словом, гордиться красотой и уникальностью родного языка особенно в наше время, когда так бурно развиваются наука и техника, а компьютерные технологии прочно входят в нашу жизнь, охватывая все сферы жизнедеятельности человека: промышленность, экономику, политику, культуру и, конечно, образование.

Информационные технологии используются в обучении на следующих этапах:

- во вступительном слове учителя или учащихся;
- на этапе предъявления учебной информации;

- на этапе усвоения учебного материала в процессе интерактивного взаимодействия с компьютером;
- на этапе повторения и закрепления усвоенных знаний (навыков, умений);
- на этапе промежуточного и итогового контроля и самоконтроля достигнутых результатов обучения;
- на этапе коррекции и самого процесса обучения и его результатов путем совершенствования дозировки учебного материала, его классификации, систематизации и др.;
- во внеурочное время при подготовке домашних заданий, выступлений на уроках и научно-практических конференциях, при подготовке к внеклассным мероприятиям;

В кабинете, оснащённом компьютерной техникой, у учащихся появляется заинтересованность и потребность в знаниях.

Целесообразно использовать информационные технологии в обучении родному языку и литературе, учитывая, что современные компьютеры позволяют интегрировать в рамках одной программы тексты, графику, звук, анимацию, видеоклипы, высококачественные фотоизображения?

Во-первых, при изложении нового материала: визуализация знаний (демонстрационно-энциклопедические программы, программы создания презентаций, интерактивная доска). Во-вторых, на этапе закрепления изученного материала (программы-тренажеры).

В-третьих, при контроле и проверке изученного (программы для тестирования и контроля).

В-четвертых, при самостоятельной работе учащихся (программы-репетиторы, электронные энциклопедии, развивающие программы). Наконец, для индивидуальной тренировки конкретных способностей учащегося: внимания, памяти, мышления и т.п.

Технические возможности кабинета родного языка и литературы – это наличие интерактивной доски, коллекции дисков, обучающих программ, выход в Интернет в режиме on-line. В обучающих программах могут быть использованы разнообразные формы наглядности в виде таблиц, схем, опорных конспектов. Они демонстрируют не только статичную информацию, но и различные языковые явления в динамике с применением цвета, графики, эффекта мерцания, звука, «оживления» иллюстраций и так далее (это качественно новый уровень применения объяснительно-иллюстративного и репродуктивного методов обучения).

Особенно эффективно использование компьютера для тренинга и контроля усвоения знаний и навыков учащихся. В индивидуальной работе с учеником он способен выявить все пробелы в его грамотности и методически искоренять их до полной ликвидации.

Сейчас в распоряжении учителя появилось много образовательных программ на CD с тренажерами, моделирующими и контролирующими тестами, тренировочными упражнениями. Работая на компьютере с тестами, выполняя задания на интерактивной доске, дети проявляют неподдельный интерес, а элемент новизны способствует усилению внешней и внутренней мотивации обучения школьников.

На уроках закрепления изученного материала неocenимую помощь оказывают обучающие тесты из коллекции образовательных ресурсов. Известно всего три вида компьютерных заданий (выбор, ввод по шаблону, распределение по группам), но, работая с коллекцией, ученики встретятся с множеством их модификаций. Это разнообразие заданий объясняется не только стремлением сделать их более интересными для учеников. Чаще всего сама тема, языковой материал, ее обеспечивающий, требуют поиска формы, максимально отвечающей содержанию, а также поставленным задачам и целям. Многие задания иллюстрированы рисунками, их включение обосновано психологическими особенностями детей данной возрастной категории, а также игровой, занимательной формой многих заданий. Часто рисунок помогает решить поставленную перед учеником задачу. Такие виды работ повышают мотивацию учащихся к изучению правил, развивают внимание, скорость, умение работать в команде.

Для учащихся 8-9 классов разработана программа, которая состоит из теоретического блока (в форме презентаций по разным темам), из практических заданий, подобранных по образцу клуб внеклассной работы. Особый интерес вызывает запись радиопередачи «Мой голос», где ведущий рассказывает о происхождении слова, его лексическом значении и произношении.

На уроках родного языка и литературы можно использовать самые различные обучающие программы, электронные учебники, тестовые задания, электронные словари, аудиокниги, видеофильмы. Достоинство электронного учебника в том, что большой объём информации собран на одном диске, наглядно представлен и озвучен теоретический материал, предлагаются интерактивные диктанты, позволяющие получить моментальный результат и выявить темы, недостаточно усвоенные учеником.

Творчески работающий учитель всегда создаёт собственные электронные материалы, так как невозможно подобрать нужный материал по всем темам из электронных пособий.

С помощью мультимедийного проектора демонстрирую слайды, созданные в программе Microsoft Power Point, что позволяет, во-первых, значительно сэкономить время на уроке, во-вторых, увеличить яркость восприятия материала за счет предлагаемых словесных, наглядных и музыкальных образов, в-третьих, внести элементы занимательности, оживить учебный процесс.

Уроки литературы должны быть яркими, эмоциональными, с привлечением богатого иллюстративного материала, аудио- и видеосопровождения. В этом может помочь компьютерная техника с ее мультимедийными возможностями, которые позволяют увидеть мир глазами живописцев, услышать классическую музыку, профессиональное, актерское прочтение стихов и прозы.


Сегодня на уроке литературы можно совершить виртуальную экскурсию на родину писателя или поэта, побывать в его музее, услышать мастерское чтение любимых классических произведений, познакомиться с критическими материалами, в Интернете найти нужную информацию. В кабинете литературы представлена видеотека шедевров узбекского кинематографа по произведениям писателей 19-20 веков. Просмотр фрагментов фильма заставляет учащихся по-новому взглянуть на произведение, визуализация образов героев делает их ближе, понятнее, у многих появляется желание перечитать произведение, сравнить фильм с текстом.

Важнейшим направлением использования информационных технологий в учебном и воспитательном процессе также считаю проектную деятельность учащихся. Выполнение ученических работ в виде презентаций, докладов с помощью компьютерных программ позволяет формировать и развивать навыки самообразования школьников, соответствует методике научного познания, обеспечивает усвоение знания не на репродуктивном, а на творческом уровне.

Компьютерные технологии дают самые широкие возможности для развития творческого потенциала школьников. Учитель может научить ребенка грамотно использовать компьютер, показать, что он не только игрушка и средство общения с друзьями. При умелом наставничестве педагога подросток учится среди обилия информации в Интернете находить нужную, учиться обрабатывать эту информацию, что является наиболее важной задачей. Все мы уже сталкиваемся с тем, что наши ученики приносят аккуратно переписанные с сайтов сочинения, бездумно и совершенно без усилий перепечатанные доклады и рефераты. Есть ли польза в такой «работе»? Минимальная. Что может сделать учитель, чтобы подобная работа все же приносила пользу? Создать необходимость обработать найденную информацию, преобразовав ее, например, в виде опорной схемы, презентации, тестовых заданий, вопросов по теме и т.п.

Самое элементарное применение компьютера ребятами – редактирование текстов, набор текстов своих творческих работ, своих стихов, составление сборников, создание компьютерных рисунков. Старшеклассники оформляют свои доклады, рефераты с помощью компьютера, делают сами рисунки, схемы, помогают делать тесты, пособия по литературе, дидактический материал. Надо отметить, что ребятам нравится выполнять задания на компьютере. Это тот самый случай, когда приятное соединяется с полезным.

Таким образом, использование ИКТ на уроках значительно повышает не только эффективность обучения, но и помогает создать более продуктивную атмосферу на уроке, заинтересованность учеников в изучаемом материале. Кроме этого, владение и использование ИКТ – хороший способ не отстать от времени и от своих учеников.



СОВРЕМЕННЫЙ УЧИТЕЛЬ- ФАСИЛИТАТОР

Шавкат Турабович Нишанов Заведующий кафедрой методики обучения языков Регионального центра переподготовки и повышения квалификации работников народного образования при Джизакском государственном педагогическом институте
Тен Эльзара Иззетовна Учитель русского языка и литературы средней школы №1 города Джизака

Профессию педагога невозможно сравнить ни с какой другой, потому что это не только работа, это редкий дар души. Это самоотверженность и желание отдавать свое тепло, свою энергию десяткам, сотням детей. Какие они, педагоги, что для них важно в жизни, в профессии? Какими чертами характера они обладают и на какие ценности ориентируются в профессиональной деятельности? Обратимся к истории. Великий русский писатель и педагог Лев Николаевич Толстой видел в педагогической профессии, прежде всего, гуманистическое начало, которое находит свое выражение в любви к детям . «Если учитель имеет только любовь к делу, -писал Л.Н.Толстой, - он будет хороший учитель. Если учитель имеет любовь к ученику , как отец, мать он будет лучше того учителя , который прочел все книги , но не имеет любви ни к делу, ни к ученикам. Если учитель совмещает в себе любовь и к делу, и к ученикам, он- совершенный учитель».

Изменения, происходящие в стране, в обществе, коренным образом затронули школьную жизнь: изменились не только программы, учебники, методы и формы работы, но и наши ученики, родители и, конечно, педагоги.

Сегодня перед учителем стоит не совсем простая задача – создать условия для развития творческих способностей, развивать у учеников стремление к творческому восприятию знаний, учить их самостоятельно мыслить, полнее реализовать их потребности, повышать мотивацию к изучению предметов поощрять их индивидуальные склонности и дарования. Никто не сомневается, что будущее нашего общества зависит от сидящих за школьной партой ребят. Необходимо, чтобы учащиеся научились не только отвечать на вопросы, которые ставит перед ними учитель, но и самостоятельно формулировать их для себя в процессе изучения материала.

А можно ли назвать современным учителя, который не занимается своим самообразованием, ничему не учится от своих учеников? Наши дети по иному видят окружающий мир, рисуют его яркими радужными красками. В этом мире, напоминающем раду, много теплоты, света, любви. А мысли наших учеников? Наверное, многие замечали, что порой высказывания наших учеников значительно отличаются от прописных истин взрослых своей глубиной. Современный учитель не только должен учить детей, но и сам способен учиться у своих учеников.

Ведь учитель: - это человек, который стоит между наукой и маленькой личностью. Он эрудирован и образован, знающий свой предмет: только большой багаж знаний дает право учить других.

Учитель сегодняшнего дня – это человек преданный своему делу и своим ученикам.

Современный учитель должен быть фасилитатором. Фасилитатор -это не тот кто стоит перед учениками и ведет урок. Фасилитатор является активным и объективным участником процесса обучения. Фасилитатор- это профессионал, владеющий комплексом качеств, которые способствуют успешной передаче знаний. Когда надо, он артист, художник, потребуется – писатель, певец.

Отличительными чертами современного педагога, педагога – фасилитатора, мастера являются постоянное самосовершенствование, самокритичность, эрудиция и высокая культура труда.

Профессиональный рост учителя невозможен без самообразовательной потребности. Именно это является одной из причин моего личного участия в обучающих, практических семинарах, методобъединениях, курсах повышения квалификации.

Труд учителя неимоверно тяжел, но столь же и интересен, он дает возможности безграничного творчества. Оказавшись в трудной ситуации, вспомним советы психологов: « Не можете изменить ситуацию, измените свое отношение к ней». Всегда найдутся те, кто смогут в этом вам помочь, те, кто вас окружают: учителя – единомышленники и ученики.

В XXI веке учитель вошел в век новых информационных и коммуникативных технологий. И не вызывает сомнения то, что современному учителю необходимо быть компетентным в области ИКТ и внедрять их в учебный процесс. Знаю, по своему опыту, что уроки с применением мультимедиа и интернета повышают интерес к изучаемому материалу, возрастает эффективность самостоятельной работы, появляется возможность шире реализовать свои творческие возможности.

У современного учителя кардинально изменено отношение к ученику, уходит из практики авторитарность. Педагог должен уважать ребенка. Сегодня учителя ребенок не может интересовать только как ученик. У каждого из них свои качества, потребности, цели, желания, поэтому учитель должен относиться к ученику как человек к человеку. Учитель не должен видеть ученика только в будущем, каким он должен стать, а понять его сегодняшнего, такого, какой он есть: с его трудностями в учебе, переживаниями. У современного хорошего учителя должен быть построен индивидуальный образовательный маршрут для каждого ученика.

На уроке ученик и учитель должны быть сотрудниками. Только в деловой и доброжелательной обстановке ребенок будет раскрывать и реализовывать свои возможности.

Главным работником на уроке должен быть ученик. Современные требования к учителю таковы, что он помогает ученику учиться самому, воспитывает потребность в образовании. Еще в XIX веке выдающийся педагог Адольф Дистервег сказал: «Плохой учитель преподносит истину, хороший учит ее находить». Ведь, если кормить ребенка постоянно с ложки, которую ему не дают в руки, он и не научится питаться сам. Так и учителю надо научить школьника добывать знания собственными усилиями, и только тогда можно воспитать думающего, свободно рассуждающего, не боящегося высказывать и отстаивать свое мнение ученика.

Я считаю, что учитель XXI века это тот, кто в первую очередь умеет находить общий язык со своими учениками, ориентироваться среди малышей, подростков и старшеклассников. Значит, он должен быть идеальным психологом.

Кроме того, учитель должен идти в ногу со временем, быть разносторонним человеком, не ограничиваться только сферой своего предмета. Ученики начинают воспринимать учителя иначе – как человека, понимающего их интересы, готового к сотрудничеству.

Он должен быть современным интеллигентным человеком. Уметь так заинтересовать детей, чтобы они на урок приходили с удовольствием, чтобы занятия пролетали миготом и чтобы после уроков дети ждали следующих встреч. Использовать на уроке: современные технологии - медиапрезентации, элементы игровых технологий, для того чтобы детям не было скучно на уроке.


Но любому талантливому учителю трудно будет реализовать свой творческий потенциал при несовершенстве системы образования, как не может быть хорошей системы образования без хорошего учителя. Современная система образования должна соответствовать тем изменениям, которые происходят в науке, технике, педагогических технологиях, а также в деятельности самого педагога. Так и учитель должен соответствовать современным требованиям. Идеальный учитель - это не миф, не утопия. Идеальный учитель – это человек, который имеет значительный профессиональный опыт, в совершенстве знает свой предмет и методику его преподавания, обладает высоким уровнем методологической культуры, занимается самообразованием. Справедлив и ровен в общении со всеми учащимися, эмпатичен. Как в капле росы отражается весь мир, так и в учителе должна отражаться вся культура.

Свое размышление хочется закончить словами из стихотворения Г.П.Петелиной:

« В нашей жизни все неповторимо,
Так ведется издавна, в веках,
Только лишь одно бесспорно, зримо:
Кто учил – живет в учениках».

Список литературы

- Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения –М.1995
Мейдер В.А. статья// Личность педагога в образовательном пространстве»// Здравый смысл-2007 №3-(44)
Сухомлинский В.А. Избранные произведения В 5т.-Киев,1980
Толстой Л.Н. Педагогические сочинения М-1956-с.362
Ушинский К.Д. Собрание сочинений в 11т-М.1951-т.2-с.32



КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Айбек Каримович Қулимов – Урганч давлат университети ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ
кафедра мудири, кимё фанлари номзоди, доцент,
Интизор Рустамовна Рахимова - Хоразм вилояти Урганч тумани
4-сон умумий ўрта таълим мактаби директори*

Маълумки, “педагогика” атамасининг юнон тилидан таржимаси “болани бошқариш, етакчилик қилиш” маъносини англатади. Кейинчалик педагогика фан сифатида нафақат болаларни, балки катта ёшдаги инсонларни ҳам таълим-тарбиясини амалга ошириш масалаларини қамраб олди.

Бугунги кунда катта ёшдаги инсонларнинг таълими жараёнини ташкил қилишга янгича қарашлар ва ёндашувларга эътибор ва зарурат тобора ўсиб бормоқда. Бунинг натижасида таълим соҳасида янги илмий йўналиш сифатида андрогогика, яъни катталар таълими муаммолари билан шуғулланувчи фан шакллана бошлади.

Андрогогика нафақат катта ёшдаги кишиларнинг ижтимоий-психологик ёки касбий муносабатларида, балки ўзлаштирилиши назарда тутилаётган турли хил таълимий вазифалар қўйилганда намоён бўлади.

Андрогог – асосий касбий функцияси катталарни ўқитишдан иборат бўлган мутахассисдир. Демак, андрогог катталар билан мулоқотнинг турли шаклларида ижтимоий воситачи бўлган, улар томонидан янги билимлар эгалланишининг барча жараёнларига ёрдам берадиган ва ижтимоий мақсадларга эришишда катта ёшдаги инсоннинг таълимий фаолиятини замонавийлаштирувчи мутахассис, профессионалдир.

Катталар таълими билан шуғулланувчи андрогог учун қуйидагилар муҳимдир:

- ✓ ўзининг имкониятлари, кучли ва кучсиз томонларини объектив баҳолаш;
- ✓ катта ёшдаги таълим олувчининг касбий аҳамиятли сифатларини англаши;
- ✓ олинган инсон тўғрисидаги билимларини ўзининг кейинги касбий фаолияти учун аҳамиятли сифатларини англаши;
- ✓ ўзи томонидан танланган ихтисосликнинг кейинги истиқболини кўра билиши.

Бундан ташқари замонавий таълим муваффақиятини ўзида ифода этувчи компетентлилик тушунчаси катталар таълими билан шуғулланувчи мутахассис учун ҳам муҳим саналади. Инновацион компетентлик педагогик жараёни такомиллаштириш, таълим сифатини яхшилаш, тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга доир янги ғояларни илгари суриш, уларни амалиётга муваффақиятли татбиқ этиш демакдир. Андрогог, таълим жараёнига инновацияларни татбиқ қилар экан, дастлаб гуруҳни жипслаштириш ва ўзаро самарали мулоқотни ташкил қилиш масалаларига эътибор қаратиши муҳим. Зеро, турли ёшдаги ва турлича ҳудудлардан ташриф буюрган педагоглар, яъни тингловчилар дастлаб ўзларини тортинчоқ тарзда фаолият олиб бориб, ўз тажрибасини ва билимини гуруҳдошларига етказишдан чўчиши мумкин. Бундай ҳолатларни бартараф этиш учун жамоада дўстона муҳит, аҳил жамоа ташкил этиш зарур. Қуйида тавсия қилинаётган “Ўз ўрнингизни топинг” машқи гуруҳ тингловчилари ўртасида аҳиллик ва ҳамкорликнинг амалга ошишига кўмаклашади. Гуруҳ аъзолари ўртасидаги таранглик, одамовилик сингари хусусиятларнинг юмшатилишига ва ижобий эмоционал муҳитнинг яратилишига ёрдам беради. Машқни ўтказиш учун олдиндан доска, қоғоз ва маркерлар тайёрлаб қўйилади.

Андрогог кўрсатмаси билан у томонидан ҳар бир иштирокчига тарқатма материал - қоғозлар тарқатилади. Тарқатилган қоғозларга тингловчилар исми ва ўзларининг қизиқишларини ёзишади. Иштирокчилар топширикни бажариб бўлгунларига қадар синф доскасига “Гуруҳ расми” деган ёзув ёзиб қўйилади. Ҳар бир тингловчи “Гуруҳ расми”га ўз расмини ёпиштиради. Барча қатнашчилар томонидан машқ бажариб бўлингач, муҳокама олиб борилади. Ўзини пастга илган иштирокчилардан бу ҳолатнинг сабаби сўралади. Машқ якунида қизиқишлари бир-бирига ўхшаб кетадиган тингловчиларнинг битта кичик гуруҳга жам бўлишини амалга ошириш ва дарснинг навбатдаги босқичига ўтиш мумкин.

Кейинги машғулотларда “Омадсизлар” машқидан фойдаланиш мумкин. Бунинг учун андрогог тингловчиларга 5-6 тадан иштирокчига олдиндан қуйидаги кўрсатмаларни бериши мумкин.

Сиз бутун машғулот давомида фақат қўлингизни орқага қилиб ўтиринг.

Бутун машғулот давомида сизга гапириш руҳсат этилмайди.

Бутун машғулот давомида хонадаги бўш стулларга галма-галдан ўтиринг.
Бутун машғулот давомида бошингизни столга қўйиб ўтиринг.
Сизга ўрнингиздан туришга рухсат этилмайди. Бирор бир нарсани ўйнаб ўтиринг.
Иштирокчилар бажараётган ишга аралашманг.

Бутун гуруҳга 10 дақиқа вақт мобайнида қуйидаги топшириқларни бажариш вазифаси берилади:

Қоғоздан 10 та қуш ясанг
Хонадаги барча гулларга сув қуйинг
Истаган 8-10 қатор маттни ёдланг
10 та геометрик шакл ясанг
Қоғоздан болалар учун стакан ясанг

Андроғог иштирокчиларга шу вазифанинг барчасини 10 дақиқадан сўнг қабул қилишини айтади ва барча ишларнинг аниқ бажарилганини текшириб, қабул қилиб олади.

Муҳокама босқичида тренер сифатида барча иштирокчиларга -
Машқ сизга ёқдими? Нимаси билан ёқди?

Машқни бажариш жараёнида нималарни ҳис қилдингиз?

Қандай қийинчиликлар бўлди?

Сизни диққатингизни ўзига тортган иштирокчилар бўлдимиди?

Нима деб ўйлайсиз, вазифани бажаришда ҳамма барабар иштирок этдимиди? Нима учун?

Сиз жараёнда қатнашмаган иштирокчиларни жалб этишга ҳаракат қилдингизми? Нима учун?

Роль ижро этувчилар, сиз қандай ролни ижро этдингиз ва ушбу ролда ўзингизни қандай ҳис қилдингиз?

Роль ижро этувчилар сиз айтайлик, ролингиздан қатъий назар жараёнда иштирок этишингиз мумкинмиди? (ха, масалан гапириш мумкин бўлмаган иштирокчи яшашга ёрдам бериши ёки қўли орқада ўтирган одам маслаҳат бериши мумкин эди)


Машқни нима мақсадда ўтказдик?

Машқдан қандай хулоса яшаш мумкин? –қабилдаги саволлар берилади.

Имконияти чеклаб қўйилган иштирокчиларнинг ҳиссиётлари алоҳида таҳлил қилинади. Яъни биз, педагог сифатида қўштирноқ ичидаги ўзимизга ёқмайдиган ўқувчиларнинг фаолиятини чеклаб қўяётганлигимиз катта хатолик эканлиги эътироф қилинади.

Иккинчи муаллим номи билан машҳур бўлган Ал Форобий - “Ўқитувчи ва раҳбарнинг вазифаси доно давлат раҳбари вазифасига ўхшайди, шу сабабли ўқитувчи эшитган ва кўрганларининг барчасини эслаб қолиши, ақл-фаросатга, чиройли нутққа эга бўлиши ўқувчиларга айтмоқчи бўлган фикрларини тўла ва аниқ, ифодалаб беришни билмоғи лозим. Шу билан бирга ўз ор-номусини қадрлаши, адолатли бўлиши лозим. Ана шундагина у инсонийликнинг юксак даражасига эга бўлади ва бахт чўққисига эришади”,- деб таъкидлайди.

Демак, ўқитувчи катта ёки кичик ёшда бўлишидан қатъий назар ўз таълим олувчисининг қалбини забт эта олмас экан, ўзига эргаштира олиш ва шахсий намуна бўлиш каби хусусиятларга эга бўла олмайди. Муаллимлик деб аталгувчи шарафли йўлда нотиклик, ақлу-заковат, адолат ўқитувчи йўлини маёқ сингари ёритиб туради.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGLARNING FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Bahodir Islomovich Usmonov

Sherzod Sag'dullayevich Hayitmurodov

SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi o'qituvchisi

О'қитувчи та'лим-тарбия соҳасидаги ислоhotlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs bo'lib qolmoqda. Islohotlarning sifati va samaradorligi o'qituvchining ijodkorligi, faolligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Ta'lim muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarni kasbiy mahoratini oshirish va axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish hamda monitoringini olib borish, ta'lim jarayonida pedagoglarning ilmiy, pedagogik, psixologik, didaktik va metodik usullardan foydalanishidagi bo'shliqlarni aniqlash, to'ldirish yo'llarini belgilashni muvofiqlashtirish yo'llarini belgilash zarur. Bunda

bevosita Xalq ta'limi vazirligi tomonidan joriy etilgan "Mahorat maktabi", "Dars muqaddas", "O'rgan o'rgat" tizimi o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu jarayon samaradorligini oshirishda tuman xalq ta'limi bo'limi, tayanch maktablarda tashkil etilgan tuman fan uyushmalari va malaka oshirish markazlari bilan hamkorlikda aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Ya'ni uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning sifat samaradorligini oshirish hamda uni takomillashtirib borishni talab etiladi.

Maktabda uzluksiz malaka oshirishning asosiy tashkiliy shakli pedagog kadrlarning yakka tartibda shaxsiy dasturi (ish rejasi) asosida uzluksiz mustaqil o'z ustilarida ishlashlari va malakalarini oshirishlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda "uzluksiz o'rganish", "umr bo'yi ta'lim" tushunchalari dolzarb bo'lmoqda. Doimiy rivojlanish, o'z shaxsini takomillashtirish jarayoni ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini tortmoqda.

O'qituvchi faoliyatining kasbiy diagnostikasi uni yanada yuqori natijaga erishishini ta'minlash uchun o'zlashtirishi va o'z faoliyatida qo'llashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ish ko'nikmalari va malakalarni aniqlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab, xulosalar chiqariladi.

Pedagog tuman metodika kabineti metodisti (fani yo'nalishida), maktab ma'muriyati va metodbirlashmasi rahbari tomonidan pedagogik diagnostikadan o'tkazilgandan keyin uning kasbiy mahorati, metodik tayyorligi, psixologik va pedagogik, umumiy madaniy-ma'rifiy darajasi, huquqiy, iqtisodiy, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakasi yuzasidan malakasini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Yuqoridagidan kelib chiqib, o'qituvchi faoliyatini quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratib diagnostika qilish mumkin:

- mutaxassislik fani bo'yicha nazariy bilimlari va shu sohadagi so'nggi yangiliklarni bilishi;
- fanni o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlari va ularni amalda qo'llashi samaradorligi;
- tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan amalda foydalanishi;
- ilg'or pedagogik va axborot-kommunikativ texnologiyalarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi;
- pedagogik, psixologik, iqtisod masalalari, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari bo'yicha tayyorgarligi darajasi;

- o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini DTSga mosligi, ularning fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlarda ishtiroki;

- maktab pedagogika (metodik) kengashi, fan metodbirlashmasi ishidagi faolligi, tayyorlagan ilmiy-metodik ma'ruzalari, axborotlarini mazmun-mohiyati, ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi;

- sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borishi sifati va samaradorligi hamda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlashda sinfdan va maktabdan tashqari to'garaklar va qo'shimcha ta'limga jalb etishi;

- ta'lim muassasasi, oila, mahalla va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari samaradorligi;
- ko'rik-tanlov, musobaqa, konferensiya, seminarlarda ishtiroki;
- ommaviy axborot vositalarida (gazeta, jurnal, radio, televideniye, ...) chiqishlari;
- hamkasblari, o'quvchilari va ota-onalarning baholari.

Ushbu yuqorida keltirilgan tarkibiy qismlar bo'yicha kasbiy diagnostikani tegishlicha shakl va usullarda amalga oshiriladi: hujjatlar asosida o'rganish, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, o'zini-o'zi diagnostika, o'qituvchining pedagogik faoliyati to'g'risida hamkasblari, o'quvchilar, ota-onalar fikrlarini o'rganish hamda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va tavsiyalar berishdan iborat. Shu borada umumiy o'rta ta'lim pedagoglari interfaol-innovatsion usullarni dars jarayoniga qo'llab, o'quvchilarning ongiga singdirishda milliy g'oya, milliy mafkura g'ururini shakllantirib, komil, barkamol va intellektual rivojlangan insonni voyaga yetkazishda o'zida bor bo'lgan bilim, mahoratlarini ishga solishi lozim. Umumta'lim maktablarida mutaxassislik fanlaridan Davlat ta'lim standartlari va Davlat talablari asosida dars berib kasbiy va pedagogik mahoratlarini doimiy ravishda oshira borib, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada bajarishlari uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish hayotiy zaruratdir. Bunda ilg'or pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning noan'anaviy, interfaol va boshqa usullaridan foydalanib, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limni tubdan isloh etish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar ta'lim-tayyorgarlik darajasini va bilim, ko'nikma hamda malakalarini chuqurlashtirib, kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Bunga o'z navbatida malaka oshirish markazlaridan olingan yangiliklar birinchi navbatda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlili va

natijasining monitoringiga, fan o'qituvchilarining ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida noan'anaviy, interfaol hamda innovatsion usullarni dars jarayonlariga qo'llab, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish orqali erishish mumkin.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR

O. Shodiyeva - SamDU magistranti

Respublikamizda boshqa fanlar qatorida musiqiy ta'lim va tarbiyani tizimli shakllantirishda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishda o'qituvchining o'rni kata. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, izlanuvchan va keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi kerak.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari tez o'zgaruvchan dunyo sharoitida nimaga o'rgatish va qanday o'rgatish kerak kabi savollarga javob izlashlari lozim. Shu bois, interfaol usullar, o'qitish muhitini yaratish orqali o'qitish hamda o'qitish shakllari, ta'limdagi yangi innovasiyalarni muntazam ravishda o'rganib borishni taqozo etadi.

Musiqani o'qitishda pedagogik texnologiyaning qo'llanishi uchun o'quv jarayonini loyihalash orqali o'qituvchi kata mahorat va tajribaga ega bo'lishi kerak. Darslarni aniq loyihalashtirib, musiqiy o'quv materialini o'quvchilar bilimini o'zlashtirish darajalariga moslashtirish lozim. Ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni amaliy tadbiq etish ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayon bulib, o'qituvchi kasb faoliyatining texnologiyalashuvi hamda o'quvchi bilim olish faoliyatini texnologiyalashtirishni o'z ichiga oladi.

Keyingi o'n yillar davomida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar ko'p uchrab turadi. Shuning uchun ham pedagogik olim va adabiyotchilarimiz ilmiy asoslangan holda pedagogika sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati tug'ildi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudki, ular hayot talabidan va takomilidan kelib chiqadi va amalga oshadi.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlarida quyidagilarni aniqlash lozim:

ta'lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

ta'lim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish.

Ta'limda uzluksizlikni ta'minlash, metodik tizim deb ataluvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl kabi uning tarkibiy qismlari orasidagi uzviy aloqalarga bog'liq. Yangi pedagogik texnologiyalarni bizning ta'lim tizimimizga mos bo'lgan hamda dars jarayonida ta'lim olish va berishning yuqori sifat ko'rsatkichiga erishishga qaratilgan usullarni tanlay olish bugungi kun pedagogining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir o'quv predmeti bo'yicha samaradorlikka erishish uchun ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan innovasion texnologiyalardan unumli foydalanish lozim.

Innovasiya (inglizcha) innovation - "yangilik kiritish" degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, mamlakatimiz hayotining hamma jabhalarini innovasion jarayonlar kamrab olayotganligi katorida ular o'qitishning yangicha, noan'anaviy usullari shaklida ta'lim-tarbiya amaliyotiga tobora keng joriy etib borilmokda. Innovasion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimining rasional yo'llarini ishlab chiquvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborot va bilimlarni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iboratdir.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashdagi interfaol metodlar juda ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressive usullar kabi eng avvalo o'qituvchidan darsga oldindan katta tayyorgarlikni talab etadi. O'qituvchi dars loyihasini ishlab chiqishdan oldin qaysi metod tordamida o'quvchilardagi bilim, ko'nikma, malakalarni to'liq o'zlashtirishini amalgam oshirish imkoniyatini aniqlashi va so'ngra amalda qo'llashi lozim.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini ko'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiyasi hosil bo'lib, bu esa o'qituvchi va o'quvchining o'zaro do'stona yaqinlashuviga imkoniyat yaratadi.

"Interfaol" usullar o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mustaqil fikr- mulohaza yuritishi, munosabat bildirishi kabi ko'nikmalarni shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, kafolatlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chikadi, dalil xamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu, axborotni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat yo'l ko'rsatuvchi, tashkil kiluvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

"Interfaol"- "o'quvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-o'quvchi" o'rtasida sodir buladigan muloqot usuli (masalan: musiqiy asarni o'qituvchi o'quvchi bilan birgalikda ijro etishi), hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirilishiga erishiladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullarda o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin.

"Aqliy xujum" - Sinfdagi har bir o'quvchiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning barcha fikrlarini, shu jumladan aytarli to'g'ri bo'lmaganlarini ham inobatga olinadi.

"Tarmoklar" (Klaster) metodi – fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilar bilan bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Bu metod biron bir mavzuni chuqur o'rganish, avvalo o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat kilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu buyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Xullas, musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda innovasion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta bo'lib, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyaga ega bo'lib, u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda ko'rishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.



TEACHING FOREIGN LANGUAGE IN TEACHER TRAINING COURSES.

Azizbek Rajabbaevich Ataev teacher, INSETTC under the Urgench State University

The prospect of learning a new language as an adult can seem like "teaching an older (nearly retired) persons how to live" — that is, too difficult to be advisable. Despite the challenges adults — as opposed to children — tend to face in learning a foreign language, however, it is possible and worthwhile. If you are tasked with teaching adults a foreign language, an awareness of prevailing theories regarding how adults learn languages, along with more practical classroom advice, can make the effort more successful and enjoyable for all involved. Adults bring with them extensive life experience. This can be both an advantage and a disadvantage. It creates a filter through which they view a new language. Children, on the other hand, are less set in their ways and can more easily accept a foreign language for what it is.

So what are the recommendations to teach them!

Adults have a stronger relationship with their mother tongue! This means that they not only have to learn a new language, but they also have to override other language habits. The study of how adults learn, identifies additional ways in which adult learners differ from their younger counterparts:

- They want to understand why certain lessons are being taught.
- They particularly appreciate task-oriented learning.
- They often have less free time outside of class.
- They are more self-directing.
- They are learning the language due to need and have more of a life- or task-focus.

Childhood ! Adults are kids too. [They need encouragement](#), games and practice. Although adults appreciate clearly knowing the point or goal of an activity before beginning that does not mean that it can't be silly. Because adults tend to draw from experience and are learning their new language for a specific goal, [they prefer realistic games](#).

Teacher's beliefs about teaching and learning! People's beliefs are a very powerful tool in forming people's attitudes to life. Give more and more real life situations while teaching. You should explore the importance of beliefs in people's attitude to life. They feel the need to take responsibility for their lives and decisions and this is why it's important for them to have control over their learning. Therefore, self-assessment, a peer relationship with the instructor, multiple options and initial, yet subtle support are all imperative.

Use personal experience as a resource of teaching! Adults have lived longer, seen and done more, have the tendency to link their past experiences to anything new and validate new concepts based on prior learning. They have family, friends, work, and the need for personal quality time. This is why it's more difficult for an adult to make room for learning, while it's absolutely crucial to prioritize. If his life is already demanding, then the learning outcome will be compromised. Taking that under consideration, an instructional designer needs to create a flexible program, accommodate busy schedules, and accept the fact that personal obligations might obstruct the learning process. This is why it's crucial to form a class with adults that have similar life experience levels, encourage discussion and sharing, and generally create a learning community consisting of people who can profoundly interact.


Motivate as much as possible! Learning in adulthood is usually voluntary. Yes that, it's a personal choice to attend courses, in order to improve job skills and achieve professional growth. This motivation is the driving force behind learning and this is why it's crucial to tap into a learner's intrinsic impetus with the right thought-provoking material that will question conventional wisdom and stimulate his mind.

Be ready Critics ! Why they critics? One of the most important things that learners don't understand the language what you teach. Giving more variety of methods using interactive boards or interesting presentations can solve the problem. For all the value in understanding theories, learning happens in practice and usually, through practice. Simply put, teaching an adult a foreign language requires not only your mastery of the language as a teacher, but also a clear understanding of your learners background, motivation, goals, learning style, and needs.

Be flexible! There are as many ideal ways to learn a new language as there are people wanting to do it. Some even say that foreign languages cannot be taught, but only learned, implying that each learner's unique motivations and skills must be prioritized. Remember! each time you teach a new student or new class, then, your methods will likely need to adjust in order to have the most impact. Be flexible and willing to work with your adult learners, while drawing from a range of theories, strategies, and practical advice.

Progress! Another helpful tip is to have class reflections or progress checkups where you take the time to review the class's progress and upcoming goals. Older learners particularly appreciate reminders of what they have learned and reassurance that they are headed in the right direction.

Now you have a some suggestion of adult-centric strategies to help make your lessons a success. Have fun putting them to the test! You won't be disappointed.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШДА КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ СИФАТИНИ ОШИРИШ

С Сапаров., И.Б.Аминов
Самарқанд давлат университети

Бугунги кунда таълим тизимини бошқаришда замонавий компьютер технологияларидан кенг фойдаланиш, унинг сифатий ва миқдорий кўрсаткичларини аниқлаш ҳамда олинган натижаларни таҳлил ва башорат қилишдан иборат бўлган ахборот тизимини яратиш асосий масалалардан бири бўлиб ҳисобланиб, унинг мақсади компьютер технологияларидан фойдаланишнинг умумий ҳолати – бу иқтисодий ва ижтимоий критерия бўлиб, маълум бир вақт оралиғида унинг миқдорий ва сифатий кўрсаткичларини ҳамда улар асосида имкониятларини ривожланишида молиявий ҳолатини таҳлил ва башорат қилишдан иборат бўлади.

Таълим тизимининг барча фаолият турларида компьютер технологияларидан фойдаланиш ва унинг самарадорлигини ошириш кўплаб миқдорий ва сифатий кўрсаткичлари билан баҳоланади ва шулар асосида таҳлил қилинади. Ана шу кўрсаткичларни баҳолаш, таҳлил ва башорат қилиш учун таълим муассасасининг ахборот тизимини яратиш лозим бўлади.

Ўқув ва тарбиявий жараёнларда фойдаланиладиган ахборот ва дастурий таъминотининг сифати компьютер, компьютер воситалари, компьютер дастурлари ва ахборотларни узатиш ахборот тизими каби компоненталардан иборат кўрсаткичларлар орқали аниқланади:

ахборот тизими узлуксиз таълим жараёнига қўйилган талабга мос келиши ҳамда унинг мақсад ва моҳиятни ўзида акс эттириши лозим;

электрон ахборот ресурслари ва дастурий таъминотдан фойдаланиш имкониятини мавжудлиги;

электрон ахборот ресурсларидан фойланишнинг енгиллиги, соддалиги ва сифатининг турлилиги;

фойдаланиладиган электрон ахборот ресурсларининг тўлиқлиги, тезкорлиги, ишончлилиги ҳамда улардан фойдаланиш қулайлиги.

Таълим тизимида ўқув ва тарбиявий жараёнини бошқаришнинг сифатий ва миқдорий кўрсаткичлари самарадорлигини ошириш учун юқори даражали ахборот тизими билан таъминланилиши ҳамда унинг фаолияти қўйилган талаблар асосида баҳоланилиши керак.

Таълим жараёнини бошқариш ахборот тизими юқори даражага эришиши учун қуйидаги сифатларга эга бўлиши лозим:

агар электрон ахборот ресурсларни тўпловчи, сақловчи ва хизмат кўрсатувчи ташкилий тузилма мавжуд бўлиши;

таълим сифатини бошқариш жараёнининг асосий қисми бўлган умумтаълим мактабларининг ахборот тизими сифатини таҳлил қилиш ва баҳолаш тизими яратилган ва фаолият кўрсатаётган бўлиши;

ўқув-тарбия жараёнини самарадорлигини таъминлаш ахборот тизими бошқа электрон ахборот ресурслари билан интеграллашган бўлиши;

умумтаълим мактаблари ўқитувчилари ва ўқувчиларини ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини талаб даражасига ошириш учун махсус ўқув курслари фаолият кўрсатиши;

турли даражадаги фойдаланувчилар учун мўлжалланган ва турли кўринишидаги электрон ахборот ресурслари мавжуд бўлиши;

ахборот тизимидан фойдаланиш учун илмий ва ўқув-услубий адабиётлар билан таъминланган электрон кутубхона бўлиши ҳамда Интернет тармоғида юқори тезликда ишлаш имкониятининг мавжуд бўлиши;

умумтаълим мактабларининг локал тармоқлари замонавий компьютерлар ва дастурий воситалар билан таъминланган бўлиши лозим.

Таълим жараёнини бошқаришда компьютер технологияларидан фойдаланиш сифати билан боғлиқ бўлган ахборот муҳитининг ташкил этувчиларининг сифатий ва миқдорий кўрсаткичларини қуйидаги кўринишда ифодалаш мумкин:

компьютер техникасининг умумий сони;

компьютер синфларида мумкин бўлган ўринлар сони;

серверлар сони;

битта компьютерга тўғри келадиган талабалар сони;

глобал тармоққа уланган компьютерлар сони;

локал компьютер тармоқларининг мавжудлиги;
веб-сайт ларнинг мавжудлиги;
глобал компьютер тармоғи орқали мурожоат қилиш мумкин бўлган электрон ўқув материаллар, дарслиklar, қўлланмалар, яъни электрон кутубхона каталогининг мавжудлиги;
фойдаланиладиган замонавий дастурий воситаларнинг умумий сони;
дарс жараёнида фойдаланиш учун мўлжалланган ўргатувчи , ўқитиш ва намойиш дастурлари сони;
ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ахборот технологиялари саводхонлигини ошириш бўйича ўқув курсларининг мавжудлиги;

бошқа педагогик тармоқларига мурожоат қилиш имкониятининг таъминланганлиги.

Таълим жараёнини бошқаришда компьютер технологияларидан фойдаланиш ахборот тизимида қуйидаги кўринишда дастурий воситалар мавжуд бўлади:

тизимли ва амалий дастурлар; барча умумтаълим фанлари бўйича ўқитиш дастурлари (шу жумладан чет тили, информатика, математика, физика, тарих, рус тили, химия, она-тили ва адабиёт, биология ва бошқа фанлар);

ўқувчилар билимини назорат қилиш тест-дастурлари;


ўқитувчилар илмий ва педагогик салоҳиятини аниқловчи дастурлар;

умумтаълим мактабини битирувчиларини сифатий ва миқдорий кўрсаткичларини аниқловчи дастурлар.

Таълим жараёнини бошқаришда компьютер технологияларидан фойдаланиш сифатий ва миқдорий кўрсаткичларини яхшилашда ахборот тизимининг интранет ва Интернет-сервернинг ахборот-услубий таъминотининг мавжудлиги ва сифати жуда муҳим роль ўйнайди. Интернет ички фойдаланувчилар учун мавжуд электрон ахборот ресурслардан, Интернет эса ички ва ташқи фойдаланувчилар учун ҳам электрон ахборот ресурсларидан фойдаланиш имконини беради. Ахборот тизимининг маъмурий тармоғи интернет-серверда жойлашган бўлиб, ахборот-маълумотлар функциясини бажаради, яъни маъмурий ходимларнинг ишчи ўринларини ўқув-тарбиявий жараёнга тегишли керакли меъёрий хужжатлар, ҳисобот, маълумотли ахборотлар, яъни меъёрий-бошқариш хужжатларининг ахборот тўплами, буйруқлар, қарорлар, кўрсатмалар , хужжатлар, бир йилга мўлжалланган ўқув-тарбиявий иш режаси, соатлар ҳажми ва тақсимоли, маънавий-маърифий ишлар бўйича ўқитувчиларга услубий кўрсатма, режа ва буйруқлардан иборат бўлган тарбиявий иш, илғор педагогик тажрибаларини ўрга-ниш ва умумлаштириш, ўқув-методик адабиётларнинг таҳлили, ўқитувчилар-нинг услубий ишланмалари бўйича қарорлардан иборат услубий иш, ўқув жараёни, ўқитувчиларнинг ўқув-тарбиявий фаолияти, малака ошириш, ўқитувчиларнинг аттестациясининг назорати натижалари ва ҳақозалардан иборат бўлган ахборотлар билан таъминлайди.

Таълим тизими шахсий web-сервер ва web- ўқув-тарбиявий жараёнларни ва барча турдаги иш фаолиятларини реклама қилиш, ўқитувчиларнинг педагогик иш тажрибаларини оммалаштириш, ўқув-тарбиявий жараёни учун керакли замонавий дастурий воситалар билан таъминлаш, шу билан бирга Интернет тармоғида ишлаш имкониятини яратувчи тармоқ электрон ахборот ресурсларидан фойдаланиш имконини берувчи воситадир.

Умуман айтганда, таълим тизимини бошқаришда компьютер технологиялари фойдаланиш сифати ва самарадорлигини ошириш унинг ахборот тизимини ташкил этган электрон ахборот ресурслари ҳамда техник ва дастурий воситаларидан унумли фойдаланишга боғлиқ бўлади.



ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ФАНЛАРАРО БОҒЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ.

Тўтижон Мадаминовна Жуманиёзова - Урганч Давлат Университети ҳузуридаги ХТХҚТУМОХМ катта ўқитувчиси.

Уллибиби Эгамбердиевна Атабекова - Урганч Давлат Университети магистранти

Мустақил Ўзбекистонимизнинг тараққиёти ва келажагини асоси бўлган баркамол авлод, хусусан миллий кадрлар узлуксиз таълим жараёнида шаклланади. Узлуксиз таълим тизимини инсон ва жамиятнинг турли хил таълимий эҳтиёжларини қондириши, билимларнинг кадр-қиммати ва мавқеини кўтариш учун кенг имкониятларни яратиб бериши шахсни ижтимоий ҳимоя қилинишини таъминлайди.

Узлуксиз таълим ижодкор, ижтимоий фаол, маънавий бой шахсларни шакллантириш ва тез суръатларда юксак малакали рақобатдош кадрлар тайёрлаш учун керакли шарт-шароитларни яратади. Бунда физика фани ўқитувчилари олдида ҳам катта ижодий изланишлар олиб бориш масаласи туради.

Физика–бу табиатнинг оддий ва шу билан бирга мураккаб умумий қонуниятларини, ҳамда материянинг тузулиши, хусусиятлари, ҳаракатланиш қонуниятларини ўрганувчи фан бўлганлиги учун амалий ва табиий йўналишдаги фанлар билан узвий боғланган. Шунга кўра, айрим мавзулар кимё, биология, география ва математика каби бир нечта фанларда ҳам ўқитилади, такроран ўрганилади.

Сифатли таълимни амалга оширишда фанлараро алоқадорликни амалга ошириш асосий принциплардан бири бўлиб, уни амалга ошириш асосий муаммолардан саналади. Бу муаммони ҳал қилишда қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш жоиз деб ҳисоблаймиз:

1. Ўқувчиларга физикада ўрганаётган билимлари билан бошқа фанларда олган билимлари орасида узвий боғланиш мавжудлигини англаиб, оламнинг яхлит манзараси тўғрисида билим кўникмалар ҳосил қилиш.

2. Физика фанида фанлараро алоқадорликни амалга оширган ҳолда машғулотлар ташкил этишни усуллари.

Машғулотларни фанлараро боғланишда ўтишнинг илмий ва методик таъминоти асосларини яратиш.

Ҳар бир физика фани ўқитувчиси олдида қуйидагича савол туради. Фанлараро алоқадорлик ўқувчига нима беради?

- ✓ илмий дунёқарашни шакллантиришга асос бўлади, табиатни тўғри ва тўла англашга ўргатади;
- ✓ билим олишга бўлган қизиқишларни оширади;
- ✓ ўқувчиларни фойдали меҳнатга, ҳаётга тайёрлайди, мантиқий фикрлашга ўргатади;
- ✓ оламнинг табиий –илмий манзарасини яхлит тасаввур қилиш асосларини шакллантиради;
- ✓ илмий- техника ривожланиши мақсадида амалий фаолиятда физика қонунларининг қўлланилиши билан таништиради.

- ✓ физик билимларни ўрганишни осонлаштиради, қизиқишларни кучайтиради.

Фанлараро алоқадорликни қуйидаги шаклларда амалга ошириш мумкин.

1. Айнан бир хил объектни турли фанлар тамонидан ўрганилишини ҳисобга олиб билимларни ўзоро боғлаш.

2. Билимларни эгаллашда бошқа фанлардаги тушунчалардан, ўргатиш усуллари билан билимлардан фойдаланиш.

3. Дарс жараёнида қизиқишларни ошириш, диққатни жамлаш, тасаввур қилишни осонлаштириш мақсадида бошқа фанлардаги билимлардан фойдаланиш мумкин. Физика фанида фанлараро алоқадорликни турли хил шаклларда амалга ошириш мумкин. Физикавий ҳодисаларнинг биологик, кимёвий ва бошқа ҳодисалар билан боғланишини кўрсатиш, физикавий ҳодисаларнинг бошқа фанлараро қўлланилиши ҳақида маълумотлар бериш, физикадан машғулотларда ўқувчиларнинг бошқа фанларда ўрганган билим ва кўникмаларидан фойдаланиш, фанлараро алоқадорлик асосида экскурсиялар ташкил этиш, умумий характерга эга синфдан ташқари тадбирлар ташкил этиш, тўғарак ишлари ташкил этиш, кечалар ва конференциялар ташкил этиш, кузатишлар ва тажрибалар ўтказиш иборат.

Физика фанини қайси фанлар билан боғлиқликда ўтиш мумкин?

Математика, кимё, биология, астрономия, география, табиатшунослик фанлари физик билимларни илмий жиҳатдан чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради.

Адабиёт, тарих, мусика, тасвирий санъат каби фанлар билимларни ўргатишда қизиқишни ошириш, тасаввур қилишни осонлаштириш воситаси бўлиб хизмат қилади.

Физика фанини география фани билан боғлиқлиги:

“Атмосфера босими”, “Иссиқлик двигателлари ва уларнинг ишлаши”, ва бошқа мавзуларни ўрганиш бу иккала фан боғланишини кўрсатади. Ернинг тузулиши, ўлчамлари, ҳаракати, атмосфераси, атмосфера босимини ўлчаш, шамолларнинг ҳосил бўлиши, энергия манбалари ва энергиядан фойдаланиш тўғрисидаги билимлар асосида физика қонунлари мавжуд бўлиб бу билимлар география курсида ҳам ўрганилади.

Физика фанининг кимё фани билан боғлиқлиги:

Физика ва кимё фанларида модда тузулиши, атом ва молекулалар, ядро тузулиши, ядро реакциялари, модда микдори, кристалл панжаралар, электролиз ҳодисаси ва бошқа мавзулар ўз йўналишида ўрганилади. Элементлар даврий системасидан молекуляр физика, электр, атом ва ядро физикаси бўлимида фойдаланилади.

Фотосинтез - ёруғликда органик моддани ҳосил қилиш жараёни. Бу жараёни содир бўлиши учун: ўсимлик, сув, қуёш нури, углерод (IV) оксиди ва бошқалар бўлиши шарт.

Фотосинтез ўсимликнинг ўсиши, ривожланиши ҳосил бериши учун зарур бўладиган асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Ҳосил фотосинтез маҳсулотига боғлиқ бўлади; ўсимликнинг ёруғда озикланиш жараёнида вужудга келган ҳисобсиз дастлабки органик моддалардан ҳосил келиб чиқади. Ҳосилнинг мўл бўлиши фотосинтез жараёнида ўсимликнинг карбонат ангидриднинг ўзлаштиришига, барглarning умумий сатҳига, ёруғлик оқимига боғлиқ бўлади.

Мўл ҳосил олиш учун муайян шароитда экилган ўсимлик тупининг оптимал миқдори ва уларнинг жойлаштириш схемалари жуда катта аҳамиятга эга. Маълумки, пайкалда ўсимликнинг жуда ҳам қалин бўлиши ёруғликнинг етишмаслигига, натижада ҳосилнинг камайишига сабаб бўлади. қуёшдан ёруғлик нури ва кўринмайдиган (ултрабинафша) ҳамда инфрақизил (иссиқлик) нурлари, бундан ташқари тўғри ва ёйилган нурлар ерга тушади.

Кучсиз ёруғликда ўсган ўсимликлар ингичка, узун, сарғиш навалар чиқаради.

Ҳаво ҳарорати +350С бўлганда фотосинтез ҳодисаси яхши кечади.

Фотосинтез ҳаёт учун зарур омил.

Физика ва биология фанларини ўзаро қуйидагича боғлаш мумкин.

Масалан: Табиатда ишқаланиш кучлари мавжуд бўлгани учун ўсимликлар атрофдаги дарахтларга чирмашиб ўсади ва ёруғликка интилади. Ишқаланиш ҳайвонлар ўсимликлар ва инсонлар фаолиятида муҳим аҳамиятга эга. Шар шаклидаги нўхат, мош каби ўсимлик мевалари ишқаланишнинг камлигидан тез аралашади. Ҳар бир мева таркибида кислота мавжуд экани ботаника курсидан маълум. Бу кислоталардан электролит сифатида фойдаланиб, галваник элемент яшаш мумкин. Механик ҳаракат, реактив ҳаракат мавзуларида медузалар, кальмарлар ва саккиз оёқ каби ҳаракатини ҳайвонлар биологик билимлар асосида физикавий тамондан тушунтириш мумкин.

Ўқитувчининг фанлараро боғлаб дарслар ташкил этишда нималарга аҳамият қаратиши лозим:

✓ Ўқитувчи аввало бошқа фанлардаги иш режалар ва ўрганиладиган материал билан танишиб, иш режалар тузади.

✓ Фан ўқитувчилар билан доимий мулоқотни йўлга қўяди, муаммолар билан ўртоқлашиб ҳал қилиб боради.

✓ Ўқитувчи ўқувчиларга билимларни беришда бошқа фанларда олинган билимлар билан боғланишни кўрсатиб беради, олинган билимларни турли томондан таҳлил қилишда ўқувчига ёрдам беради, ўқувчиларни адабиётлар билан мустақил ишлай олишга йўналтириб туради.

Демак ўқитувчи фанлараро алоқадорликни кўрсатиш ва физик билимларни ўргатиш мақсадида бошқа фанларга оид кўргазмалардан, расмлардан, тушунча ва терминлардан, амалий иш материалларидан, кундалик кузатиш натижаларидан ва сўзсиз компютер техникасидан фойдаланади. Ҳар чорак охирида фанлараро боғланишни ифодаловчи эстафета дарсларини ташкил этишкатта самара беради.

MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK VA FIZIKA FANLARIGA INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI.

*Azamat Kadamovich Babadjanov UrDU huzuridagi XTXQTUMOHM
«Aniq va tabiiy fanlar metodikasi» kafedrasining o'qituvchisi*

Matematikaning tabiatshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasining dastlabki bosqichlaridan biri dunyoning (olaning) geliosentrik modelini tan olinishidir. Hozirgi vaqtda Erning quyosh atrofida aylanishiga hech kimda shubha yo'q. Ammo Kopernik zamonida (XVI asr) faqat geosentrik modelgina tan olingan edi. Bunday xulosaga osmon jismlarining fazodagi vaziyatini kuzatish natijasida kelingan edi. Osmon jismlarini harakatini o'rganib, Kopernik olamning geliosentrik modeli gipotezasini ilgari surdi. Bunda u "ajoyib matematik soddalanish" tamoyiliga asoslandi. Keyinchalik uning gipotezasi planetalar harakat tenglamalarini soda ko'rishda yozilishi bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, inson sezgi organlariga ta'sir ko'rsatmaydigan, ammo inson tafakkuri tufayli ob'yektiv reallikni tavsif qila oladigan geliosentrik model g'alaba qozondi. XVII asrlardan boshlab, tabiiy fanlarda matematikaning o'rni beqiyos bo'lishiga Dekart va Galileyning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Ular fan o'rganishi kerak bo'lgan tushunchalarni qayta ko'rib chiqib, ilmiy faoliyatining fan metodologiyasini maqsad va vazifa masalalarini

aniqladilar. Yangi maqsad va yangi metodologiyani tabiatshunoslikka ulkan kuch berish bilan bir qatorda, uning matematika bilan kuchli ittifoqini ham ko'rsatdi.

Galiley va Nyuton klassik fizikani Yevklidning "Boshlang'ichlari"ga qiyoslab yaratdilar. Ular tizimlilikni va peraxiyani saqladilar. XVII asrdan boshlab, bilimning ilmiyliligi (aniqligi, haqiqiyiligi)ni uning matematikalashganligini darajasiga qarab belgilay boshladilar. "Tabiat kitobi matematika tilida yozilgan"-degan edi Galiley. Matematik tahlil, tabiiy jarayonlarning sodir bo'lish ehtimoli xarakteri bilan bog'liq tahlilning statistik usulini rivojlanishi, matematika metodlarini tabiatshunoslikning boshqa boshqa sohalariga kirishga imkon yaratdi.

I. Kant shunday yozgan edi: "Tabiat haqidagi har qanday xususiy ta'limotda, aslini olganda unda qancha matematika bo'lsa, shuncha fanni topish mumkin".

Matematikaning asosiy afzalligi shundaki, u tabiatshunoslikning tili tarzida ham tabiiy jarayonlarni modellari manbai bo'lib ham xizmat qila oladi.

Matematika tufayli tabiatshunoslik zamonaviy fan bo'lib qolmoqda. Bunday bo'lishiga bizning vatandoshlarimiz va Rossiya olimlarining xizmatlari juda katta ekanligini ta'kidlash zarur. Shunday olimlar jumlasiga T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, V.Qobulov, V.Romonovski, A.Kolmogorov, I.Petrovskiy kiradi. Ularning mehnatlari tufayli matematika eng yuqori darajasiga ko'tarildi va juda ko'p tabiiy-ilmiy yo'nalishlar va ixtirolar tug'ilishiga imkon yaratdi. Keyinchalik esa ular sanoat sohasiga aylandi.

Tabiiy-ilmiy nazariyaning asosan mantiqan izchil tuzilishli matematik tavsif tashkil etadi. Ba'zi hollarda bevosita eksperimentga murojat qilmay ham, to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradigan mantiqiy isbotlashga xos misolni keltiraylik. Bu barcha jismlar yuqoridan bir xil, tezlanish bilan tushadi, degan fikrni isbotlashga tegishli. Aristotelning fikricha, jismlarning og'iri yengiliga qaraganda tezroq tushadi. Bunga qarshi Galiley quyidagicha mulohaza yuritadi. Ikkita og'ir va yengil jismlarni bir-biriga bog'laylik. Mazkur bog'langan jismlarni tashlab yuboraylik. Og'ir jism yengiliga qaraganda tezroq tushadi, u yengilini tezlatishga intiladi. Engili esa o'z navbatida og'irini tormozlaydi, shuning uchun bog'langan yuk qandaydir oraliq tezlik bilan xarakatlanadi. Ammo u har bir alohida qismidan og'irroq va shuning uchun u oraliq tezlik bilan emas, balki uning og'irroq qismining tezligidan katta tezlik bilan xarakatlanishi kerak edi. Qarama-qarshilik yuzaga keldi, demak boshlang'ich faraz noto'g'ri ekan.

Avstraliyalik fizik E.Shredinger elimentar zarralar xarakatining to'liq gipotezasiga ishonib, ular xarakatiga mos tenglamani yaratishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur tenglama klassik fizikadagi yuklarga torning tebranishlari tenglamasiga shakl jihatidan o'xshab ketadi. Ammo mazkur tenglamaning har bir hadi tamomila boshqacha talqin qilinadi. Natijada Shredinger kvant mexikaning to'liq variantini yaratishga muvaffaq bo'ldi, unda esa mazkur tenglama markaziy o'rin egallaydi. Hozirgi zamon tabiatshunosligida matematikaning o'rni beqiyosligi ravshan. Qandaydir yangi xodisaning nazariy talqini to'liq bo'lishi uchun, mazkur xodisaning asosiy qonuniyatlarining matematik apparatini yaratish kerak bo'ladi. Tabiatshunoslik asoslari va fizika fanlaridan o'qilayotgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda tabiat garmoniyasi tushintirilishi mumkin.

Garmoniyani qabul qilish yoki sezish matematik qonuniyatlar orqali ifodalanadi. Shunday ekan, demak, barcha tabiiy fanlar kaliti matematika ekanligiga ishonch hosil qilish kerak.

Ilmiy izlanishlarda matematika fanining o'rni beqiyosdir. Tabiat xodisalarini sinchiklab o'rganilsa, ularning davriy xarakterga ega ekanligiga shubha bo'lmaydi. Tabiat xodisalarini miqdoriy tahlil qilganda davriy xarakterga ega bo'lgan tenglama va funksiyalardan foydalaniladi. Elektromagnit to'liqlar tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida axborot to'plash va uzatish vositasidir. Bu holni to'liq tushina bilish uchun ikkinchi tartibli bir jinsli yoki bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalarni o'rganish hamda ularni yechimlarini aniqlashda davriy funksiyalar va kompleks ifodalardan foydalaniladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida ham kichik-kichik xodisalarini o'rganishda matematikaning rolini ko'rsatish mumkin. Masalan, yorug'lik-elektromagnit to'liqlarni turli muhitlarda yutilish xodisalarini o'rganishda, xususan yutilish koeffitsientini aniqlashda eksponensial funksiyalarning o'ziga xos tomonlari haqidagi ma'lumotlar, jismlar ranglarining o'zgarishlarini izohlay bilish imkonini beradi.

Qadim zamonlardayoq keng tafakkurli kishilarni matematikaga katta ahamiyat berganligi ma'lum. Birinchi Akademiya-Platon akademiyasining shiori "Matematikani bilmaydiganlar bu yerga kirmaydilar"-deb yozilishining o'ziyoq fan rivojlanishining boshodan matematikaga qanday ahamiyat berilganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib tabiatshunoslik asoslari va fizika fanlarining matematika bilan o'zaro aloqadorligi orqali matematikani o'rganish, bilish, tabiat xodisalarini tushintirishlar ularni qo'llash imkoniyatini vujudga keltiradi. Tabiat garmoniyasiga matematika nuqtai nazardan qarash uchun chuqur tafakkur egasi bo'lish lozim.

МАКТАБ ПЕДАГОГЛАРИНИНГ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНДИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Элла Серикбаевна Сулетбаева Ажиниёз номидаги НДПИ
ҳузуридаги ХТХҚТМО минтақавий маркази «Педагогика, психология
ва таълим технологиялари» кафедраси катта ўқитувчиси.
Лола Жетписбаевна Кайпназарова Ажиниёз номидаги
НДПИ, 1-курс талабаси*

Таълим ва тарбия жараёни ўсиб келаётган ёш авлодни жамият талабларини ўзида акс эттирувчи ижтимоий буюртма асосида ҳаётга тайёрлашдан иборат. Таълим ва тарбия жараёнида ёшлар аждодлар томонидан тўпланган билим, одоб, урф-одат, маданият ва меҳнат кўникмаларини ўзлаштириши, ҳаётий тажриба асосида жамиятда ўзининг муносиб ўрнини эгаллаши, салоҳияти ва дунёқарашининг шаклланишида педагог шахси, унинг касбий маҳорати муҳим аҳамият касб этади.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонавий педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди. Қуйидагилар мутахассиснинг педагогик ишга тайёрланганлигининг зарур ва етарли даражасини таъминлайдиган асосий талаблар ҳисобланади

Компетенция-соҳага оид билим, кўникма, малака, қарашлар мажмуи, шахснинг қадрияти ва сифатлари, квалификациянинг намоён бўлиши ёки таъсир кўрсатиш қобилияти.

Таълим - тарбия ишининг муваффақияти кўп жиҳатдан ўқитувчининг педагогик қобилиятига ва қизиқишига боғлиқдир. М.Г.Давлетшин таъкидлашча, ўқитувчининг баъзи психик жараёнлари ва хусусиятлари унда ўқитувчи шахсига хос сифатлари шундай комплексни ташкил қиладики, уни педагогик қобилият деб аташ мумкин.

Психология кафедраси ўқитувчилари мингга яқин ўқувчини ўрганиб улардан ўқитувчинингизнинг кайфиятини била оласизми ва унинг кайфияти сизга қандай таъсир қилади деган саволга ёзма жавоб олдик. Ўқувчиларнинг 94,2 %, ўқитувчининг кайфиятини била олишни, 89,8 % ўқитувчи кайфияти уларга қаттиқ таъсир қилишини билдиришган. Шунингдек қуйидаги санаб ўтилган сабаблардан (шахсан унинг ўзига қўйилган ёмон баҳо, ўртоғига қўйилган ёмон баҳо: ўқитувчининг кайфияти ёмонлиги; дарс материални ёмон ўзлаштирганини англаш; дарсга ёмон тайёргарлик кўрганини англаши) қайси бири ўқувчининг кайфиятига кўпроқ ёмон таъсир этишини кўрсатиши сўралган. Кўпчилик ўқувчилар ўқитувчининг кайфияти ёмонлигини таъкидлаб ўтганлар. “Ўқитувчининг кайфияти сенга қандай таъсир қилади?” деган саволга олинган жавоб ҳам жуда маъноли бўлди. Жавоб: Агар ўқувчининг кайфияти яхши бўлса, ўз муваффақиятсизликларингдан унча қийналмайсан, “Дарс унча зерикарли бўлиб туюлмади”, “Қийин нарса осон бўлиб қолади”, “Дарсда вақт ўтганини билмай қоласан” ва ҳоказо, жавоблар. Айниқса ёмон бўлса, “Қўл ишга бормади”, “Ўзингга бўлган ишонччи йўқотасан”, “Дарсдан қочиб кетгинг келади” ва ҳатто “Миянг қотиб қолади”, - деган жавоблар олинган. Ўқитувчи фаолиятида индивидуал услуб. Таълим - тарбия ишининг муваффақияти кўп жиҳатдан ўқитувчининг педагогик қобилиятига ва қизиқишига боғлиқдир. Ўқитувчи тафаккурининг мазмунлиги, тезлиги, кенглиги, каби сифатлари болаларга ўз билимларини аниқ, мазмунли, тушунарли қилиб сўзлаб беришда ҳам намоён бўлади. Ўқитувчининг иродавий сифатлари. Педагогик фаолияти таълим-тарбия мақсадларига мувофиқ йўналтиришга ҳамда кўпгина қийинчиликларни бартараф этиш билан боғлиқ бўлган фаолиятдир. Шунинг учун ҳам бу фаолият кишидан катта иродавий куч талаб қилади.

Биз малака ошириш курсларида педагогнинг педагогик фаолиятини тавсифлашда Н.В.Кузьмина ва З.Ф.Есарева томонидан таклиф этилган тузилмалар (гностик, конструктив, ташкилотчилик, коммуникатив) тизимига мурожаат қилдик.

Гностик (билишга оид) фаолият - атроф оламни ва ўзликни чуқур ҳар томонлама англаб етишда намоён бўлади. Ўқитувчи ўз касбий фаолияти учун зарур бўлган билимлар ва кўникмалар тизими, ижодий фаолият тажрибасини мунтазам эгаллаб боради. Билимлар тизими ўзида умуммаданий ва махсус билимларни бирлаштиради. Умуммаданий билимларга санъат ва адабиёт соҳасидаги билимлар, шунингдек, ҳуқуқ, дин, сиёсат, иқтисод ва ижтимоий ҳаётга, экологик муаммоларга оид саволлар доирасида мўлжал ола билиш кўникмалари киради.

Махсус билимлар предметни билиш, шунингдек, педагогика, психология ва ўқитиш методикасини, яъни педагогик технологиялар бўйича билимларини мужассамлаштиради. Педагог шахсининг маънавий бойлиги, унинг миллий истиқлол ғоялари билан суғорилганлиги педагогик фаолиятда алоҳида аҳамият касб этади. Агар гностик қобилиятлар ўқитувчи фаолиятининг асосини

ташкил этса, педагогик маҳоратнинг юқори чўққисини эгаллашнинг муҳим шарти конструктив ёки лойиҳаловчи қобилиятлар саналади. Бу қобилиятларни жорий этишнинг психологик механизми сифатда тарбиявий-таълимий жараёни фикрий моделлаштириш хизмат қилади.


Лойиҳаловчи қобилиятлар педагогик фаолиятнинг стратегик йўналишини таъминлайдилар ҳамда якуний натижани мўлжал олишда, тингловчиларнинг ихтисослигини ҳисобга олган ҳолда долзарб масалаларни ечишда, курсни ўқув режадаги ўрнини аниқлаштирган ҳолда режалаштиришда, бошқа фанлар билан ўзаро алоқасини ўрнатишда ва ҳ.к. намоён бўлади. Бундай қобилиятлар ёшга ва иш стажига боғлиқ ҳолда ўқитувчида ривожланиб боради.

Конструктив қобилиятлар тактик мақсадларни жорий этишни кўзда тутуди: ўқув ахборотларни саралаш ва жой-жойига қўйиш (композициялаш), ўз хусусий ва тингловчилар фаолиятини лойиҳалаш, машғулот шаклини танлаш, дидактик жараёнини амалга ошириш, назорат қилиш, баҳолаш ва ҳ.к.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Пранцкуне Э., Грудене С ва бошқ. Новые роли и компетенция учителя. Литва.- 2011й. Юнисеф. Семинар дастурлари.

2. Тургунов С., Б.Дониёров, М.Отажонова. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлатиришда таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари. Т.2011 йил.



МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ

Қ. Зулдунов - АВХТХҚТУМОҲМ катта ўқитувчиси

Таълим ислохотларининг замонавий босқичи жамиятда юз бераётган янгиланишларнинг тезкорлиги, таълим муассаларига қўйилаётган янги, янада юқори талабларга тезроқ мослашиш билан боғлиқ долзарб вазифаларни илгари сурмоқда.

Маълумки, ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол усуллар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол усуллардан тўлиқ фойдаланилади. Интерфаол усуллар – бу жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, яъни педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим-тарбия самарадорлигини оширишда мазмунини таркибий қисми ҳисобланади.

Бу усулларнинг ўзига хослиги ўқувчи фақат (ўқитувчи ва ўқувчиларни) биргаликда фаолият кўрсатиш орқали амалга оширилади. Бундай педагогик ҳамкорлик жараёни ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларга қуйидагилар кирди:

ўқувчининг дарс давомида бефарқ бўлмасликка, мустақил фикрлаш, ижод этиш ва изланишга мажбур этиш;

ўқувчиларни ўқув жараёнида билимга бўлган қизиқишларини доимий равишда бўлишини таъминлаши;

ўқувчининг билимга бўлган қизиқишини мустақил равишда ҳар бир масалага ижодий ёндашган ҳолда кучайтириш;

педагог ўқитувчи ва ўқувчининг ҳаммиша ҳамкорликдаги фаолиятини ташкилланиши;

олган билимларини амалиётга тадбиқ эта олишлари;

кундалик ҳаётда қўлловчи технологиялардан хабардор бўлишлари;

муаммоларни ҳал этиш ва янги фикрлар яратишда технологиялардан фойдалана олишлари талаб этилади.

Таянч компетенциялар (коммуникатив компетенция, ахборот билан ишлаш компетенцияси, шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси, ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси, умуммаданий компетенция ва математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенциялари) тажриба-синовдан ҳтказилди.

Коммуникатив компетенция - жамиятда ўзаро мулоқотга киришиш учун она тили ва бирорта хорижий тилни мукамал ўзлаштириш ҳамда мулоқотда самарали фойдалана олиш; ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда аниқ ва тушунарли баён қила олиш;

Ахборот билан ишлаш компетенцияси - мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудио-видео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқ.) фойдалана олиш; ...

Шахс сифатида уз-узини ривожлантириш компетенцияси - хаёт давомида ўқиб - ўрганиш, билим, тажрибани мустаўил равишда мунтазам ошириб бориш; ...

Ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси - ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиши, унга риоя қилиш; ...

Умуммаданий компетенция - Ватанга садоқатли, инсонларга меҳр - оқибатли ҳамда умуминсоний ва миллий қадриятларга эътиқодли бўлиш; ..

Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси - аниқ ҳисоб - китобларга асосланган ҳолда шахсий, оилавий, касбий ва иқтисодий режаларини туза олиш; ...

Бу усуллардан фойдаланиш натижасида қуйидагича ютуқларга эришиш мумкин:

ўқувчиларнинг мавзу мазмунини яхши ўзлаштиришига олиб келади

ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида қайта алоқанинг ўз вақтида таъминланиши;

ўтилган янги мавзу материалнинг яхши эслаб қолиниши;

ўқувчининг ўз-ўзини баҳолашининг ўсиб бориши;

ўқувчиларда фақат мавзу мазмунини ўзлаштириши эмас, балки танқидий ва мантиқий фикрлаши ҳам ривожлантирилади.

Ижтимоий фанларини ўқитиш жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга йўналтирувчи усуллардан бири – тадқиқот усули – ўқув жараёнида ўқитувчи томонидан нисбатан қийин даражадаги муаммоли назарий ва амалий танқидий масалалар кўтарилишини назарда тутати.

Умумий ўрта таълим мактабларидаги ижтимоий фанларни ташкил этишда демократик тамойилларни таркиб топтириш мақсадида, нималарни ўргатиш зарурлиги давлат таълим стандартларида белгилаб қўйилган талаблар бўйича, масалан, 7-8-синфларда Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари дарсларини ўтишда “Ғоя ва мафкура: тушунчалари” мавзусини ўтишда қуйидаги усуллардан фойдаланишни тавсия этамиз.

“Муаммоли вазият усули”.

Машғулот лойиҳасига кўра ғоя, мафкура, миллий ғоя, миллий мафкурамизнинг бош ва асосий ғояларига изоҳ беришни ўқувчиларнинг ўзларидан сўраб кўрамиз. Улар жавоб беришда қийналиб қолган ҳолларида ёрдамлашилади. Бундай усул ўқувчиларни сергакликка, фаолликка чорлайди. Ўқувчиларни мустақил фикрлай олиш кўникма ва малакаларини шакллантиради, компетентлигини ривожлантиришга эришилади.

“Мусобақа усули”

Белгиланган муддатда бунёдкор ғояларни санаб, ёзишларини топширилади. Бунда барча ўқувчи қатнашганлиги бу усулнинг афзаллигидир. Энг кўп ёзган ўқувчини аниқлаб, 3-4 нафаридан ёзганларни ўқиб беришларини сўралади. Дўстлик, тинчлик, биродарлик, бунёдкорлик, ҳамдўстлик ва бошқа бунёдкор ғоялар ўқилганида бошқа ўқувчилар керакли атамаларни ёзиб оладилар.

“Изланиш усули”

Ўқувчилар билан ўтказиладиган дарс жараёнларида педагогиканинг ўзига хос хусусиятларига риоя қилиш, мулоқотда 50x50 схемасини қўллаш, яъни ўқитувчи билан биргаликда ўқувчиларнинг ўзларини сўзлатиш, кўргазмалиликнинг турли усул ва воситаларидан фойдаланиш талаб этилади. Зеро, халқимизнинг буюк давлатни барпо этиш йўлида кўз ўнгимизда амалга ошираётган бунёдкорлик ишлари таъсирли усуллар орқали намоён бўлади.

“SWOT усули”

SWOT усули таҳлил қилиш методи бўлиб, ушбу метод энг қулай ва турли мақсадларда қўлланиладиган самарали педагогик методлардан бири ҳисобланади. Интерфаол дарс шаклларини амалда қўллаш машқларида ўқувчи ўзаро ҳамкор, ҳамдўст, ҳам ижодкор, ҳам иштирокчи, ҳам бошқарувчи бўладилар. Усулларни бажариш ўзлаштиришни мустақамлайдиган ўқув жараёни ҳисобланиб, ҳар бир йўналиш бўйича ўзига хос мазмунда бўлади.

Хулоса қилиб, биз таълим тизимига педагогик технологияларни жорий этадиган бўлсак, педагогик технологиянинг асосида шахс туради, шунинг учун уни фақат таълимга эмас, бевосита таълим-тарбия самарадорлигини оширишда қўллаш ҳам муҳимдир. Педагогик технология деганда биз – ўқувчини мустақил ўқишга, билим олишга, фикрлашга ўргатишни кафолатлайдиган

жараёни шакллантиришимиз зарур. Педагогик инновацион технология ўқув жараёнинг шундай лойихасини у бир киши ёки бирор ижодий гуруҳ томонидан ишлаб чиқилади, ундан барча ўқитувчилар фойдалана оладилар. Ўқувчи ўқитилмайди уни мустақил мутола қилишга ўргатилади. Ўқувчига билимлар тайёр ҳолда берилмайди, унга билимларни манбалардан мустақил фойдалана олишга, мустақил фикрлай олишга ўргатилади.

МАЛАКА ОШИРИШ МАРКАЗЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИК ОМИЛИ

М.М. Муталлибжонов -Андижон ВХТҲҚТУМОҲМ ўқитувчиси

Таълим тизимига янги педагогик ва ахборот коммуникация технологияларини олиб кириш бугунги куннинг муҳим масалалари сирасига киради. Таълим-тарбия жараёнига ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш орқали бир қанча қулайликлар яратилади. Демакки, юртимизда фан-техника ривожлангани сайин ахборот олиш имконияти ошиб бормоқда. Тарбияланувчиларга талаб доирасида маълумотларни етказиб беришда, фан-техника ютуқларидан унумли фойдаланиш зарур. Ўсиб, улғайиб келаётган ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда янги педагогик технологиялардан ўз вақтида ва унумли фойдаланишнинг истиқболли томонлари намён бўлмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг — “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 21 мартдаги — “Замонавий ахборот коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ри вожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2013 йил 27 июндаги — Ўзбекистон Республикаси “Миллий ахборот коммуникация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 19 февралдаги ПФ-5349-сонли фармонларидан ҳам кўзланган мақсад халқ таълими тизимида ахборот-коммуникация технологиялари, интернет ва мультимедия русурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш оқрали таълим-тарбия жараёнини янада юқори босқичларга кўтаришни тақозо этади. Шунинг учун таълим соҳасидаги ислоҳотларимизни Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармони ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ги ПҚ-3305-сонли Қарорига мувофиқ: мактабгача таълим тизимини комплекс ривожлантириш, болаларни соғлом ва баркамол этиб тарбиялашнинг барча жиҳати белгилаб берилди.

Давримиз тараққиётига ҳамоҳанг равишда илм хазинаси янада бойиб, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти ортиб бормоқда. Ахборотлаштириш жараёнида чинакам ахборот жамияти вужудга келганини изоҳлашга ҳожат қолмаган. Шунга яраша медиа-технологиялар сони ўсиб бормоқда. Бунда тасвир, овоз ва матн том маънода уйғунлашиб, аудиовизуал маданияти ўзига хос равишда такомиллашиб бормоқда. Энди ундан таълим соҳасида ҳам кенг фойдаланиш давр тақозосига айланди. Айниқса,—”Ахборот ва глобаллашув асри” деб аталаётган бугунги кунда ушбу мақсадга эришиш учун ўқув-тарбиявий жараёни илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисидаги №3160-сонли қарориди таъкидланганидек, - “Бугунги кунда дунёда глобаллашув жараёнлари кучайиб, тинчлик ва барқарорликка қарши янги таҳдид ва хатарлар тобора кўпайиб бормоқда. Бундай мураккаб ва таҳликали вазият соҳада амалга оширилган ишларни танқидий баҳолаб, унинг фаолиятини замон талаблари асосида такомиллаштиришни тақозо этмоқда”.

Президентимизнинг халқаро тинчликни таъминлаш соҳасидаги фаолиятини таъкидлаб ўтишимиз жоиз, “Биз ташаббус тариқасида Афғонистонда таълимни қўллаб-қувватлаш бўйича махсус халқаро фонд ташкил этишни таклиф қиламиз. Бундан кўзланадиган асосий мақсад – мамлакатда талаб катта бўлган соҳалар бўйича миллий кадрлар тайёрлаш, истеъдодли талабалар ва ёш олимлар учун стипендия ва грантлар ажратиш борасида афғон томонига қўмаклашишдан иборат. Бизнинг қатъий ишончимизга кўра, жамиятда таълимнинг нуфузини ошириш ва ёшларнинг

камолотга интилишини рағбатлантириш – бу барқарор ва изчил тараққиётга эришиш кафолатидир. Буларнинг барчаси, ҳеч шубҳасиз, униб-ўсиб келаётган ёш авлодни зўронлик ва радикализм мафқурасидан ҳимоя қилишда ёрдам беради.”²

Бугунги кунда шиддат билан кечаётган жараёнларда ҳар бир шахс жамиятда(дунёда) бўлаётган ўзгаришларга дахлдорлик ҳисси билан фаолият олиб боришни кўрсатмоқда. Бу борада Янги педагогик технологиялар, инновациялар, янги педагогик-психологик тушунчалар, интерфаол методларнинг мазмун ва моҳияти, ўзига хос хусусияти ва дарс жараёнларида қўллаш усулларини чуқурроқ ўрганиш, тадқиқ этиш лозимлигини аниқлаш керак.

Ўқув жараёнида тингловчилардан ахборот билан ишлаш таянч компетенциялар ривожлантириш долзарб аҳамиятга эга.

Ахборот билан ишлаш компетенцияси - мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудио-видео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқа) фойдалана олиш;

Таълим тизимида замонавий инновацион технологияларидан фойдаланишда ахборот ресурсларини йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ҳамда электрон ва виртуал кутубхоналардан, мультимедиали электрон ўқув адабиётлари, маърузалар ва ҳар хил анимацион ишларни яратишда махсус дастурий воситалардан фойдаланиш имконияти мавжуд.

Компьютер тармоқлари ҳамда ахборот технологиялари таълим тизими учун тезкор равишда зарур маълумотни олиш билан боғлиқ бўлган имкониятлар яратди. Интернет глобал компьютер тармоғи орқали дунё ахборот ресурсларига кириш лаҳзаларда амалга оширилиши бунинг яққол далилидир.

2018 йил 22 январда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили» давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисидаги фармонининг (ПФ-5308) қабул қилиниши инновацион ғояларни яратиш соҳасидаги изланишларга янада кенг йўл очиб берилди.

Мамлакатимизда барча таълим муассасаларининг ўқувчилари ахборотга бўлган талаб-эҳтиёжларини ҳар томонлама қондириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, шунингдек Интернет тармоғининг миллий сегментида таълим ва билим берадиган ахборот ресурсларини ривожлантириш мақсадида Президентимизнинг бир қатор қарор, фармон ва фармойишлари чиқарилган. Бугун ёшларимиз фойдаланиши зарур бўлган фойдали сайтларга мисол қилиб қуйидагиларни тавсия қиламиз: www.Uzedu.uz, www.ZiyoNet.uz, www.Kitob.uz, www.Lex.uz, www.Norma.uz, uza.uz ва бошқа сайтлар.

Хулоса қилиб айтганда, машғулотларда АКТдан фойдаланган ҳолда ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш, турли матнларни тинглаш, ўзаро суҳбат ўрнатиш, томошалар уюштириш ҳам мумкин. Машғулотларда бир вақтнинг ўзида барча тингловчиларни диққатини ўзига тортиш ва машғулотлар мазмунини тушунтиришда АКТдан фойдаланишнинг аҳамияти катта. Чунки, АКТ ёрдамида ўқувчига ҳам аудиал, ҳам визуал, таъсир этиш билан бир қаторда уларни эркин, ижодий фикрлаш ва яққа ёки ҳамкорликда ишлаш кўникмаларини шакллантириш имкониятлари жуда кенг.



WHAT MAKES A GOOD ENGLISH TEACHER?

*Dilnoza Otaxanova Namangan davlat universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
“Tillarni o'qitish metodikasi” kafedrasini ingliz tili o'qituvchisi.*

A great teacher said: Method in the hand of a good teacher is a good method.

Nowadays for the particular role English language is playing in many fields of the modern life, English teachers are always growing in number. But unfortunately, not all the teachers are prepared in the same way.

² Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи-Халқ сўзи газетаси 2018 йил 28 март, №59-60

Because, I have met three different English teachers in five years but I'm sure in the future I will think of just one of them as a good one. I think she has all qualities, personal and professional, a good English teacher should have. The most important thing she has personal interest in the students as human beings. I think a good personal relation is the first thing we, teachers and students should try to achieve because it is indispensable basis for a good professional relation founded on understanding and esteem. This is very important above all in the case that students haven't chosen to study English, but are forced to because it is one of the ministerial subjects the teacher in this case has to interest the students in what he or she teaches.

In ten years of my experience I've understood what the second most important quality for a teacher is to be well prepared and able to convey students what she or he knows. I think I don't need to explain why a teacher should be skilled. It is not unusual the fact that students at the secondary school learn something which is completely wrong and not being particularly interested in the subject will always persist in their mistakes.

There are teachers who lack confidence in their ability to deal with disruption and who see their classes as potentially hostile. They create a negative atmosphere by frequent criticism and rare praise... Their methods increase the danger of major confrontation not only with individual pupils but with the whole class. It is a very important to use the method.

There are several methods of teaching English to students who are learning the language for the first time, each with their own unique pros and cons. Depending on the teaching situation, setting, and resources available, any one of these English teaching methods could be right for you and your students. In this guide, we'll go over the basics of each method and determine what kind of English language student it would work best on.

Grammatical Approach

This approach can only work if the instructor speaks the first language of the students in addition to English, because much of it is based on the teacher's ability to translate. English grammar rules should be taught conceptually in the student's native language, with examples provided in simple English sentences that the teacher can translate back to the native tongue so that a solid parallel can be drawn. These grammar rules should be strictly enforced, and students should be allowed to practice proper structure and syntax through the use of examples and quizzes.

2. Aural Approach

The aural English teaching method focuses on the most natural way to learn a language, which is by hearing it. Children who are raised to speak English learn it first by hearing it from their parents and others around them, long before they ever learn how to read or write. The aural approach is similar, meaning it's strictly audio-based and should not focus on the reading or writing until long after the students can grasp the language on a speaking level.

The actual method involves dialogue. In the beginning, the students will mostly be spoken to. The teacher might use visual cues such as objects to give the students something to associate the words they're hearing with. Then, they will be instructed to speak the words themselves, coming to grasp vocabulary and basic grammar through hearing and speaking, rather than advanced instruction or writing. Teachers should not write the words they're saying, and let the bulk of the instruction exist in dialogue.

3. English-Only Approach

The English only method is one of the most direct approaches to teaching the language. For this method, neither the teacher nor the student should speak their native tongue at all during instruction. All instruction should be done in English only.

Vocabulary should be taught first, as it is the easiest to grasp because it can be demonstrated with a visual aid. As the student builds vocabulary, the instructor can begin introducing abstract words and elements of the language, but without explaining or focusing on the actual grammatical structure. The complexities of the language will be learned inherently, with the student picking up on its patterns through practice and application only.

At the end of each class period, there can be an optional question and answer session where students are allowed to ask the teacher about that day's lesson. Here, clarifications may be made and confusion may be cleared up, but again, this is entirely optional. Sometimes, the best way to learn the language through this method is to just tough it out and let it come naturally.

This method works best for situations where the instructor does not speak the native language of the students they're instructing. (Of course, this would make the optional question answer sessions an impossibility.) It is also an ideal method for situations where there is a diverse set of students who don't share the same native language, all trying to learn English. This way, the barriers and constraints brought


in by an inability to communicate natively can be dismissed, and a stronger focus on the language at hand can be made.

4. Translative Approach

The translative approach is a bit like the grammatical approach, only with a broader focus on the English language's structure in comparison to the native language of the students. This approach must be taught by an instructor who speaks the same language as their students, and all the students must also share a fluency in the same language.

English will be taught as a subject like any other, with different elements of the language such as vocabulary, grammar, syntax, speaking, reading, and writing focused on every day. This method will make strong use of note cards, where students can write English vocabulary and grammar concepts on one side, and then translate the word or idea on the back in their native language.

This method is best for students learning the English language because of an academic interest in it as a language, and not just an interest or need to know how to speak it. Speaking, reading, and writing the language will be given equal priority, and grammar rules and concepts will not be avoided for a more "natural" approach. It will be taught academically, as any other subject, and is best for students who are interested in this kind of rigorous approach.



ЎҚУВ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАРИ

*Малудахон Хошимовна Усмонова - Наманган ХТХҚТМОҲМ
ижтимоий-иқтисодий фанлар методикаси кафедраси ўқитувчиси
Муҳтарам Атабоева - Тўрақўрғон туман 1-сонли мактаб инглиз тили ўқитувчиси*

**“Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли,
доно ва албатта бахтли бўлишлари шарт”**

Ислон Каримов.2

Мустақил Республикасининг шароитида халқ таълими ўзига хос ривожланиш даврини бошидан кечирмоқда. Бу ўзига хослик энг аввало таълим-тарбия мазмунини миллийлаштириш, яъни ўзимизнинг жуда бой ўтмиш тарихимиз, маданиятимиз, фанимиз, тилимиз ўз моҳияти билан жуда чиройли, юксак инсоний, ахлоқий мазмунга эга бўлган миллий урф-одатларимиз асосида жамиятимиз келажаги бўлган ёш авлодни ўқитиш бахтига муяссар бўлди. Бу нарса халқимизнинг қалбида юксак ғурур ҳисларини тўлқинлантиради. Мана шу шароитда ҳаммамиздан жуда катта кўтаринкилик билан жамиятимизнинг ёш авлодини юксак ватанпарварлик, халқпарварлик, миллий ғурур руҳида тарбиялашимизни, шу билан бирга таълим-тарбияга янгича ёндашиш, янгича услуб ва мазмун, шакл ва воситалардан фойдаланишни тақазо қилади. Шу билан бирга “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва Кадрлаш тайёрлаш миллий дастури асосида миллий ва умуминсоний кадриятлар руҳида тарбияланган, мамлакатимизни модернизация қилиш ва замонавий демократик жамият қуриш йўлидан мураккаб ва кенг қўламли вазифаларни ҳал этишга қодир бўлган янги авлод кадрларини тайёрлаш масаласи бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир.

Республикамизда амалга оширилаётган ислохотлар, улкан бунёдкорлик ишлари, мамлакатимиз қудратининг ошиб боришига сабаб бўлди. Биз таълимда бутунлай янги жараёнга ўтиш ва унга мослашиш даврини бошдан кечирмоқдамиз.

Бугунги жараён ўқитувчилардан таълим-тарбия ишига янгича муносабатда бўлишни, касбий жиҳатдан етук, инновацион замонавий технологияларни таълим жараёнига жорий этиш усулларини билиши ва амалда қўллаш олишни тақазо этмоқда.

Педагогик технологиялар, янги инновацияларни яратиш, қўллаш олиш ва уларни бошқариш орқали таълим-тарбиянинг бугунги долзарб вазифаларини ҳал қилиб беради. Шу боисдан ҳам педагогик инновацияларни излаб топиш, ўрганиш, таҳлил қилиш орқали улардан энг кўп самара берадиганларини танлаб олиш ва амалиётда қўллаш тартибини белгилаш мақсадга мувофиқдир.

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётий зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини такомиллаштириш, янги сифат

босқичига кўтариш, унга илғор ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Таълимнинг бугунги вазифаси ўқувчиларни кун сайин такомиллашиб бораётган ахборот таълим муҳити шароитида мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилона фойдаланишга ўргатишдан иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти ва шароитни яратиб бериш зарур.

Шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчилар фақат тайёр билимларни эгаллашга ўрганиб келинганлиги барчага маълум. Бундай усул ўқувчиларда мустақил фикрлаш, ишлаш, ижодий изланиш, ташаббус кўрсатиш қобилиятларини ривожлантиришга катта имкон бермаслиги аниқ.

Эндиликда фан, техника ва инновацион технологияларнинг ривожланиши натижасида ўқув тарбия жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланиб, таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Таълим тизимида замонавий технологиялар эгалланаётган билимларни ўқувчилар ўзлари қидириб топишлари, мустақил ўрганиб, уларни таҳлил қилишлари, ўз билимларини баҳолашлари, тўғри хулосалар чиқаришга қаратилган.

Инновацион технологиянинг афзаллиги таълим жараёнини бир бутунликда кўриб, таълим мақсади унинг мазмуни, билим бериш усули, натижалари, таълим босқичларини лойиҳалаб, уни назорат қилиш, натижаларини баҳолаш каби узвий боғлашдан иборат.

Инновацион технология таълим тизим сифатида ўқувчиларни билиш фаолиятини мақсадга мувофиқ ташкил этиш ва амалга оширишни назарда тутади.

Ўқитувчи бу жараёнда шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига, шунингдек, эркин фикрлаб синфдошлари билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув-тарбия жараёнида ўқувчи ҳаракат иштирокчисига айланади.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва таълим олувчилар фаолиятига янгилик, ўзгартиришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол методлардан фойдаланилади. Интерфаол методлар-бу жамоа бўлиб фикрлаш ва ишлашдир, янги педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмунинин таркибий қисмлари ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқитувчиларнинг биргаликдаги фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади.

Бундай педагогик ҳамкорлик жараёнига қуйидагилар қиради:

- ✓ таълим олувчининг дарс давомида бефарқ бўлмаслиги, мустақил фикрлашга, ижод этиш ва изланишга мотивация уйғотиш;
- ✓ таълим олувчини ўқув жараёнида билимга бўлган қизиқишлари барқарор бўлишини таъминлаш;
- ✓ таълим олувчининг билимга эга бўлган қизиқишини мустақил равишда ҳар бир масалага ижодий ёндашган ҳолда кучайтириш;
- ✓ педагог ва таълим олувчининг ҳаммиша ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этиш.

Интерфаол методлардан “Ақлий ҳужум” методининг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиқамиз.

“Ақлий ҳужум” методи. Ўқувчиларни мия фаолиятини фаоллаштириш, таълим усулларига ижтимоий психологик тренинг, синектика, аутоген машқ, морфологик таҳлили, ролли ўйин, “ақлий ҳужум” ва бошқалар қиради. Бу метод ақлий фаолликни кўзғатади, ижодий ва инновацион жараёнларни жадаллаштиради.

“Ақлий ҳужум” методини ўтказувчи ўқитувчи маълум муаммони илгари суради ва иштирокчилардан бу муаммони ҳал қилиш бўйича қандай мулоҳазалари борлигини ҳам улардан кутилмаган фикрларни ҳам илгари суришларини сўрайди. Методни ўтказувчи барча фикрларни ёзиб боради, айтилаётган фикрларга нисбатан танқидий муносабат билдирилмайди.

“Ақлий ҳужум” методини ўқитишдан мақсад:

- ✓ муаммони ҳал қилиш учун ғояларни илгари суриш
- ✓ ғояларни уларнинг аҳамиятига қараб тартиблаш
- ✓ фаол фикрлаш малакасини шакллантириш
- ✓ кутилмаган ғояларнинг пайдо бўлиш жараёнларини намойиш этиш
- ✓ топилган ғоялардан фойдаланиш кўникмасини шакллантириш


Бунда ўқитувчининг асосий вазифаси тайёр билимларни беришга, ўқувчиларнинг асосий вазифаси эса бу билимларни эслаб қолишга асосланади.

Ҳозирги замон таълим тизимидаги амалий тажриба шуни кўрсатадики, олдиндан пухта тайёрланган инновацион технологиялардан фойдаланиб ўтилган дарс, албатта ўқитувчи ва

ўқувчига дарсни кизиқарли бўлиши, шунингдек, ижобий натижага эришишларига имконият яратади ҳамда дарснинг самарадорлигини оширади.

Шундай экан, у ёки бу технологияни ўқув жараёнига қўллашдан аввал унинг барча хусусиятлари ва имкониятларини, нимага йўналтирилганлиги, қандай мақсадларда фойдаланиш, муайян бир шароитда қандай вазифаларни ечишга ёрдам беришини ўрганиб чиқиш, кейин уни қўллаш керак.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, давлат ва жамият талабларини чуқур англаб етган ҳар қайси педагог, янгиликларга ва ислохотларга доимо тайёр туриши, унда фаол иштирок этиши, таълим тизимида юқори самарадорликка эришиш учун аввало, ўз устида тинимсиз ишлаши, касбий маҳоратини ошириб бориши, замонавий ахборот ва компьютер технологиялардан хабардор бўлиши лозим.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИДА БОЛАЛАРНИ МАКТАБГА ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДОШУВЛАР

3. Қаршиева САМДУ ҳуз ХТХҚТМО ҳудудий маркази ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мақтабгача таълим тизимини бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5198 –сон фармонида таъкидлаганидек, Мақтабгача таълим соҳаси узлуксиз таълим тизимининг бирламчи бўғин ҳисобланиб, у ҳар томонлама соғом ва баркамол бола шахсини тайёрлаш ва мақтабга тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу фармонга мувофиқ мақтабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, мақтабгача таълим муассасаларини тармоғини кенгайтириш, малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, болаларни мақтаб таълимига тайёрлаш даражасини тубдан яхшилаш таълим тарбия жараёнига замонавий дастур ва технологияларни татбиқ этиш, болаларни ҳар томонлама интеллектуал ахлокий эстетик ва жисмоний ривожлантириш учун шарт – шароитлар яратишдан иборат. Дастурнинг асосий вазифалари сифатида илгор хорижий тажрибаларни ҳисобга олган ҳолда болаларни интеллектуал ахлокий эстетик ва жисмоний ривожлантириш шароитларини яратиш белгиланган. Мақтабгача таълимга қўйиладиган давлат талаблари мақтабгача ёшдаги болаларни мақтабгача таълим муассасаларида ҳар томонлама ривожлантириш, таълим-тарбия бериш, кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳамда мақтаб таълимига тайёрлаш каби талабларини белгилайди. Болаларнинг билим, кўникма ва малакалари, уларнинг ҳар томонлама ривожланиши ҳамда мақтаб таълимига тайёргарлик даражалари давлат талабларда назарда тутилган машғулот ва фаолиятларни ўтказиш жараёнида индикаторларнинг бажарилишини кузатиш, ўрганиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш орқали аниқланади. Мақтабгача ёшдаги болаларни тарбиялаш вазифалари эса шахсни тарбиялаш мақсадлари асосида уларнинг ёшига ва хусусиятларига қараб белгиланади. Мақтабгача тарбия ёшидаги бола шахсини ҳар томонлама камол топтириш жисмоний, ақлий, ахлокий, меҳнат ва эстетик тарбия мажмуасидан иборатдир. Машғулот тарбиячи раҳбарлигида ўтказилади, тарбиячи машғулотларда болаларни янги билимлардан хабардор қилади, болалар эгаллаб олган билимларини эса аниқлаб мустаҳкамлайди. Болаларнинг амалий машғулотларини ташкил этади. Ўқув материалининг мазмуни аста-секин мураккаблаштирилиб борилади. Демак, машғулот болаларни мақтабга тайёрлашда катта аҳамиятга эга. Машғулот орқали болалар ўқув малакасини эгалла болиб, ўз-ўзини яхши ташкил этадиган бўлиб қоладилар. Уларда барқарор диққат, иродани, диққатни жалб эта олиш каби қобилиятлар ривожланади. Айниқса, болаларга билим беришни жамоа усулида олиб бориш катта аҳамиятга биргаликдаги фаолиятда болалар бир-бирларига фаол таъсир этишади, ўз ташаббуси, топафонлигини намоён қилиш имконияти туғилади. Болалар ишига зўр беришни талаб этувчи вазифа қўйилганда биргаликда қайғуришади, жамоатчилик ҳисси шаклланади. Эскурсиялар, расм қирқиб ёпиштириш, кўриш-ясаш ишларини биргаликда бажариш, умумий рақс ўйинларини ижро этиш, бадий асарларни эшитиш, ўқишда пайдо бўлган биргаликдаги кечинмалар болаларнинг бирлашган дўстона жамоасини яратишга ёрдам беради, бирга ишлаш, яшашга ўргатади.

Буюк Британияда одатда таълим бериш ўрганилаётган предмет ёки ўқитувчига эмас балки болага йўналтирилади. Бундай ёндашув инглиз таълими тарихига асосланиб унинг ривожланишига Руссо, Фребел, Монтессори таъсир кўрсатганлар. Улар боланинг индивидуаллигини

ривожлантириш ва мустақиллигини ҳимоя қилиш керак деб ҳисоблайдилар. Мактабгача тарбиянинг асосий мақсадлари: ҳар бир боланинг эҳтиёжи ва унинг манфаатларини қондириш, болалар ўртасидаги фарқни ҳурмат қилиш. Бунда бола ўқиш учун ички интилишга эга, қизиқувчан ва табиатан серғайрат, деб тахмин қилинади. Ўқитиш боланинг ўзи таклиф қилган ўйини давомида олиб борилиши керак. Устознинг асосий вазифаси болага ўқитиш йўли билан эмас, балки ўйинни қўллаб туриш, унга тадқиқот ўтказиш учун турли материаллар тақдим этишдан иборатдир. Мактабгача таълим муассасаларида болаларни мактабга тайёрлашда ёзиш ва ўқишдан ташқари кўшиқ куйлаш, шеър айтиш, рақсга тушиш ўргатилади, энг кичик ёшдагилар эса энг майда моторика машқларини бажарадилар, абстракт фикр юритишга мўлжалланган ўйинлар ўйнайдилар, бир бирларига ёрдам беришда уларда ўзаро ҳамкорлик кўникмалари шакллантирилади. Шу билан бирга рангларни ажратиш, рақам ва ҳарфларни ўрганадилар. МТМларида тарбиячилар болаларнинг ҳам ривожланиши ҳам руҳий шаклланиши даражаси диагностикаси учун мазмуний – ролли ўйинлар, расм чизиш ва нарсалар ясаш жуда фойдали усул деб ҳисоблайдилар. АҚШда болалар тарбиясининг асосий жиҳатларидан бири болага катталардек муносабатда бўлиш ҳисобланади. Бола шахс ва унга қулоқ тутиш ва фикрини ҳурмат қилиш лозим. Албатта уни йўналтириб туриш керак, лекин буйруқ тариқасида эмас нима яхши- ю, нима ёмон эканлигини тушунтириш орқали.

Машгулот болалар боғчасида болаларга таълим беришнинг асосий шаклидир. Машгулот — тарбиячининг болаларни керакли билим ва малакалардан умумий ҳолда хабардор қилишидир. Тарбиячи болаларга таълим беришни кун давомида амалга оширади: уларнинг билимларини бойитади, маданий, гигиеник, хулқ маданияти, нутқи, санок-ҳисоб, ҳаракатлари каби турли-туман малака ва кўникмаларини шакллантириб боради.

Хулоса тариқасида айтиш жоизки, ҳорижий мамлакатларнинг мактабгача таълим тизимларини ўрганиш уларнинг илғор тажрибасини таҳлил этиш ва республикамиз шароитига мослаштириш бўйича аниқ чора тадбирларни ишлаб чиқиш мамлакатимиз мактабгача таълим тизимини такомиллаштириб, замонавийлаштиришга имкон яратилади.

Адабиётлар рўйхати.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентабрдаги “Мактабгача таълим тизимини бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида” ПФ-5198-сон фармони // www.lex.uz

Замонавий таълим журнали. 2017 йил 11 - сон

Мактабгача таълим журнали. 2016 йил 7 - сон



TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Nilufar Mirzaakbarovna Kadirova–NamDU huzuridagi XTXQTMOHM o`qituvchisi

Texnologiya fani darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llab, shu bilan birga fanlararo va mavzulararo, metodlararo integratsiyadan foydalanib tashkil etilganida o`quvchilarni o`zlashtirishlari oson kechadi va darslarga qiziqishlari ortadi. O`qituvchi o`zining pedagogik faoliyatini tashkil qilishda shu tomonlarini hisobga olishi o`ta muhimdir.

Texnologiya fani yangi ta`lim texnologiyalarini qo`llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo`llash bo`yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga qaraganda sust olib borilmoqda. Ta`lim texnologiyalarining ko`p qismi texnologiya fanida oldindan o`qitish metodikasi sifatida qo`llanib kelingan. Texnologiya fani darslarining o`ziga xos xususiyatlari shundaki, o`quvchilar boshqa predmetlar qatorida tabiat va atrof muhitga oid bilimlarini boyitib boradilar. Texnologiya fani voqea hodisalarni o`zaro bog`lanishda va rivojlanishda o`rganishga imkon beradi. Tabiat bilan to`g`ri tashkil qilingan muloqat kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida go`zallikni his etishni boyitadi va chuqurlashtiradi, ularda o`z harakati va ishini o`zi baholay olish qobiliyati rivojlanadi, bu hislatlar xulq atvorning adabiy, ahloqiy normalarini anglash, atrofdegilarga nisbatan ma`suliyat hamda burchini tarbiyalash zarurdir.

Texnologiya fani oldida quyidagi vazifalar turadi:

✓ ijtimoiy ta'lim va kompleks tarbiya sistemasida texnologiya fanining o'quv predmeti sifatidagi ahamiyati va rolini aniqlash;

✓ texnologiya fani materiallarini tanlash va birlashtirish;

✓ uning ta'limiy hamda tarbiyaviy vazifalarini aniqlash.

Texnologiya fanini o'qitish jonli va jonsiz tabiatning har xil odamlari o'rtasidagi jonli tabiat bilan odamlar o'rtasidagi, ularning mehnati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tushuna oladigan shaklda ochib berish, jonajon tabiatga mehr-muhabbatni, uni boyligini qo'riqlash va ehtiyotkorlik bilan foydalanish istaklarini tarbiyalash lozim.

O'quvchilarni texnologiya fanini muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiat to'g'risida, o'z joyi va barcha mamlakatning tabiiy boyliklari to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirishlari, o'quvchilar vatanimizning tabiiy boyliklaridan, odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishtirishlari lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof-muhit tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir.

Shu talablarga ko'ra kichik yoshdagi o'quvchilarga:

jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish;

odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'g'risida ma'lumotlar berish;

tabiatda kuzatishlar o'tkazish o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish;

tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyligini ko'paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish;

jonajon tabiatga muhabbat va uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash.

Bugungi kunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish maqsadida turli xil usul va vositalar qo'llanilmoqda.

Jumladan muammoli o'qitish masalasi ham ana shu maqsadlarda ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Muammoli o'qitishda tayyor bilimlarni bayon qilish tobora ko'proq qo'llanila boshladi. Muammoli o'qitishni o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi, toki ular bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llash usullarini egallab olsinlar. Bunday masalalarda bilimlarni tekshirishda o'zlashtirishning chuqurligini va ongliligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Muammoli o'qitish keyingi yillarda psixolog olimlar, didaktlar, materiallar, ijodiy ishlayotgan barcha o'qituvchilarni tobora ko'proq e'tiborini jalb qilmoqda. Olimlar muammoli darsni quyidagi bosqichlarga bo'lishni taklif qiladilar:

muammoli vaziyatni yaralishi va uning tahlili;

muammoni ifodalash (qo'yish);

muammo yechimini izlash (eski bilimlarni umumlashtirish, farazlarni ilgari qo'yish, eng to'g'riroq farazni tiklash va isbotlash);

Muammoni hal qilish;

Yechimning to'g'riligini tekshirish.

Darsda muammoli vaziyat yaratish murakkab didaktik masaladir.

Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan masalalar o'quvchilarda fikr uyg'otish uchun bilim olish sistemasidagi ahamiyati ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishiga ixtiyor tug'ilsin. O'quvchilar muammo asosida bilimlarni egallar ekanlar, shundagina ular nafaqat ma'lumotga ega bo'ladilar, balki muammoni qayta ishlash hal qilish kabi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Muammoli o'qitish bilan birga bugungi kunda o'quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini va ularning bilimlarini tekshirish maqsadida texnologiya fanidarslarida har bir o'quvchining o'qishdagi mustaqilligiga va o'quv axborotlarini qabul qilish hamda qayta ishlashni tashkil qilishga yordam beruvchi dasturlashtirilgan o'qitish usuli qo'llaniladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish bilimlarni egallashdagi harakatlarini kuzatib borishlari, qaysi bo'g'inda uzilish bo'lganligini, o'qitish jarayonida qanday o'zgartirishlar kiritish kerakligini aniqlashga imkon beradi. Dasturlashtirilgan o'qitish uchun o'quv materiallarini sinchiklab tahlil qilish uni qat'iy tanlash va mantiqiy izchillikda taqsimlash, o'quvchilarning idrok qilish faoliyatlariga rahbarlik qilish kerak. Dasturlashtirilgan o'qitishda o'quv materialini egallashdagi o'quvchilar mustaqilligi hamda faolligi ortib boradi, o'rganish jarayonini induviduallashtirish imkoniyati tug'iladi, o'qituvchi o'quvchilarning mehnatini takomillashtirishga yordam beruvchi o'qitishning texnika vositalaridan keng foydalaniladi.

Dasturlashtirilgan elementlarni tadbiiq qilishda an'anaviy o'qishni dasturlashtirilgan o'qitishga qarama-qarshi qo'yish, yangini deb umumiy qabul qilingan metodlardan voz kechish kerak emas. Har ikkala yo'nalish chambarchas bo'lishi va bir-birini to'ldirishi zarur.

Texnologiya fani darslarida ham bugungi kunda keng qo'llanilayotgan integrativ usullardan foydalanish kutilgan natijalarni bermoqda. Integrativ usullar orqali o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati namoyon bo'lib, ta'lim jarayoni har ikkala tomon uchun ham qiziqarli faoliyatga aylanadi.

Bundan tashqari o'quvchilarga qanday bo'lmasin o'z fikrlarini bayon etishga ruxsat beriladi, hech qanday tanqidga yo'l qo'yilmaydi. Chunki o'quvchilarni ilk yoshlarida bildirilgan fikrlariga e'tiroz bildirish ularni keyingi safar fikrlarini bayon etishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Ular keyin xato qilishdan qo'rqqanlari uchun to'g'ri bo'lsa ham fikrlarini aytmaydilar.

Integrativ usullardan foydalanishda o'qituvchi eng avvalo maqsadlarini belgilab olishi va ularni amalga oshiruvchi strategiyalarni ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

Strategiyalar o'qituvchi tomonidan har tomonlama o'ylab, fanni, predmetni, mavzuni o'quvchilarning xususiyatlari va o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ishlab chiqariladi. Maqsadlarni belgilab olishda bilim taksomaniyasini qo'llash samarali bo'lib, o'qituvchi unga ko'ra o'z strategiyalarini ishlab chiqadi. Ayniqsa texnologiya fani darslarida o'quvchilar doimiy tabiat qo'ynida, atrofida yuz berayotgan voqea, hodisalar asosida bilim olganliklari uchun ularga ma'lumotlarni tayyor holda o'zlari bilgan narsalarni bergandan ko'ra, qanday ma'lumotlarga ega ekanligini tekshirib so'ng yangi bilimlarni bergan ma'qulroq.

Buning uchun yangi o'quvchilar bilimga doir ma'lumotlarni (bilim tolenomasi bo'yicha 1-maqsad) aniqlash uchun tarmoqlar klaster metodidan foydalanib ishlash maqsadga muvofiqdir. Misol uchun texnologiya fani darslarida «Bahorgi gullarni yasash» mavzusini o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarning shu mavzuga oid bilimlarini aniqlash maqsadida quyidagicha topshiriqlar berish mumkin.

Tushunishga oid maqsadni amalga oshirishda esa o'quvchilarga matn o'qitiladi va BBB metodi loyihasi bo'yicha amalga oshirish mumkin, ya'ni o'zlari uchun yangilik deb bilgan ma'lumotlarni bilib oldim bo'limiga yozadilar.

Analiz qilishga oid maqsadni oshirish uchun esa o'quvchilar doskadagi ko'plab gullar rasmidan bahorgi gullarni topadilar shu orqali o'quvchilar boshqa gullar ichidan bahorgi gullarni ajratish bilan birga boshqa gullarni ham taniy boshlaydilar.

Sintez qilishga oid maqsadni amalga oshirishda esa o'quvchilar gullarga oid maqol va topishmoqlar, she'rlardan foydalanib o'qish va yoddan aytib berishlarini taklif qiladi.

Qo'llashga oid maqsadni amalga oshirishda esa bahorgi gullarning rasmlarini chizishni topshiriq qilib beradilar.

Baholashga oid maqsadni amalga oshirishda esa o'quvchilar bahorgi gullarning foydali va zararli tomonlarini aniqlash, ularga baho berish, o'zlari uchun biror yoqtirgan gullarni tanlash kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Shu orqali o'quvchilarda o'z fikriga ega bo'lish munosabat bildirish va baholash kabi sifatlarni shakllantirib boriladi.


Kichik maktab yoshidagi bolalarga texnologiya fani darslarini ko'proq o'qish, atrofimizdagi olam va odobnoma darslari bilan bog'lab olib borish mumkin. Chunki oldin aytib o'tilganidek har ikkala predmetning umumiy tomonlari juda ko'p bo'lib ular bir-birini to'ldiradi va berilgan materialni ko'pchilik qismi tabiat va jamiyat hodisalariga, jamiyatdagi kishilar va ularning mehnat faoliyatlariga asoslangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat 2008.
2. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. N.Sayidaxmedov.- «Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash». toshkent. 2000 yil.
4. Sharipov Sh.S. va b. Mehnat ta'lim metodikasi va kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 yil.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz



МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ТИНГЛОВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ОИД ИННОВАЦИЯЛАР

*Раҳимахон Хошимжоновна Боймирзаева НамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ
ижтимоий-иқтисодий фанлар методикаси кафедраси ўқитувчиси.*

Мустақил таълим муайян фандан ўқув дастурида белгиланган ҳамда тингловчи томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўникма ва малака шакллантиришни ўзлаштириш даражасини амалга оширувчи таълим шакли бўлиб, ўқитувчи маслаҳати ва тавсиялари, билимлар тақсимотига тайёргарлиги асосида аудиторияда ёки аудиториядан ташқарида бажарилади. Фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб, мустақил иш турлари бўйича топшириқлар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Мустақил ишлар мураккаблик даражасига кўра, Россиялик тадқиқотчи В.М.Рочипский томонидан қуйидаги гуруҳларга бўлинган:

1. Дарс ўтилгандан сўнг бажариладиган ишлар, уй вазифаларини бажаришда дарслик, ўқув кўлланмалари билан ишлаш, конспект тайёрлаш.

Типик топшириқларни ечиш. Бунда тингловчи аввалги билимларини хотирасида қайта тиклайди ва қисман қайтаради.

2. Ўзгартириб, аниқ топшириқларда қўллайди. Масалан: масала, машқ ечиш;

3. Ўрганилган билимларни типик бўлмаган шароитда қўллаш. Талаба ўрганган билимлардан янги шароитда фойдаланади. Шароитларда маълум умумийлик бўлиши мумкин.

4. Ижодий фаолиятга асос яратиш. Бунда талаба ўрганилаётган соҳанинг моҳиятига тушунади, унинг янги муносабат, боғланишларини аниқлайди, ғоялар ва тушунчаларни янги шароитга боғлайди³.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш тизимида барча мустақил ишлар тингловчиларда ижодий ишлаш кўникмасини ҳосил қилишга қаратилган бўлиши мақсадга мувофиқ бўлади. Таълим олувчини ижодий ишлашга ўргатилмаса, у маълум мавзуга оид материалларни турли манбалардан кўчириб келиш билан кифояланиб қолмаслиги учун, биз тингловчи кўпроқ ўз устида ишлаши ва мустақил фикрлаши муҳимдир.

Бугунги кунда мустақил иш сифатида кўпроқ репродуктив топшириқлар берилади, аммо ижодий фаолиятни талаб этувчи топшириқлар камдан-кам ҳолда қўлланади. Натижада тингловчиларда мустақил ва ижодий фикрлаш қобилиятларини аниқлай олиш мавҳум бўлиб қолаверади.

Мустақил фаолиятни ташкил этиш жараёнида ўқитувчи кўпроқ дидактик материаллардан фойдаланади. Дидактик материалларга тингловчиларнинг мустақил ва ижодий ишлаш ҳамда фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган муаммоли, қизиқарли саволлар, ижодий топшириқлар, лойиҳалар ўйинлар, крассвордлар каби материаллар киради

Мустақил ўрганишни таъминловчи ва амалиётларни ўтказишга йўналтирилган ўқув материалларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Буларга йўналтирувчи матнлар, лойиҳалар ва модуларни мисол қилиш мумкин. Бу ўқув материаллари тингловчинини мустақил билим олиш ва меҳнат фаолиятига йўналтиради.

Ижодий топшириқлар таркибига ижодий машқ, ижодий мустақил иш, турли дидактик ўйинлар киради. Агар ижодий машқ воситасида ўрганилган билимлар янги ўқув ҳолатларига татбиқ қилинса, ижодий мустақил иш диллилардан янги хулосалар чиқариш ҳамда янги фаолият усулларини фаолиятда қўллаш билан ажралиб туради.

Муаммоли вазиятлар ва ижодий ўқув топшириқларини ишлаб чиқишда қуйидаги қоидаларга риоя этилиши тавсия этилади:

-топшириқлар ҳақиқий вазиятлар билан боғлиқ муаммоларга қаратилиши керак;

-ўқув топшириғидаги муаммони ҳал этишда тингловчилар ақлий фаолиятини турли усуллар ёрдамида ривожлантиришни кўзда тутати;


-топшириқлар мазмунида акс этирилган ҳодисалар ва жараёнлар ўртасидаги муҳим боғлиқлик кўрсатилиши керак;

³ Рочипский В.М. Алфавит педагогического труда. М.: Наука, 1999. – 33 бет

- топшириқлар ечимини аниқлаш ва тингловчилар онгида ҳодисалар ёки жараёнлар ўртасида боғлиқликни мустаҳкамлаш имкониятларини назарда тутилиши лозим;
- топшириқларни бажариш жараёнида тингловчи оддий тушунчалардан, у ҳали ўзлаштирилмаган янада мураккаброқ тушунчани келтириб чиқариш имконини бериши лозим;
- топшириқни бажариш жараёнида оддий тушунчалар тингловчига маълум бўлмаган тушунчалар билан ўзаро таҳлил қилинади;
- топшириқни бажаришда тингловчи тушунчаларнинг шакли ва мазмунини ўзгартирмасдан ва ўзгартириб, уларни қайта ишлаб чиқади.

Мустақил ишлар тингловчининг умумий ривожланишига ва касбий маҳоратини ўстиришга ҳамда методик ва илмий тадқиқот ишларини ривожлантиришга хизмат қилиши керак. Шунингдек, тингловчиларнинг мустақил ва ижодий ишларини ташкил қилиш тарбиявий, таълимий аҳамиятга ҳам эга бўлиши керак. Тарбиявий аҳамияти шундаки, тингловчи ўз билимини ошириш ва мустаҳкамлаш учун ўзини-ўзини тарбиялаб боради. Таълимий аҳамияти эса талаба бўш вақтдан самарали фойдаланган ҳолда мустақил билим олиш жараёнининг шаклланишига олиб келади.

Шундай қилиб, мустақил ишларнинг турлари, шакллари танлашда “оддийдан мураккабга” ҳамда “умумийдан хусусийга”, “мавхумдан аниқликка” тамойилларига амал қилиш лозим. Мустақил ва ижодий иш топшириқларини ишлаб чиқишда ҳар бир тингловчи шахсий имкониятлари, тушунувчанлик, ўқув материални ўзлаштириш даражаси инobatга олиниши, шахсга йўналтирилган ўқитиш технологияларини қўллаш мақсадга мувофиқдир.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУЛЬТИМЕДИАЛАРДАН Фойдаланишнинг аҳамияти

Нилуфар Раимжоновна Каримова
НаманганДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ ўқитувчиси

“Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида Ўзбекистон Республикасининг таълим тизимини ислоҳ қилиш борасидаги тажрибалар бугунги кунга келиб халқаро ҳамжамият томонидан эътирофга сазовор бўлмоқда. Олиб борилаётган ислохотлар, яратилаётган шароитларга мос равишда педагоглариимиз ўз фаолиятларида янги педагогик ва ахборот технологиялари, интернет имкониятларидан кенг фойдаланган ҳолда ўқув жараёнини янада жадаллаштиришга эришилмоқда. Мамлакатимизда таълим жараёнини ахборотлаштириш, замонавий компьютер технологияларини таълим жараёнига жорий этиш изчиллик билан амалга оширилмоқда.

Таълим муассасаларида ўқитишнинг энг янги воситалари билан жиҳозланган аудиторияларда, компьютер синфларида мультимедия воситаларидан фойдаланилган ҳолда олиб борилмоқда. ўқувчилар ижодий салоҳиятларини фаоллаштиришга, уларни ўқишга қизиқишларини, истакларини рағбатлантиришга қаратилган ўқитишнинг усул ва услубларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш вазифаси муҳим аҳамият касб этмоқда. Таълим жараёнини ривожлантириш ва янада такомиллаштириш борасида ахборот-коммуникация технологиялари имкониятларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Бу технологиялар ўқув жараёнидаги ахборот маконини кенгайтириш, ахборот манбаи ва ундан фойдаланувчи, яъни унинг истеъмолчиси ўртасидаги масофани қисқартиришга имкон беради. Ахборот-коммуникация технологиялари ўқувчиларни ахборот устида мустақил ишлашга ўргатади, хотирани фаоллаштиради. Мультимедиа-инглизча: мульти-кўп ва медиа-танишувчи, муҳит маъноларини англатиши, ахборотни турли шаклдаги танишувлар бўлмиш бўлмиш товуш, тасвир ва матнлар бирикмаси деб берилган изоҳдан келиб чиқиб, ўқув-тарбия мақсадини рўёбга чиқаришда ахборотнинг электрон товуш, тасвир, матн кўринишларидан фойдаланилган дарсларни мультимедияли дарс сифатида қараш мумкин.

Мультимедиали дарсларнинг ўқитувчи ва ўқувчи учун аҳамиятли жиҳатлари қуйидагича;
Ўқувчининг билиш жараёнидаги аҳамияти асосан қуйидаги психологик ҳолатларда кўзга ташланади:

- Дикқатни жамлашда;
- Маълумот тўғрисидаги тасаввурни кенгайтиришда;
- Ўқув предмети ва дарсга қизиқишнинг ортишида ҳамда билимларни ихтиёрий тарзда ўзлаштиришда;

Изланувчанлик, ижодкорлик ва мустақил фаолиятга киришишда;
Ўз-ўзини баҳолашда.
Ўқитувчи фаолиятида мультимедиали дарсларнинг ўрни куйидагиларда акс этади:
Вақтни тўғри тақсимлашда;
Ўқув материали мазмун-моҳиятини ёрқин ва ишонарли бўлишини таъминлашда;
Берилаётган ахборотнинг кўламини оширишда;
Ўқув топшириғининг турларини кенгайтиришда;
Соғлом рақобат, ижодий муҳитни юзага келтиришда;
Касбий малакани мунтазам ошириб боришда.

Маълумки, мультимедиали ахборотлар тизимига матн, жадвал, графика, нутқ, схема, мусиқа ва бошқалар киради. Ушбу ахборотларни фойдаланувчиларга 2 та усулда узатиш мумкин. Биринчи усулда ҳар бир ахборотни, масалан матнни маълум бир масофадаги фойдаланувчига ёки шу жойнинг ўзидаги фойдаланувчига узатиш мумкин. Иккинчи усулда эса ахборотнинг бир неча турлари-матн, графика, схема, тасвир ва бошқаларни компьютер хотирасида сақлаб, ишлов бериб ва барчасини битта пакетга мужассамлаштириб маълум бир масофадаги фойдаланувчига ёки шу жойнинг ўзидаги фойдаланувчига узатиш мумкин. Мультимедия технологиясининг шаклланиш босқичлари унинг асосий техник таъминоти бўлган компьютер тизимининг ривожланиши билан боғлиқдир. Мультимедия технологиясидан фойдаланиш борасида кўпгина таълим воситалари-ўқув электрон дарсликлар, қўлланмалар, ишланмалар, тақдимотлар ишлаб чиқилган ва амалда қўлланилмоқда. Мультимедиали электрон дарсликлар анъанавий дарсликларга нисбатан куйидаги афзалликларга эга:

одатдаги дарсликларда бирон мавзуга тегишли материаллар матни ва статик кўринишдаги битта расм берилади

мультимедиали электрон дарсликларда эса шу мавзуга тегишли материал матни ва уни шарҳлаб берувчи сухандоннинг овози, мавзуга тегишли анимация берилган бир нечта расм, бўш ўтган даврга тегишли кичик кинолавҳа ва мусиқа қўшиб берилади.

Ўқитувчи мультимедиали дарснинг сифатли бўлиши учун куйидаги ташкилий босқичларни тўлиқ ва тўғри амалга ошириши зарур:

- Дарснинг мультимедиадан фойдаланиладиган қисмини аниқ белгилаб олиш;
- Мультимедиа материалларини тўғри танлаши ва шакллантириш;
- Мультимедиа материалларини ўтиладиган дарс жараёнига мослаштириш;
- Мультимедиа материалларидан дарс жараёнида тўғри фойдаланиш.

Мультимедиали дарс босқичларини бугунги кунда кенг тарқалган Microsoft PowerPoint дастури ёрдамида ташкил этиладиган тақдимотлар мисолида кўриб чиқамиз.

Дастлаб дарснинг “янги материални тушунтириш”, “ўтилганларни мустахкамлаш”, “такрорлаш ва эгалланган билим, маҳоратни баҳолаш, умумлаштириш”, “уй вазифалари ва топшириқлари” ва бошқа қисмларида мультимедиа элементларидан фойдаланиш белгилаб олинади.

Мультимедия технологияси: видеоматериаллар ва интернет тармоғи ресурсларидан фойдаланиш самаралидир. Мисол учун дарс жараёнида “Осмондаги юлдузчалар” фильмидан фойдалансак, бу ва бошқа фильмлардан фойдаланиб бир нечта топшириқ турларини ўз ичига олган методик қўлланма ташкил қилса бўлади. Топшириқ куйидаги турлардан иборат бўлади:


фильмни кўришдан олдин бажариладиган машқлар (фильмнинг қисқача мазмуни, асосий қаҳрамонлар билан танишув);

ўқувчиларни мустақил изланиш-маълумотни танлашга ўргатувчи топшириқлар;

фильмни кўришдан кейин бажариладиган машқлар;

яқуний топшириқ (презентация).

Мультимедиадан таълим ва тарбия тизимида кенг фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг билим салоҳиятлари ва тасаввур қобилиятларини ривожлантиришда самарали фойдаланиш мумкин деб ҳисоблайман.



PEDAGOG FAOLIYATIDA KOMPETENTLIK DARAJASINING AHAMIYATI

Rabbanayeva Dildora SamDU XTXQTMOHM o'qituvchisi

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining tutgan o'rnidan oqilona va odilona foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarini, o'qishga ongli munosabat, o'z faoliyatini maqsadli yo'lga qo'yish kabi aqliy sifatlarni, shu bilan birga, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi irodaviy fazilatlarini shakllantirishi lozim.

O'qituvchi darsni qanchalik ijodiy tashkil etishga urinmasin, o'quvchilarning aqliy faolligi ta'minlamasa, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmasa, ma'naviy barkamol insonni, shaxsni talab darajasida tarbiyalash ishida kamchiliklar saqlanib qolaveradi.

Davlatimiz tomonidan pedagoglar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilib, oliy toifali mutaxassislar safini kengaytirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishi, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanishi eng dolzarb muammolardan biridir. Zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyatida shakllanib, asosan amaliy ishlarda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib-rivojlana boradi.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilar faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli takomillashib borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi, chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Har qanday o'qituvchi psixologik nuqtayi nazardan doimiy ravishda o'z bilimlarini va malakalarini oshirish bilan shug'ullanishi lozim. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir.

Pedagoglik kasbi, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatda yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarga erisha oladi. Biz quyida pedagogning kompetentlik darajasi haqida fikr yuritamiz.

Kompetentlik (lot. *competens*) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetukligini baholovchi mezon hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatining o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish, kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Shaxsiy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot – munosabatlariga faol kirisha olishi, muammolarni hal etishga turlicha yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Metodik kompetentlik – o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Kreativ kompetentlik (inglizcha “create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Informatsion kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

Innovatsion kompetentlik – ta’limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta’lim yo’nalishidagi innovatsiyalarni o’zlashtirish, amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o’zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko’rinadi.

Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo’nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko’nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o’rtasidagi uyg’unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta’minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi.

Yoshlarni o’qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko’p jihatdan o’qituvchining g’oyaviy e’tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyati va kompetentligiga bog’liq ekan bugungi kun o’qituvchilari o’z kasbiga ma’suliyat bilan yondashishlari, ota-onalar va xalq ishonchini o’lamlari uchun o’z ustida tinimsiz ishlab, bilimlarini boyitib, tajribalarini oshirib borishlari lozim. Zamonaviy pedagog o’quvchiga ta’sir etish, uning istaklarini, e’tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Zero, zamonaviy maktabga yuksak ma’naviyatli, faol, izlanuvchan pedagog – ustoz kerak.



КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

И.А.Раимкулова РЦППКРНО при СамГУ

Система образования сегодня находится на этапе важных масштабных преобразований. Все они направлены на удовлетворение образовательных потребностей общества. Достичь нового качества образования невозможно без внедрения в его систему новых форм и способов обучения, оптимизации образовательного процесса через использование перспективных педагогических технологий.

Интерактивный подход к обучению сейчас является самым продуктивным для решения задач, поставленных перед образованием. Кейс-технологии считаются одной из разновидностей интерактивных технологий. Применение их на уроках русского языка и литературы объясняется необходимостью поиска путей активизации познавательного интереса учащихся, развития комплекса ключевых компетенций каждого из них.

Ранее кейс-технологии использовали при обучении студентов вузов и колледжей по экономической специальности, сейчас появляются попытки реализовать кейс-метод в школах. Ребята уже с 5 класса с большим энтузиазмом работают с кейсами, их привлекает жизненность кейса, многообразие решений проблемы.

Кейс (от англ. case – случай, обстоятельство) – совокупность учебных материалов, в которых сформулированы практические проблемы, предполагающие коллективный или индивидуальный поиск их решения. Его отличительная особенность – описание проблемной ситуации на основе фактов из реальной жизни. Кейс – это не просто правдивое описание событий, а единый информационный комплекс, позволяющий понять ситуацию.

Кейс-метод имеет широкие образовательные возможности. Применение в общеобразовательной школе данного метода решает ряд важнейших задач:

- повышение мотивации к обучению (проблемная ситуация всегда жизненна);
- развитие навыков обработки информации (информация подается как набор самых различных видов информации): анализ, выделение главных тем;
- развитие коммуникативной компетенции (работа в группах, умение защищать свою точку зрения);
- развитие речевой культуры (умение аргументировать, представлять интересы).

Учитель, который использует кейс-технологии на своих уроках, сам разрабатывает кейсы, подбирает материалы к решению кейса, тоже развивается: отрабатывает навыки подбора информации, организации работы учащихся в группах.

Для учителя работа с кейсом состоит из двух этапов:

- ✓ подбор ситуации и материала к ее решению;
- ✓ подача ситуации ребятам и организация деятельности по работе с ней.

Работа учащихся с кейсом на уроке строится из нескольких этапов:

- ✓ знакомство с кейсом;
- ✓ изучение и анализ материала, предназначенного для решения ситуации;
- ✓ групповое обсуждение пути решения;
- ✓ демонстрация решения своей группы;
- ✓ дискуссия (обсуждение различных вариантов решения ситуации).

Как правило, кейс состоит из трех частей: сама проблемная ситуация, вспомогательная информация и конкретное задание к кейсу.

Проблемная ситуация может быть подана в разных видах: текст с четким сюжетом или идеей, видеофрагмент, аудиозапись, фото или иллюстрация.

Безусловно, возникают и трудности при подготовке кейсов и работе с ними. Прежде чем взяться за внедрение кейс-технологии в свою деятельность, учитель должен четко ответить на вопросы:

1. Для кого и чего пишется кейс?
2. Чему должны научиться учащиеся?
3. Какие уроки они из этого извлекут?

При подготовке конкретного кейса к уроку необходимо учитывать соответствие проблемной ситуации цели урока и возрастным особенностям класса. Далее правильно и четко сформулировать задание к решению кейса. Также необходимо подобрать такой набор информации, который бы в полной мере всесторонне отражал суть проблемы, либо, наоборот, объем информации был бы недостаточным, что порождает интерес учащихся к кейсу и усиливает мотивацию работы с ним.

Важно заранее продумать эффективность работы в группах, чтобы создалась ситуация коллективного обсуждения и решения ситуации. Работа в микрогруппах занимает центральное место в методе кейсов, так как это самый действенный метод изучения и обмена опытом. После того, как учащиеся разделены на малые группы для работы, они начинают самостоятельную работу. Именно при работе в микрогруппах происходит разбор ситуаций как совокупности обстоятельств, обстановки или положения дел, в которых члены коллектива совместно ищут решение проблемы. Они слушают друг друга, говорят сами, записывают, наблюдают, анализируют полученный результат. При этом спорят, строят гипотезы, учатся слушать, соглашаться с лучшим проектом решения, находят ошибки, готовят материал для дискуссии. Работа в группах и микрогруппах развивает в первую очередь коммуникативные и социальные компетенции учащихся.

Например, на уроке литературы по изучению рассказа В.Г.Распутина «Уроки французского» (6 класс) на последнем уроке в виде кейса оформлен отрывок из кинофильма, снятого по данному произведению, когда учительница Лидия Михайловна и ее ученик, заигравшись в «замеряшки», не слышат, как вошел директор школы. Ребята разделились на группы (по 5-6 человек), им предложено взять на себя полномочия директора и самим решить исход ситуации, но при формулировании оптимального решения опираться на знание уже прочитанного о героях и должностные инструкции педагога, на которые должен опираться руководитель учебного заведения в сложившейся ситуации. После предложенных вариантов и обсуждения их мы вновь обращаемся к тексту и зачитываем тот вариант, который предложен автором произведения. Ребята уже другими глазами смотрят на действия директора и по-другому осмысливают замысел произведения. Факт принятия самостоятельных решений в роли учителя повышает мотивацию обучения на уроке.

При изучении рассказа «Цифры» И.А. Бунина основой обсуждения являлся поступок главных героев, которые, имея очень чуткую натуру, тем не менее, поддаются негативному порыву и вступают в конфликт. Обозначается проблема: «Возможно ли было избежать конфликта?» Учащиеся должны ответить на вопросы: «В чём причина конфликта? Кто виновен в возникновении конфликта? Как ведут себя участники конфликта? Были ли в вашей жизни подобные ситуации? Как вы из них выходили? Какие советы психологов помогли бы избежать конфликта?»

Каждая группа разыгрывает свой вариант развития событий. Таким образом, определяется наиболее верная поведенческая модель.


При изучении в 5 классе темы «Знаки препинания при однородных членах» учащиеся должны были понаблюдать за постановкой знаков препинания при однородных членах, составить схемы предложений и, наоборот, по схемам составить предложения. Особое внимание уделялось союзу И. Сколько заданий, столько раз и менялась тройка, в которой шло обсуждение и принималось общее решение. После этого, в качестве нового продукта, ребята делали самостоятельно выводы и записывали их в тетрадь.

При изучении произведения А.С.Пушкина «Дубровский» дети рассматривали и анализировали образ Владимира Дубровского, используя упражнение дерево решений и кейс-технологии. Класс делился на 4 группы, каждая из групп рассматривала Дубровского с разных сторон: Дубровский-сын,

Дубровский – разбойник, Дубровский – Дефорж, Дубровский и Маша. Группа получила свой кейс (листок от дерева) с заданием (вопросы по тексту). Детям давалось время для обсуждения, затем представитель от группы озвучивал общее мнение, делал выводы. В качестве нового продукта ребята дома писали творческую работу «Каким я представляю Владимира Дубровского». Материалы урока были ребятами использованы в их сочинениях.

Работа по решению кейсов одинаково эффективна в групповой работе учащихся, в работе в парах, в индивидуальной работе. Результат решения кейсов может быть представлен в виде презентации, защиты проекта, критической справки, описательной работы, эссе.

С применением кейс-технологий на уроках русского языка и литературы содержание образования остается неизменным, преобразуется форма обучения, отводится больше времени для группового и межгруппового взаимодействия на уроках. Кейс отличается от простой учебной задачи тем, что учебная задача предполагает один ответ, а кейс предполагает несколько вариантов решения, нам интересен не ответ, а путь к нему. Решение кейсов не просто дает знания, а учит действовать в определенных условиях, применяя знания. Именно эти умения и необходимы современным выпускникам наших школ для успешной самореализации.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

*Рахманова З.П. СамГУ
Мирсаидова М. СамГУ*

С целью обеспечения непрерывности и последовательности всех видов образования, создания современной методологии образования, совершенствования государственных образовательных стандартов, реализуется ряд комплексных программ, направленных на саморазвитие порастающего поколения. Данные комплексные программы осуществляются на основе новых условий, законов Республики Узбекистан "Об образовании" и "Национальной программы по подготовке кадров" и Стратегии действия на 2017-2021 гг.

В Самаркандском государственном университете функционирует подготовительное отделение, где учащихся старших классов средних общеобразовательных школ готовят к поступлению в высшие учебные заведения. На основе специальных образовательных учебных программ, ведущие специалисты профессорско - преподавательский состав университета, по различным направлениям науки преподают, учат детей, для познания основ соответствующих научных дисциплин и дальнейшего их усовершенствования.

Как мы знаем, в теорию и практику учебно-воспитательного процесса всей отечественной системы образования прочно входят технология обучения, воспитания и педагогика сотрудничества на основе новых передовых педагогических инновационных технологий обучения. В подготовительном отделении процесс обучения детей осуществляется на основе гуманистических идей воспитания и обучения. Именно гуманистический подход к обучению способствуют развитию самостоятельных педагогических мышлений. По этому поводу Ш.Амонашвили утверждает, что: «Гуманное педагогическое мышление стремится объять необъятное, и в этом сила образовательных систем и процессов, рожденных в его недрах» [3.78 стр.].

Действительно оптимизм, высокая духовная нравственность и учительская любовь предопределяют становлению личности. Так как развитие духовного мира базируется на социально-эмоциональном благополучии, поэтому наша технология опирается на тесное взаимодействие всех участников технологии.

Технология совместного обучения как часть новой инновационной технологии обучения осуществляется во всех сферах обучения и преподаватели в процессе проведения занятий в данном подготовительном отделении пользуются такими интерактивными методами обучения как «Ассесмент», «Круглый стол», «Дискуссий», «Резюме, Веер» и «Кейс-стади». «Кейс-стади» - эта

техника обучения, использующая описание реальных экономических, социальных и бизнес-ситуаций. Здесь обучающиеся должны исследовать ситуацию, разобраться в сути проблем, предложить возможные решения и выбрать лучшее из них. Кейсы основываются на реальном фактическом материале или же приближены к реальной ситуации. Также дополнительно применяются технические средства обучения, экспресс-опросы, тесты, обзоры, семинары, обсуждение идей, работа в малых группах и т.д.

Вышеуказанные технологии обучения наилучшим образом соответствует логике саморазвития субъекта учащихся. Дальнейшее выявление саморазвития субъекта учащихся осуществляется в процессе проверки и оценки знаний, где педагоги создают дидактическую структуру, связывают её требованиями обучения, обеспечивающего непрерывную коррекцию объемов, интенсивности, формы педагогических воздействий, организации обучения, направленных на достижение актуальных и долгосрочных целей обучения и воспитания, прогнозирование их результативности.

Особо следует отметить формы прогнозирования результативности своих занятий по различным дисциплинам, например доценты: З. Ашурова по математике, Н. Алланазарова по биологии, Ш. Ишниязова по родному языку и литературе используют различные формы контроля знаний, умений и навыков учащихся. К примеру: «повторяем с контролем!», «повторяем с расширением», «идеальное задание», «творчество работает на будущее», «сочинялка» и многие другие, а результат совершенно оригинальное. И поэтому использование разнообразных форм инновационных технологий, основанные на улучшении качества подготовки, выявления скрытых интеллектуальных особенностей учащихся может стать одной из основ современного принципа гуманной педагогики.

Гуманность, гуманистические особенности современной педагогики должны быть проникнуты национальными идеями нашего общества и в творческие деятельности технологии преподавания, всестороннего освоения учащимися знаний, умений и навыков учебных предметов разнообразных отраслей науки.

Всестороннее развитие подрастающего поколения в процессе воспитания и обучения будет приобретать все новое компетентное направление для осуществления запросов реформ и методов новаций и инноваций в области науки, образования, экономики, производства, процветания данного общества и коренного изменения и улучшения жизни людей в государстве, если учителя исходя из современных гуманистических требований способствуют достигать решения следующих задач: детям вселять веру в свои силы и предоставить возможности выявления свободной воли в достижении поставленной цели, самостоятельно осваивать моральные и духовные ценности общества.

Список литературы:


Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015.-304 б.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Фармони. Т.: Адолат 2017

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.- Тошкент.: “Ўзбекистон”. 2017.-488 б.

Амонашвили Ш.А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса. Минск, 1990.

Степанов Е.Н., Лузина Л.М. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. М., 2002.



O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVI

*N.M.Toshpo'latova Farg'ona davlat universiteti huzuridagi
VXTXQTMOXM Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*

Pedagogik innovatsiya tushunchasi, jarayoni bizning mamlakatimizda ham keng qamrovda o'rganila boshlandi. Innovatsion xizmat, nashriyot faoliyati jurnal va information maqolalar ko'rinishida paydo bo'ldi hamda dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Ehtiyojlardan kelib chiqib davlat, jamiyat yangicha talab qo'yadi. Madaniyat, fan, texnika tez o'zgarib borishi hamda jamiyatning yetakchi g'oyalari, o'zgarishlar ta'limni isloh qilishga sabab bo'ladi. Hozirda yangi bilimlarga bo'lgan talab kuchaygan. Ular innovatsion jarayonni tashkil etadi. Yangilik kiritish jarayonini o'zini bir soha muhitdan 2-sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birga o'rganiladi. Tadqiqotchi diqqatini turli hil innovatsion vaziyatlarni tahlil etishga qaratadi hamda yangilik kiritish sohasidagi tavsiyanomalarini kiritadi.

Innovatsion faoliyat –pedagogning yaratuvchilik va ijodiy faoliyat natijasi. Pedagogning yuksak professionalizmga erishishning omillari: isted'dod nishonalari, uquvlilik, qobiliyat, iste'dod o'quv yurti, o'z xatti harakati

Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy etilishi natijasida kam vaqt sarflab ko'p natijaga erishish mumkin.

O'qituvchining innovatsion faoliyati aniq shakl va uslublarini quyidagilarda amalga oshirish tavsiya etiladi:

O'quv tarbiya faoliyatini aniq shakllar va uslublarni o'quv- tarbiya faoliyatini differentsiyalash ;

O'quv ta'lim jarayonini har bir o'quvchi shaxs xislatiga qarab muvofiqlashtirishni moslash.

Insonparvarlik ta'limini kuchaytirish

Ta'lim-tarbiya ishlarni muvaffaqiyatini ta'minlash.

Har bir o'quvchi rivojlanishi darajasining asoslanishi .

O'qituvchi har bir ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishi rivojlanishi uchun kerak sharoitlarni yaratib beradi hamda yo'naltiradi.

O'quv tarbiya faoliyatining qulayligi, psixologik himoya o'quvchiga va uning kuchi imkoniyatlariga ishonish, mos tushishi.

O'qituvchining yangi tushuncha va yangi namunalar hosil qilish qobiliyati quyidagilarda ifodalansa maqsadga muvofiq bo'ladi:

✓ Fikrning ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish ; o'ziga hoslik ;

✓ Qiziquvchanlik; Farazlar yaratish qobiliyati ; Hayol qila olish ;

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga hozirligi me'yorlari sifatida quyidagilarga amal qilish darkor:

✓ Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;

✓ Ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga tayyorgarlik ;

✓ Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish ;

✓ Ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga tayyorgarlik;

✓ Innovatsion faoliyatining ijro etish uchun texnologik tayyorgarlik darajasi ;

✓ Innovatsion faoliyatining kasbiy mustaqillikka ta'siri;

Ta'limda innovatsiya yangi texnika va texnologiya, pedagogik jarayon va boshqaruvni tashkil etishning yangi shakllariga o'tish orqali erishilgan natijani namoyon etadi.

Xususiyatlari- Innovatsiya

Amalga oshirilishi- Doimo texnologik(amaliy) darajada

Amalga oshiruvchilar- Jamoa(laboratoriya, bo'limlar institut

Maqsadi- Yangilik kiritish orqali samaradorlikni oshirish

Yuzaga kelishi- Izlanishlar natijasi

Ta'limni isloh qilish omillari quyidagilardan iborat:

Moddiy texnik baza, mutaxassislar, D.T.S. texnologiyalar, elektron darsliklar, Internet, A.K.T. ilmiy nazariy qo'llanmalar, o'z navbatida yangi ta'lim tizimi mazmuni o'quv reja darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga yangicha yondashishni tashkillashga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchining ta'limga bo'lgan munosabatini samaradorligini oshiradi.

Ilg'or pedagogik texnologiya va yangiliklarni amaliyotda qo'llash muhim. Ushbu kiritilgan yangilikni, ijodkorlikni innovatsion ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, tatbiq etilsa ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi.

I.P.T. ta'lim jarayondagi yagona bosh mezonidir. I.P.T.ning boshqaruvchhanligi ta'lim jarayonini rejalashtirib, tashxis qilib, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyati bo'ladi hamda kutilgan natijaga erishilsa vaqtdan unumli foydalanilsa samarasi oshadi. Pedagogikadagi yangiliklarni ajratish, yangiliklarni idrok etish, o'zlashtirish, baholash, yangiliklardan foydalanish uni joriy etish bosqichlarda amalga oshiriladi. O'qituvchi ma'lumotni bayon etib, o'quvchilarning bilish jarayonini tashkillaydi. Har bir ustozning dars jarayonida darsni talab darajasida tashkillashi uning innovatsion yangiligidir.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni samaradorligiga pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining yangiliklaridan foydalanish natijasida erishiladi;

Ta'limdagi yangilanishlar jarayoni pedagoglarga malakaviy talablar qo'yimoqda

Ular quyidagilardan iborat

- 1) Kasbiy tayyorgarlik (o'z fanini chuqur bilish, kasbiy eruditsiya).
- 2) Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalardan xabardor bo'lish.
- 3) Pedagogik va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish.

Mahoratli pedagog- doim ijodiy izlanishda, shuningdek yuksak malakali, tajribali, qobiliyatli, ilmi, o'z ishining ustasi, bilag'oni bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik bilim va mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi avval pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishi qonuniyqlarini va omillarini, Ta'lim to'g'risidagi Qonun"hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "ning mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi zarur.

Mahoratli pedagoglar ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, quyidagi noana'naviy darslardan foydalanib ta'limni tashkillaydilar.

O'yin darslari; Anjuman darslari; Musobaqa darslari; Gurux darslari ; O'rgatish darslari; Sinov darsi; Tanlov darsi; Seminar darsi Kompyuter darslari

darsi;Ekskurtsiya darsi; Rolli darslar; Munozara darslari..

Innovatsion pedagogika- ta'lim-tarbiya jarayoniga yangilik kiritishdir. Innovatsion jarayonning bosqichlari: yangi g'oya yoki kontseptsiyani asoslash; yangilik yaratish; yaratilgan yangilikni amalda qo'llash; keng tadbiiq etish; muayyan sohada yangilikni ta'minlash. "Yangi" tushunchasi innovatsion pedagogikaning markazida turadi

Pedagogikada yangilik – o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmun.

Pedagogik innovatsiyalar:

- a) Pedagogikadagi yangilikni ajratish;
- b) Yangilikni idrok qilish, o'zlashtirish va baholash
- c) Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat– o'qituvchining yaratuvchilik va ijodiy faoliyat natijasi, yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keluvchi sub'yektiv va ob'yektiv omillarga ega. O'qituvchining yuksak professionalizmga erishishning omillari: iste'dod nishonalari;u'quvlik; qobiliyat; iste'dod, o'quv yurti; o'z hatti – harakati Yangi tushuncha yaratish va yangi namunalar hosil qilish qobiliyati, xislatlari kreativlikni tashkil etadi.

- ✓ Fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- ✓ O'ziga xoslik. Qiziquvchanlik. Fikrni ravonligi.
- ✓ Farazlar yaratish qobiliyati.Hayol qilish (fantaziya).

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga hozirligi me'yorlari sifatida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
2. Ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga tayyorgarlik;
3. Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
4. Ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga tayyorgarlik;
5. Innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik tayyorgarlik darajasi;
6. Innovatsion faoliyatining kasbiy mustaqillikka ta'siri.


Xulosa. Pedagog o'qituvchi innovatsion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – Toshkent: "O'zbekiston", 1995. – 24 bet. .
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.- T.: 1997 y.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»- T.: 1997 y.
4. A.Q. Munavvarov. «Pedagogika». «O'qituvchi» nashriyoti. -T. 1996 y.
5. Tolipov O', Usmanbaeva. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiqi. T.O'qituvchi. 2006 yil.
6. Pedagogik izlanish. T. O'qituvchi. 1995 yil.
7. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.

8.Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublilar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.

10.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b. 2010.-140 b.



ГЕОГРАФИЯ ЙЎНАЛИШИДА КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ҒАРБ ДАВЛАТЛАРИ ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАРИНИ ЎРГАНИШ : МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

А.Қ.Самъев – СамДУ ХХТХҚТМОХМ ўқитувчиси
Д.У.Эшманова – Пахтачи тумани 43-мактаб ўқитувчиси

Ўзбекистоннинг миллий мустақиллиги жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ҳаётида туб ўзгаришлар содир бўлишига олиб келди. Шу жумладан таълим тизимида ҳам кучли ўзгаришлар, ислохотлар амалга оширилмоқда. Бугунги кунда ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланилмоқда. Фанларни ўқитишда интерфаол методлардан, дарсликлар, ўқув қўлланмалари, электрон манбалар, монографиялар, хорижий адабиётлар ва интернет маълумотларидан фойдаланилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги М187-сонли “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ компетенциявий ёндашувга асосланган янги ДТС қабул қилинди. Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим – ўқувчиларда эгалланган билим, кўникма ва малакаларини ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалда қўллаш олишга йўналтирилган таълимдир.

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим ўқувчиларда мустақиллик, фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш, ташаббускорлик, медиаресурслар ва ахборот-коммуникация технологияларидан ўз фаолиятида оқилона фойдалана олиш, онгли равишда касб-хунар танлаш, соғлом рақобат ҳамда умуммаданий кўникмаларини шакллантиради.

Таълимда узок вақт анъанавий дарс ўтиш усулларида фойдаланиб келинди. Бундай дарс ўтиш усули бугунги кунда самара бермай кўйди. Шунинг учун бугунги кунда таълимда анъанавий дарс ўтиш усулларида аста-секинлик билан воз кечилиб, ноанъанавий дарс ўтиш усулларида ўтилмоқда. Ғарбнинг ривожланган мамлакатлари АҚШ, Буюк Британия, Германия ҳамда Жанубий Корея, Японияларда ҳамкорлик фаолиятига асосланган таълим технологиялари, яъни интерфаол методлардан фойдаланилмоқда ва юқори самарадорликка эришилмоқда.

Ғарбнинг ривожланган мамлакатларида география таълимида турли матнлар, ўйинлар, имитация кенг қўлланилади. Масалан, ўқувчи бирор бир компания президенти сифатида фикрлайди, иш юритади, бирор муаммони ҳал қилади, ўзи хулосалар чиқаради. Умуман бунда таълимнинг асосий мақсади ўқувчиларни келгуси ҳаётга, яъни ишбилармонликка тайёрлашдан иборат. Бу мамлакатлардаги географиядан ўқув дарсликлари ва қўлланмалар таҳлили шуни кўрсатадики мавзу ёки бўлимдан кейин қўйиладиган саволларнинг аксарияти муаммоли топшириқлар, дискуссия саволлари, амалий ўйинлар тарзида берилган. Ўқувчилар учун чиқарилган география дарсликларида компьютерлар билан ишлаш учун махсус саволлар, қизиқарли топшириқлар, математик статистика усуллари, турли ўйинлар, тестлар тарзида географик билимларни эгаллашга кенг ўрин берилган. Ўқувчилар уларни мустақил бажариш жараёнида тадқиқотчи ролини ўйнайдилар. АҚШ, Буюк Британия, Янги Зеландия ва Ғарбий Европа давлатларида эвристик суҳбат методи кенг тарқалган. Бунда асосий эътибор ўқувчиларни кўпроқ мустақил билим олишга, кичик тадқиқотлар қилишга ўргатишдан иборат. Демак, география дарслиги капиталистик мамлакатлар география таълими методикасида энг етакчи ўринни эгаллайди.

Бугунги кунда мактабларимизда компьютер синфлари очилмоқда. Мактабларимиз проектор, электрон доска ва ўқув жиҳозлари билан таъминланмоқда. Дарслар ўқув фильмлари, мавзуга доир тақдимотлар, турли хил интерфаол методлар ёрдамида ўтилмоқда. Булар албатта география фани ўқитувчиларининг ютуқлари. Ютуқларимиз билан бирга камчиликларимиз ва муаммоларимиз ҳам бор.

Мактабларнинг география фани дарсликларида амалий машғулотларга жуда кам соат ажратилган. Ўқувчиларда география фани бўйича тўлиқ компетенциялар амалий машғулотларсиз


шакланмайди. Натижада фан ўқитувчилари ўқув режадан ташқарига чиқмайди ва ўқувчилар амалий машғулот малакасига эга бўлмайди. Ачинарлиси фан ўқитувчиларининг аксарият қисми амалий машғулотларни ўзлари етарлича билмайди.

Маълумки географиянинг асосий ўқув қуроли бу харитадир. Бугунги кунда табиий хариталар (Ўзбекистоннинг, Дунё ва Ўрта Осиёнинг) ни топиш муаммо. Борлари ҳам чекка туманларга етиб келмайди. Ҳозирги вақтда мактабларнинг география йўналишида синфлар кесимида ўқув атласлари, ёзувсиз хариталар бор, лекин улар сотувда бўлиб, нархлари анча баланд. Шу сабабли ўқувчилар ўқув атласлари ва ёзувсиз хариталар билан тўлиқ таъминланмайди.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, ўқувчиларда география фани йўналишида компетенция шаклланишида география майдончаларининг ўрни ҳам катта. Бу майдончаларда об-ҳаво ва иқлимга тегишли маълумотлар ўрганилиб қолмасдан, балки кичик макетларни ҳам жойлаштира бўлади. Масалан: тоғлар, қор чизиғи, дарёнинг мансаби, манбаи, дарё ирмоқлари, меандра, ўзан, терраса ва ҳ.к...

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики, бугунги кунда география йўналишида таълим сифат самарадорлигини оширишда, ўқувчиларда география йўналиши бўйича компетенция шаклланишида талайгина ечимини кутаётган муаммолар бор.

Таълим сифат-самарадорлигини ошириш, ўқувчиларда фанлар кесимида компетенциялар шаклланишида ўқитувчининг роли жуда катта. Бунинг учун ўқитувчи биринчи навбатда ижодкор бўлиши, фанни чуқур билиши, ахборот коммуникацион технологиялардан фойдалана олиши, ўз устида ишлаши ва энг муҳими ўз касбининг фидойиси бўлмоғи керак.



USING THE INNOVATION TECHNOLOGY IN LESSONS FOR INCREASING EFFECTIVE TEACHING

*Zuhro Rustamova SamDU huzuridagi XTXQTMOHM
Tillarni o`qitish metodikasi kafedrasi o`qituvchisi*

Some people say that the invention of technology is one of the greatest humankind's inventions. However, other people think that computers make their life more stressful. Those people who think that computers brought many benefits and play a very important role in our modern life.

Even in education system computers and the types of innovation technologies are being developing on this way. Therefore, the skills of language teaching are taught with the assistance of Innovation technologies.

In every education centre or educational establishments teachers nowadays use a computer to teach the data and make different kinds of lessons. In our modern life It is very difficult to imagine the schools without computers. A school has to store millions of lessons and activities. With the helping of innovation technologies the lessons are interesting and effective. Moreover, a pupil who doesn't work with computer would be in a difficulty for some hours or some days to put up with the technologies and pick up information about his tasks at school, while a teacher was indicating trough the monitor of the computer. Another important aspect of this is that pupils are able to catch all information easier,

As for Teachers can make their papers and documents, put information, make corrections, print or send documents using computers by themselves. It makes life much easier. They can spend the rest of the time watching TV with his family or working on something new.

Computers provided a great means of communication - the Internet. I think it is the easiest and cheapest way to get in touch with relatives, friends, business colleagues, etc. Nowadays the teachers, students can receive some information or handouts for their lessons or their trainings. On this way lessons also have a lot of benefits. We can receive a lot of advantages from those lessons. The world becomes smaller and smaller. A person can get latest news, become friends with someone from another country, find his old friends, ask for a piece of advice, etc.

In addition to these practical benefits people can learn without leaving their house. They just use an Internet access, a computer and their cards to make a payment. It is kind of difficult to imagine that a few years ago people had to spend their time in lines buying newspapers, books. Now, a person can choose a destination, company, date and time and buy newspapers delivered to his door. I think it is amazing.

In other word we should speak about another type of innovation technologies. Technologies support oral skills. For younger learners effective classroom strategies have traditionally involved use of songs, rhymes and traditional stories with repeated language structures. The internet can be a rich source of authentic oral models through recorded songs, talking electronic books, podcasts and video clips that help learners with pronunciation as well as acquisition and reinforcement of new vocabulary. These tools can also help to support teachers who don't feel as confident with their own language skills. Technology also affords children the opportunity to record themselves for playback at a later time. Learners report that the ability to listen and play back recordings helps identification of grammatical errors and inaccuracy in pronunciation, encouraging self-improvement. So, today the door of all conveniences is open for every lively person: youth can do what they wish, they are able to learn or work where they would like. 21st century is the century of technologies.

Every educator knows that learning is not something that is done only in the classroom or under the supervision of teachers. Today, it is often difficult to reach every student in the classroom using the same approach to curriculum. With this in mind, the prospective teacher has at their disposal endless resources to guide the student to a higher level of learning. The increase in the use of computer technology in the past decade has had a profound effect on many of the schools and classrooms across the nation. The use of technology to improve education will lead to future benefits in all areas of society. The scope of this project takes into account many of the ways which technology can be utilized within the educational setting.

Among the many challenges that educators face as they approached the 21st century was how to effectively and creatively harness modern technology to significantly impact instructional ends. Computer Technology as we know it is possibly the most powerful tool ever available to educators. Certainly it has no rival since the printing press, the new technology is only as good as the material it produces for the learner, and the use to which the material is put to use. School, government as well as business have placed a high priority to have newly developed and implemented school-based computer technology programs initiated into the school curriculum.

In conclusion, we must remember that computers are not at an end in themselves but are instead a vehicle, a tool to be employed in the most appropriate or most efficient way by the users. We, the teachers, and through us, the students, are the users. We do have a lot to say about when and how the power of the computer will be integrated into our school system, either as a tool of learning, or in some instances, as a course objective in itself. Our objective is to find that good mixture that stimulates an effective learning environment.



ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

*Гўзалхон Эргашалиевна Эргашева, Хадиқахон Толқуновна Хошимова
Фаргона давлат университети ҳузуридаги ХТХҚТМОМ ўқитувчилари*

Таълим жараёнига инновацион технологияларни татбиқ этиш таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш имконини беради. Шу сабабли ҳам инновацион технологиялар асосида таълим сифати ва самарадорлигини ошириш муаммоси бугунги кундаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Таълим жараёнига инновацион технологияларни татбиқ этишдан кўзланган асосий мақсад:

- ✓ таълим сифатини янада юқори босқичга кўтариш;
- ✓ таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш;
- ✓ ўқувчиларнинг ижодий, танқидий фикрлашини ривожлантириш;
- ✓ ўқувчиларни мустақил ҳаётга тайёрлаш;
- ✓ ўқувчиларда маълумотларни мустақил қабул қилиш ва таҳлил қилиш кўникмаларини шакллантириш;
- ✓ ўқувчиларнинг қобилиятларини ривожлантириш ҳисобланади.

Кейинги ўн йил ичида таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш муаммоси дунё миқёсида тадқиқ этилмоқда. Бугунги кунда кўпгина мамлакатлар таълим сифати бўйича қиёсий тадқиқотлар методологияси, технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш масаласида ўз саъй-ҳаракатларини бирлаштирган ҳолда таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш муаммоларига

алоҳида эътибор қаратмоқдалар. Бунинг натижасида бутун дунёда таълим сифатини мониторинг қилиш тизими яратилди.

Сўнгги йилларда узлуксиз таълимни янги сифат босқичига кўтариш ва унинг самарадорлигини ошириш, бунда инновацион технологиялардан фойдаланиш масаласининг назарий тадқиқига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур йўналишда бир қатор илмий изланишлар амалга оширилди. Улардаги асосий ғоя ва натижалар барча турдаги таълим муассасалари фаолиятининг сифат ва самарадорлигини оширишга қаратилган ишларни олиб боришда пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Умумий ўрта таълим муассасаларида инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишда:

- ✓ инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишининг мазмун-моҳияти ва аҳамиятини илмий асослаш, “янгилик”, “янгилик киритиш”, “янгиликниш”, “инновация”, “инновацион фаолият”, “инновацион жараён”, “инновацион маданият” каби тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини изоҳлаш;

- ✓ таълим муассасаларида инновацияларни жорий этиш бўйича мавжуд имкониятлар ва шарт-шароитларни аниқлаш;

- ✓ умумий ўрта таълим муассасаларида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишга йўналтирилган педагогик инновациялар мазмуни ва мезонларини аниқлаш, таянилиши лозим бўлган тамойилларни белгилаш;

- ✓ умумий ўрта таълим муассасаларида таълим сифат ва самарадорлигини оширишга йўналтирилган инновацион педагогик жараённинг таркибий тузилиши тизимини ишлаб чиқиш, унинг мазмун-моҳияти, аҳамияти, компонентларини илмий асослаш, мақсад ва вазифаларини белгилаш;

- ✓ умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларини инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш механизмини ишлаб чиқиш, унинг мазмун-моҳияти ва аҳамиятини илмий асослаш ҳамда амалиётга татбиқ этиш йўллари белгилаш;

- ✓ умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларининг инновацион маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш механизмини ишлаб чиқиш ва илмий асослаш;

- ✓ умумий ўрта таълим муассасаларида инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлиги оширишга йўналтирилган моделни ишлаб чиқиш, илмий асослаш ва келажақда такомиллаштирилган йўллари белгилаш муҳимдир.

Умумий ўрта таълим мактаб ўқитувчиларини инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш, инновацион маданиятини шакллантириш, уларга амалий-методик ёрдам кўрсатиш мақсадида ўқитувчиларни методик маҳсулотлар билан таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

Илмий тадқиқот ва тажрибалар шуни кўрсатадики, замонавий инновацион технологияларни таълим тизимида ҳамда таълим-тарбия жараёнида унумли қўллаш:

- ✓ таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширади;

- ✓ ўқув-тарбия жараённинг такомиллашувига;

- ✓ ўқитувчи ва ўқувчи фаоллигини оширишга;

- ✓ ўқитувчининг педагогик маҳоратини оширишга;

- ✓ ўқувчининг мустақил фикрлаш, билишга қизиқиши ортишига;

- ✓ билимни мустақил ўзлаштиришга ҳамда билим, кўникма, малакаларни ўрганиш, шакллантириш ва ривожлантириш сифатини янада яхшилайдди.

Жумладан, замонавий педагогик технологиялар:

- ✓ биринчидан, ўқувчининг билим, кўникма ва малакаларини осон ва қизиқиб ўрганивчилар учун имконият яратиш;


- ✓ иккинчидан, ўқитувчининг ҳам профессионал ўқувчига ҳам маънавий ривожланишига ёрдам беради.

Педагогик фаолиятда натижалар билан бир қаторда ушбу натижаларга эришиш ўз маҳоратидан келиб чиқиб, замонавий ўқитиш воситаларидан фойдаланади. Замонавий ўқитиш воситалари - бу ўқитиш жараёнида қўлланиладиган дидактик воситалар (тарқатмалар, кўргазмалар, чизмалар, схемалар ва ҳ.кабилар) ва электрон воситалардир (аппаратли, дастурли ва ахборотли компонентлар, аудио ва видео дарсликлар, электрон дарсликлар, электрон кутубхоналар, веб-сайтлар, электрон матнлар ва ҳ.кабилар).

Ҳозирги кунда барча таълим, фан, маданият ва маърифат муассасалари таълим портали ва интернетга уланган. Бу эса таълим жараёнига масофадан туриб ўқитиш усулларини, ўқувчи ёшлар учун ахборот- коммуникация хизматларининг кенг мажмуини жорий этиш имконини бермоқда. Ҳар бир таълим муассасасида яратилган бундай шароитдан унумли ва самарали фойдаланиш, ўқитувчи ва ўқувчининг таълим- тарбия жараёнида вақтнинг аниқлиги тартибига кўра ахборот тизими орқали фаол ахборот ва маълумотларни эгаллаш, ҳамда уларга замонавий техника ва технологияларни ўзлаштириш имконини беради

Таълим сифати жамиятнинг сифатини ҳам белгилаш, нафақат таълим тизими учун, балки давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун ҳам энг асосий муаммо ҳисобланади. Ўқувчилар томонидан эгалланган билим ва кўникмалар кўп йилларда уларнинг моддий ва маънавий соҳаларидаги имкониятларини белгилайди ҳамда уларнинг муваффақияти ижтимоийлашувини таъминлайди.

Хусусан, янги электрон ўқув адабиётлар ишлаб чиқилишига, электрон дарсликлар, мультимедиали дастурлар яратилишига пухта замин яратади. Аммо таълим соҳасида электрон дарслик ёки қўлланма яратишда илмийлик, тушунарлилик ва қизиқарлилик, мунтазамлик, мазмунни пухта ўзлаштириш, ўқувчи ва талабанинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш, унда белгиларни онгли равишда ўзлаштира олишини ва кўргазмалилик каби педагогик тамойилларга таянилиши керак. Узлуксиз таълим тизими учун яратилган ҳар бир дарслик, ўқув қўлланма ёки мультимедиали дастурларни соҳаларга жойлаштиришдан олдин ушбу соҳа мутахассислари маслаҳатларига таяниш зарур.



ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ ВОСИТАЛРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ПЕДАГОГЛАРНИНГ ИНФОРМАЦИОН КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Гулбаҳор Валижонова Раҳимова ФарДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ ўқитувчиси

Бугунги педагогикамиз учун муайян билимлар йиғиндиси эмас, балки бола шахси бош кадриятига айланди. Шу сабабли ҳам, айти дамда ёшларга қўйиладиган талаб фақатгина билимли бўлишгина эмас, балки изланувчан, ташаббускор, фидойи, интеллектуал салоҳиятли ва уммуминсоний маданиятга эга бўлишини ҳам талаб қилмоқда. Шу маънода замонавий миллий педагогикамиз олдида қўйилган долзарб муаммоларни ҳал қилиш вазифаси турибди. Айти шу каби муаммоларнинг бири ахборот воситаларидан таълим иштирокчиларининг хусусан ўқувчиларнинг фойдалана олиш маданиятини тарбиялашда педагогларнинг информацион компетентлигини ривожлантиришдан иборат.

Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.Каримов эътироф этганидек: «Маънавий жиҳатдан мукамал ривожланган инсонни тарбиялаш, таълим ва маърифатни юксалтириш, миллий уйғониш ғоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш давлат аҳамиятидаги вазифа сифатида, мактабнинг жамият ва халқ олдидаги масъулияти ва жавобгарлигини янада орртиради». Зеро, мактаб ҳамиша, ҳарқандай тузум ва жамиятда ҳам кеча, бугун ва келажакни боғлаб турувчи кўприк вазифасини бажариб келган.

Замонавий мактаб ўз фаолиятини, тезкор ва шиддат билан ривожланиб бораётган жамият, фан-техника ва ишлаб чиқаришнинг янгича талабларига мос равишда, узоқни кўзланган ҳолда, ўқувчиларга, нафақат, билим кўникма ва малакаларни назарий асосда етказиш, балки мазкур БКМлар асосида унинг шахсини ривожлантириш, индивидуал сифатларини мақсадга йўналтириш, унда келажакда шахсий, касбий ва ижтимоий фаолияти учун зарур бўлган таянч компетенцияларни шакллантиришга қаратиши керак. “Замонавий билим бериш учун аввало, мураббийнинг ўзи ана шундай билимга эга бўлиши керак, деганда ҳақ эди биринчи президентимиз И.Каримов. Зеро, донишмандлар таъкидлаганидек: “Ким ҳар қандай тўсиқларни енгиб, узоқ довонни кўзлаб интилмас экан, у киши узоққа бора олмайди”⁴

Ўқитувчи ёш авлод қалби ва тафаккурига бевосита таъсир ўтказиш билан бирга, уларнинг маънавий эҳтиёжларини замон талаблари асосида янги босқичга кўтаради. Янгича фикр ва дунёқарашни шакллантиради. Жамиятнинг барча соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришлар ўқитувчи шахсига янги талабларни қўйгани каби келажак авлод бўлмиш ёшларга ҳам қуйидаги талабларни қўймоқда:

Жамиятда инсонпарвар ғояларни илгари суриши;

Ташаббускор, ижодкор, ўз қадр-қимматини англаши.

Бугунги жамиятда ўз фаолиятини унинг мазмунини аниқ кўра биладиган ва ҳар қандай муаммоларни мустақил ҳал қила оладиган ёшлар керак.

⁴ Ю.Асадов, Н.Турдиев, С.Акбарова, Д.Темиров, С.Бабаджонов. “Ўқувчиларда компетенцияларнинг шакллантирилигини ташхислаш ва коррекциялаш методикалари”. Т.:2016 й. 7-б.

Миллионлаб ёшларимиз илм олиш, ижод қилиш, ақлий тафаккурни янада ривожлантириш, интеллектуал салоҳиятини замон талабига мослаштириш, дунё ёшлари билан беллаша олиш руҳияти ила яшаётган бир даврда, имкониятларнинг янада самарали ечимли йўлларини яратмоғимиз, ўқувчиларимизни ақлан етук, манан бақувват қилиб тарбияламоғимиз керак эмасми.

Бўш вақт ресурсларига эгаллиги туфайли юқори даражада коммуникатив фаоллик кўрсатаётган ўқувчи-ёшлар, ўзининг ҳаракатчанлиги ва янгиликка интилувчанлиги билан юқори даражага чиқмоқдалар. Бошқа гуруҳларда эса нисбатан пассивлик кузатилади. Уларга хос бундай хусусиятлар салбий оқибатларни ҳам келтириб чиқариши мумкин. Бу биринчи гуруҳ учун тобора фаоллашётган агрессив – сиёсий таъсирга берилиб кетиш хавфининг мавжудлигида бўлса, иккинчи гуруҳнинг эса позитив мазмунга эга ахборотлар таъсиридан ташқарида қолиши билан изоҳланади.

Хўш, ўқувчилар тарбиясида бу оммавий ахборот воситаларининг таъсири қандай? Деган саволга икки хил маънода (салбий, ижобий) жавоб топиш мумкин. Ижобийлиги шундаки, газета, журнал телевидение орқали янгиликлардан хабардор бўлиб, огоҳликка чорловчи дарс машғулотлари олиб борилмоқда. Салбий томони суҳбатларга кўра, ёш хусусиятига мос бўлмаган сериаллар, жангари фильмларни кизиқиб кўришаётганлиги аниқланган.⁵

Ахборот асри шиддати, ахборот хавсизлиги бўйича олиб бориладиган ислоҳотларда, бизга келаётган ахборот оқиимнинг моҳиятини ақл-идрок, тафаккур кўзгусига солиб, тўғри тушуниб олишга ўргатиш ва ахборотларни саралаш қобилиятини шакллантириш, ўқувчиларнинг ғоявий курашчанлик фазилатларига жиддий эътибор қаратишни тақозо этмоқда.

Энг аввало ўқувчиларни ахборотлардан фойдаланиш маданияти, идрок эта олиш маданияти берилаётган ахборотларни таҳлил қилиш ва танқидий баҳолаш кўникмаларининг мавжудлигига кўра характерланади.

Ахборотларни танлай билиш, ахборотда илгари сурилаётган фикр мазмунини тушуниш, мафкуравий жиҳатдан салбий, зарарли жиҳатларини бартаф этиш, идрок этиш маданиятинингетарлича шаклланганлигини билдиради.

Идрок этиш маданиятининг пойдеворини ахборот саводхонлиги ва ахборот хавсизлиги ташкил қилади. Ахборот саводхонлиги инфарматика дарсларида шакллантирилади, ахборот хавсизлиги қонун йўли билан мустаҳкамланади.⁶

Шундай экан, ўқувчиларда ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини тарбиялашда педагогларнинг информацион компетентлигини ривожлантириш масласига алоҳида эътиборли бўлиш мақсадга мувофиқ бўлиб, педагогларнинг информацион компетентлигини ривожлантиришда қуйидаги жиҳатларни ҳисобга олишлари:

биринчидан: ўқувчи-ёшларни ахборот воситаларидан фанларга оид манбаларини олиш, ўрганиш, таҳлил қилиш, малака ва кўникмаларини шакллантиришда уларни технологик йўналтиришда, энг аввало педагогларнинг ўзилари шундай кўникма ва малакага эга бўлишлари;

иккинчидан: таълим-тарбия жараёнида ахборот материалларини тўғри таҳлил қилиб, танқидий мулоза юрутувчи сифатидаги кўникмаларини шакллантириб боришлари учун, педагогик танқидий фикрлаш малакасига эга бўлишлари лозим.

Ўқувчиларни ахборотларни идрок этишларини тарбиялашда, фанларни ўқитиш жараёнида янги педагогик технологияларни яратишга ижодий ёндошиш, ахборот воситаларидан фойдаланишнинг янги методлари ва шакллари кўллаш, ахборот воситаларининг ижобий мулоҳазали, фаол истеъмолчисини шаклланишида тарбиявий моҳиятини юксалтириш, энг муҳими ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланишларида педагогларнинг информацион компетентлигини ривожлантириш орқали ўқувчиларнинг ахборотлардан фойдаланиш маданиятини тарбиялашга қисман бўлсада эришилган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.А.Каримов. “Юксак маънавият –енгилмас куч”. Тошкент. “Маънавият” 2013 йил (Иккинчи нашр) 134 бет


⁵ М.Пардаева, О.Мусурмонқулова, А.Қўшмонов., “Ўқитувчиларнинг таълим – тарбиясидаги муҳит: МУАММО ВА ЕЧИМ”. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Республика Таълим маркази; Тошкент-2015, 152-бет

⁶ Ф.М.Кучукбаев, Д.Ф. Абдуазимова, Р.Х.Джуроев, М.С.Диванова, М.Э.Иноятова “Ўқувчи шахсига салбий таъсир курсатувчи интернет сайтлари ва телекўрсатувларнинг уларда салбий ҳис – туйғуларни вужудга келтиришнинг олдини олиш бўйича профилактик коррекцион дастур”. Тошкент-2016й. 10 бет

2. Ю.Асадов, Н.Турдиев, С.Акбарова, Д.Темиров, С.Бабаджонов. “Ўқувчиларда компетенцияларнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррекциялаш методикалари”. Т.:2016 й. 7-б.

3. М.Пардаева, О.Мусурмонкулова, А.Қўшмонов., “Ўқитувчиларнинг таълим – тарбиясидаги муҳит: МУАММО ВА ЕЧИМ”. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Республика Таълим маркази; Тошкент-2015, 152-бет

4. Ф.М.Кучукбаев, Д.Ф. Абдуазимова, Р.Х.Джураев, М.С.Диванова, М.Э.Иноятова “Ўқувчи шахсига салбий таъсир курсатувчи интернет сайтлари ва телекўрсатувларнинг уларда салбий ҳис – туйғуларни вужудга келтиришнинг олдини олиш бўйича профилактик коррекцион дастур”. Тошкент-2016й. 10 бет



ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ

Н.М. Ханкельдиева – Региональный центр переподготовки и повышения квалификации работников народного образования при Ферганском государственном университете (РЦППКРНО при ФерГУ)

Наше время – это время перемен. Общество заинтересовано в людях высокого профессионального уровня и деловых качеств, способных принимать нестандартные решения, умеющих творчески мыслить. Правительство нашей страны указало, что одним из приоритетов развития Узбекистана является образование, причём качественное образование.

В современном обществе происходят стремительные изменения, которые требуют сегодня от человека умения быстро адаптироваться к новым условиям. Ускорение в сфере информатизации отрицательно сказалось на отношении некоторых учащихся к обучению в школе. Часть ребят считает вообще зазорным учиться, другая часть, наоборот, хочет быть успешной, но не хочет прилагать к этому никаких усилий, а часть ребят хотят быть успешными и идут к этой цели, прикладывая все свои силы.

Возникла новая для образования проблема: подготовить человека, умеющего находить и извлекать необходимую ему информацию в условиях её обилия, усваивать её в виде новых знаний. Сегодня наши выпускники должны обладать необходимым набором знаний, умений и качеств, позволяющих им уверенно чувствовать себя в современном высокотехнологичном, конкурентном мире. В связи с этим особую актуальность приобретает проблема овладения в процессе обучения не только системой знаний, умений и навыков по математике, но и универсальными учебными действиями по их приобретению и применению.

Как поддержать у учащихся интерес к изучаемому материалу и активизировать их в течение всего урока, чтобы роль преподавателя состояла не в том, как яснее и красочнее, чем в учебнике сообщить необходимую информацию, а в том, чтобы стать организатором познавательной деятельности, где главное действующее лицо ученик. Учитель должен постоянно искать пути повышения эффективности обучения, использовать разнообразные способы передачи знаний, нестандартные формы воздействия на личность, способные заинтересовать учащихся, стимулировать и мотивировать процесс познания.

В настоящий момент в образовании применяют самые различные педагогические инновации. Можно выделить следующие наиболее характерные инновационные технологии - информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) в предметном обучении; личностно-ориентированные технологии в преподавании предмета; информационно-аналитическое обеспечение учебного процесса; дидактические технологии как условие развития учебного процесса.

Сегодня уже нет сомнения в том, что XXI век - это век информации и научных знаний. Современное представление о качественном образовании включает как необходимый элемент свободное владение информационными технологиями. Применение информационных технологий помогает повысить уровень преподавания, обеспечивает контроль, наглядность, несет большой объем информации, является стимулом в обучении.

Введение новых технологий вносит радикальные изменения в систему образования: ранее ее центром являлся преподаватель, а теперь – учащийся. Это дает возможность каждому ученику обучаться в подходящем для него темпе и на том уровне, который соответствует его способностям.

На занятиях учитель может использовать различные технологии: проектный метод, игровые технологии, проблемное обучение, ИКТ технологии, тестовые технологии.

К примеру, использование на уроках игровых технологий обеспечивает достижение единства эмоционального и рационального в обучении. Игровые технологии рекомендуется использовать на разных этапах урока. Так в начале урока включается игровой момент «Отгадай тему урока», при закреплении изученного материала – «Найди ошибку», кодированные упражнения. Всё это направлено на расширение кругозора учащихся, развитие их познавательной деятельности, формирование определенных умений и навыков, необходимых в практической деятельности, развитие общеучебных умений и навыков.

Использование методов, основанных на создании проблемных ситуаций и активной познавательной деятельности учащихся, позволяет учителю нацелить ребят на поиск и решение сложных вопросов, требующих актуализации знаний. Проблемную ситуацию на уроке можно создать с помощью активизирующих действий, вопросов, подчеркивающих новизну. Таким образом, проблемное обучение позволяет направлять учащихся на приобретение знаний, умений и навыков, на усвоение способов самостоятельной деятельности, на развитие познавательных и творческих способностей.

На сегодняшний день информационно – коммуникационные технологии занимают всё большее и большее место в образовательном процессе. Главным преимуществом этих технологий является наглядность, так как большая доля информации усваивается с помощью зрительной памяти, и воздействие на неё очень важно в обучении. ИКТ рекомендуется использовать на уроках, применяя образовательные и обучающие программы, создавать к урокам презентации, использовать мультимедийное оборудование для показа видео по различным темам разделов курса математики.

Использование ИКТ на уроках математики позволяет: сделать процесс обучения более интересным, ярким, увлекательным за счёт богатства мультимедийных возможностей; эффективно решать проблему наглядности обучения; расширить возможности визуализации учебного материала, делая его более понятным и доступным для учащихся.

Применение инновационных технологий помогает научить учащихся активным способам получения новых знаний, создать комфортные условия для их обучения: ученики будут чаще принимать активное участие на олимпиадах по математике, где станут призёрами и победителями; у учащихся со слабой мотивацией появится интерес к математике.

Использование информационных технологий в учебном процессе приводит к развитию новых педагогических методов и приемов; изменению стиля работы преподавателей, решаемых ими задач; структурным изменениям в педагогической системе. По мнению экспертов, новые компьютерные технологии обучения позволяют повысить эффективность занятий по дисциплинам на 30%.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ

*Гулсал Абдуқундузовна Бердалиева ГулДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМнинг
“Мактабгача, бошланғич ва махсус таълим методикалари” кафедраси мудири*

Мактабгача таълим Ўзбекистон Республикаси таълим тизимининг бошланғич бўғини ҳисобланади. Бола боғчага келиши билан унинг ҳаётида муҳим босқич бошланиб, муассаса уни янги ижтимоий мавқеига, ўқувчилик фаолиятига тайёрлаб боради. Боғчада болаларни янги анъаналар руҳида меҳнатга муносабатини тарбиялаш, интилишларини эътибордан четда қолдирмаслик, уларнинг ўз вақтида билимини шакллантириш, ҳулқини тўғрилаш унинг мактаб ҳаётини тўғри ўзлаштириши, бошқалар билан муносабатга киришишида катта ёрдам беради. Акс ҳолда бола мактабда бутунлай янги дунёга, ўзи учун бегона бўлган муҳитга тушиб, дарсларни ўзлаштиришда қийналиши мумкин. Шунинг учун болаларни яхши тарбияланиши учун қуйидаги хусусиятларни ҳисобга олиш зарур:

- ✓ жисмоний хусусият.
- ✓ Табақалаштириш (фарқлаш) қобилиятининг маълум даражасини шунингдек хотиранинг ривожланиш даражасини инobatга олувчи интеллектуал хусусият
- ✓ диққатни, сабр-тоқатни бошқариш, топшириқларни бажариш тайёргарлиги ифодаланган ишга муносабат.

✓ тарбиячидан ҳоли бўлиш, гуруҳ билан алоқа ўрнатиш қобилиятини кўрсатувчи ижтимоий хусусият.

Албатта болада бу кўрсаткичлар ўз-ўзидан шаклланмайди, чунки улар педагогик жараён маҳсулидир, шу боис тарбиячи болалар онгини ўстирадиган мустақил фикр юритиш кўникмаларини ривожлантирадиган реал муҳит яратиши лозим. Бошқача қилиб айтганда олиб бориладиган машғулотларни янги педагогик технологиялар асосида интеграциялашган ҳолда амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Машғулотларга интеграцион ёндошиш асосан атроф борлиқ ва уларнинг ўзаро уйғунлашувида намоён бўлади.

Мактабгача таълим ёшидаги болалар маънавий-ахлоқий сифатларини шакллантиришда интеграцион технологиянинг аҳамияти катта эканлигига қарамай, мактабгача таълим муассасаларида бари бир камчиликлар мавжуд. Масалан: ўзаро мувофиқлаштириш системаси ўрнатилмаган. Машғулотларни мужассам ҳолда ташкил этиш оқсамокда ва уларни машғулотлар жараёнида қўллаш тажрибаси етишмайди. Болалар боғчасида интеграцияни қўллаш учун энг аввало турли машғулотларнинг мавзулари юзасидан бир-бирига боғланишига, болалар ижодкорлиги имкониятни амалга ошириш шакли, шароитларига эътибор бериш керак. Интеграцион технологиядан фаолиятимизда фойдаланиш учун турли машғулотларнинг ўзаро ўхшашликларидан, уларнинг ўзаро ички моҳиятларини бир бирига боғлиқлигидан, масалан: нутқ ўстириш, тасвирий фаолият, мусиқа, теварак-атроф билан таништириш, табиат ва уларнинг ижодий шаклларида, бир бирини ҳисобидан эмас балки ўзаро манфаати учун, ўшанда ҳам ҳар бирининг ўзига хослигини бузмаган ҳолатда фойдаланилади. Амалга оширилиши кўзда тутилаётган интеграция машғулоти айни бирор машғулот мазмунида чуқур, ҳар томонлама алоқага эга бўлган, машғулотларнинг боғланиши, уйғунлашиши даражасида таъминланиши керак. Масалан: нутқ ўстириш ва теварак атроф билан таништириш машғулотлари мазмунида умумий тушунчалар, нутқ ўстириш миллий ва умумсоний қадриятларни, ахлоқ ва нафосат, мулоқот маданияти меъёрларини табиат, жамиятга оид тушунчаларни матнлар, шеърлар, мақоллар, масаллар, эртақлар, ҳикоялар орқали етказишни доимо назарда тутиш лозим. Бундай мақсадларга эришиш учун: таълим мазмунида ўқув машғулотларни интеграциялашнинг илмий педагогик асосларини ишлаб чиқиш, ўқув режасини такомиллаштириш, интеграл мазмундош ўқув дастурлари ва ўқув қўлланмаларининг янги авлодини яратиш, таълим мазмуни интеграциясини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш мақсадга мувофиқдир. Мактабгача таълим ёшидаги болаларда маънавий – ахлоқий сифатларни шакллантиришда таълим мазмунини интеграциялашнинг у ёки бу даражасини машғулот жараёнида қўллаш натижасида болаларнинг билиш имконияти кенгайди, ўқув режаларини илмий тадқиқот натижаларига таянган ҳолда қайта кўриб чиқиш, такомиллаштириш учун қулай шарт-шароит туғилади. Машғулотлараро интеграция асосида ўқув билим жараёни натижаларини истикболлик қилиш механизмлари яратилиши, кадрларни тайёрлаш ва малакасини оширишни йўлга қўйиш учун ҳуқуқий методик имкониятлар яратилиши зарур. Интеграл дастурлар асосида ўқув-билим жараёнининг иқтисодий жиҳатдан самарадорлик даражасини аниқ, интеграцион машғулотларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин.

Полипредмет интеграциялаш. Фундаментал тизимли курслар қаторини алмаштириш; масалан: турли гуруҳларда нутқ ўстириш, тасвирий фаолият, теварак-атроф билан таништириш, табиат, мусиқа машғулотларини бир машғулот доирасига киритиш керак.

Чегарадош машғулотлар асосида янги табиий илмий машғулотларнинг юзага келиши, Масалан: нутқ ўстириш, тасвирий фаолият, теварак -атроф билан таништириш, қуриш-ясаш, лой иши, табиат машғулотлари асосида экология курси юзага келиши.


Комплекс объектларни ўрганиш асосида интеграциянинг комплекс объектлари боғча қобилиятини режалаштириш, машғулотлар, кўнгилочар тадбирлар (маҳалла, оила ҳамкорлиги).

Интеграциялашган таълим жараёни ўз ичига кўп билимларни мужассамлаштиради. Лекин айнан шундай машғулотларни қай тарзда ташкил этиш аксарият тарбиячининг тажрибасига боғлиқ. Машғулотларда интеграцион жараёни шакллантириш қуйидаги масалаларни мувофаққиятли ҳал этиш имконини беради;

- ✓ Барча мактабгача ёшдаги болаларда маънавий ахлоқий сифатларни тарбиялаш;
- ✓ Болаларда машғулотлар жараёнида маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялашга қаратиш;
- ✓ Таълим тизимида олиб борилаётган ислохотларни амалиётга жорий қилиш;
- ✓ Тарбиячи ўз устида ишлаб, фаолиятини ривожлантириш орқали, мактабгача ёшдаги болаларнинг маънавий-ахлоқий сифатларини ривожлантириб бориш;

Демак, мактабгача таълим мазмунини интеграциялаш орқали болаларнинг маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялаш, интеграцион фаолият орқали ташаббуслар ва янгиликларни

шакллантириш, таълим мазмунининг ривожлантириш мумкин, шунингдек ушбу замонавий ёндашув умумий таълим тизимининг ривожига ҳам ижобий таъсир кўрсатади.



ФАННИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ ТЕХНАЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.

*Икром Абдураимов ГулДУХХТХҚТМОХМ «Педагогика ва психология, таълим технологиялари» кафедраси мудири
Отабек Широнов катта ўқитувчи*

Педагогик технология тушунчаси кенг кўламли, серқирра тушунча бўлиб, таълим-тарбия амалиётини ривожлантириш эҳтиёжлари асосида келиб чиқиб таълим-тарбия фаолиятининг мазмуни, мақсад ва вазифалари даврлар ўтиши билан кенгайиб бормоқда, бунинг натижасида унинг шакл ва усуллари ҳам такомиллашиб бормоқда. Ҳозирда инсон фаолиятининг асосий йўналишлари шу фаолиятдан кўзда тутилган мақсадларни тўлиқ амалга ошириш имкониятини берувчи яхлит тизимга, яъни технологияга айланиб бормоқда. Шу асосда таълим-тарбия соҳасида сўнгги даврларда педагогик технология тушунчалари амал қила бошлади. Технология” атамаси юнонча сўз бўлиб, “техне”-маҳорат, санъат; ”логос” - тушунча, таълимот маъноларини англатади.

Таълимга ривожлантирувчи характер берувчи, таълим олувчиларни маҳсулдор фаолиятини таъминловчи дарс бериш ва ўқитиш усуллари “интерфаол усуллар дейилади.

Бугунги кунда интерфаол методлар номи билан кириб келаётган методлар ўқитувчи-ўқувчидан ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарфламай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга еришиш мақсадини назарда тутган ҳолда, қисқа вақт мобайнида маълум назарий билимларни ўқувчига етказиш унда айрим фаолият юзасидан кўникма, малака ҳосил қилиш, маънавий сифатларини шаллантириш шу билан бирга уларни назорат қилиш ҳамда баҳолашдан ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ва чаққонлик талаб этади. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга йўналтирувчи мантикий методлар интерфаол усулларда ўз аксини топади..

Фанни ўқитиш методлари уч турга бўлинади.

1. Анъанавий ўқитиш методлари.
2. Ноанъанавий ўқитиш методлари
3. Умумий ўқитиш методлари

1. Анъанавий ўқитиш методлари 7 турга бўлинади А.Каменскийнинг дидактик тамойиллари асосида шаклланиб, 80-90 йилларда мактабларда энг кўп қўлланиладиган синф – дарс тизимидан иборат.

1. Оғзаки баён (ҳикоя қилиш методи)
2. Сухбат дарси (савол-жавоб методи)
3. Дарслик асосида ишлаш (китоб билан ишлаш методи)
4. Амалий машғулотлар (машқлар бажариш лаборатория машғулотлари)
5. Мактаб лекцияси (кичик маъруза)
6. Иллюстрация методи ранг-баранглик асосидаги ўтиладиган дарслар
7. Дастурли ўқитиш (программали ўқитиш)

2. Ноанъанавий ўқитиш методларининг 100 дан ортиқ турлари мавжуд.

1. Семинар дарси
2. Конференция дарси
3. Диспут-мунозара дарси
4. Дебат
5. Илмий-оммабоп китоблар билан ишлаш
6. Интеграция дарси
7. Техника воситалари ёрдамида
8. Ўйинчоқлар ёрдамида дарс ўтиш
9. Касбга боғлаб дарс ўтиш
10. Ҳархил ёзма ишлар
11. Бахс-мунозарали дарси
12. Экспериментал дарси
13. Чуқурлаштирилган дарси

14. Ижодкорликка йўналтирилган дарси
15. Мусобақа дарси
16. Ўқувчиларни ўзи олиб борадиган дарси
17. Такрорлаш дарси
18. Фантазия дарси
19. Терговни билимдонлар олиб борадиган дарси
20. Судлов дарси
21. Аукцион дарси
22. Парадокс дарси (мавхум дарс)
23. Мўжизалар-майдони дарси
24. Саҳналаштирилган дарси
25. Танқидий тафаккур дарси
26. Ролли ўйинлар
27. Нуқтаи назаринг бўлсин
28. Ҳар ким ҳар кимга ўргатади
29. Менга яқунловчи сўзни беринг (хулосалаш дарси) ва яна бир қанча ноанъанавий ўқитиш методларининг дарс ўтиш усуллари мавжуд.

3. Умумий ўқитиш методлари ҳам 7 турга бўлинади.

1. Тушунтириш, намойиш етиш, етказиб бериш кўргазмали методи
2. Муаммоли, изланишли методи
3. Диалогли ўқитиш методи
4. Репродуктив догматик метод (фикран соғлом қилиб тарбиялаш)
5. Таққослаш методи
6. Математция – ўзини-ўзи қизиқтириши таълим методи
7. Ахборотли (компьютерли) таълим методи.

Ҳозирги кунда педагогик ва ахборот технологиялар ҳақидаги аниқ тушунча ва тасаввурлар бирмунча камлиги натижасида уни хусусий методикалар билан деярлик тенг ҳисоблаш ҳоллари учрайди. Аслида эса улар орасида жиддий фарқлар мавжуд бўлиб, қуйида улар ҳақида қисқача баён қилинади.


Ахборот коммуникацион технологиялар кун сайин жадал суръатда таълимга кириб келмоқдаки, бу эса ўзига хос бўлган илмий ахборотлашув шароитида ўқувчиларда умумий ўқитиш кўникмасини ва малақаларини мустақил эгаллашлари учун ўқитишнинг янги методларини топмоқ учун имкон яратади. Ўқитиш методлари фақат таълим бериш эмас, балки тарбиявий мақсадларга эришишда муҳим воситадир.

Ҳозирда методлар, методикалар ва технологиялар битта тушунча сифатида идрок қилинмоқда. Технологиялар ва методикаларни аралаштириб юбориш, шундай ҳолларга олиб келадики, баъзан методикани технологиялар таркибига киритиш, баъзан эса аксинча, у ёки бу технологияларни методикалар таркибига киритиш ҳоллари учрайди.

Педагогик технология ўқув жараёни, яъни ўқитувчининг - ўқувчининг фаолияти билан унинг таркиби, воситалари, усуллари ва шакллари билан энг кўп даражада боғланган.

Ҳар бир педагогик технология ўзига хос педагогик тизимдан иборат бўлиб, бу тизим модуллардан ташкил топади.

Педагогик технологиянинг чиндан ҳам мавжуд эканлигини ҳамда ишлатишга тайёрлигини унинг таркибидаги модуллар ва алгоритмлар қанчалик даражада тўлиқ ва пухта эканлиги билан белгиланади.



INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA KOMPITENSIYA

*Azamat Uralov GulDU huzuridagi XTXQTMOHM
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri*

Tafakkurning teranlashib borishi orqali insonning dunyo haqidagi tasavvurlari ham kamol topib baraveradi. Har bir insonga xos bo'lgan kompetentlik tushunchasi bolalar ongiga chuqur singdirilishi uchun ham pedagoglarning izlanishlari yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Innovatsion ta'lim jarayoni ham jadallashib yangicha qarash, yangicha fikrlar yuritishni talab etayapdi. Bugungi kun ta'limida turli

vositalarni ishlatish muhim hisoblanmoqda. Shu qatori innovatsion ta'lim jarayonida elektr on doskalar bilan ishlash tajribasi ham kommunikatsion kompetensiyaning bir ko'rinishidir. Bunday innovatsion texnologiya bilan dars jarayonlarini o'tkazish, qo'llash va ommalashtirish o'ta dolzarb sanaladi.

O'quvchilar yozuv taxtasiga juda ham o'rganib qolishgan. Interaktiv doskalarda esa bunday yozuvlarni juda ham keng ishlatish mumkin. Yozuv taxtasiga yozilgan ma'lumot uni ko'chirib olgunga qadar yoki foydalanilgunga qadar turadi keyin o'chirib tashlash zarur. Interaktiv doskada esa buni bajarish oson: ma'lum ma'lumot yozilgandan keyin uni o'chirib tashlash uchun bitta buyruq yetarli. Yoki aksincha shu ma'lumotga qaytishga to'g'ri kelib qolsa, yana tiklash imkoniyati mavjud. Oddiy doskada esa buni qaytadan yozib chiqish lozim. Qo'shimcha ko'rgazmalarni ham bir vaqtning o'zida ko'rsatib ketish mumkin. Xohlasa, slaydlar ham namoyish qilinib, yana ortga qaytib mavzu bo'yicha yozilgan vazifalarni ishlatish mumkin. Yozuv taxtasiga yoziladigan bor, lattalarning ham keragi yo'q. Interaktiv doska bilan ishlanganda bu vazifalarni oddiy ruchka yoki qo'l bilan bajarish mumkin.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugun bolalarga berayotgan har qanday bilim ertaga o'z aks-sadosini qaytaradi. O'quvchilar ongini yangi bilimlar bilan zabt etish uchun qanchalik izlansak, qanchalik yangiliklarga intilsak, bilim berishning yangi usullarini kashf etsak shuncha oz.

Hozirgi kunda o'quvchilarning dunyoqarashi ham o'zgacha: ular ancha shoshqaloq va sabrsiz, lekin intiluvchan, ba'zi narsalarni tez ilgab ololmaydi. Bunda o'qituvchiga qo'yiladigan talab bir oz ortadi. Shuning uchun ham yangidan yangi metodlar va usullar, turli texnologiyalar, yangi o'yinlar pedagogikaga kirib keldiki, bulardan albatta samarali foydalanib, darsni tashkil etsak, maqsadli bo'ladi.

O'quvchilarni darslarga jalb etish, o'yinqaroq bolani kitob o'qishga o'rgatish, e'tiborsiz shogirdni e'tiborini mashg'ulotga qaratish va ularni qiziqishlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishda ustoz nimalarga etibor berishi kerak?

Darslarni tashkil etishda video lavhalarni o'rni juda katta. Agar darslarni qiziqarli va shiddatli tashkil etish lozim bo'lsa, o'quvchilar eshitganlaridan ko'ra ko'rganlariga ko'proq ishonishi nazarda tutilib video lavhalarni taqdim etilishi maqsadli bo'ladi. Deylik, O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi o'tilishi lozim. Bunda adib hayotiga mos video lavhalar, asarlari haqidagi video lavhalar, kino qilib olingan asarlarining kino lavhalarini (darsga mos ravishda kichikroq va mantiqiy bo'lishi lozim) o'quvchilarga taqdim qilib, shu jarayonning o'ziga munosabat bildirishi topshirilsa, dars anchagina qiziqarli va "jonli" bo'lishi kutiladi.

Dars qanchalik qiziqarli o'tayotgan bo'lsa ham, o'quvchilar bir xillikdan zerikishadi. Mashg'ulotlar paytida turli o'yinlar ham yaxshi samara beradi, ayniqsa, dars metodi to'g'ri tanlangan bo'lsa, guruhning faollashuvi oshadi. Bunda pedagog oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi osonlashadi. Dars nafaqat qiziqarli, balki samarali, mavzuni to'liq o'zlashtirishi, o'quvchilarning bilimini oshirishi, yangiliklarga boy bo'lishi, tarbiyaviy ahamiyatning bo'lishi lozim.


Dars jarayonlarida video lavhalarni taqdim qilish o'quvchilarni darsga qiziqishlarini kuchaytirish bilan birgalikda e'tiborini ham tortadi. O'quvchilar aksar hollarda ko'rgan narsalarini eslab qolishadilar va ularni shunday talqin etishadilar. Bunda o'qituvchi juda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Aks holatda noto'g'ri ko'rsatilgan video lavhalar o'quvchilar dunyoqarashini boshqa tomonga yo'naltirib qo'yishlari mumkin. Har bir darsda qo'llanayotgan video lavhalarni qayta-qayta ko'rib chiqib, keyin taqdim etilishi ham nazardan chetda qolmasin. Bola ongi, ayniqsa, yuqori sinflarda jadal rivojlanishda bo'ladi. Shu boisdan ehtiyotkorlikni ko'proq talab etadi.

Bulardan tashqari o'quv mashg'ulotlarida bunday lavhalarni, masalan, M.Yusuf ijodini o'tish jarayonidagi shoirning shaxsan o'zi tomonidan aytilgan she'rlari va fikrlari ko'rsatilib berilganda o'quvchilarni shu shoirga oxshashni yoki qahramonga o'xshashni istab qolish qolatlari ham mumkin. Bu esa o'qituvchi darsning qaysi sifatini berayotganligi bilan bog'liq. Ijodkorning o'zidan eshitgan she'ri o'zinikidan, nafaqat o'zinikidan, balki o'qituvchisidan ham yaxshiroq ta'sir etadi. Bunda o'quvchilar, birinchidan, she'rlarini shoirlarga xos o'qishga harakat qilsa, ikkinchidan, shoirlarning o'zlari haqidagi munosabatini va ularning ijodlari haqidagi haqiqatlarni ijodkorning o'zidan eshitgani ma'qil. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, ijodkorning o'zidan eshitilgan fakrlar "jonli" muloqqa yaqin turadi. Shu bois o'quvchilarni darsga qiziqishlari ortadi va kelgusi darslarni ham intiqlik bilan kutishadi. Faqat, o'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan maqsadlarni to'g'ri belgilagan bo'lsa bas.

Tibbiyot sohasidagi video lavhalar ham ancha keng tarqalgan bo'lib, o'quvchilarni keyingi faoliyat olib borishlari uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim. Shundagina ularni ham samarasi ortadi. Deylik, qon olish jarayoni. Jarayonda ninani ushlash va ishlatilishi, tomirning topilishi va ninani sanchilishi, qonni maxsus idishga quyilishi va quyilgan qonni keyingi bosqichga olib o'tilishi ko'rsatildi.

Bu holatda o'quvchilarning ko'zlari o'rganadi, amaliyotga chiqishganida hadiksiramaydi, darsga qiziqishi ortadi, dars o'tilishi faollashadi, o'qituvchining ishi osonlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, innovatsion ta'lim texnologiyalari jarayonida kompetensiyaning shakllanishi pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi. Agar biz turli usullar orqali innovatsion yondashuvlar bilan dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etsak, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tinimsiz qo'llasak, o'z ustimizda tinimsiz ishlab bugungi kun talablariga to'liq javob bersak, o'quv mashg'ulotlari jarayonlarida AKTdan unumli foydalansak ta'lim sifat va samaradorligiga erishishimiz ham oson, ham qulay bo'ladi. Binobarin, buni bugungi kun ta'limi ham to'liq talab etmoqda.



ЎҚУВЧИЛАРДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК - ПЕДАГОГИК МУАММОЛАРИ

К.Т. Суяров. Тошкент давлат педагогика университети, таянч докторанти

Ҳозирги замон педагогикаси ва психологиясида инсон хулқ-атворининг бир-бирига қарама-қарши ва бир-бирини тўлдирувчи икки хил турини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилади[1]. Биринчиси – инсоннинг “автоматик табиати”. У одатдаги стандарт вазиятлар учун характерли бўлиб, бунда инсон автоматик равишда тайёр моделлардан фойдаланади, изланмайди. Агар автоматлашган ижро исталган натижага олиб келмаса, у ҳолда “изланиш табиати” ишга тушади. Иккинчиси – инсоннинг “изланиш табиати” бўлиб, у ҳали маълум бўлмаган янги моделларни изланишни назарда тутаяди. Изланиш фаоллиги, билишга бўлган қизиқиш эҳтиёждан келиб чиқади.

Таълимни ислоҳ қилишнинг ҳозирги замон босқичида ўқитиш тизимини, фанларни ўқитишда жиддий ўзгаришларни тақоза қилмоқда. Албатта бу таълимнинг янги парадигмалари шаклланиши билан боғлиқ бўлиб, унинг асосида ўқувчи шахсининг, ижодий имкониятларини ривожлантириш ғояси ётади. Ўқув жараёнини таълим олувчининг шахсига йўналтириш учун шарт шaroитларни яратиш, бу ўқувчида муайян фаолият турларини ривожлантириш бўйича таълим олувчиларни амалий фаолиятларга жалб этишни назарда тутаяди. Таълимнинг асосини фақат ўқув предметлари мазмуни эмас, балки унда фаолият ва фикрлаш усулларини ривожлантириш йўллари излаш муҳим аҳамият касб этади. Ана шундай йўللardan бири, бу-ўқувчиларни ўқув тадқиқотчилиқ фаолиятига жалб этишдир.

“Ўқув -тадқиқотчилиқ фаолияти” тушунчаси илмий тадқиқот ишларида турлича таҳлил қилинади. Масалан А. И. Савенков тадқиқотчилиқ фаолиятини таҳлил қилиб, унинг учта муҳтор ташкил этувчилардан иборат эканини таъкидлайди: изланиш фаоллиги, дивергент фикрлаш ва конвергент фикрлаш [2]. Дивергент (айни бир вақтда турли йўналишларда) фикрлаш дейилганда ностандарт вазият ривожланишининг кўплаб фаразларини ҳамда муаммони ечишнинг оригинал ва ностандарт ечимларини илгари суриш тушунилади. Конвергент (мантikiй, бир хил йўналишда) фикрлаш стандарт вазиятларда аввал ўзлаштирилган алгоритмлардан фойдаланиш билан узвий боғлиқ ҳолда бажарилади.

Аммо, бугунги кунда аксарият ўқув муассасаларида ўқитишнинг кўпроқ репродуктив усулдан фойдаланилаётгани сир эмас ва шу усул асосида ўқувчилар янги билимларни ўзлаштирмоқда. Ўқувчиларни ижодий фаолият билан шуғунланишларига, жумладан тадқиқотчилиқ ишларига кам жалб қилинаёпти. Бунинг сабаблари ўрганиш борасида олиб борилган педагогик тажриба-синов ишларида ва ўқитувчилар билан ўтказилган сўровнома натижаларига кўра қуйидаги хулосага келинди: бир гуруҳ ўқитувчилар бу фаолият бўйича етарлича билим ва малакага эга эмаслиги сабабли шуғуллана олмаслигини, шунингдек, иқтидорли ўқувчилар билан тадқиқот ишларини олиб боришни истаган ўқитувчиларнинг кўпчилиги айна муаммо бўйича ўқув-методик материалларнинг етарли эмаслиги сабабли, ўқувчиларни тадқиқотчилиқ фаолиятига жалб қила олмаётганлигини эътироф қилишган.

Фанларни чуқур ўрганишга мўлжалланган таълим дастурларини моҳиятига кўра айтиш мумкинки, ўқувчиларни ўқув материалларини мустақил ўзлаштиришга ўргатиш, уларни экспериментлар асосида тадқиқотчилиқ фаолиятига жалб этиш таълимнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Тадқиқотчилиқ фаолияти - илмий билим олиш шакли. Бу жараёнда таълим олувчиларда ақлий ва амалий меҳнат маданияти шаклланади. Шу боис, ўқувчилардаги шахсий интеллектуал-ижодий қобилиятларини ривожлантиришнинг энг мақбул йўлларида бири, бу ўқувчиларни тадқиқотчилиқ ишига, яъни тадқиқотчилиқ фаолият билан

шуғулланишларини ташкил этишни йўлга қўйишдан иборат. Ўқувчиларда тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиришнинг самарадорлиги, албатта, олинган билимларни амалда қўллаш билан белгиланади. Бунинг учун амалдаги ўқув лабораториялар ишлари билан узвий боғлиқ бўлган, ҳамда ўқув муассасасининг моддий таъминотини базаси асосида тадқиқот характеридаги ишлар рўйхати қилинади (жадвалда физика фани мисолида келтирилган).

	Синфда бажариладиган лаборатория ишлар	Тадқиқотчилик ишида бажариладиган ишлар
1	Суюкликнинг сирт таранглик коэффициентини аниқлаш	Суюклик сирт таранглик коэффициентининг температурага боғлиқлигини ўрганиш
2	Ом қонунини ўрганиш	Чўғлампа лампанинг вольт-ампер характеристикасини ўрганиш
3	Ўтказгич қаршилигининг температурага боғлиқлигини ўрганиш	Ўтказгич қаршилигининг температурага боғлиқлик қонунятини ўрганиш
4	Электр токининг бажарган иши ва қувватини ҳисоблаш	Электр қувватини ҳисоблашга оид формулаларни экспериментал текшириш.
5	Диоднинг вольт – ампер характеристикасини ўрганиш	Терморезистор қаршилигининг температурага боғлиқлигини ўрганиш


Аниқ фанлар йўналишидаги академик лицей ўқувчиларини экспериментлар асосида ижодий фаолиятга тайёрлашда тадқиқотчилик кўникмаларининг ўрни муҳим. Булар: дастлаб муаммони назарий ўрганиш, кузатиш муаммосини қўя билиш, ишнинг мақсад ва вазифаларни белгилаш, тадқиқот методларини танлаш, фароздан келиб чиқиб режа тузиш, экспериментни ўтказиш босқичларини амалга ошириш, эксперимент натижаларини олиш ва уларни қайта ишлаш, фарозга нисбатан эксперимент натижасини таққослаш, назарий таҳлил қилиш ва умумлаштириш каби кўникмалар. Ўқувчиларида бундай кўникмаларни фан асосларини ўрганишда, амалий машғулотлар ва турли ўқув-изланиш ишлари жараёнида ривожланади.

Бугунги кундаги таълим муассасаларидаги тайёр методик кўрсатмалар бўйича лаборатория ишларини ўтказишнинг аъъанавий методи таълим олувчиларда тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантириш имконини бермайди. Шу боис, ўқувчиларида тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантириш учун, энг аввало, қуйидаги масалаларни ҳал этиш зарур:

- ✓ тадқиқотчилик кўникмалари тушунчасининг мазмун моҳиятини очиб бериш ва уларнинг тузилмасини аниқлаштириш;
- ✓ ўқувчиларида экспериментлар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиришнинг психологик-педагогик асосларини ойдинлаштириш;
- ✓ ўқувчиларида физик экспериментлар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиришда турли даражадаги экспериментал ижодий тадқиқот ишлар тизимини ишлаб чиқиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Савенков А.И. Психологические основы исследовательского подхода к обучению: Учебное пособие – М.: Ось-89. – 2006. – 480 с
2. Савенков А.И. Содержание и организация исследовательского обучения школьников. – М: Сентябрь, 2003. – 204с.



ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИНГ ИЖТИМОЙ - ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Э.А.Искандаров доц. СамДЧТИ

Таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш ўз навбатида бу соҳада янги, замонавий, илғор педагогик ва ахборот технологияларини самарали жорий этишни тақозо этади. Фикримизча, таълим-тарбия соҳасига жорий этилаётган илғор янгиликларни, жумладан, педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш жараёнини инновация деб қараш мумкин. «Инновация» тушунчаси кенг ва тор маънода ишлатилади. Биринчи маънода инновация – бирор бир янги

ижтимоий эҳтиёжни яхшироқ қондириш учун янги илмий, амалий восита яъни янгилик яратиш, тарқатиш ва қўллашни ўз таркибига оладиган комплекс жараён сифатида қаралади. «Инновация» иккинчи маънода бирор бир жамоа фаолиятини такомиллаштириш учун киритилаётган ва бу инновация субъекти томонидан янгилик деб қабул қилинган янги восита услуб, ёндашувлар тизимига нисбатан ишлатилади.


Инновациялар самарадорлиги бир қатор омилларга боғлиқ. Уларни 3та гуруҳга ажратиш мумкин: Биринчи гуруҳ омиллар киритилаётган янгиликнинг мазмуни, сифати ва бошқа хусусиятлари билан боғлиқ. Янгиликнинг мукамаллиги, илмий-амалий асосланганлиги, тажрибада синаб кўрилганлиги ва миллий-маҳаллий шароитга мослигини чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Иккинчи гуруҳ эса янгиликни киритишга ёндашув билан боғлиқ омилларини қамраб олади. Ушбу гуруҳга янгилик киритишнинг режалаштирилганлиги, моддий-молиявий, ташкилий таъминланганлиги, босқичма-босқичликка амал қилинганлиги ва бошқа шу каби омиллар киради. Учинчи гуруҳ ижтимоий- психологик омиллар бўлиб, унинг таркибига янгиликка кишиларнинг муносабати, жамоанинг инновацион потенциали, жамоада ижтимоий психологик иқлим, раҳбарлик услуби ва бошқалар киради. Ҳар қандай инновациянинг зарурий самара бериши педагогик жамоа аъзоларининг янгиликни қандай қабул қилиши, унга бўлган муносабатига боғлиқ бўлади.

Одатда, янгилик киритилиши жараёнида янгиликка нисбатан психологик барьер пайдо бўлади. Янгиликка психологик барьер, янгилик тегишли одамларнинг бу янгиликка нисбатан бефарқ ёки салбий муносабатида намоён булади. Кишиларда бундай психологик барьер очик ёки яширин ҳолда учраши кузатилади. Тадқиқот натижалари кўрсатишича, бундай барьер кишиларнинг одатдаги фаолият услубини афзал кўриши, ноаниқликдан кўрқиш, ортиқча ишларнинг пайдо бўлишидан, ойлик маошининг ёки лавозимининг пасайишидан ҳавотирланиш, инновациянинг зарурияти ёки муҳимлигини тушунмасликлари билан боғлиқ.

Педагогик инновациялар самарадорлигига педагогик жамоа раҳбарларининг янгиликка муносабати, раҳбарлик қобилияти даражаси, бошқарув услуби, раҳбар ва ходимлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар хусусиятлари жуда кучли таъсир кўрсатади. Бизнинг фикримизча, педагогик жамоа аъзоларининг янгиликка муносабатини, уларнинг ижодий фаоллигини, раҳбар шахси ва инновацион фаолияти жиҳатларини, жамоанинг ижтимоий-психологик хусусиятларини (жипслиги, ўзаро мослик, психологик иқлим) бир бутун ҳолда педагогик жамоанинг инновацион потенциали, яъни янгиликни самарали қабул қилиш имконияти деб аташ мумкин. Тадқиқот натижаларининг таҳлили кўрсатишича, инновацион потенциали юқори жамоаларда педагогик инновацияларнинг жорий қилинишининг самараси юқори эканлиги аниқланди. Педагогик инновацияларни самарали жорий этиш учун муайян янгиликнинг мукамаллигини, илмий-амалий асосланганлигини, маҳаллий ва миллий шароитга мос келишини чуқур, лекин тез ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Педагогик жамоа аъзоларини бу янгилик ҳақида тўлиқ зарурий маълумотлар билан таъминлаш ҳамда уларнинг бу педагогик технологияга муносабатини аниқлаш, шу асосда бу муносабатни яхшилашга йўналган тадбирлар олиб бориш зарур. Педагогик инновацияни киритиш жараёнида раҳбарлар фаолиятининг аҳамияти жуда ортади. Шунингдек, педагогик инновацияни киритишга масъул кишилар ва уларнинг гуруҳини ташкил қилиш, улар фаолиятини доимий қўллаб-қувватлаш, моддий ва маънавий рағбатлантириш ва назорат қилиш ҳамда педагогик инновация натижаларини мониторинг қилиб бориш (доимий баҳолаб бориш) бу янгиликнинг самарали жорий қилинишига ижобий таъсир кўрсатади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “2017-2021 йилларда таълим тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.-Тошкент, 2017йил,3 март
2. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Таълим ва тарбияда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш услубиёти. – Т.: “Тафаккур”, 2014. – 367 б.
3. Arcaro, J. 1995. Quality in education: An implementation handbook. Delray Beach, Fla.: St. Lucie Press.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Махмудова Е.Э. Учитель общеобразовательной школы № 13 г.Самарканд

Формирование творческой личности одна из главных задач в образовании. Её реализация диктует необходимость развития познавательных интересов, способностей и возможностей ребёнка.

Наиболее эффективными средствами включения ребёнка в процесс творчества на уроке являются:

- ✓ игровая деятельность;
- ✓ создание положительных эмоциональных ситуаций;
- ✓ работа в парах;
- ✓ проблемное обучение.

В начальной школе невозможно провести урок без привлечения средств наглядности, часто возникают проблемы. Где найти нужный материал и как лучше его продемонстрировать? На помощь пришёл компьютер.

За последние 10 лет произошло коренное изменение роли и места персональных компьютеров и информационных технологий в жизни общества. Владение информационными технологиями ставится в современном мире в один ряд с такими качествами, как умение читать и писать. Человек, умело, эффективно владеющий технологиями и информацией, имеет другой, новый стиль мышления, принципиально иначе подходит к оценке возникшей проблемы, к организации своей деятельности.

В практике информационными технологиями обучения называют все технологии, специальные технические использующие информационные средства (аудио, кино, видео).

Применение новых и новейших информационных средств приводит к появлению в педагогике новых понятий.

Когда компьютер стали использоваться в образовании появился термин «новые информационные технологии» (НИТ). Если при этом используются телекоммуникации, то появляется термин «информационно-коммуникационные технологии» - ИКТ.

Формирование информационной культуры в школе происходит, прежде всего, с помощью и при посредстве средств ИКТ.

Как показывает практика, без новых информационных технологий уже невозможно представить себе современную школу. Очевидно, что в ближайшие десятилетия роль персональных компьютеров будет возрастать, и в соответствии с этим будут возрастать требования к компьютерной грамотности обучающихся начального звена.

Использование ИКТ на уроках в начальной школе помогает учащимся ориентироваться в информационных потоках окружающего мира, овладеть практическими способами работы с информацией, развивать умения, позволяющие обмениваться информацией с помощью современных технических средств.

Применение ИКТ на уроках усиливает:

- ✓ положительную мотивацию обучения
- ✓ активизирует познавательную деятельность обучающихся.

Использование ИКТ на уроке позволили в полной мере реализовать основные принципы активизации познавательной деятельности:

- ✓ Принцип равенства позиций
- ✓ Принцип доверительности
- ✓ Принцип обратной связи
- ✓ Принцип занятия исследовательской позиции.
- ✓ Реализация этих принципов просматривается на всех уроках, где применяется ИКТ.
- ✓ Использование ИКТ позволяет проводить уроки:
 - ✓ на высоком эстетическом и эмоциональном уровне (анимация, музыка)
 - ✓ обеспечивает наглядность;
 - ✓ привлекает большое количество дидактического материала;
 - ✓ повышает объём выполняемой работы на уроке в 1,5 – 2 раза;
 - ✓ обеспечивает высокую степень дифференциации обучения (индивидуально подойти к ученику, применяя разноуровневые задания).

Применение ИКТ:

- ✓ расширяет возможность самостоятельной деятельности;

- ✓ формирует навык исследовательской деятельности;
- ✓ обеспечивает доступ к различным справочным системам, электронным библиотекам, другим информационным ресурсам;

а в общем, способствует повышению качества образования.

Младший школьный возраст характеризуется психофизиологическими возрастными особенностями, индивидуальной (визуальная, аудиальная) системой восприятия, низкой степенью развитости познавательных способностей, особенностями учебной мотивации.

Особенностью учебного процесса с применением информационных технологий является то, что центром деятельности становится ученик, который исходя из своих индивидуальных способностей и интересов, выстраивает процесс познания. Учитель часто выступает в роли помощника, консультанта, поощряющего оригинальные находки, стимулирующего активность, инициативу, самостоятельность.

Применение на уроках ИКТ способствует так же:

- ✓ сделать урок эмоционально насыщенным и полноценным, наиболее наглядным;
- ✓ сокращению времени для контроля и проверки знаний учащихся;
- ✓ обучающиеся учатся навыкам контроля и самоконтроля.

Дидактический материал ИКТ разнообразный по содержанию и по форме. Самыми часто применяемыми являются: понятийный аппарат и фотографии (репродукции), видеоролики, клипы песен, мелодии, презентации по определенной теме, различные тесты, задания, развивающего характера.

Основной целью применения ИКТ является:

- ✓ развитие мышления
- ✓ формирование приемов мыслительной деятельности.

Кроме этого, используя компьютерные технологии, можно создавать как учителю, так и учащимся, различные обучающие и демонстрационные программы, модели, игры. Такие эффективные разработки формируют позитивное отношение учащихся к учению, предполагают ненавязчивый способ оказания помощи, возможность выбрать индивидуальный темп обучения учащихся. Для этого использую различные методы и приемы. Учителем используются развивающие методы и приемы:

- ✓ метод анализа
- ✓ метод сравнения
- ✓ метод обобщения
- ✓ метод классификации
- ✓ формулировка понятий
- ✓ внутренний план действий
- ✓ При подготовке к урокам учитель использует электронные ресурсы учебного назначения:
- ✓ мультимедийные курсы
- ✓ презентации к урокам
- ✓ логические игры
- ✓ тестовые оболочки
- ✓ ресурсы Интернет
- ✓ электронные энциклопедии.

При разработке урока с использованием ИКТ уделяется особое внимание на здоровье обучающихся. Поурочный план включает в себя физические и динамические паузы, зарядку для глаз, использование элементов здоровьесберегающих технологий.

Использование ИКТ позволяет расширить рамки учебника.

Таким образом, труд, затраченный на управление познавательной деятельностью с помощью средств ИКТ оправдывает себя во всех отношениях:

повышает качество знаний


продвигает ребенка в общем развитии

помогает преодолеть трудности

вносит радость в жизнь ребенка

позволяет вести обучение в зоне ближайшего развития

создает благоприятные условия для лучшего взаимопонимания учителя и учащихся и их сотрудничества в учебном процессе.



2-ШЎБА.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИЛГОР ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА ОММАЛАШТИРИШДАГИ УЗВИЙЛИК.

РАҲБАР ПЕДАГОГНИНГ КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Nuriddin Qurbonov

JDPI xuzuridagi XTXQTMOM

Ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohatlar barcha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan o'qitish metodlarining eng samarali hisoblangan innovasion metodlardan foydalanish zaruratini belgilagan holda o'qituvchilardan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni talab qiladi.

Boshqarish amaliyotidan bizga ma'lumki, rahbarlik faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u rahbardan nafaqat oily ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ega bo'lishni ham talab etadi.

Ta'lim muassalarini boshqarish jarayonida rahbarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalaridan biri- bu qaror qabul qilish vazifasi bo'lib, mazkur vazifa nazorat qilish va uning bajarilishini ta'minlash sifati ta'lim muassasi salohiyatiga, pedagogik jarayonlar samaradorligiga, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga, ta'lim muassasi faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.


Shu o'rinda rahbar pedagogning o'zi kompetentlik xususiyatlarini nomoyon qila olishi lozim. Bugungi kunda rahbar xodimlarga qo'yilayotgan talablar ularning lavozimiga emas, balki shaxsiga va kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarga bog'liqligini asoslashda rahbarning fazilati to'g'risidagi Abu Nasr Farobiyning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: fozil shahar hokimining to'rt muchasi sog'lom bo'lishi; tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi; voqea- hodisalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan, tavsilotlarni unutmaydigan; zehni o'tkir va zukko, o'z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan; ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lishi, uning mashaqqatlaridan qochmaydigan; taom yeyish va boshqa holatlarda o'zini tiya oladigan; haq va haqiqatni, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan; o'z qadrini biluvchi, oriyatli; tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblagan chora- tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, salobatli, jur'atli, jasur bo'lishi- qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Ta'lim muassalari rahbari rahbar bo'lishi bilan bir vaqtda pedagog hamdir. Suning uchun ham rahbar pedagogning kompetentlik xususiyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Ta'lim muassalari rahbarlarining boshqaruv yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta'lim muassalarini boshqarishda, jamoa a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, ya'ni boshqaruvda kompetentligi kasbiy imkoniyatlari salohiyati sifatida, ta'lim muassalarini faoliyatini takomillashtirishda hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va unda jamoa a'zolarining ishtiroki hamda ularda shakllanishi zarur bo'lgan boshqaruv yo'nalishidagi tushuncha, ko'nikma va malakalarni ta'lim muassasalarining ijtimoiy muhitdagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy rahbar pedagogning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari:

- huquqiy- me'yoriy hujjatlarni puxta egallagan bo'lishi (jumladan ta'limga oid qonun va qarorlar, DTSlarni barcha ta'lim tizimi bo'yicha, siyosiy va mafkuraviy bilimlardan xabardor bo'lishi);
- ijtimoiy psixolog bo'lishi;
- innovasion texnologiyalarni amalda qo'llay bilishi;
- axborot kommunikasion vositalardan foydalana olishi;
- xorijiy tillarni mukammal bilishi;
- ijtimoiy javobgarlikni his qila bilishi;
- o'z ustida tinimsiz ishlashi;
- jamoani boshqarish va uyushtirish mahoratiga ega bo'lishi;

- xodimlarning ichki dunyosini tushuna bilishi va boshqalar. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki rahbar qo'l ostidagi xodimga ishonch ko'zi bilan qarasa va hamkorlikda faoliyat olib borsa, jamoada ijobiy iqlim yuzaga keladi va ishlar samarali davom etadi. Shuningdek, ta'lim muassasasi rahbarining faoliyat yo'nalishlari talablarini quyidagicha farqlash mumkin:



Xulosa o'rinda aytish mumkinki, ta'lim muassasi faoliyatini tashkil etish va samaradorligini ta'minlash, o'qituvchilarning o'z kasbiy mahoratlarini muntazam rivijlantirib borishlari uchun ularda ma'suliyat hissini shakllantirish, innovasion jarayonlarni tashkil etish va uning natijalariga ularda qiziqish uyg'otish, o'z mehnat faoliyatlari natijalardan teng manfaatdor bo'lishi va qoniqish hosil qilishlari uchun shart- sharoitlar yaratish, hamkorlikda faoliyatni tashkil etish, ya'ni innovasion jarayonlarni tashkil etish orqali ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida turli xil masalalar yuzasidan, turli darajadagi, maqsadi, vazifasi va mazmuniga ko'ra bir- biridan farq qiluvchi qarorlar qabul qilishda jamoa a'zolarining fikrini o'rganish va takliflarni inobatga olish, mazkur jarayonlarda barcha xodimlar ishtirokini ta'minlash, maqsadga erishish yo'nalishidagi masalalarni va muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish kabi rahbarlar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan qator vazifalarning samarali bajarilishi o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi vazifalarni amalga oshirilishida o'z ifodasini topadi.



ЎҚУВЧИЛАРИДА ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯСИ

*Р.Н.Эгамбердиев ЖДПИ хузуридаги
ХТХҚТМОМ кафедра мудири*

Маълумки, мустақиллик йилларида оила ва ўқув тарбия муассасаларида болалар тарбиясига, айниқса уларни жисмонан соғлом қилиб ўстиришга бўлган эътибор ҳамда масъулият тобора ўсиб, кенгайиб бормоқда. Жиззах шаҳри ва қишлоқлардаги кўпчилик ёш оиларда кичик болаларнинг турли касалликларга дучор бўлиши давом этмоқда. Уларни даволаш муассасаларида текшириб, даволаб кўпроқ соф ҳавода юриш, турли ҳаракатлар, ўйинлар билан машғул қилишни тавсия этишлари, масаланинг бир томони ҳисоблансада.

Шуни таъкидлаш жоизки, оила шароити ва болалар боғчаларида жисмоний маданият ва унинг моҳиятларини болаларга ўргатиш, жисмоний маданият таълими ҳақида тушунчалар бериш

ҳали давр талабидан ошиб бормоқда, деб бўлмайди. Кичик ёшдаги ва мактабга тайёрлаш даврида болалар (5-7 ёш) табиий ҳаракатлар ва ўрганилган турли-туман машқ ўйинларни қанчалик яхши, эпчил, чакқон ва кўркмасдан, қийналмасдан бажармасин, уларда энг муҳим бўлган битта “Жисмоний маданият таълими” тушунчаси етишмайди. Бунда болаларга хос оддий атамалар, иборалар, тушунчалар шундан иборатки, ҳаракат, машқ, ўйин, баҳс, қобилият, мувозанат, шикастланиш, эҳтиёт бўлиш, ўзини ҳимоя қилиш (страховка) кабилар муҳим ўрин тутади.

Жиззах шаҳридаги болалар боғчалари, баъзи бир ёш оилалардаги ўтказилган суҳбатлар ҳамда психологик-педагогик кузатишларга қараганда юқорида таъкидланган иборалар ва уларни мазмуни, моҳияти ҳақида мактабга тайёрланаётган болаларда (боғчада -15-20% ва оилаларда 20-30%) тушунчалар анча паст эканлиги аниқланади. Буларнинг асосий сабаби шундаки, оила ва боғча муҳитида ота-оналар ва тарбиячилар (боғча опалар) машқ-ўйинларни ташкил қилиш ҳамда ўргатишда ҳаракатларнинг номлари (атамалар), уларнинг аҳамияти, нотўғри бажарилганда зарар кўриш (шикастланиш, жароҳатланиш) каби зарурий хусусиятлар ҳақида етарли даражада тушунчалар беришмайди. Унинг ўрнига “бажарма”, “қўй”, “йиқиласан”, “жим ўтир” каби холи инсон “ҳали кучинг етмайди” таъқиб иборалар кўп ишлатилади. Бунинг яна бир жиддий сабаби борки, ота-оналар жисмоний маданият назарияси ва услубияти ҳақида тўла маълумотга эга эмас. Мактабгача тарбия муассасаларида махсус кадрлар етишмайди. Ёки борларида ҳам мазкур соҳада таълим назарияси ва психологик қонунларини пухта ўзлаштирмаганлар.

Тарбия жараёнида оиланинг қуйидаги функциялари мавжуд:

1) оилада авлодлар давомийлигини таъминлаш функцияси, яъни оилада болалар туғилиши каби табиий қонуниятни амалга оширади;

2) оилада фарзандларни тарбиялаш функцияси, яъни болаларни ҳар томонлама етук шахс қилиб тарбиялаш масъулиятини амалга ошириб, болаларининг соғлом, ахлоқ-одобли бўлишига эришишдир;

Оилада урф-одатлар ва анъаналар орқали умуминсоний қадриятларни тарбиялаш.

Оила тарбиясида кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тарбиясига эътибор билан қараб, уларнинг ҳар биридаги мавжуд қобилият, қизиқиш ва имкониятларни аниқлаб, ўша қобилият билан қизиқишни рағбатлантириб рўёбга чиқаришга ҳаракат қилиш мақсадга мувофиқдир.

Оилавий тарбиясида оиланинг ўзига хос хусусиятларини ва мавжуд имкониятларини аниқлаш, оиладаги асосий вазифани халқ, одобга доир тадбирларни болага тўғри ўргатиш, маслаҳат бериш, катталар тажрибасини эмас балки оиланинг яшаш тарзи, муҳити, ота – оналарнинг касб – ҳунари, оила аъзоларининг маънавий, руҳий муносабатлари ҳам баркамол авлод тарбиясига таъсир этишини ҳар бир ота – оналар тушуниб етишлари зарурдир.

Оилавий тарбиянинг мураккаблиги яна шундаки, ҳар бир оила ўзига хос бир олам, жамиятнинг ўзига хос кичик уюшмаси бўлиб, тарбия ишида ўзига хос хусусиятларини намоён қилади. Ана шунинг учун ҳам оилавий тарбиянинг шакл ва услубларини умумлаштириш ва унга бирон – бир тавсиялар бериш ноқулай ва қийиндир. Ота – оналар қанчалик маънавий бой, эътиқодли ва юқори маълумотга эга бўлсалар, шу даражада такомиллашган услуб орқали ўз фарзандларини баркамол шахслар қилиб тарбиялайдилар.


Мамлакатимиз раҳбари таъкидлаганидек, ҳар томонлама етук авлодгина бугун ҳаёт олдимишга қўяётган ўта мураккаб, оғир синов ва қийинчиликларни енгиш, биз кўзлаган юксак марраларни эгаллашнинг энг асосий шарты ҳисобланади.

Таъкидланган мулоҳазаларимиз асосида хулоса ва тақлиф тариқасида айтиш лозимки, болаларни (6-7 ёш) мактабга тайёрлашда энг аввало оила ва боғчаларда кўшимча равишда жисмоний маданият воситаларини (ўйинлар, турли машқлар, сакрашлар, улоқтиришлар, осилиш, осилиб чиқиш ва ҳ.к.) ўргатиш лозим. Бунда таълим жараёни сифатида қуйидагиларни шакллантириш мақсадга мувофиқдир, яъни:

-болаларнинг индивидуал психологик хусусиятлари (характер, темперамент, қобилият) ни инобатга олиш.

-тана аъзоларининг ҳаракати (юриш, туриш, эгилиш, букилиш, отиш ва ҳ.к.) ва уларни тўғри бажариш (м: гавдани тик, тўғри тут, кафтларни ёз, чуқурроқ ўтир, кўпроқ энгаш, бурилиш ва ҳ.к.);

-эрталабки соғломлаштириш машқларини (гигиеник гимнастика, югуриш, сузиш, сайр қилиш ва ҳ.к.) бажаришга одатланиш, унинг моҳиятини онгли равишда тушуниш.



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KOMPETENSIYANING O'RNI

*K.Hakimov JDPI huziridagi VXTXQTMO hududiy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi*

Hozirgi kunda ta'lim muassasalari faoliyatini to'la ravishda fanga oid kompetensiya elementlari asosida tashkil etishga e'tabor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimi doirasida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari o'qish faniga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondoshuv asosida nutq, matn va gapni farqlash, og'zaki va yozma nutqni o'stirishni to'g'ri shakillantirish, matn ma'zmunini qayta hikoyalash, matndagi asosiy fikrni aniqlay olish, matnning tuzilishini anoqlash, uni qismlarga ajratish, ular orsidagi bog'lanishni izoxlay olish, matnga sarlavha topish matn mohiyatini anglab yetishishga erishish, shuningdek, ularda texnologik va ijodiy yondoshuv asosida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalarni rivojlantirish eng muhim vazifalardandir.


Ta'limning zamonaviy kompetensiyalar asosida tashkil etish jarayonida fanga oid kompetensiyani o'zlashtirmoqchi bo'lgan o'quvchining kayfiyati, qiziqishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy qobiliyati kabi xususiyatlar maydonga chiqadi.

Bugungi o'quvchi o'ta talabchan, qiziquvchan, radio, televizor, matbuot, kompyuter orqali ko'p ma'lumotlarga ega. Shuning uchun o'qituvchi darsga jiddiy tayyorlanishi kerak. O'qituvchi har bir darsni noan'anaviy usulda o'tishi lozim. O'qituvchi shunday mahoratli artist bo'lishi kerakki, eng indamas o'quvchi ham o'z-o'zidan darsga kirishib, faol qatnashishiga erishishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchi har bir darsga har xil interfaol ta'lim metodlaridan, "Kichik guruhlarda ishlash" metodi, Muammoли Ta'lim texnologiyalarining Muammoли баён, эвристик сухбат, муammoли намойиш, изланишга асосланган вариантларини танлаш, "Аклий хужум" стратегияси kabi metodlardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.


Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar ilg'or o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Masalan, «Baliq skleti» texnologiyasi, «Ikki qismli kundalik» usuli, «Insert» usulida o'qish, «Kublar» usuli kabi turli usullar ta'lim samaradorligini, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'zlashtirishda muhim o'rin egallaydi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish o'qituvchidan yuksak mahoratni talab qiladi. U o'quvchilar bilan birga rol o'ynay olsa, birga o'ynab kulib ularni qiziqishlarini ham aniqlay olsa, dars samaradorligi oshadi.

Biz sizga namunaviy dars ishlanmasini taqdim qilamiz. Bunda biz sizga "Kublar" usulini tavsiya etamiz. Kubiklarningolti tomoniga oltita topshiriq yoziladi. Namunaviy topshiriqlar quydagicha bo'lishi mumkin.



1. Topshiriq: Yaxshi va yomonni aniqlang (dalillar bilan "T" sxemasi orqali)
Telefon



2. Topshiriq: Taqqoslang
Ma'ruza

Afzalligi	Kamchiligi

Seminar

Afzalligi	Kamchiligi

3. Topshiriq: Tasvirlang


(Siz uchun bo`sh vaqt nima? Tasviriy, she`riy yoki hikoya tarzida)

4. Topshiriq: Bog`lanishini ko`rsating

(O`zbekiston kelajagi o`qituvchiga ham, o`quvchiga ham bog`liq)


5. Topshiriq: Tahlil qiling

(Klaster usulining afzalligini)



6. Topshiriq: Qo`llang

(Venn diogramasi misolida o`g`il va qiz bola odobi)



Pedagogik texnologiya insonning ijtimoiy sifatlarini shakllantiradigan, maqsadga yo`naltirilgan o`qitish jarayonidir,

Pedagogik texnologiya ma`lumotlarni o`zlashtirish oson kechadigan jarayondir.

Shunday xulosa qilish mumkinkil, pedagogik texnologiya o`quvchilarga avvaldan belgilab olingan maqsad bo`yicha, ma`lumotlar berish jarayonidir.

Pedagogik texnologiya o`quvchi mustaqil bilim olishga, ijobiy va kerakli o`rinda tanqidiy fikrlashga o`rgatadigan jarayondir. Bunday hollarda o`qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini o`quvchilar bilim darajasiga moslab, unga tushunarli so`zlar bilan ifodalashi mumkin. O`qituvchi tomonidan o`quvchilarga stategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida etarlicha ma`lumot berishi ular tomonidan mumomo mohiyatining to`la tushunilishini ta`minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

T.Eshquvvatov - SamDU o'qituvchisi

G.A.Xolboyeva - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM o'qituvchisi

Mustaqillikni mustahkamlashda, kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyat oldiga qo'ygan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, ta'lim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini seza oladigan yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchilarning ma'naviy roli muhim hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz birinchi rahbari I.Karimov ustoz-murabbiylarga berilgan imkoniyatlar va ular oldiga qo'yilgan talablarni qayta-qayta e'tirof etib, "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir"⁷- deb, aytadi. Demak, pedagog ayniqsa yoshlar tarbiyasida zamon bilan hamnafas yuradigan, ilg'or innovatsion pedagogik g'oyalarni o'zida mujassam etadigan, o'z ustida doimiy ishlaydigan shaxsdir. O'z-o'zidan ma'lumki, shu orqali o'qituvchida pedagogik mahorat ham shakllanib, takomillashib boraveradi.

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi nutqining ravon va ta'sirchanligi o'quvchi diqqatini torta oladigan, mavzuga mos ko'rgazmalar ijod qilib va undan unumli foydalana oladigan, har qanday sharoitda ham o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan, har bir darsda o'quvchining qiziqish va faoliyatini oshira oladigan kishini tushunamiz.

Pedagogik mahorat – izlanish, ijodiy mehnat mahsuli bo'lib, u hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har biri kishidan o'z ustida ishlashini talab etadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladigan jarayondir.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Professional kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni nazarda tutadi. Insonning kasbiy layoqati – muayyan ish funksiyalarini o'zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarining zaruriy majmui. Pedagogik faoliyatga loyqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o'tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'ziga o'ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarining barchasini aniqlash va sinovdan o'tkazish mumkin. Pedagog o'z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim.

Pedagogga zarur bo'lgan kasbiy bilimlar: pedagogika va psixologiya, bola rivojlanishi fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi. Ushbu bilimlar bolani o'rganish, uning qilmishlari va xulq-atvorini, o'zaro munosabatlari xususiyatlarini, boshqa bolalar guruhiga moslashuv yo'llarini tahlil qilish uchun zarur. Pedagog ta'lim oluvchilar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi mavjud bo'lib, pedagog uni ham yaxshi bilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirishni anglatadi. Pedagogik texnika va shakllangan ko'nikmalar pedagogni kasbiy mahorat cho'qqilariga olib keladi. Bu tarbiyalanuvchini tushuna bilish, qilmishga, insonga o'z munosabatini bildira olish, ayni vaqtda o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Pedagog har bir bola bilan til topa olishi lozim. U pedagogning har bir so'zi bola hayotida ulkan rol o'ynashini yodda tutishi kerak.

Pedagog nutq madaniyati va texnikasiga e'tibor berishi lozim. Nutq madaniyati o'z fikrini aniq, lo'nda va o'rinli bayon etish ko'nikmasi bilan belgilanadi. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz va diksiya usullari bilan belgilanadi. Bularning barchasini uzoq mashq qilish yo'li bilan o'zlashtirish mumkin. Pedagog teatr pedagogikasi unsurlarini ham o'zlashtirishi muhimdir. Zero pedagog ishi rejissyor ishi, aktyor ijodiga yaqin turadi. Pedagog tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tez qaror qabul qilishi va ishni tez tashkillashtira olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

⁷ I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". –T.: "Ma'naviyat", 2008. 131-b.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.


6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.



ЁШ АВЛОДНИ МУСИҚИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШДА НАФОСАТ ТАРБИЯСИНИНГ РОЛИ

Гулноза Сиддиқова ЖДПИХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

Ёш авлодни ҳар томонлама етук ва баркомол инсон қилиб вояга етказишда нафосат тарбиясининг аҳамияти бениҳоят каттадир. Нафосат тарбияси мазмунан серқирра бўлиб, уларнинг ичида мусиқа тарбияси энг асосий ўринни эгаллайди. Шу боис таълим-тарбия олдидаги мақсад, мусиқа ўқитувчисидан педагогик фаолиятини замонавий ташкил этиш ва ижодкорлик фаолиятини ошириб, ҳаётий мисоллар билан бойитиб боришни ва ўқувчи онгига етказиб беришни талаб этади.

Халқ педагогикаси ўсиб, ривожланиб бораётган бир даврда ўқувчиларда мусиқий компетентликни шакллантириш куйлаш, тинглаш ва ижодкорлик фаолияти билан бир қаторда мусиқа саводини ўргатиш жуда муҳим. Айниқса халқ мусиқий намуналарини ўрганиш, атокли санъаткорлар ижодидан дарс жараёнида кенг фойдаланиш ҳар бир мусиқа ўқитувчиси олдида алоҳида маъсулият юклайди. Бугунги кунда мусиқа машғулоти ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва руҳиятига мос равишда танланиши, мусиқа жанрлари, мусиқа назарияси тарихи ва бошқалар юзасидан суҳбатлар, мунозаралар уюштириш, муоммоли вазиятлар яратиш нотага қараб куйлаш, чолғу асбобларни чалиш, мусиқага ритмик жўр бўлиш, мусиқали топишмоқларни қамраб олиб, мазмун жиҳатдан болаларни қизиқтира олиш керак.

Мусиқа репертуари ўқувчиларда жонажон Ватанга муҳаббат, меҳнатсеварлик, табиатни эъзозлаш, дўстлик, ҳамжихатлик раҳм-шавқат каби хислар мусиқий образлар орқали идрок этишга қаратилган бўлиши керак.

Болаларда турли характердаги мусикаларга қизиқиш ва таъсирчанликни тарбиялаш, мусиқий идрокни ривожлантириш, ўзбек халқининг мумтоз куйларига муҳаббат уйғотиш, мусиқий таасуротларни бойитиш, товушлар баланд-пастлиги, ритм тембр, динамикасини ажрата олиш, турли жанрлар, марш, ашула, рақсга оид қобилиятини ривожлантириш мазкур синфда ўтиладиган мусиқа дарсининг асосий вазифаларидир.

Дарс жараёнида ижрочилик малакаларини шакллантиришда куйидаги ҳолатларга риоя қилиш зарур: товушни тўғри оҳангли ижро этиш, мусиқа остида ритмик ҳаракатларни ифодали бажара олиш, чолғу асбобларни товуш тембирига кўра ажрата билиш ва уларни аниқ услубларда, болалар чолғу асбобларда чалишни ўргатиш, ўтириб куйлаганда кўлларни тиззалар устига кўйиш, туриб куйлаганда эса кўллар икки ёнга эркин тушириш, гавда ва бошни зўриқтирмасдан тўғри тутиш, нафас олишда кўкрак- елкаларни кўтармасдан, шовқинсиз нафас олиш керак.

Ушбу холатларга тўлиқ риоя этилганда болалардаги жамоа булиб куйлаш компетенцияси тўлиқ шакилланиб боради.

Ўқувчиларга дастурдаги ашулаларни куйлатишда, албатта овозларни сошлаш жуда муҳим. Бунинг учун эса ўргатилган, асарини қайси тонликда ёзилганлигини аниқлаб товушларни куйлатиш лозим. Ундан кейингина янги ашулани ўргатишга ўтиш керак.

Овоз ва эшитиш қобиятларни ривожлантириш учун бир ёки иккита машқлар куйлаттирилади, примар товушлардан бошлаб, болаларни турли оҳанглардан, оддий чакирик-жавоблардан тайёргарликсиз куй яратишга ундаш: бирор кичик куйларни бошлаб, давомини куйлаб беришга ундаш ҳам самарали натижа беради.

Болаларни куйлатишда қуйидаги методик кўрсатмаларга амал қилиш зарур:

1. Бакириб, кучаниб ашула айтишга йўл қўйилмасин, болаларнинг ўзига хос тиниқ овозда айтишларига эришилсин.

2. Юқори тисситурада, овознинг ашула айтишга қулай бўлаги, узоқ ва кўп айттирилмасин.

3. Болалар овозига ноқулай тонликларда айттирилмасин.

4. Дарс давомида бетўхтов ашула айттирилмасин.

5. Ноқулай тонликдаги ашулаларни қулай тонликка транспозиция кўчириш керак.

Ўқувчиларни икки овозга ажратгандан кейин, уларни гуруҳларга бўлиш ҳам қўл келади. Ҳар бир овоз гуруҳнинг алоҳида куйланиши ўқувчиларни кўп овозликка тайёрлаб боради ва ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси ўсади, мустақиллик хисси пайдо бўлади.

Дарсни сифатли ва самарли ўтиши учун мусиқа мавзуга оид кўрғазмаларни куруллар ва дидактик ўйинлардан фойдаланиш дарс сифатини оширишга ёрдам беради. Жумладан: "Ўйлаб топ", "Чалиб бер", "Мен ижрочиман", "Мен дерижёр", "Мен қайси асбобни чаляпман", "Овозидан топ" каби дидактик ўйинлар шулар жумласидандир.

Ўқувчиларни миллий чолғу асбобларимиз билан таништириш, уларнинг товуш тембрларини англаб, идрок этиш ҳам жуда муҳим.

Амалий фаолиятлар жараёнида миллий чолғулардан кенг фойдаланиш ўйин фаолиятларида чолғу товушларини оғизда имитация қилиб ҳосил этиш, ижрочилик усулларини қўл ҳаракатлари билан ифодалаш, бунда чолғу асбоблари шикқилдоқ, доирачалар, сурнайчалар, дутор, рубоб ва бошқалардан кенг фойдаланиш, овозини эшиттириш, ҳар хил пантомимик ҳаракатлар орқали асбобларни номларини топиш ҳам мумкин.

Мусиқа ўқитувчиси ўйин ўтказишдан олдин танланган ўйин мавзуга мослиги, номи, мақсади, қондаси ва болалар фаоллигини оширишга қаратилганлигига алоҳида эътибор қаратмоғи лозим.

Юқорида тавсия этилган ўйинлардан "Ўйлаб топ" ўйинини ўтказиш методикаси қуйидагича бўлади:

Ўйиннинг номи: "Ўйлаб топ".

Ўйинни мақсади:

1. Болаларни миллий мусиқа асбоблари ҳақидаги билимларини мустаҳкамлаш

2. Мусиқа асбобларининг номини билиш ва бир-биридан ажрата олиш малакаларини ривожлантириш.

Ўйиннинг қондаси: Ўқитувчи эртақона ажойиб дарахт шохларига қушлар, ҳайвонлар, сонлар, ҳарфлар, ноталар ва болалар мусиқа асбобларининг сурнай, доирача, най, рубоб, ноғора қабиларни картондан ясалган шаклларни илиб қўяди ва болаларга шундай топшириқ беради: болалар мана бу ажойиб дарахтга қаранг ва улардан ноталарни топинг. Агар болалар ноталарни топишда қийналишса юқорида паст томонда, ўнгда ёки чапда деб йўналиш бериб туради. Ноталарни топгандан кейин улар товуш чўзилишни айтиб беришлари керак.

Ўқувчилардаги мусиқий фаолликни оширишда дарсдан ташқари ташкилий тўғарақлар, мактабларда ўтказиладиган турли мавзудаги тадбирлар, кечалар, табиат қўйнида ўтказиладиган сайру-саёҳатлар, байрамлар муҳим аҳамият касб этади.

Ўқувчиларни мусиқа воситаси орқали эстетик тарбиялашда мактаб ва оила ҳамкорлиги жуда муҳим. Ота-оналар фарзандларни кичик ёшидан мусиқавий қобиятларини шакллантиришга эътибор билан қарашлари, яъни радио ва телевизор орқали бериладиган болалар учун концертларга жалб қилиш, турли байрам ва тўйларда қалинадиган миллий чолғу асбоблари ҳақида тушунча бериш, миллий куйларни тинглаш, эртақлар асосидаги ашулаларни ижро этиш, халқ ўйинларидаги айтишув ва кўшиқларни фарқлаш қабилар орқали тасаввурларни бойитиб бориш зарур. Бу эса мусиқий компетентликни шакллантириш билан бирга ўсиб келаётган ёш

авлодни мусика ижоди намуналари орқали эстетик руҳда тарбиялайди, миллий куй-кўшиқларга бўлган эътиборни кучайтиради.

Matematika darslarida o'quvchilar kompetensiyasini shakllantirish usullari

Azamat, Babadjanovb, Manzura Tadjiyeva UrDU huzuridagi XTXQTUMOXM «Aniq va tabiiy fanlar metodikasi» kafedrasining o'qituvchisi, Urganch shahar 9-maktab matematika fani o'qituvchisi «Har qanday davlatning gullab yashnashi, elning farog`atli turmush madaniyati, mahoratli tarbiya usullari natijasidir» Abu Rayhon Beruniy.

O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'ladigan «Barkamol avlod»ni voyaga yetkazishda har bir fanning salmoqli o'rni, maqsad va vazifalari bor.

Maktabda matematika fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri, o'quvchilarni kompetensiyasini ya'ni hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini uyg'unlashtirish, matematik tushuncha va munosabatlarni ongli ravishda o'zlashtirishlariga hamda hayotga tadbiiq eta olishlariga, shuningdek, ular aql zakovatining rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning qulay yo'llarini topa olishlariga ko'maklashishdir.

Shunday ekan, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida darsning izchil, mazmunli bo'lishi, mavzuning hayotiy misollar bilan o'quvchi tushunadigan tilda bayon etilishi zarurligiga e'tiborni qarata bilishi lozim.

O'qituvchi darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini va o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarini aniq ifodalay olsagina, mavzu yuzasidan o'quvchilar chuqur, to'la bilimga ega bo'lib, olgan bilimlari asosida fe'l-atvori, dunyoqarashi shakllanadi, shunga mos kasb egasi bo'la oladilar.

Maktab matematika kursida hech bir mavzu yo'qki, hayotga, kundalik turmushga bog'lanmagan bo'lsin. Qomusiy olimlarning ilmiy merosi, fandagi kashfiyotlarini o'rganish o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantiradi, ularni vatanga sadoqat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi.

«Simmetriya» mavzusi yuzasidan bilimga ega bo'lgan o'quvchi estetik jihatdan didli, go'zal xulqli, qolaversa chiroyli kasbga moyil inson bo'lib yetishadi. Shu yerda shuni ta'kidlash lozimki usta, xunarmandchilik, naqqoshlik bilan shug'ullangan ota-bobolarimiz matematik me'yor, geometrik o'lcham va qonun qoidalar asosida Samarqand, Buxoro, Xiva va shu kabi tarixiy shaharlardagi mashhur minora, madrasalarni qurganlar. Undagi chiroyli bezak va naqshlarni yasaganlar. Ularning izdoshlari bo'lgan ko'plab usta va shogirdlar O'zbekistonimizning mislsiz gullab yashnashiga munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Poytaxtimiz bo'lgan go'zal Toshkentning yanada ko'rkam bo'lishi undagi bir qancha inshootlarning ayniqsa metro bekatlarining bir – biriga o'xshamagan ko'zni quvontiruvchi naqshlari, mardonavor savlat to'kib turgan ustunlari albatta matematika sirlaridan ogoh bo'lgan insonlar tomonidagina yaratilishi mumkin.

Teoremlarni isbotlash bilan o'quvchilar o'z fikrlarini qisqa jumlar bilan lo'nda va aniq bayon qila bilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, real hayotni his qiladilar, rostgo'ylik, adolatlilik haqqoniylik ruhida tarbiyalanadilar.

Har qanday matnli, mantiqiy, geometrik masalalarni yechish orqali hayotda uchraydigan turli xil qiyinchilik, muammolarni fikrlash, mushohada qilish, sabr-qanoat va chidamlilik, bosliqlik bilan hal qilish mumkinligini anglab yetadilar.

Shuningdek matematikada faqat bitta noma'lum bilangina emas, balki ikki va undan ortiq noma'lumlar bilan ifoda qilinadigan tenglamalar mavjud bo'lib, ularga «Tenglamalar sistemasi» deyiladi. Tenglamalar sistemasini bir necha xil usullarda yechish mumkin. Bunda noma'lumlar soni nechta bo'lsa yechimlar soni ham shunga mos bo'ladi. Tenglamalar sistemasini yechganda noma'lumlar birin – ketin topiladi. Ana shunga o'xshash bizning turmushimizda ham bir-biriga bog'liq muammolar mavjud bo'lib bular ham insonlarning aql-zakovati, harakatlari va mehnati tufayli barham topadi.

O'qituvchi «Proporsiyalar», «Foiz», «Funksiya», «Progressiyalar» kabi mavzularni bozor munosabatlariga bog'lab tushuntira olsa o'quvchi zamon bilan hamnafas, har tomonlama yetuk va mukammal inson bo'lishi uchun zamin yaratiladi.

Biz matematika kursidagi ba'zi mavzularning hayotiy bog'liqligi, inson tarbiyasidagi muhim kompetensiyalarni shakllantirish yuzasidan qisqacha so'z yuritdik. Matematika sirlaridan ogoh bo'lgan har qanday inson jamiyatimizning yanada gullab yashnashida ahamiyatli o'rin tutadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir dars aniq maqsad asosida o'quvchilar ongiga singdirilsa mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi bo'lgan ma'naviy barkamolb kompetentli insonlar safini kengaytirishdek sharaflil ishga o'z munosib hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI BUGUNGI KUN TALABI

X.Xudoyberdiyeva SamDU huzuridagi XTXQTMOHM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi, Ibragimova H Samarqand shahar 14-maktab o'qituvchisi

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi, asosan, ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki o'qituvchi shaxsiy pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Bu o'rinda biz, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni pedagogik jarayonlarning boshqaruvchisi sifatida o'qituvchilarning shaxsiga ham tegishli deb hisoblaymiz.

Amir Temurning "Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asillik, toza nasillik; ikkinchisi – aql, farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalilik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik", deb aytgan fikrlarida o'qituvchi shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga ham talablar qo'yilganligi o'z ifodasini topgan⁸.

I.A.Karimovning "Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi"⁹, degan fikrlari ham pedagogik jarayonlarning samaradorligi o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalariga, ularning shaxsiga, kasbiy va shaxsiy sifatlariga bog'liqligini isbotlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosanib aytish mumkinki, o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarishda, o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, qulay ta'limiy muhit darajasi va uning natijaviyligi, o'quvchilarda shakllangan o'quv motivlari va qiziqish darajasi, refleksiv ta'limiy muhitning shakllanganligi ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, ta'lim muassasasi o'qituvchilarining pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun boshqaruvning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning subyektivligi va faolligini oshira olishi zarur hisoblanadi.

Demak, kompetentlilik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

SHunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlilik o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

Mazkur fikrlar o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy

⁸ Temur tuzuklari / So'z boshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A.Sog'uniy va H. Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.89-90.

⁹ Karimov I. A. Inson baxt uchun tug'iladi. – Toshkent: "Sharq", 1998. – B. 39

yondashuvlarni tatbiq etish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va vositalarini tanlash; pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini bilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish; rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanish; ta'lim menejmenti asoslari; innovatsion faoliyatni tashkil etish; axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanish; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish; davlat ta'lim standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish; axborotlar to'plash va ulardan foydalanish kabi yo'nalishlar bo'yicha zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi zarurligini tasdiqlaydi.

O'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini bir necha yondashuvlar asosida ya'ni o'qituvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin.



O'QITUVCHILAR KASBIY MAHORATIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNI OSHIRISH

T.Eshquvvatov - SamDU o'qituvchisi
J.G'oyibnazarov - SamDU talabasi

Mustaqillikni mustahkamlashda, kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyat oldiga qo'ygan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, ta'lim - tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini seza oladigan yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchilarning ma'naviy roli muhim hisoblanadi.

Kishining tevarak-atrofdagi munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning ijtimoiy faolligi sifatida tushuniladi. Inson faolligi "harakat", "faoliyat", "xulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib shaxs va uning faolligidir. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan, eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. O'qituvchi kasbiy faoliyatida psixologik tayyorgarlik hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. SHuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglash muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatleri orqali bayon etiladi. O'qituvchi o'z kasbiy mahoratini oshirishda uning faolligi muhim o'rin tutadi. Asosan: tashqi faollik - bu tashqaridan va o'z ichki istak-hohishlar ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlar, mushaklar harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar, (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi faoliyatida motiv tushunchasini konkretroq tushunish lozim bo'ladi. Shaxslardagi u yoki bu xulq-atvoriga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faollikni oshirishda har bir o'qituvchida quyidagi xususiyatlar namoyon bo'lmog'i lozim:

- ✓ Jamoada ishtirok etayotgan o'qituvchi mehnat jarayonida o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ✓ Odatda o'z bo'yniga olgan mas'uliyatlarni bajarishga intilishi va o'z iqtidorini namoyon qilishga ehtiyoj sezishi;
- ✓ Umumiy faoliyatda ishtirok etishga moyillikni kuchaytirish;
- ✓ Faoliyat yuritayotgan shaxsda ijodiy ishlash va tashabbuslar ko'rsatishga ishtiyok mavjudligi;

O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda quyidagi shaxsiy sifatleri kuchaytirish lozim:

- 1.Maqsad va yo'nalishlarni aniq belgilash;
- 2.O'zgalar fikrini tinglash qobiliyati;
- 3.Xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;
- 4.Adolatli bo'lish va o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

5. Jamoadagi muhitda faol ishtirok etish.

O'qituvchining qanday sifatlariga ega ekanligi, undagi baholarning ob'ektivligiga bog'liq tarzda o'z - o'zi bilan muloqotga kirishib kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, ba'zi hollarda arzimagan xatolik uchun o'zining imkoniyatlaridan foydalana olmaydi. O'qituvchining ichki dialogni to'g'ri tashkil qilmaganligidan dalolat beradi.

Pedagoglik faoliyatida tashqi muhit bilan bog'liq ijtimoiy faollikni oshirish muhitdagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat - birinchi navbatda aqliy faoliyat sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi va o'z oldiga maqsad, rejalar qo'yadigan bo'ladi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar, ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Kasbiy mahoratni oshirishda aqliy xarakterliklar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

O'qituvchi mehnat faoliyatida ko'nikma va malakalar muhim o'rinni egallaydi. Ular bizning jismoniy va aqliy jihatdan ijtimoiy faollikni oshirishda urinishlarni engillashtiradi o'qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda ham muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlaydi.

O'qituvchining psixologik tayyorgarligida ijtimoiy faollikni oshirish irodaviylik bilan bog'liq bo'lgan holda muhim o'rin tutadi. Irodaviy fazilatlar va ularni shakllantirishda faoliyatining ichki qiyinchiliklarini engish ongli tuzilma va o'zini o'zi boshqarish sifatida eng avvalo o'z hissiyotlarini, hatti-harakatlarini boshqarishdir.

O'qituvchi eng avvalo iroda, sabr-matonat, pedagogik mahorat, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bo'lgan quyidagi bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir:

- ✓ o'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea-hodisa ustida erkin fikr yurita olishi;
- ✓ o'qituvchi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanini chuqur egallashi, o'qituvchilarda kasbiy ta'lim sifatini oshirishi, ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila olishi;
- ✓ o'qituvchi hozirgi zamon yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi;
- ✓ o'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga u adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ham ega bo'lishi kerak, chunki unga o'qituvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirishda quyidagicha ta'rif berish mumkin: maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida irodani ishga solish uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlarning bo'lishi va uni qo'llay ola bilish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishda psixologik tayyorgarlikning bo'lishi jamiyatda shaxs sifatida o'z o'rniga ega bo'lish bilan birga pedagoglik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish uchun xizmat qiladi.

К ВОПРОСУ О РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Машарипова Шоира Рахмановна, старший преподаватель кафедры методики преподавания языков РЦППКРНО при Ургенчском государственном университете

Высокое качество образования – одно из фундаментальных условий устойчивого, динамического развития общества.

Развивающемуся обществу нужны образованные, нравственные, предприимчивые люди, которые могут самостоятельно принимать ответственные решения в ситуации выбора, прогнозируя их возможные последствия; способны к сотрудничеству, отличаются мобильностью, динамизмом, конструктивностью, обладают развитым чувством ответственности за судьбу страны. Следовательно, современный учитель, сохранив богатейший опыт школы, должен искать новые формы и методы обучения, активно сочетать их с новыми образовательными технологиями с целью повышения качества обучения и соответствия актуальным и перспективным потребностям личности, общества и государства.

Поэтому основным направлением работы в школе считаем развитие профессиональной компетентности учителя, который способен умело организовать деятельность учеников, научить их учиться.

Компетентность - это готовность специалиста к профессиональной деятельности, специфическая способность, необходимая для оптимального, аргументированного, эффективного выполнения конкретного вида задания в определенной предметной деятельности.

Развитие профессиональной компетентности – это развитие творческой индивидуальности, формирование восприимчивости к педагогическим инновациям, способностей адаптироваться в меняющейся педагогической среде.

Школа, исходя из современных требований к педагогу, определяет основные пути развития его профессиональной компетентности:

- ✓ Инновационная деятельность педагога; освоение новых педагогических технологий.
- ✓ Участие в конкурсах профессионального мастерства, мастер-класса, семинарах, конференциях и т.п.

- ✓ Обобщение и распространение собственного педагогического опыта. Большую роль в повышении профессиональной компетенции играет и использование современных методик, форм, видов, средств обучения и новых технологий.

- ✓ Аттестация педагогов, повышение профессиональной компетентности педагогов через курсы повышения квалификации.

- ✓ Развитие профессиональной компетентности через активные формы работы с педагогами.

- ✓ Исследовательская, экспериментальная деятельность.

- ✓ Применение современных информационных технологий в учебно-познавательной деятельности учителя.

- ✓ Творческий отчет.

- ✓ Самообразование.

Исследователи к профессионально-педагогическим компетенциям относят:

- ✓ Социально - психологическую компетенцию

- ✓ Общепедагогическую профессиональную компетенцию.

- ✓ Предметную компетенцию.

- ✓ Управленческую компетенцию.

- ✓ Рефлексивную компетенцию.

- ✓ Информационно – коммуникативную компетенцию.

- ✓ Компетенцию в сфере инновационной деятельности.

- ✓ Креативную компетенцию.

Указанные характеристики профессиональной компетентности педагога нельзя рассматривать изолированно друг от друга, они носят интегративный, целостный характер, являются продуктом профессиональной подготовки в целом и наполняются соответствующими компетентностями педагога:

- ✓ компетентность в умении развивать интерес учащихся к изучаемой дисциплине,

- ✓ компетентность в умении презентовать учебный материал каждого урока,

- ✓ компетентность в умении определять цели учебной деятельности,

- ✓ компетентность в предмете преподавания (предметная компетентность),


- ✓ компетентность в принятии решений, связанных с разрешением психолого-педагогических задач,

- ✓ компетентность в умении взаимодействовать с учеником, что необходимо для реализации индивидуального подхода в обучении

- ✓ компетентность в организации учебной деятельности .

Компетентный педагог должен уметь ориентироваться на рынке труда и знать, какие знания и умения потребуются ученикам, чтобы найти себе работу в современных условиях и совершенствовать профессиональное мастерство; видеть и понимать действительные жизненные интересы своих учеников, их соответствие интересам общества; уважать мнение своих учеников; связывать изучаемый материал с повседневной жизнью, с интересами учащихся; закреплять знания и умения; планировать учебное занятие с использованием всего многообразия форм и методов учебной работы, ставить цели и оценивать степень их достижения совместно с учащимися; в совершенстве владеть современными методами; оценивать достижения учащихся не только отметкой, но и содержательной характеристикой (оценкой); оценивать не только предметные достижения, но и развитие личностных качеств; видеть пробелы не только в знаниях, но и в готовности жить в социуме.

Следует помнить, что процесс формирования профессиональной компетентности сильно зависит от среды, поэтому именно среда должна стимулировать профессиональное саморазвитие.



SOME RECOMMENDATIONS FOR CONDUCTING EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES

*Kim Svetlana Terentyevna Urganch Davlat Universiteti,
Filologiya fakulteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrası,*

At the beginning of the second grade, extra-curricular work is an obligatory component of the activity of every English teacher. Extra-curricular work helps to increase students' interest in the language they learn, deepen and expand their knowledge, improve their skills and abilities. It helps the teacher to see the most talented children who are interested in this subject, and the students - to show their inclinations, abilities for this or that kind of activity. Extra-curricular activities contribute to the implementation of practical, educational, developmental goals. Only if there is an organic combination of lessons and extra-curricular work, a foreign language can make a significant contribution to the formation of a fully developed personality, and this is the main task of the modern school and modern education.

Extra-curricular work in the first year of learning any foreign language, for example, English has a number of features, among which, in my opinion, an important "discrepancy" in the desire of children to participate in this kind of activity and their language opportunities, which in the second grade are still very small.

Observations show that almost all second-graders are eager to participate in extracurricular activities: they want to speak, sing, read in English, play, recite, etc. From the first feature follows the second - a close relationship between lessons and after-school work. Moreover, extracurricular activities are divided into two components: extracurricular educational work and extracurricular activities themselves.

The extra-school curriculum includes performing students' homework at the school with the participation or under the supervision of the teacher (for example, performing sound tasks in the class after the lesson or in the extended-day groups). Such work allows the child to economically and rationally perform homework and thus better master the teaching material. Here, conditions are created to take into account the individual abilities of students, their abilities, which help to notice the laggards in time, to provide them with the necessary help and to identify those children who can be assisted both during the lesson and in extracurricular activities. Extracurricular educational work is a very important link between the lesson and the actual extracurricular work. It is at the initial stage that it makes it possible to implement the latter.

Let's consider in more details extra-curricular work, prepared at lessons and in after the lessons at performing tasks. It is needless to say, the teacher needs resourcefulness, ingenuity and creativity in order to use every bit of new knowledge in extra-curricular work. The appearance in the educational process of the first poems-rhymes and songs already allows the teacher to use them in after-school lessons. For example, you can hold a competition for the best performance of songs within the group and between groups (and they usually have at least six in one school), a competition for the best reading of rhymes (phonetic contest). Next, you can organize competitions for expressive reading of the text and reading to yourself about the speed and amount of information understood; on the story of an unfamiliar picture, where the completeness of the utterance for a given point in the learning process is estimated, the consistency of the construction, the language correctness of the utterance, and so on.

To make children interested in English at the initial stage, extra-curricular activities should encompass as many students as possible, that is to be of a mass character. This will help and identify those students who will make up the asset for extracurricular work in the middle and older stages.

There are forms of extra-curricular work, their specific content and methods of conducting in the second grade.

Three forms of extracurricular work are known: individual, group and for the whole class. All these forms are possible in the second grade.

The individual form includes: the student's learning a poem, which, as a rule, is not included in the training material of the given year of study; preparation and performance of songs in English with musical accompaniment (solo performance); learning the role of a small dramatization; preparation of the student for the matinee's program. The group form provides work in such groups as a circle of singing, a game circle, a drama club, a puppet theater, a circle "Learning to speak English" and etc.

Successful implementation of extra-curricular activities depends on how correctly the teacher will be able to plan their work for the whole year and for each quarter. When planning, they proceed from the characteristics of the group: their success in language; availability of talents; availability of material at

their disposal; opportunities to receive assistance from senior students and parents' (for example, on the matinee's design).

The teacher plans all three forms of work, so that individual and group work can lead to a mass one.

When planning extra-curricular activities, the goal and objectives of the event are first formulated, the material is indicated, participants are scheduled, and the days and time of rehearsals and conducting of the event itself have to be defined. The teacher must agree with the plans for other teachers, as well as with the plan for school-wide extra-curricular work. The calendar plan for extra-curricular work, colorfully designed, is posted in the English language class.

Let's consider an example: teachers of the second grade plan to hold a morning performance in English, dedicated to Mother's Day, for which not only teachers but also mothers, grandmothers and older sisters will be invited. This is the first mass event in English, so it needs to be specially prepared and do everything possible to make it come to life as a big, warm and memorable holiday. The main goal of this holiday is to bring joy to family members and friends, demonstrate success in mastering English language, show the students what they can do in English. Preparation for this mass event takes more than six months. Regular systematic work brings together the children's team, brings the teacher closer to the children and in general does not take much time, but allows for a good and thorough preparation for the party. You need also musical accompaniment.

The program of such a matinee can, for example, include: the installation of the alphabet (ABC), when children (each with a colorfully written letter in their hands or on their chests) say, for example: "A is for apple. B is for bee ", etc. Then they sing the song "ABC" to the accompaniment; and the final: all the participants congratulate the gathered women on the holiday: "Best wishes for Mother's Day!" Good preparation for holding a mass event is ensured by regular contests throughout the year, which allows virtually all children to be involved. For example, a contest is held for the best reading of rhymes and poems. Having completed the work on rhyme, poem in the class, the teacher announces a contest for the best reading, which is held for the first time in the group, and then the best goes to the contest between the groups and between classmates. Thus, the competition is conducted as if in three rounds and as a result three winners are identified, for the first, second and third places. Like any competition, it is conducted in accordance with certain rules: a jury of teachers and students, headed by the head teacher in English, is selected; prizes are awarded (best of all, books, slides, filmstrips, badges, etc.), letters are given, names of winners are posted. The results of the contest can be announced on the school radio.

For the next contest poems, rhymes, not included in the mandatory, but necessary for the festive program, are published. The teacher selects the appropriate material and gives to those who wish and then senior students help the children prepare for the competition. A tender is held according to the scheme described above. Thus, the best are identified, which will act in the program matinee. Similarly, competitions for solo singing are held.


Great interest in second-graders is a dramatic circle. The entry into the circle begins at the beginning of the year. The material is played by plays, fairy tales from the textbook, which the teacher selects in accordance with the theme of the upcoming matinee. In this issue you can use "Foreign Languages in School" magazine, section "Application" in the textbook.

It is important that the rehearsals are held regularly. In advance we need to take care of the scenery and costumes. Before the performance, it is necessary to conduct several rehearsals in the room where the matinee will be held, so that the children are guided and able to move on stage.

In order for the performances not to be broken you need to have two players playing and with each of them to conduct rehearsals. At the matinee, the best participants perform, and in order not to offend the second squad, you can organize his performance at a class event.

The teacher should select the presenter and prepare them in advance and, based on the program, compose the text of the speeches. The presenter should speak clearly, loudly and expressively, be able to stand in front of the audience (to speak publicly).

In conclusion, I would like to emphasize that conducting extra-curricular activities helps to preserve and develop the motivation for learning the English language, to realize the set goals and objectives of education in a complex. Therefore, it must be organically included in the activity of the teacher of the English language beginning with the second grade.



ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАЩИХСЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

*Г.Аекеева- доцент Регионального центра переподготовки и
повышения квалификации работников народного образования при
Нукууском государственном педагогическом институте имени Ажинияза*

Без процесса информатизации образования уже невозможно представить современную школу.

Задачи, стоящие перед учителем - словесником при применении информационно-коммуникационных технологий, во многом отличаются от целей и задач других учителей-предметников. Задачи эти предполагают работу с текстом, с художественным словом, с книгой.

Опыт работы учителей показывает, что использование информационно-коммуникационных технологий на уроках русского языка и литературы позволяет:

- развить у учащихся творческие способности, навыки исследовательской деятельности, умение принимать оптимальные решения;
- расширить возможности самостоятельного поиска и предъявления учебной информации;
- сформировать у школьников умение работать с информацией, развить коммуникативные способности;
- усилить мотивацию учения;
- активно вовлекать учащихся в учебный процесс;
- дать ребенку максимально возможный для него объем учебного материала;
- расширить наборы применяемых учебных задач;
- качественно изменить контроль за деятельностью учащихся;
- позволяют приобщить школьника к достижениям информационного общества и адекватному поведению в нем.

Но достичь этого не так-то просто, потому, что только системное и целесообразное применение информационно-коммуникационных средств обучения в образовательном процессе позволяет оптимизировать деятельность учителя на уроке, т.е. повысить качество обучения школьников за счёт улучшения качества деятельности учителя (преподавания предмета).

Учителю русского языка необходимо сформировать прочные орфографические и пунктуационные умения и навыки, обогатить словарный запас учащихся, научить их владеть нормами литературного языка, дать детям знание лингвистических и литературоведческих терминов. Бесспорным помощником в решении этих задач являются применение информационно-коммуникационных технологий.

Конечно, компьютер не заменит учителя или учебник, но коренным образом изменит характер педагогической деятельности. Введение информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс расширяет возможности преподавателя, обеспечивает его такими средствами, которые позволяют решать не решавшиеся ранее лингводидактические проблемы:

- 1) совершенствование организации преподавания, повышение индивидуализации обучения (максимум работы с каждым учащимся);
- 2) применение информационно-коммуникационных технологий могут помочь в ликвидации пробелов, возникших из-за пропуска уроков;
- 3) повышение продуктивности самоподготовки учащихся после уроков;
- 4) ускоряется тиражирование и доступ ко всему тому, что накоплено в педагогической практике;
- 5) возможность собрать данные по индивидуальной и коллективной динамике процесса обучения. Информация будет полной, регулярной и объективной.

Практика показывает, что учащиеся охотно идут на занятия с использованием интерактивной доски, воспринимают их как праздник, у школьников вырабатывается устойчивый интерес к таким занятиям, меньше рассеивается внимание, так как существует обратная связь учителя с обучаемым.

Компьютерные технологии, не вытесняя традиционные методы и приёмы преподавания русского языка, способствуют раскрытию творческого потенциала и учителя, и ученика, приближают традиционную методику к требованиям современной жизни, помогают формировать информационные компетентции.

На уроках литературы применение информационно-коммуникационных технологий позволяет использовать разнообразный иллюстративно-информационный материал. Причем материал находят сами учащиеся в Интернете, составляют презентации, тем самым, развивают самостоятельность учащихся, умение находить, отбирать и оформлять материал к уроку. Уроки в компьютерном классе развивают умение учащихся работать с компьютером, самостоятельно решать учебные задачи. Использование тестов помогает не только экономить время учителя, но и дает возможность учащимся самим оценить свои знания, свои возможности. С помощью мультимедийного проектора демонстрируются слайды, созданные в программе Microsoft Power Point. Использование данной технологии позволяет:


- 1) значительно экономить время на уроке;
- 2) повысить уровень наглядности в ходе обучения;
- 3) внести элементы занимательности, оживить учебный процесс.

Замечательные портреты классиков, иллюстрации к их произведениям, отрывки, кроссворды, тесты – все это позволяет разнообразить урок. Так, при изучении романа в стихах А.С. Пушкина «Евгений Онегин» с удовольствием учащиеся слушают арию Ленского, дуэт Татьяны и няни, ариозо Онегина «Ужель та самая Татьяна?»; знакомясь с шедеврами лирики Пушкина, имеют возможность насладиться романсом «Я помню чудное мгновенье».

На уроке, посвященном теме гордого одиночества в лирике Лермонтова, звучит романс «И скучно, и грустно». Видеоматериалы помогают провести заочную экскурсию по местам, связанным с жизнью и творчеством какого-либо писателя. Большим подспорьем является историко-бытовой словарь, в котором можно не только найти значение незнакомых слов, но и увидеть предмет, который они обозначают, например, «аналой», «армяк», «кичка», «лорнет».

Для увлеченных литературой учеников на уроках обобщения и повторения предлагаются кроссворды, криптограммы, тексты по фольклору, творчеству Пушкина, Гоголя, Тургенева. Интересный материал находится в разделе «Теория литературы». Например, в 9 классе первый урок начинаем с компьютерной анимации «Дерево русской литературы».

Уроки - виртуальной экскурсии на природу, в музей, на родину писателя позволяют за ограниченное время дать обширный литературоведческий материал и воспитывают чувство прекрасного, расширяют кругозор учащихся.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH

M.Nigmatova SamVXTXQTMOI o'qituvchisi

Barchaga ma'lumki, bolani maktabda muvaffaqiyatli o'qishi maktabgacha tarbiya yoshidagi tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bolani maktabda o'qishga-hayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi va maktabgacha tarbiya davrida amalga oshiriladi. Maktab dasturlarining o'zgarishi bilan bog'liq holda maktabga kelayotgan bolalarning rivojlanishi darajasiga talablar ortib bormoqda. Bu rivojlanish darajasi maktabda o'qishga tayyorgarlik bilan belgilanadi.

Maktabga psixologik tayyorgarlik ilk o'quv motivlarining shakllanganligi, bolaning bilish ruhiy jarayonlarining yetarli darajada rivojlanganligi, yangi ijtimoiy muhitga moslashish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarining mavjudligi, ma'naviy-axloqiy jihatlari, shuningdek, aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi. Psixologiyada faol ijtimoiy-psixologik tayyorlov metodlari deganda, avvalo bola shaxsi yoki bolalar jamoasini samarali faoliyat malakalariga o'rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullari tushuniladi. Demak, bola o'z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni orttirib borishi jarayonida hosil bo'ladigan stixiyali, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqli o'laroq, fanda ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish uchun qo'llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ba'zi psixologik adabiyotlarda ularni qisqacha qilib, ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb atashadi.

Treningning tabiiy hamda maxsus tarzda uyushtirilgan turlari haqida mulohaza yuritish mumkin. Birinchi holatni biz hattoki, kichik yoshli bolalarda ham kuzata olamiz. Masalan, yosh bolalarning turli ijtimoiy rollar doirasida o'zaro har xil rolli va syujetli o'yinlari bilan mashg'ul bo'lishlari, unda turli rollar

(o'qituvchi, tarbiyachi, haydovchi, boshliq va hokazo)ni improvizatsiya qilishlari, tabiiyki, ulardagi nafaqat dunyoqarashni, balki bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatlarga tayyor bo'lishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Maxsus tarzda uyushtirilgan treningda esa alohida vaziyatlar va har bir o'yin ishtirokchisining shaxsiy ehtiyojlari, ularda individual shakllanishi zarur bo'lgan sifatlar katta rol o'ynaydi va shaxs ataylab u yoki bu ijtimoiy psixologik vaziyatga o'zgaralar tomonidan qo'yiladi.


Maktabgacha talim muassasalarida mashg'ulotni amalga oshirishning asosiy turlaridan biri bu o'yindir. O'yin bog'cha yoshidagi bolalariing asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. Maktabgacha talimda ijtimoiy psixologik treninglarni qo'llashda didaktik o'yinlar maboynida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'yinga oid psixologik trening - bu bolani muloqotga o'rgatish uchun bajariladigan o'yin mashqlari va xatti-harakatlar tizimidir. Treningning asosiy maqsadi bolani psixologik (ruhiy) zo'riqish, asabiy tanglikdan ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etish hamda o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat, aloqa o'rnatish olishini shakllantirishdir. Masalan, bolani boshqa bolalarni yoki o'zini o'zi tushinishga o'rgatish, o'zgaralarni va o'zini o'rganish, o'ziga-o'zi baho berishni taminlash, boshqalarni tushunish va ularni idrok qila bilish kabilardir. Treningni muvaffaqiyatli o'tkazishning va uning sarmahsulligi ko'p jihatdan, treningni olib boruvchi (murabbiy) bilan ishtirokchilar (bolalar) o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish darajasiga bog'liqdir.

I mashq. «Tanishish». Boshlovchi (Murabbiy) guruh azolarini doira qilib o'tqazib, so'ng ulardan o'ng yoki chap tomonda turgan ishtirokchilardan bittasi o'z ismini aytadi, 2-ishtirokchi esa birinchisining va o'z ismini aytadi, uchinchi ishtirokchi birinchi, ikkinchi va o'zining ismini aytadi va shu tarzda tanishuv oxirigacha davom etadi. Trening oxiri ishtirokchisi birinchidan boshlab, to gurux a'zolarining hammasining va o'zining ismini aytadi. Guruh a'zolarining bir-biri bilan tanishishi mana shunday ro'y beradi. Bu mashq bolalarda o'zoro anglanganlik, quvonch hissi, psixologik moslik, hamkorlik istagi paydo bo'lishiga imkon bermog'i kerak. Trening olib boruvchi guruh azolarining xulq-atvori va xatti-harakatini kuzatib borgan holda, tortinchoqlarini o'zi uchun ajratib olishi, ular bilan keyingi olib boriladigan ishlar strategiyasini belgilashi kerak.

II mashq. «Jonli sosiometriya». Bu mashq ham oldingisiga o'xshaydi, faqat bunda ishtirokchilar juft-juft bo'lib bajaradilar, ya'ni biri ko'zini yumadi, ikkinchisi uni yetaklab yuradi. Sheriklar vaqti-vaqti bilan rollarini almashtirib turadilar. «Yetaklab yuruvchisiga» juda ishongan bo'lsa, ko'zini yumgan bola dadil his etadi, u bir tekis osoyishta qadam tashlaydi. Bunga aks ko'rinishda esa «ko'zi yumuq» ishonch hissiga ega bo'lmaganida qat'iyatsiz, tez-tez qadam tashlaydi, oyoqlarini tarang tutadi.

Psixologik treninglar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Shuning uchun ham psixologik treninglar bolalarning bilish faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, psixologik treninglar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga solishda yordam beradi.



ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Г.Смайлова - Ажиниёз номидаги НДПИ ҳузуридаги ХТХҚТМО ҳудудий маркази «Амалий фанлар ва мактабдан ташқари таълим методикаси» кафедраси катта ўқитувчиси

Бугунги кундаги долзарб масалалардан бири бу педагогнинг касбий компоненти ва уларнинг касбий маҳоратидир. Шу боисдан ҳам кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонавий педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди. Қуйидагилар мутахассиснинг педагогик ишга тайёрланганлигининг зарур ва етарли даражасини таъминлайдиган асосий талаблар ҳисобланади. Зеро, давлатимиз томонидан таълимга қаратилаётган эътибор барча педагогларнинг ўз устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда ўқув жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этишлари учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, таълим соҳасига ёш мутахассисларнинг келиб қўшилишига имконият яратмоқда, бу эса ўз навбатида таълим муассасаси педагоглар олдида янада янги вазибалар қўяди. Натижада педагогик маҳорат тўлақонли мазмунга эга бўлмай, уни эгаллаш қийин бўлиб қолиши мумкин. Ҳўш, педагогик маҳоратнинг ўзи нима? Уни қандай эгаллаш мумкин?

Педагогик маҳорат - бу ўқитувчи – тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги, самимийлиги, назокати ва ҳ.к.) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги, эрудицияси ва ҳ.к.) фазилатларини белгилайдиган хусусиятки, у ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогик – психологик ва методик тайёргарлигида, талаба – ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўллари излаб топиб, амалий фаолиятга қўллашида намоён бўлади.

Шундай қилиб, педагогик маҳорат эгаси бўлиш учун ўқитувчи ўз ўқув предметини давр талаблари асосида билиши, педагогика, психология, методика фанларини мукамал ўзлаштириши ҳамда инсонийлик, меҳнатсеварлик ва фидойилик каби маънавий – ахлоқий фазилатларни ўзида таркиб топтириши лозим. Шунини алоҳида қайд қилиб ўтмоқ зарурки, педагогик касби мураккаб ва маъсулиятли касбдир. Ушбу касбнинг шарафлилиги ва мураккаблиги шу билан белгиланадики, у доимо онгнинг ягона соҳиби бўлган инсон билан мулоқотда бўлади. Онгли ва тирик жонзот эса ақлий, рухий, ҳамда жисмоний жиҳатдан доимо ривожланишда бўлади. Шунинг учун, ўқувчи билан доимо мулоқотда бўлганда, унга таъсир кўрсатиш учун мунтазам равишда психология, тарбия назарияси каби фанларни мукамал ўрганиб, ўз касбий маҳорати устида муттасил иш олиб бориши керак. Бу ўқитувчидан педагогик – психологик ва методик тайёргарликни таъминлайди. Педагогик маҳорат - педагогик жараёнда таркиб топади.

Педагог қўйидаги Компетенциявий хусусиятларга эга бўлиши лозим:

✓ Компетенция-соҳага оид билим, кўникма, малака, қарашлар мажмуи, шахснинг қадрияти ва сифатлари, квалификациянинг намоён бўлиши ёки таъсир кўрсатиш қобилияти.

✓ Компетентлик-муайян лавозимга мос ўз касбининг моҳир эгаси бўлган шахсга хос сифат.

✓ Педагогнинг компетенциявий хусусиятлари

✓ Педагогика ва психологияга доир билимларга эга бўлиш;

✓ Ўз устида ишлаш;

✓ Таълим жараёнини режалаштириш, баҳолаш ва қайта алоқани ўрната олиш;

✓ Ўқувчиларда мотивацияни шакллантириш;

✓ АКТни билиши;

✓ Таълим муҳитига янгилик киритиши;

✓ Ўз фанини мукамал билиши;

✓ Хорижий тиллардан бирини билиши.

Касбий компетенцияни шаклланиш босқичлари:

✓ Ўз-ўзини таҳлил қилиш ва зарур нарсаларни англаш;

✓ Ўзини ривожлантиришни режалаштириш мақсад, вазифа белгилаш;

✓ Ўзини намоён этиш ва камчиликларини тузатиш;

Шахсий компетенция

✓ Мулоқатчанлик

✓ Бағрикенглик

✓ Етакчилик

✓ Фаоллик ва ташаббускорлик

✓ Мослашувчанлик

✓ Соғлом турмуш тарзига амал қилиш

✓ Маъсулиятлилик

✓ Ишчанлик

✓ Инсонпарварлик

✓ Самимийлик

✓ Назокатлилик.

Умуммаданий компетенция

✓ Маълумотли

✓ Маданиятли

✓ Умуминсоний қадриятларга эгалик

✓ Миллий маданиятга эга бўлиш

✓ Мамлакатнинг ижтимоий ҳаётида иштирок этиш

✓ Бошқа миллатларнинг маданиятини ҳурмат қилиш.

Махсус компетенция


✓ Фанига доир махсус методларни билиш

✓ Ўқувчилар эҳтиёжини билиш

✓ Турли ёш хусусиятларини билиш.

Педагогнинг шахсий фазилатлари сирасига иймон – эътиқоди, дунёқараши, ижтимоий эҳтиёж ва фаоллиги, одоб – ахлоқи, фуқаролик бурчларини ҳис қилиши, маънавияти, дилкашлиги,

талабчанлиги, катъийлиги ва мақсадга интилиши, инсонпарварлиги, ҳуқуқий билимдонлиги ва ҳ.к.лар киради. Булар ўқитувчига касбий хусусиятларни ўзида тарбиялаб боришга кўмаклашади.



PEDAGOGIK KOMPETENTLIK O'QITUVCHI FAOLIYATINING ASOSI SIFATIDA

*L.R.Nomozova Pastdarg'om pedagogika va sport kolleji o'qituvchisi
G.A.Xolboyeva SamDU huzuridagi XTXQTMOHM o'qituvchisi*

Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatлари bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slatsenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda.

Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

✓ maxsus tarbiyalanganlik layoqatligi – kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

✓ ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqot uslublarini egallaganlik, o'z kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik.

Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Yvropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

✓ zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim sandarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv datsurlari, ishchi datsurlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

✓ ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

✓ o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, komp'yuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diapropektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

✓ ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;


✓ tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

«O'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u:

- ✓ ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ✓ ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda to'la kasbiy shakllanishga intilishi, pedagogik texnologik vaziyatlarni idrok etishi, shu jumladan kasbiy qiziqishlari doirasi kengaytira olishi o'zini takomillashtirishida talab paydo bo'ladi. Kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, malaka va qobiliyatlarga, ularni namoyon etishga ko'pchilik talabalarda chuqur va doimiy qiziqish paydo bo'ladi.



TEACHING LISTENING THROUGH MOVIE CLIPS

F.R.Normaxmatova SamDU huzuridagi XTXQTUMOHM o'qituvchisi
N.SH.Ibragimova 1-son IDUM ingliz tili o'qituvchisi

Listening comprehension is an important language skill to develop. Language learners want to understand target language (L2) speakers and they want to be able to access the rich variety of aural and visual L2 texts available via network-based multimedia. Furthermore, listening comprehension is at the heart of L2 learning and the development of L2 listening skills has demonstrated a beneficial impact on the development of other skills

Listening should be the first and foremost skill to be acquired in learning a new language. Understanding spoken words is prerequisite to speaking, reading, and writing; comprehension should precede reproduction. Research has shown strong evidence that listening comprehension and language acquisition are closely related. Further, listening skill transfers to other skills, and promoting listening skills before focusing on oral skills results in increased second language acquisition.

Listening is also important because it:

occupies a big chunk of the time we spend communicating in the language. Think about the times you spend listening to others speak or listening to songs, news, lectures, YouTube, etc. Recent advances in technology have served to raise the profile of the listening skill in language teaching.

provides input that can be very significant for second language acquisition in general and for the development of the speaking skill in particular.

promotes non-linear processing of language and encourages learners to develop "holistic" strategies to texts.

As language teachers, we need to think of how we can incorporate listening into our teaching and provide opportunities both inside and outside the classroom for our students to be exposed to significant listening input.

Film and video are very effective ways of both motivating our students and helping them to understand language, but they do need to be used with care and an understanding of some of the dangers and potential involved. Here are some tips to guide you.

Length: No matter how keen students are on the film or subject matter, they can only cope with so much at once. Avoid overwhelming them. Don't exceed 5 minutes of film.

Run through: Try and estimate the time students will take to do each activity and how many times you will need to show the clip again. Run through the whole thing, get your timing right.

Set context: If your clip comes from a sequence or part of a story, set the scene before starting. Briefly outline plot, characters or situation if necessary. Show the clip with sound off for a few seconds to elicit where the people are, who they might be, what they are talking about etc.

Have an aim: Why are you using the clip ? To look at request forms and practice them ? To give students practice in giving a commentary, telling a story ? To lead to a discussion on an issue ? Give a concrete task for students to complete while viewing so they use the language you want them to use and this helps them concentrate on the clip.

Anticipate needs: Look closely at the script and clip. How much new vocabulary might need clarification Do some words need previewing before watching ? Can some words/expressions be guessed

from context? Do facial expressions or gestures/action help you explain language? Mark these points on your script and plan to use them, pause tape, involve students' with questions. Make a vocabulary task for completion whilst viewing, if appropriate. Useful activities

Predict language

Getting students to predict the language being used can be useful and motivating.

Give students the script with key items removed e.g. expressions/verbs/key words/questions.

View with sound off and students use the visual clues to brainstorm the missing items.

View with sound to check predictions and complete. View again if needed.


Focus on roles

Getting the students to role play the movie can be fun and motivating Run through once or twice with the whole class to get the gist and understand setting.

Assign roles to each student (e.g. if 3 characters in the clip, each student is one of them).

Give each character a script corresponding to their part in the clip and a couple of focus questions for viewing their character. View clip again Put students in groups to practice their roles, using their scripts. Then perform without scripts.

In conclusion, introducing movies to classroom instruction is a double-edged sword. If used properly the benefits clearly overweigh the perils. Proper use means that students are made aware of inaccuracies in the movies and are told concretely which facts have been distorted and are inconsistent to historical facts. Teachers need to directly point students' attention to the aspects that need correction and need to spend classroom time discussing these aspects.



ЎҚИТУВЧИНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ МАСАЛАСИГА ДОИР

*М. Мадраҳимова- Андижон вилояти Андижон шаҳар
1-умумтаълим ўқитувчиси*

Ўзбекистон Республикасида ўқитувчи кадрларнинг маънавий қиёфасига, ақлий салоҳиятига ҳамда касбий маҳоратига нисбатан алоҳида масъулият юкланган. Чунончи, бу борада Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов кўйидагиларни қайд этади: “Биз юртимизда янги авлод, янги тафаккур соҳибларини тарбиялашдек масъулиятли вазифаларни адо этишда биринчи галда ана шу машаққатли касб эгаларига суянамиз ва таянамиз, эртага ўрнимизга келадиган ёшларнинг маънавий дунёсини шакллантиришда уларнинг хизмати нақадар беқиёс эканини ўзимиз яхши тасаввур қиламиз”. Ушбу фикрлардан бугунги кун ўқитувчисига нисбатан кўйилаётган талабларнинг мазмун ва моҳияти англашилади.

Ўқувчиларнинг тафаккурини ва мустақил фикрлаш қобилиятини тизимли суръатда, яъни таълимнинг узлуксизлиги тизмида ўстира бориш, уларнинг малакалари ва кўникмаларини шакллантириш тарих ўқитишнинг ўз олдида қўйган мақсадларидан бири ҳамда тарихий билимларни ўзлаштириб олишнинг зарур шарт - шароити ҳисобланади.

Ўқитувчи-педагогик ва психологик жиҳатдан ўз ихтисослиги бўйича махсус маълумотга эга, касбий тайёргарликка ва юксак ахлоқий фазилатларга бой, таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахсдир.

Ўқитувчи таълим жараёнида ўқитиш шакллари оптимал даражада ташкил этишни, баркамол шахсни тарбиялаш назариясини турли янги ғоялар билан бойитишни пўхта билиши лозим. Ҳозирги кунда ўқитувчининг педагогик маҳоратида “билиш, тушуниш, қўллаш, таҳлил қилиш, синтез қилиш, баҳолаш” каби дидактик қонуниятлар таълим беришнинг муҳим босқичлари сифатида эътироф этилган. Ушбу ҳолат ёш авлод тарбиясини, уни ташкил этиш мазмунини ва нафақат шахс камолоти, балки жамият тараққиётини ҳам белгиловчи муҳим аҳамиятга молик бўлган омил.

Ўзбекистон Республикасида таълим тизмига бевосита дахлдор барча соҳаларни бутунлай ислоҳ қилишга нисбатан жиддий талаблар қўйилган. Чунончи, бу борада Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов кўйидагиларни қайд этади: “Таълим ислохоти бизни демократик ўзгаришлар янги жамият барпо этиш йўлида дадил етакловчи барчамизни ҳаракатлантирувчи ички куч бўлмоғи зарур. Ҳар биримизга... аён бўлсинким, таълим-тарбия

тизимини ўзгартирмасдан туриб, одамлар онгини, демакки, уларнинг турмуш тарзини ўзгартириш мумкин эмас” .

Бугунги кун ўқитувчисига қўйидаги талаблар қўйилган:

✓ Аввало, у ўз мутахассислиги бўйича таълим берадиган фанлардан педагогик технологияларга асосланган ҳолда машғулот олиб бориш керак;

✓ Педагогик ва ахборот технологиялардан ўқувчилар ўқув фаолиятини фаоллаштиришда фойдаланиш лозим.

✓ Дарс бериш давомида интерфаол методлардан фойдаланиш лозим;

✓ Таълим-тарбия жараёнида жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида педагогика ва психология соҳасида эришилаётган илғор тажрибаларни амалда қўллаш лозим;

✓ Ўрта Осиё мутафаккирларининг бой маънавий меросларидан таълим ва тарбиявий фаолиятида фойдаланиш;


✓ Дарснинг барча турларида, машғулотларида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишни йўлга қўйиш;

Хитой файласуфи Конфуций бу ҳақда “Айтсанг унутамаман, ўзим бажарсам англаб етамаман, кўрсатсанг эслаб қоламан” деган. ҳақиқатдан ҳам бугунги кун ўқитувчиси педагогик технологиялардан фойдаланиб дарсни ташкил этса, бу ёш авлодни мустақил фикрлашга, ўз устида ишлашига ёрдам беради.

Ўқитувчи – аввало жамиятнинг ёш авлод таълим-тарбиясига қўйган ижтимоий буюртмасининг асосий ижрочисидир. Шу билан бирга касбий маҳоратга эга, кўшлаб ўзида турли компетенцияларни 10 шаклантира олган замонавий педагог ҳамдир¹¹.

Демак юқоридагилардан кўриниб турибдики, таълим сифатини оширишда ўқитувчининг ўрни бекиёсдир.

Демак, ўқитувчи баркамол авлод таълим-тарбияси учун жавобгар шахс бўлиб, нафақат атрофдагиларига ўрнак бўлиши, шу билан бирга, педагогик маҳоратни намоён эта олиши, етук ўқитувчи сифатида малакали кадрлар тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.



ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИНING КОМПЕТЕЦИЯВИЙ ҚИЁФАСИ

С. Солиева - Избоскан тумани 39 мактаб ўқитувчиси

Ш. Муродалиева АОЗК ўқитувчиси

Ўртамиёна ўқитувчи баён қилади.

Яхши ўқитувчи тушунтиради.

Атоқли ўқитувчи кўрсатади.

Буюк ўқитувчи руҳлантиради.

У. Уорд.1*

Истиқлол қуёшидан нур олиб яшнаётган Ўзбекистонимизда барча соҳалар қатори таълим тизимида ҳам шиддат билан ўзгаришлар юз бермоқда. Ушбу ўзгаришлардан мақсад ҳар томонлама етук баркамол авлодни тарбиялашдан иборат.

Ҳар қандай халқнинг буюклиги унинг тарбия мезони билан ўлчанади. Тарбиянинг устуворлиги эса шу юртдаги маънавий муҳит, аждодларнинг бой адабий мероси билан боғлиқ. Шу маънода буюклар бешиги бўлмиш жонажон диёримизда яшаб дунё тамаддуни бешигини тебратган даҳолар номини, уларнинг башарият тараққиётига қўшган ўлкан ҳиссаларини санаб адо қилиш қийин. Буюк аждодларнинг издоши, фарзанди бўлмиш бугунги авлод эса чин маънода бахтиёр ўғил қизлар ҳисобланади. Чунки уларнинг ҳар томонлама пухта билим олиши, ўзи севган касбининг эгаси, ҳақиқий маънодаги комил инсон бўлиб вояга етишлари учун барча шароитлар

¹⁰ **Компетенция** (лот. “competere” — лойиқ, мос, мувофиқ, яроқли деган маъноларни англатади) – билим, амалий кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётда дуч келадиган амалий ва назарий масалаларни ечишда фойдаланиш ва қўллаш олиш қобилиятидир.

¹¹ **Компетентлик** (лот. “competens” – лаёқатли, қобилиятли шахс) муайян бир ҳолат хусусида тўғри мулоҳаза юритишга имкон берадиган билимга эга бўлиш, далил-исботли фикр, кишининг муайян соҳадаги савиясини ифода этадиган атама.

яратилган. Ўсиб келаётган авлодни билим ва салоҳиятини янада ошириб бориш эса ушбу тизимда матонат билан меҳнат қилаётган устозларнинг маҳоратига боғлиқ.

Бу борада таълим берувчи бўлган ўқитувчининг педагогик ва психологик маҳорати замонавий илм фан ютуқларидан хабардорлиги, унинг маънавий- маърифий етуқлиги, илмий салоҳияти етарли даражадаги бой тажрибаси интеллектуал салоҳиятли бўлишини давр талаб этади.

Бугунги замонавий таълимнинг энг муҳим белгиларидан бири бўлган компетенция ҳақида фикр юритамиз. Хўш, компетенция нима ?

«Компетенция» шахс мукаммал биладиган предмет- соҳа бўлиб, унинг фаолият кўрсатиши учун тайёр эканлиги ўлчови ҳисобланади.

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим-ўқитувчи эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий кўллаш олиш компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълимдир.

Ушбу таълимда ўқитувчиларнинг маънавий-маърифий тайёргарлигини амалга оширишда уларнинг касбий компетенцияси алоҳида аҳамиятга эга.

Замонавий ўқитувчи доимо янгиликка интилиши ташаббускор ва ташкилотчи, янги ғоялар ва инновацияларни ярата олиши, тарбия негизда таълимни ривожлантириши зарур. Чунки илм фақат инсонларгина эгаллаши лозим бўлган энг буюк неъмат бўлиб, уни тарбия кўрган инсонларгина ўрганиши мумкин,

Ўқитувчи маънавий-маърифий жиҳатдан махсус таёргарликка эга бўлиши, унда миллий тарихий ва умуминсоний кадриятларига ҳурмат ҳисси шаклланганлиги унинг ҳар бир касбий маҳоратида намоён бўлади.

Ўқитувчилик касбида энг авалло юксак одоб ва ахлоқ, эстетик дид, равон нутқ, кийиниш ва ўзини тутиш маданияти уйғунлашган бўлмоғи керак.

Ўқитувчи жамиятнинг ижтимоий, сиёсий ва иқтисодий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар, олиб борилаётган ислоҳотлар, бунёдкорлик ишларининг моҳиятини чуқур англаб етган ҳамда бу борада ўқувчиларга тўғри, асосли маълумотларни бера оладиган шахсдир,

Ўқитувчи замонлар занжирини боғловчи ҳалқадир. У ўтмиш ва бугунни боғлаб, келажакни яратувчи шахс. Шу боис замондошларидан бир қадам олдинда юрмоғи керак. У ўз мутахассислиги бўйича чуқур, пухта билимга эга бўлиш билан бирга замонавий билимлардан доимо хабардор бўлиши, ўз устида касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориши керак.

Ҳозирги замон ўқитувчиси куйидаги маънавий-маърифий компентецияларга эга бўлиши лозим;

- ✓ ўз касбини севиши;
- ✓ Ватан равнақи йўлида жисмоний ва интеллектуал имкониятларини сафарбар эта олиши;
- ✓ ўз касбий имкониятларидан келиб чиқиб таълим олувчини юксак маънавиятли қилиб тарбиялаши;
- ✓ таълим жараёнида турли хил педагогик психологик вазиятларда муаммоларни вазминлик ва тинч йўл билан ҳал этиш маҳоратига эга бўлиши;
- ✓ шарқона ва миллий ва умуминсоний кадриятлар ва урф-одатларимизга юксак ҳурмат ҳиссини ўқувчиларда уйғота олиши;
- ✓ ўқувчиларни бўш вақтини мазмунли ва мароқли ташкил этиши;
- ✓ бир неча хорижий тилларни билиши ва компьютер саводхонлигига эришиши талаб этилади.

XXI аср ўқитувчиси нафақат ўз фанининг етуқ мутахассиси бўлиш билан бирга она тили ва адабиёти, хорижий тиллар, математика, тарих, ҳуқуқ, маънавият, география, этнография, астрономия, тиббиёт, кимё, экология каби фанлардан етарли миқдорда хабардор бўлиши, уларни узвийликда ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда узликсиз таълим босқичларида ўргатиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Ўқитувчиларнинг маънавий-маърифий тайёргарлигини оширишда муҳим ўрин тутадиган компетенциялардан бири ижтимоий фаол фуқаролик компентециясидир;

ўқитувчи жамиятда бўлаётган воқеа ходиса ва жараёнларга даҳлдорлигини ҳис этиши; жамият ва оила учун хизмат қилиши, ёрдамга муҳтожларга саховатли бўлиши, ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиши даркор..

Бундан ташқари ўзини-ўзи ривожлантириш компетенециясида, ўқитувчи шахс сифатида доимий равишда ўз-ўзини ривожлантириши, ҳаёт давомида ўқиб ўрганиш билим тажрибасини мунтазам равишда ошириб бориши, маънавий-руҳий интеллектуал камолотга интилиши, китобхонлик маданиятига эга бўлиши ва ўқувчиларда китобга бўлган муҳаббатни ошириши, умри давомида ўқиб ўрганиши, ўзини назорат қила билиши зарур.

Замонавий ўқитувчининг энг муҳим компентенцияларидан бири “ахборот билан ишлаш” компентенциясидир. Ўқитувчи мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, газета,


журнал (аудио видео ёзув) телефон, компьютер, электрон почта ва в.б) фойдалана олиши медиа воситаларидан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиши ва фойдаланиши медиа маданиятга риоя қилиши зарур.

Ҳозирги замон ўқитувчиси глобаллашув жараёнида, глобаллашув ва оммавий маданият кўринишлари ҳақида ўқувчиларга етарли маълумот бера олиши ва ўқувчиларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш, миллий маънавий хавфсизликни таъминлаши ҳам ғоят аҳамиятлидир.

Ўқитувчининг ўзи маънавий-маърифий соҳада диний ва дунёвий адабиётлардан хабардор бўлишидан ташқари, уларни содда ва равон, таъсирчан ва ширали нутқ орқали ўқувчиларга ахборотни етказа олиши таълим ва тарбияда устивор вазифадир.

А.Авлонийнинг “ Тарбия биз учун ё ҳаёт- ё мамот, ё нажот-ё ҳалокат, ё саодат- ё фалокат масаласидир” деган қарашлари ҳар бир педагог учун дастурил амал бўлмоғи мақсадга мувофиқдир,

Хулоса қилиб айтганда, ўқитувчи қайси фандан дарс бермасин доимо изланишда бўлиши, касбий сифатлари билан бошқаларга ўрнак бўлиши даркор. Ёш авлодни тарбиялаш ва уларга таълим бериш педагоглар зиммасига юклатилган экан, демак, ўқитувчининг маънавий-маърифий тайёргарлиги барчага ўрнак бўла оладиган шахс бўлмоғи зарур.



КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ВА ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ КУРСЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИННОВАЦИОН АСОСЛАРИ

*Озода Худайбердиева -НамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ қитувчи,
Исакова Г. Ижтимоий иқтисодий ва педагогика коллежи ўқитувчиси*

Жамиятнинг ҳар томонлама равнақ топиши, тараққий этиши таълимнинг ривожланишига ва мазмунан такомиллашиб боришига боғлиқ.

Бугунги кунда таълим сифат самарадорлигини ошириш энг долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланмоқда.

Таълимнинг глобаллашуви, инновацион технологияларнинг жорий этилаётгани, айни пайтда кенг қўламли ахборотлар оқими таълим мазмунини мунтазам янгилаб, такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Таълим соҳасидаги давлат сиёсатини рўёбга чиқариш, кадрлар тайёрлашда ягона давлат талаблари асосида ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштириш, ўқув-адабиётлари билан таъминлаш, педагогларга узлуксиз методик хизмат кўрсатиш вазифасини амалга ошириш муҳим вазифалардан биридир.

Бу кундаги ўқитувчи тайёр электрон ресурслар ёрдамида дарс ўтиш билан чегараланмасдан балки, таълимий ресурсларни яратиш ҳамда уни амалда қўлловчи ўқитишнинг замонавий технологиялар имкониятларидан самарали фойдаланиш фан ва унинг таркибига кирувчи билимлар мазмунини тингловчиларга етказиш малакасига эга шахс сифатида фаолият олиб бориши лозим. Бугунги тез ўзгарувчан иқтисодий, ижтимоий ва маънавий ҳаёт ўқувчи ёшлар дунёқарашини шакллантириш янги педагогик интерфаол методлардан кенг фойдаланишни тақозо қилади. Анъанавий машғулотлар олиб бориш аста секин ўз ўрнини интенсив ва интерфаол методларга, ноанъанавий дарс ўтиш ишларига бўшатиб бермоқда.

Инновация эса - бу маълум бир босқич асосида ривожланадиган жараёндир. Инновация бу - таълимнинг янги мазмуни, шакл ва методларини ишлаб чиқиш.

У бир нечта маънодаги тушунчаларни беради:

Биринчи маънода инновация — бирор бир янги ижтимоий эҳтиёжни яхшироқ кондириш учун янги илмий, амалий восита, яъни янгилик яратиш, тарқатиш ва қўллашни ўз таркибига оладиган комплекс жараён сифатида қаралади. "Инновация", иккинчи маънода, бирор бир жамоа фаолиятини такомиллаштириш учун киритилаётган ва бу инновация субъекти томонидан янгилик деб қабул қилинган янги восита, услуб, ёндашувлар тизимига нисбатан ишлатилади.

Республикамиз олимларининг "инновация" тушунчасига берган таърифларидаги хилма-хиллик чет эл олимларининг тадқиқотларида ҳам кўзга яққол ташланади. Мазкур таърифларнинг қиёсий таҳлили асосида тушунчанинг қуйидаги моҳиятли жиҳатларини ажратиш мумкин:

инновация - бу янгилик;

инновация - бу ўзгартириш, яхшилаш, такомиллаштириш демакдир;

инновация - бу ўзида тараккийпарвар асосни акс эттирувчи таркибий қисмлар мажмуи;
инновация - бу янги восита, янги метод, янги технология;
инновация - бу янги методларни ва таълимнинг янги мазмундаги услубларини ишлаб
чиқишдир (П.Г.ГСедровский)

1.

Бироқ шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, педагогик инноватикага оид адабиётларда "инновация" тушунчаси билан биргаликда "янгилик" тушунчаси ҳам қўлланилади. Педагогик инноватиканинг асосий кўрсаткичи унинг бошланғич ривожига боғлиқ бўлиб, янгилик - бу фақатгина ғоя, ёндашув, метод, технология, шунчаки тақдим этилган ва ҳали фойдаланилмаган ҳолатдаги эмас, балки бу инновацион жараённинг мажмуавий ва алоҳида таркибий қисмидир, у эса ўзида ўзгарувчан шароитларда ва ҳолатларда таълим-тарбия масалаларини етарлича самарали ҳал этишни ифода этади.

"Инновация" тушунчаси лотин тилидан олинган бўлиб (т-га, поуиз-янги), яъни таржимаси "янгилик", "ўзлаштириш", "қандайдир янгиликни киритиш", "янгини жорий қилиш", "янгилик киритиш". Ўз навбатида "янги" сўзи ушбу тушунчанинг асосий ядросини ташкил этади.

Инновация - мақсадга йўналтирилган ўзгартиришлар бўлиб, маълум бир ижтимоий бирликка -муассаса, уюшма, жамоа ва гуруҳларга янги, нисбатан барқарор бўлган элементларни, умумий ҳолда ҳалқнинг маънавий-маданий муносабатлари ва мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан узвий боғлиқ бўлган янгиликларни киритишдир.

Инновацияларнинг хусусиятларига кўра уларни турли хил асослар билан турлича таснифлаш мумкин, яъни бугунги кунда янгилик киритишнинг тугалланган таснифи мавжуд эмас. Шу билан биргаликда педагогик жараёнларни ташкил этишда ва самарадорлигини таъминлашда энг аввало, янгиликларни педагогик жараёнларнинг қайси бўғинига тегишли эканлигини инобатга олиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади¹.

Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда инновацион салоҳиятига кўра янгиликлар модернизация, унификация, фаолиятни такомиллаштириш, шаклан ўзгартириш, ривожлантириш билан боғлиқ бўлган модификацион инновациялар; олдиндан маълум бўлган методларнинг элементларини янги тизимга бирикишини назарда тутувчи бириккан инновациялар; ўхшашликка ва умумийликка эга бўлмаган радикал инновациялар инновацион жараёнларнинг асоси сифатида белгиланиши мумкин.

О.Г.Хомерики ўқув-тарбия жараёнининг у ёки бу таркибий қисми билан боғлиқликда инновацияларни қуйидаги турларга ажратиб кўрсатади:

- ✓ таълим мазмунига доир инновациялар;
- ✓ ўқув-тарбия жараёни методлари, методикаси ва технологиясига доир инновациялар;
- ✓ ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишга доир инновациялар;
- ✓ таълим тизимини бошқаришга доир инновациялар
- ✓ локал, алоҳида, ўзаро боғланмаган хусусий инновациялар;
- ✓ ўзаро боғланган, хусусий инновациялар мажмуини ифода этувчи модулли инновациялар;

- ✓ бутун таълим муассасасини қамраб олувчи тизимли инновациялар .
- ✓ Таълим жараёнининг таркибий қисмларига муносабатига кўра педагогик инновацияларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

- ✓ таълим мақсади ва вазифалари билан боғлиқ педагогик инновациялар. Масалан, "идентив ўқув мақсадларини ўқув вазифаларига айлантириш";

- ✓ таълим ва тарбия мазмуни билан боғлиқ инновациялар. Масалан, "таълим мазмунини интеграциялаш ва дифференциялаштириш", "ахборотлаштириш ва прогнозлаш";

- ✓ таълимнинг шакл, метод, восита ва технологиялари билан боғлиқ инновациялар. Масалан, ноанаънавий дарс шакллари, интерфаол методлар, мультимедиа воситалари, таълимнинг самарали технологиялари (модулли таълим технологиялари, маданий-инсонпарварлик ёндашув технологиялари);

- ✓ таълим олганликни ташхис этиш билан боғлиқ инновациялар. Масалан, ўқув портфолиолари;
- ✓ педагог ва ўқитувчиларнинг маълум бир қобилиятларини ривожлантиришга доир инновациялар.

Масалан, биргаликдаги ҳамкорликдаги фаолиятни ривожлантириш;

- ✓ педагог ва ўқувчиларнинг БКМ, фаолият усуллари, компетентлигини ривожлантиришга доир инновациялар.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, билим қанчалик мустаҳкам бўлса, ўқувчи дунёқараши, интеллектуал салоҳияти шунчалик ривожланади ва камол топади.

¹ Эллис Артур, Фоуц Джеффри. Педагогические инновации / Пер. с англ. А.И.Другова. - М.: ИТПиМНО, 1993.

GLOBALLASHUV JARAYONLARI DAVRIDA TA'LIM TIZIMI XODIMLARINING MAFKURAVIY KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

M. To'xtasinov, NamDU huzuridagi XTXQTMOHM o'qituvchisi

Ma'lumki, mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan, globallashuv jarayonlari o'zining ijobiy ta'sirlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham ko'rsatayotgan hozirgi murakkab davrda kimki o'zining mafkurasiga ega bo'lsa, shu mafkurasida sobit tura olsagina o'zligini, milliyligini saqlab qola oladi.

Oxirgi paytlarda dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatib shuni xulosa qilish mumkinki, o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan shaxs nafaqat o'zini, balki millati, mamlakati va dunyo hamjamiyati hayotini buzishga harakat qilayotgan vayronkor kuchlarga tayyor o'lja bo'lib qolmoqda.

Yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ayniqsa, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashishidan kuch olib, tinchlik va barqarorlikki raxna solayotgan yot g'oyalarning ta'sirlari kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab davrda hal qiluvchi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi-yoshlarni mafkuraviy immunitetini shakllantirish esa ko'p jihatdan shu avlod vakiliga ta'lim-tarbiya berayotgan ustoz-murabbiyning, o'qituvchi-pedagogning bilimiga, kasb malakasi va mahoratiga, dunyoqarashi va saviyasiga, ma'naviyati, g'oyaviy yetukligi va axloqiga ko'p jihatdan bo'g'liqdir. Zamonaviy o'qituvchining bu kabi fazilatlarini bir jumla bilan aytganda mafkuraviy kompetentlik deyishimiz mumkin.

Fanga yangi kirib kelgan mafkuraviy kompetentlik1 jumlasiga "... bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va o'zi ishongan mafkura bo'yicha kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasidir", – deb ta'rif beriladi.

Shuningdek, ushbu manbada mafkuraviy kompetentlik yaxlit ko'rinishda bo'lsada, biroq unda uchta asosiy komponent mavjud ekani ta'kidlanadi. Ya'ni, ular:

- ✓ Mafkura sohasida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish;
- ✓ Muayyan mafkura (nazariyasidagi g'oya va tomoyillar)ga nisbatan kuchli ishonch va e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi;

O'zi ishongan mafkuraning g'oyalarini boshqa insonlarda ham shakllantira olish uchun muayyan (ichki, ilmiy-nazariy va tashqi tashkiliy-metodik) ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kabilardir2.

Kim hozirgi mafkuraviy kurashlar ta'sirlari kuchayib ketayotgan tahlikali bir davrda o'quvchi-talabalarga chuqur ilmiy-tahliliy, hayotiy va milliy harakterdagi ta'lim-tarbiya bera oladi. Kimki o'quvchi-yoshlarga ma'naviy-mafkuraviy jihatdan to'liq va sifatli ta'lim bera olsa, o'zi bu ma'noda namuna bo'la olsa, kimki avvalo, o'zining mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lsa. Bu esa o'qituvchi-pedagoglarning oldiga qator vazifalarni qo'yadi.

Ya'ni hozirgi davr pedagogi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi:

- ✓ Mahoratni egallashga jon-dilidan intilish;
- ✓ Mehnatga mas'uliyat, o'z ishiga sodiqlik;
- ✓ Mustaqil ijodiy intilishiga qiziqish;
- ✓ Manmanlik, bamaylixotirlik kabi salbiy xarakterga berilmaslik;
- ✓ Xayrixohlik va ishda o'rtoqlarga yordam berishga hozirlik;
- ✓ O'quvchilar bilan samimiy munosabat o'rnatish;
- ✓ Zamonaviy o'quv vositalaridan (AKT) foydalana olish va hokazo.

Buning uchun hozirgi kun pedagogi o'zining ma'naviy-ma'rifiy savodxonligini muntazam oshirib borishi uchun quyidagi muhim vazifalarni ado etib borishi kerak bo'ladi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon, qaror va farmoyishlari, asar va ma'ruzalarini o'rganish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlarni o'rganib borish;
- ✓ televideniye dasturlarini kuzatib, kundalik yangiliklarni o'rganib borish;
- ✓ ta'lim muassasasi, boshqa ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy muassasalardagi ilg'or tajribalarni o'rganish, o'quv-uslubiy seminarlarda ishtirok etish;
- ✓ xalqimiz ma'naviyati mezonlarini o'rganib borish;
- ✓ o'z ustida muntazam ishlash, ta'lim-tarbiyaga oid asar va qo'llanmalar bilan tanishib borish;
- ✓ turli seminar va tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish;


✓ pedagogik o'quvlar va yig'ilishlarda qatnashish, shuningdek, o'qituvchi-murabbiy ta'lim-tarbiya ishlarining samarali usullaridan foydalanishi, yanada yangi qirralarini qidirib topishi, bu borada buyuk ma'rifatparvarlarning ulkan tajribalariga tayanishi lozim.

Shundan so'ng milliy mafkuramizga asoslangan mafkuraviy kompetenlilikka ega bo'lish orqali ta'lim tizimi o'qituvchi va murabbiylari:

- ✓ chuqur g'oyaviy bilim va kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'ladi;
- ✓ dunyoni mafkuraviy manzarasini tushunish va uni tahlil qilishda adashmaydi;
- ✓ hozirgi mafkuraviy murakkab davrda milliy mafkuramiz asosidagi pedagogik pozitsiyasiga ega bo'ladi;

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarni g'oyaviy bilimi va ma'naviyatini yanada yuksaltirish uchun yetarli darajada amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

O'qituvchi-pedagog, ta'lim-tarbiya ishiga mas'ul bo'lgan har qaysi shaxs hozirgi davrda o'zining vazifalarini to'liq anglagan holda ishlarini yo'lga qo'yishi yoshlarimizni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.



БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАЖРИБАСИДАН (“СУВДА ҲАМДА ҚУРУҚЛИҚДА ЯШОВЧИЛАР СИНФИ” МАВЗУСИ МИСОЛИДА)

*Хадиқохон Хошимова Толқуновна
Фаргона давлат университети ҳузуридаги ХТХҚТМОМ ўқитувчиси,
Навбахор Юсупжоновна Холматжоновна
Фаргона шаҳридаги 30-умумтаълим мактаби ўқитувчиси*

Ушбу мақола биология дарсларида ўқувчиларда компетенцияларни шакллантириш муаммоларига бағишланган бўлиб, унда “Сувда ҳамда қуруқликда яшовчилар синфи” мавзуси мисолида ўқувчиларда компетенцияларни шакллантириш йўллари баён қилинган.

Таянч тушунчалар: дарс, мавзу, компетенция, модул, ҳамкорлик, мустақил иш, дидактик, тест топшириқлари, билиш фаолияти.

Бугунги ўқув жараёнларини муқимлашиб қолган андазалардан ҳоли, ижодий ёндашувлар асосида дарс мавзусига қўшимча маълумотлар киритган ҳолда ташкил этиш таълим самарасига ижобий таъсир кўрсатади.

Дарс мавзусини ҳаётга боғлаган ҳолда, қизиқарли маълумотлар билан ўтказиш яхши натижа беради.

Масалан, 7-синф биология фанидаги «Сувда ҳамда қуруқликда яшовчилар синфи» мавзусини қуйидагича ташкил этиш мумкин.

Ўқитувчи дарсда ўрганиладиган ўқув материални қуйидаги мантикий тугалланган фикрли тўрт қисмга, яъни модулга ажратади:

1. Думсизлар туркумига кирувчиларнинг скелети, ички ва ташқи тузилиши.
2. Думлилар туркумига кирувчиларнинг скелети, ички ва ташқи тузилиши.
3. Сувда ҳам қуруқликда яшовчиларнинг кўпайиши ва ривожланиши.
4. Сувда ҳам қуруқликда яшовчиларнинг умумий таърифи, аҳамияти.


Ўқувчиларнинг модул дастури ёрдамида мустақил ишларини ташкил этиш. Ҳар бир модул якунида ўқувчилар жамоаси билан савол-жавоб, ўқув мунозарасини ўтказиш. Янги мавзу бўйича ўқувчиларнинг ўзлаштирган билимларини тест топшириқлари ёрдамида назорат қилиш ва баҳолаш.

Шу асосда қуйидаги модул дастури тузилади.

«Сувда ҳам қуруқда яшовчилар синфи» мавзуси бўйича икки ўқувчи ҳамкорликда ишлашига мўлжалланган модул дастури.

Модул дастурининг дидактик мақсади:

Ўқувчи шериги билан ҳамкорликда ишлаш асосида сувда ҳам қуруқда яшовчиларнинг, туркумлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, думсизлар, думлилар туркуми вакиллари, скелети, ички ва ташқи тузилиши, кўпайиши, ривожланиши ҳамда уларнинг аҳамияти билан яқиндан танишиб, дарслик устида мустақил ишлаш кўникмалари, нутқ ва мулоқот маданияти ривожлантирилади. Мазкур дарсларда ўқувчиларнинг билиш фаолияти модулларни кетма-кет ўзлаштиришларини назарда тутган ҳолда ташкил этилади.



Дарс бошланишида ўқувчиларга маънавий дақиқада эртақ ёки маталларни келтириш мумкин. Ушбу дарсга “Эшак ва бақа” эртагини айтиб бериш мумкин.

Устида ўтин ортилган эшак ботқоқдан ўтаётгани, тўйиб кетиб йиқилди. Эшак ўрнидан туришга ҳарчанд уринмасин –бўлмади: оҳ-воҳ килиб фарёд чека бошлади. Ботқоқда яшовчи бақалар унинг холини кўриб дедилар: “Биродар, ботқоққа эндигина йиқилганинг ҳолда шунчалар нола чекасан, бизга ўхшаб умринг шу ерда ўтганида нима қилардинг?!”

Алқисса, айрим кишилар кичкинагина қийинчилик олдида ҳам эсанкираб, руҳан чўкиб қоладилар, холбуки, бошқалар бундан ўн чандон оғир машаққатларни-да сабр-ла енгадилар.

Дарс жараёнида қуйидаги қизиқарли маълумотлар қўшимча адабиётлардан фойдаланган ҳолда ўқувчиларга етказилади:

- ✓ “Энг, энг, энг” маълумотли ўйини.
- ✓ Энг катта амфибия — Кавказ ҳудуддаги бақа.
- ✓ Энг катта бақа голиаф, ғарбий Африкада яшайди.
- ✓ Энг жажжи бақа Шимолий Америкада ўт –алаф бақаси.
- ✓ Энг ривожланган амфибиялар –думсиз амфибиялар.
- ✓ Энг йирик думли амфибия –улкан саламандра.
- ✓ Энг чиройли тритон – Кичик Осиё тритони.

“Жумлани давом эттиринг” методи. Бу методда ўқувчилар ўқитувчи томонидан келтирилган жумлаларни давом эттиришлари керак. Бу метод ўқувчилар дунёқарашини кенгайтиради, мустақил фикрлашга, тезкорликка ва ҳозиржавобликка ўргатади.

Бунда сувда ҳамда куруқликда яшовчилардан 1. Бақа. 2. Саламандра. 3. Тритон расмлари берилади. Уларнинг тартиб рақами келтирилган бўш жой ўқувчи томонидан тўлдирилади.

1. Кўл 1 _____ дунёда энг кўп тарқалган.
2. Думли амфибия 2 _____
3. Кичик Осиёда 3 _____ яшайди.

Дарсинг экологик тарбияси — бақа ва қурбақаларни табиатнинг фойдали жониворлари сифатида муносабатда бўлишга ўргатиш.

Ўқувчилар, унутмаслик керакки, энг қизиқувчан, дунёни англашнинг энг қизгин нуқтасидаги ёшдадирлар. Улар учун берилган ҳар қандай сабоқни шахсининг шаклланишидаги “улкан иморатнинг ғишти”га қиёсдир.

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING ADABIY NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Bahrinisa Abduvaxidovna Atayeva GulDU MOM katta o`qituvchisi

О`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o`rta ta`lim va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori asosida, ta`lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta`minlash, ta`limning zamonaviy

metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarni o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

O'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgarlar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi. O'quv dasturidan o'rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo'lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Buning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanga oid kompetensiya elementlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich ta'lim yakunida o'quvchilarda adabiy-nutqiy kompetensiya elementlarini A1 standart darajasi quyidagilarni shakllantirishni nazarda tutadi:

- ✓ ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;
 - ✓ ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;
 - ✓ yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;
 - ✓ matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o'qiy oladi;
 - ✓ bir daqiqada 50 — 55 so'zni o'qiy oladi;
 - ✓ monologik va dialogik nutqda o'z fikrini aniq ifodalay oladi;
 - ✓ o'rganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
 - ✓ maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
- kichik hajmdagi 8 — 10 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+ standart darajasida shakllantirish lozim bo'lgan adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- bir daqiqada 55 — 60 so'zni o'qiy oladi;
- asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
- kichik hajmdagi 10 — 12 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

Adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'quvchilarda fanni o'zlashtirishga oid dastlabki kompetensiyalar rivojlantiriladi. Ular asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ✓ tinglab tushunish, bunda o'qituvchi nutqi, tengdoshlari nutqi, multimediyada namoyish etilayotgan mavzuga oid nutq, ya'ni, audio va video nutqini eshitib tushuna olish jarayoni;
- ✓ fikrni og'zaki bayon qilish, bunda o'qigan, eshitgan, ko'rgan narsalari haqida og'zaki nutq asosida qayta hikoya qila olish kompetensiyasini rivojlantirish;
- ✓ o'qish, bunda o'qish me'yorlari va turlaridan unumli foydalangan holda o'qish sifatlarini mujassamlikda amalga oshirishni rivojlantirish;

Fikrni yozma bayon qilish bunda savollarga yozma javoblar yozish, bayon, insho va turli ko'rinishdagi ijodiy matnlar yarata olish kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Buning uchun o'qish darslarida qo'llanadigan an'anaviy va interfaol metodlar va dars shakllarini to'g'ri tanlash asosida darslarda qo'llanilgan fanlararo uzviylik o'quvchidagi ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga, ko'rgazmalilik asosida tashkil etish yo'llariga e'tibor, mustaqil, erkin fikrlashga, og'zaki va yozma nutqining mukammal bo'lishiga, mavzularning uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishiga zamin yaratadi.



MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINING ROLI

*Mavluda Kulaxmetova Pulatovna, Baxrinisa Atayeva Abduvaxidovna
GulDU MOM katta o'qituvchilari*

Muammoli ta'limning asosiy maqsadi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'limning metodi, prinsipi yoki alohida tizim sifatida hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta'limni qanday nomlashdan qat'iy nazar, uning asosiy xususiyati - bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir. Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga muammoli ta'lim deyiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushirish, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida o'quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma'lum natijalarni qo'lga kiritish, to'ldirish, boyitish, o'zgartirish, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lish talab etiladi. O'zlashtirish darajalari uchun bunday muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim tizimi jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta'limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi.

Muammoli ta'lim o'ziga xos maxsus tushunchalarga ega bo'lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg'ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo'lmaydi.

Muammoli ta'lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

Muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Bu jarayonni tashkil etishda o'qituvchining quyidagi kasbiy kompetensiyalari asosiy o'rin tutadi:

- ✓ Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- ✓ O'z ustida ishlash;
- ✓ Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- ✓ O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- ✓ AKTni bilishi;
- ✓ Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- ✓ O'z fanini mukammal bilishi;
- ✓ Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

- ✓ O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- ✓ O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- ✓ O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Muammoli ta'limning asosiy tushunchalariga izoh berishdan oldin, tayyor bilimlarning o'qituvchi tomonidan berilishi yoki o'quvchining mustaqil egallashining izohli-ko'rgazmali metodi natijasi sifatida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo'lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o'rinlidir.

Axborot shaklidagi savol: tayyor javobi bo'lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo'lib, «Nima?, Kim?, Qachon?, Qayerda?, Qanday?, Qancha?, Qaysi?» kabi so'roqlar asosida ularning javobi aniqlanadi.

Muammoli ta'limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha «problem» so'zidan olingan bo'lib, vazifa, topshiriq degan ma'noni anglatadi.

Tayyor javobi bo'lmagan, o'rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi. Shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, turmush muammolari, ta'lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o'ziga xos yechim yo'llariga ega. Ta'limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Bu operatsiyalar muammoli holatning xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi.

Muammoli savolda bajariladigan aqliy operatsiya muammoli vazifanikidan, muammoli topshiriqda bajariladiganlari muammoli vaziyatnikidan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Muammoli ta'limning keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol sanaladi. Muammoli savol axborot shaklidagi savoldan farqli o'laroq tafakkur qilish yo'li bilan izlangan noma'lumni topishni ta'minlaydigan so'roq bo'lib, alohida holda, muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo'lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi.

«Nima uchun, nima sababdan, buni qanday tushunsa bo'ladi, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin ...?» kabi so'roqlar muammoli savol paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog'liq holda qo'yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo'lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir.

Muammoli vazifaning mazmuni bilim oluvchiga aniq bo'lgan masalaning noanig'i bilan ziddiyatlashuvidan iboratdir. Noaniq topilishi zarur bo'lib, izlanishni, fikrlashni, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta'minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin. Muammoli topshiriq - o'qituvchi, ta'lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o'quv topshirig'idir.


Muammoli topshiriqda muammoli savol va vazifalarning elementlari mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli topshiriqning yechimini hal etishda uning qo'yilish sharti muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, muammoli savol, vazifalarning elementlari birgalikda muammoli topshiriqni tashkil etadi va muammoli topshiriq esa o'z navbatida muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat - subyektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga xalaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarni izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da'vat etadi.



KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH

*Jamila Jo'rayeva Mirzaobod tumani
29-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

O'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, ajdodlardan qolgan o'z ona tilini bilish, ulardan qolgan noyob durdonalarni o'qish, ulardan bahra olish har bir inson uchun bir sharafdir. Inson o'qish va yozishni bilmas ekan, bu tuyg'ulardan bebahra qolaveradi. O'quvchini kitob o'qishga o'rgatish, o'qiganlari asosida fikrlash va o'z fikri asosida yozdirish ham savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Darsliklardagi ilmiylikdan sal chekingan holatda mashqlarni sodda qilib berilishi, kichik matnlar bilan ishlanishi ham o'quvchini zerikishini oldini oladi. Qiziqish uyg'otgan holda matnlarni buzib qo'yish, uni tiklash vazifalarini berish, kichik matnlarni xayoliy tarzda ifodalash, so'zlab berish va so'zlagan nutqi asosida matn tuzdirish holati ham yozma nutqiy kompetensiyalarni o'sishiga olib keladi.

O'quvchilar kitob o'qimay qo'ymoqda deb nolish holatlarini tez-tez uchratib yurishimiz tabiiy holatga aylandi. Bizga ma'lumki, o'quvchini majburlab hech narsaga erishib bo'lmaydi, ayniqsa, bugungi kun ta'limida. Chunki bir tomondan demokratik jamiyatning talablari bunga yo'l qo'ymasa, ikkinchi tomondan bugungi o'quvchining dunyoqarashi ancha teran, ularni majburlab o'qitishning iloji yo'q.

Adabiyot darslarida o'quvchilar ko'proq fikrlashga erishadilar. Demak, jarayonni o'qish orqali boshlashlari lozim. Asarlarni o'qib chiqish, ular haqida fikrlar yuritish insonga ma'naviy zavq berish bilan bir qatorda, fikrlash qobiliyatini ham teranlashtiradi. Biroq bugungi kun ta'limida mustaqil holatda kitoblar o'qiydigan o'quvchilar ancha oz, shularni hisobga olgan holatda kitob o'qiydigan o'quvchi tayyorlash, o'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirish, o'qilgan kitoblar haqidagi mulohazalarni so'rab olish va mulohazalar asosida yozma savodxonlikni shakllantirish anchagina dolzarb masala bo'lib qoldi.

Adabiyotlarda berilishicha, uyga vazifani qanday tartibda berilishi bola vazifani bajarishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Vazifalarning ko'pligi yoki ozligi muhim emas, balki berilishi muhimdir.

O'quvchiga berilayotgan vazifalarni albatta nazoratga olib turish lozimki, to ota – onalardan tortib, fan o'qituvchisigacha bundan xabardor bo'lsin.

Agar har bir ota-ona o'z farzandi o'qishi uchun jon kuydirib harakat qilsa, uning o'quv faoliyati haqida qiziqsa, maktablarga, kollejlarga lozim bo'lsa, oliygohlarga borib ularning nima ish bilan shug'ullanayotganliklarini ko'rib, ulardan xulosa chiqarib tursa, albatta, bola shaxsini komil inson sifatida kamol topishlari uchun qo'shgan dastlabki ishlari bo'lar edi. Afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandining o'qish joylariga borish bu yoqda tursin, hatto telefon qilib farzandining qanday muammolari va yutuqlari borligidan xabar ham olishmaydi. Bu bilan biz ota-onalarni yomonlashdan ancha yiroqmiz, biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir inson kamolotga yetishish davrida o'z ota-onalari mehri va e'tiboriga muhtoj bo'lishadi. Bu muhtojlik o'z vaqtida qondirilmasa, bo'la izdan chiqib ketishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, bola tarbiyasi faqat ta'lim muassasalarida emas yoki faqat ota-onalarning imkoniyatlaridan emas balki ular orasidagi yoki ular o'rtasidagi tinimsiz muloqotlar natijasida yuzaga keladi.

Hozirda shiddatli globallashib borayotgan dunyo texnologiyalar rivoji jarayonini boshidan kechirmoqda. Bularning bir ko'rinishi sifatida xorijdagi turli ma'naviy tahdidlar bugungi kun yoshlarimizning ongiga o'z ta'sirini ko'rsatmasligini hech kim kafolatlay olmaydi. Bu holatda davlatimizning oqilona siyosati tufayli yoshlar dunyoqarashiga olib kirilayotgan mafkuraviy immunitet tushunchasi bilan birga o'z ona tili tushunchasi bag'oyatda katta o'rin tutadi. Millatni yo'q qilish lozim bo'lsa, uning dinini va tilini yo'q qilish lozimligi haqidagi fikrlar bu xurujlarning bir ko'rinishidir. Shu sababli davlatimiz o'z milliy tili to'g'risida ko'pgina islohatlarni amalga oshirgani o'laroq bir qancha qarorlar qabul qildi. Tilning rivoji, uning barqarorligini, xalq ishonchini, uning kelajagini ta'minlaydi.

Tilning paydo bo'lishi xalqning shakllanishini ko'rsatgani bois, millat ham ravnaq topadi. Shu ma'noda e'tirof etish lozim bo'lgan narsa – ona tilimizga hurmat va muhabbatimiz jismu-jonimizga onamiz oq suti bilan birga kirgan, qalbimizga allaning so'zlari, ilk muallimimiz o'rgatgan alifbo timsolida singib, kattalaru ustozlardan eshitganlarimiz, darsli-gu kitoblardan o'qib, uqib olganlarimiz orqali ruhimizga, ongimizga jo bo'lganini hammamiz his qilmog'imiz darkor. Darhaqiqat, savod chiqarib, kitob o'qishimiz, boshqalar bilan muloqotga kirishib o'z xatti harakatlarimizni ongli bajarishimiz, turli axborot ma'lumotlarini bilib, dunyoqarashimizni boyitish, biror kasb egasi, mutaxassis sifatida hayotda o'z o'rnimizni topishimizda bosh omil vazifasini bajarmog'i lozim.

Davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, darsning tashkiliy qismida nima ish qilinadi, yangi mavzu bayonida qanday metodni qo'llash mumkin, mustahkamlash bosqichida qaysi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi, uy vazifasini qanday tartibda so'rasak yaxshi bo'ladi, baholash tizimini qanday yo'lga qo'yish mumkin, uyga vazifani qanday tartibda bersak, hamma o'quvchilar tayyorlab kelishadi kabi savollarga javob topish zarur. O'qituvchilar ma'lum bir metodni bilishsa ham uni qo'llashga qo'rqishadi. Samara berish yoki bermasligini sinab ko'rishmaydi.

Vazifani bajarishda asardan berilgan parcha yaxshilab o'qib chiqilgach, bola bu asar haqida o'ziga xos fikr yurita boshlaydi. Fikrlagan o'quvchini yozma savodxonligi ham yaxshi bo'lishi kutiladi.

Kuzatishlar natijasida aniq bo'lgani shuki, yozuvi yaxshi o'quvchining nutqiy qobiliyati sust bo'ladi. Nutqi ravon o'quvchining yozma savodxonligi past bo'ladi. Biroq xulosa o'rnida aytish mumkinki, kitob o'qigan bolani yozma nutqini o'stirish mumkin. Kitob o'qigan o'quvchida fikrlash qobiliyati mavjud bo'ladi, fikrlash qobiliyati mavjud o'quvchining esa yozma savodxonligi ham chiroyli bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlar olib borar ekan, nutqiy kompetensiyalarga amal qilishi lozim. Shundagina u yozma savodxonlikka erishishi mumkin.

- - - - -

YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA INDIVIDUAL ISHLASH KOMPETENSIYASI

*Majanova Gavhar Guliston tumani
70-IMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Bizga ma'lumki, o'quvchilarning yozma savodxonligi kun sayin pasayib bormoqda. Bugungi kun talabi bilan aytadigan bo'lsak, ularning qaysidir yo'llar bilan yozma savodxonligini ko'tarish muammosi haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu xususda olib borilayotgan ishlar natijasiga ko'ra o'quvchilarning axborot olish obektlari ortib ketganligini yaqqol sezish mumkin. Jumladan, bir vaqtlar o'quvchi faqat kitobdan yoki o'qituvchidan axborot olishar edi. Hozirda esa televideniya, radio, gazeta va jurnallar, kundalik hayotdagi manbalar, internet, telefon, turli xil kitoblar va fan o'qituvchilaridan axborotlarni olishadi. Ko'rinib turibdiki, jadallashib borayotgan davr o'quvchisi ma'lumot yoki axborotni olish yo'llari

ko'payib ketdi. Shunday bo'lsa-da ona tili fan o'qituvchilari oldida bitta masala ko'ndalang bo'lib turibdi, bu – o'quvchining yozma savodxonligi masalasi. O'qituvchi o'z ustida qanchalik ish olib bormasin, izlanmasin yozma nutqning o'sishiga biz kutganchalik erisholmayapti.

Ta'lim jarayonida dastlabki bosqich – maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblanadi. Garchi inson ongiga til ona suti orqali singsada, dunyo bilimlarini o'rganish va ularni hayotga tadbiq etish dastlabki o'rganishdayoq ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Bola o'z ona tilida biyron so'zlay olishi uning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Dastlabki qalam yoki ruchka ushlar jarayoni ham bu ta'lim muassasasida amalga oshadi. 7 yoshidan boshlab o'quvchi sifatida faoliyat olib boradigan bola ilk harflarni birin-ketin daftarga tushira boshlaydi. Bu uning hayotidagi yozma nutqning ilk ko'rinishi hisoblanib, uning yozma savodxonligiga o'z ta'sirini, albatta ko'rsatadi. Bu esa yuqorigi sinflarda mustahkamlanadi. Oliy ta'limda esa yanada jadallashadi. Qachonki o'quvchi ta'lim jarayonida dastlabki yozma nutqini to'g'ri boshlasa, keyingi faoliyatida ham uning shu ko'rinishini saqlab qoladi. Bunday jarayonning fundamenti boshlang'ich ta'limga borib taqalsada, ko'proq yozma nutqdan aziyat chekuvchi yuqori sinflarda dars berayotgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga tushmoqda. Lekin ta'lim olishning erta-kechi bo'lmasligi haqida xalqimizning ajib hikmatlari bor. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolaning yozma savodxonligi, keyinchalik ham shakllanishi mumkin. O'z ustida ishlagan o'quvchi buning ustidan chiqadi. Buning uchun ota-onalar va yuqori sinf ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ko'proq ishlashlari kerak. Binobarin, o'quvchilar yozma savodxonligining oshishida ota-onalarning ham o'rni bor. O'z farzandining kelajagini o'ylagan har qanday ota-ona farzandining yozma savodxonligiga albatta qiziqishadi. Fan o'qituvchisi esa unga yanada chiroyli ishlov berishi lozim. O'quvchi aslida xunuk yozadigan bo'lmaydi, e'tiborsizlik oqibatida ular o'z yozuvining xunuklashib yoki tushunarsiz bo'lib, hattoki, xatoliklar bilan yozish darajasiga borib qoladilar. Bu holatlarda o'quvchilarning yozma savodxonliklarini tuzatish mumkin. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashlariga to'g'ri keladi.

Odatda o'quvchi ikki yo'nalishda xatoliklar qiladi: birinchidan, xato yozadi, ikkinchidan, xunuk yozadi. Aytaylik, 8-sinf o'quvchisining yozuvi xunuk yoki xatolari ko'p. Bunda o'qituvchi yoki ota-onalar (aslida har ikkisi ham) o'quvchi bilan alohida shug'ullanishi lozim. Bunda bir necha bosqichli darslar lozim:

Dastlabki bosqich o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatolarni topish (u haqidagi bazani ishlab chiqish) va ularni bolaga tushuntirib berish (bunday xatolikni nima uchun, nima sababdan takrorlayotganligini bilish);

Ikkinchi bosqichda esa xatolarni bartaraf etish uchun ularning to'g'ri variantlarini takrorlatish va qayta yozdirish;

Uchinchi bosqichda alifbodagi harflarni qaytadan yozilishini o'rgatish (lozim bo'lsa birinchi sinflarning maxsus daftarlariga);

To'rtinchi bosqichda talaffuz me'yorlarini o'rgatish va u bilan takrorlash;

Bechinchi bosqichda imlo qoidalari bilan tanishtirish va uning me'yorlarini o'rgatish;

Oltinchi bosqichda imlo lug'atlari bilan ishlash va yozma savodxonligini o'quvchining o'ziga lug'at orqali tekshirirish;

Yettinchi bosqichda diktantlar va bayonlar (o'quvchining qobiliyatiga qarab insholar) olish. Bunda matnlarning imkon qadar kichik bo'lishi maqsadlidir.

Sakkizinchi bosqichda o'quvchiga biron mavzu yuzasidan matn tayyorlatish. Bu bosqich boshqalariga nisbatan og'irroq ish, lekin katta samara beradi. Chunki mustaqil ishlayotgan o'quvchi ham yozma, ham og'zaki nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda fikrlash qobiliyatini ham, asoslash va dalillash qobiliyatini ham o'stirib boradi.

O'quvchi bilan ishlash jarayonida o'quvchining qiynalishi uchun mashq bermaslik lozim. Boshqacha qilib aytganda o'quvchini qiynamaslik kerak. Mashqlar o'ta oson bo'lsin, toki o'quvchi uni oddiy ish deb hisoblasin. Yana bir sharti shundaki, birinchi bosqichni tugatmasdan ikkinchisiga o'tmaslik kerak. Bosqichlar orasini belgilamaslik, uni bajara olgandagina keyingisini bajarishga o'tilishi bola yozma savodxonligini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlikda erishilmagan savodxonlik ulg'aygach biroz qiyinlashadi, biroq individual shug'ullanish natijasida yaxshilashga erishish mumkin. Individual ishlash jarayoni faqatgina ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining kompetensiyasi emas, balki boshqa fan o'qituvchilari ham birgalikda ishlasa, natijasi samaraliroq bo'ladi. Yozma savodxonlikni oshirishda individual ishlash kompetensiyasi o'qituvchilarning o'zida mavjud bo'lishi lozim. Shundagina o'quvchilardan uni talab qilishimiz o'rinli hisoblanadi.

XATOLARSIZ YOZISH KASBIY KOMPITENSIYALARNING ASOSI

Gavhar Uralova Guliston shahar

16-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ma'rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: “Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qatmak millatning ruhini yo'qotmakdur” – degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi. Tilning qudrati xalqning kim ekanligini namoyish etib turadi. Agar til o'z vazifasini bajarmasa, millatning borligi bekor bo'ladi.

Tilimizning fan sifatida o'rganilishini olib qarajak, o'tgan yillar davomida o'zbek adabiy tili har tomonlama rivojlandi, uning barcha sohalarida, davr talabiga mos ravishda, jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonda yuz bergan o'zgarishlarni yoritish talabi bilan o'zbek tilshunosligi fani ham doimo rivojlanishda bo'ldi. O'zbek tilshunosligining barcha sohaları bo'yicha yaratilgan ilmiy, nazariy ishlar, ayniqsa, o'zbek tilining shu davr maboynidagi rivojlanishi hamda bu rivojlanishda amal qilgan qonuniyatlarni yoritishga bag'ishlangan ishlarning o'ziyoq fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu ishlar o'zbek tilining amaliyoti bilan bog'liq vazifalarni, masalalarni kun tartibiga qo'yish va ularni hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi, ijobiy samaralarini berdi. Ayniqsa Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng milliy tilimizni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarga alohida e'tibor qaratildi hamda buning chora-tadbirlari belgilandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan “Davlat tili haqida”gi qonun moddalarida o'zbek tilini har taraflama rivojlantirishning asoslari chora-tadbirlari belgilab berildi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol topdirish, o'sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirishda milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor tuyg'usini tarkib topdirishda ona tilining o'rnini yana bir bor ta'kidlash shartdir. Darhaqiqat, til millat borlig'i va birligi uning boqiyiligini ta'min etadigan, xalq tafakkur tarzining tamalida, qavmning qalbi-qo'rida turadigan, qiyosiy qudratni sog'lom saqlaydigan milliy ma'naviyat, milliy o'zlik degan teran tushunchalarning tirikligiga tirkak bo'ladigan benazir, beqiyos boylikdir.

Amerikalik sotsiologlarning aniqlashicha, qacda millatning o'z ildizlaridan qo'porilishi ko'proq bo'y cho'zsa, qacda ona tili qo'llanish doirasining torayishi kuzatilsa, o'sha mintaqada jinoyatchilik avjiga chiqadi, chunki o'sha joylarda ma'naviyat dunyosi halokatli darajada torayadi, qashshoqlashadi, hatto ma'naviy majruhlik va tanazzul yuzaga keladi”.

Hozirda shiddatli globallashib borayotgan dunyo texnologiyalar rivoji jarayonini boshidan kechirmoqda. Bularning bir ko'rinishi sifatida xorijdagi turli ma'naviy tahdidlar bugungi kun yoshlarimizning ongiga o'z ta'sirini ko'rsatmasligini hech kim kafolatlay olmaydi. Bu holatda davlatimizning oqilona siyosati tufayli yoshlar dunyoqarashiga olib kirilayotgan mafkuraviy immunitet tushunchasi bilan birga o'z ona tili tushunchasi bag'oyatda katta o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiya, muloqot kompetensiyalarining shakllanishi muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Millatni yo'q qilish lozim bo'lsa, uning dinini va tilini yo'q qilish lozimligi haqidagi fikrlar bu hurujlarning bir ko'rinishidir. Shu sababli davlatimiz o'z milliy tili to'g'risida ko'pgina islohatlarni amalga oshirgani o'laroq bir qancha qarorlar qabul qildi. Tilning rivoji, uning barqarorligini, xalq ishonchini, uning kelajagini ta'minladi.

1995-yil 24-avgustda qabul qilingan “Imlo qoidalari to'g'risida”gi qonunimiz amalda bo'lsa-da, ko'cha - ko'yidagi (garchand tanqidiy qarash bo'lsa-da) afisha va peshlavhalardagi xatoliklar odamni o'ygatoldiradi, xayolni chalg'itadi. Davlatimiz tilimizga e'tibor berib qarasa-yu, biz unga mensimasdan, xatoliklariga ko'z yumib ketsak, to'g'ri bo'larmikin? Shu o'rinda “Kimning miyasida illat bo'lsa – so'zida mantiq bo'lmaydi” degan naql esga tushadi. Shuning uchun avvalo, o'zimiz so'zlashish va nutq odobiga rioya qilish orqali ona tilimizni qadrlashga, adabiy tilimizning me'yorlarini buzmasdan to'g'ri so'zlash hamda yozishga odatlanishimiz kerak.

Ayniqsa, yosh avlodning yozma nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ta'lim muassasalarida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o'tilgach, husnixat va imlo savodxonligiga etarli e'tibor berilmayapti. Bo'lg'usi mutaxassislarning nutqiy savodxonligini, nutq madaniyatini yuqori darajaga ko'tarmasak, uning kasbiy layoqati “kemtik” bo'lib qoladi. Chunki yozuv kishini o'z so'zlari, fikrlari ustida yana bir necha bor o'ylashga, mulohaza-muhokama qilishga, xato va noo'rin jummalarni tuzishga va to'ldirishga yana bir imkon beradi.

Yoshlarimizni inson tafakkurining kaliti bo'lgan ona tili imkoniyatlari xazinasiga olib kirish, bu boyliklardan foydalanish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish har birimizning burchimizdir.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, nafaqat mamlakatimizda, hattoki xorijiy mamlakatlarda adabiyot va san'at yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar turkiy

tillarning boyligi va xususiyatlari, jumladan, o'zbek tilining jahon tillari orasida eng go'zali va nafis til ekanligi, tarixiyligi bilan ajralib turishi haqida ko'p yozganlar. Turli anjumanlarda ona tilimizning boy til ekanligi haqida oqilona, xolisona fikrlar bildirilgan.

Maqtanish joiz bo'lsa, hatto Hazrat Navoiyning o'zi bugungi kunga qadar ijod qilgan adibu shoirlardan ko'ra 4842 ta ortiq so'z ishlatgan. (A.Navoiy o'z asarlarida 26035 ta so'z, A.Pushkin 21193 ta so'z, U.Shekspir 20000 ta so'z, M.Servantes 18000 ta so'z, A.Jomiy 17600 ta so'z, A.To'qay 14000 so'z ishlatgan) O'zbek tili turkiy til sifatida IV asrdan boshlab ishlatilayotgan bo'lsa, uning rivojlanish tarixi ham 17 asrdan buyon davom etib kelmoqda. Bu esa tilimizning naqadar qadimiy ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda tilimizdagi so'zlar miqdori 110000 ga yaqinlashib qoldi. Bu esa tilimizning boy ekanligini ko'rsatadi.

Ishonchimiz komilki, xatolarsiz yozish kasbiy kompetensiyaning asosi sifatida tan olsak, o'zbek tili va madaniyati jahon tsivilizatsiyasida yanada ravnaq topib, uning purma'noliligi, jozibadorligi, talaffuzi, ohangi, musiqaday jarangdorligi bilan jahon ahlini o'ziga rom qila oladigan xalqaro til darajasiga ko'tariladi va dunyo xalqlari bu tilni sevib o'rganib, samimiy hurmat qiladilar. Nasib bo'lsa, tez orada tilimizning tarovati dillarimizga abadiy hushnudlik bag'ishlaydi.



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI KOMPITENTLIGI

Mavjuda Abrarova Guliston shahar 4-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'lim sifati faqatgina nazariy jihatlarni hisobga olish oqrali amalga oshiriladigan jarayon emas. XXI asr – texnologiyalar asri. Shu boisdan pedagogik faoliyatda texnologiyalarni qo'llash, ulardan samarali foydalanish o'z-o'zidan davr talabiga aylanmoqda. O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun har bir dars rejasini puxta ishlab chiqish kerak. Davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, darsning tashkiliy qismida nima ish qilinadi, yangi mavzu bayonida qanday metodni qo'llash mumkin, mustahkamlash bosqichida qaysi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi, uy vazifasini qanday tartibda so'rasak yaxshi bo'ladi, baholash tizimini qanday yo'lga qo'yish mumkin, uyga vazifani qanday tartibda bersak, hamma o'quvchilar tayyorlab kelishadi, kabi savollarga javob topish zarur. O'qituvchilar ma'lum bir metodni bilishsa ham uni qo'llashga qo'rqishadi. Samara berish yoki bermasligini sinab ko'rishmaydi. Biz hozir bu metod bunday ishlatiladi, bunisi boshqacha ishlatiladi deyishimiz noto'g'ri, albatta. Ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan (professor R.J.Ishmuhammedovning fikricha)785 ta metod va texnologiyalar mavjud bo'lsa, ularning ishlatilishi, kelib chiqishi va ma'no mazmuni haqida ma'lumotlar yetarli. Shuning uchun metodlar yoki texnologiyalar haqida emas, balki ularni dars jarayonida qanday qo'llash mumkinligi haqida fikr bildirmoqchimiz.

FSMU texnologiyasining qisqacha mazmuni:

- 1-fikrlar;
- 2-fikrning sababi;
- 3- misollar;

4-umumlashtirishdan iborat bo'lib dars jarayonlariga tatbiq etilmoqda. Kuzatishlar natijasida aniqlangan ma'lumotlar ko'rsatadiki, FSMU texnologiyasini ishlatishda muammolar kelib chiqmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu texnologiyaning ishlatilish shaklini bilishadi, biroq ishlatishmaydi yoki samaraga erisholmaydi. Biz quyida bu texnologiyaning qanday qilib ishlatish to'g'ri va samarali bo'lishi haqida to'xtalamiz. Darsning mustahkamlash bosqichida juda qo'l keluvchi(hatto baholash bosqichida ham) bu texnologiyani adabiyot, ona tili, fizika, biologiya va tarix darslarida ishlatish qiziqarli tus oladi. Texnologiyani ishlatilishida quyidagi jadval yordam beradi:

Texnologiya nomi	Ballar
Fikr	1,1,1,1,1,1,1,1...
Sabab	1,1,1,1,1...
Misol	1,1,1,1,1,1,1,1,1,1,1,1...
Umumlashtirish	5
Jami ballar	31

Ma'lum bir dars mavzusi tanlab olingach, aytaylik,


Adabiyot fanidan “Abdulla Oripov hayoti va ijodi”. Darsda adib ijodi yoki hayoti haqida dastlab fikrlar aytiladi. Agar guruhlariga bo’lingan bo’lishsa, har bir guruh aytgan ma’lumot bir ballidan baholanadi. Baholash tizimiga kelsak, qaysi guruh yuqori ball olsa, o’sha guruh a’zolariga yuqori ball qo’yiladi. Ona tili fanidan: “Ot” mavzusi o’tilayotgan bo’lsa, dastlab ot haqida ma’lumotlar (fikrlar) aytilib ballar to’planadi. Ikkinchi bosqichda esa aytilgan fikrlarga sabablar keltiriladi. Keyin esa misollar keltiriladi va oxirgi to’rtinchi bosqichda barcha to’plangan ma’lumotlar umumlashtiriladi. So’ngra barcha to’plangan ballar umumlashtirilib baholanadi. Fizika fanidan: “Butun olam tortishish qonuni” mavzusini ham xuddi shunday fikrlar to’plab, to’plangan fikrlarning sabablari topilib, misollar keltirib, oxirida umumlashtiriladi. Biologiya fanidan: “Ildiz va uning tuzilishi” mavzusi o’tilayotgan bo’lsa, birinchi bosqichda ildiz haqidagi fikrlar keltiriladi. Ikkinchi bosqichda esa keltirilgan fikrlarga sabablar topiladi. Uchinchi bosqichda misollar keltiriladi va to’rtinchi bosqichda umumlashtirib beriladi. Umumlashtirishni 5 ballik baho bilan baholanilishi tavsiya etiladi.

Tarix fanidan: “Xonliklarning parchalanishi” mavzusi o’tilayotgan bo’lsa, dastlab fikrlar keltiriladi:

Xonliklar o’ziga juda ishonishar edi.
Ular ma’naviy qashshoq edilar.
O’zboshimchalik avj olgan edi.
Ichki ziddiyot tobora ortib borar edi.
Kichik yurishlar ko’p bo’lar edi.
Hamkorlik juda sust edi
Keltirilgan fikrlarga sabablar aytilishi lozim. Masalan:
Har birining o’z armiyasi bordi.
Ta’lim tarbiyaga e’tibor qaratilmagan edi.
Hududlardagi hokimlar bir-birlarini hurmat qilishmasdi.
Xalq g’alayonlari tez-tez bo’lib turar edi.
Xonliklar o’rtasida yer uchun kurashlar ko’p bo’lardi, shu sababli Xonlik tobora zaiflashib borardi.

O’z manfaatini o’ylab hamkorliklar yo’lga qo’yilmagan edi.
Misollar topiladi:
Buxoro amirligi Qo’qon xonligiga muntazam hujum qilib turar edi.
Tashqaridan kirib kelayotgan yovga imkoniyatlar bor edi.
Birinchi xonlik bosib olingach, o’zlariga xulosa chiqarib olishlari lozim edi.
Ma’naviyatni boyitish yo’llarini izlashlari kerak edi.
Umumlashtirib beriladi: Xonliklarning bunday nooqilona harakatlarini zimdan kuzatib yurgan Chor Rossiyasi hech qiyinchiliklarsiz O’rta Osiyoni zabt etib oldi.

Quyidagi fikrlardan kelib chiqib baholanadi.
Yuqoridagilardan xulosa shuki, ta’lim sifatini oshirishda o’qituvchi kompetentligini yuqori bo’lishi lozim. FSMU texnologiyasini qo’llash ta’lim samaradorligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Hamma o’quvchilarni faollashtirishimiz oson kechadi, ular fikrlarini tartib bilan aytish ko’nikmalariga ega bo’lishadi, baholanish imkoniyati ko’payadi hamda erkin fikrlash, fikrlarini erkin bayon eta olish xususiyatini shakllantiradi, o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishlari ortadi.



TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Mohidil Begmurodova Guliston shahar 16-maktabning ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan kompetensiyalarni shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar tarixi unchalik olis masofani tashkil etmasa-da, pedagogika sohasi falsafaning tarkibida bo’lgan davrlardan tortib to bugungacha bo’lgan vaqt oralig’ida muntazam mukammallashib, to’ldirilib, o’ziga xoslanib kelindi. O’tmishdagi vaqtlar oralig’ida ro’y bergan turli o’zgarishlar va davrlarning ta’sirida bu soha yanada rivojlandi. Bir vaqtlar quldorlar uchun xizmat qilgan pedagogika davlar osha jamiyat a’zolariga ta’lim va tarbiya berish uchun yo’naltirildi. Qaysi davrni olmaylik, ilm fanni rivojlantirishga o’z hissasini qo’shish uchun xizmat qilgan bu soha bugun har doimgidan yuqoriroq mavqega ega bo’lib qoldi.

Binobarin, har bir millat o'zini va o'zligini ko'rsatish uchun ilm-fanga bo'lgan munosabatini ko'rsatishga harakat qiladi.

Ta'lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuv dolzarb muammoga aylandi. O'qituvchi shaxsi bu ildam davr muhitini hisobga olgan holda o'z ustida olib boradigan izlanishlarini o'quvchi yoshlarga yetkazib berishi lozim. Bunda hayotiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Izlanishlardan to'plangan ma'lumotlar bazasini amaliyotga tatbiq qilish ham ta'lim va tarbiya samaradorligini kafolatlaydi. O'qituvchi, avvalambor, o'qitishni o'rgatmog'i, uning o'qitish texnikasining boyligi, qiziqira olish mahorati bilan bir qatorda, so'zlash san'ati, notiqlik madaniyati, ta'sir eta olish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi maqsadlidir. Uning bu mahorati tufayli o'quvchi yoshlar kitob o'qish texnikasini egallashlari ko'zda tutilgan. Kitob o'qish va o'qitishni yaxshi bilgan ustoz o'quvchilarga yoqimlidir. Yoqimli inson bilan esa suhbatlashing keladi, bahs munozara yuritging keladi. Suhbatdoshning yoqimli bo'lishi uchun ham u istagan narsada suhbat qurish, yoki aksincha, uning yoqimli suhbatini siz izlayotgan ma'lumotga burish maqsadga muvofiq. O'qituvchilar ana shunday kasb egalari, ular oldin o'zlariga o'quvchilarni o'rgatishadi, keyin suhbatiga chorlaydi. Natijada esa bolada yaxshi suhbatdosh yoki yaxshi o'qituvchi fazilatini uyg'otadi. Bu esa bilim berishda ancha qo'l keladi.

Kitob o'qishni va suhbatlashishni egallagan o'quvchida esa yozishga bo'lgan ehtiyoj ko'payadi. Bunda o'quvchining dastlabki holati, kerakli ma'lumotlarni yozib olish bilan belgilanadi. Kerakli ma'lumotlarni qoralab borish asnosida konspektlashtirish ko'nikmasi shakllanib boradi. O'quvchilarning yozma savodxonligi ularni sabr-qanoatli qilib tarbiyalaydi. Yuqorida keltirilgan Suqrotning fikrlarini tasdiqlagan holda aytish mumkinki, bu fikrni o'qituvchiga nisbatan ham, umuman olganda, insoniyatga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Ta'lim jarayonida sifatga erishishning turli yo'llari hali ham izlanmoqda. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar va turli xil metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi. Biroq kompyuter vositalaridan foydalanish ham ancha natijali hisoblanadi. Ammo shunisini ham hisobga olish kerakki, texnologiya va metodlarni ishlatish san'ati va qo'llash darajasi ham yuqori bo'lishi lozim. Aksariyat hollarda ko'rinib turgan natijalarda sustkashlik bo'lmoqda.

O'qituvchi yutuqqa erishishi uchun ko'plab turli metodlarni qo'llashi emas, balki shu metod orqali o'quv jarayoniga yangilik olib kirishi va shu yangiliklar bilan o'quvchilarni "qurollantirish" lozim.

O'z ustida ishlashi lozim bo'lgan o'qituvchi o'qishdan to'xtab qolishi mumkin, lekin ta'lim-tarbiya jarayonini tashlab ketmaydi. Bu esa o'quvchi yoshlarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi. Qani endi, o'z ustida ishlamaydigan o'qituvchilarni bu tizimdan chetlashtirib, o'rniga ilmga chanqoq, izlanuvchan o'qituvchilarni qabul qilsak. Bunda dars jarayonlarini noanaviy tarzda tashkil etib, quyidagi namunalarni qo'llashni tavsiya etamiz:

O'qitish texnologiyalarida amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllari namunalari:

«Aylana bo'ylab mashq» darsi-o'quvchilarning ishtiroki asosida navbatma-navbat yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovatsiyalar darsi-o'quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyihalar bilan tanishtirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi – qiziqarli savollar va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi-o'quvchilarning bir nechta guruhlariga bo'linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O'zaro o'qitish darsi-o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim bandlari yoki shunga o'xshash kichik bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.


O'quvchilar olib boradigan dars - dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Tanlov darsi - sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

Binary ma'ruza dars – o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlashi darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

Dialog darsi-o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvda o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan noan'anaviy darslar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi kompetentligini oshiradi. O'quvchilar qiziqishini uyg'otadi, yangicha fikrlashni shakllantiradi. Darslar juda qiziqarli bo'ladi, kutilgan natijalarni kafolatlaydi.



O'QUVCHILAR KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLAR

Gulnora Xolmuhammedova

Boyovut tumani 2-XTIMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'quvchilar kompetensiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib ulgurdi. Ishlab chiqarishning bir bo'lagi bo'lmish ta'lim sohasi ham bugungi kundagi o'ziga xos yondoshuvlarni talab etayotgan turli texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanmoqda. Bu fikrlar nechog'lik to'g'ri ekanligi ta'lim samarasining oshib borayotganligida sezilmoqda. Biroq hamma vaqt ham bunday holatga guvoh bo'layotganimiz yo'q. Ta'lim sohasidagi har bir hodim o'z ustida ish olib borar ekan davlat qo'yayotgan talablarni bajarishga majburdir. Binobarin, ta'lim tizimida har xillik o'z natijasini bermaydi. O'ziga ishongan ta'lim xodimi turli metodlarni mohirona qo'llab shunday darslarni qoyilmaqom qilib o'tib qo'yayotganligi ham aslida bor gap. Bu holatdan bitta haqiqatni ochish mumkinki, har qanday pedagog ham dars o'tishi mumkin, biroq darsda metodikani qoyilmaqom qilib ifoda etishi amrimahol. Darhaqiqat, bugungi ta'lim ana shunday bilimli, ijodkor, mehribon va samimiy ustozlarni "o'z davrasi"ga chorlamoqda. Ta'lim tizimiga oid hujjatlarda aks ettirilayotgan turli tavsiyalar va usullar deyarli har kuni qulog'imizga chalinib turadi. Shunday ekan nomlari juda tanish bo'lib ketgan turli metodlarning bugungi kundagi ahamiyati va roli qay ahvolda ekanligi hammani e'tiborida. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, har bir metodni o'z roli va funksiyasi bor, biroq bulardan har birimiz qay darajada foydalanmoqdamiz? Ularni asl madsadida ishlatayapmizmi, aniqroq qilib aytganda ularni qoidasi bo'yicha bosqichma-bosqich ishlay olayapmizmi? Yoki har bir o'qituvchi o'z imkoniyat darajasida ishlatayapdimi?

Har bir metod nimaga qaratilganligini bilib olish va uni shu yo'nalishdagina ishlatish o'quvchilarda kompetentlikni yuzaga keltiradi. O'qituvchi dars jarayonida o'z metodini tanlab oladi va shu usulda darsni qiziqroq o'tilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining ham yangilikka juda intiluvchanligi ta'lim samaradorligini oshirish borasida yaqqol sezilmoqda.

Bugungi kun pedagogikasi pedagoglarning malakasidan, mahoratidan tashqari ta'lim oluvchilarning talablarini ham hisobga oladi. Demak, kecha biz uchun qiziq tuyulgan yangi metod bugun o'z samarasini bermasligi mumkin. Darhaqiqat, bizning o'zimiz ham yangiliklarga doim ehtiyoj sezganmiz.

"Idrok xaritasi", "Charxpalak", "Umumiy nuqta", "SWOT", "FSMU" kabi texnologiyalarni har qanday darslarda qo'llash, ularni samarali tashkil etish yo'llarini yaxshi bilish, qoyilmaqom tarzda o'quvchiga yetkazib berish va har bir pedagog uchun kerakli bo'lgan ijodkorlik uning saviyasini belgilaydi, qolaversa, o'quvchilarda shu yo'nalish bo'yicha turli kompetensiyalarni vujudga keltiradi. Bugun pedagog men nimaga qodirman? Men bolaga nimalarni o'rgata olaman? Mening mehnatimni kim va nima uchun qadrlashadi? Kabi savolarni berib turishligi ham foydadan holi ish emas. Darhaqiqat, inson oldinga qarab intiladi.

Darslarning kirish va asosiy qismlarida quyidagi interfaol metodik mashqlarni ishlatish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Raqamli poyezd mashqi. Bu mashqni odatda mustahkamlash darslarida o'tkazish mumkin. Poyezd rasmi chizib qo'yiladi. Har bir vagon raqamlab chiqiladi. Har bir raqam ostidagi vagonda terli miqdordagi harflar yashiringan bo'ladi. O'quvchi (ishtirokchi) chiqib bironta vagonni tanlaydi. Vagon ichidagi harflar o'quvchiga taqdim etiladi. Taqdim etilgan harflardan zudlik bilan so'zlar hosil qilishadi. Hosil qilingan so'zlarni mavziga aloqadorligini izohlab berishi lozim. Mashqning davomi sifatida topilgan so'zlar yuzasidan xotira mashqini ham o'tkazish mumkin. Masalan, topilgan so'zlar qaysilar ekanligini so'rab, kim ko'p so'z eslab qolganligini so'ralsa ham bo'ladi. Bu usul bilan xotirani ham mustahkamlash mumkin.


Hosil bo'lgan so'zlardan gaplar ham tuzish mumkin. Tuzilgan gaplarni tahlil qilish lozim. Tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning bilimlarini takrorlash orqali oshirishga erishiladi. Vazifani to'g'ri bajarga o'quvchilar baholanadi.

Tasavvurimdagi rasm mashqi. Asosan, tasavvur qila olish qobiliyatini tekshirishga qaratilgan bu mashq rasm chizish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday yoshdagi bolalarga(hatto kattalarga) mo'ljallangan bu usul ularni tasavvurlarini tekshiradilar. Tasavvur qilish natijasida hosil bo'lgan bilimlarini mashq so'ngida so'zlab berishlari kerak. Bunda esa nutqiy qobiliyatlari baholanadi. Maqsad tasavvurni kengaytirish va nutqini o'stirishdan iborat.

Mashqni quyidagicha amalga oshirish mumkin: Dastlab turli so'zlar yozilgan kartochkalardan tayyorlanadi. Keyin o'quvchilardan biri shartni bajarish uchun chiqadi. O'sha o'quvchi so'zlar yozilgan kartochkalardan birini tanlaydi. Tanlangan so'zning rasmini chizib ko'rsatishi kerak. O'quvchilar qaysi so'z yashiringanligini topishadi. So'zlar qiyinlik darajasiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin: Do'stlik, tutun, sim, rasm, og'riq, bilim, kitob, sharf, osmon, tabiat...

Kim oshdi savdosi mashqi. Odatda har bir mashqning tagida manfaat yotadi. Yoki o'qituvchi, yoki o'quvchi, yoki har ikkalasining ham manfaati. Bu metodik mashq hammaning manfaati uchun xizmat qiladi. Iqtisodiyot fani bilan bog'liq bu metodik mashq darsni qiziqarli tashkil etish uchun asos bo'lsa ajabmas. Mashqni o'tkazish har qanday yoshdagi o'quvchilarga mos tushadi. Bu usulni bosh maqsadi o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat. Kim oshdi savdosini hamma ko'rgan. Faqat buni fanda quyidagicha qo'llash kerak: Dastlab kim oshdi savdosiga qoyiladigan yutuq aytiladi(kitib, daftar, ruchka, qalam, baho...). So'ngra savdoga qo'yiladigan fan yoki mavzu tanlanadi. Masalan: sintaksis yoki ot. Kim ot haqida ma'lumotlar aytadi deb so'raladi. Biron o'quvchi ot haqida 5 ta ma'lumot aytishi mumkin, kimdir 7 ta, kimdir 15 ta kim ko'p ma'lumot aytsa, g'olibga qo'yilgan yutuq taqdim qilinadi. Ma'lumotlar aytish kim oshdi savdosiga qo'yiladi. Kim ko'p ma'lumot ayta olishini oshib borish tartibida oshirib borishi mumkin. Eng ko'p ma'lumot aytmoqchi bo'lgan o'quvchi ayta olmasa, undan avvalgisi g'olin hisoblanadi va u aytadi. Metodik mashq shu tartibda amalga oshiriladi. Asosan yutuqlar baho tarzida ham bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol usullarni qo'llash ularda ijodiy tafakkurni shakllantiradi, dunyoqarashini o'zgartiradi. O'qituvchining dars samaradorligi ortadi.



O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

N.N. Tashtemirova – GulDU MOM katta o'qituvchi,

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritib olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

O'qituvchining kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar

to'plami». A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani etarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.


Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

O'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi;

Har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulot o'yin, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollari hisobga olish;

Pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish;

O'z ish o'rnini tashkil etish, zarur qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash, ularni berilgan talablar asosida yuritish.



АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА ПЕДАГОГ-КАДРЛАР КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

О.У.Авлаев – ТошДУ “Ўзбек тили, педагогика ва психология” кафедраси доценти

Акмеологик нуқтаи назардан инновацион салоҳият инновацияларнинг пайдо бўлиш жараёнининг тезлиги, натижавийлиги, ўзига хослигини, бундан ташқари янгиликни яратиш, идрок этиш, амалиётга татбиқ этиш қобилиятини ҳамда мазкур жараёни амалга ошишини таъминловчи психологик механизм – рефлексияни тавсифлаш учун таянч тушунча вазифасини бажаради. Н.Г.Алексеев ва И.Н.Семеновлар амалий фаолиятни таҳлил этиш асосида қўшқатламли (биринчи қатлам – фаолият, иккинчиси эса, метеокатлам – унинг рефлексив ташкилланиши) амалий-йўналтирилган билимлар тушунчасини қўллашни таклиф этишди.

И.О.Сорокинанинг фикрича, касбий ижодкорликнинг ривожланиши хилма-хил қобилиятларнинг акс этиши билан боғлиқдир. Акмеологик қобилиятлар – ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини ривожлантириш, ўз-ўзини намоён этиш қабилар инсон ҳаётининг фаолияти жараёнида муҳим аҳамият касб этади, бироқ уларнинг айнан жадал ривожланиши аутопсихологик компетентликнинг ривожланиши натижасида содир бўлади.

Шахсий аутопсихологик қобилиятларга қуйидагилар кирди:

- 1) умумий – ўз-ўзига муносабат, ўз-ўзини бошқаришга қодирлик;
- 2) билишга доир – ривожланиш психологияси ва фақат инсонгагина хос юқори онг даражаси сифатидаги интеллект;
- 3) когнитив – ижодий фаолиятнинг акмеологик мазмунида когнитивлик ўз-ўзини англаш ва касбий фаолиятнинг ўзаро ҳаракатида акс этади;
- 4) креатив – ижодий вазифаларни ностандарт ҳал этиш йўллариини излаб топиш, янги тимсолларни тасаввур қилиш ва яратиш; ижтимоий-перцептив – ижтимоий-перцептивлик акмеологик мазмунда ўз-ўзини баҳолашнинг шахслараро ўзаро ҳаракатида акс этади; эмпатияга доир – эмоционал таъсирга берилувчанлик; эмоционал таъсирларга мослашувчанлик.

Моделнинг мотивацион-қадриятли таркибий қисми мотивацион ва қадриятли қисмлардан ташкил топган. Мотивацион таркибий қисм ўзида қуйидаги жиҳатларни акс эттиради:

- билишга доир ва касбий мотивацияни ўзаро уйғунлаштиришдаги барқарор ички эҳтиёжнинг мавжудлиги;
- маҳсулдор фаолиятга интилиш;
- инновацион жараёнларга фаол иштирок этиш иштиёқи;
- ўз-ўзини намоён этиш эҳтиёжи.

Акмеологик ёндашув асосида педагог-кадрлар компетентлик ривожланишининг таркибий қисмлари



Педагог-кадрларда компетентликни ривожлантиришнинг муҳим омили – касбий қизиқишдир. Касбий қизиқиш ўзида фаолиятнинг аниқ белгиланган соҳаси мазмунига қизиқишни ифода этади. Мазкур жараёнда билишга қизиқиш фаолиятнинг мавжуд шакл ва усулларини эгаллашни рағбатлайди. Шунинг таъкидлаб ўтиш жоизки, у ёки бу ижодий фаолиятга қизиқиш унга нисбатан лаёқатнинг ҳосил бўлиши билан боғлиқ.

Компетентликни ривожлантиришнинг қадриятли таркибий қисми ишга ижобий ижодий муносабатни ўз ичига қамраб олади. Қадриятли таркибий қисмнинг тузилишида педагогик инновацияларга доимий ва юзаки бўлмаган қизиқишнинг мавжуд бўлиши лозим.

Моделнинг когнитив таркибий қисми педагог-кадрнинг янги касбий билимлари ҳамда касб соҳасига доир ахборотлар билан мунтазам танишиб бориш даражаси ва сифатини асос қилиб олган. Когнитив таркибий қисмнинг ривожланиши педагог-кадрнинг илмий салоҳиятини ривожлантириш доирасида касбий компетентликни таркиб топтириш тизимини таъминлайди.

Бундан ташқари когнитив таркибий қисм ўта масъулиятли ишга эътиборли, масъулиятли муносабатда бўлиш, доимий тайёрликни ҳам камраб олади. Когнитив таркибий қисм шунингдек, интеллектуал фаолият, яъни фикрлашнинг ўзига хослиги, фикрлаш жараёнининг тезлиги, ақлий ҳаракатларнинг тизимлилиги, таҳлил этиш ва умумлаштириш имкониятларини ошириш, ақлий фаолиятнинг юқори маҳсулдорлиги билан ҳам боғлиқдир.

Когнитив таркибий қисм кўп жиҳатдан педагог-кадрнинг касбий маданиятини шакллантириш билан боғлиқдир. Мазкур вазиятда касбий маданият дейилганда, педагогнинг малакавий таълимий кўникма ва малакалардан оқилона фойдалана олиши, таълим технологияларини муваффақиятли ўзлаштирганлиги, хилма-хил ахборот манбаларини интеграциялашга қобилиятлилиги, касбга доир янгиликлардан самарали фойдалана олиши тушунилади.

Фаолиятли таркибий қисм – педагогнинг илмий-педагогик фаолиятда инновацияларни амалга оширишга тайёрлигини акс эттирувчи инновацион кўникма ва малакаларни эгаллаш даражасидир. Фаолиятли таркибий қисм ўз ичига ижодий вазифаларни ҳал этишнинг гностик (билишга доир), лойиҳалашга доир, коммуникатив ва ташкилотчилик унсурларини камраб олади. Фаолиятли таркибий қисмнинг ёрқин намён бўлишини кўп жиҳатдан, педагогнинг касбий ижодкорлик даражаси, ижоднинг асосий белгиларининг қанчалик янгидан ва қайта ташкил этилганлигини акс эттирилганлиги аниқлаб беради. Лойиҳалашга доир жиҳатда бугунги кундаги мавжуд имкониятларни ва келгусидаги ижодий ривожланиш истиқболларини аниқлаш; ижодий вазифаларни ҳал этишда илмий-педагогик фаолиятига мувофиқлик, фаолиятнинг қулай методларини танлаб олиш, фаолиятни оқилона режалаштириш, кутиладиган натижаларга эришиш йўналишлари ва механизмларини аниқлаш кабилар белгилаб берилади. Коммуникатив жиҳат ижодий вазифаларни ҳал этишда жамоадаги шахсий ва касбий муносабатларни барқарорлаштириш ҳамда ҳамкасблар ўртасидаги илмий-педагогик янгиликларни муваффақиятли алмашинувини таъминлашни ўз ичига камраб олган. Креатив фаолиятнинг ўз-ўзини ташкиллаштириш, ўз-ўзини назорат қилиш каби қисмлари ташкилотчилик унсури таркибига киради.

Акмеологик ёндашув асосида педагог-кадрларнинг инновацион моделининг марказий бўғини сифатида самарали ижодий фаолиятга қобилиятлиликини акс эттирувчи креатив таркибий қисм акс этади. Айнан креативликни ривожлантириш акмеологик ёндашув асосида педагог-кадрларнинг инновацион фаолияти самарадорлигини оширишнинг бош мақсадларидан биридир. Замонавий тез ўзгарувчан шароитда инновацион фикрлашга қобилиятлилики – педагогнинг муҳим касбий сифатларидан биридир. Креатив таркибий қисм ижодий фикрлаш, ижодий ўқув, тарбиявий, тадқиқотчилик фаолиятига қобилиятлилики; янгилик яратишга интилувчанлик, илмий-педагогик вазифаларни оқилона ҳал этиш, ўз фаолиятини мустақил лойиҳалай олиш; касбий ижодий вазифаларни ҳал этишга имкон берувчи фикрий вазиятларни шакллантириш кабиларни ўз ичига камраб олади.

Адабиётлар

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Молия, 2003. - 192 б.
2. Авлаев О.У. Муаммоли таълимнинг психологик асоси. –Т.: 2014 й. 132 б
3. Йўлдошев Ж.Ғ., Усманов С.А. Педагогик технология асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 2004. - 102 б.
4. Каримова В.М., Суннатова Р.И.,Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш: Ўқув кўланма. –Тошкент: Шарқ, 2000. - 112 б.

КАДРЛАР СИФАТИНИ ОШИРИШДА ТАЪЛИМГА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Г.И Мухамедов, Ж.Э Усаров Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” ги 187-сонли қарори қабул қилинганига ҳам бир йил муддат ўтди. Мазкур қарорда узлуксиз таълимнинг Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларини компетентлик ёндашувга асосланган ҳолда амалиётга жорий этилишини таъминлаш кўзда тутилган бўлиб, асосий мақсад ўқувчиларнинг эгалланган билим, кўникма ва малакаларни ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий қўллай олиш лаёқати: компетенцияларини шакллантиришга йўналтиришдан иборат. Маълумки, нафақат ўрта умумтаълим мактабларининг фанни аъло даражада ўзлаштирган битирувчилари,

балки олий таълим муассасаларини битирган бакалаврларимиз ҳам кўпинча ностандарт вазиятларда қутилган натижани кўрсата олмайдилар. Бошқача айтганда, таълим муассасасида олган билимларини ҳаётида дуч келадиган ностандарт вазиятларга қўллашга қийналишади. Бунинг сабаби уларда маълум компетенцияларни таълим жараёнида ривожлантирилиб борилмаганлигидир.

Компетенция ва компетентлик тушунчаларининг таълим тизимига кириб келиши барча бошқа янгиликлар каби бир қатор тўсиқлар ва қийинчиликларни бошидан ўтказиши табиий. Бу ҳол айниқса Республикамиздаги умумтаълим мактабларининг фан ўқитувчиларида кўпроқ сезилди. Биринчидан, мазкур ёндашувнинг талаблари ва олдига қўйган мақсадлари ўқитувчилар жамоатчилиги ҳамда оммавий ахборот воситаларида етарли даражада ёритилмади. Иккинчидан, янги таҳрирдаги мазкур ДТС тажриба-синов олиб борилмаган ҳудудлардаги таълим муассаса педагоглари учун қисқа муддат (август ойи)да “иккинчи-учинчи қўл” орқали эстафета таёқчаси сифатида етказилди. Учинчидан, 12 йиллик мажбурий таълимнинг 11 йилликга қисқа вақтда революцион тарзда ўзгартирилиши ҳам бир қатор ташкилий-услубий муаммоларни келтириб чиқарди. Тўртинчидан эса, ўқувчиларда фанга оид ва таянч компетенцияларни шакллантириш учун аввало, педагогнинг ўзи компетент бўлиши талаб қилинади. Бундан келиб чиқадики, сифатли кадр тайёрлаш борасида бир қатор ҳал қилиниши лозим бўлган ташкилий ва педагогик масалалар мавжуд.

Аввало дарс бераётган педагоглар компетенциявий таълимнинг мазмун моҳиятини чуқур англаши лозим, акс ҳолда кадрлар сифати, таълим самарадорлигини оширишга қаратилган барча ҳаракатларимизда, “кераксиз, ортиқча” нарсани талаб қилаётган бюракратлар ҳужжатидан фарқ қилмайди. Бугунги кун талаби ўқитувчига нисбатан ҳам ўқувчига нисбатан ҳам ўзгарди. Кучли билимга эга бўлишнинг ўзи кадрлар салоҳиятига қўйилган талабнинг зарурий лекин, етарли шarti бўлмай қолди. Битирувчиларимиз келажак ҳаётда муваффақиятли яшашлар учун балиқ тутувчи қармоқнинг эластиклиги, мустаҳкамлик чегараси, сувдаги жисмларга кўрсатиладиган Архимед кучини назарий жиҳатдан тушинтириш етарли эмас, яъни балиқ тутиб беришимиз бизнинг фаолият билан чегараланади, биз уларга балиқ тутишни ўргатсакгина уларнинг фаолиятини бошлаб берган бўламиз. Айнан шундагина ўқувчиларни компетент кадр бўлишига йўналтирган бўламиз. Бу ишнинг энгил кечмаслиги ва қисқа муддатда амалга ошмаслиги табиий, лекин буни бугундан босқичма-босқич амалга ошириш лозим. Шу ўринда тарихга назар ташланг, боғча, мактаб, олий таълими ва ҳ.к ларда ўқиган фан предметлари материалларининг неча фоизидан ўз ҳаётфаолиятингизда фойдаланиш зарурати туғилди, улар қай даражада сизга асқотди?.

Ўқувчининг психологик ривожланиши, уларнинг фикрлаш ва тафакқурини бойитиш нуқтаи назаридан буни тўғри деб қараш мумкин. Лекин, бугунги ахборот ҳажмининг геометрик прогрессия тарзида ортиб бориши оммавий ахборот воситалари, интернет тармоқлари ва телефон орқали олиш мумкин бўлган ахборотлар ҳажми ўқувчининг бугун олган илмини стабиллиги нуқтаи назаридан инкор қилиши, етарли бўлмай қолиши мумкин. Шу маънода ўқувчиларга билим бериш эмас, билим олишларига ўргатиш устувор ҳисобланади. Таълим жараёнини ташкиллаштираётган ўқитувчи учун таълим олувчининг ташқи муҳит ҳосиласи сифатида шаклланадиган психологик ривожланиш концепциясини билиш билан бирга, ўзининг режалаштирган педагогик фаолиятини баҳолай олиш ҳам қилишмуҳим ҳисобланади. Шу сабабдан, таълим муассасаларида фанни ўқитиш жараёнида нафақат ўқувчи шахсига балки, жараёнда ишлатиладиган феълларнинг қўлланилишига ҳам тадқиқот объекти сифатида қараш зарурати туғилади.

Ҳаракат феъллари (Action verbs) – ўқув жараёнини шакллантиришдаги ўқувчилар бажариши лозим бўлган ҳаракат фаолиятларидаги қутилган натижалар таҳлили бўлиб, улар ўқитувчи ва ўқувчининг қай бир ҳаракатлар бажарилган ёки бажарилмай қолганлигини аниқлашда муҳим ҳисобланади.

Дарснинг ўқув мақсадини шакллантириш намунаси

Таълим олувчининг фаолият мазмуни	Ўқув мақсадини шакллантириш феъллари	Қутилаётган натижани шакллантириш феъллари
I даража. ТУШУНЧА (Тасаввурга эга бўлиш)		

Билмоқ, фарқламоқ, эслаб қолмоқ, талаффуз қилмоқ, мўлжалламоқ,	Шакллантирмоқ, ... ҳақида тасаввурга эга бўлмоқ, ... билан танишмоқ,	Умумий тушунчаларни гапириб беради, алоҳида хусусиятларини фарқлайди ва уларни айта олади, алоҳида хусусиятларига кўра ажрата олади
II даража. ТУШУНИШ (Англаб етиш)		
Англамоқ, фикрламоқ, ходисанинг сабаб ва оқибатларини ўзаро боғлаш, маълумотларни бошқа формага ўтказмоқ (мс, сўзларнинг математик ифодасини ёзма), интерпретация қилмоқ (фикрини асосли, бадий ва ишончли шарҳламоқ)	... ҳақидаги билимларини шакллантириш, ... ҳақидаги маълумотларнинг моҳиятига етиш, ҳодиса ва жараёнларнинг моҳиятини тушунтириш	Баён қилади, тушунтиради, шарҳлай олади, мазмун ва сабабини очиб беради, ўз фикрини илгари суради
III даража. ҚЎЛЛАШ (Амалий фаолият)		
Таниш вазиятлардаги (интеллектуаль, амалий) фаолият юритмоқ: намунага кўра, алгоритмик (кўриб такрорламоқ), айтиб турганни бажармоқ ҳақидаги амалий билимларини шакллантириш, кўникмани шакллантириш, малака ҳосил қилиш, билимни бойитиш ва мустаҳкамлаш	Таҳлил қилади, асослайди, қўшади, намоён қилади, гуруҳлайди, исботлайди, тўлдиради, хулоса қилади, аниқлаштиради, танлайди, умумлаштиради, баҳолайди, тақсимлайди, солиштиради, тенглаштиради, ўрнатади, намоёни қилади, ўзгартиради, фойдаланади, тадқиқ қилади, таъмирлайди, режалаштиради, ташкиллаштиради, назорат қилади, бошқаради, ҳисоблайди, йиғади, улайди, тузади, ўқийди, фойдаланади
IV даража. ИЖОДҚОРЛИК (Мустақил фаолият)		
Янги шароитлардаги фаолият, билим, кўникмаларни янги вазиятларда қўлламоқ, одатий ҳоллардаги муаммоларни кўра билмоқ, анъанавий объектларнинг янги вазифаларини англамоқ, муаммонинг муқобил ечимларини ҳисобга олмоқ, янги муаммоларни ечишда олдиндан маълум усулларни мослай олмоқ	... билим ва кўникмаларини ностандарт вазиятларда қўллаш олади, типик бўлмаган масалаларни ечади, ноқулай вазиятларда қарор қабул қила олади, ностандарт вазиятларда ўзини тутишни ўрганади.	Ташқи кўринишини ажратади, мослайди, жўнатади, илмий ва бадий изоҳлайди, яратади, таҳрир қилади, моделлаштиради, янгилайди, алмаштиради, қайта куради, қайта тиклайди, олдиндан баҳолай олади, лойиҳалаштиради, тизимлаштиради, типларга ажратади, такомиллаштиради

Янги ўқув материалларини ўзлаштиришда (маъруза, суҳбат, дарслик билан ишлаш ва ҳ. каби) дарс мақсади тушунча (тасаввурга эга бўлиш) ёки тушунини (англаб етиш) даражасида бўлади.

Ўқувчилар билимини мустаҳкамлаш, малака ва кўникмаларини шакллантиришда (амалий машғулот ёки лаборатория) дарсларида қўллаш (Амалий фаолият) даражаси шакллантирилади.

Ижодкорлик даражасида дарс мақсадини режалаштиришда ўқитувчи фақат шахсга йўналтирилган фаолият асосида алоҳида қобилиятли ўқувчилар билан ишлашни инobatга олади.

Ўқувчиларнинг ёш психологик хусусиятларини инobatга олган ҳолда ўқув фанининг мақсади, таълим мазмунимақсадларни белгилашда ҳаракат феълларини ўринли қўллаш, таълим натижасини баҳолашда муҳим ўрин тутаяди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гозиев Э. Умумий психология .Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти. Тошкент-2010. 151-бет.
2. Негашева М. А. Морфологическая конституция человека в юношеском периоде онтогенеза (интегральные аспекты): диссертация, доктора биологических наук: 03.00.14. Москва,2008.-408 с.
3. Перышкин А.В., Разумовский В.А., Фабрикант В.А. Основные методики преподавания физики. Москва.1984, 187-190 бетлар
4. Интернет материаллари www.cisbaltic-odl.org



O‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

*Dilobar Baxriddinova, Xadicha Beknazarova Qarshi DU
XTXQTMOHM, o‘qituvchilari*

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida o‘ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an‘analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to‘la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o‘zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma‘naviy–axloqiy an‘analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma‘rifatli inson» tushunchasi qo‘llanilib kelingan bo‘lib, u o‘zida keng ma‘noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma‘rifatli bo‘lish o‘zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o‘rin tutuvchi omil sanaladi. Ma‘rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo‘lish emas, ayni vaqtda chuqur ma‘naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo‘ladi.

Uzluksiz ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol ma‘naviy boy va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zaruriy shart–sharoitlar yaratish demakdir. Uzluksiz ta‘lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlari, davlat ta‘lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi. Uzluksiz ta‘lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy–texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart–sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta‘lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb–hunar ma‘lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma‘naviy–axloqiy sifatlariga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim Davlat ta‘lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta‘lim quyidagi ta‘lim turlarini o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta‘lim; umumiy o‘rta ta‘lim;
- o‘rta maxsus, kasb–hunar ta‘limi; oliy ta‘lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta‘lim.

Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi faoliyatida va o‘quvchi fiziologiyasida ham sodir bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘qituvchi faoliyatida ilg‘or pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishda amaliyotni ijodiy tashkil eta olish ko‘nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, shu bilan birga faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishni ham kafolatlaydi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan, ko‘p yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini kengaytirish, yangilash va boyitish, ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirish, raqobatbardoshligini orttirish darkor. Yuqori malakali raqobatbardosh pedagog xodimlar tayyorlash uchun umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus kasb–hunar ta‘limi, oliy pedagogik ta‘lim, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlashga e‘tibor qaratish zarur .

«Rivojlantirish» ko'proq miqdoriy xususiyatga ega tushuncha bo'lib, individning shaxsiga xos yangi xususiyatlarni umri mobaynida muntazam egallab borish jarayonini aks ettiradi. Nutq boyishi, bilim ko'payishi, axloqiy normalarni o'zlashtira borish, o'zgaralar munosabatlari bilan hisoblashishga odatlanish — rivojlanish belgilaridir. Ta'lim–tarbiya jarayonida sifat ko'rsatkichlari ahamiyatliroqdir. Rivojlanish natijasida o'qituvchi mahorati oshadi, erishilgan ma'naviy sifatlari qat'iylashib boradi, o'qituvchi shaxsiy xususiyati sayqallashadi va uning ma'naviy qiyofasi takomillashadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini sifatli natijaga olib keluvchi vosita. Bularga o'quvchi shaxsining sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Aslida, rivojlanish inson tavalludidan faoliyatining so'ngigacha davom etadigan uzluksiz jarayon bo'lib, uning tajribasi va amaliy ko'nikmalari ortgani sayin o'z ko'lamini kengaytirib boraveradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni bir muncha murakkab faoliyat turi bo'lib, bunda fan o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muayyan texnologiyani, qulay pedagogik shart–sharoitlarni va shakl, vositalarni taqozo etadi. Yuqorida qayd etilgan vositalar yordamida rivojlantiruvchi ta'lim bosqichlari amalga oshirilsa, samarali kechadi va pedagoglarning kasbiy yetukligi ta'minlanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining namoyish (himoya) usulidan foydalanishda bir qator shartlarga amal qilinishi maqsadga muvofiq. Jumladan:

- 1) o'rganilishi nazarda tutilgan yoki talab etilgan muammo bo'yicha izlanish olib borish (mavjud adabiyotlar bilan tanishish, tanlangan obyektни kuzatish, voqea yoki hodisalarni tahlil qilish);
- 2) maqsadni aniq belgilash va muayyan vazifalarni hal etish;
- 3) to'plangan nazariy ma'lumotlar, olingan amaliy natijalar (kuzatishlar natijasi) hamda tezislarini umumlashtirib, muayyan tartibga solish;
- 4) kompyuter variantida muammoning mohiyatini yoritish;
- 5) namoyish (yoki himoya) yuzasidan munozara tashkil etish ijobiy va tanqidiy fikrlarini tinglash);
- 6) namoyish (yoki himoya)ni baholash (bildirilgan ijobiy va tanqidiy fikrlar asosida yagona xulosaga kelish).

Namoyish yoki himoya usuli yordamida muammo mohiyati, uning yechimi hamda tavsiyalarining turli ramz, chizma, tasvir, rasm, shakl, jadval ko'rinishida ifodalash an'anasi ham o'qituvchi va o'quvchi imkoniyatini tizimli rivojlantirib boradi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari o'yin texnologiyalarini (rolli va ishbilarmonlik o'yinlarini) o'zida aks ettiradi. Ularning mohiyatini o'rganish asosida pedagoglarning kasbiy malakalarini oshirishda ishbilarmonlik o'yinlari katta ta'sir o'tkazadi. Shu sababli darslarda, mashg'ulotlarni tashkil etishda asosan rolli o'yinlardan foydalaniladi.

Rolli o'yinlar o'qituvchilarda ta'limni samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari (masalan, o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa vakili, ekspert, ijtimoiy tashkilotlarning xodimlari sifatida turli rollarni bajarish asosida pedagogik muammolarni hal etish pedagoglar tomonidan zarur nazariy bilimlarni to'la anglanishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda o'quv faolligini yuzaga keltirish va ularda ta'lim tizimini to'g'ri, samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim turi sanaladi. Bu ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar o'quv topshiriqlarini sheriklari bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishlari bilan birga guruhning har a'zosida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishga ham e'tibor qaratish lozim.

Dunyo salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalariga asoslangan holda iste'dodlilardan samarali foydalanish kasbiy–aqliy, ma'naviy barkamollashish, mustaqil bilim olish, o'z–o'zini tarbiyalash, axborotlarni o'rgatishni talab qiladi.



KASBIY KOMPETENTLIK: KO`RINISHLARI, TUZULISHI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Salohiddin Xalilov Navoiy davlat pedagogika institut
Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakulteti*

Hozirgi zamonda kasbiy kompetentlikka masalasiga butun jamiyatning diqqati qaratilgan. Olimlarimiz ham kasbiy kompetentlik klassifikatsiyasi masalalariga qiziqib keladilar. Jumladan, N.V.Xaritonova “Формирование профессиональной компетентности будущих педагогов в процессе изучения иностранного языка” mavzusidagi ilmiy ishida mutaxassisning mahorati shakllanishi yo`llarini quyidagilarga ajratadi:

Loyihalashtirish kompetensiyasi – kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etuvchi strategik masalalarni belgilay olish;

Axborot va tahlil kompetensiyasi – bilimlar izchilligini ta`minlay olish;

Tashkilotchilik kompetensiyasi - faoliyat jarayonini boshqara olish;

Kommunikativ kompetensiya – kasbiy jarayon subyektlari bilan aloqa o`rnata olish;

Analistik kompetensiya – o`z faoliyatini xolisona baholay olish;

N.V.Xaritonovning kompetentlik turlari klassifikatsiyasi mantiqan aniq, chunki kasbiy kompetentlik uning komponentlari yig`indisi va bu tizimning tuzilmasini belgilaydi.

Shunday qilib, kompetentlikning ko`plab turlari mavjud, ularning qaysi biri kasbiy kompetentlik mazmunini belgilashi shu kasbning xarakteridan kelib chiqadi.

Shunga qaramasdan, kasbiy kompetentlik modelini har qanday kasb uchun zarur hisoblanadigan komponentlar yordamida shakllantirish mumkin:

Hissiy-irodaviy komponent – bo`ljak mutaxassisning muammoga shaxs sifatidagi munosabati, sezgirligi, hissiyoti, ustunligi.

Motivasion-qiyamatli komponent – faoliyatni rag`batlantirish tomonidan muhim komponent bo`lib xizmat qiladi. U “shaxsiy erkinlik” tushunchasi bilan aloqador. Bu tushuncha mutaxassisning kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishga tayyorligi bilan belgilanadi.

Kognitiv komponent mutaxassisning bilish qobiliyatini belgilaydi: o`quv-axborot ma`lumotlarini o`zlashtirishi va ma`lum darajadagi bilimlar yig`indisiga ega bo`lishi. Intelektual sifatlar ijodiy faollikni amalga oshirish jarayonida rivojlanadi. Komponentning asosini intellektual ishtiroki tashkil etadi, ya`ni fanga qiziqishi, yangi bilimlarni o`zlashtirishga moyilligi, kasbiy bilim, ko`nikma va malakaga egaligi.

Kommunikativ komponent mutaxassisning shaxsiy erkinligi sharoitida ijtimoiy atrof-muhit bilan o`zaro aloqasini belgilaydi: muzokara qurishga tayyorligi, o`z fikrini aniq tushuntirib bera olishi.

Kreativ faoliyat komponenti mutaxassisning ishga ijodiy yondashuvini, bu orqali ishni bajarish texnologiyasi va usullarini ongli tanlay olish qobiliyatini shakllantiradi. Amaliy faoliyatning turli-tuman usullarning mavjudligi kasbiy faoliyatda shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatlarning bo`lishi bilan bog`liq.

Adabiyotlarda kompetensiya va kasbiy kompetentlikni o`rganishga individual yondashuv ham qayd etilgan. Bunda shaxsning individual psixologik o`ziga xosligiga urg`u beriladi: qobiliyati, ma`lum bir vaziyatlarni hal qilishda yetarli bo`lgan qobiliyat, bilim, tushunchalarning zarurligi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko`rsatdiki, aniq-tarixiy sharoit asosida ijtimoiy muhitda qabul qilingan me`yorlar, talablarga mos ravishda kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligi va qobiliyatini aniqlash orqali kasbiy kompetentlikda integral professional-shaxsiy xarakteristikani deferensial-psixologik yondashuv orqali belgilash mumkin.

Real mehnat kasbiy bilim va ko`nikmalar hamda psixologik bilimlar zahirasisiz bo`lishi mumkin emas. Bu vaziyatda kasbiy faoliyatning motivatsion va operatsional sohalarga ajralishini aniqlash mumkin. Mehnatga tayyorlik – motivatsion sohani xarakterlasa, mehnatga tayyorgarlik – operatsional muhitni xarakterlaydi.

Professional ijodkorlik insonda bir qator yangi sifatlarning shakllanishiga sabab bo`la oladi:

- ✓ Yangi g`oyalarga ehtiyojmandligi;
- ✓ Boshqa insonlar hali ko`rmagan sohalarda muammolarni ko`ra olishi;
- ✓ Alternativlarni aniqlay olish qobiliyati, mehnat predmetini mutlaqo yangi tomondan ko`ra olish;
- ✓ To`siqlarni tez va oson yengish;
- ✓ Boshqalar uchun ahamiyatsiz sanaladigan noodatiy vaziyatlarga e`tiborini qarata olish;
- ✓ Jamiyat tomonidan qabul qilingan haqiqatga va yangi g`oyalarga tanqidiy munosabatga tayyorligi;
- ✓ Yangi, masalan kompyuter realligi kabi ishlarga tayyorligi;

Professional o`zligini anglash, fikrlash va o`zlashtirish shaxsning professional yetuklik asosida kasbiy kompetentlikning shakllanishidan kelib chiqadi. Bunday yondashuv bizga professional kompetentlik asosida shaxsning akmeologik rivojlanishini ko`rib chiqish imkonini beradi.

Akmeologik tushunchada, bizning fikrimizcha, professional kompetentlik – bu professional faoliyatni yuqori samaradorlik bilan bajarishga imkon beruvchi, doimiy ravishda bilimlar tizimini kengaytirib boruvchi va yechiladigan muammolar doirasi sohasidir. Akmeologik kompetentlik – bu insonga hayotning turli vaziyatlarida o`z-o`zini rivojlantirish va o`z-o`zini anglashda turli muammo va vaziyatlarni samarali hal qilish imkonini beradigan tizimli-tuzilmali ko`p darajali integral shaxsiy faoliyat sifatidir.


Akmeologik kompetentlik o`zida quyidagi komponentlarni belgilaydi:

Motivatsion-shaxsiy (akme-motivatsiya, o`z-o`zini rivojlantirishga akmeologik tayyorligi va qobiliyati);

Kognitiv (akmeologik bilimlarni kengaytirib boruvchi va yangilab boruvchi akmeologik bilim va intellektual-hissiy malakalar);

Operatsional (o`z-o`zini anglash ko`nikma va malakalari).

Shunday qilib, shaxsning kasbiy rivojlanishini uning kognitiv-akmeologik kompetentligi belgilaydi. Shaxs bu murakkab dunyoni anglashga harakat qilar ekan, bilimlar tizimining loyiqiligi va sifati birlamchi ahamiyatga ega bo`ladi. Bu kognitiv tuzilmalar atrof-muhitdagi ko`z ilg`amas o`zgarishlarga nisbatan juda ta`sirchan bo`lishi mumkin.



ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДАГОГНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ, УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Л.М.Усмонова *Навоий давлат педагогика институти*


Резюме: Ушбу мақолада Ўзбекистонда педагогнинг касбий компетентлиги, унинг таркибий асослари, педагогнинг ўз устида ишлаш босқичлари келтирилган.

Резюме: В данной статье приведены о профессиональной компетенцию педагогов Узбекистана, ее компоненты, шаги саморобота педагогов.

Resume: In this article the professional competence of teachers in Uzbekistan, it's components, the steps of self-study of teachers have been illuminated.

Таянч тушунчалар: Касбий-педагогик компетентлик, ўз-ўзини баҳолаш, ўзини-ўзи назорат қилиш


Ўзбекистонда педагогнинг касбий компетентлиги, унинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилган бўлиб, улар орасида Б.Назарова томонидан олиб борилган тадқиқот ўзига хос аҳамият касб этади. Тадқиқотчининг фикрига кўра педагогга хос касбий компетентлик негизида қуйидаги таркибий асослар ташкил этади. Касбий-педагогик компетентликка эга бўлишда ўз тадқиқотчининг фикрига кўра педагогга хос касбий компетентлик негизида қуйидаги таркибий асослар ташкил этади.



Касбий-педагогик компетентликка эга бўлишда ўз устида ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари ўзини ўзи таҳлил қилиш ва ўзини ўзи баҳолаш орқали аниқланади. Ўз устида ишлаш қуйидагиларда кўринади:

касбий билим, кўникма ва малакани такомиллаштириб бориш,
фаолиятга танқидий ва ижодий ёндашиш, касбий ва ижодий ҳамкорликка эришиш,

ишчанлик қобилиятини ривожлантириш, салбий одатларни бартараф этиб бориш. Педагогнинг ўз устида ишлаши бир неча босқичда кечади.



Педагогнинг мутахассис сифатида:

- аниқ мақсад, интилиш асосида педагогик жараёни такомиллаштириш;
- педагогик жараён самарадорлигини, ўзининг ишчанлик фаоллигини ошириш;
- изчил равишда янгиланиб бораётган педагогик билимларни ўзлаштириш;
- илғор технология, метод ҳамда воситалардан хабардор бўлиш;
- фаолиятга фан-техниканинг сўнгги янгиликларини самарали тадбиқ этиш;
- касбий кўникма ва малакаларини такомиллаштириш;
- салбий педагогик низоларнинг олдини олиш, бартараф этиш чораларини излаш йўлида олиб борадиган амалий ҳаракати унинг ўз устида ишлашини ифодалайди.


Педагогларнинг ўз устиларида изчил, самарали ишлашларида фаолиятга лойиҳали ёндаша олишлари кўл келади. Уларнинг лойиҳали ёндашув асосида қуйидаги моделни шакллантира олишлари мақсадга мувофиқдир. Моделда ўз устида ишлаш босқичлари ва ҳар бир босқичда амалга ошириладиган вазифалар қайд этилади. Ҳар бир босқич учун белгиланган вазифаларнинг самарали ҳал этилиши навбатдаги босқичга ўтиш имконини беради. Педагогнинг касбий компетентликка эга бўлишида ўзини ўзи таҳлил қила олиши ҳам аҳамиятли саналади. Ўзини ўзи таҳлил қилиш орқали педагог ўзини ўзи объектив баҳолаш имкониятига эга бўлади. Зеро, педагогларнинг касбий компетентлик сифатларига эга бўлишида уларнинг ўз-ўзини баҳолаш малакаларига эгаллиги ҳам муҳимдир.

Ўз-ўзини баҳолаш шахснинг қобилиятини ўз кучи билан юзага чиқишига ёрдамлашиши зарур. Ўз-ўзини баҳолаш қийин, лекин шахсни бунга бевосита тайёрлаш мумкин. Ҳар қандай мутахассисда бўлгани каби педагогнинг ҳам ўзини ўзи самарали баҳолай олишига бир қатор омиллар таъсир кўрсатади. Ўзини ўзи самарали баҳолаш омиллари:

1. Ўзини тушуниш (ўзи ҳақида аниқ маълумотларга эга бўлиш).
2. Шахс сифатида ўз кадр-қимматини англаш (ўзи тўғрисидаги ижобий маълумотларни тўплаш).
3. Ўзини-ўзи назорат қилиш (ўзи тўғрисидаги шахсий фикрнинг атрофдагилар томонидан унга берилаётган баҳога мос келиши).

Ўз-ўзини баҳолаш даражаси шахснинг ўз-ўзидан қониқиши ёки қониқмаслигини белгилаб беради. Бунда ўз-ўзини баҳолаш кўрсаткичлари шахс имкониятларига мос келиши лозим. Ўзини ўзи ошириб ёки пасайтириб кўрсатиш ўз-ўзини баҳолаш кўрсаткичларининг нотўғри бўлишига олиб келади.

Демак, педагогнинг касбий компетенцияси педагогик (ўқув ва тарбия) жараёни самарали, муваффақиятли ташкил этилишини таъминлайди.



ПЕДАГОГИК КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИК ВА УНГА ХОС СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ҳотамова М.С. Навоий давлат педагогика институти

Бозор муносабатлари шароитида меҳнат бозорида устувор ўрин эгаллаган кучли рақобатга бардошли бўлиш ҳар бир мутахассисдан касбий компетентликка эга бўлиш, уни изчил равишда ошириб боришни тақозо этмоқда. Педагог ўзида қандай компетентлик сифатларини ёрита олиши зарур.

Компетентлик тушунчаси таълим соҳасига психологик изланишлар натижасида кириб келган. Шу сабабли компетентлик “ноанъанавий вазиятлар, қутилмаган ҳолларда мутахассиснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб борувчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалик”ни англатади.


Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутаяди. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, муҳим ижтимоий талабларни англай олишни, янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади.

Инглизча “competence” тушунчаси луғавий жиҳатдан бевосита “қобилият” маъносини ифодалайди. Мазмунан эса “фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш”ни ёритишга хизмат қилади.

Касбий компетентлик – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллай олиниши билишни тақозо этади. Касбий компетентлик қуйидаги ҳолатларда яққол намоён бўлади:

- мураккаб жараёнларда;
- ноаниқ вазифаларни бажаришда;
- бир-бирига зид маълумотлардан фойдаланишда;
- қутилмаган вазиятда ҳаракат режасига эга бўла олишда

Касбий компетентлик негизида қуйидаги сифатлар акс этади:



Қуйида касбий компетентлик негизида акс этувчи сифатларнинг моҳияти қисқача ёритилади.

1. Ижтимоий компетентлик – ижтимоий муносабатларда фаоллик кўрсатиш кўникма, малакаларига эгалик, касбий фаолиятда субъектлар билан мулоқотга кириша олиш.

2. Махсус компетентлик – касбий-педагогик фаолиятни ташкил этишга тайёрланиш, касбий-педагогик вазифаларни оқилона ҳал қилиш, фаолияти натижаларини реал баҳолаш, БКМни изчил ривожлантириб бориш бўлиб, ушбу компетентлик негизида психологик, методик, информацион, креатив, инновацион ва коммуникатив компетентлик кўзга ташланади. Улар ўзида қуйидаги мазмунни ифодалайди:

а) психологик компетентлик – педагогик жараёнда соғлом психологик муҳитни ярата олиш, талабалар ва таълим жараёнининг бошқа иштирокчилари билан ижобий мулоқотни ташкил этиш, турли салбий психологик зиддиятларни ўз вақтида англай олиш ва бартараф эта олиш;

б) методик компетентлик – педагогик жараёни методик жиҳатдан оқилона ташкил этиш, таълим ёки тарбиявий фаолият шакллари тўғри белгилаш, метод ва воситаларни мақсадга мувофиқ танлай олиш, методларни самарали қўллай олиш, воситаларни муваффақиятли қўллаш;

3. Шахсий компетентлик – изчил равишда касбий ўсишга эришиш, малака даражасини ошириб бориш, касбий фаолиятда ўз ички имкониятларини намоён қилиш.

4. Технологик компетентлик – касбий-педагогик БКМни бойитадиган илғор технологияларни ўзлаштириш, замонавий восита, техника ва технологиялардан фойдалана олиш.

5. Экстремал компетентлик – факулотда вазиятлар (табiiй офатлар, технологик жараён ишдан чиққан)да, педагогик низолар юзага келганда оқилона қарор қабул қилиш, тўғри ҳаракатланиш малакасига эгалик.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги вақтгача бир қатор тадқиқотларда бевосита педагогга хос касбий компетентлик ва унинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилган.



КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОЧИҚ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ

Дилшод Адилов –Пайариқ туман методисти

Педагогнинг “фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш” маъносини англатувчи компетентлиги негизда ижтимоий, махсус (психологик, методик, информацион, креатив, инновацион ҳамда коммуникатив), шахсий, технологик ва экстремал компетентлик каби сифатлари акс этади.

Касбий-педагогик компетентликка эга бўлишда ўз устида ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутати. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, муҳим ижтимоий талабларни англай олишни, янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади. Бу эса ривожланган мамлакатлар Очиқ таълим ресурсларидан фойдаланмасдан имкони йўқ.

Олий таълимнинг сифатини таъминлаш бўйича энг илғор хорижий олий таълим муассасалари томонидан оммавий онлайн очик курсларига киритган ўқув курсларидан фойдаланган ҳолда олий таълим тизимидаги педагог кадрларнинг коммуникатив компетентлигини ошириш механизмларини ўрганиш ва миллий очик онлайн таълим ресурсларини яратиш долзарб муаммолардан ҳисобланади. Янги таълим моделининг асосий мақсади – замонавий ахборот жамиятини ривожлантириш билан билим талабгорларига максимал юқори даражадаги рақобатбардош таълимни таъминловчи муҳитни ҳосил қилиш: ҳамкорлик, коммуникация, ижтимоий жавобгарлик, муаммоларни оператив ва сифатли ечиш. Масаланинг бундай қўйилиши фаол ва долзарб контентларни ишлатиш заруратини шарт қилиб қўяди. Очиқ таълим ресурсларини ривожлантириш ва фойдаланишни олға сурмай бундай глобал масалани ечиш имконияти йўқ.

Турли мамлакатларда кўп сонли фойдаланувчилар очик таълим ресурсларидан фойдаланиб келмоқда. МПТ ОСW маълумотларига кўра, уларнинг сайтга ҳар ой ўртача миллионлаб одамлар ташриф буюради, улардан: 43% - мустақил таълим олувчи фойдаланувчилар; 42% - талабалар; 9% - ўқитувчилар -; 6% - бошқа фойдаланувчилар. Ҳар йили 2 500,000 дан ортиқ халқаро талабалар Германия онлайн курсларидан фойдаланишади. Кўп курслар машҳур Германия университетлари томонидан тақдим этилган бўлиб, курс охирида махсус сертификатлар билан тақдирланади. Асосий курслар пуллик бўлса-да, уларнинг маълум қисми талабаларга бепул равишда, очик ҳолатда қўйилганлиги олқишга сазовор. Булар Германиянинг 409 та университет ва коллежлар томонидан тақдим этилган 14.500 дан ортиқ халқаро даражадаги дастурлардан иборат.

Веб-сайтда курснинг кидирув қисми жуда ҳам қулай бўлиб, талаба ўзига мос бўлган курсни хоҳлаган форматда ва хоҳлаган тилда юклаб олиши мумкин.

Khan академияси - "Ҳамма жойда ҳар бир киши учун сифатли таълимни таъминлаш"дир. Академия Веб-сайтида математика, тарих, соғлиқни сақлаш ва тиббиёт, молия, физика, кимё, биология, астрономия, иқтисодиёт, космология, органик кимё, санъат тарихи, микроиқтисодиёт асослари, информатика фанларидан 4200 дан ортиқ бепул микро маърузалар йиғиш имконини беради. Хан Академиясининг таълим бериш усули босқичма-босқич бўлиб, ҳар бир босқичда сиз маърузага тегишли бўлган видеолархони томоша қиласиз. Лавҳадан сўнг мавзуга тегишли бўлган саволларни видеолархона остида қолдиришингиз мумкин бўлиб, уларга мутахассис жавобини олса бўлади.

Ушбу веб-сайтларни Массачусеттс технология институти ва гарвард университети 2012 йил май ойида яратган. 24 март 2016 йилнинг маълумотларига кўра, edX да 7 миллиондан зиёд талаба 700 дан ортиқ онлайн курсларидан сабоқ олади.

Edx курслари ҳафталик ўқув кетма-кетликлардан иборатдир. Ҳар бир дарс видео лавҳалардан таркиб топган бўлиб, видео билан биргаликда машқлар ва интерактив масалалардан иборатлиги, талабанинг мавзуни дарҳол ўзлаштиришига замин бўла олади. Курслар кўпинча тажрибавий видео-лавҳалар билан бойитилган бўлиб, университетнинг муҳокама гуруҳларига ўхшаб кетади. Ундан ташқари онлайн дарсликка ўхшаш саҳифаларга эга бўлиб, талабалар бири-бирига онлайн суҳбат қилиб, марузани муҳокама қилишлари мумкин.¹

Edx да Khanakademy дан фарқли равишда ўрганиладиган фанлар доираси жуда ҳам кенг бўлиб, уларнинг кўпчилиги инглиз тилидадир.

Ҳар бир курсни бошлашдан олдин, унинг мутахассис-марузачисининг исми шарифи берилган бўлиб, марузанинг қисқача мазмуни, ва бошқа талабаларнинг бундан олдин қуйган изохларини кўрса бўлади, бу талабанинг вақтини тежашга анча ёрдам бера олади.²

Coursera - тижоратга асосланган дунёдаги энг кўп очик онлайн курслар таклиф этувчи, таълим технологияси ҳисобланади. Coursera да физика, муҳандислик, гуманитар, тиббиёт, биология, ижтимоий фанлар, математика, бизнес, информатика, рақамли маркетинг каби фанлардан сабоқ берувчи, энг машҳур олий ўқув юртлирининг курсларидан иборат онлайн база ҳисобланади.

Edx га ўхшаб, Courserани ҳам IOS ва Андроид операцион тизимларида ишлайдиган смартфонларга юклаб олиш имконияти мавжудлиги унинг аудиториясини кенгайтиришига ёрдам беради.

Бугунги кунда айрим курслар бепул тақдим этилсада, асосий маърузалар ва курслар махсус тўловлар асосида юритилади. Курснинг охирида маълум тўлов эвазига талабалар ўз мутахассисликларига мос бўлган компаниялардан сўровларга жавоблар олишлари мумкин.

Бундан ташқари ҳар бир курс охирида талабалар веб-камера орқали жонли равишда, оғзаки ва ёзма имтиҳондан ўтишлари мумкин


Ҳар бир курс одатда 4-10 ҳафта давом этиб, унинг жараёнида талаба ҳар хил синов, ҳафталик машқлар ва якуний лойиҳалардан ўтиши керак. Бундан ташқари, талабалар веб форумлар ўтказиб жонли суҳбат қилишлари, маърузани муҳокама қилишларига имкон яратилгандир. Аммо имтиҳон синовлари жараёнида веб форумлар тасдиқланганлиги, унинг якуний жавобларини адолатли равишда берилганлигига асос бўла олади.

Courserанинг энг асосий камчилиги унинг кўпчилик курслари пуллик равишда ўтилишида бўлиб, унинг талабаларини моддий жиҳатдан қийинчиликка олиб келиши мумкин.³

Юқоридаги ОТР фаолиятини ўрганиб қуйидаги хулосаларни бериш мумкин:

- Педагог кадрларининг касбий ва педагогик даражасини мунтазам ошириш асосида уларнинг ўқув жараёнини ташкил этишнинг замонавий услублари соҳасидаги сўнгги ютуқларни чуқур ўрганиш асосида педагог касбий компетентлигини ривожлантириш;

- Олий таълим муассасалари педагог кадрларининг, шу жумладан глобал интернет тармоғи, мультимедиа тизимлари ва масофадан ўқитиш усулларидан фойдаланган ҳолда, илғор педагогика, ахборот-коммуникация ва инновация технологияларини эгаллаш ва уларни ўқув жараёнига фаол татбиқ этиш асосида таълим самарадорлигига эришиш.



¹ Московский Центр Дистанционного Образования: EDX -самая интеллектуальная MOOC платформа в американском дистанционном образовании. . URL: <http://bakalavr-magistr.ru/news/177> (дата обращения 16.08.2015).

² <https://losst.ru/richard-stollman-otets-otkrytogo-programmnogo-obespecheniya>

³ Педагогические подходы Coursera. URL: <https://www.coursera.org>

КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА КИМЁ ФАНИ БЎЙИЧА ДАРАЖАЛИ ТЕСТЛАР ТЎПЛАМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

М.С.Хотамова, М.Бобоёрова Навоий давлат педагогика институти

Замонавий таълимда талабаларга тайёр билимларни бериш эмас, балки уларни билимларни мустақил ўзлаштиришга йўналтириш тобора муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Зеро, тайёр билимларни ўзлаштириш гарчи талабаларнинг борлиқни англашлари, ижтимоий муносабатлар мазмунини, у ёки бу кўринишдаги кишилиқ фаолияти моҳиятини тушунишларига ёрдам беради. Бироқ, борлиқ ва ижтимоий муносабатларнинг мавжуд ҳолатини ифодаловчи ҳодиса, воқелиқ, жараённинг таркибий элементлари ўртасидаги ўзаро бирлиқ, алоқадорлиқни тушуниш, сабаб-оқибатларини таҳлил қилиш, фаолият мазмуни, йўналиши ва энг муҳими, натижасини кафолатловчи омилларни таҳлил қилиш малакаларини самарали ривожланишига тўсқинлиқ қилади.

Хусусан, сўнгги йилларда олий таълим муассасаларида 1980 йилдан бошлаб, илм-фан ўқув режалари учун янги мақсадлар ва стандартлар пайдо бўлди, яъни ҳамма учун фан саводхонлиқ тушунчаси пайдо бўлди. Бу талабанинг диққат марказида энди илм-фан ва муҳандислиқ ўз мансаб учун ягона талабаларга тайёргарлик эди. Энг миллий илм-фан таълим стандартлари, бутун дунё бўйлаб тан олина бошлади, ҳар бир бўлажак фуқарони умумий ва хусусан кимё фанидан асосий тушунчаси бўлиши керак.

Илм-фан, таълим мақсадларидан бу қайта йўналтириш қизгин мунозарага олиб келди. Кимё ўқув истиқболли жойлашиши ва тузилиши ҳақида янги белгиланган мақсадларни бажариш учун белгиланди. Ушбу мунозара ҳақида далил ва исботларининг ўзгаришини Hofstein, Eilks ва Bybee (2011) муҳокама қилган. Ўқув дастурининг йўналтириши кўп мамлакатларда таълимда сиёсий ўқув қўлланма бўлиб келмоқда.

Янги стандартлар батафсил бўлиши учун кимёдан таълим бера бошланди, бу умумтаълимни ўқитиш мақсадларига (Rutherford & Ahlgren, 1989), ва кейинги нашрлар, Лойиха 2061, масалан, “Фан саводхонлиги учун мезонлари” (АААС, 1993) ва “Миллий Илмий таълим стандартлари” АКШда (НРС, 1996), тўғридан-тўғри Буюк Британия каби бошқа давлатларда шунга ўхшаш миллий стандартлари сиёсат таъсири остида бўлди.

Кимёдан стандарт ва ностандарт ўқув топшириқлари бу муаммоларни ҳал этишда бизга ўқув жараёнини олиб боришда ёрдам беради Педагогик тестлар стандарт (битта жавобли) ва ностандарт (кўп жавобли)ларга ажратилишини кўрсатди. Стандарт тестлар амалиётга жорий этилаётганлиги сабабли унга таъриф ва тавсиф берилишининг зарурати йўқ.

Стандарт тестлар мазмуни бўйича репродуктив ва продуктив даражада, таркиби жиҳатидан тест топшириғи саволи ва тўғри ва нотўғри жавоблардан иборат бўлса, ностандарт тестлар ўзининг мазмуни, тузилиши ва қўлланиш мақсадига кўра муайян даражада фарқ қилади.

Ностандарт тестлар мазмуни ва моҳиятига кўра қуйидаги гуруҳларга ажратилади:

1. Интегртив тестлар;
2. Адаптив тестлар;
3. Мезонли-мўлжал олиш тестлари.

Интегртив тестлар интеграл мазмун, шакл, қийинчилик даражаси бўйича ўсиб боровчи, таълим муассасасининг битирувчисининг тайёргарлик даражаси ҳақида умумлашган якуний хулоса чиқаришга имкон берадиган тест топшириқлари саналади.


Адаптив тестлар автоматлаштирилган, талабаларга нисбатан индивидуал ёндошиш имконини берадиган, топшириқ мазмуни, бажариш тартиби, қоидаси, шу топшириқни бажариш натижасида талабанинг эгаллаши мумкин бўлган бали ва тест натижаларини умумлаштириш бўйича кўрсатмалардан иборат бўлади.

Мезонли-мўлжал олиш тестлари талабаларнинг умумий тайёргарлик даражаси, мазкур курснинг ўқитилиш сифати, педагогнинг педагогик маҳорати, таълим-тарбия жараёни самарадорлигини аниқлаш мақсадида ўтказилади.

Мазкур тест топшириқларини тузиш учун аввало ўқув курси мазмуни ДТС асосида таҳлил этилади, билим, қўникма ва малакалар аниқланади, уларни аниқлаш учун топшириқлар мажмуаси тузилади, мазкур топшириқлар тест топшириқларига айлантирилади ва синов ўтказилади, пировард натижада талабаларнинг шу курсни ўзлаштириш даражаси юзасидан хулоса тайёрланади.

Мезонли-мўлжал олиш тест синовлари орқали талабаларнинг билимларидаги бўшлиқлар аниқланади ва уларни бартараф этиш йўллари аниқланади. Юқорида қайд этилган ностандарт тест топшириқларини таълим-тарбия жараёнида мақсадга мувофиқ фойдаланиш жараёни талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини ҳаққоний ва одилона назорат қилиш ва баҳолаш имконини беради.

Шундай қилиб, тест усулининг муваффақияти кўп жиҳатдан ўқувчиларнинг билим даражасига ва дарс мавзусининг мазмунига қараб тестнинг ҳар хил турларидан фойдаланишга ва уларга доир топшириқларни изчил туза билишга боғлиқ бўлади.



ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

М.С Хотамова, Н.С.Бобоёрова
Навоий давлат педагогика институту

Педагогик маҳорат тушунчаси ўтган асрнинг 80-90-йилларида илмий-педагогик жиҳатдан асосланиб, ОТМда мустақил фан сифатида ўқитила бошлаган. Педагогик технология фани ўқитила бошлагач эса “Педагогик маҳорат” фанининг асослари унинг мазмунига сингдириб юборилди.

Олий таълим муассасаларида “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули негизида талабаларни педагогик маҳорат асослар билан таништириш мақсадга мувофиқдир. Зеро, талабалар томонидан педагогик маҳоратнинг таркибий элементлари билан таништириш, уларда педагогик техника, нутқ маданияти, педагогик деонтология, коммуникатив компетентлик, педагогик низо, шунингдек, замонавий педагогнинг имиджи тўғрисидаги маълумотларнинг ўзлаштирилиши ва мазкур билимлар негизида зарур малакаларнинг ўзлаштирилиши ОТМда ташкил этиладиган педагогик жараён сифатини яхшилаш, самарадорлигини таъминлашни кафолатлайди.

“Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича талабаларни педагогик маҳорат ва унинг таркибий элементлари билан таништириш жараёнида куйидаги вазифалар ҳал қилинади:

талабаларни педагогик маҳоратнинг таркибий қисмларига доир назарий билимлар билан қуроллантириш, уларда педагогик фаолиятни оқилона ташкил этиш,

педагогик жараённи самарали йўлга қўйиш кўникма ва малакаларини ривожлантириш, талабаларнинг педагогик ва нутқ техникасига эга бўлишларини таъминлаш, уларда педагогик деонтология ва педагогик маданият сифатларини таркиб топтириш;

талабалар томонидан педагогик мулоқот, педагогик назорат (такт) ва педагогик таъсир кўрсатиш малакаларини етарли даражада ўзлаштирилишини таъминлаш, уларда педагогик маданият сифатларини шакллантириш.

Касбий фаолиятни ташкил этишда педагог қуйидаги мажбуриятларни бажара олиши зарур: муайян меҳнат вазифаларини, асосан, ақлий меҳнат вазифаларини амалга ошириш; талабалар, уларнинг ота-оналари, ҳамкасблар билан ўзаро муносабатни тўғри ташкил этиш;

Педагогнинг маҳорати бевосита касбий-педагогик фаолиятда кўринади. Шу сабабли у педагогик жараённинг умумий моҳиятини чуқур англай олиши, бу жараёнда устувор аҳамият касб этадиган қонуниятлардан хабардор бўлиши, педагогик фаолиятни самарали ташкил этиш механизмларини пухта эгаллаш билиши лозим.

Таълим жараёнининг фаол иштирокчиси бўлган педагогнинг педагогик маҳорати унинг шахси, иш тажрибаси, фуқаролик мақоми, мутахассис сифатидаги мавқеи, у томонидан педагогик техниканинг етарли даражада эгалланганлиги, касбий фаолиятнинг индивидуаллигидан далолат беради.

Педагогик маҳорат яхлит тизим бўлиб, унинг таркибида бир қатор сифатлар кўзга ташланади. Жумладан



Касбий фаолиятни ташкил этишда педагог қуйидаги мажбуриятларни бажара олиши зарур: муайян меҳнат вазифаларини, асосан, ақлий меҳнат вазифаларини амалга ошириш; талабалар, уларнинг ота-оналари, ҳамкасблар билан ўзаро муносабатни тўғри ташкил этиш; танлаган касбига, талабалар ва педагогик жамоага ҳамда жамиятга бўлган шахсий муносабатини чуқур англаш. Педагогик мажбуриятлар сирасидан, яна шунингдек, касбий фаолиятни ташкил этишга ижодий муносабатда бўлиш, ўзига нисбатан талабчанлик, касбий билимларини бойитиб ва педагогик малакасини оширишга интилиш, талабалар ва уларнинг ота-оналари билан ўзаро ҳурматга асосланган ва талабчан муносабатни ўрнатиш, мураккаб педагогик низоларни ижобий ҳал қилиш кўникмаларини ўзлаштириш кабилар ҳам ўрин олади. Педагог томонидан жамоа билан мулоқотни уюштириш техникасини доимий равишда таҳлил қилиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Маълум вазиятларда педагог раҳбар сифатида талабалар фаолиятларини бошқаради. Бу жараёнда ҳам мулоқот етакчи омил ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳам мустақиллик йилларида таълимни ташкил этишга инновацион ёндашиш натижасида узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида деярли ҳар бир дарс, ўқув машғулотида талаба ва талабаларнинг амалий фаолиятини иш қоғозлари воситасида ташкил этиш анъанаси бир қадар шаклланди. Айни вақтда бу борадаги тажрибани янада бойитишга нисбатан эҳтиёж мавжуд. Педагогик фаолиятни ташкил этишда педагогнинг нафақат ўзи, балки унинг ижобий таъсири асосида талабалар ҳам мулоқот маданиятини ўзлаштириб боришлари лозим.



КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

О.С. Бермуродова. Учитель школы №41 Тайлякского района

Новые условия развития общества на современном этапе ставят перед системой образования новые задачи формирования качественно нового уровня подготовки квалифицированных специалистов, для их развития и становления как творческой личности, обладающей собственным стилем мышления, способной самостоятельно и творчески решать стоящие перед ними задачи. Целенаправленное развитие и системное реформирование образования требует особой роли языкового образования, развития коммуникативной компетенции личности, способной использовать русский язык как инструмент общения. Современный мир стремительно развивается, изменяется и прогрессирует. И это хорошо, потому, что жизнь в этом случае не стоит на месте. Нельзя останавливаться, а тем более стоять на месте и школьному образованию. Современное стремительное развитие жизни заставляет перейти школьное образование на качественно новый уровень, предъявляет высокие требования к образовательным стандартам. Современная школа просто обязана формировать у учащихся жизненные навыки и ключевые компетенции. И формироваться все это должно на уроке, который должен быть непременно развивающим и личностно — ориентированным. А самыми благодатными уроками для воспитания и обучения новой социализированной личности являются уроки по русской литературе и русскому языку, тем более, что образовательные подходы стали больше ориентироваться на развитие таких жизненных навыков, которые интегрируют в себе умение, способности и компетенции, относимые к разным сферам человеческого бытия. Уроки же по литературе и языку позволяют решить задачи адаптации и развития, учащихся в сфере духовности, нравственности, сформировать у детей социальные и поведенческие навыки в преодолении

жизненных трудностей, психологических конфликтов, поиска своего личностного «Я» и своего места в мире и среди людей.

Гуманистическая тенденция развития общества неразрывно связана с идеей «развивающейся личности в развивающемся мире». А решение данной проблемы напрямую зависит от уровня образования — важнейшего компонента человеческой культуры. Одним из важных и необходимых базовых международных требований, выдвинутых Советом Европы, является обязательное владение несколькими языками. Через язык можно приобщить личность к универсальным глобальным ценностям, формировать умение общаться и взаимодействовать с представителями других культур в мировом пространстве. Решение этой задачи становится актуальной в нашей многонациональной стране. Это обусловлено ориентацией современной методики преподавания русского языка на практическое овладение русским языком, предусматривающее переход от сознательного усвоения учащимися единиц языка к употреблению их в речевых ситуациях, приближающихся к ситуациям естественного речевого общения в обществе. Под практическим владением языком понимается владение личностью всеми видами речевой деятельности: слушанием, говорением, чтением, письмом — в наиболее важных сферах общения. Другими словами, коммуникативная методика характеризуется тем, что на первый план в качестве важнейшей цели обучения выдвигается формирование умений и навыков речевого общения, или коммуникации. Цели обучения, его содержание, уровни знаний, умений и навыков определяются через разного рода компетенции. Под компетенцией понимается совокупность тех знаний и умений, которые формируются в процессе обучения языку и способствуют овладению им. В компетентностном подходе перечень необходимых компетенций определяется в соответствии с запросами работодателей, требованиями со стороны академического сообщества и широкого общественного обсуждения на основе серьезных социологических исследований. Овладение различного рода компетенциями становится основной целью и результатами процесса обучения. Компетенции и компетентностный подход занимают центральное место в системе управления качеством образования. По существу, управление качеством образования начинается с определения состава тех компетенций, которые должны быть освоены в учебном процессе в школе как образовательные результаты. Тогда вся внутришкольная система управления качеством образования строится таким образом, чтобы на выходе каждый ученик в той или иной степени владел бы требуемыми компетенциями. Перспективным компетентностное обучение является еще и потому, что при таком подходе учебная деятельность приобретает исследовательский и практико-ориентированный характер и сама становится предметом усвоения. Рассмотрим те виды компетенции, которые имеют непосредственное отношение к изучению русского языка. Языковая компетенция представляет собой практическое овладение материалом языковой системы. Лингвистическая компетенция включает в себя знание основ науки о русском языке, усвоение понятийной базы учебного курса и формирование учебно-языковых умений работы с языковым материалом. Коммуникативная компетенция — это знания, умения и навыки, необходимые для понимания чужих и порождения собственных программ речевого поведения, адекватных целям, сферам, ситуациям общения. Она включает в себя знание основных понятий лингвистики речи, умения и навыки анализа текста и собственно коммуникативные — умения и навыки речевого общения применительно к различным сферам и ситуациям общения с учетом адресата и стиля речи. Формирование лингвистической и коммуникативной компетенций являются одинаково важными задачами преподавания русского языка. При возрастающих требованиях к качеству подготовки специалистов, данные компетенции становятся существенными квалификационными характеристиками. Ведущей в данном списке компетенций является коммуникативная, поскольку она представляет собой, прежде всего и компетенцию ключевую, определяющую уровень владения языком. В понятие «коммуникативная компетенция» включаются следующие показатели: 1) осведомленность в лингвистической теории, осознание ее как системы правил и общих предписаний, регулирующих употребление средств языка в речи; 2) знание речеведческой теории, владение основными видами речевой деятельности; 3) владение основными языковыми (опознавать, классифицировать и т. п.) и речевыми (выбирать, актуализировать и т. п.) умениями; 4) способность анализировать речевую ситуацию и в соответствии с ней выбирать программу (вербальную и невербальную) речевого поведения.

В теории и на практике лингвистический принцип как ведущий принцип обучения сейчас уступает место коммуникативному. Целью обучения учащихся является формирование у них коммуникативной компетентности, то есть набора и реализации программ речевого поведения в зависимости от способности человека ориентироваться в обстановке общения, в основе которой

лежит принцип профессионального общения, моделирующий условия профессиональных отношений. Направленность обучения на формирование компетентности разрешения проблем позволит предупредить отрыв теории от практического использования языковых явлений в речи, поэтому это требует осмысления языковой теории.

Современное функционирование русского языка как языка межнационального общения в тесном единстве с мировой культурой и цивилизацией. Важно организовать учебный процесс таким образом, чтобы посредством русского языка учащиеся могли приобщиться к мировой культуре. На уроках важно создать модель культуры, которая будет способствовать духовному совершенствованию обучаемых на базе диалога родной культуры и мировой. Составляющими такой модели могут быть: реальная действительность, представленная предметно (фотоснимками, иллюстрациями, рисунками); предметно-вербально (телевизионные передачи, спектакли, кинофильмы); художественной литературой; учебно-популярной-текстами, имеющее воспитательное содержание, а также фразеологизмами, половицами, высказываниями известных людей. Приобщение человека к культуре происходит не только при изучении языка, но и под влиянием того, что мы читаем, слышим, видим, под влиянием той речевой среды, в которую погружены обучаемые. Одним из средств, создающей развивающую речевую среду является текст. Функция текста — коммуникативная, смыслообразующая и творческая. Тексты должны содержать материал для работы по грамматике, эстетическую ценность и воспитательную направленность. Система заданий на занятиях русского языка предполагает создание готового образовательного продукта: написание аргументированного эссе, творческой работы, ориентированной на цели и задачи коммуникации. В качестве подготовительного этапа учащиеся занимаются комплексным анализом текста, лингвистическим анализом, сопоставительным анализом. Определение темы, идеи, стиля, типа речи становится не целью, а лишь средством достижения той или иной цели. Повышение речевой культуры учащихся также невозможно без формирования определенных умений и навыков, обеспечивающих:

- умение осмысливать и хорошо представлять себе речевую ситуацию — цель общения, тему и основную мысль высказывания, адресата речи, место общения, объем высказывания, сформировать замысел будущего речевого произведения;

- умение в соответствии с замыслом собирать материал, пользуясь разными источниками, систематизировать его, составлять план будущего высказывания с ориентацией на замысел;

- умение в соответствии с замыслом пользоваться разными стилями и типами речи, разнообразными языковыми средствами, выбирать их с учетом всех компонентов речевой ситуации;

- умение видеть реакцию слушателя во время устной речи, соотносить произносимое с замыслом и корректировать свою речь. Конечная роль обучения языку

- обусловлена той ролью, которую он играет в жизни каждого человека и всего общества, являясь важнейшим средством общения и познания окружающего мира. Учащиеся нуждаются в русском языке и как в средстве получения знаний, современной информации, и как в средстве повышения своего общения

Обучение русскому языку активизирует формирование коммуникативной компетенции, воспитывает языковую личность, способную к профессионально-деловой межкультурной коммуникации, стремящуюся к саморазвитию и самообразованию, умеющую творчески мыслить.



КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Курбанова Г. Учитель школы № 27 Нарпайского района

В последние два десятилетия в Узбекистане вопросам обучения иностранным языкам уделяется пристальное внимание. Об этом свидетельствует принятие Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Государственных образовательных стандартов общего среднего, среднего специального и профессионального образования» № 187 от 6 апреля 2017 года, Распоряжение Кабинета министров Республики Узбекистан от 25 июля года за №803-Ф, совместное Постановление Министерства народного образования, Министерства высшего и среднего специального образования, центра среднего специального профессионального образования «Об обеспечении учебниками 10 класса по общеобразовательным предметам

предметам общего среднего образования и учебных заведений среднего специального, профессионального образования на 2017-2018 учебный год”.

На современном этапе развития общества главной задачей методической науки является воспитание личности, стремящейся к максимальной реализации своих возможностей, открытой для восприятия нового опыта, способной на осознанный и ответственный выбор в различных жизненных ситуациях. Чтобы воспитать такую личность, необходимо научить обучаемых коммуникативной компетенции. Воспитанный в таких условиях обучаемый в конечном итоге должен достичь уровня, определяемого как уровень «языковой личности».

В настоящее время перспективными направлениями развития методики обучения иностранным языкам являются внедрение принципа коммуникативной направленности, инновационных технологий, личностно ориентированного подхода, гуманизация учебного процесса и демократизация взаимоотношений субъектов данного процесса.

Инновации в сфере обучения иностранному языку могут быть связаны с внесением изменений не только в цели, содержание, методы и технологии, формы организации и систему управления, но и в стили педагогической деятельности и организацию учебно-познавательного процесса.

Следовательно, определение оптимальных путей внедрения в процесс обучения инновационных технологий, целенаправленное внедрение перспективных идей и разработок является одной из актуальных проблем современной методики. Учет вышеперечисленных положений в организации процесса обучения русскому языку является не только потребностью людей, но и социальным заказом общества. Успешность решения этих проблем может привести к оптимизации процесса обучения и увеличению его результативности.

В традиционной организации учебного процесса в качестве способа передачи информации используется односторонняя форма коммуникации. Суть ее заключается в трансляции преподавателем информации и в ее последующем воспроизведении обучающимся. Обучающийся находится в ситуации, когда он только читает, слышит, говорит об определенных областях знания, занимая лишь позицию воспринимающего. Иногда односторонность может нарушаться (например, когда обучающийся что-либо уточняет или задает вопрос), и тогда возникает двусторонняя коммуникация.

Характерно, что односторонняя форма коммуникации присутствует не только на лекционных занятиях, но и на семинарских. Отличие только в том, что не преподаватель, а обучающийся транслирует некоторую информацию. Это могут быть ответы на поставленные преподавателем до начала семинара вопросы, рефераты, воспроизведение лекционного материала. Такая форма коммуникации не отвечает принципам компетентностного подхода.

Принципиально другой является форма многосторонней коммуникации в образовательном процессе. Сущность данной модели коммуникации предполагает не просто допуск высказываний обучающихся, что само по себе является важным, а привнесение в образовательный процесс их знаний.

Преподавание, открытое в коммуникативном плане, характеризуют следующие утверждения:

1. Обучающиеся лучше овладевают определенными умениями, если им позволяют приблизиться к предмету через их собственный опыт.
2. Обучающиеся лучше учатся, если преподаватель активно поддерживает их способ усвоения знаний.
3. Обучающиеся лучше воспринимают материал, если преподаватель, с одной стороны, структурирует предмет для более легкого усвоения, с другой стороны, принимает и включает в обсуждение мнения обучающихся, которые не совпадают с его собственной точкой зрения.

Переход на компетентностный подход при организации процесса обучения предусматривает широкое использование в учебном процессе активных и интерактивных форм проведения занятий (компьютерных симуляций, деловых и ролевых игр, разбора конкретных ситуаций, психологических и иных тренингов) в сочетании с внеаудиторной работой. Удельный вес занятий, проводимых в интерактивных формах учебном процессе, должен быть намного выше, чем на традиционных уроках. Трудности применения интерактивных методов в образовательном процессе преподавателями связаны с:

- незнанием содержания метода;
- неумением применять его на практике;
- не пониманием места метода в структуре занятия;

— неверием в эффективность применения новых методов в процессе обучения.

Предлагаемый подход имеет коммуникативную ориентированность содержит такие компоненты, как речевая компетенция, языковая компетенция и социально-культурная компетенция, раскрывающие содержание понятия коммуникативная компетентность. В программу по русскому языку в настоящее время также вводятся понятия «коммуникативная компетенция», «языковая компетенция», «лингвистическая компетенция», «культуроведческая компетенция». Для того чтобы учащиеся в полном объеме могли овладеть вышеперечисленными компетенциями, необходимо вести целенаправленную систематическую работу по развитию устной и письменной речи. Эту работу с детьми надо начинать с первых дней пребывания в школе.

- - - - -

МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH TAJRIBASIDAN

H.E. Fuzailova – Jomboy tumani 18-maktab o'qituvchisi
S.S Umarov – SamDUHXTXQTMOHM o'qituvchisi

1997 yil 29 avgust «Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» har bir fan sohasida o'qituvchilar oldiga ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdek ma'suliyatli vazifani yuklaydi.

O'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi farq nimada? O'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi farq bir soatlik darsda, ya'ni o'qituvchi bilgan narsani o'quvchi bir soatlik darsdan keyin bilib oladi. Lekin qanchalik darajada bilib olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Haqiqiy o'qituvchi bo'lib yetishish uchun quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

Birinchidan, o'qituvchining avvalo ko'ngli pok bo'lishi kerak.

Agar o'qituvchining ko'ngli pok bo'lsa, bunday o'qituvchi har qanday ishni sidqidildan bajaradi va natijada xalq orasida obro'- e'tibori doimo baland bo'ladi.

Ikkinchidan, bolalarni sevishi kerak. Pedagog so'zining lug'aviy ma'nosi – “bola yetaklovchi” so'zidan kelib chiqsak, o'qituvchi haqiqatan ham o'zi ta'lim berayotgan barcha o'quvchilarni o'zining orqasidan ergashtirishni uddalay olishi lozim, buning uchun u avvalo shu o'quvchilarni sevishi, ularni tushuna olishi, umumiy qilib gapiradigan bo'lsa, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona muhitni yarata olishi kerak. Do'stona muhitni yaratishda o'quvchilarning turli xil temperamentli ekanligini hisobga olish lozim.

Uchinchidan, o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lishi kerak.

Agar o'qituvchi o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lmasa, bunday o'qituvchi o'quvchilarga yetarli darajada bilim bera olmaydi, natijada o'quvchilar bilimida bo'shliqlar paydo bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilarning unga bo'lgan hurmati ham yo'qolishi mumkin.

To'rtinchidan, dars o'tish metodikasini bilishi kerak.

O'qituvchi o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lsayu, lekin dars o'tish metodikasini bilmasa, o'quvchilar bilimida yana bo'shliqlar paydo bo'ladi, chunki bunday holatda o'qituvchi o'quvchilarning qabul qilish qobiliyatlarini e'tiborga olmasdan mavzuni tushuntiradi, mavzuni faqat yaxshi o'qiydigan o'quvchilar tushuna olishlari, qolgan o'quvchilar esa tushunmasdan qolishlari mumkin. O'qituvchining sifatli dars o'tishi uslub birlashma faoliyatiga ham bog'liq. Uslub birlashmada yosh o'qituvchilarga yordam berish maqsadida “Ustoz-shogird” maktabining tashkil etilishi, yosh o'qituvchilarning dars o'tish metodikasining takomillashishiga, bu esa o'z navbatida darslarning sifatli bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari uslub birlashmada qilinadigan metodik ma'ruzalar o'qituvchilarning o'z ustlarida ishlashlariga, dars o'tishning yangi innovatsion usullarini o'ylab topishlariga imkon yaratadi.

Beshinchidan, yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini o'z faniga tadbiq eta olishi kerak.

O'qituvchining kompyuterda ishlashni bilishi, axborot kommunikatsion texnologiyalarni o'z faniga tadbiq eta olishi darsining yanada qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishiga yordam beradi.

Oldinchidan, aktyor bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida turli xil noqulay vaziyatlar vujudga kelishi mumkin, bunday holatlarda o'qituvchi aktyor bo'lishi qamda noqulay vaziyatlardan oqilona chiqib ketishi lozim.

Hozirgi davr talabi – darslarni tashkil etishda noan'anaviy usullardan ham foydalanishdir. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, to'plagan ballari bo'yicha qolib guruhlarini aniqlash, o'quvchilar o'rtasidagi hamjihatlikni oshiradi, bilim olishga qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa 2006-2007 o'quv yilidan boshlab tashkil etilayotgan ochiq hisobot darslari o'quvchilarni yanada ko'proq bilim olishga

undayapti, chunki ochiq hisobot darslarida o'quvchilarning ota-onalari ishtirok etishib, o'z ota-onasi oldida uyalib qolmaslik uchun ham o'quvchilar yaxshi bilim olishga intilayaptilar. Dars davomida farzandi "4" yoki "5"ball olgan ota-onalar orqalarida xuddi qanot paydo bo'lgandek, xursand bo'lishmoqda, farzandi "3"ball olgan ota-onalar esa xulosa chiqarishayapti. Mana shunday darslar ham ota-onalarning o'z farzandlari bilan ko'proq shug'ullanishiga, farzandlarining dars tayyorlashlariga befarq bo'lmasliklariga undaydi. Ochiq hisobot dars yakunida o'tkazilgan dars bo'yicha ota-onalarning fikrlari, tilaklari varaqlarga yozdirilib olinadi.

Darsning sifat-samaradorligi fan o'qituvchilari bilan boshlanqich sinf o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlikka ham bog'liq. Agar o'quvchi oddiy ko'paytirish jadvalini bilmasa, 4 amalga doir misollarni yechishni bilmasa, xat-savodi yaxshi bo'lmasa, yuqori sinf matematika fani o'qituvchisining dars berish jarayonida juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi, ya'ni yuqori sinf o'qituvchisi avval o'quvchilarga ko'paytirish jadvalini yodlatishi kerak bo'ladi, so'ng 4 amalga doir misollarni yechishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Bu esa albatta oson bo'lmaydi. Shuning uchun 2005-2006-o'quv yilidan boshlab joriy etilgan sinfdan-sinfga ko'chrish imtihonlari nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham o'z faniga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi.

Falsafadagi "Ong birlamchimi, yoki ruh birlamchimi" degan savolni pedagogikaga yo'naltirsak, ruh birlamchi degan bo'lar edim, chunki o'qituvchi o'quvchining ruhiyatini cho'ktirsa, o'quvchining o'qituvchiga munosabati o'zgaradi, uning faniga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarni "sendan odam chiqmaydi", "ota-onang kim edi-yu, sen kim bo'larding" kabi so'zlar bilan kamsitadilar. Natijada o'quvchini o'zlaridan bezdiradilar, o'z faniga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradilar, o'quvchining xarakterining salbiy tomonga o'zgarishiga sababchi bo'ladilar. Bu esa eng katta xato, eng katta fojeadir.

Matematika fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirish uchun matematika fanining nafosatini o'quvchilar qalbiga etkazish kerak.

Frantsuz matematigi D.Puassonning matematika faniga bog'liq bo'lgan ajoyib so'zlarni keltirmoqchiman: "hayot ikki narsa: matematikani o'rganish va uni boshqalarga o'rgatish bilan go'zaldir!" haqiqatan ham mening hayotim tanlagan kasbim bilan go'zaldir.

O'quvchilarning matematika olamining go'zal dunyosiga qiynalmay kirib borishlari o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Matematika fanidan qar bir mavzuning o'quvchilar ongiga yaxshi etib borishlari uchun hayotga boqlab o'tishga harakat qilish kerak. O'z ish tajribam haqida gapiradigan bo'lsam, masalan, musbat sonni "do'st", manfiy sonni "dushman" deb tanishtirib, ko'paytmalarni quyidagicha tushuntiraman:

$$(+) \cdot (-) = - \text{ "Do'stimning dushmani = dushman"}$$

$$(-) \cdot (+) = - \text{ "Dushmanimning do'sti = dushman"}$$

$$(+) \cdot (+) = + \text{ "Do'stimning do'sti = do'st"}$$

$$(-) \cdot (-) = + \text{ "Dushmanimning dushmani = do'st"}$$

har xil ishorali sonlarni qo'shishni tushuntirishda, masalan, $-60 + 40$ misolning yechilishini quyidagicha izoqlayman: "60 so'm qarzim bor, 40 so'm pulim bor.

Pulimni qarzga bersam, qarzim qoladimi yoki pulim ortadimiq" O'quvchilar albatta 20 so'm qarzim qolganligini aytadilar. Shunda misolning javobini yozaman:

$$-60 + 40 = -20$$

Burchak bissektrisasini tushuntirishda quyidagi ruscha she'rni avval rus variantida aytaman, so'ng o'zbekchaga tarjima qilib, tushuntiraman:

Биссектриса – это такая крыса,

Который ходит по углам и делит угол пополам.

Tarjimasi:

Bissektrisa – bu shunday kalamushki,

Burchak bo'ylab yuradi va burchakni teng ikkiga bo'ladi.

Modul mavzusini tushuntirishda masofa xech kachon manfiy son bilan o'lchanmasligidan foydalanaman.


Boshlangich funktsiya mavzusini tushuntirishda esa integral belgisi funktsiyani "yoshligiga" (qosila olmasdan oldingi holatiga) qaytaruvchi qurilma deb tushuntiraman.

$3x - 5 = 2x + 5$ tenglamalarini yechishda q belgisini ko'prik deb tushuntiraman, 2 x ko'prikdan o'tishi uchun $-2x$ bo'lib utishini $-$ ko'prikdan o'tganda musbat son manfiy son bo'layapti, manfiy son esa musbat son bo'lib o'tadi deb izoqlayman:

$$3x - 2x = 5 + 5$$

$$x = 10$$

О'қувчиларнинг математика fanini bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda dars o'tish jarayonida an'anaviy usullardan tashqari noan'anaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



ПЕДАГОГЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСУЛЛАРИ

Х.Худойбердиева СамМОМ ўқитувчиси

Замонавий таълимга хос муҳим жиҳатлардан бири—педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш саналади. Ривожланган хорижий мамлакатларда педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш масаласи ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб жиддий ўрганила бошлаган. Хусусан, Х.Барнет, Ж.Бассет, Д.Гамильтон, Н.Гросс, Р.Карлсон, М. Майлз, А.Хейвлок, Д.Чен, Р.Эдем, Ф.Н. Гоноболин, С.М. Годнин, В.И.Загвязинский, В.А.Кан-Калик, Н.В.Кузьмина ҳамда В.А.Сластенин каби тадқиқотчилар томонидан олиб борилган ишларда инновацион фаолият, педагогик фаолиятга инновацион ёндашиш, инновацион ғояларни асослаш ва уларни амалиётга самарали тадбиқ этиш, хорижий мамлакатлар ҳамда республикада яратилган педагогик инновациялардан хабардор бўлиш орқали педагог фаолиятида улардан фаол фойдаланиш борасидаги амалий ҳаракатлар мазмуни ёритилган. Моҳиятига кўра инновациялар муносабат ёки жараёнга янгилик киритишнинг динамик тизими саналади. Ўз-ўзидан тизим сифатида янгилик киритириш муносабат ёки жараённинг, биринчидан, ички мантиғини, иккинчидан, киритилаётган янгиликнинг муайян вақт оралиғида изчил ривожланиши ва атроф-муҳитга кўрсатадиган ўзаро таъсирини ифодалайди.

Ҳар қандай инновацияда “янги”, “янгилик” тушунчалари муҳим аҳамиятга эга. Турли муносабат ва жараёнларга киритилаётган янгилик мазмунан хусусий, субъектив, маҳаллий ва шартли ғоялар тарзида намоён бўлади. Хусусий янгилик муносабат, объект ёки жараёнга тегишли элементлардан бирини ўзгартириш, янгиланиш назарида тутати. Субъектив янгилик маълум объектнинг ўзини янгиланиш заруриятни ифодалайди. Маҳаллий янгилик алоҳида олинган объект учун киритилаётган янгиликнинг амалий аҳамиятини тавсифлашга хизмат қилади. Шартли янгилик эса муносабат, объект ёки жараёнда мураккаб, прогрессив янгиланишнинг содир этилишини таъминловчи маълум элементларнинг йиғиндисини ёритишга хизмат қилади.

Инновацион фаолият – янги ижтимоий талабларнинг анъанавий меъёрларга мос келмаслиги ёки янги шаклланаётган ғояларнинг мавжуд ғояларни инкор этиши натижасида вужудга келадиган мажмуали муаммоларни ечишга қаратилган фаолият.

Моҳиятига кўра инновацион фаолият илмий изланишлар, ишланмалар яратиш, тажриба-синов ишлари олиб бориш, фан-техника ютуқларидан фойдаланиш асосида янги такомиллаштирилган маҳсулотни яратишдан иборат.

Педагогнинг инновацион фаолияти қўйидагилар билан белгиланади:

- янгиликни қўллашга тайёргарлиги;
- педагогик янгиликларни қабул қилиши;
- новаторлик даражаси;
- коммуникатив қобилиятнинг ривожланганлиги;
- ижодкорлиги

Инновацион фаолият педагогнинг руҳий, ақлий, жисмоний кучини маълум мақсадга йўналтириш асосида БКМни эгаллаш, амалий фаолиятни назарий билимлар билан тўлдириб бориш, билиш, лойиҳалаш, коммуникатив нутқ ва ташкилотчилик маҳоратини ривожлантиришни талаб этади.

М.Жуманиёзованинг эътироф этишича, педагогик инновацион фаолияти қўйидаги белгилар асосида намоён бўлади:

- ижодий фаолият фалсафасини эгаллашга интилиш;
- педагогик тадқиқот методларини эгаллаш;
- муаллифлик концепцияларини яратиш қобилияти;
- тажриба-синов ишларини режалаштириш ва амалга ошира олиш;
- ўзидан бошқа тадқиқотчи-педагоглар тажрибаларини қўллаш олиш;
- ҳамкасблар билан ҳамкорлик;
- фикр алмашиш ва методик ёрдам кўрсата олишлик;


- зиддиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш;
- янгиликларни излаб топиш ва уларни ўз шароитига мослаштириб бориш

Одатда педагогик инновацияларнинг амалиётга татбиқ этилиши икки хил кечади:

1. Педагогик инновацияларнинг амалиётга татбиқи стихияли кечади, яъни, инновацион жараёнда педагогик янгиликларга бўлган эҳтиёж ҳисобга олинмайди, уларни амалиётга татбиқ этишда мавжуд шарт-шароитлар, усул ва йўлларига онгли муносабат билдирилмайди.

2. Педагогик инновацияларнинг амалиётга татбиқи стихияли кечади, яъни, педагогик янгиликлар инновацион жараёнда онгли, мақсадга мувофиқ, илмий асосланган фаолият маҳсули сифатида амалиётга жорий этилади

Бугунги кунда педагогларнинг инновацион фаолият кўникма, малакаларига эга бўлишлари муҳим аҳамиятга эга. Педагоглар томонидан инновацион фаолият кўникма, малакаларини ўзлаштира олишларида уларнинг инновацион ёндашувга эга бўлишлари талаб этилади. Ўз моҳиятига кўра педагоглар томонидан инновацион фаолият кўникма, малакаларининг ўзлаштирилиши уларда инновацион ёндашувни қарор топиши асосида кечади. Педагогларда инновацион ёндашувнинг қарор топиши ҳам мураккаб жараён бўлиб, у бир неча босқичда амалга оширилади (1-расм)



тавсифлайди. Педагогик инновацияларнинг дидактик имкониятларига кўра таълим тизими ва жараёни ривожланиб боради. Ўқитувчининг инновацион фаолияти педагогик жамоани ҳаракатга келтирувчи, олға ундовчи, бунёдкорликка рағбатлантирувчи куч сифатида намоён бўлиб, таълим жараёнининг сифатини кафолатлайди. Шу сабабли ҳар бир ўқитувчи инновацияларнинг моҳиятини тўла тушунган ҳолда ўз фаолиятига изчил татбиқ эта олиши зарур.



KOMPYUTER YORDAMIDA FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH VA UNING ISTIQBOLLARI

B. Amirullayeva SamDU MOM assistenti

I.Radjabova Samarqand shahar28 - maktabi fizika fani o'qituvchisi

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berib kelinmoqda. Yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim muassasalarining moddiy –texnika va axborot bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan bog'liqdir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hozirgi kunning talabiga aylandi.


Keying yillarda respublikamizda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida bir necha farmon va qonunlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan “2001-2005” yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro tizimlariga keng kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi Farmoni va boshqa shu kabi qaror hamda farmonlarni misol qilish mumkin.

Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishlari hamda yangi informatsion texnika va texnologiya asoslari to'g'risidagi bilimlarni o'zlarida mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

Ko'pchilik vazifalarni bajarishda mutaxassislarni kompyuterda ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan fizika fanini o'qitishda ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq. Zamonaviy kompyuterlar yordamida istalgan fizik jarayonlarni uning modeli orqali namoyish etish imkoniyati mavjud. Fizik tajribalarni kompyuterda modellashtirish orqali turli xil asbob va uskunalarga ehtiyoj tug'ilmaydi. Kompyuter yordamida ko'zga ko'rinmas va tez kechadigan fizik jarayonlarni istalgan jadallikda namoyish etish imkoniyati bor. Texnika xavfsizligi muammosiga barham beriladi. Kompyuter va "INTERNET" tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanish orqali ta'limning ko'rgazmalilik, ishonarlilik, mustahkamlik, sistematiklik kabi didaktik tamoyillari amalga oshiriladi.


Fizika fanining o'quv dasturida ko'zda tutilgan ko'pchilik jarayonlar ko'zga ko'rinmas (mikroolam) va juda tez kechadigan jarayonlar hisoblanadi. Shu sababli ularni o'zlashtirishda o'quvchilar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ta'limning ko'rgazmalilik va onglilik tamoyillarini amalga oshirish uchun fizik jarayonlarni kompyuter yordamida modellashtirish muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Quyida biz ayrim fizik jarayonlarni modellashtirishga doir misollar bilan tanishamiz. 1-rasmda diffuziya hodisasiga doir misol keltirilgan bo'lib, bu maxsus dastur asosida kompyuter ekranida namoyish etilganligi tasvirlangan.



1-rasm

2-rasmda yorug'lik nurining yassi ko'zga turli xil burchaklar ostida tushayotganligi tasvirlangan. Bunda tushish burchagi qaytish burchagiga tengligi ko'rsatilgan. Ushbu jarayonni kompyuterda sekinlashtirib o'quvchilarga namoyish etish mumkin.



2-rasm

3-rasmda 9-sinf darsligidagi "Turli temperaturali suvlarni aralashtirganda issiqlik miqdorini taqqoslash" laboratoriya ishinin bajarilishi ko'rsatilgan. Kompyuter yordamida ushbu jarayonni jonli ravishda kuzatish mumkin.

Laboratoriya ishi. Turli temperaturali suvlarni aralashitirganda issiqlik miqdorini topish

Ni	m ₁ - birinchi kationing massasi (kg)	m ₂ - suvni kationing massasi (kg)	m ₃ - ikkinchi kationing massasi (kg)	m ₄ - ikkinchi kationing massasi (kg)	t ₁ - birinchi suvning temperaturasi (°C)	t ₂ - aralashma temperaturasi (°C)	t ₃ - ikkinchi suvning temperaturasi (°C)	C ₁ - birinchi suvning issiqlik sig'imi (J/kg°C)	C ₂ - suvning issiqlik sig'imi (J/kg°C)
1.									
2.									

Jisimning solishtirma issiqlik sig'imi ushbu formula bilan hisoblanadi.

$$C = \frac{C_2 m_2 (t - t_2)}{m_1 (t_2 - t_1) - m_3 (t - t_1)}$$


3-rasm

ГЕЙ - ЛЮССАК ҚОНУНИНИ ТАЖРИБАДА ҲАҚЛАТИШ

4-rasm

4-rasmda Gey-Lyussak qonunini o'rganish tajribasi keltirilgan bo'lib, gaz harorati oshganda molekullarning harakat tezliklari ham ortib, gaz bosimini ortishiga olib keladi va gaz ustida joylashtirilgan porshen yuqoriga harakatlanadi. Gaz harorati pasayganda esa porshen pastga tushadi. Ushbu jarayonni kompyuter ekranida namoyish etish orqali o'quvchilarni issiqlik mashinalarida kechadigan jarayonlar bilan mukammal tanishtirish imkoni tug'iladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ushbu maqola ta'lim sifat samaradorligini oshirishda fizika fani o'qituvchilariga amaliy yordam beradi degan umiddamiz.



ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ

*Гўзалхон Эргашева Эргашалиевна, Хадикахон Хошимова Толкуновна
Фаргона давлат университети ҳузуридаги ХТХҚТМОМ ўқитувчилари*

Таълим жараёнига инновацион технологияларни татбиқ этиш таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш имконини беради. Шу сабабли ҳам инновацион технологиялар асосида таълим сифати ва самарадорлигини ошириш муаммоси бугунги кундаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Таълим жараёнига инновацион технологияларни татбиқ этишдан кўзланган асосий мақсад:

- ✓ таълим сифатини янада юқори босқичга кўтариш;
- ✓ таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш;
- ✓ ўқувчиларнинг ижодий, танқидий фикрлашини ривожлантириш;
- ✓ ўқувчиларни мустақил ҳаётга тайёрлаш;
- ✓ ўқувчиларда маълумотларни мустақил қабул қилиш ва таҳлил қилиш кўникмаларини шакллантириш;
- ✓ ўқувчиларнинг қобилиятларини ривожлантириш ҳисобланади.

Кейинги ўн йил ичида таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш муаммоси дунё миқёсида тадқиқ этилмоқда. Бугунги кунда кўпгина мамлакатлар таълим сифати бўйича қиёсий тадқиқотлар методологияси, технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш масаласида ўз саъй-ҳаракатларини бирлаштирган ҳолда таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш муаммоларига алоҳида эътибор қаратмоқдалар. Бунинг натижасида бутун дунёда таълим сифатини мониторинг қилиш тизими яратилди.

Сўнги йилларда узлуксиз таълимни янги сифат босқичига кўтариш ва унинг самарадорлигини ошириш, бунда инновацион технологиялардан фойдаланиш масаласининг назарий тадқиқига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур йўналишда бир қатор илмий изланишлар амалга оширилди. Улардаги асосий ғоя ва натижалар барча турдаги таълим муассасалари фаолиятининг сифат ва самарадорлигини оширишга қаратилган ишларни олиб боришда пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Умумий ўрта таълим муассасаларида инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишда:

инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишининг мазмун-моҳияти ва аҳамиятини илмий асослаш, “янгилик”, “янгилик киритиш”, “янгиликни”, “инновация”, “инновацион фаолият”, “инновацион жараён”, “инновацион маданият” каби тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини изоҳлаш;

таълим муассасаларида инновацияларни жорий этиш бўйича мавжуд имкониятлар ва шарт-шароитларни аниқлаш;

умумий ўрта таълим муассасаларида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишга йўналтирилган педагогик инновациялар мазмуни ва мезонларини аниқлаш, таянилиши лозим бўлган тамойилларни белгилаш;

умумий ўрта таълим муассасаларида таълим сифат ва самарадорлигини оширишга йўналтирилган инновацион педагогик жараённинг таркибий тузилиши тизимини ишлаб чиқиш, унинг мазмун-моҳияти, аҳамияти, компонентларини илмий асослаш, мақсад ва вазифаларини белгилаш;

умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларини инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш механизминини ишлаб чиқиш, унинг мазмун-моҳияти ва аҳамиятини илмий асослаш ҳамда амалиётга татбиқ этиш йўллари белгилаш;

умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларининг инновацион маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш механизминини ишлаб чиқиш ва илмий асослаш;

умумий ўрта таълим муассасаларида инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлиги оширишга йўналтирилган моделни ишлаб чиқиш, илмий асослаш ва келажакда такомиллаштирилган йўллари белгилаш муҳимдир.

Умумий ўрта таълим мактаб ўқитувчиларини инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш, инновацион маданиятини шакллантириш, уларга амалий-методик ёрдам кўрсатиш мақсадида ўқитувчиларни методик маҳсулотлар билан таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

Илмий тадқиқот ва тажрибалар шунинг қўрсатадики, замонавий инновацион технологияларни таълим тизимида ҳамда таълим-тарбия жараёнида унумли қўллаш:

- ✓ таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширади;
- ✓ ўқув-тарбия жараёнининг такомиллашувига;
- ✓ ўқитувчи ва ўқувчи фаоллигини оширишга;
- ✓ ўқитувчининг педагогик маҳоратини оширишга;
- ✓ ўқувчининг мустақил фикрлаш, билишга қизиқиши орттиришга;
- ✓ билимни мустақил ўзлаштиришга ҳамда билим, кўникма, малакаларни ўрганиш, шакллантириш ва ривожлантириш сифатини янада яхшилайдди.

Жумладан, замонавий педагогик технологиялар:

биринчидан, ўқувчининг билим, кўникма ва малакаларини осон ва қизиқиб ўрганивчилар учун имконият яратиш;

иккинчидан, ўқитувчининг ҳам профессионал ўқувчига ҳам маънавий ривожланишига ёрдам беради.

Педагогик фаолиятда натижалар билан бир қаторда ушбу натижаларга эришиш ўз маҳоратидан келиб чиқиб, замонавий ўқитиш воситаларидан фойдаланади. Замонавий ўқитиш воситалари - бу ўқитиш жараёнида қўлланиладиган дидактик воситалар (тарқатмалар, кўргазмалар, чизмалар, схемалар ва ҳ.кабилар) ва электрон воситалардир (аппаратли, дастурли ва ахборотли компонентлар, аудио ва видео дарсликлар, электрон дарсликлар, электрон кутубхоналар, веб-сайтлар, электрон матнлар ва ҳ.кабилар).

Ҳозирги кунда барча таълим, фан, маданият ва маърифат муассасаларитаълим портали ва интернетга уланган. Бу эса таълим жараёнига масофадан туриб ўқитиш усулларини, ўқувчи ёшлар учун ахборот- коммуникация хизматларининг кенг мажмуини жорий этиш имконини бермоқда . Ҳар бир таълим муассасасида яратилган бундай шароитдан унумли ва самарали фойдаланиш, ўқитувчи ва ўқувчининг таълим- тарбия жараёнида вақтнинг аниқлиги тартибига кўра ахборот тизими орқали фаол ахборот ва маълумотларни эгаллаш, ҳамда уларга замонавий техника ва технологияларни ўзлаштириш имконини беради

Таълим сифати жамиятнинг сифатини ҳам белгилаш, нафақат таълим тизими учун, балки давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун ҳам энг асосий муаммо ҳисобланади. Ўқувчилар томонидан эгалланган билим ва кўникмалар кўп йилларда уларнинг моддий ва маънавий соҳаларидаги имкониятларини белгилайди ҳамда уларнинг муваффақияти ижтимоийлашувини таъминлайди.

Хусусан, янги электрон ўқув адабиётлар ишлаб чиқилишига, электрон дарсликлар, мультимедиа дастурлар яратилишига пухта замин яратади. Аммо таълим соҳасида электрон

дарслик ёки қўлланма яратишда илмийлик, тушунарлилик ва қизиқарлилик, мунтазамлик, мазмунни пухта ўзлаштириш, ўқувчи ва талабанинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш, унда белгиларни онгли равишда ўзлаштира олишини ва кўرғазмалилик каби педагогик тамойилларга таянилиши керак. Узлуксиз таълим тизими учун яратилган ҳар бир дарслик, ўқув қўлланма ёки мультимедиа дарстурларни оҳаларга жойлаштиришдан олдин ушбу соҳа мутахассислари маслаҳатларига таяниш зарур.


UMUMTA'LIM MAKTABLARI FANLARINIO'QITISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

N.H. Karimova, N.A. Ahrorqulova

Samarqand tumani 42-maktab, Narpay tumani Qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji.


«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturda uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan bilimlarni egalashlari barobarida, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'lim-tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish ularni amaliyotga joriy etish ko'rsatilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi kunda ko'plab maktablar asbob-uskunalar va texnik vositalar bilan ta'minlanmoqda. Bunday zamonaviy maktablarda kompyuter imkoniyatlaridan samarali foydalanish davr talabi bo'lib, har bir o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi. Keyingi yillarda kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda, elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ishlanmalar, virtual laboratoriya, animatsiya, namoyish va multimedia elementlarini yaratish va tashkil etish o'z samarasini bermoqda. Shunday ekan, biz ta'kidlamoqchi bo'lgan jihat umumta'lim maktablari fanlarini axborot texnologiyalaridan, elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'qitish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, maktab "Odam va uning salomatligi" kursi "Ovqat hazm qilish sistemasi" bobining mavzularini o'rganishda o'qitishning elektron vositalaridan foydalanish jihatlari to'xtalib o'tamiz. Dastlabki holatda (vertikal menyu – boblar ro'yxati) odatda gorizont – bosh menyu qatoridan "Mundarija" bo'limi tanlangach namoyon bo'ladi. Undan kerakli bob tanlanadi va shu bobning yonidan bobga tegishli mavzular ro'yxati paydo bo'ladi. O'quvchi yoki foydalanuvchi shu bobga tegishli biron mavzuni, masalan, "23-§. Ovqat hazm qilishning ahamiyati" mavzusini ro'yxatdan tanlashi mumkin.




Natijada asosiy oyna - sahifaga mavzuning to'liq matni namoyon bo'ladi. Bundan tashqari "Mavzu" tugmasi tanlangandan so'ng ham mavzu bayoni namoyon bo'ladi. Mavzu yakunida savol va topshiriqlar hamda mavzuga doir "Tayanch tushunchalar" ketma-ketligi o'rin olgan. Har qanday o'quvchi mavzuni tushunib olishi va o'zlashtirib olishida ko'z bilan ko'rib ham eshitishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, elektron o'quv qo'llanmada "Ovqat hazm qilishning ahamiyati" mavzusining

tayanch tushunchalari alohida oynachada ovozlari bilan keltirilgan (masalan, “Fizik o’zgarish” yoki “Kimyoviy o’zgarish” yozuvi bosilgach shu so’zning ta’rifi “Fizik o’zgarish– ovqatning og’iz bo’shlig’ida tishlar yordamida, oshqozonda va ichaklarning mayatniksimon hamda peristaltik harakati natijasida maydalanishi” matni ovoz jo’rligida namoyon bo’ladi). U quyidagi ko’rinishga ega:




Shuningdek, mavzudankeyin “Slaydlar” bo’limi ham bor. Bunda mavzu taqdimot orqali yoritiladi.


O’quvchilar bilimini baholash uchun dars yakunida “Test” belgisi orqali test yechish bo’limiga kirish lozim. “Test” tugmasi tanlanganda shu mavzuga doir testlar beriladi. Testlar har xil usullarda tuzilgan bo’lib, bu o’quvchining diqqatini jamlashga, xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Elektron o’quv qo’llanmaning gorizontal - bosh menyu qismidan “Video” bo’limi tanlangach, yon tomonda boblar keltirilgan, undan kerakli bob va mavzu tanlanib, sichqoncha tugmasi bosilganda, mavzu yuzasidan videorolik yoki videolavha o’quvchilarga taqdim etiladi.



Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablari fanlarini o’qitishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan, elektronaxborot ta’lim resurslaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimi fanlaridan elektronaxborot ta’lim resurslari yaratish va ulardan dars o’tish jarayonida foydalanish ko’plab imkoniyatlaryaratib beradi. Bilim olishda interaktiv testlar yaratish va ulardan foydalanish; axborot texnologiyalari asosida dars jarayonini tashkil etish dars sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

G'. Yaxshiboyev-SamDAQI dotsenti

G. Ergasheva - SamDU HXTXQTMOHM o'qiyuvchisi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida ustuvor ekanligi ta'kidlangan va ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'limni boshqaruv tizimi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining haq-huquqlari, vazifalari, ta'limni moliyalash tartiblari belgilab berilgan.

O'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, ta'limning mazmunini, uning ilmiy nazariy va metodik saviyasini oshirish, o'qituvchilarning metodik ta'minoti va ularga ko'rsatilayotgan metodik yordamni yaxshilash, tobora takomillashtirib borish, o'qituvchining kasbiy mahoratini va nufuzini oshirish zarur.

Pedagogik texnologiya o'z tizimiga ega bo'lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda o'quv jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limda kutilgan natijalarga erishiladi, vaqt tejiladi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv – tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nutqai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalanadi. Interfaol bu o'zaro, harakat qilmoq o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol usullarni bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi; o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini domiyligini ta'minlanishi; o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagogik va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.


Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanilgan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

“3x4” texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi) larni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo‘lib fikrlab hal etish, yechimini topish, ko‘p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, fikrlarni ma‘qullay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o‘quvchi)lar bilan avval yakka holda, so‘ngra ularni kichik guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o‘quvchi)larning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoat bo‘lib ishlashga, intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o‘z fikrini o‘tkazishga, uni ma‘qullashga; qo‘yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olish o‘rganish.

Texnologiyaning qo‘llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlariga ajratilgan holda) o‘tkazish hamda guruh a‘zolarini bir necha marotaba joylarini o‘zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan.



“UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA AXBOROT KOMMUNIKTSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH”

A.Ishankulov, A.Djumayeva

SamDU HXTXQTMOHM o‘qiyuvchilari

2017 – 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida fan va ta‘lim sohasini isloh qilish, tizimni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi [1].

Buning amaliy ifodasi sifatida 2017- yilda xalq ta‘limi tizimida ko‘plab yangiliklar hayotga tadbiq etildi. Ta‘lim – tarbiya sohasini takomillashtirish, fanlarni o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta‘lim maskanlarida zamonaviy shart – sharoitlar yaratish, pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirishga doir qator me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy ishlar boshlab yuborildi. Ta‘lim tizimining bugungi vazifasi tinglovchilarni kun sayin to‘lib toshayotgan axborot - ta‘lim muhiti sharoitida bemaolol faoliyat ko‘rsata olishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoitini yaratib berish zarur. Elektron darsliklar, virtual laboratoriya stendlari, o‘quv filmlari aynan yuqoridagi muhitning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Elektron darsliklar yaratishda tanlangan o‘quv darslik asos qilib olinadi ya‘ni davlat ta‘lim standartlariga asoslanadi desak xato bo‘lmaydi. Elektron darslik vositasida o‘qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

✓ ta‘lim oluvchilar katta miqdordagi topshiriqni bajarishga ulguradilar, yechimlar va ularning grafik talqinini talqin qilish uchun sarflanadigan vaqtni tejaydilar;

✓ kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg‘ulot o‘tkazish imkonini beradi;

✓ ta‘lim oluvchilar bilimi tez va samarali nazoratdan o‘tkaziladi;

✓ o‘qituvchiga nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zining hohishi bo‘yicha hajm jihatdan kichik, ammo tarkibi bo‘yicha o‘ta muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni yetkazishga, ta‘lim oluvchilarning auditoriya mashg‘ulotlari doirasidan tashqari o‘rganish mumkin bo‘lgan masalalarni yechishda mustaqil shug‘ullanishlariga sharoit yaratiladi.

✓ o‘qituvchini uy topshiriqlari, turli hisoblashlar va nazorat ishlarini tekshirishdek mashaqqatli mehnatdan ozod etadi.

✓ ta‘lim oluvchi bilan, bilan, ayniqsa, uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlashni individuallashtirish mumkin.

O‘quv filmlari vavirtual laboratoriya stendi ta‘lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitishda amaliy va laboratoriya darslarida qo‘llanilishi, talabalarga mustaqil ta‘lim olish yoki masofaviy ta‘lim jarayonida, shuningdek sanoatda yangi ishchilarga kerakli ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda foydalanilishi mumkin. Darslik - davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqolol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr ekanligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Elektron darslik esa, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta‘lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma‘lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan bo‘lib:

✓ o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;

- ✓ o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- ✓ multimedia (multimedia - ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovoqli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida;
- ✓ taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchi (talaba, tinglovchi) ni "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi [2].

Yangi asr ta'limini rivojlanish tendensiyasi - axborot texnologiyalarini o'quv tarbiya jarayoniga keng qo'llash va tarqatishdir. Yangi axborot texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish ta'limda an'anaviy o'qitish jarayonidan o'quvchining o'zi ta'lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi. Katta oshkorlikda o'tadigan bu jarayon kelajakda ta'lim tizimida keskin inqilob qilishga qodir bo'ladi. Ko'pchilik iqtidorli o'quvchilar o'zlarining qobiliyati va qiziqishiga ko'ra mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarining mustaqil ishlash faolligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilg'or pedagogik texnologiyalaridan hamda yangi avlod o'quv adabiyotlaridan foydalanishni talab etadi. Shuningdek bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi bilim olishning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishini taqozo etadi. Bunday shakllardan biri elektron ta'lim zahiralari vositasida o'qitishdir.

Elektron ta'lim zahiralari vositasida ta'lim berish pedagogik adabiyotlarda kompyuterli o'qitish texnologiyasi deb yuritiladi. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ushbu texnologiya ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi;
- ✓ o'qituvchi ta'lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- ✓ o'qitish jarayonida axborot vositalari va zahiralari faol integratsiyasi ta'minlanadi;
- ✓ o'qishga qiziqish ortadi;
- ✓ ta'lim olishning qulayligi va natijaviyligini oshadi;
- ✓ ta'lim oluvchining mustaqil ishlash va izlanish malakalari shakllanadi.

Umuman xorijiy tadqiqotchilar zamonaviy o'qitish vositalarini qo'llashda tizimli yondashuvni, ya'ni o'qituvchilarni sifatli tayyorlash va qayta tayyorlash hamda pedagogik texnologiyalar sohasidagi olimlar, pedagoglar va mutaxassislar bilan hamkorlikni rivojlantirishni tavsiya etadilar. I.G.Zaxarova fikricha, kompyuterli o'qitishda har bir ta'lim oluvchi ma'lum bir vaqtda «virtual o'quvchi» sharoitida bo'ladi. Demak talabanning virtual muhitga ko'nikib borishi ta'minlanishi kerak. Kompyuterli o'qitish texnologiyasini joriy etishda asosan elektron darsliklardan foylaniladi. Elektron darsliklar maxsus fanning mazmuni va mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy mashg'ulotlarni bajarishga imkon yaratadi. Murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan halos etadi. O'rganishning barcha bosqichlarida o'z-o'zini tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir elektron darslik alohida ko'rinishda bo'lishi va ma'lum bir standart talabga javob berishi lozim. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarining uskunaviy vositalari asosida yaratilayotgan elektron darslikning strukturasi to'xtalib o'tamiz.

Zamonaviy elektron qo'llanmalardan biri bo'lgan elektron darslik multimediali mahsulot bo'lib, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni bajarishda o'qitishni samarali tashkil etish va tinglovchilarning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday darsliklardan uzluksiz o'qitish rejimida foydalanish tinglovchilar bilimi sifatini oshirishga yordam beradi. Biror-bir fan bo'yicha elektron qo'llanma yaratilyotganda kursning ajratilgan qismi amaliy (mashqlar) va nazorat (test savollari) mashg'uloti, kursning katta bo'limi esa testli mashg'ulot va sinov bilan tugashi lozim. Elektron qo'llanmadan o'quv jarayonida foydalanilganda quyidagi afzalliklarga ega bo'linadi:

- ✓ tanlangan fan yoki kurs bo'yicha bayon etilayotgan axborotlar to'plami yaxshi strukturaga ega bo'lib, tugallangan fragmentlarni tasvirlaydi;
- ✓ o'quv kursining strukturali elementi gipermatnli, ko'rgazmalilik, audio va video izohli yoki video ko'rgazmali kalitli mavzulardan tashkil topadi va malakali o'qituvchi yoki ma'ruzachi o'qilayotgan fandagi o'z fikrlarini bildiradi hamda oddiy darslikda o'zlashtirish qiyin bo'lgan fikrlarni izohlaydi;
- ✓ gipermediali grafikadan foydalanib, darslikka tegishli murakkab model va ko'rgazmalarni tushunarli va sodda shaklda tasvirlash imkoniyatidan foydalanadi;
- ✓ elektron qo'llanma ko'p oynali interfeysga ega bo'lib, har bir oynada o'zaro bog'langan axborotlar joylashtiriladi;
- ✓ darslikda matnli qism ko'p sonli kesishgan gipermatnli bog'lanishga ega bo'lib, zarur axborotni izlash vaqtini qisqartiradi va qo'shimcha videoaxborot yoki animatsiyali kliplardan kursning matnli qismlarini bayon etish mushkul bo'lgan bo'limlarini ifodalashda to'liq foydalaniladi;
- ✓ elektron qo'llanmada foydalanuvchi tomonidan amallarning to'g'ri bajarilishi, yordam olish jarayoni ovoqli signallar bilan, axborotni boshqa ko'rinishlarini esa multimediali vositalarning imkoniyatlaridan foydalaniladi;
- ✓ axborotning sifati, ishonchligi va uning strukturasi talab oshadi;

✓ elektron qo'llanma yordamida kurs ishlari va referatlarini tayyorlash imkoniyati mavjud bo'lib, bunda zamonaviy kompyuter va pedagogik texnologiyani birlashtirib yangi ko'rinish va sifatdagi qo'llanmalarni yaratish mumkin. [3]

Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shunday imkoniyatlar yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyda shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jihozlangan oliygohlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin. Elektron o'quv darslik - o'quv adabiyotining yangi janri. Elektron o'quv darslik (hatto eng zo'r) kitob shakliga almashtirish shart ham, kerak ham emas. Ekranlashtirilgan o'quv adabiyotining bu janri mutloqo yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar video, rasm, ma'lumotnomalar, matnlar joy olgan. Elektron o'quv darslik maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo'lishi kerak. Ya.Kamenskiy VII asrdayoq ko'rgazmalilikni shunday ta'riflaydi: "har bir narsani hissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan obyektning his-tuyg'ular orqali anglash, maket va modellarni o'quvchilar orqali kuzatish, o'qitish ko'rgazmaliligini avval aniq obyektning anglash" deb tushunilgan [6].

Model - bu nima? Odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi nimada? Model - bu obyekt yoki obyektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan obyektning tashqi ko'rinishi haqida tasavvur hosil qiluvchi natural predmetlarni anglatadi. Model esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan hodisa uchun izomorf.[3] O'rganish vositasi ko'rgazmalilik bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish (ya'ni model o'rganilayotgan hodisaga izomorf bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining nazariy tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davidov orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi. Modellashtirish Davidov ko'rgazmalilikni to'ldiruvchi didaktik prinsip deydi. Elektron dasturning maqsadi - o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi. Bizningcha, o'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo'shimcha ko'rgazmalilik tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg'unlashishi va tartiblashishi uchun. Kompyuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig'dirish maqsadi qo'yilmaydi. Bu o'quvchini matn parchasini o'rganishdan chalg'itadi. O'quvchiga beqiyos ozodlik berish xavfli. Rasmdan lug'atga, boshqa gipermatnga ko'chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan mahrum etish ham kerak emas. Ongli kelishuv zarur o'qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak. Gipermatnda harakatli rasmlar ko'pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to'liq bilim olishga halaqit beradi. Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerak? Bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va xarakteriga bog'liq. Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar keraklimi? Bir marta tasvir ko'rish, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq. Misol uchun siz o'quvchidan matndan o'qiganlarini tasvirlashni so'raysiz, unga 3-5 sekund ichida ko'rgani ma'qul. Matndagi so'zlarni tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo'ladi? Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

- O'quv matnini mazmuni va xarakteriga ko'ra;
- O'quv uslubiga ko'ra;
- O'quv muassasasiga ko'ra.

Ko'rgazmalilik vositalari asosida o'qitish tasnifi. Mazmun va xakteri bo'yicha tasnif 3 guruhga bo'linadi:

1.Tasvirli ko'rgazmalilikka:

- rasmlar reproduksiyasi;
- arxitektura va haykataroshlik fotoreproduksiyasi;
- o'quv matnlar uchun yaratilgan o'quv rasmlar;
- rasm va applikatsiyalar;
- videoparchalar;
- audioparchalar;
- videofilmlar kiradi.

2.Shartli-chizmalik ko'rgazmalilikka:

- jadvallar;
- sxemalar;
- blok-sxemalar;
- diagrammalar;

- grafiklar;
- xaritalar;
- planshetlar kiradi.


3. Predmetli ko'rsatmalilikka:

- muzey eksponatlari;
- maketlar;
- modellar.

Axborotni ko'z oldiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki hissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnini o'zlashtiriladi. Tasviriy material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasviriy vositalaridan foydalanadi. Yaxshi jihozlangan o'quv matni umumiy holatga ijobiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, fikrlash jarayoni yengillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi. Elektron darslik bosma o'quv materialini barcha tomonlarini saqlash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. Dinamik tasvirga statik tasvirni ko'z oldiga keltirish. Animatsiya bu harakat samarasini joriy etish jarayonidir. Animatsiya tezlikda uzatishni taminlaydi.

- matn axborotini qismlab beradi;
- tasvir qismlarini so'zsiz harakatiing jarayoni;
- rasm harakati (so'zsiz);
- tarixiy janglar so'zsiz harakatini;
- fizik va kimyoviy jarayonlar;
- texnologik jarayonlar texnik konstruktsiyalash;
- tabiiy hodisalar jarayoni;
- siyosiy hodisalar jarayoni;
- sotsial hodisalar jarayoni;

Animatsiya - obyektlar harakati va hollarda so'zsiz harakatlarni cheksiz va amaliy sharoitlar yaratadi O'zbekistonda hozirga davrga kelib turli elektron darsliklar, virtual stendlar yaratilgan. Albatta elektron darsliklar ta'lim sohasida qanday foydalanilishi mumkinligi haqida savol tug'iladi. Masalan, Umumiy biologiya fanidan genetik transformatsiya va transduksiya mavzusidagi, transduksiya va transformatsiya haqida, ko'chib yuruvchi genetik elementlar va plazmidalar mavzusidagi plazmidalar haqida amaliy mashg'ulot o'tilganda, mavzuni turli tuman animatsiya va videoqo'llanmalar yordamida o'tish ancha yuqori samara beradi. Chunki o'quvchi yuqoridagilar haqida faqat eshitibgina qolmay balki vizual ko'rinishda tasavvurga ega bo'ladi. Inson asosiy axborotning deyarli 90% ini ko'zi orqali oladi. Bu esa o'quv jarayonida elektron darsliklarning qanchalik samara berishini ko'rsatadi. Yaratilayotgan virtual laboratoriya stendlariga hozircha hech bir qa'tiy talab qo'yilmagan. Virtual laboratoriya stendlari o'quvchi virtual muhitga olib kirish unga yangi tushunchalar haqida ma'lumot beradi, talaba uchun yangi bo'lgan muhitni jonlantiradi. Albatta qanchalik laboratoriya stendi yaxshi chiqishi uni yaratuvchi dasturchiga bog'liq.



МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ БАЪЗИ БИР МУАММОЛАРИ

Ш Абдуев., Р. Тугалов. СамДУ хузуридаги ХТХҚТМОХМ

Ҳозирги кунда замонавий ахборот ва телекоммуникацион технологияларда кенг фойдаланиш ўз самарасини кўрсатмоқда. Лекин шу билан бирга унинг натижасида баъзи бир муаммолар ҳам пайдо бўлмоқда. Биз ана шу муаммоларнинг баъзиларига тўхталиб ўтамиз.

Замонавий технологиялардан малака ошириш тизимида фойдаланишнинг асосий муаммолардан бир ижтимоий муаммо ҳисобланади, чунки таълим соҳасини ахборотлаштириш ва ўқитишда янги ахборот технологиялари (мултимедия, анимация, Flash-технология ва ҳоқоза) воситалари энг аввал тингловчининг касбий йўналишлари, мутахассисликлари ва бошқа факторларга боғлиқ бўлади. Агар ингловчилар табиий фанлар йўналиши бўйича таълим олаётган бўлса, унда ҳисоблаш техникалари ва ахборот технологияларининг таълим тизимида қўлланилиши катта муваффақиятлар билан амалга оширилиб маълум бир натижаларга эришилмоқда, чунки бу

йўналишда дарс бераётган ўқитувчилар ҳам тингловчилар ҳам компьютер воситалари билан ишлаш кўникмаларини анча ўзлаштириб олишган, лекин гуманитар фанлар йўналишларида дарс бераётган ўқитувчилар ва тингловчилар эса баъзи бир қийинчилик ва муаммоларга дуч келишади.

Гуманитар фанлардан дарс бераётган ўқитувчилар ўзларининг кўп йиллик педагогик тажрибаларига эга бўлиб, дарсларга тайёрланиш учун унча кўп вақт ва меҳнат сарфламайдилар, лекин, ахборот ва телекоммуникацион технологиялар асосида дарс жараёнини ташкиллаштириш лозим бўлса, у ҳолда улардан компьютер технологиялари асосида ўқитиш услубини ҳамда компьютерда ишлаш малакаларини эгаллаш талаб қилинади.

Агар ўқитувчи дарсни ташкиллаштириш жараёнида компьютерлардан фойдаланса анча меҳнат ва вақт сарфлайди. Бунинг учун эса компьютерлардан фойдаланиш технологиялари бўйича шу соҳа мутахассисларидан ёки информатика ўқитувчиларидан услубий кўрсатма ва маслаҳат олишга тўғри келади. Бунда эса ўқитувчилар ўзларини маълум бир муддатга талаба ҳолатида ҳис қилишларига тўғри келади.

Катта ёшдаги ва лавозимдаги ўқитувчилар эса бундай ҳолда ўзларини ноқулай сезадилар. Ахборот технологиялари соҳасида компьютер, эксперт тизими, билим базаси, тармоқ, мультимедия, интернет, ваҳоза каби тушунчаларнинг микдорининг кун сайин кўпайиб бораётганлиги гуманитар фан ўқитувчиларининг дарс жараёнларида ахборот ва компьютер технологияларни қўллашга бўлган мойиллигини анча сусайтиради.

Шунинг учун ҳозирги кунда ахборот технологияларида кўпроқ оммалашган атамалардан фойдаланишга ва уларни ишлатишга эътибор берилмоқда. Булар технология, ахборот, компьютер, мультимедия, интернет, масофали ўқитиш, ягона ахборот муҳити ва ҳоза каби атамалардир. Бу тушунчалар ҳеч қачон фойдаланувчиларни компьютер ва ахборот технологияларга бўлган қизиқишини сусайтирмайди, чунки нафақат таълим соҳасида балки барча соҳаларда кенг қўлланилаётган тушунчалар ҳисобланади.

Бизга маълумки, ҳар қандай таълим жараёни доимо маълум бир ўқитиш услубиятига таянади. Бошқача айтганда, услубият – бу технология, ишлаб чиқариш жараёни эмас, балки ўқитиш жараёнидир. Технологик жараён эса олдиндан аниқланган ва кўрсатилган амаллар кетма-кетлигидан иборат бўлиб, унинг бажарилиши натижасида қўйилган масалани ечиш усули танланади, ечими олинади ва таҳлил қилинади. Ана шунинг учун ҳам технологик жараён маълум бир жиҳатдан алгоритмга ўхшашдир.

Ҳозирги кунда малака ошириш жараёнида ахборот ва телекоммуникацион воситалар ёрдамида ўқитишнинг кўплаб замонавий технологиялардан фойдаланилмоқда. Ана шулардан бири мультимедиа технологиясидир. Мультимедиа – бу аниқ бир маҳсулот сифатида мужассамлашган график, аудио-музыка, видео-расмлар, ахборотлар, анимациялардан иборат бўлиб, унда фойдаланувчи учун тескари мулоқотнинг ҳам имконияти мавжуддир.

Ўқув жараёнларида кўргазмалар ва намоёйишли тасвирларни қўллаш натижасида, ўқув фаолиятининг унумдорлик даражаси анча юқорига кўтарилди. Чунки унда профессор ва юқори малакали ўқитувчиларнинг маъруза ва машғулотларининг энг яхши назарий ва амалий ўқув материалларидан фойдаланилган. Ахборот ва компьютер технологиялари воситалари асосида ўқув материалларини кўргазмалар ва намоёйишли тасвирлар орқали ифодалаш ва ўзлаштириш ўқув жараёнининг самарадолигини оширишда маълум бир ижобий натижаларни бермоқда.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда шу нарса таъкидлаш лозимки, ҳар бир ўқитувчи ўзига тегишли бўлган дарс машғулотларини ахборот ва компьютер технологиялари ёки мультимедиа ўқув курслари асосида талаб даражасида ташкиллаштириши учун керакли замонавий техник ёки компьютер воситаларига эга бўлиши ҳамда улардан фойдаланиш билим ва малакаларини эгаллашлари лозим. Шу билан бирга ўқитувчиларнинг ўзларида ҳам дарс жараёнларини ахборот технологиялари воситалари асосида ташкиллаштиришга бўлган интилиш ва иштиёқ кучли бўлиши керак.

Бундан ташқари малака ошириш жараёнини компьютер технологиялари асосида ташкиллаштириш учун ушбу жараён, фан ва техник воситалар учун мос равишда услубий қўлланмалар яратилиши ва улар эса барча педагогик ва психологик нуқтаи назардан қўйилган талабларга жавоб беришлари керак.

Бугунги кунда янги ахборот ва телекоммуникацион воситаларнинг пайдо бўлиши таълим жараёнида фаолият юритаётган замонавий педагогларнинг имкониятларидан анча илгариларга кетган. Бунинг учун ўқитувчиларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш жараёнлари барча мамлакатларда жуда тез ва қисқа муддатлар оралиғида ўтказилиши лозим. Шунда янги пайдо бўлаётган

технологиялар, ахборот технологиялари ва улардан фойдаланиш имкониятлари орасидаги фарк кескин камаяди.

Малака ошириш тизимида янги ахборот ва телекоммуникацион воситаларни мукамал тадбиққилишлари учун қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратилиши лозим:

✓ профессор-ўқитувчиларнинг фанларни ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш бўйича фикр-мулоҳозаларини ва лойиҳаларини инобатга олиш;

✓ ўқитиш жараёни ўқитувчи учун жуда қулай ахборот ва компьютер технологиялари воситалари билан таъминланилиши (замонавий компьютер, мультимедия, факс-модем, сканер, электрон доска, Интернет тармоғи);

✓ ўқитувчи учун нафақат компьютернинг ишлаш тезлиги балки унинг мулоқот воситасининг енгилиги ва қулайлиги муҳим, яъни ўқитувчи ўзининг фанлари учун компьютерни танлаш ва бесамара ишлатишда қимматли вақтини сарфламаглиги;

✓ ўқитувчига компьютерларни қўллашда методик синовдан ва тажрибадан ўтган замонавий ўқитиш моделларини тавсия этиш лозим;

✓ ҳар бир ўқитувчи учун малакасини ошириш имкониятини таъминлаш зарур, яъни янги ахборот технологиялар воситалари билан танишиш ва амалда эуларнинг жиҳозларининг қўлланилиш афзалликларини ўрганиш.

Бошқача айтганда, таълим жараёнида компьютер ва ахборот технологияларидан мукамал фойдаланиш учун асосий эътибор энг аввало ўқитувчига зарур бўлган шароитни яратишга ва у компьютерларни малака ошириш тизимида самарали қўллашига қаратилиши лозим.

Фойдаланилган интернет манбалар

www.infocom.uz

ww.ziyonet.uz

www.edu.uz



UZLUKSIZ TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA UNI TASHKIL ETISH USULLARI.

B.A.Amirullayeva SamDUHXTXQTMOHM assistenti

Hozirgi paytda dars jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator dars turlari ishlab chiqilgan: muammoli ta'lim, amaliy o'yinlar, dasturli dars, krassvordli dars h.k, ammo ularning barchasi ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayapti deb bo'lmaydi.

Buning asosiy sababi shundaki bunday mashg'ulotlarning har biriga tayyorlanishning o'zi butun pedagogik tadqiqot bo'lib, u o'qituvchidan yuksak malakani, ijodiy yondoshuvni va ancha ko'p vaqtni talab qiladi. Har bir mashg'ulotning mazmuni va uni yetkazish jarayoni o'ziga xos bo'lib, uni ko'paytirishning, tadbiiq qilishning imkoni yo'q. Shuning uchun pedagogika tarixida ijod etilgan dars usullari: muammoli dars, dasturli dars, tayanch iboralar va h.k. pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarila olmadi. Pedagogika tarixida asosan uch xil dars usuli qo'llanilib kelinmoqda.

An'anaviy tushuntirish-ko'rgazmali ta'lim usuli. Bu usulda o'quv axboroti asosan o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi, o'quvchilar esa mazkur bilimlarni xotirasida saqlash va mustahkamlash bilan chegaralanib qoladilar. Bu usulda bilim deganda o'quvchi xotirasida saqlanadigan axborot tushuniladi. Biroq bilimlar xotirada uzoq saqlanmaydi, zarur paytda o'quvchilar uni qiyinchilik bilan eslashadi yoki umuman eslasha olmaydi. Bu usulni yana bir kamchiligi o'quvchilar bilimga tayyormi yo'qmi bundan qat'iy nazar axborot berilaveradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tezkor teskari aloqa mavjud emas. Ta'limning tushuntirish-ko'rgazmali usuli takomillashtirilib borilmoqda, ammo uning imkoniyatlari cheklanganligi sababli zamon talabiga javob bera olmay qoldi.

Qidiruv-tadqiqot ta'lim usuli. Bu usulda o'quvchilar aktivligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish kabi xislatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Tadqiqiy-qidiruv usulida o'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qituvchi o'quv jarayonida demokratik rag'batlantiruvchi faoliyati asosida o'quvchilarning shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi., hamkorlikni amalga oshiradi. Ammo bu usulni keng ko'lamda qo'llashning imkoniyati yo'q.

Pedagogik texnologiya. Bu usul an'anaviy pedagogikaning tajribasidan, yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini zamon talabiga mos holda ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki unda rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlariga erishish uchun kafolatlangan o'quv jarayoni loyihalanaadi. O'quv jarayonini loyihalash yuqori malakali mutaxassislar tomonidan bajariladi. Ushbu texnologik xarita asosida o'qituvchi ixtiyoriy masalani ham kafolatlangan ta'lim jarayonini amalga oshiradi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishda an'anaviy dars turlari saqlanib qolinadi. Ularning eng asosiylari muammoli va dasturli darslar hisoblanadi.

Fizika darsini muammoli tarzda olib borish o'quvchilar aktivligini oshiradi va ularni darsga ongli ravishda ishtirok etishga undaydi. Muammoli dars o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatni vujudga keltirishdan boshlanadi. Muammoli vaziyat tajribalar va demonstratsiyalar o'tkazish, laboratoriya ishlarini bajarish, masalalar yechish orqali amalga oshiriladi va o'quvchilar ishtirokida muammo oydinlashtirilib boriladi. Muhokama etiladigan muammo o'quvchilar bilimiga mos bo'lmog'i, unga erishish o'quvchilarda qiziqish uyg'otmog'i lozim. Muammoli darsni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin.

O'qituvchi o'zi muammoni qo'yib, o'zi masalani yechimini ko'rsatib beradi.

O'qituvchi muammoli vaziyatni yuzaga keltirib o'quvchilar ishtirokida muammoni hal etadi.

Muammo faqat o'quvchilar tomonidan (laboratoriya ishlari, masala yechish, kuzatish, tajriba orqali) yechiladi.

O'quvchilarga muammoni qo'yishni va uni yechimini topishni taklif etish.

Misollar:

Arximed qonuniga doir. Muammo: Nima uchun temir parchasini suvga tashlasak cho'kadi? Ammo temirdan yasalgan ulkan kemalar dengizda suzib yuradi? Ushbu muammoni hal etish uchun o'qituvchi Arximed kuchi tabiatini tushuntirishdan boshlaydi. Jismlarning suvda suzish sharti, ya'ni Arximed kuchini og'irlik kuchidan katta bo'lishligi orqali izohlanadi

Aylanma harakatga doir. Tuxumning po'chog'ini sindirmay turib u pishgan yoki pishmaganligini qanday aniqlash mumkin? Mexanikani qonunlaridan xabardor bo'lsangiz, bu, arzimagan topishmoqni osonlik bilan topish mumkin. Hamma gap shundaki, pishgan va xom tuxumlarining aylanishi turlicha bo'ladi. Bunday bo'lishining sababi shundaki, pishgan tuxum yaxlit jism kabi aylanadi; pishirilmagan tuxumning ichidagi suyuqlik esa o'zining inertsiasini tufayli aylanma harakatga to'sqinlik qiladi, suyuqlik tuxum po'chog'ining aylanishini sekinlashtiradi, u tormoz vazifasini bajaradi.

Elektromagnit induksiya hodisasini va unga tegishli Lens qoidasini tushuntirishda ham quyidagi tajriba orqali muammoli vaziyatni yuzaga keltirish mumkin. Ikki xil o'lchamdagi temir xalqalar olinib ularning biri butun holda, ikkinchisidan esa kichikroq tirqish ochiladi. Ularni ip orqali osmaga osib, navbatma-navbat magnit tayoqchasini yaqinlashtiramiz. Halqalarning biri ya'ni tirqish ochilmagani magnit tayoqchasi bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ikkinchisi esa ta'sirlashmaydi. Tajriba tafsiloti o'quvchilarga tushuntiriladi va Faradey tomonidan ochilgan elektromagnit induksiya hodisasi tushuntiriladi.

Muammoli vaziyatni so'z orqali (hikoya, suhbat), tajriba orqali, chizmalar, grafiklar hamda fotosuratlarini namoyish etish orqali ham amalga oshirish mumkin.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKILLASHTIRISH

Ch.Abdurahmonova - SamDU MOM o'qituvchisi
X.Achilova - Samarqand shahar54- umumiy o'rta ta'lim
maktabboshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishini ta'minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy ta'limining vazifalari va maqsadlarining o'zgarishi, hamda kengayib borishi – ta'lim mazmunini va tuzilmasini hamda o'qitish jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf darslarida o'qitishning yangi zamonaviy metodlaridan foydalanish jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi. "Ta'lim to'grisida"gi Qonunda ham, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham o'quvchining mustaqil fikrlashi va ijodkorligiga alohida e'tibor berilgan.

Zamonaviy usullardan foydalanish: sinf muhitini o'zgartiradi; mavzu qanday o'rganilishi kerakligini belgilab beradi; har bir o'quvchini faollashtiradi. Bugungi kunda o'qituvchi o'qitish uchun faqat zaruriy axborotlarinigina tanlab olishi va o'quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o'rgatmog'i zarur. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, odob-axloqi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o'qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta'lim sohasi rivojiga hissa qo'shmog'i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o'quvchilar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik aloqalarini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi.

"Rezyume" texnologiyasi.

Texnologiyaning tavsifi: Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: O'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o'rgatish.

Texnologiyani qo'llanilishi: Ma'ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan tartibda o'tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotda foydalanadigan vositalar: A-4 formatdagi qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotlar o'tkazish tartibi:

o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi.

o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.

har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.

o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

"Blits-so'rov" usuli

Usulning tavsifi: Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'z g'alar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan ham fikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

1. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga moljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o'quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

2. Keyin hammaga alohida-alohida tarqatma material beradi va ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi va "o'quvchining ismi va familiyasi" va "sinfi" bo'limlarini to'ldirishni aytadi.

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi;

- har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi "o'quvchi javobi" bo'limiga berilgan savollardan 3xil variantli javobdan bittasini yozadi, javoblar raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilishi mumkin.

3. Berilgan vaqt ichida yakka tartibdagi ishlar tugagach tarqatma materiallar o'zaro almashinadi.(almashtirishni turlicha tashkil qilish mumkin, masalan yonidagi o'quvchi bilan, kichik guruhlarda yoki orqadagi o'quvch bilan)


4. Tarqatma materiallar almashingach, o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiy boshlaydi, o'quvchilar bir-birini ishini tekshira boshlaydi va "to'g'ri javob" bo'limiga "1" ball dan, agar noto'g'ri bo'lsa "0" ball qo'yib chiqishadi.

5. O'qituvchi baholash mezonini tushuntirib beradi va tarqatma materiallar qaytadan o'z egalariga almashirilishi so'raydi, o'z xatolarini ko'rib olishlariga imkon beradi.

6. O'qituvchi tarqatma materiallarni yig'ishtirib olib baholaydi va e'lon qiladi.

Izoh: misol tariqasida "Metallar" mavzusidagi blits-so'rov jadvalini keltirish mumkin (har bir o'qituvchi o'z pretmeti bo'yicha o'tayotgan, avval o'tgan mavzu yoki umumlashtiruvchi darslarda ushbu jadvaldan foydalanib blits-so'rov tuzishi mumkin).

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, agar darslar so'z, tushuntirish orqali olib borilsa, o'zlashtirish 10% ni, ko'rsatish, namoyishlar orqali tashkil etilsa, 50% ni, ta'lim jarayoni o'quvchilarning shaxsiy ishtiroki faolligida kechsa, o'zlashtirish sifati va samaradorligi 90% ni tashkil etadi.



O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

D.Yusupova – Samarqand Olimpiya zahirolari kolleji tarix fani o'qituvchisi
R.Butayeva - Samarqand shahar 54- maktab o'qituvchisi

Har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning aqliy saviyasi bilan belgilanadi.

Bu borada jamiyatimiz psixologiya fani zimmasiga murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yuklamoqda. Shuning uchun psixologik nazariyani jadal rivojlantirish, pedagoglarning psixologik ishlarga e'tiborli bo'lish va yoshlarni barcha hayot faoliyatidagi psixik jarayonlarni o'rganish, hamda ularni boshqarish hozirgi zamon talabidir.

Bizga ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchini mavzuni yaxshi o'zlashtirishga, mustaqil o'qishga, darsda ularning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi jarayondir. Ta'limda interfaol usullardan hamda didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Mavzularni turli xil metodlardan foydalangan holda tashkil qilish o'quvchilarda tirishqoqlik, izlanuvchanlik kabi xislatlarni rivojlantirmoqda.

Ma'lumki, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etishga qiziqish keng tus olib bormoqda. Boisi shundaki, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda "yangilik yaratish" tushunchasi sifatida ko'rib chiqiladi, innovatsion jarayon tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda ta'lim muassasasi amaliyotida samarali qo'llash jarayoni sifatida ifodalanadi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlash va tayyorgarlik ko'rish zarur. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotlarda vaqtdan unumli foydalanish zarur hisoblanadi. Buning uchun kerakli vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini hisobga olish zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. Ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.


O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq. SHu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchi-talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali o'tishini, shaxs shakllanishini ta'minlaydi.

Interfaol mashg'ulotlarning usullari ko'p bo'lib, bular hammasi ham shaxs shakllanishiga bir xilda ta'sir ko'rsatmaydi, demak, o'qituvchi o'quvchi shaxsida har bir psixik jarayonlarni va xususiyatlarni shakllantirish uchun interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olish lozim.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bahsli, muammoli vaziyat - insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlaydi, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning asosiy shakllanish va rivojlanish davri ta'lim sohasiga bog'liq holda kechar ekan. Demak, ta'lim-tarbiya sohasida ularni psixologik jihatdan shakllantiruvchi omillarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА НОАНЪАНАВИЙ ЎЙИНЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

*Дилноза Ғафурова СамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМО ҳудудий маркази
амалий психология касбий қайта тайёрлаш курси тингловчиси*

Инсоният цивилизациясининг куйи босқичларида шахсни тарбиялаш, унга таълим беришга йўналтирилган фаолият содда, жуда оддий талаблар асосида ташкил этилган бўлса, бугунги кунга келиб таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан ўта қатъий ҳамда мураккаб талаблар кўйилмоқда. Мазкур вазифаларнинг мувоффақиятли ҳал этилишида яна бир омилнинг мавжудлиги, яъни, узлуксиз таълим тизими ходимлари, мураббий-ўқитувчилар томонидан замонавий таълим технологияларини моҳиятидан хабардорликлари ҳамда таълим жараёнида самарали қўллаш олишлари, шунингдек, таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан ижодий ёндашувнинг қарор топиши муҳим аҳамият касб этади.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг етакчи фаолияти бу ўйиндир. Ўйинда ёш организмга хос бўлган талаб ва эҳтиёжлар қониқтирилади. Ҳаётини фаоллик яратилади. Бирдамлик, тетиклик, қувноқлик тарбияланади. Ўйин таълим ва машғулотлар билан кундалиқ ҳаётдаги кузатишлар билан узвий боғлиқ бўлиб, жуда катта таълимий - тарбиявий аҳамиятга эга. Ўйинда акс этирилган

нарсани билиб олишга қизиқиш уйғонади, кўпинча ўйин болаларга янги билим бериш ва уларнинг фикрларини, билим доирасини кенгайтириш учун хизмат қилади.

Ўйин бола учун эрмак, қувонч манбаи бўлибгина қолмай, бола диққати, хотираси, ижодий тафаккури ва тасаввурини ўстиришга ҳам хизмат қиладиган воситадир. Бу жиҳатлар боланинг бундан кейинги ҳаётида муҳим ўрин тутаяди. Ўйин жараёнида болалар янги билим, малакаларни эгаллайдилар, қобилиятларини ўстирадилар.

Ноанъанавий ўйинларни қиёсан бир неча мустақил гуруҳларга ажратиш мумкин:

Идрокни ўстиришга қаратилган ўйинлар болада нарсаларнинг ранги, шакли, катталигига кўра таҳлил қилиш малакасини шакллантиради.

Мактабгача ёш охирига келиб, болалар ранг қаторидаги 7 хил рангни бемалол фарқлай олишлари, улар асосий геометрик шакллар (доира, овал, туртбурчак тўғри туртбурчак, учбурчак)ни билишлари лозим. Болалар нарсаларнинг катталигини фарқлашда уларнинг ўлчами бўйича териб чиқишни биладилар, 8-10 та таёқча, доирача ёки бошқа бир хил турдаги катталиги ҳар хил предметларни катталашиб ва кичиклашиб боровчи тартибда қўйиб чиқадиладар. Нрсалар катталигини 3 хил ўлчамда номини айта оладилар (узунлик, кенлик, баландлик).

Диққатни ривожлантиришга қаратилган ўйинлар туркуми орқали мактабгача ёшда бола диққатининг турғунлиги, кўчувчанлиги, бўлинувчанлиги каби хусусиятлари шакллантирилади.

Диққатнинг бўлинувчанлиги бир вақтнинг ўзида кишининг икки ёки ундан кўпроқ нарса билан шуғуллана олишида намоён бўлади. Катта мактабгача ёшдаги болалар 6-7 та нарса ўртасида диққатни тақсимлай оладилар.

Мактабгача ёшда ихтиёрсиз диққатдан аста-секин ихтиёрий диққатга ўтилади. Ихтиёрсиз диққат жараёни айна пайтда бола учун қизиқарли нарсага диққатни қаратишда юзага келади. Ихтиёрий диққат боланинг ўзи учун қизиқ бўлмаган фаолият билан шуғуллана олишини назарда тутаяди.

Хотирани ўстиришга қаратилган ўйинларга катта мактабгача ёшдаги бола ўз олдига мақсад қоя олади, бирор нарсани эслаб қолиш, ана шу мақсадни амалга ошириш воситаларини излаб топиш шулар жумласидандир.

Тафаккурни ўстиришга қаратилган ўйинларданмақсад болаларда образли, ҳаракатли, кўргазмали-образли, мантиқий тафаккур турларини ривожлантиришдан иборат. Мактабгача ёшнинг охирига келиб, болаларда мантиқий тафаккур элементлари шакллана бошлайди, яъни улар хулосалар қила оладилар, мантиқ қонунларига кўра фикрлайдилар. Бола ижодий қобилиятининг ўсиши деганда тасаввур-хаёлнинг тараққиёти ва ноанъанавий тафаккур қила олиш тушунилади.


Мактабга тайёрлашга ёрдам берадиган ўйинларорқали кичкинтойларда элементар математик тасаввурларни ривожлантириш, нутқнинг таҳлили билан таништириш, бола қўлини ёзув малакасини эгаллашга тайёрлаш ишлари олиб борилади.

Ноанъанавий ўйинларни мактабгача таълим муассасасида ташкил этишда, болаларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, уларга мос ўйинларни тақлиф этиш керак. Шу мақсадда ноанъанавий ўйинларни уч ёшли болалар учун ўйинлар; тўрт-беш ёшли болалар учун ўйинлар; олти ёшли болалар учун мўлжалланган ўйинларни ажратиш мумкин.

Болаларни диққатини ривожлантиришга қаратилган ноанъанавий ўйинлардан бирини кетириб ўтамиз: (3 ёшли болалар учун)

Нрсаларни таққосланг. Боланинг олдига иккита ўйинчоқ қўйилади. Бола аввал улар нимаси билан бир - бирига ўхшашлигини, кейин ўзаро фарқини айтиб бериши керак. Масалан. айиқ ва қуёнча бир-бирига юмшоқлиги билан ўхшайди, уларнинг қул оёқлари, кўз, қулоқлари бор. Фарқи шундаки, айиқ-катта, қуён-кичкина. Айиқ-жигарранг, қуён-оқ ва ҳаказо. Белгиларни болалар билан галма-галдан айтиш мумкин. Шу тарзда ҳар қандай жуфт ўйинчоқни таққослашмумкин. Агар ўйинни мураккаблаштир лозим бўлса, бир-бирига анча ўхшайдиган ўйинчоқларни тақлиф қилиш мумкин (2 та машина, 2 та тўп).

Деярли ҳар бир ўйин учун уни ўтказишнинг соддароқ ёки мураккаброқ кўринишларидан фойдаланиш мумкин. Шу сабабли бола билан ўйин ташкил этишда унинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Агар бола топшириқларни бажаришга қийналмаса, унга бирмунча мураккаброқ топшириқ берилади, агар қийналса, соддароқ топшириқ бериш лозим.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*G. Rahmonova SamDU huzuridagi XTXQTM Ohududiy markazi
amaliy psixologiya kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchisi*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figura aylanadi.

Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, rahbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida – o'yin, mashg'ulot, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi.


Biz hozir innovatsion texnologiyalarni o'yin va mashg'ulot davomida qo'llash usulini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki o'yin faoliyati bolalar hayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o'quv faoliyatiga ruhan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o'yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o'stirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan keyingi hayotida muhim o'rin tutadi.

Bola bilan o'ynar ekanmiz, biz ham o'z oldimizga maqsad qo'yib borishimiz kerak. O'yin davomida albatta biz ularning xohishi, istagi bo'yicha harakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog'lash va shu asosda muayyan

ko'zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma'lum maqsadga yo'naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishimiz mumkin. Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu o'yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni, diqqatni jamlashni, sezgini, bir narsani tezda idrok etishni, umumlashtirishni, chaqqonlikni rivojlantirish mumkin. Ta'lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat talablari asosida o'qituvchilar, tarbiyachilar shaxsini har tomonlama mukammal bo'lishini talab qiladi. Yangilanayotgan maktabgacha ta'limga davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik va mutanosiblik to'la taminlanishi lozim. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim davlat talablarini belgilashda shuni hisobga olish kerakki, ta'lim jarayonning tarkibini, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini ham modernezatsiyalash, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi.



ЎҚУВ ЖАРАЁНЛАРИГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

*Ж.Орипов. СамДУМОМ ўқитувчиси,
С.Туратошева СамҚХИ ўқитувчиси.*

Глобаллашув жараёни кечаётган бугунги даврда информацион жараён-ларнинг интенсифлашуви, инновацияларнинг турли соҳаларга жорий этишнинг тезлашуви, шахснинг ижтимоий тақомилига таъсир этадиган жиҳатларини назарий ва амалий тадқиқ этиш ижтимоий-фалсафий фанлар доирасида янада муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида: “Инновация [ингл. innovation-киритилган янгилик, ихтиро]

1. Техника ва технологиянинг янги турлари (авлодлари)ни жорий этиш мақсадида иқтисодийга сарфланган маблағлар.

2. Илғор техника ва технология, бошқариш ва бошқа соҳалардаги янгиликлар ва уларнинг турли соҳаларда қўлланиши”.

3. Муайян тилда, асосан унинг морфология соҳасида энг сўнгги даврларда пайдо бўлган янги ҳодисалар (тил бирликлари)”[1:212-б],- деб изоҳланганлиги, инновация тушунчасининг кенг маъноли эканлигини бил-диради.

Ҳозирда, дунё мамлакатлари тажрибасида инновацияларнинг соҳалар бўйича кенг қўллаш жараёни тезлашди.2018йилни Ўзбекистонда “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”,- деб эълон қилиниши ва 2018 йил 22 январда “2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”гиПрезидент Фармонининг қабул қилиниши, юқоридаги фикримизнинг яққол далилидир.

Инновациялар нафақат инсоният ижтимоий ҳаётида, балки таълим муассасаларида ўқув-тарбиявий жараёнларни ташкил этишда бир қатор ку-лайликлар яратиб беради. Шунинг учун ҳам инновацион технологиялар асосида интерфаол усуллар ёрдамида дарсларни ташкил этиш ўзининг омилкорлиги билан ажралиб туради.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев: “Ёшлари-мизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”[2:14-б],- деб таъкидлаган эди.

Ана шундай юксак интеллектуал салоҳияти, теран дунёқарашга эга, маънавий етук ёшларни шахс сифатида камол топиши, дарсларда қўллани-лаётганинновацион технология ва интерфаол усуллар билан узвий боғлиқдир. Ёш авлоднингшахс сифатида шаклланишида дунёда бўлаётган ўзгаришлар, фан-техника оламидаги ихтиролар, янгиликлар ва ахборот-лардан хабардор бўлишларида инновацион технологияларқанчалик муҳим бўлса, интерфаол усуллар ёрдамида ўқув жараёнини ташкил этиш ҳам шунчалик самарали ҳисобланади. Бу халқ таълими ходимларининг инно-вацион технология ва интерфаол усулларни ўқув жараёнига қай даражада тадбиқ эта олишлари билан боғлиқ. Чунки, педагогларнинг инновацион педагогик

технологияларни таълимда қўллашга оид билим, кўникма ва тажрибалари ўқувчиларнинг чуқур, пухта билимга эга бўлишидамуҳим омил бўла олади.

Дарҳақиқат, ёшларнинг онги ва қалбида ватанпарварлик туйғуларини кучайтириш, уларнинг руҳиятига сингдириш, ёт ғояларга қарши мафқуравий иммунитетни кучли, иродали шахсларни камол топтириш вазифаси нафақат миллий, балки умуминсонийлик касб этмоқда. Бу жараёнда ҳалики тафаккуридаги ижобий ўзгаришлар, уларнинг ён-атрофдаги воқеаларга дахлдорлик ҳисси, ижтимоий-сиёсий фаоллиги ва фуқаролик позицияси тобора мустаҳкамланиб бораётганлигида ўқитувчи– педагогларнинг инновацион педагогик технологиялардан самарали фойдаланиш ва амалиётга кенг жорий этилаётганлиги самараси десак муболаға бўлмайди.

Яна шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, инновацион технологияларни жамиятда кенг жорий этилаётганлигининг энг муҳим омилларидан бири бу интернет бўлса, ўз навбатида интернет инновациянинг самарасидир. Таълим жараёнида интернетдан фойдаланиш, фан, маданият, санъат, тиббиёт ва бошқа ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларига оид маълумотларни излаб топиш имконини беради. Аммо, интернетда ёшларни онги ва қалбини эгаллашга қаратилган бузғунчилик, вайронкорлик, диний экстремистик ғоялар, “оммавий маданият”ни тарғиб этувчи сайтларини мавжудлиги, ўқитувчи - педагоглардан талабчанлик ва эҳтиёткорликни талаб этади.

Зеро, биринчи Президенти Ислоҳ Каримов айтгандек: “Бугунги кунда ёшларимиз нафақат ўқув даргоҳларида, балки радио-телевидения, матбуот, Интернет каби воситалар орқали ҳам ранг-баранг ахборот ва маълумотларни олмақда. Жаҳон ахборот майдони тобора кенгайиб бораётган шундай бир шароитда болаларимизнинг онгини фақат ўраб-чирмаб, уни ўқима, буни кўрма, деб бир томонлама тарбия бериш, уларни атрофини темир девор билан ўраб олиш, ҳеч шубҳасиз, замоннинг талабига ҳам, бизнинг эзгу мақсадларимизга ҳам тўғри келмайди.”[3:114-б]

Ҳақиқатдан ҳам инновацион технологиялар даврида ўқувчи-ёшларга бир томонлама тарбия бериш мутлоқо бугунги даврга мос келмайди. Инновацион педагогик технологиялар асосида ташкил этиладиган дарс машғулотларида ёшлар ўз муносабатларини билдира олиши, ўзлаштирилган билимларни ўзлари томонидан ҳолис баҳолашга, уларни фикрлашга, нуқтаи назарларини асослашга ва зарур қарорлар қабул қилиш имкониятини яратади.

Юқоридаги фикрларимизга асосланган ҳолда, шахснинг ижтимоий тақомили, юксак маънавий ва маърифий юксалиши, унинг интеллектуал салоҳияти, онгу-тафаккурини ўстириш, мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантириш халқ таълими ходимларини инновацион технология ва интерфаол усулларни ўқув жараёнида қай даражада қўллаш олишлари билан боғлиқ, деб ҳулоса қилишимиз мумкин.

Ушбу ҳулосаларимиздан келиб чиқиб, қуйидагиларни тавсия этамиз:

Биринчидан, инновацион технология ва интерфаол усулларни ўқув жараёнида қўллашдан, аввал ўқувчиларни ҳар бир машғулот жараёнида қўлланиладиган методлар билан ишлаш қоидаларини тушунтириш;

Иккинчидан, инновацион технология ва интерфаол усулларни ўқув жараёнида қўллашда, ўқувчиларни эркинроққўйиш ва уларни ҳамкорликда ишлашга, бир-бирини хурмат қилишга ўргатиш;

Учинчидан, энг муҳими, инсонпарварлик, демократизм принциплари асосида дарс жараёнига ёндашиш;

Тўртинчидан, ўқув жараёнида инновацион технология ва интерфаол усуллардан фойдаланаётган ҳар бир халқ таълими ходимидан юксак билим, тажриба, кўникма ва малака талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси. Тил ва адабиёт институти. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашрети, 5 жилд, 2 китоб, 2006.

2. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.: “Ўзбекистон”, 2017.

3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Т.: “Ma'naviyat”, 2008.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ELEMENTLARINI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

*G'.Boboqulov – SamDU o'qituvchisi
Sh.Jangirova-Samarqand shahar 63-umumiy o'rta ta'lim
maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Boshlang'ich sinf darslarida o'qitishning yangi zamonaviy metodlaridan foydalanish jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi. "Ta'lim to'grisida"gi Qonunda ham, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ham o'quvchining mustaqil fikrlashi va ijodkorligiga alohida e'tibor berilgan.

Dars jarayonida o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lishi, savol topshiriqlar va bahs-munozaralarda ko'proq ishtirok etib bilimni oshirishi o'quvchining mustaqil fikrlashida muhim rol o'ynaydi. Darslarda mustaqil mutolaa, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, o'quvchining zehni o'stirish, atrof olamga nisbatan mehr va e'tiborni, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanish zamon talablaridan biridir.

Bizning bosh maqsadimiz bo'lgan "O'zbek modeli"ni amalga oshirishda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy, ma'rifiy yo'nalishlardagi islohotlarni amalga oshirishda demokratik, fuqarolik, jamiyatimizning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi erkin shaxs tarbiyasi, uning mustaqil tafakkurini uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlaridan shakllantirib borish fuqarolik jamiyatining asosiy talablaridan biridir. Aynan, o'quv faoliyati orqali o'quvchilarning ta'lim mazmunini egallashi darajasi asosida, ya'ni respublikamizda qabul qilingan DTS doirasida shaxs dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, ijtimoiy tuzumga ongli munosabati tarkib topadi. Demak, ta'lim mazmunini chuqur o'zlashtirishni mustaqil tafakkurini shakllantiruvchi omil deb qaraymiz. Ushbu nuqtayi nazardan o'quv faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish bo'lib qolmay, balki ijtimoiy zarurat talabidan kelib chiqqan holda demokratik, fuqarolik jamiyatining faol ishtirokchisini shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, ta'lim jarayoni asosida bola shaxsining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash har bir pedagogning diqqat e'tiborida bo'lishi lozim.

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ularni har tomonlama o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Umuman olganda bu iboraning leksikologiyamizga kirib kelganiga ko'p fursat bo'lgani yo'q. Pedagogik jarayonda muayyan mavzu, fan asoslaridan o'quvchilarga ko'nikma darajasida tez va qulay bilim berish ham ta'lim texnologiyasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi mahorati ham muhim rol o'ynaydi. R.Choriyev fikricha, o'qituvchi mahoratiga to'rt yo'l bilan erishiladi:

Birinchidan, ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirishda tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish orqali;


Ikkinchidan, ilg'or hamkasblari ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tadbiq etish va takomillashtirib borish orqali;

Uchinchidan, xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish orqali;

To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib borish orqali.

Ta'lim mazmunidagi uzluksizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadi (nima uchun o'qitish kerak?)dan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi. Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish kerak?) yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga yetarli darajada mos uning mashg'ulot shakli tanlanadi. Fan va texnikaning, jumladan, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining rivojlanishi ta'lim mazmuni va uning metodlariga yangi talablarni qo'yaveradi, ya'ni bu rivojlanish muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim mazmuniga, jamiyat talabiga javob bermay tez-tez eskirib qoladigan holatlar ham ko'p uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim texnologiyasida o`quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlashga katta imkoniyatlar bor. Pedagogik texnologiyalarni qo`llash orqali o`qituvchilarning metodik mahoratini oshirish masalasining bir tomoni xolos. Keng ma'noda esa o`quv-tarbiya jarayonining yaxlit tarzda, mazmunli amalga oshirish texnikasi, uning pirovard natijalari samaradorligini belgilovchi omil, o`qituvchi, kadrlarni mahoratga, samarali mehnat qilishga yetaklovchi yo`ldir



АХБОРОТЛАШТИРИШ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ

*Кадиров Т., Аминов И.Б.,
СамДУ МОМ, СамДУ.*

Жамиятни ахборотлаштириш жараёнларининг тараққий этишининг асосий сабабларидан таълим жараёнида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда ҳосил бўлаётган муаммолар ҳисобланиб, унда ўқитувчиларнинг касбий фаолияти ижодий, мустақил, мослашувчан, юқори интеллектуал ва ғоявий потенциалга эга, ижтимоий муҳитга нисбатан юқори касбий компетентлик даражасида бўлиши лозим. Чунки ўз устида ишлайдиган, мустақил таълим оладиган ўқитувчигина ўз устида ишлайдиган ўқувчига таълим ва тарбия беришга қодир бўлади. Бу эса, ўз навбатида ўқитувчини биринчи ўринда шахснинг таълим олиш фаолиятини рағбатлантирувчи, таълим жараёни учун янги технологияларни қидириб топиш ва уни амалиётга жорий этишга ундайди. Ана шунинг учун ҳам, ўқитувчиларнинг касбий ривожланишини таъминлайдиган, ижтимоий талабларини қондиришга ҳамда ўз иқтидорини, билимини, малакасини намойиш қилишга йўналтирилган, шунингдек уларнинг маданий, таълимий, касбий ва илмий салоҳиятини, яъни касбий компетентлигини ривожлантириш ва бошқаришга мўлжалланган замонавий тизимни яратиш зарурияти пайдо бўлади.

Ахборотлаштириш жараёнида замонавий ахборот коммуникацион технологиялари воситалари билан амалга ошириладиган ҳар қандай мулоқот уларни ахборот тизимини кенгайтириш, касбий ривожланиш ва мустақил таълим олиши учун шароитлар яратиш, таълим-ахборот ресурсларидан ўз педагогик фаолиятида фойдаланиш, мулоқотда бўлиш, зарур маълумотларни излаш ва топиш, тармоқнинг турли ижтимоий ва таълимга оид сайтларида ишлаш олиш, шу билан бирга касбий компетентликни ривожлантириш имкониятини беради.

Касбий компетентликни бошқариш ва ривожлантириш тизими таълим сифатини таъминлаш ва таълим жараёни барча субъектлари ривожланиши, ўқитувчиларнинг мустақил билиш ва илмий-изланиш фаолиятига керакли шароитларни яратишга йўналтирилган ахборот тизимидир.

Ахборот тизими педагоглар ва таълим ходимлари учун услубий муҳит яратиш, керакли ахборотдан самарали фойдаланиш, замонавий ахборот манбаларидан услубий ёрдам олиш, ўз касбий фаолияти юзасидан керакли билим, кўникма ва малакани шакллантириш учун хизмат қилади.

Бундай турдаги ахборот тизими таълим тизимига компьютер техникаси ва телекоммуникацияларни жорий қилиш шароитида ўз самарадорлигини намойиш қила олади. Замонавий компьютер технологияларининг таълим тизимига жорий қилиниши ахборот тизимини ривожлантириш бўйича энг муҳим имкониятлардан бири эканлигини кўрсатмоқда.

Ахборот тизимининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат :

✓ бўлажак мутахассисларга ва таълим соҳаси ходимларига мустақил таълим олиш, малака ошириш ва ўз устида мукамал ишлаш фаолиятини ташкил этишда ёрдам бериш;

✓ илғор педагогик тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш ва иш фаолиятида улардан фойдаланиш;

✓ касбий фаолият ва бошқа соҳаларга тегишли ахборотларни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш;

✓ касбий билим ва маҳоратларини янгилаш ва чуқурлаштириш;

✓ дарс жараёнини янги ахборот ва педагогик технологиялар асосида ташкил этиш;

Ушбу вазифаларни амалга ошириш эса қуйидагиларга боғлиқ:

✓ таълим тизимини янада юқори илмий, назарий, услубий даражада ташкил этиш;

✓ ўқитувчиларнинг мустақил ва ижодий фаоллигини таъминлашга хизмат қиладиган таълим усул, шакл ва технологияларини танлаш;

- ✓ таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда муайян режалилик ва давомийликни жиҳатларини оқилона боғланишини таъминлаш;
- ✓ таълим тизимининг мазмуни, ташкил этиш усул ва шаклларининг ўзаро узвийлигини таъминлаш;
- ✓ ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда уларнинг касбий эҳтиёж ва талабларини ҳисобга олиш ва етарли даражада қондиришга эришиш.

Ана шуларни эътиборга олган ҳолда касбий компетентликни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий масалалари қуйидагилар ҳисобланади:

- ✓ таълимни бошқарувининг самарадорлигини таъминловчи малака-ларни шакллантириш;
 - ✓ таълим жараёнининг самарадорлигини таъминловчи педагогик малакаларни шакллантириш;
 - ✓ ўқитувчи фаолиятининг методологик асоси сифатида педагогик билимлар тизимини егаллаш;
- ўқитувчиларнинг касбий фаолиятлари фойдаланиладиган услублар тизими сифатидаги ўқитиш технологиясини егаллаш.

Жамиятни ахборотлаштириш жараёнларини жадаллашуви ҳамда барча соҳаларда, шу жумладан бошқариш соҳасида ҳам ахборот технологиялари воситаларидан кенг кўламда фойдаланиш замонавий компьютер технологиялари ёрдамида катта ҳажмдаги тезкор ахборотларни йиғиш, тўплаш, сақлаш ва қайта ишлашнинг самарали методларини яратилиши билан ҳар томонлама узвий боғлиқдир.

Замонавий бозор иқтисодиёти шароитида модернизациялаш, адаптация қилиш бошқариш тузилмасининг аввалги традицион қабул қилинган барча турларини ўзгариши ва янгиланилишига олиб келади. Бунда жамиятни ахборотлаштириш жараёнининг асосини ташкил этувчи инфор­мацион коммуникация воситаларини қўллаш жараёнлари, маълумотларни қайта ишлаш воситалари, методлари ва бошқа факторлар муҳим роль ўйнайди.

Таълим жараёнини бошқариш тузилмасининг ахборотлаштириш, ҳамда таълим-тарбия бериш жараёнида умумий қонуниятларни ва анъаналарни ажратиш муҳим масала ҳисобланади, шунинг учун бошқариш тизимини ахборотлаштиришнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий жиҳатларини ечишда ҳисобга олиш керак бўлади.

Бугунги кунда таълимни ташкиллаштириш ва бошқариш тизими янги ахборот бошқариш моделлар билан етарли даражада таъминланмас экан, у ҳолда таълим жараёнида янги ахборот технологиялари воситалари ва методларидан фойдаланиш орқали ўқитишнинг реал жараёнига курсатадиган ижобий таъсири унчалик сезилмайди. Бу муаммони самарали ечиш баъзи бир объектив ва субъектив факторларга боғлиқ бўлиб, кейинчалик бу факторлар ўз-ўзидан таълим тизимини бошқариш бўйича зарур бўлган аниқ, етарли ва ўз вақтидаги ахборотлар билан тўлдирилиши керак бўлади.

Бу вази­фаларни амалга ошириш учун эса ахборотдаштириш жараёнида жараёнида ўқитувчиларни компьютер ва ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш ва уларни ахборот технологияларидан унумли фойдаланиш юзасидан билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш лозим бўлади. Ўз навбатида ўқитувчи-педагогларнинг ахборот технологияларидан фойдаланиш ва компьютер саводхонлиги бўйича юқори билим, кўникма ва малакага эга бўлишларини таъминлаш зарур.

Шуни таъкидлаш лозимки, ахборотлаштириш тизимида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш ва самарадорлигини оширишда компьютер технологиялари асосида мустақил равишда билим олиш кўникмаларини, ижодий фикрлашини ривожлантириш, ахборот муҳитида ахборотларни илмий ва амалий нуқтаи назаридан тўғри излаш, танлаб олиш, олдида турган мауаммоларни нафақат кўра билиш, балки уларни ифодалаш ва ҳал эта олиш малакаларини шакллантириш лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Иванов Д.И. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. / Воспитание. Образование. Педагогика.-2007.-№6(12).



IKKINCHI SINIF O'QISH KITOBIDAGI "QALDIRG'OCH BILAN BESHIKTEBRATAR" ERTAGINI GRAFIK ORGANAYZERLAR ASOSIDA O'RGATISH.

Z.Qurbonov. Z.Sattorova. SamDU

Zamonaviy ta'lim sohasida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» tizimini yanada takomillashtirish va yangi texnologik metodlarni tadbiq qilish zamon talabiga aylandi. Yetuk kadrlar asosida olib boriladigan darslar va ulardan kutilayotgan natijalar o'z samarasini oshirmoqda. Endi ertak tushunchasining o'ziga keladigan bo'lsak bolalikning go'zal onlarini o'zida mujassam qilgan uning sehrli dunyosi bilan yashashga undaydigan va ezgulikka chorlovchi, hayotning yaxshi-yomon tomonini bola nigohi orqali namoyon qiladigan, katta-yu kichikka birday ma'qul bo'ladigan janrdir. Ertak terminining yaratilishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimda insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab bu janr mavjud va uning turli xil nomlar bilan atalganligi M.Qoshg'ariy, A.Navoiy ijodida rangbarang tarzda ifodalangan. U xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biridir. "Ertak" so'zi "er" aslida "ir" ("yer", "jir") so'ziga o'xshatishini bildiruvchi "tak" qo'shimchasining qo'shilishidan tarkib topgan bo'lib qo'shiqqa o'xshash degan ma'noni bildiradi. Yozma manbalardan bizga ma'lumki ertak terminiga berilgan birinchi ta'rif M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keng yoritilgan. Asarda aytilishicha turkiy xalqlarda uning "etuk" atamasi bilan nomlanganligi va u biror voqeani og'zaki hikoya qilish ma'nosini anglatganligi ma'lum. Buyuk mutafakkir A.Navoiy ham uning og'zaki hikoya va doston ma'nolarini anglatganligini o'zining ijodida yoritib o'tgan.

Ey yirov, sen ham ishingni ko'rguz,

Yotug'in birla ulug' irni tuz.

Keltirilgan ushbu misralarda Navoiy tilga olayotgan "ulug' ir"ning doston ma'nosini anglatganligi bois, u ertak ma'nosida "cho'pchak" istilohini qo'llaydi va og'zaki eposga xos bu ikki hodisani farqlaydi.

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,

Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu keltirur cho'pchak.

Misralarga nazar soladigan bo'lsak "cho'pchak" termini ertak ma'nosidakelganligini ko'rishimiz mumkin. Habibining husni jamoliga mahliyo bo'lgandan so'ng uyqu oldidan qissai Yusufdan bir ertak tinglamoqlikni ixtiyor etadi.

Navoiy o'zining ijodida qo'llagan "cho'pchak" termini bugungi kunda fonetik o'zgarishga uchragan holda Toshkent viloyati va uning atrofiga iste'molda ekanligini uchratishimiz mumkin. Yana boshqa bir qator maskanlarda ertak atamasining turli nomlar bilan jumladan: Samarqand, Farg'ona, Surxondaryoda-matal, Xorazimda- varsoqi, Buxoroda-ushuk deb nomlanadi. Birgina ertak so'zining zamirida shunchalik olam-olam ma'no borligini va bu ma'nolar o'zining uzoq yillik o'tmishiga ega ekanligi bilan boshqa janrlardan o'zining har tomonlama keng qamrovligi jihatidan ajralib turadi. Ertak umumfolklor hodisa ekanligini yuqorida ta'kidlagan edik. Bu terminning bugungi kundagi ma'nosini izohli lug'atdan ko'radigan bo'lsak uning birinchi ma'nosi

1. Hikoya tarzida xalq og'zaki ijodiga mansub asar; cho'pchak.

2. Hikoya, qissa, voqea Unsin hamma voqeani – akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampiridan to'la eshitdi. (Oybek "Qutlug' qon"). Yuqoridagi izohlarga tayanadigan bo'lsak ertakning barcha insonlar hayotida nafaqat kichiklarning balki kattalarning ham hayotida ularni ezgulikka chorlovchi sehrli, fantastik dunyo hodisalari bilan uyg'un holda ham nafaslikda ulg'ayishlarini ta'minlaydi.

Ertaklar olamini sevmaydigan uning musaffo havosidan bahra olmaydigan biror insonni uchratish qiyin. Shuning uchun ham ertaklar bolalikning beg'ubor olamini tashkil qiladi. Ertaklar ham davrlar o'tishi bilan undagi ijtimoiy hayot takomillasha borgan sari unda ifodalanayotgan ma'no-mazmun ham davr talabiga moslasha boradi. Ilmiy kuzatishlarga qaraganda ertaklarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichida har bir davrning o'ziga xos jihatlarini qamrab oladi. Insoniyat mavjud bo'lgan davrdan boshlab animizm, totemizm, fetishizm va shu kabi bir qator udumlarni paydo bo'lishi va shu udumlar asosida yaratilgan ko'plab ertaklar mavjud. Asosan bunday marosimlarning ertaklarga bog'liq jihati ertakdagi har bir mavzuning o'z yo'nalishi asosida paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Ertaklar shunday davrlardan o'tib o'zining bir qator mavzularini bugungi kun zamonaviy ertaklarining yaratilishida o'z tasirini namoyon qildi. Shu fikrlarga tayangan holda ertaklarning turli xil ko'rinishlari mavjud jumladan, sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar. Bu yo'nalishda yaratilgan ertaklar nafaqat bolalar, balki kattalarni ham o'ziga jalb qilmasdan, bolalikning beg'ubor olamiga boshlamasdan qolmaydi. Turli mavzudagi ertaklar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda va ularni kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi. Ertak shu birgina so'zning zamirida insonlarni birlikka chorlovchi, yaxshilik g'oyasi asosida birashtirishini ko'rishimiz mumkin. Shunday g'oyalarni o'zida


birlashtirgan «Qadiring‘och bilan beshiktebratar» ertagini o‘rganish davomida har bir obrazda olam-olam ma‘noni o‘zida jamlaganligini his qilamiz. Qadiring‘ochlar tinch xonadonlarga in qurishadi. Beshiktebratar ham ertakdagi o‘rni bilan ajralib turadi uning mitti jussasi bilan qilgan katta jasorati tahsinga loyiq. O‘z do‘stini qutqarishda hech qanday xatardan qo‘rqmasligini isbotladi va do‘stiga sadoqatini namoyon qildi. Bu ertakni bugungi kun davr talabi bo‘lgan interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanib o‘rgatish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun quyda ertakni grafik organayzerlar- dan foydalanib o‘qitishni misol tariqasida keltirib o‘tamiz.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta‘limni tashkil qilishda boshlang‘ich sinflarda ertaklarni grafik organzayerlar asosida o‘qitishning samaradorligini an‘anaviy ta‘limga qaraganda anchagina yuqori ekanligini va uning samarasini ta‘lim sohasida qanchalik o‘z o‘rniga ega ekanligini , yuqori darajaga erishayotganimizni ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar.

1. Qosimova.K va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent, «NOSHIR» nashriyoti 2009.
2. Zunnunov.A va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi Toshkent, «O‘qituvchi»
3. 1992.
4. G‘afforova.T va boshqalar. 2-sinf O‘qish kitobi «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2016.
5. Internet ma‘lumotlari.



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

Ш.Ф.Қутбиддинова СамДУ МОМ ўқитувчиси

Мамлакатимизда таълим-тарбия соҳасида қатор тадбирлар амалга оширилмоқда. «Таълим тўғрисида»ги Қонун, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ҳамда «Давлат таълим стандартлари»да кўзда тутилган замонавий педагогик технологияларни яратиш ва улардан амалиётда кенг фойдаланишга эришиш ҳамда «таълим – фан – амалиёт» интеграциясининг таълим тизимидаги самарасига алоҳида эътибор қаратилган.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси 4-устувор йўналишлари таркибидаги “Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш” масалалари белгилаб берилган ўринда “узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш”¹ алоҳида таъкидланади.

Узлуксиз таълим рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг асоси сифатида таълимнинг барча турларини, давлат таълим стандартларини, кадрлар тайёрлаш тизими тузилмаси ва унинг фаолият кўрсатиш муҳитини ўз ичига олади. Таълим тизими олдида қўйилган асосий талаб ёш авлодни тайёрлашда илғор педагогик ва ахборот технологиялардан самарали фойдаланиш ҳисобланади. Таълим жараёнига технологияларни жорий этиш ва инновацион ёндашув бўйича олимларимиз томонидан бир қатор тадқиқотлар амалга оширилган ва ўқув адабиётлари яратилган².

Мамлакатимиз тараққиёти ва келажаги таълим – тарбия соҳасидаги юқори самарадорликка эришишга, таълим олувчиларнинг жаҳон таълими талаблари билан мослиги ва амалий ҳаётдаги ўрнини қай даражада топаётганлигига боғлиқ.

Таълим-тарбия бериш бўлажак мутахассислар, шунингдек малака оширувчиларни янгича шароитларда ишлашга тайёрловчи инновацион жараён бўлиб, олдинги эгалланган билимлар асосида ижобий педагогик самараларни берувчи янгича ёндашув технологияларини яратиш ва жорий этишдан иборат бўлиб, бу талабларни бажариш таълим - тарбия жараёнини илм - фан ва

¹Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида //Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль, №28 (6722). – Б.1-2.

²Қаранг: Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши: Насаф, 2000; Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт). – Тошкент: Молия, 2003; Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004; Толипов Ў., Усмонов М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Тошкент: Фан, 2005; Толипов Ў., Усмонов М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006 ва бошқалар.

техника – технологияларнинг энг сўнги ютуқлари асосида, замон талабларини ҳисобга олган ҳолда ташкил қилиш билан боғлиқ масалаларни ҳам қамраб олади.


Таълим ҳам глобал умумҳамжамият тузилмасининг алоҳида таркибий қисми сифатида ўз тузилиши ва фаолият мазмунини ўзгартириши зарур. Жамият ривожланиши ва таълим тизими ўртасидаги муносабат мураккаб кўринишга эга. Таълим барча фаол ва сушт ўзгаришлар таъсирини қабул қилавермайди, жамиятда бўлаётган воқеаларга эса ўз таъсирини ўтказди. Таълимдаги ўзгаришлар натижа сифатидагина намоён бўлиб қолмай, жамиятнинг келгусидаги ўзига хос ривожланиш шарти сифатида аҳамият касб этади.

Таълим ва фан соҳасини ривожлантиришда узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш, таълим муассасалари ўқувчиларини бозор иқтисодиёти ва иш берувчиларнинг эҳтиёжларига жавоб берадиган мутахассисликлар бўйича тайёрлаш ҳамда ишга жойлаштириш борасидаги ишларни такомиллаштириш масаласи бўйича амалга оширишда янги педагогик ва замонавий ахборот технологияларини ўқув жараёнига жорий этишда амалий ёрдам кўрсатувчи таълим муассасаларининг ўқитувчилари ва ишлаб чиқариш мутасаддилари ҳамкорлиги муҳим масала ҳисобланади. Бунда технологик билимлар тизими алоҳида аҳамиятга эга. Мазкур жараёни лойиҳалаштириш ва режалаштиришни технологик билим, кўникма ва малакаларга эга ўқитувчи бажара олиши мумкин.

Янги педагогик технологиялар асосида ўқитувчи ва билим олувчининг ўзаро ҳамкорлиги ва ҳаракат ётади. Технологиянинг бошқарувчанлиги шундаки, бунда таълим жараёнини режалаштириш, ташхис қилиш, натижаларни таҳлил этиш, тузатиш киритиш имкониятлари мавжуд.

Маълум бўладикки, таълим жараёнида муҳим ҳисобланмиш замонавий педагогик технологиялар интерфаол усулларнинг тизимли муносабати сифатида алоҳида аҳамиятга молик. Зеро, ҳар бир нарса ва ҳодисага тизим сифатида ёндашиш натижасида билим беришдан кўзланган мақсадга эришишнинг мукамал ечимига келиш мумкин бўлади. Шунингдек, интеграциялашган таълимда ўзаро боғланиш тўлақонли маълумотлар кетма-кетлигини таъминлаш воситаси бўлиб, замонавий таълимда унинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга.

Жамиятни янгилашга қаратилган юксак мақсадга эришиш, тараққиёт ва истиқбол йўлида амалга оширилаётган ислохотларнинг самарадорлиги, замон талабига жавоб бера оладиган кадрлар тайёрлаш билан бевосита боғлиқдир. Замонавий етук, баркамол авлод тарбияси, мустақил ва эркин фикрловчи, дунёқараши кенг ижодкор шахсни тарбиялаш масаласини педагогик маҳорат ва инновацион жараёнларсиз амалга ошириш мумкин эмас. Узлуксиз таълимни фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви таълим олувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга инновацион ёндашувни янада кенг жорий қилишни тақозо этади.



ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АҚЛАН ВА РУҲАН КОМИЛЛИККА ЭРИШИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

И.Б Аминов., СамДУ, доцент

Ж.Маннабов, СамДУМОМ ўқитувчиси

Ахророва Н., Самарқанд давлат чет тилилар академик лицей ўқитувчиси

Бугунги кунда таълим жараёнининг мазмуни ва сифати ахборотлашган жамиятнинг долзарб масалалари ва устувор йўналишларидан бири сифатида кўрилмоқда. Таълим жараёнини ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари изланмоқда, таълим-тарбия жараёнида янги ахборот технологияларини жорий этиш, ўқувчиларни касб-ҳунарга ва замонавий компьютер технологияларидан фойдаланишга бўлган қизиқишини ошириш масаласи оммалашмоқда.

Таълим самарадорлигини оширишда, ўқувчиларнинг маънавиятини шакллантириш, уларнинг онгига миллий ғоя ва мафкура асосларини сингдиришда, ақлли, билимдон, турли ахборот ва мафкуравий хуружларга қарши тура оладиган руҳан баркамол авлодни вояга етказишда компьютер ва ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланишнинг аҳамияти каттадир.

Ана шунга асосан бугунги куннинг ўқувчилари фаолияти, қобилияти ва қизиқиши доиралари қандай бўлишидан қатъий назар, ахборот технологиялари бўйича кенг кўламдаги

билимларга, замонавий ҳисоблаш техникаси, телекоммуникация тизимлари, оргтехника воситалари ва улардан фойдаланиш борасида етарли малакаларга эга бўлишлари, ҳамда, янги ахборот технологиялари асосларини эртанги куни, ривож тўғрисидаги билимларни ўзида мужассамлаштирган бўлиши керак. Бу вазифаларни бажаришда таълим тизимида бошқариш жараёнларини такомиллаштириш, ахборот технологиялари тизимини жорий этиш, ёшларни компьютер технологиялари воситаларида ишлашга ўргатиш муҳим аҳамиятга эгадир, чунки ҳозирги вақтда янги ахборот - коммуникацион технологияларини ўрганиш ва улар ёрдамида ўқувчиларни ҳар томонлама билимини ошириш, жамият учун етук инсонлар қилиб тарбиялаш ҳамда уларнинг онгига миллий ғоя ва мафкура асосларини сингдириш энг долзарб мавзулардан бири бўлиб келмоқда. Бунинг асосий сабаби ҳар бир соҳани ўрганиш, изланиш ва тажриба орттириш учун турли усул ва янги замонавий технологиялардан фойдаланиш керак бўлади. Шунинг учун таълим тизимида ўқувчиларга билим бериш, тарбиялаш, уларнинг ижтимоий маданиятини шакллантиришда, ақлан, жисмонанва руҳан етук инсон бўлиб етишишида янги ахборот - коммуникацион технологияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ахборот-коммуникацион технологияларининг тараққиётимизнинг асосий тармоқларидан бири бўлган таълим жараёнининг жадал ривожланиб боришида, шу билан бирга иқтидорли, мустақил, ўзига ишонч-эътиқодли ўқувчиларга билим бериш, уларни тарбиялаш, касб-хунарга йўналтириш ва замон талабига мос ҳар томонлама психологик ва педагогик билимга эга етук инсонлар қилиб тайёрлашда таълим-тарбия тизими муҳим асос бўлиб ҳисобланади.

Ҳозир кунда барча умумтаълим муассасалари замонавий компьютер ва ахборот технологиялари воситалари билан жиҳозланиши ўқитувчи-педагогларнинг ўз меҳнати фаолиятига янгича ёндашуви, замонавий технологиялар асосида дарс бериш, ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш, уларни ҳар томонлама ақлий ва руҳий комилликка эришишида етарли даражадаги ахборотлар билан таъминлаш ҳамда фойдаланиш замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш заруриятини талаб этади.

Таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларни ақлан ва руҳан етук инсонлар қилиб тарбиялашда, миллий урф-одатларимиз, қадриятларимиз моҳияти бўйича билим, кўникма ва малакаларни ривожлантиришда, улардабуюк аждодларимизнинг бой маънавий меросларларини ўрганишда компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиш муҳим роль ўйнайди.

Ўқувчиларни ҳар томонлама ақлий ва руҳий комилликка эришишида жуда катта миқдордаги ахборотларни тўплаш, ўзлаштириш, қайта ишлаш, ўз ўрнида қўллаш олиш ва узатиш муҳим аҳамиятга эга, яъниунда анъанавий усуллар билан бирга замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиб ўқитиш жараёнини қизиқарли олиб бориш, ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашиш имконини беради.

Компьютер ва ахборот технологиялари воситалари орқали педагог ходимлар ҳамда ўқувчилар жуда кўп миқдордаги маълумотларни олиш, излаш, қайта ишлаш ва ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар. Албатта таълим муассасаларида янги педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш, ўқув машғулотларини янги интерфаол усуллар, замонавий воситалар, яъни ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланган ҳолда ўтказиш, жумладан, мультимедиа, масофадан ўқитиш, Интернет технологияларидан фойдаланиш, компьютерлаштирилган анжуманлар ўтказиш, мультимедиа элекрон қўлланма ва дарсликларни яратиш ва уларни назарий ҳамда амалий машғулотларда қўллаш шакшубҳасиз ўз самарасини беради.

Бугунги кунда ўқувчилар талабчан, турли нарсаларга қизиқувчан, матбуот, компьютер орқали кўп маълумотларга эга бўлишни истайди, доимий равишда ташқи муҳит билан уланиш, ахборотлар алмашинувини амалга ошириш учун энг аввало таълим муассасаларидаги компьютерлар интернет тармоғига уланган бўлиши, ўзларининг web-сайтларига эга бўлишлари лозим, чунки уларни ҳар томонлама ақлий ва руҳий комилликка эришишида Интернет тармоғи инсоният ривожланиши нуктаи назаридан ахборот-коммуникация технологияларининг янгилиги, ўзига хослиги инсон фаолиятининг деярли барча соҳаларига кириб бориши, улардан чекланмаган доирада ва мақсадларда фойдаланиши билан алоҳида ўрин тутади.

Интернет воситаларидан фойдаланиш кўникмаларига эга бўлиш ўз ахборот-таълим муҳитини кенгайтириш, ҳар томонлама ақлий ва руҳий комилликка эришишни ривожлантириш учун шароитлар яратиш, жамият ахборот ресурслари ва миллий Web сайтларимиздан фойдаланиш, бошқалар билан мулоқот қилиш, долзарб масалалар муҳокамасида иштирок этиш, тармоқнинг турли тадбирларида иштирок этиш ва ҳоказо имкониятларни беради.

- - - - -

PEDAGOGIK FAOLIYATDA O'QITUVCHINING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

*O.To'xtayev SamDU MOM o'qituvchisi
M.Ro'ziyeva - Samarqand shahar 8- umumiy o'rta ta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Mustaqillikni mustahkamlashda, kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyat oldiga qo'ygan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, ta'lim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini seza oladigan yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchilarning ma'naviy roli muhim hisoblanadi.

Kishining tevarak-atrofdagi munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning ijtimoiy faolligi sifatida tushuniladi. Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib shaxs va uning faolligidir. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan, eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Pedagog kasbi o'ta individualdir. Har bir pedagogning bosh vazifasi – o'z ishining ustasi bo'lish. Pedagogik mahorat o'z kasbi sohasida individuallikni yorqin ifoda etish sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat unsurlari kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan belgilanadi. Ko'nikmalarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

1. Loyihalash ko'nikmalari.
2. Konstruktiv ko'nikmalar.
3. Tashkilotchilik ko'nikmalari.
4. Kommunikativ ko'nikmalar.
5. Gnostik ko'nikmalar.

Pedagogik mahorat zahirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Professional kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni nazarda tutadi. Insonning kasbiy layoqati – muayyan ish funksiyalarini o'zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarining zaruriy majmui. Pedagogik faoliyatga loyqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o'tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'ziga o'ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarining barchasini aniqlash va sinovdan o'tkazish mumkin. Pedagog o'z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim.

Pedagogga zarur bo'lgan kasbiy bilimlar: pedagogika va psixologiya, bola rivojlanishi fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi. Ushbu bilimlar bolani o'rganish, uning qilmishlari va xulq-atvorini, o'zaro munosabatlari xususiyatlarini, boshqa bolalar guruhiga moslashuv yo'llarini tahlil qilish uchun zarur. Pedagog ta'lim oluvchilar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi mavjud bo'lib, pedagog uni ham yaxshi bilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirishni anglatadi. Pedagogik texnika va shakllangan ko'nikmalar pedagogni kasbiy mahorat cho'qqilariga olib keladi. Bu tarbiyalanuvchini tushuna bilish, qilmishga, insonga o'z munosabatini bildira olish, ayni vaqtda o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Pedagog har bir bola bilan til topa olishi lozim. U pedagogning har bir so'zi bola hayotida ulkan o'yin o'ynashini yodda tutishi kerak.

Pedagog nutq madaniyati va texnikasiga e'tibor berishi lozim. Nutq madaniyati o'z fikrini aniq, lo'nda va o'rinli bayon etish ko'nikmasi bilan belgilanadi. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz va diksiya usullari bilan belgilanadi. Bularning barchasini uzoq mashq qilish yo'li bilan o'zlashtirish mumkin. Pedagog teatr pedagogikasi unsurlarini ham o'zlashtirishi muhimdir. Zero pedagog ishi rejissyor ishi, aktyor ijodiga yaqin turadi. Pedagog tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tez qaror qabul qilishi va ishini tez tashkillashtira olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida timimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda. “Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir”,-degan shior kun tartibiga o'rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning echimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas.



ПЕДАГОГИК КРЕАТИВЛИКНИНГ МОҲИАТИ

Н.С.Бобоёрова Самарқанд қишлоқ хўжалиги институти

Замонавий педагогикада “креатив педагогика” тушунчаси қўлланила бошлаганига ҳали у қадар кўп вақт бўлмади. Бироқ, ўқитиш жараёнига инновацион ҳамда ижодкорлик ёндашувларини қарор топтиришга бўлган эҳтиёж “Креатив педагогика”нинг педагогик туркум фанлар орасида мустақил предмет сифатида шаклланишини таъминлади.

“Креатив педагогика” фанининг умумий асослари мутахассис, шу жумладан, бўлажак мутахассисларнинг касбий камол топишлари учун зарур шарт-шароитни яратишга хизмат қилади.

Шахснинг мутахассис сифатида касбий камол топиши, ривожланиши ўз моҳиятига кўра жараён тарзда намоён бўлади. Касбий етуқлик инсон онтогенезининг муҳим даврлари касбий камол топиш, ривожланиш ғояларининг қарор топиши (14-17 ёш)дан бошланиб, касбий фаолиятнинг яқунланиши (55-60 ёш)гача бўлган жараёнда кечади.

Ижодкор шахснинг шаклланиши ва ривожланиши унинг ички ва ташқи олами ўзгаришининг ўзаро мос келиши, ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлар ҳамда инсон онтогенези –туғилишидан бошлаб то умрининг охирига қадар узлуksизлик, ворисийликни тақозо этадиган фаолият мазмунига боғлиқ.

Маълумки, касбий тажриба билим, кўникма ва малакаларнинг интеграцияси сифатида акс этади. Бироқ, касбий-ижойи фаолият кўникмаларининг ўзлаштирилиши нафақат амалий кўникма ва малакаларнинг интеграцияси, мутахассис сифатида фаолиятни самарали ташкил этиш усул ва воситаларини ишлаб чиқишни эмас, шу билан бирга касбий ижодкорлик методологиясидан хабардор бўлиш, ижодий тафаккурни ривожлантириш ва креатив характерга эга шахсий сифатларининг етарли даражада ўзлаштирилиши талаб этади.

Ижодкор шахснинг шаклланишини шахснинг ўзаро мос тарзда бажарилган ижодий фаолият ва ижодий маҳсулотларни яратиш борасидаги ривожланиши сифатида белгилаш мумкин. Ушбу жараённинг суръати ва қамрови биологик ва ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги ва креатив сифатлари, шунингдек, мавжуд шарт-шароит, ҳаётий муҳим ва касбий шартланган ҳодисаларга боғлиқ. Замонавий шароитда педагогнинг креативлик сифатларига эга бўлиши тақозо этади.

Сўнгги йилларда етакчи хорижий мамлакатларнинг таълим тизимида талаба ва талабаларда креативлик сифатларини шакллантириш масаласига алоҳида, жиддий эътибор қаратилмоқда. Бунни Бронсон, Меррийман (2010 й.), Кен Робинсон (2007 й.), Фишер, Фрей (2008й.), Бегетто, Кауфман (2013 й.), Али (2011 й.), Треффингер (2008 й.) ва бошқалар томонидан олиб борилган кўплаб тадқиқотлар, уларнинг натижаларини кўриш мумкин.

Биргина Кен Робинсон томонидан 2007 йилда тайёрланган “Мақтаб креативликни барбод этяптими?” номли видео лавҳани YouTube сайтида 5 млн марта томоша қилинган. Қолаверса, ўқитувчилар креативлик асосларини ўрганишга жиддий киришганлар (Бегетто, Кауфман, 2013 й.).

Салмоқли амалий ишлар олиб борилаётганлигига қарамай, кўпчилик ўқитувчилар ҳали хануз шахс (ўзларида ҳамда талабаларда креативлик сифатларини қандай қилиб самарали шакллантириш тажрибасини ўзлаштира олмаяптилар. Таълим тизимини бошқариш органлари ҳар йили таълим муассасаларида юқори самарадорликка эришишга эътибор қаратади. Ана шу мақсадда ўқув дастурини ишлаб чиқилади, янги ўқув дарсликлари яратилади. Бу эса ҳам талабалар, ҳам ўқитувчиларни касбий ўсишларига ёрдам беради. Олиб бориладиган амалий ҳаракатлар талабаларда ютуқларга эришиш, олға интилишга бўлган эҳтиёжни муайян даражада юзага келтиради, уларнинг ўқув-билиш қобилиятларини бир қадар ривожлантиришга ёрдам беради.

Бироқ, ўқув йилининг охирида келиб олий таълим муассасаларида талабаларнинг фанларни ўзлаштиришларида юқори даражадаги ижобий натижалар қузатилмаяпти. Кўплаб талабаларнинг таълим олишга нисбатан қизиқиши йўқолган. Бунинг натижасида ўқитувчилар ҳам аввалгидек завқу шавқ билан касбий фаолиятни ташкил этишни ўйлашмаяпти. Таълим тизимини бошқарувчи органлар таълим олишга нисбатан хоҳиш-истаги бўлмаган талабалар, бу каби таълим олувчиларни ўқитишни истамаётган ўқитувчилар фаолиятини ўзгартириш борасида янгидан-янги чоратadbирлар белгилансада, аҳвол ўзгаришсиз қолмоқда.

Ҳозирги кунда шахсда креативлик сифатларини ривожлантириш жараёнининг умумий моҳиятини тўлақонли англаш учун дастлаб “креативлик” тушунчасининг маънони тушуниб олиш талаб этилмоқда. Кен Робинсоннинг фикрига кўра, “креативлик – ўз қийматига эга оригинал ғоялар мажмуи” (Аззам, 2009 й.) саналади. Гарднер эса ўз тадқиқотларида тушунчани шундай изоҳлайди: “креативлик – шахс томонидан амалга ошириладиган амалий ҳаракат бўлиб, у ўзида муайян янгиликни акс эттириши ва маълум амалий қийматга эга бўлиши лозим”. Эмебайл (1989й.) нинг ёндашуви нуктаи назаридан ифодаланса, креативлик “муайян соҳа бўйича ўзлаштирилган пухта билимлар билан бирга юқори даражада ноодатий кўникмаларга ҳам эга бўлиш” демакдир.



ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

*Ф.Эшназарова СамДУ МОМ ўқитувчиси,
О.Кўчқорова СамМИ ўқитувчиси*

Бугунги кунда замонавий шарт-шароитларда ўқувчиларни демократик жамиятда яшаш учун тайёрлаш, уларда Ватанга муҳаббат туйғусини шакллантириш ва интеллектуал қобилиятларини ривожлантириш, таълим устуворлигини таъминлаш заруриятини белгилайди.

Педагогик жараённи ташкил этиш ва бошқаришда ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги, яъни уларнинг билимдонлиги, ўқувчилар фаолиятини мувофиқлаштириш ва педагогик жараён самарадорлигини таъминлаш компетентли бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Муваффақиятли ишлаш учун ҳар бир ўқитувчи юқори педагогик маҳорат ва кенг дунёқарашга эга бўлиши керак. Шундагина оз меҳнат сарф қилиб, катта натижага эришади, ижодкорлик унинг ҳамиша ҳамкори бўлади. Педагогик ишга қобилиятли, истеъдодли кишидагина педагогик маҳорат эгаси бўлиши мумкин. Педагогик фаолиятнинг самарали бўлиши учун ўқитувчи ўз фанини чуқур билиши, унга турдош фанлар ҳақида ҳам тушунчага эга бўлиши, ўқув материални ўқувчиларга тушунарли

қилиб баён эта олиши, ўқувчиларда мустақил равишда фаол фикрлашга қизиқиш уйғотиши, ўқувчиларнинг билим, камолот даражаси ва руҳиятини ҳисобга олиши, уларнинг нимани билишлари ва ҳали нимани билмасликларини тасаввур эта олиши лозим.

Ўқитувчи ўқувчининг, ички дунёсига кира олиши, ўқувчи шахсини ва унинг вақтинчалик руҳий ҳолатларини жуда яхши тушуна билиши билан боғлиқ бўлган психологик кузатувлар олиб бориши керак. Бундай ўқитувчи ўқувчининг руҳиятига кўз илғамас ўзгаришларни ҳам тез фаҳмлаб олади.

Ўқитувчи касбига хос бўлган хислатлар, яъни юксак педагогик маҳорат унда бирданига шаклланмайди. У ўз устида тинмай ишлаш, изланиш ва кўникмалар асосида ривожланади.

Ўқитувчининг юқори касбий маҳоратни эгаллаши бевосита узлуксиз таълим тизими орқали амалга оширилади. Ҳозирги давр ўқитувчидан ўқитишнинг илғор педагогик технология талабларини тўғри тушуниш, ташаббускорлик, ўз фани бўйича янгиликлардан хабардор бўлиши ва дарсларига жорий эта олишни талаб этади.

Таълим-тарбия жараёнида ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ҳамкорликни вужудга келтириш, дўстона муҳитни яратиш муаммосининг муваффақиятли ҳал этилиши, фан ўқитувчилари ва мактаб раҳбариятининг эгаллаган билим, кўникма малакалари ва шахсий инсоний фазилатларини эгаллаганлик даражасига боғлиқ бўлади.

Ўқитувчи аввало:

- Юмшоқ кўнгилли, очиқ чехрали, ширинсўзли, болаларни қандай бўлса шундайлигича яхши кўриши;

- Меҳр-муҳаббат, қалб ғурини ўқувчиларга баб-баравар бўлиб бериши, синфда дўстона муҳитни яратиш ва ўқувчиларнинг ўқув мотивларини ривожлантирувчи куч-рағбатлантириш методлари эканлигини англаш;

- Ўқувчиларнинг тақдири, бахти ва келажаги учун масъул эканлигини чуқур ҳис этиш, уларнинг нафсонияти ва кадр-қимматини эъзозлаш;

- Ҳар қандай педагогик вазиятда ўқувчиларга қўполлик қилмаслик, ҳақорат қилиш ва бақириш, тақдид ва кўрқитишдан ўзини тийиши зарур;

- Ўқувчиларни тушуна олиши, уларнинг ҳис-туйғуларини кадрлаш, ташвишлари, изтиробларини энгишига ёрдам бериши, ёшлик ва психологик ривожланишда ўзига хос хусусиятлари, қизиқишлари, эҳтиёжларини билиши лозим.

Мамлакатимизда олиб борилаётган таълим тизимининг одил ва демократиялаштирилиши ўқув жараёнига ўзгача талаб ва ўзгача педагогик муносабатларни кашф этади. Бу жараён мазмун моҳиятдан аввалгидан тубдан фарқланади.

Бу эса таълим соҳасида ўқувчи, ўқитувчи, оила, маҳалла ҳамкорликда бир мақсад сари, яъни, ДТС талабларини ўзлаштириш ва ундаги меъёрлардан юқорироқ натижаларга эришишни тақозо этади.

Таълим жараёнига илғор педагогик технологияларни қўллаш, таълим самарадорлигини ошириш, илм-фан ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, мустақил фикр юрита оладиган ижтимоий фаол юксак маънавиятли ёшларни тарбиялаш вазифаси муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитувчи ёшларга замон талабларига жавоб берувчи билимларни бериш учун аввало ўзи ана шундай билимлар билан қуролланган бўлиши керак. Зеро, тизимдаги ютуқларнинг асоси мактабларда ташкил этиладиган дарс жараёнининг сифати билан белгиланади. Ўқув соатларида ўқувчиларга этарли билим бериш ҳаётий кўникмаларини ошириш ва малакаларини шакллантириш ўқитувчининг касбий маҳоратига боғлиқ.

Ўқувчининг мустақил фикрини баён этиш, ўз йўналишини танлаши ва бунинг асоси бўлган қарашларини исботлаши, ўрни келганда ҳимоя қилишни ўргатилса, ёшларни мустақил ҳаётга тайёргарлик кўникмаларини шакллантириб боришга эришиши орқали таълим мазмунининг натижаси яққол кўзга ташланади.

Таълимни ислоҳ қилишда ўқитувчи шахсига қўйилган талаблар кундан-кунга ошиб бормоқда. Педагогика фани олдида турган муаммоларнинг бири ҳам, айнан, ўқитувчи ва педагог меҳнат шароити муаммоси ҳисобланади. Ўқитувчининг кўп қиррали ва мураккаб фаолияти замирида ёш авлодни билимли ва ахлоқ-одобли қилиб вояга этказиш вазифаси ётади.

Шу муносабат билан бугунги кунда ўқитувчи шахсига қуйидаги талаблар қўйилади:

- ўз фанини чуқур билиши ва унинг методикасини этарли даражада ўзлаштириш;

- кенг илмий дунёқарашли ва теран эътиқод соҳиби бўлиши;

- ижтимоий эҳтиёж ва ахлоқий заруриятни чуқур тушуниши;

- ижтимоий ва фуқаролик бурчини чуқур англаши;
- ижтимоий-сиёсий фаол бўлиши;
- ўз касби ва болаларни севиши;
- рухий педагогик зийрак бўлиши ва янгиликка интилиши;
- ўз халқи тарихи, миллий қадриятлари ва урф-одатларини чуқур ўрганиши ва уларни тарғибот қилиши;
- педагогик кузатувчанлик, ташкилотчилик, талабчанлик, қатъийлик, вазминлик, ҳаққонийлик, ўзини тута билиш каби хислатлар соҳиби бўлиши;
- ўз касбига тўла лаёқатли ва педагогик такт (одоб) эгаси бўлмоғи лозим.

Хулоса қилиб айтганда таълим тизимида фаолият кўрсатаётган ҳар бир педагог-ўқитувчи ўзининг бутун билим ва тажрибасини таълим-тарбия тизимини такомиллаштиришга йўналтириши бугунги куннинг муҳим долзарб масаласидир.



ФАН ҲЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

З.Назарова СамДУ МОМ ўқитувчиси

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётини зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, янги сифат босқичига кўтариш, унга илғор педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Ҳаммамизга маълумки, Мамлакатимиз узлуксиз таълим тизимида чет тилларини ўргатиш тажрибасидан келиб чиқиб, умумий ўрта таълимнинг компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштирилган давлат таълим стандартлари, ўқув-методик мажмуаларининг янги авлодини ишлаб чиқиш, умумтаълим фанларини ўқитишнинг узлуксизлиги ва изчиллигини янада такомиллаштиришнинг замонавий методологиясини яратиш ва амалиётга жорий этиш, ўқувчиларнинг онгли равишда касб-ҳунар танлаш мотивацияларини кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори қабул қилинди. Ушбу қарорда умумий ўрта таълимнинг янги давлат таълим стандартлари илова тарзида берилди. Янги ДТСнинг мақсади – умумий ўрта таълим тизимини мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар, ривожланган хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибалари ҳамда илм-фан ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларига асосланган ҳолда ташкил этиш, маънавий баркамол ва интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялашдан иборатдир. Янги давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этишда ҳар бир педагогнинг касбий компетентлиги даражаси муҳим аҳамият касб этади.

Ҳўш, компетентлик нима? Касбий компетентлик негизида қандай сифатлар акс этади? Педагог ўзида қандай компетентлик сифатларини ёрита олиши зарур?"Компетентлик" (ингл. "компетенсе" - "қобилият") - фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш демакдир."Компетентлик" тушунчаси таълим соҳасига психологик илмий изланишлар натижасида кириб келган. Психологик нуқтаи назардан компетентлик "ноанъанавий вазиятлар, қутилмаган ҳолларда мутахассиснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб боровчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалликни англатади. Касбий компетентлик - мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллай олинишидир

Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутаяди. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, муҳим ижтимоий талабларни англай олишни,

янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади. Касбий компетенцияга эга мутахассис:

- ✓ ўз билимларини изчил бойитиб боради;
- ✓ янги ахборотларни ўзлаштиради;
- ✓ давр талабларини чуқур англайди;
- ✓ янги билимларни излаб топади;
- ✓ уларни қайта ишлайди ва ўз фаолиятида самарали қўллайди


Инновацияларни татбиқ этишда ўқитувчиларнинг психологик тайёрлиги педагогик инновацион жараённинг муҳим шарти ҳисобланади. Шунинг учун, умумий ўрта таълим муассасаларида педагогик инновацияларни татбиқ этишда ўқитувчиларнинг илмий-методик тайёргарлигини ривожлантириш, касбий фаолиятини инновацион йўналтириш, уларни инновацион педагогик жараёнларга тайёрлаш масалаларига алоҳида аҳамият қаратиш лозим. Хулоса қилиб айтганда, умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчиларининг инновацион таълим муҳити талаблари асосида педагогик компетентлигини ривожлантириш учун қуйидагиларга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир:

1. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчиларининг барча тоифалари кесимида мутахассислик фанлари бўйича малака талабларини шакллантиришда компетенциявий ёндошувнинг мазмун-моҳиятига эътибор қаратиш;

2. Компетенциявий ёндошув асосида вужудга келтириладиган инновацион таълим муҳити талаблари эътиборга олинган ҳолда ўқитувчиларининг барча тоифалари кесимида мутахассислик фанлари бўйича электрон қўлланмалар яратиш;

3. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчиларининг малакасини ошириш курсларини эҳтиёжга асосланган ҳолда ташкил этиш, бунда фан ўқитувчисининг эҳтиёжи назарда тутилмоқда;

4. Малака ошириш курсларида ўқитувчиларнинг педагогик тайёргарлигини касбий диагностик таҳлил қилишни йўлга қўйиш, аниқланган бўшлиқларни ўқитувчи шахсига йўналтирилган ҳолда индивидуал коррекцион иш олиб бориш зарур.



БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ИЖТИМОЙЛАШТИРИШ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ЎЗARO АЛОҚАДОРЛИГИ

Саноат Зоҳидова СамДУ таянч докторанти

Маълумки, таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёнини жадал ривожлантириш эҳтиёжи билан уни амалга оширишга ўқитувчиларнинг тайёр эмаслиги орасидаги зиддиятдан педагогик инновациялар таълим воситаларига айланиб, янгиликларни жорий этиш оммалашуви натижасида янги билимларга эҳтиёж кучайди ҳамда бугунги кунда педагогикада “янгилик”, “инновация”, “педагогик инновация” каби тушунчалардан кенг фойдаланилмоқда.

“Инновация” тушунчаси латин тилидан олинган бўлиб (in-га, novus-янги), яъни таржимаси “янгилашиш”, “ўзлаштириш”, “қандайдир янгиликни киритиш”, “янгини жорий қилиш”, “янгилик киритиш”. Ўз навбатида “янги” сўзи ушбу тушунчанинг асосий ядросини ташкил этади.

“Инновация” тушунчаси кенг ва тор маънода ишлатилади. Биринчи маънода инновация – бирор бир янги ижтимоий эҳтиёжни яхшироқ қондириш учун янги илмий, амалий восита, яъни янгилик яратиш, тарқатиш ва қўллашни ўз таркибига оладиган комплекс жараён сифатида қаралади. “Инновация”, иккинчи маънода, бирор бир жамоа фаолиятини такомиллаштириш учун киритилаётган ва бу инновация субъекти томонидан янгилик деб қабул қилинган янги восита, услуб, ёндашувлар тизимига нисбатан ишлатилади.

Мазкур тушунчанинг бугунги кунгача хилма-хил таърифлари шакллантирилган бўлиб, уларни таҳлил этиш асосида биз ўзимизнинг тадқиқот йўналишимизни белгилаб олишга зарурият сездик.

Таълим тизимини бошқаришга доир ўзига хос мактаб яратган педагог олим С.Турғуновнинг фикрича, инновация – мақсадга йўналтирилган ўзгартиришлар бўлиб, маълум бир ижтимоий бирликка – муассаса, уюшма, жамоа ва гуруҳларга янги, нисбатан барқарор бўлган элементларни, умумий ҳолда халқнинг маънавий-маданий муносабатлари ва мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан узвий боғлиқ бўлган янгиликларни киритишдир.[1;4]

Малака ошириш курсларида тарих ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашга доир илмий-тадқиқот ишини амалга оширган М.Жуманиёзованинг таъкидлашича, инновация – ривожланган технологик жараённинг такомиллашган маҳсулоти кўринишида намоён бўладиган ижодий меҳнатнинг натижаси. У амалиёт ва назариянинг муҳим қисми бўлиб, ижтимоий-маданий объект сифатларини яхшилашга йўналтирилган ижтимоий субъектларнинг ҳаракат тизими, айни вақтда у бошқарилувчи ва назорат қилинувчи ўзгаришлар механизми бўлиб ҳисобланади.[2;89]

М.Жуманиёзованинг фикрича, агар фаолият қисқа муддатли бўлса, яхлит тизим хусусиятига эга бўлмаса, ўз олдига муайян тизимдаги баъзи таркибий қисмларнигина ўзгартиришни вазифа қилиб қўйган бўлса, у ҳолда биз “новация” ҳақида фикр юритаётган бўламиз. Агар фаолият муайян концептуал ёндашув асосида амалга ошириляётган бўлса, унинг натижаси ўша тизимнинг ривожланишига ёки унинг принципиал ўзгаришига олиб келса, биз буни “инновация” дея оламиз.

Фаолият хусусияти жиҳатдан новация кўлами ва вақти бўйича чегараланган, инновация эса яхлит ва давомли бўлади. Новация натижасида амалдаги тизимда алоҳида элементлар ўзгартирилади, инновация натижасида эса амалиёт субъектларининг позициялари тўла янгиланади, тизимдаги алоқалар ва тизим ислоҳ қилинади.[2;91]

Н.Мамадов ўзининг “Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш” деб номланган тадқиқотида инновация – бу бошқарув объектини ўзгартириш ҳамда юқори даражадаги ижтимоий-иқтисодий, илмий-техник самараларни қўлга киритиш мақсадида муайян соҳаларга янгиликни татбиқ қилишнинг яқуний натижаси эканлигини қайд этиб ўтади.[3;17]

Педагогика коллежларида инновацион жараёнларни тизимли бошқариш муаммоси билан боғлиқликда тадқиқот ишини олиб борган Ш.Зуфаров томонидан “инновация” тушунчасига қуйидагича таъриф берилган: “Инновация тушунчаси мазмунан “янги”, “янгилик” тушунчаларининг айнан ўзи эмас. Исталган янгилик, қачонки, амалий фаолиятда ўзининг кенг қамровли самарасини берса ва кенг қўламли эҳтиёж объектига айлансагина, том маънодаги инновация деб аташ мумкин бўлади”.

Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиётини фундаментал асосда тадқиқ этган Д.Юнусова томонидан “инновация” тушунчасига “мақсадга қаратилган ўзгариш бўлиб, қўлланилиш соҳасидаги тизимни бир ҳолатдан сифат жиҳатдан янги ҳолатга ўтказиш, уни тубдан такомиллаштириш” тарзида таъриф берилган.[4;12]

Юқоридаги таърифларнинг ҳар бири ўзига хос мазмунга эга бўлса-да, бироқ мазкур тушунчанинг такомиллашган таърифини шакллантириш эҳтиёжи мавжуд. Ана шу асосдан келиб чиққан ҳолда, биз “инновация” тушунчасининг қуйидаги умумлашган таърифини ҳосил қилдик: “Инновация – объект ва субъект фаолиятида сифат ўзгаришларини таъминловчи, кенг оммалашган ва юқори самарадорликка эга, анъанавийлик ва истиқбол ўртасида “кўприк” вазифасини бажарувчи, тизимли, узвий ва узлуксиз тарзда янгилик киритишдир”.


Адабиётлар:

1.Турғунов С.Т. Таълим муассасаларини бошқаришда инновацион фаолият. //ж.Узлуксиз таълим. – Т., 2006. - №4. – Б.4.

2. Жуманиёзова М. Инновацион фаолият – таълим сифатининг кафолатидир. // ж.Узлуксиз таълим. – Т., 2004 - №6 – Б.89-91.

3.Мамадов Н.С. Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2009. – Б.17.

4.Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Т., 2012. – Б.12.



ЎҚИТУВЧИ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШДА ТАЯНЧ МЕТОДИСТ МАКТАБЛАРИНИНГ ЎРНИ

*С.Юлдошева, СамДУ МОМ доценти,
Г. Камолова, Самарқанд ш. 45-мактаб ўқитувчиси*

Замонавий таълим тизимида педагог-ҳодимларнинг компетентлигини ошириш масаласига катта эътибор берилмоқда. Ҳукуматимиз томонидан жорий этиляётган қарорлар, Олий ва ўрта

махсус таълими ҳамда Халқ таълими вазирликлари буйруқлари асосида таълим тизимида қатор ислохотлар амалга оширилмоқдаки, таълимнинг ҳар бир бўғинида таълим берувчи ва таълим олувчилар туб ўзгаришларни, янги ёндашув лозимлигини ҳис этмоқдалар. Жумладан, ЎзР Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, ХТВнинг 2017 йил 10 августдаги 258-сонли “Халқ таълими тизимида узлуксиз малака ошириш жараёнларини ташкил этиш ва илмий методик хизматни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори, ЎзР ВМнинг 2017 йил 29 декабрдаги 1026-сонли “Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида таълим берувчи педагоглар ўз малакасини узлуксиз равишда ошириб бориш, уларнинг ўз билими, кўникмаси, малакаси ва компетенцияларини ривожлантириш устида тинимсиз ишлаши, изланиши талаби қўйилмоқда.

Мазкур қарорларнинг ижроси республикамизнинг ҳар бир туманида таянч намунавий мактабларида амалга оширилмоқда. Методист мактабларида ташкил этилаётган ўқувларда туман (шаҳар)даги тажрибали ўқитувчилар долзарб мавзуларда маҳорат дарсларини ташкил этмоқдалар.

Маълумки, мустақиллик йилларида ўқитувчиларнинг педагогик салоҳиятини, малакасини ошириш бўйича қатор чора-тадбирлар амалга оширилди. Бунинг учун олий таълим ҳамда малака ошириш тизимидаги профессор-ўқитувчилар билан ҳамкорликдаги “Маҳорат мактаблари”, “Методист мактаблари”, “Устоз-шоғирд” дастури, илмий-амалий ҳамда илмий-услубий семинарлар, тренинглар фаолияти жадаллаштирилди. Шунга қарамай, таълим муассасаларининг ич-ичига кириб бориш, ҳар бир таълим берувчининг жараёнда фаоллигини ошириш ва қўйилган мақсаднинг натижавийлигини таъминлаш учун ҳафталик “Методист мактаби” ўқувлари ташкил этилди.

Таянч “Методист мактаби” ўқувларида ўқитувчилар илғор педагогик ва ахборот технологиялари, ўқитишнинг интерактив усуллари бўйича касбий ва педагогик маҳоратини доимий равишда ривожлантириб борадилар, зарур бўлган касбий билим ва кўникмаларни мунтазам равишда янгилаб борадилар, ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишнинг янги тамойиллари ва замонавий усуллари, малака талаблари, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан танишиб борадилар. Ўқитувчиларда илмий-тадқиқот ишларига қизиқишини орттириш мақсадида мазкур ўқувларга олий таълим профессор-ўқитувчилар таклиф этилиб, фандаги сўнгги тадқиқот янгиликларидан воқиф этиб, тадқиқот ишини амалга ошириш бўйича тавсияларни бериб борадилар.

Айни жараёнда таълимда ўқитиш бўйича ҳудудий, индивидуал илмий-услубий муаммолар эътиборга олинди, ўқитувчилар ўртасида жонли дебатлар, баҳс-мунозаралар, муҳокама ва таҳлиллар ташкил этилмоқда. Бу каби ёндашувда ёш мутахассис ҳамда тажрибали ўқитувчиларнинг ўзаро ҳамжиҳатлик фаолияти ташкил этилиб, бир-бирларидан илмий назарий, услубий маълумотларни алмашиш имконияти туғилади. Ёш педагоглар ўз педагогик нуфузи ва компетентлигини ривожлантиришга доир маслаҳатларни оладилар. Шу билан бирга педагогик жамоа фан методологиясидаги янгиликлар, таълим-тарбия соҳасидаги жаҳон тажрибалари билан танишадилар ва касбий ахборот майдонини кенгайтирадилар. Ташқи ва ички мониторинг натижаларида, “Билимлар беллашуви” ҳамда фан олимпиадалари натижаларида ўқувчиларнинг билимида аниқланган бўшлиқлар юзасидан ҳам алоҳида маҳорат дарслари ташкил этилиши таълим сифат-самсардорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Амалиётга жорий этилган янги ДТС, ўқув таянч режа ва ўқув дастурларда белгиланган таянч ва фанга доир компетенцияларни ўқувчиларда қай тарзда шакллантириш, ушбу компетенцияларни қандай мезонлар асосида баҳолаш бўйича ўзаро баҳс-мунозаралар ташкил этилиши ҳеч бир ўқитувчини бефарқ қолдирмайди, албатта.

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.

Н. Абдуманнотова. СамДУ МОМ ўқитувчиси

“Таълим тўғрисида”ги Қонуни ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида белгиланган барча талаблар, ёш авлоднинг интеллектуал, маънавий-ахлоқий салоҳиятини юқори пағонага кўтаришга қаратилган. Бу вазифаларни амалга ошириш кўп жиҳатдан ўқитувчилар зиммасига тушади. Шу боис, бугунги ўқитувчи шахсий, касбий, умуммаданий шахсий компетентлигини шаклланишида зиммасига маъсулиятни чуқур англайдиган шахс бўлиши лозим. Бошқача айтганда ўқитувчи-

жамиятнинг ёш авлод таълим-тарбиясига қўйган ижтимоий буюртмасининг асосий иштирокчисидир.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек “Тарбиячи –устоз бўлиш учун, бошқаларнинг ақл-идрокини ўстириш маърифат зиёсидан бахраманд қилиш, ҳақиқий фукоро этиб етиштириш учун, энг аввало тарбиячининг ўзи айнан шундай юксак талабларга жавоб бериши, ана шундай буюк фазилатларга эга бўлиш керак”,¹ деб таъкидлаган. Ҳақиқатдан ҳам ўқитувчилик касбида билимдонлик, зукколик, ўз касбий маҳоратини мунтазам такомиллаштириб боришга иштиёқ бўлмаса, у яхши ўқитувчи бўла олмайди. Шу боис бугунги кунда ўқитувчиларга, ўқитувчилик касбига юқори талаблар қўйилмоқда.

Педагог олимлар, Ш.Абдуллаева, Б.Собиров ”Замонавий ўқитувчининг компетентцияси” номли ўқув-услубий қўлланмасида “Педагогик компетентлик-юксак даражадаги педагогик фаолиятнинг тараққий этиш, педагогик технологияни эгаллашни, педагог шахси, унинг тажрибаси ва касбий фаолиятдан индивидуалликнинг ёрқин кўриниши сифатида тушунилади”,² деб кўрсатган. Касбий компетентлик мураккаб жараёнларда, ноаниқ вазиятларни бажаришда, бири-бирига зид маълумотлардан фойдаланишда қутилмаган вазиятда ҳаракат режасига эга бўлишда номоён бўлади.

Касбий компетентликка эга бўлган мутахассис ўз билимларини мунтазам равишда бойитиб боради, янги ахборотларни ўзлаштиради, давр талабларини чуқур англайди, янги билимларини излаб топади ва уларни қайта ишлаб амалий фаолиятда фойдаланади. Педагогга хос бўлган касбий компетентлик ва унинг ўзига хос жиҳатлари педагог олимлардан А.К.Моркова ва Б.Назаровалар томонидан олиб борилган изланишларда ўз ифодасини топган.

Тадқиқотчи А.К.Моркова педагогнинг касбий компетентлигининг таркибий қисимларини махсус ёки касбий, ижтимоий шахсий ва индивидуал компетентлигини ажратиб кўрсатган бўлса, Б.Назарова педагогнинг касбий компетентлигини махсус ёки касбий, ижтимоий ауто-компетентлик ва экстремал махсус касбий компетентлигини бўлиб ўрганган.

Педагог олимлардан М.Очилов, И.Сайдахмедов, У.Иноятов, Н.Азизхаджаева, психолог олим Э.Ғозиевнинг илмий-тадқиқот ишларида, касбий компетентлигини ўзига хос жиҳатлари ёритиб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 26 сентябрдаги “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 3 қарорлари педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими самарадорлигини янада такомиллаштириш, уларнинг касбий компетентлигини мунтазам ривожлантириш мақсадида малака ошириш институтларини тегишли ҳудуддаги олий таълим муассасалари тасарруфига бериш ҳамда улар негизида ҳудудий марказлар ташкил этилди. Ҳудудий марказларнинг вазифаларидан бири халқ таълими ходимларининг методик эҳтиёжларини тўлақонли таъминлаш мақсадида қайта тайёрлаш ва малака оширишнинг илғор шакл ва усулларини жорий этишга киришилди.

Барча йўналишларда тахсил олаётган тингловчиларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

- ✓ умумкасбий ва мутахассислик фанларининг имкониятларидан етарлича фойдаланиш;
- ✓ мазкур фанларнинг дарс машғулотларини олиб борадиган профессор-ўқитувчиларнинг савияси юқори, дунёқараши кенг, маҳорати етарли, бир сўз билан айтганда касбий компетентлигига эътиборни қаратиш;
- ✓ ҳудудий марказда педагогларнинг компетентлик масаласига бағишланган даврасуҳбатлар, семинар-тренингларни мунтазам равишда йўлга қўйиш;
- ✓ етарли тажрибага эга бўлган, илмий салоҳиятли профессор-ўқитувчилар томонидан педагогнинг касбий компетентлигига бағишланган услубий қўлланма ва тавсияларига эҳтиёж мавжуд;
- ✓ педагогларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш мақсадида ”Мақтабгача таълим”, ”Бошланғич таълим”, ”Халқ таълими”, ”Маърифат” газета ва журналларининг имкониятларидан оқилона фойдаланиш керак;
- ✓ ҳудудий марказда касбий компетентлиги юқори бўлган профессор-ўқитувчиларнинг иш тажрибаларини оммалаштириш мақсадга мувофиқ ва уларни рағбатлантириш лозим;

¹И.А.Каримов Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.

²Абдуллаева Ш.А. ва бошқалар. Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. – Т: Komron Press. 2015


³Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли қарори/ Маърифат 2017 йил 28 сентябр

Тадқиқодчи олим У.Уорд “Ўртамиёна ўқитувчи баён қилади, яхши ўқитувчи тушунтиради, атоқли ўқитувчи кўрсатади, буюк ўқитувчи ўқувчини рухлантиради”, деган эди.

Юқорида билдирилган фикр-мулоҳазаларимиз амалга ошса, ўқувчи, талаба, тингловчиларни рухлантирадиган касбий компетентлиги юқори бўлган педагогларнинг сафи кенгайган бўларди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: «Маънавият», 2008.
2. Ш. Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.- «Ўзбекистон»-2016.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли қарори/ Маърифат 2017 йил 28 сентябр.
4. Абдуллаева Ш.А. ва бошқалар. Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. – Т: Komron Press. 2015.



ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ЎҚИТУВЧИ КОМПЕТЕНЦИЯСИНING АҲАМИЯТИ.

*Н. Абдуманнотова. СамДУМОМ ўқитувчиси
Д. Мамадиёрова САММИ ўқитувчиси*

Мамлакатимизда таълимни ислоҳ қилишнинг асосий омилларидан бири ёш авлод тарбиясида “шахс манфаати ва таълим устуворлигидир”. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури таълим-тарбиянинг мақсадини янги йўналишга бурди. Шу боис, таълим-тарбиянинг мазмуни тубдан янгиланди. Таълим сифатини оширишда замонавий ёндашувларнинг асосий негизи турли хил бошқарув, инновация ва ахборот технологияларини таълимга жорий этишда ўз ифодасини топади. Барчамизга маълумки, таълимнинг сифат-самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқитувчига ҳам боғлиқдир. Ҳозирги даврда ёшларнинг касбга оид билимларини ҳаётда қўллай олишлари учун кенг имкониятлар яратиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Қисқача қилиб айтганда, ёш авлодга таълим-тарбия беришда, рақобатбардош мутахассис тайёрлаш, таълим-тарбия тизимида компетенцияли кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш муҳимдир. Бундай ишларни амалга ошириш кўп жиҳатдан ўқитувчилар зиммасига тушади. Шу боис, бугунги ўқитувчи шахсий, касбий, умуммаданий компетентлигини шаклланишида зиммасидагимаъсулиятни чуқур англайдиган шахс бўлиши лозим. Бошқача айтганда ўқитувчи-жамиятнинг ёш авлод таълим-тарбиясига қўйган ижтимоий буюртмасининг асосий иштирокчисидир.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек “Агарки дунё иморатлари ичида энг улуғи мактаб бўлса, касбларнинг ичида энг шарафлиси ўқитувчилик ва мураббийликдир”, 1-деб таъкидлаган. Дарҳақиқат, юртимизда ўқитувчилик касби улуғланиб, шарафланади. Келажагимиз эгалари бўлган ёш авлодни ҳар томонлама баркамол бўлиб егишишида ўқитувчи, мураббийларнинг хизматлари бекиёсдир. Ҳақиқатдан ҳам ўқитувчилик касбида билимдонлик, зукколик, ўз касбий маҳоратини мунтазам такомиллаштириб боришга иштиёқ бўлмаса, у яхши ўқитувчи бўла олмайди. Шу боис бугунги кунда ўқитувчиларга, ўқитувчилик касбига юқори талаблар қўйилмоқда.

Педагог олимлар, Ш.Абдуллаева, Б.Собиров ”Замонавий ўқитувчининг компетентцияси” номли ўқув-услубий қўлланмасида “Педагогик компетентлик-юксак даражадаги педагогик фаолиятнинг тараққий этиш, педагогик технологияни эгаллашни, педагог шахси, унинг тажрибаси ва касбий фаолиятдан индивидуалликнинг ёрқин кўриниши сифатида тушунилади”, 2-деб кўрсатган. Касбий компетентлик мураккаб жараёнларда, ноаниқ вазиятларни бажаришда, бири-бирига зид маълумотлардан фойдаланишда кутилмаган вазиятда ҳаракат режасига эга бўлишда намоён бўлади.

¹И.А.Каримов Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.

²Абдуллаева Ш.А. ва бошқалар. Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. – Т: Komron Press. 2015

Касбий компетентликка эга бўлган мутахассис ўз билимларини мунтазам равишда бойитиб боради, янги ахборотларни ўзлаштиради, давр талабларини чуқур англайди, янги билимларини излаб топади ва уларни қайта ишлаб амалий фаолиятда фойдаланади. Педагогга хос бўлган касбий компетентлик ва унинг ўзига хос жихатлари педагоголимлардан А.К.Моркова ва Б.Назаровалар томонидан олиб борилган изланишларда ўз ифодасини топган.

Тадқиқотчи А.К.Моркова педагогнинг касбий компетентлигининг таркибий қисмларини махсус ёки касбий, ижтимоий шахсий ва индивидуал компетентлигини ажратиб кўрсатган бўлса, Б.Назарова педагогнинг касбий компетентлигини махсус ёки касбий, ижтимоий ауто-компетентлик ва экстремал махсус касбий компетентлигини бўлиб ўрганган.

Педагог олимлардан М.Очилов, И.Сайдахмедов, У.Иноятов, Н.Азизхаджаева, психолог олим Э.Ғозиевнинг илмий-тадқиқот ишларида, касбий компетентлигини ўзига хос жихатлари ёритиб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 26 сентябрдаги “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1 қарорлари педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими самарадорлигини янада такомиллаштириш, уларнинг касбий компетентлигини мунтазам ривожлантиришни мақсадида малака ошириш институтларини тегишли ҳудуддаги олий таълим муассасалари тасарруфига бериш ҳамда улар негизида ҳудудий марказлар ташкил этилди. Ҳудудий марказларнинг вазифаларидан бири халқ таълими ходимларининг методик эҳтиёжларини тўлақонли таъминлаш мақсадида қайта тайёрлаш ва малака оширишнинг илғор шакл ва усулларини жорий этишга киришилди.

Педагогик компетенция ўқитувчидан одатдан ташқари куч-ғайратни, қатъиятни, тиришқоқликни, интилишни, янги жамоага киришиш қобилиятини, самимиятни тўғрилиқ ва ҳалололикни бир воситани бошқаси билан текшириб кўриш малакасини талаб қилади.

Барча йўналишларда тахсил олаётган тингловчиларнинг педагогик компетентлигини такомиллаштириш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

✓ ўқув фаолияти сифатини баҳолаш методлари ҳамда компонентлари асосида ривожлантириб бориш;

✓ дарс жараёнининг сифатини оширишда ўқитувчи компетенциясини ривожлантириш;

✓ ҳудудий марказда педагогларнинг компетентлик масаласига бағишланган давра-сухбатлар, семинар-тренингларни мунтазам равишда йўлга қўйиш;

✓ етарли тажрибага эга бўлган, илмий салоҳиятли профессор-ўқитувчилар томонидан педагогнинг касбий компетентлигига бағишланган услубий қўлланма ва тавсияларига эҳтиёж мавжуд;

✓ ҳудудий марказда касбий компетентлиги юқори бўлган профессор-ўқитувчиларнинг иш тажрибаларини оммалаштириш мақсадга мувофиқ ва уларни рағбатлантириш лозим;

Шундай қилиб, таълим-тарбия сифатини ошириш жараёнида янги мазмун ва моҳиятга эга бўлган замонавий ўқитувчининг компетентлиги яратувчанлик, ижодкорликка интилиш ҳисси билан йўғрилган. Бугунги кун ўқитувчисидан ҳар томонлама, ўз фанини мутахассиси бўлишни, замонавий таълим методларини билиши ва қўллай олиши ва ахборот технологияларини билишни талаб қилинмоқда. Педагогик компетенцияга эга бўлган ҳар бир ўқитувчи таълим сифатини оширишда ва унга қўйилган талабларни бажаришда, айниқса, ёш авлодни бунёдкор ғоялар руҳида тарбиялашдек маъсулиятли вазифаларни амалга оширишда касбий, шахсий, умуммаданий компетенцияларга таянади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.; Маънавият, 2008.


2. Ш.Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т.-: Ўзбекистон-2016.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли қарори/ Маърифат 2017 йил 28 сентябр

такомиллаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли қарори/ Маърифат 2017 йил 28 сентябр.

4.Абдуллаева Ш.А. ва бошқалар. Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. – Т: Komron Press. 2015.



ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОТОВНОСТИ ПОСТУПЛЕНИЯ ДЕТЕЙ В ШКОЛУ

*Нарзикулова Ф.Б. К.психол.н., доцент РЦППКИППКРНОП САМГУ
Березникова Н.В г.Самарканд, школа №17*

Психологи, исследовавшие психологическую готовность к школе, признают, что эффективным школьное обучение будет только в том случае, если первоклассник обладает необходимыми и достаточными для начального этапа обучения качествами, которые затем в учебном процессе развиваются и совершенствуются.[1] Исходя из этого положения, можно сформулировать определение психологической готовности к школе.

Психологическая готовность к школе — это необходимый и достаточный уровень психического развития ребенка для освоения школьной программы в условиях обучения в группе сверстников. Необходимый и достаточный уровень актуального развития должен быть таким, чтобы программа обучения попадала в «зону ближайшего развития» ребенка. Если «зона ближайшего развития» ниже той, которая требуется для освоения учебной программы в школе, то ребенок считается психологически неготовым к школьному обучению, он не сможет усвоить программный материал и сразу попадает в разряд отстающих учеников.

Уровень психического развития ребенка, как предпосылка к успешному обучению в школе, должен проявляться в следующих психологических сферах: интеллектуальной, речевой, произвольной и мотивационной. Соответственно сферам выделяются и компоненты психологической готовности к школе. Как правило, компоненты психологической готовности к школе возникают естественным путем при нормальном развитии ребенка-дошкольника. Уровень психологической готовности к школе проводится, прежде всего, в интересах развития ребенка. Можно выделить аспекты готовности к школе[2]:

- ◆ понимание особенностей развития детей с целью определения индивидуального подхода к ним в учебно-воспитательном процессе;
- ◆ выявление детей, не готовых к школьному обучению, с целью проведения с ними развивающей работы, направленной на профилактику школьной неуспеваемости;
- ◆ распределение будущих первоклассников по классам в соответствии с их «зоной ближайшего развития», что позволит каждому ребенку развиваться в оптимальном для него режиме.

При характеристике интеллектуальной готовности к школе акцент делается не на количественный запас представлений ребенка, а на уровень развития его интеллектуальных процессов. С точки зрения психологов, ребенок интеллектуально готов к школе, когда он умеет обобщать и дифференцировать предметы и явления окружающего мира. Анализируя предпосылки, необходимые для успешного овладения учебной деятельностью, в первую очередь нужно учитывать: умение детей сознательно подчинить свои действия правилу, обобщенно определяющему способ действия и умение ориентироваться на заданную систему требований.

К психологическим предпосылкам к обучению в школе необходимо отнести и качество речевого развития ребенка. Развитие речи тесно связано с развитием интеллекта и отражает как общее развитие ребенка, так и уровень его логического мышления. Кроме того, применяемая сегодня методика обучения чтению основывается на звуковом анализе слов, что предполагает развитый фонематический слух.

Одной из предпосылок к школьному обучению является возникающее к концу дошкольного возраста (приблизительно к 7 годам) умение ребенка соподчинять мотивы своего поведения и деятельности. Произвольное поведение рождается в коллективной ролевой игре позволяющей ребенку подняться на более высокую ступень развития, чем игра в одиночку. Коллектив корректирует нарушения в подражании предполагаемому образцу, тогда как самостоятельно осуществить такой контроль ребенку бывает еще очень трудно. «Функция


контроля еще очень слаба и часто еще требует поддержки со стороны ситуации, со стороны участников игры. В этом слабость этой рождающейся функции, но значение игры в том, что эта функция здесь рождается. Именно поэтому игру можно считать школой произвольного поведения».[3] В качестве предпосылок, необходимых для успешного овладения учебной деятельностью, можно рассматривать умения ребенка, возникающие на основе произвольной регуляции действий: умение детей сознательно подчинять свои действия правилу, обобщенно определяющему способ действия; умение ориентироваться на заданную систему требований; умение внимательно слушать говорящего, точно выполнять задания, предлагаемые в устной форме; умение самостоятельно выполнять требуемое задание по зрительно воспринимаемому образцу.

Исходя из выше изложенного, можно сделать следующий вывод, что все перечисленные параметры — это фактически параметры развития произвольности, являющиеся частью психологической готовности к школе, на которые опирается обучение в первом классе.

Таким образом, понятие «психологическая готовность к школе», «школьная зрелость», «готовность к школе» — эти понятия используются в психологии для обозначения уровня психического развития ребенка, по достижении которого последнего можно учить в школе. Являются ли они синонимами? При самом общем рассмотрении на этот вопрос может быть дан утвердительный ответ, так как все эти понятия обозначают наличие у ребенка предпосылок к обучению в школе.

Список использованной литературы:

1. Нарзикулова Ф.Б. Особенности психодиагностики детей младшего школьного возраста. - Учебно-методическое пособие, - СамИПКППК, 2013 г. – 40 стр.
2. Гуткина Н. И. Диагностическая программа по определению психологической готовности детей 6-7 лет к школьному обучению. — 3-е изд., перераб. и доп. — М., 2002.- 87 стр.
3. Эльконин Д. Б. Психология игры. — М., 1978.- С.287.



ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ЎРНИ

Л.С.Файбуллаева СамДУ магистранти

Музейлар халқимизнинг узок тарихидан хикоя қилувчи, мозийдан садо берувчи маънавият масканлари бўлиб, ёшларнинг маънавий дунёқарашини, миллий ғурур ва ифтихорини юксалтиришга хизмат қилади. Ёш авлодни аждодлар номи ва мероси билан фахрланишга ўргатиш, миллий ғурурни юксалтириш, буюк анъаналар давомчиси қилиб тарбиялаш, яқин ўтмишда йўқотилган миллий туйғуларни қайта тиклаш, шунингдек, мамлакатимиз жаҳон ҳамжамиятидан муносиб ўрин эгаллаб, авлодларга озод ва обод Ватанни қолдириш, унутилган тарихимизни тиклашда музейлар катта аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда 1200 дан зиёд музейлар фаолият кўрсатмоқда ва улар бугунги кунда маданий, тарихий, табиий, илмий кадриятларни йиғиб, ашёлар ёрдамида тарғиб қилувчи ижтимоий маскан бўлиб хизмат қилмоқда.

Музейлар моддий ва маънавий маданият ёдгорликларининг асл нусхаларини, археология, этнография, топономикага оид материалларни тўплайди, сақлайди, илмий асосда ўрганиб таҳлил қилади, натижаларини экспозиция сифатида оммалаштиради. Йиғилган ва музейда сақланаётган барча материаллар музейнинг илмий базасини ташкил этади ва унинг ижодий фаолиятида асос бўлиб хизмат қилади. Мана шу манбалар асосида музейлар илмий тадқиқот ва маданий-маърифий таълим-тарбия ишларини олиб боради.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов ўзининг “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” номи асарида таъкидлаганидек: “Модомики, ўз тарихини билган, ундан руҳий қувват оладиган халқни енгиб бўлмас экан, биз ҳаққоний тарихимизни тиклашимиз, халқимизни, миллатимизни ана шу тарих билан қуроллантиришимиз зарур”. “Ҳаққоний тарихни билмасдан туриб, ўзликни англаш мумкин эмас”. Бизга тарихни бориша ўрганишга имкон берувчи гувоҳларни ана шу музейлардан излашимиз мумкин. Буюк боболар, азиз авлиёлар меросини асраб-авайлаб келаятган, уларнинг ҳаётбахш ўғитлари асосида ўз миллий кадриятларини шакллантириб,

авлодларини шу руҳда тарбиялаётган меҳнаткаш халқимизга мансуб эканлигидан ҳар биримиз чексиз фахрланишимиз, унга таъзим бажо келтиришимиз ҳам қарз, ҳам фарз.

Замонавий мактаб музейнинг ғоявий-тарбиявий ва таълимий имкониятларидан мумкин қадар самарали фойдаланишдан манфаатдор. Музей фаолиятининг бу йўналиши назарий ва илмий-методик асослаш зарурияти янги махсус илмий фан-музей педагогикасининг вужудга келишини белгилайди.

Музей педагогик таъсирининг мазмуни, методлари ва шакллари, аҳолининг турли қадамларига таъсирининг хусусиятлари, шунингдек, музейни маданий муассасалар тизимидаги ўрнини белгилаш билан боғлиқ муаммолар музей педагогикасининг предмети ҳисобланади.

Шу муносабат билан музей педагогикаси томонидан:

✓ музей педагогик жараённинг қонуниятлари ва улардан амалиётда фойдаланиш, педагогик раҳбарлик даражасини ўстириш имкониятлари ўрганилади;

✓ музейларнинг музей аудиториясининг турли ижтимоий ва ёш гуруҳларга педагогик таъсирининг хусусиятлари аниқланади;

✓ турли типдаги, турдаги музейлар ғоявий-тарбиявий, таълимий фаолияти тажрибалари умумлаштирилади ва шу асосда илмий методик кўрсатмалар ишлаб чиқилади ва такомиллаштирилади;

✓ музейларнинг бошқа педагогик муассасалар билан ҳамкорликдаги ишининг янада самарали шакл ва методлари аниқланади;

✓ музейларнинг педагогик имкониятларини амалга оширилишнинг ривожланиши тахмин қилинади.


Музей педагогикаси томонидан ҳал этиладиган масалалар қаторига ўқувчи ёшларнинг маънавий дунёқарашини шакллантириш, ижодий қобилиятларни ривожлантириш, фаол ҳаётий позицияни ишлаб чиқиш каби-шахс шаклланишининг турли жараёнларини фаоллаштириш ҳам қиради.

Музей педагогикаси томонидан ишлаб чиқиладиган масалалар доирасига ғоявий-тарбиявий, таълимий фаолиятни ташкил этиш, ривожлантириш ва режалаштириш методикаси ва амалиёти ҳам қиради.

Ўқувчилар маънавий дунёқарашини шакллантиришда музейда экскурсия дарсларини ташкил этилиши муҳим аҳамиятга эга. Энг қулай томони мактабда ўлкашунослик музейини ташкил қилиш ва экспонатлардан тарих дарсларида фойдаланиш таълим-тарбия сифат ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Педагоглар ёшларни тарихий ёдгорликларни авайлаб сақлашга, тарихий обидаларга меҳр-муҳаббат билан қарашга ўргатиб, бу ёдгорликлар фақат ўтмишни ўрганиш учунгина эмас, шу билан бирга илм-фанни, халқ маорифи ва маданиятини янада ривожлантириш учун ҳам бебаҳо дурдона эканлигини сингдириш руҳида тарбиялаши керак.

Бугунги кунда мактаб музейи ташкил қилинган таълим муассасаларида ўқувчи ёшларнинг тарих ва бошқа ижтимоий фанлардан олаётган билимлари, Ватан тарихи ва маданиятига қизиқишлари ошиб бораётганлиги аниқланмоқда. Шунингдек, ўқувчи ёшларнинг билим доираси кун сайин кенгайиб, дастлабки илмий-тадқиқот ишларига бўлган қизиқиш сезиларли даражада ўсмоқда.

Хулоса қиладиган бўлсак, маданий-маърифий маскан саналган музейларимиз фаолияти нечоғ зарур эканлиги ва маънавий кадрларимиз, тарихимиз қанчалик бой эканлигини ёш авлод музейларимизга ташриф буюрганда билиб оладилар. Ўқувчи ёшларимизнинг музейларда халқимизнинг буюк маданияти, урф-одатлари, турмуш тарзи ҳақида кўплаб маълумотларга эга бўладилар ва уларнинг маънавий дунёқараши шаклланишига ҳамда комил инсон бўлиб етишишларига хизмат қилади.



**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИ МАЛАКАСИНИ УЗЛУКСИЗ ОШИРИШ КЎП
ВЕКТОРЛИ МОДЕЛИНИНГ ТУЗИЛМАСИ**

*Аъламжон Ибрагимов Амриллоевич,
Самарқанд давлат университети ўқитувчиси*

Малака ошириш тизимининг ўзига хос хусусиятлари халқ таълими ходимлари малакасини ошириш (ХТХМО)ни ташкил этишга ва унинг мазмунига алоҳида ёндашувни талаб этади. Шунингдек, таъкидлаш лозимки, педагог ходимларнинг замонавий талаблар даражасида шаклланиши нафақат унинг таянч маълумотига ёки малака ошириш курсларидан ўтишига, балки

асосий равишда педагогик фаолиятига ҳамроҳлик қилувчи касбий малакасини узлуксиз ошириб бориш жараёнига ҳам узвий боғлиқ.

ХТХМО тизимига кўп векторли ёндашув орқали педагогларнинг компетентлилиги ва фаолиятининг натижадорлигига йўналтириладиган давлат ва жамият буюртмаси, уларнинг шахсий ва касбий эҳтиёжлари ҳамда тайёргарлигининг мавжуд даражасини ҳисобга олиш, илғор тажрибалардан унумли фойдаланиш, ўз-ўзини ривожлантиришни ташкил қилиш ва мустақил таълимни кучайтириш, малака оширишни мумкин қадар ўқитувчиларнинг иш жойига яқинлаштириш, турли таълим технологияларини манзилли қўллашга эришиш мумкин.

Амалга оширилган тадқиқот натижалари халқ таълими ходимлари малакасини узлуксиз оширишнинг кўп векторли моделини яратиш ҳамда унинг компонентларини тавсифлаш учун асосли далилларга эга бўлиш имконини берди (1-расм). Модель ўзаро боғлиқ ва бир-бирини тақозо қилувчи мотивацион-мақсадга доир, концептуал, процессуал-мазмунга доир ва рефлексив-коммуникатив компонентларни ўз ичига олади.

Халқ таълими ходимлари малакасини узлуксиз ошириш кўп векторли моделининг мотивацион-мақсадга доир компоненти бошқа барча компонентлар учун етакловчи вазифасини ўтайди. Мотивацион-мақсадга доир компонент ХТХМОни кўп векторли ёндашув асосида узлуксизлигини таъминлаш ва касбий ривожланишига талабларни ифодаловчи мақсадларни ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга оширишда қулай шароитлар яратишни назарда тутди. Қўйилган мақсадларга кўра фаолият мазмуни, бажариш технологияси ва натижаларни баҳолаш мезонлари аниқланади.

Мотивацион-мақсадга доир компонент	Мақсад: халқ таълими ходимлари малакасини ошириш узлуксизлиги ва натижавийлигига эришиш
	Вазифалар: - малака оширишнинг давлат ва жамият буюртмасига ҳамда тингловчилар касбий эҳтиёжларига мослигини таъминлашга кўмаклашиш; - таълим жараёнида тингловчиларнинг индивидуал хусусиятлари ва имкониятларини инобатга олинишига шароит яратиш; - тингловчиларнинг мустақил билим олиши, ўз-ўзини ривожлантириши ва ўз-ўзини намоён қилишига ёрдам бериш
Концептуал компонент	Илмий принциплар: uzлуксизлик, диверсификациялаш, индивидуаллаштириш ва дифференциаллаштириш, модуллик, вариативлик, ўзаро таъсир, рефлексивлик, илмий-методик ҳамроҳлик, элективлик, интегративлик
Процессуал-мазмунга доир компонент	Мазмунни шакллантириш: - ўқув жараёнини ташкил қилишда интерфаол ёндашувга асосланиш ва манзиллиликни таъминлаш; - ўқув мазмунини ижтимоий буюртма асосида модулли шакллантириш; - ўқув материални ўзлаштиришда лойиҳалаш технологияларидан фойдаланиш.
	Ташкилий-педагогик шарт-шароитлар: - педагоглар касбий ривожланишига илмий-методик ҳамроҳликни амалга ошириш; - малака ошириш ўқув мазмунини замонавий талаблар асосида такомиллаштириш ва малака оширишнинг формал, ноформал, информал турларини интеграциялаш; - малака ошириш жараёнини индивидуаллаштириш ва узлуксизлигини таъминлаш.
	Назорат ва рефлексия: назорат, ўз-ўзини назорат, ўзаро назорат
Рефлексив-коммуникатив компонент	Назарий ёндашувлар: шахсга йўналтирилган, андрогогик, компетенциявий, фаолиятли, коммуникатив-когнитив
	Мезонлар: малака ошириш мотивациясининг ошиши; малака ошириш фаолиятидаги ҳаракатчанлиги; рефлексив кўникмаларининг ривожланиши

1-расм. Халқ таълими ходимлари малакасини узлуксиз оширишнинг кўп векторли модели.

Педагог ходимлар малакасини ошириш жараёнини моделлаштиришга доир методологик ёндашувлар ва тамойилларни аниқлашга оид олиб борилган кўплаб тадқиқотлардаги (жумладан, [1;2; 3; 4]) яқуний фикрлар ҳамда илмий изланишлар натижалари асосида кўп векторли ёндашув моделининг концептуал компоненти таркибини назарий ёндашувлар (шахсга йўналтирилган, андрогогик, компетенциявий, фаолиятли, коммуникатив-когнитив) ва илмий принциплардан (узлуксизлик, диверсификациялаш, индивидуаллаштириш ва дифференциаллаштириш, модуллилик, вариативлик, ўзаро таъсир, рефлексивлик, илмий-методик ҳамроҳлик, элективлик, интегративлик) иборат қилиб белгилаш мумкин, деган хулосага келинди.

Моделнинг процессуал-мазмунга доир компоненти ХТХМОга кўп векторли ёндашувнинг ташкилий-педагогик шарт-шароитлари ҳамда ўқитиш босқичлари, мазмуни, шакл ва методларини қамраб олади. Юқорида келтирилган ёндашув ва принциплар асосида ишлаб чиқилган малака ошириш таълими мазмуни педагогларнинг узлуксиз касбий ривожланишини таъминлайди ва уларнинг касбий компетентлик даражаси ва эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.


Педагогнинг узлуксиз малака ошириш фаолияти самарали бўлиши учун унда ўз ички потенциалини рўёбга чиқариш, ўз-ўзини намоён қилиш, мустақил билим олиш, касбий қизиқишларини ривожлантириш ва консультатив инновацион фаолиятга турғун мотивация шаклланган бўлиши; ўқитишнинг замонавий усуллари, илғор технологиялар, ахборот-коммуникация воситалари, педагогик тадқиқот ва педагогик ташхис қурилмалари, таълим муҳитини ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятларини билиши; педагогик жараёни лойиҳалаш, моделлаштириш ва натижаларни олдиндан кўра билиш кўникмасига ва бошқа сифатларга эга бўлиши лозим.

Моделнинг рефлексив-коммуникатив компоненти ўз-ўзини ва ўзаро назорат қилишни амалга ошириш кўникмасини, ўз касбий компетентлигини (ёки компетентсизлигини) адекват баҳолаш, касбий фаолиятдан қаноатланиш ва ўз-ўзини фаоллаштириш даражасини таҳлил қилиш, касбий қийинчиликлари ва эҳтиёжларини англаши, танқидий баҳолаши ва коррекциялаш қобилияти, тажрибаларни алмашишда ҳамкорлик фаолияти ҳамда ижодий лойиҳаларини яратиш лаёқатини ривожлантиришни ўз таркибига олади. Бу компонент тингловчиларнинг ижодкорлигини ошириш, ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини фаоллаштириш, ўқув фаолиятидаги шериклари билан мулоқотга киришиш ва ўзаро тажриба алмашиш усуллари ўзлаштириш, алоҳида мустақил ишлаш ва гуруҳда ишлаш кўникмаларини шакллантириш, малака ошириш субъектлари билан ўзаро таъсирни амалга оширишга ёрдамлашади.

Шундай қилиб, халқ таълими ходимлари малакасини узлуксиз оширишнинг лойиҳаланган кўп векторли модели жараёнининг ижобий динамикасини белгиловчи турли векторларни уйғунлаштириш, малака оширишнинг барча турларини (формал, ноформал, информал) мақбул қўллашни таъминлайди ҳамда малака ошириш самарадорлигига эришишга шароит яратувчи ўзаро боғлиқ бўлган компонентлар (концептуал, мотивацион-мақсадга доир, процессуал-мазмунга доир, рефлексив-коммуникатив) тизимини ифодалайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Возгова З.В. Методологический регулятив развития системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников / монография. – М.: АПК и ПРО, 2010. – 239 с.
2. Змеев С.И. Андрогогика: основы теории и технологии обучения взрослых. – М.: PerSe, 2009. – 438 с.
3. Кукуев А.И. Андрогогический подход в образовании взрослых. – Ростов на Дону: Булат, 2008. – 176 с.
4. Новиков А.М. Я – педагог. – М.: Эгвес, 2011. – 136 с.



ЎҚИТУВЧИЛАР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

*Кадиров Т., Аминов И.Б.,
СамДУМОМ, СамДУ.*

Ҳозирги кунда мамлакатимизда таълим тизимини такомиллаштириш ва уни замон талабларига мослаштириш, замонaviй ахборот технологияларига асосланган, жаҳон андазалари даражасидаги тизимни яратиш умумдавлат сиёсатининг муҳим таркибий қисмларидан бирига айланмоқда. Таълим сифати мазкур тизимнинг ҳолати ва самарадорлигини белгилайдиган мезон ҳисобланиб, у нафақат ўқув жараёни натижалари, балки мазкур натижаларни шакллантирувчи омилларни ҳам ифодалайди. Ана шундай омиллардан бири ўқитувчиларнинг касбий компетенциясини ривожлантиришда замонaviй технологиялардан фойдаланиш заруриятидир. Чунки таълим-тарбия соҳасини ахборотлаштириш жараёнида ҳосил бўладиган ва қайта ишланаётган ахборотлар ҳажми кун сайин ортиб ҳамда замонaviй компьютер ва телекоммуникацион технологиялари воситалари тез суръатлар билан мукаммаллашиб ва такомиллашиб бормоқда. Бундай шароитда таълим тизимини, шу жумладан ўқитувчи – педагогларни керакли ахборот манбалари билан таъминлаш, уларни тўплаш, сақлаш ва қайта ишлаш усуллари бўйича керакли билим ва малакаларини, яъни касбий компетентлигини шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Педагогик фаолиятнинг ижтимоий ва касбий шартлари доимий ўзгариб турадиган шароитда ушбу вазифани амалга оширишнинг муҳим вазифаларидан бири - бу ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантиришда замонaviй ахборот ва педагогик технологияларидан самарали фойдаланишдир. Шунинг учун ҳар бир ўқитувчининиш фаолияти давомида таълим тизимига ва ўз устида мустақил ишлашга бўлган талабни ва тайёргарлигини шакллантириш муҳим ҳисобланади. Ҳар бир ўқитувчи ўз соҳаси бўйича ҳосил бўлаётган ахборотлар оқимини муҳимлиги ва зарурлиги билиши, мустақил ахборотларни ишлаши, турли манбалардан, шу жумладан Интернет тармоғидан ахборотларни олиши, уларни ўзлари тушунадиган кўринишда ифодалаш ҳамда дарс жараёнида машғулотларни бажаришда самарали фойдаланиши лозим. Бунинг учун ҳар ўқитувчи на фақат муҳим билим ва малакаларга эга бўлиши, балки касбий компетентлигини шакллантирган ҳолда дарс жараёнида фаол иштирок этиш ва ўзини иқтидорини, тажрибасини ҳамда қобилиятини намоён қила олиши керак.

Ўқитувчининг касбий компетентлиги унинг ахборот дунё қараши, ҳам анъанaviй ҳам янги ахборот технологиялардан мукаммал фойдаланиш билан касбий ахборот талабини етарли даражада қаноатлантириш бўйича мустақил иш фаолиятини таъминловчи билим ва малакаларининг тизими билан характерланади. Касбий компетентлик ўқитувчининг педагогик фаолиятини муҳим ва асосий томонларини шакллантириш, уларда доимий равишда билимга бўлган қизиқиш ва интилишни уйғотиш, ахборотларни излаш, сақлаш, саралаш ҳамда олинган маълумотлар устида ишлаш, уларни баҳолаш кўникмаларини тўғри шакллантириш каби хусусиятларини ёритади.

Ўқитувчининг касбий компетентлигини шакллантириш жараёнининг муҳим қийинчиликларидан бири шундаки, уларнинг кўпчилиги ахборотлар билан ишлаш бўйича керакли малакага эга эмас, керакли сўровларни талаб даражасида баён эта олишмайди, тезисларни, ҳисоботларни, матнли ҳужжатларини, ўқув дастурларини тузишда ва тайёрлашда қийинчиликларга дуч келишади.

Замонаviй ахборот ва компьютер технологиялари асосида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантириш қуйидаги йўналишларда амалга оширилади:

ахборот-телекоммуникацион технологиялар ўрганиш объекти сифатида, яъни янги ахборот технологиялар, уларнинг таркибий қисмлар ва фойдаланиш соҳалари бўйича умумий тушунча ва малакаларга эга бўладилар;

ахборот-телекоммуникацион технологиялар ўқитиш воситаси сифатида,

яъни замонaviй ахборот ва педагогик технологиялар асосида билим берилди ҳамда маъруза, амалий ва лаборатория машғулотлари компьютерларнинг замонaviй дастурий воситалари асосида ташкил этилади;

ўқув жараёнини бошқариш воситаси сифатида, яъни таълим муассасасининг барча иш фаолияти, шу жумладан ўқув, маънаviй-маъри-фий ва илмий-тадқиқот ишлари самарадорли-гини ошириш учун ахборотлаштириш, таҳлил ва башорат қилиш тизимини яратиш воситалари ўргатилади;

илмий-тадқиқот ва педагогик изланишлар самарадорлигини ошириш учун замонавий ахборот тизимларини яратиш ва татбиқ этиш бўйича билим ва малакалар шакллантирилади.

Замонавий ахборот ва компьютер технологияларидан фойдаланиб ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантиришда асосийэтибор ахборот ресурслари ва жамиятнинг ахборотлашуви, Интернет тармоғидан ахборотлар излаш ва топиш, таълим тизимида янги ахборот технологиялари фойдаланиш, ахборот технологиялари асосида ўқув-услубий ва педагогик-тадқиқот фаолиятларни шакллантириш мавзуларни ўзлаштиришига қаратиш муҳим ҳисобланади:

Касбий компетентлигини шакллантириш самарадорлигини оширишнинг асосий воситалари сифатида ўқув ва амалий дастурлари, мультимедия технологиялари, электрон ўқув адабиётлари, масофадан ўқитиш тизими, Интернет тармоғи ҳамда амалий дастурлар пакетлари кенг қўлланилмоқда.


Ўқитувчилар компетенциясини такомиллаштириш мақсадида таълим муассасаларида янги педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш, ўқув машғулотларини янги интерфаол усул ва ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланган ҳолда ўтказиш, жумладан, мультимедия, масофадан ўқитиш, Интернет технологияларидан фойдаланиш, компьютерлаштирилган анжуманлар ўтказиш, мультимедиа электрон қўлланма ва дарсликларни яратиш ва уларни назарий ҳамда амалий машғулотларда қўллаш шак шубҳасиз ўз самарасини беради.

Машғулотларни мультимедия технологиялари асосида ташкил этишнинг асосий ўқув-услубий ва дастурий таъминоти - гиперматн, видео ва аудио-иловалар, анимациялар, катта сондаги намоиш материалларидан иборат бўлган мультимедиа ўқув қўлланмалари ҳисобланади. Фанларни мультимедия технологиялари асосида ўқитиш учунмаъруза, амалий, семинар машғулотларининг ҳар бир мавзу бўйича дарс ишланмаси яратилиши лозим. Ана шу ишланма асосида барча мавзуларга оид ахборот технологиялари воситалари ёрдамида баён этилиши лозим бўлган назарий, амалий-семинар машғулотларига тегишли материалларнинг электрон тақдиротини тайёрлаш малакаси шаклланади. Бундан ташқари ўқитувчиларнинг фанларни ўқитиш жараёнларини ташкил этиш ва амалга ошириш, ўқув-услубий таъминотни ривожлантириш, айниқса ўқув машғулотларини ўтиш ва ўзлаштириш самарадорлигини ошириш, фанлараро алоқадорлик ва узвийликни таъминлаш борасидаги малакаларини шакллантиришда Интернет воситаларидан фойдаланиш, ўқитувчининг ўз ахборот-таълим муҳитини кенгайтириш, касбий маҳоратни ривожланиши ва мустақил таълим олиши учун шароитлар яратиш ва жамият ахборот ресурсларидан ўз педагогик фаолиятида қўллаш имкониятларни беради.

Шу нарсани таъкидлаш лозимки, ахборот ва компьютер технологияларидан фойдаланиб ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантириш самарадорлиги ўқитувчиларнинг замонавий технологияларни ўрганишга бўлган иштиёқи, интилиши ва лаёқатига боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

Белкин А.С. Педагогическая компетентность. - Екатеринбург: Издательский отдел УрГПУ, 2003.



ТАЪЛИМДА ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕНТЕНТЛИГИНИ ЮКСАЛТИРИШ НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ

М.Қодирова.Ф. Сатторова Сам педагогика коллежи

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълимни ташкил этиш тўғрисида” ҳамда “Узлуксиз таълим тизими учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш тўғрисида”ги Қарорлари асосида умумий ўрта таълимнинг ДТС лойиҳалари ва синов ўқув дастурлари ишлаб чиқилиб, 1998–1999 ўқув йилида мактаблар амалиётида тажриба синовдан ўтказилди.

1999–2000 ўқув йилида таълим муассасаларининг 1–6–синфларида ўқув-тарбия жараёни тасдиқланган ДТС ва янги ўқув дастурлари асосида ташкил этилди. Мазкур синфлар учун ҳар бир ўқув фани бўйича ДТС асосидаги янги ўқув дастурларидан фойдаланиш юзасидан методик тавсиянома, қўлланма ва режалаштиришлар тайёрланиб, таълим муассасаларига етказиб берилди.

ДТС ва янги ўқув дастурларининг ўқув–тарбия жараёнига жорий этилишини ташкил қилиш, ҳукумат ва таълим бошқаруви органларининг бу борадаги қарор, буйруқ ва кўрсатмаларининг бажарилиш ижросини назоратга олиш, ўқувчиларнинг ДТСда белгиланган кўрсаткичларга эришиш ва ўқув дастурларини ўзлаштириш даражасини ўрганиш, таҳлил қилиш ва тегишли методик ёрдамларни кўрсатиш мақсадида “Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари мониторингини олиб бориш тартиби” ҳамда “Таълимда мониторинг марказларининг намунавий Низоми” каби меъёрий ҳужжатлар тайёрланди. Мазкур меъёрий ҳужжатларда умумий ўрта таълим ДТС мониторингини олиб боришнинг асосий мақсади батафсил ёритиб берилган. Аммо таъкидлаш жоизки, ушбу ҳужжатларда билим, кўникма, малакаларга урғу берилган бўлиб, ўқитувчининг касбий компетентлиги ҳақидаги энг муҳим атама назардан четда қолган. Шу боис ушбу ишни илмий–педагогик жиҳатдан асослаш педагогига фани олдида турган долзарб муаммо саналади.

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2013 йил 22 августдаги 39–сонли, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўрта махсус, касб–ҳунар таълими марказининг 2013 йил 22–августдаги 41–сонли ва Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2013 йил 22 августдаги 273 к/б–сонли қўшма буйруғига асосан умумтаълим фанлари бўйича компетентли ёндашувга асосланган умумтаълим фанлари бўйича узлуксиз таълимнинг давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари тайёрланди. Бундан ташқари таълим муассасасида бошланғич синф ўқитувчиларига қўйилган вазифа ўқувчиларни билим, кўникма ва унга доир малакаларга эга бўлишларини ҳисобга олиш билан биргаликда, ўз фикрини бошқаларга тушунтира олиш, бошқаларни тинглаб уларни тушуна олиш, баҳсга киришиш яъни бошқача қилиб айтганда коммуникатив компетенцияга эга бўладиган ҳолда тайёрлашлари зарур экан. Бунинг учун Давлат таълим стандартларини компетентлик ёндашувга асосланган ҳолда такомиллаштириш зарурияти сезилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси таълим мазмунида таянч ўқув режа, муайян ўқув фанлари бўйича минимум талаблар, ўқувчиларнинг ўқишда эришган ютуқлари, ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини аттестация қилиш ва баҳолашнинг методлари асосида ДТСнинг лойиҳаларини чуқур таҳлил қилиш таълим жараёнининг стандарт талаблар ёрдамида бошқариладиган асосий объектларини ажратиб олишга ёрдам беради.

ДТСни ўқув жараёнига тезкор жорий этиш механизмлари ўқув дастурлари ва дарсликлари воситасида тақдим этилган. Узлуксиз таълим тизимида намоён бўлувчи барча ҳолатлар ўқув дастурлар, дарсликлар, ўқув–методик қўлланмалар ҳамда назорат усуллари асосида қамраб олинган. Умуман, бу воситалар ДТСнинг мониторинги сифатида хизмат қилади. ДТС ва уни таъминлаш мониторингига доир қатор илмий–методик маҳсулотлар, тадқиқотлар яратилган. Чунончи, Р.Ш.Аҳлидинов, Ж.Ғ.Йўлдошев, У.Н.Нишоналиев, Ў.Қ.Толипов, Д.Ш.Шодиев, Р.Ҳасанов, Р.Ш.Аҳлидинов, О.С.Виханский, Н.В.Горбунова Б.Г.Литвак, Р.Қ.Каримовларнинг ишларида бошқарув асослари, ўқув жараёнини бошқаришни самарали ташкил этиш шартлари ва тамойиллари хусусида сўз юритилади.

Мазкур ишларда умумий ўрта таълим тизимини илмий жиҳатдан бошқариш, ДТСни таълим жараёнига жорий этиш масалалари баён этилган бўлсада, аммо бошланғич синф ўқитувчилар томонидан ўқувчиларнинг янги ўқув дастурлари талабларининг ўзлаштирилиш даражасини ўрганиш, ушбу жараёнда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш ва шу асосида таълим самарадорлигини ошириш ва энг муҳими ўқитувчининг касбий компетентлигини юксалтириш масаласига эътибор қаратилмаган.

Бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини юксалтиришнинг илмий–назарий асосларини тадқиқ қилиш орқали ўқитувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли типдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатиш, шу билан бирга ўқувчиларни халқ хўжалигининг барча жабҳаларида ишлаш учун дастлабки компетентлигини шакллантиришни кўзлайди. Бунда қуйидаги вазифалар ишлаб чиқилади:

1.Таълим сифатини оширишда бошланғич синф ўқитувчилари касбий компетентлигини юксалтиришдаги ўрни ва ҳозирги аҳоли таҳлил қилинади.

2.Ўқитувчидаги коммуникатив компетенцияни шакллантиришнинг педагогик сифатлари белгилаб олинади.

3.Ўқитувчининг касбий компетентлигини шакллантиришнинг синф бошланғич таълим фанлари (она тили,математика, табиатшунослик)ни ўрганишда таълим сифатини ошириш босқичларининг педагогик шарт–шароитлари ишлаб чиқилади

4.Таълим сифатини оширишда бошланғич таълим фанлари мисолида ўқитувчининг касбий компетентлигини юксалтиришга тизимий ёндашув мазмунига доир жадвал яратилади.

5.Бошланғич таълим фанлари мисолида ўқитувчининг касбий компетентлигини кетма-кетлигининг алгоритмик тизими ишлаб чиқилади.


6.Таълим сифатини ошириш жараёнида ўқитувчининг касбий компетентлиги моделлаштирилади.

7.Таълим сифатини ошириш касбий компетенциянинг таркибий қисмлари ва уларга қўйиладиган талаблар ишлаб чиқилади.

8.Ўқитувчининг касбий компетентлигини юксалтиришда бошланғич таълим ўқув–услубий таъминоти яратилади.

9.Ўқитувчининг касбий компетентлигини юксалтириш методикаси ишлаб чиқилади.

10.Таълим сифатини ошириш негизида бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий компетентлигини аниқлаш мезонлари ишлаб чиқилади ва шу асосида тадқиқотнинг ишонарлик даражаси аниқланади.



THE COMPETENCIES OF THE MODERN TEACHER

Shoira Kutbiddinova Sam DU MOM assitenti.

We often hear about 21stcentury learners and the knowledge and skills our students will need in the future. What about teachers? What instructional skills will 21stcentury teachers need to prepare our students? How are they different from the skills teachers needed in the past? In recent years, the quality of education has significantly changed. If, previously, the university’s major aim was that of providing students with certain types of knowledge that they were expected to apply later, universities today focuses primarily on ‘life skills’. Our aim is to teach students to obtain knowledge by themselves and to work in ways that enable them to come up with new ideas. Generating new ideas is a key tenet of modern society. We need professionals who are culturally competent, talented, innovative and creative problem-solvers, skilled and critical thinkers. New technologies give an opportunity to encourage critical thinking. We must provide students with skills that will help them work collaboratively and sensitively in a team, become decision-makers, plan and manage their time effectively, listen to one another and choose the right communication strategy at the right time. Thereby, we have come to understand that, to meet these new teaching requirements, we need 21stcentury skills.

Teacher competence

Before addressing the meaning of teacher competence, we must first establish the meaning of competence. Competency is a term used extensively by different people in different contexts; hence, it is defined in different ways. Teacher education and job performance are two contexts in which this term is used. Competencies are the requirements of a “competency-based” teacher education and include the knowledge, skills and values a teacher-trainee must demonstrate for successful completion of a teacher education program. Some characteristics of a competency are as follows:

1. A competency consists of one or more skills whose mastery would enable the attainment of the competency.

2. A competency is linked to all three of the domains under which performance can be assessed: knowledge, skills and attitude.

3. Possessing a performance dimension, competencies are observable and demonstrable.

4. Since competencies are observable, they are also measurable. It is possible to assess a competency from a teacher’s performance. Teaching competencies may require equal amounts of knowledge, skill and attitude, but some will not. Some competencies may involve more knowledge than skill or attitude, whereas, some competencies may be more skill or performance based.

Teaching competencies

A competency is more than just knowledge and skills; it involves the ability to meet complex demands by drawing on and mobilizing psychosocial resources in a particular context. Competency is essential to an educator’s pursuit of excellence. Teachers need a wide range of competencies in order to face the complex challenges of today’s world. Teaching competency is an inherent element of an effective training process, one that aspires to contribute to the welfare of a particular country or the world, itself. The central figures in the educational process are teachers. The success of training and education depends

on their preparation, erudition and performance quality. The teaching skills and life-long learning competencies of professional teachers comprise the following:

To perform complex pedagogical duties;

To be well-spoken, in good mental and physical health, stable and tolerant;

During their professional careers, teachers pass through the following levels of professional growth to achieve the acme of professional competency.

1st level: pedagogical ability – characterized by detailed knowledge of the subject; 2nd level: pedagogical skill – perfected teaching skill;

3rd level: pedagogical creativity – marked by implementation of new methods and techniques into educational activities;

4th level: pedagogical innovation – distinguished by the incorporation of essentially new, progressive theoretical ideas, principles and methods of training and education.

Schools of education have acknowledged the urgency to develop culturally competent teachers. Pedagogical culture is, therefore, an integral part of a competent teacher. Pedagogical culture consists of three components: an axiological component, meaning teacher acceptance of the values of pedagogical work; a technological component, which facilitates solving different pedagogical tasks; a heuristic component, which entails setting goals, planning, analyzing and self-critiquing; this is the creative part of pedagogical activity.

Conclusion

Ideally, then, educators should demonstrate the following competencies: 1) effective classroom management, maximizing efficiency, maintaining discipline and morale, promoting teamwork, planning, communicating, focusing on results, evaluating progress, and making constant adjustments. A range of strategies should be employed to promote positive relationships, cooperation, and purposeful learning. Organizing, assigning, and managing time, space and activities should ensure the active and equitable engagement of students in productive tasks.

2) Effective teaching practices, representing differing viewpoints, theories, “ways of knowing” and methods of inquiry in the teaching of subject matter concepts. Multiple teaching and learning strategies should help engage students in active learning opportunities that promote the development of critical thinking, problem solving, and performance capabilities while helping them assume responsibility for identifying and using learning resources.

3) Effective assessment, incorporating formal tests; responses to quizzes; evaluation of classroom assignments, student performances and projects, and standardized achievement tests to understand what students have learned. Assessment strategies should be developed that involve learners in self-assessment activities to help them become aware of their strengths and needs and encourage them to set personal goals for learning.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABAQALASHTIRILGAN TA'LIMNING O'RNI

N.A. Yunusova SamDU MOM o'qituvchisi

D.E. Turobova Samarqand shahar 54-maktab biologiya fan o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. SHu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishiga bog'liq.

Shu sababli – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash bilim samaradorligini ta'minlaydi. Jumladan ta'lim jrayonida tabaqalashtirib o'qitish o'qituvchidan o'z ustida ishlashni talab etsa, o'quvchida o'ziga ishonch o'z ustida ishlash, o'zlashtirilgan bilimlar bilan chegaralanib qolmaslik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ma'lumki tabaqalashtirib o'qitishning maktab, sinf, guruhlar, individual shakllari mavjud. Uning zaminida individuallashtirish yotadi, individual yondashish esa samarali o'qitishning zaruriy sharti bo'lib, u har bir o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos ijobiy tomonlari juda ko'p. Uni amalga oshirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, sinfdagi har bir o'quvchi shaxsini bilim va imkoniyatlarini yaxshi bilib, shu asosda darsni tashkil etishni talab etadi.

Dars berish va yuqori natijaga erishish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu mahorat o'qituvchining o'z bilimi, kuchiga bo'lgan ishonchi, o'quvchi bilimini xolisona to'g'ri baholay olishi, o'z kasbini, o'quvchilarini sevishi, ular bilan birga qadam tashlashidan iborat.

Tabiiyki, bu holat o'quvchilarning bilim sari intilishlarini, qiziqishlarini ortishiga sabab bo'ladi.

Ta'limga bunday yondashuv sinf o'quvchilari o'rtasida, o'quvchi – o'qituvchi, o'qituvchi – ota-ona o'rtasida ayrim nizolarning kelib chiqarishi ham ehtimoldan xoli emas.

Shu sababli, o'qishni bu yo'sinda tashkil etgan o'qituvchi doim izlanishda bo'lishi, o'z o'quvchilarini individual xususiyatlarini o'rganib, ular ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil eta oladigan nafaqat mahoratli pedagog, yaxshi psixolog ham bo'lishi kerak.

O'qituvchi sinfda o'quvchi shaxsiga tegmagan holda, ularga bildirmay ularni 2 ta toifaga bo'lib oladi va o'z faoliyatini shu asosda tashkil etadi. Ya'ni, o'quvchi uchun ishlatiladigan barcha topshiriq tiplarini tabaqalashtirgan xarakterda tayyorlaydi, jumladan, o'rtacha va tez o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ularning bilimlari, imkoniyatlarini inobatga olgan holda topshiriqlar tayyorlaydi. Masalan nazorat ishi uchun tayyorlanishi lozim bo'lgan testlarni 2 variantda tavsifiya qilamiz. 1-variant (tez o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun), 2 –variant (o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun). O'quvchilar bilimini nazorat qilishning bu yo'li o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish uyg'otsa, tez o'zlashtiruvchi o'quvchining o'z ustida ko'proq ishlashiga sabab bo'ladi.

Ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan topshiriqlar quyidagi afzalliklarga ega:


1.Topshiriqning "tabaqalashtirilgan" xarakterda ekanligining sir tutilishi va o'quvchi shaxsining hurmat qilinishi kafolatlanadi.

2.O'quvchi imkoniyatlari inobatga olingan holda topshiriqlar tayyorlanadi.

3.O'quvchida o'z ustida ishlash , mavjud bilimlar bilan chegaralanmaslik ko'nikmalari shakllanadi.

4.Tabaqalashtirilgan topshiriqlar tayyorlash jarayonida o'qituvchining ham pedagogik mahorati oshib boradi.

Tabaqalashtirib o'qitish sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil yondashuvdan voz kechib, har bir o'quvchiga uning imkoniyatlari inobatga olingan holda e'tibor qaratilishiga va o'z navbatida o'zlashtirish samaradorligini oshishiga olib keladi. Bunday o'qitishning asosida o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi, erishilgan bilimlardan cheklanib qolmaslik, yangi bilimlar sari intilish hissi paydo qilish yotadi. Sababi, har bir texnologiya o'ziga xos ilmiy asosga ega bo'lib, ma'lum maqsadni, ta'lim natijasini kafolatlovchi xulosaga ega bo'lish uchun amalga oshiriladi, uning natijasida qobiliyatli, fikrlash doirasi tez va keng yoshlar shakllanadi va ular orqalaridan juda ko'p tengdoshlarini ergashtiradi. Eng muhimi, bu yoshlar davrasidagi suhbatlarda ilmiylik, o'z vatanining qadriyatlariga hurmat, uning boyliglarini asrash va boyitish g'oyalari ustuvorlik qiladi.



ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ҲҚИТУВЧИСИНИНГ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

С.Аҳмедов СамДУ МОМ ўқитувчиси

Тараққиёт стратегиямизнинг тўртинчи йўналишда таълим ва фан соҳасини ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилиб, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим сифатини яхшилаш ҳамда уларни ривожлантириш чора-тадбирларини амалга оширишни назарда тутди.

Таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятида бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришда Ҳаракатлар стратегиясининг таълим соҳасидаги устувор йўналишлари таълим тизимини ривожлантиришнинг янги босқичини белгилаб берди.

Юртбошимизнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор

йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузасида "Яна бир муаммони ҳал этиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади: бу – педагоглар ва профессор-ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий-маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий қадриятларни шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳитни яратиш зарур". 1-дея таъкидладилар. Шу нуқтаи назардан, таълим тизими жараёнларидаги дарс ва дарсдан ташқари таълимида педагогларимизнинг ҳар томонлама компетентлигини такомиллаштиришни тақозо қилади.

Бугунги кунда таълим тизимидаги ислоҳотлар изчиллик билан амалга оширилмоқда. Таълим олувчининг шахси – бутун таълим тизимининг мақсади, унинг нуфузли субъекти бўлиб қолмоқда. Шу нуқтаи назардан, шахсга йўналтирилган таълимда ҳар бир ўқитувчида тизимли фаолият ёндашуви асосида ўқувчиларнинг мустақил ишлаш фаолиятини ривожлантириш ва фаоллаштириш ҳамда тушуниш методлари ёрдамида ўқитиш технологиялари дарсларни ташкил этишни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир.

Шахсга йўналтирилган таълимнинг назарий асосларига қуйидагилар қиради:

Таълим олувчининг ўқитиш жараёнидаги ўрнини белгилаш ва шахсни ривожлантириш;

Таълим олувчининг касбий шаклланиши буйича меъёрий талаблар қўйилади. Ушбу меъёрлар Давлат таълим стандартларида ва уларнинг талабларида ўз аксини топади;

Таълим жараёнини ташкил этишда педагогнинг ижодий қобилияти ва маҳорат катта аҳамиятга эга эканлиги;

Таълим жараёнига шахсга йўналтирилган ўқитиш технологияларни қўллаш талаб этилади.

Шахсга йўналтирилган ўқитиш технологияларида педагогик таъсирлар асосан ўқувчи шахсни шакллантиришга қаратилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли "Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарорига мувофиқ вилоятлар ва Тошкент шаҳар халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтларини тегишли ҳудуддаги олий таълим муассасалари тасарруфига берилиб, улар негизида Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказлари ташкил этилди. Мазкур қарорнинг қабул қилиниши ҳам ўқитувчиларимиз компетентлигини такомиллаштиришга хизмат қилмоқда. Шунингдек, бугунги кунда ўқитувчиларимиз компетентлигини ошириш нафақат, таълим ва тарбия билан боғлиқ билим, кўникма ва малакаларини ошириш, балки илм билан шуғулланишини йўлга қўйиш мақсадида мазкур қарор қабул қилинди. Шу нуқтаи назардан, ўқитувчиларимиз компетентлигини такомиллаштиришда ҳозирги ва қадимги шарқ олимларининг илмий қарашларидан хабардор бўлиши бугунги кунимизнинг долзарб масаласи бўлиб қолмоқда.

Шахсга йўналтирилган таълим мазмунини технологиялаштириш асосан ўқув ва дидактик материалларни ишлаб чиқишни, ўқувчи шахсини ривожланишини назоратга олиш ишларини қайтадан кўриб чиқишни кўзда тутди. Технологиялаштириш ўқувчига ўқув материалининг мазмунини ўзи танлашига ўз-ўзини баҳолашга имконият яратади.

Шахсга, йўналтирилган ўқитиш технологияларини қўллашдан асосий мақсад анъанавий одатга кирган таълим технологиясидан воз кечишдир. Уларнинг ўрнига янги педагогик ва психологик технологиялар жорий этилади.

Таълим технологияларини ишлаб чиқиш пайтида, биз шахсга йўналтирилган таълим технологияларини амалга ошираемиз. Чунки, шахсга йўналтирилган таълим технологиялари, ўз моҳиятига кўра, таълим жараёнининг барча қатнашчиларининг тўлақонли ривожланишини назарда тутди.

Таълим жараёнида шахсга йўналтирилган таълим ўқитувчисининг компетентлигини такомиллаштиришда, шунингдек ўқитувчи юқори самарадорликка эришиш учун қуйидагиларни билиши мақсадга мувофиқдир:

- ✓ ўқитувчи аввало ўзи фанини юқори савияда билиши;
- ✓ ўқитувчи илгор ва хорижий тажрибалардан фойдаланган ҳолда таълим бериши;
- ✓ ўқитувчи интерфаол методларни қўллаган ҳолда таълим бериши;
- ✓ ўқитувчи ахборот коммуникацион технологиялари воситалардан фойдаланган ҳолда таълим бериши;

¹ Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак! «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 14 январь сони.

✓ ўқитувчи халқчил тарзда ижтимоий ҳаёт билан боғлаб таълим бериши, шунингдек ўқувчиларда ҳосил бўлган билим, малака ва кўникмаларини ҳаётга тадбиқ эта олишига эришиши;

Ўқувчиларнинг олган билими ва тажрибаларини мактаб тизими қўллаб қувватлаши лозим. Агар, ўқувчиларга хом ашёни тежаш, ундан унумли ва самарали фойдаланиш ҳақида ўқитирганда мактаб атрофида хом ашё бекорга исрофгарчилигига ва мақсадсиз сарфланаётган бўлса, бу натижа бермайди.

✓ ўқитувчилар ўқувчиларнинг ота - оналарига боласи билан ишлаш тизимларини жорий этиши;

✓ ўқитувчи ҳар бир дарс кесимида ўқувчиларни янгиликка, яратувчанликка ундаши;

Хулоса қилиб айтганда, шахсга йўналтирилган таълим ўқитувчисининг компетентлигини такомиллаштириш орқали педагогик ва касбий маҳоратини ошириб бориш масаласи ислоҳ қилинади ва ўз навбатида ҳар томонилама баркамол авлодни шаклланиши учун хизмат қилади, шунингдек дарсларда олинган билим, малака ва кўникмаларни ижтимоий ҳаётда амалда қўллаш имконини беради.

3-ШЎБА.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

BO‘LAJAK KASB-TA‘LIM O‘QITUVCHISIDA KASBIY O‘Z-O‘ZINI ANGLASHINI SHAKLLANTIRISH.

*F. R.Ro‘ziqulov-Navoiy XTXQTMOHM direktori, dots.
E.A.Dusanov-Navoiy davlat pedagogika instituti huzuridagi
XTXQTMOHM o‘qituvchisi*

Bo‘lajak kasb-ta‘lim o‘qituvchisida kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish maqsadlari strukturasi konseptual modelning tahlili uni pedagogik-psixologik jihatdan konkretlashtirilishini taqozo qiladi. Talabani kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish tizimida umumta‘limiy va kasbiy maqsadlarni, u ierarxik tuzilishga ega bo‘lgani bois, murakkab tizimlarni tasniflash nazariyasi hisoblanadigan - taksonomiyadan foydalanmasdan aniqlashning imkoni mavjud emas.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta‘lim maqsadlari tarbiya maqsadlaridan alohida tahlil etiladi, va xolanki pedagogik mahoratni o‘rganish amaliyoti ta‘lim va tarbiyaning o‘zaro aloqada ekanini ko‘rsatmoqdi.

B.A.Ananev e‘tirofiga ko‘ra, individning o‘qish jarayonidagi bilimlarini o‘sishi, uning hayotiy tajribasi bilimlar tizimi bilan uyg‘unlashuvi natijasida ro‘y beradi. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash shakllanayotgan jarayonda talabani o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar tizimi kasbiy taraqqiyot nazariyasi sanaladi. Kasb va kasbiy munosabatlar nazariyasining asosiy g‘oyalari va tamoyillarini izchillashuvi va bilimlarning zaruriy miqdorini o‘sishi muayyan bosqichda sifatiiy o‘zgarishlarga turtki bo‘lishini inobatga oladigan bo‘lsak, uni talaba shaxsining kasbiy o‘z-o‘zini anglash shakllanishi strukturasi asosiy tarkibiy qismi ekani ayon bo‘ladi.

Ta‘lim maqsadlari pirovard natijalarga ekvivalent bo‘lmay, balki bilishni amalga oshirayotgan sub‘ekt qilishi zarur bo‘lgan bilim olish faoliyati sari undovchi o‘ziga xos “yo‘llovchi”dir. Agar ta‘lim sharti- avvalo, umuminsoniy va kasb madaniyati qadriyatlarini o‘zlashtirish bo‘lsa, kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish muddaosi tarbiyaviy jarayon sifatida- shaxs tomonidan umuminsoniy va kasbiy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatlar tizimini real o‘zlashtirilishini ta‘minlashdir.

Ta‘lim maqsadlari taksonomiyasini turlicha amalga oshirish mumkin.

B.P.Bitinas, B.S.Blum, R.M.Gagne, P.YA.Galperin, Dj.P.Gilford, A.M.Matyushkin, CH.S.Nosal, M.Oborolarning maqsadlar taksonomiyalari umume‘tirof etilgandir. Yuqorida tilga olingan mualliflarning har bir nazariyasi bilishning joriy jihati- informatsiya (bilim)ga alohida e‘tibor qaratadi.

Ushbu taksonomiyalarning ayrimlarini shaxsning kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish maqsadlarini tahlil qilishdagi o‘rnini inobatga olgan xolda ko‘zdan kechirsak:

Bilish sohasiga doir taksonomiya

Muallifi	Taksonomik kategoriyalar					
	1	2	3	4	5	6
Blum	Bilim	Tushunish	Qo‘llash	Analiz	Sintez	Baholash
Gilford	Bilish	Xotira	Konvergension yaratuvchilik	Divergension yaratuvchilik	Baholash	
Gyur	Bilim	Umumlashtirish	Oddiy muammo echimi	Murakkab muammo echimi	Sintez	Baholash
D Keynot	Takrorlash	Konseptualizatsiya	Qoidalarni qo‘llash	Divergension tafakkur	Muammo echimi	
Gronland	Bilim	Tushunish	Qo‘llash	Fikr yuritish qobiliyati		
Vanderveld	Bilim	Tushunish	Qo‘llash	Analiz	Yaratuvchilik	Baholash

Ushbu ma'lumotlar aksariyat taksonomiyalar B.S.Blum taksonomiyasining modifikatsiyasi ekanini ko'rsatmoqda. Ko'plab mualliflar, bizning fikrimizcha, taksonomiya tizimiga motivlar kategoriyasini asossiz ravishda kiritmaganlar. Faqatgina Dj.Gilford "muammo echimini" ijodiy tafakkur jihatlari bilan bog'lagan. Uning fikricha, ijodiy tafakkur mohiyati konvergension va divergension yaratuvchanlikdan iborat. Konvergension yaratuvchilik deganda gap yagona echimga ega maqsadlarni tanlash muammosi xususida ketsa, divergension yaratuvchilik deganda gap- ko'plab echimga ega vaziyatda amalga oshiriladigan yaratuvchilik xususida ketadi. Kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish maqsadlariga muvofiqlashtiradigan bo'lsak mazkur taksonomiyaning qiymati muallif bilish jarayonini farqlashidir. Bilishni kasbiy voqe'likni aks ettirishning oliy shakli sifatida talqin qilish mumkin. Xotirani esa kasbiy tajribani jarayon kabi uyushtirish va saqlash sifatida tushunsa bo'ladi.

Bizningcha, shaxsning kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonini o'rganishda yuqorida tahlil etilib qayta ishlangan yangi taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bilish sohasiga doir taksonomiya

Taksonomik kategoriyalar				
1	2	3	4	5
Bilim	Sintez	Tushunish	Qo'llash	Baholash

Jadvalda berilgan taksonomik kategoriyalar talabada kasbiy nazariya tushunchalari hosil bo'lishi bilan bog'liq murakkab o'zgarishlarning barcha bosqichlarini qamrab olish imkonini beradi.

Bilimlar kasbiy voqelikning ob'ektiv xarakteristikalarini, ichki jihatdan differentsiyalashgan, biroq yaxlit tizim bo'lgan kasbiy taraqqiyotni tushuntirishga qaratilgan g'oyalar nuqtai-nazarlar, tasavvurlar kompleksini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi; analiz kasbiy hodisalarni, ular xossalari va o'zaro munosabatlarini fikran farqlash jarayoni sifatida ilmiy bilishning tarkibiy qismi bo'lib, uning birinchi bosqichi hisoblanadi; sintez- kasb bilan bog'liq hodisalar tahlili natijalarini umumlashtiradi; tushunish-kasbiy voqelikni o'zlashtirishning universal shakli, kasbiy hodisalar mazmunini anglash va rekonstruksiya qilishdir; qo'llash- talabaning kasbiy voqelikni qayta qurish bilan bog'liq faoliyatida o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish jarayonidir; baholash- didaktik maqsadlarga erishganlik darajasidir.

Endi bo'lajak kasb-ta'lim o'qituvchisida kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish jarayoni maqsadlarini umumlashtirsak quyidagi uch darajali tarbiya maqsadlari vujudga kelishini ko'rishimiz mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish maqsadlarining taksonomiyasi

Maqsad darajasi	Maqsad mazmuni
Umumiy maqsad	Yahlit kasbiy o'zlikka ega ideal shaxsni shakllantirish (ob'ektiv kasbiy ehtiyojlar aksi, shunday shaxsni etishtirishga undovchi ichki motivning ideal ifodasi sifatida)
Joriy maqsad. Ta'lim vazifalari	Kasbiy voqe'likni ilmiy o'rganish metodologiyasini egallash malakalarini hamda shaxsning kasbiy o'zligini shakllantirish jarayonini optimallashtirish uchun zarur pedagogik ko'nikmalarni hosil qilish.
Konkret maqsad	Kasbning alohida vakili sifatida tavsiflovchi shaxsning ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish.

Taklif etilayotgan bo'lajak kasb-ta'lim o'qituvchisida kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish jarayoni maqsadlari tizimi- adekvat mazmunni qamrab olish imkonini beruvchi o'ziga xos talqin sarhadidir.

Taqdim etilayotgan maqsadlar taksonomiyasining aktual xarakteristikasiga nafaqat tarbiyaning pirovard hosili sifatida idrok etiladigan, jamiyat o'zining muayyan taraqqiyot bosqichida ifodalaydigan kasb bilan bog'liq tasavvurlariga, balki bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish jarayoniga bevosita aloqador bo'lgan joriy va konkret maqsadlar farqlanishi taalluqlidir.

Ta'lim yoshlarda kasbiy ideallar va qadriyatlarni o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatish bilan birga, ularni kasbiy voqelikni bilishga qodir sub'ektivligini ta'minlovchi aktual ustanovkalari, maqsadlarini ham inobatga olishi kerak.

Mazkur yagona jarayonning ikki jihati o'rtasidagi o'zaro aloqalar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning ob'ektiv va sub'ektiv maqsadlarida ham kuzatiladi:


Kasbiy o'zlikni anglash jarayonida vujudga keladigan ob'ektiv umumta'limiy va umumkasbiy maqsadlar o'rtasidagi uzviylik.

Umumta'limiy maqsadlar	Kasbiy maqsadlar
Kasb mohiyati va kasbiy munosabatlarni tushuntirishga va talqin qilishga qaratilgan qarashlar, tasavvurlar va g'oyalar turkumini o'zlashtirish, ularning istiqbolini baholay olish.	Kasb mohiyati va kasblararo munosabatlarni tushuntirishga va talqin qilishga qaratilgan qarashlar, tasavvurlar va g'oyalar turkumini o'zlashtirish, ularning istiqbolini baholay olish va ularni kasbiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish.
Kasbiy voqe'likni o'zgartirishga qaratilgan amaliy faoliyatga umumiy tayyorgarlik. U o'z ichiga faoliyatning mazkur yo'nalishiga nisbatan ijobiy munosabatni (motivatsion tayyorlik), muayyan bilimlarning mavjudligini (kognitiv tayyorlik), xulq-atvorning yuqori darajadagi ixtiyoriyligini (irodaviy tayyorlik), turli kasblar vakillari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan sifatlar shakllanganligini oladi.	Kasbiy maqsadlarni pedagogik maqsadlarga aylantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatga tayyorlash.
Kasbiy hodisalar va jarayonlar xususidagi umumiy bilimlarni o'zlashtirish.	Bo'lajak mutaxassislar shaxsining fuqarolik yo'nalganligini, pedagogik masalalarni kasbiy ehtiyojlarni inobatga olgan xolda echa olish malakalarini shakllantirish.

Inson faoliyatining asosiy belgisi ongli ifodalanadigan maqsad bo'lsa, uning negizini o'zi faoliyat doirasidan tashqarida, kishilar motivlari, ehtiyojlari, manfaatlar, ideallari va qadriyatlar sohasida yotadi.

Shaxsning kasbiy o'z-o'zini anglashini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayonida u yoki bu darajada ro'yobga chiqadigan motivlar va maqsadlar yaqinlashuvi sodir bo'ladi. Maqsad va motivlar "simbiozi" vujudga kelish asnosida tarbiya jarayonining samaradorligi optimal darajaga etadi hamda motiv-maqsad anglanishi natijasida anglangan motiv umumiy maqsad vazifasini o'tay boshlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'z-o'zini anglashini shakllantirish jarayonining asosiy kamchiligi uning motivini maqsad-tasavvurlaridan begonalashtirilishidir. Shuning uchun ham kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish jarayoni maqsadini tadqiq etishda tarbiyaviy faoliyat tahlilini amalga oshirish orqali maqsadning mazkur faoliyat motivatsiyasiga bog'liqligini o'rganish nihoyatda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.



YOSHLARGA YUKSAK VATANPARVARLIK RUHIDA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA TARIX FANLARINING ISTIQBOLI

*Nodir Hakim o'g'li Xushvaqtov-Samarqand davlat universiteti
1-bosqich magistranti*

Inson va jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri ularning yangilik yaratib kelajakka ishonch bilan harakat qilishidir. Har qanday yangilik jamiyatda olinayotgan bilim va ularning hayotiyigidir. Yurtimiz hududida insoniyat madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan barcha xususiyatlar tarixi yangi dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan va mavjuddir. Yuqorida keltirilgan fikrimiz, mavzuning ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishida tarix fanining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, zamonaviy ta'lim tizimini barpo etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu ustuvor yo'nalishdagi jadal harakatlarni amalga oshirishdan o'zbek xalqining ta'lim sohasida to'plagan ko'p asrlik boy tarixiy tajribasini atroflicha o'rganish va undan samarali foydalanish masalasi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlandi va yo'nalishning to'rtinchi bandi "Ta'lim sohasini rivojlantirish" ga bag'ishlangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Tinch-osuda hayotimizni ta'minlash, yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga, dunyoqarashiga va azaliy urf-odatlarimizni asrb-avaylashga bog'liq..."¹ degan, ezgu fikrlarini ta'kidlab o'tdilar.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ham ta'lim va fan sohalarini alohida to'xtalib o'tilgan hisoblanadi. 2016-yil 30-dekabrda prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning yurtimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda ham ushbu sohaga alohida to'xtalib o'tildi.² 2017-yil 30-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" prezident qarori imzolandi.³

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Yurtimizda 26 yil mobaynida fan va ta'limni rivojlantirishga juda keng miqyosda e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Shu o'rinda yurtimizda mavjud ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tarixchilarni tayyorlash bugungi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi kadrlar masalasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarixni to'g'ri va xolisona yoritish, tarixiy qo'lyozmalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy manbalar bilan ishlash va boshqa turli xildagi tarixni o'rganishda uning turli yo'nalishlariga tayanib fanni o'rganishning amaliy ahamiyatlari ijobiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuquridagi keltirilganlarni tarixshunoslik va manbashunoslik predmetlari o'zining ichiga qamrab oladi.

XXI asr globallashuv davriga kelib, inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ortib borayotgan bir sharoitda, tarixiy xotirasi mustahkam har qanday yosh avlod o'zining ongi va shuurida salbiy g'oyalarga nisbatan immunitet hosil qila oladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson. Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Tarix faninining amaliy ahamiyatli tomonlarini yoritishdan avval, fan tushunchasiga tarif berib o'tish joiz deb topdik. Fan – inson faoliyatining sohasi, borliq haqidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tomondan sistemalashtirish uning vazifasi hisoblanadi. Hozirgi zamon globallashuv jarayonlari ta'sirida bo'lgan, hamda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish pallasiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy salohiyati va taraqqiyot potentsional ko'p jihatdan fan va texnologiyani rivojlanganlik darajasi, ilmiy-amaliy innovatsiyalarni jamiyatning turli infrastrukturalarida samarali tatbiq qilinayotganligi bilan belgilanishi ayon bo'lmoqda.⁴ Jamiyatning rivojlanganlik darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida, xalqning o'z tarixini bilish darajasi ham keng miqyosda e'tirof etiladi.

Insoniyat va uning jamiyat tarixi juda qadimiy va murakkabdir. U bir necha yuz ming yilni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu ko'p ming yillik tarixiy davr davomida insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish mansubligiga ko'ra, bir nechta tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan.⁵ Uning rivojlanish jarayonini tarix fani o'rganadi. Tarix – jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi fan hisoblanadi. Tarix – insoniyat tamaddunlari rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi, taraqqiyotini o'rganuvchi fandır. Tarix yunoncha «Historian» so'zidan olingan bo'lib, o'tmish voqealar haqida hikoyalar, bo'lib o'tgan hodisalar degan ma'noni anglatadi. Tarix

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз.-Т: "Ўзбекистон".2017. 467-б.

² 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. -Т: «Маънавият». 2017. 99-б.

³ Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси хузурида Ўзбекистоннинг энг янги тарихини ўрганиш жамоатчилиги кенгаши фаолиятини ташкил этиш тўғрисида. // «Ma'rifat» газетаси, 2017-yil 1-iyul, № 52 (9013)

⁴ Қўшоқов Ш.С. Илмий тадқиқот методологияси. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри. 2015, 36-б.

⁵ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. -Т: «Университет». 2007. 15-б.

insoniyat o'tmishining o'ziga xosligini va ijtimoiy bilimlar majmuini o'zining yordamchi fanlari yordamida o'rganadi. Hozirgi kunda tarixshunoslik va manbashunoslik fanlari xalqimiz tarixini haqqoniy aks ettiruvchi fanlar sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston tarixida sodir bo'lgan tarixiy voqealar va jarayonlarni aks ettirgan manbalarsiz haqqoniy tarixni bayon etish va yaratish mumkin emas. Shunday ekan, qanday tarixiy mavzuda ilmiy tadqiqot olib borilmasin, birinchi navbatda, mavzuning manbaviy bazasiga e'tibor qaratilishi lozim hisoblanadi. Tarixiy manbalar ikki turga: moddiy va yozma (ma'naviy) manbalarga bo'linadi. Tarix fanini o'rganishda ikkala manbalarni ham ilmiy nazariy va amaliy jihatlarini ahamiyatli hisoblanadi.

Manbashunoslik tarix fanining asosiy va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, turli xildagi manbalarni o'rganish, ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Tarixiy manba – o'tmishdan qolgan va jamiyatning ma'lum bosqichda kechishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar jamlanmasiga nisbatan aytiladi. Tarixiy manbalar inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan, shuning uchun ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini o'zida aks ettiradi.¹ Bundan kelib chiqqan holda shu aytish mumkinki, ajdodlarimizning turmush-tarzi va ijtimoiy faoliyati qay tarzda kechganligini tarixiy manbalarsiz o'rganib bo'lmaydi. Tarixiy manbalarni aniqlash tanlash va tahlil qilish tarix faniga biror bir ilmiy yangilik olib kirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Tadqiqot olib borilayotgan masalaning ilmiy hamda nazariy jihatdan to'g'ri hal etilishi ko'p jihatdan har qanday ilmiy ishning poydevorini tashkil etadigan manbaning sifat va salmog'iga, ya'ni to'raligi va faktik materialga boyligiga bog'liq bo'lib, ular bir taraflama emas balki, tarix fanini yoritishning turli ilmiy metodologik tomonlari bilan ham tadqiq etilishi lozimdir.

Manbashunoslik fanini tarixshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tarix fani bilan tarixshunoslik fanlarining metodologiyasi umuman bir xil mazmun va mohiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu ikki fanning metodologiyasi bir maqsadga ya'ni tarix fani to'g'ri yo'ldan rivojlanishi hamda tarixni haqqoniy va ilmiy mulohazalarga asoslangan holatda yozilishiga xizmat qiladi.

Tarixshunoslik tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Ular quyidagilar: tarixiy bilimlar taraqqiyoti va tarixiy tadqiqot usullariga doir fan ma'nosida va ma'lum bir tarixiy davrga yoki muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlar majmuasi ma'nosida.² O'zbekiston tarixining tarixshunosligi deganda, O'zbekiston xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozir davrgacha bo'lgan tarixiga manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixiy tadqiqot, ya'ni tarixshunoslik asarlarini tushunamiz. Tarixshunoslik fanining paydo bo'lishi avvalo insoniyat tarixida yo'qning paydo bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, mil.avv. III-II asrlarda shakllangan so'g'd yozuvi o'lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o'ynaydi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo'llanilgan. Muhimi shundaki, so'g'd yozuvi orqali bizgacha eramiz boshlaridan to' X-XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob manbalar yetib kelgan.³ O'zbekiston xalqlari tarixnavisligining dolzarb vazifalaridan biri davlatchilik tarixini yoritishdir. Bu yo'nalishda eng qadimgi davr tarixini o'rganish muhim bo'lib, birinchi navbatdagi vazifa yozma manbalar tarixiga katta e'tiborning qaratilishidir.

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida tarixiy manbalardan foydalanish o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tarixiy tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi.



¹ Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т: «Ўқитувчи», 2001. 124-б.

² Саидқулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. –Т: «Ўқитувчи». 1993. 3-б.

³ Исоқов. М. Унутилган подшоликдан хатлар. –Т: «ФАН», 1992. 3-б.

ИЖТИМОЙ ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛИ ДАРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Отабек Бакиров-ЖДПИ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ
катта ўқитувчиси*

Маълумки, ҳар қандай технология таълимнинг янги мазмунини шакллантирувчи таълим тамойилларига асосланади ва таълим олувчи шахсини тарбиялаш, унда меҳнат ва муайян йўналишларда касбий кўникмаларни ҳосил қилишга йўналтирилади. Таълим жараёнини фаоллаштириш ва жадаллаштиришга йўналтирилган педагогик технологиялари таълим олувчиларга қаратилади, шунингдек, уларнинг шахсий ва ўқитувчи билан биргаликдаги фаолиятини ҳисобга олган ҳолда ўқув материали ўзлаштиришга шароит яратади, таълим-тарбияси бутун машғулот давомида ўқувчиларнинг фаоллиги ва қизиқувчанлигини мунтазам равишда ривожлантириб бориш мақсадини кўзда тутаяди, ўқув омилларини яратишга асосланган педагогик технология талабларини ўқув ёки ишлаб чиқариш фаолиятига тезкор жалб қилиш имконини беради. Акс ҳолда, заиф, етарли даражада тушунарли бўлмаган ёки аниқ натижани кўзланмаган топшириқлар машғулотнинг самарасиз яқунланишига олиб келиши мумкин.

Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамалакатларда ўқувчиларнинг ўқув ва ижодий фаолликларини оширувчи ҳамда таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини кафолатловчи педагогик технологияларни қўллаш борасида катта тажриба қўлланган бўлиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи технологияларни амалиётга кенг жорий этиш даркор. Ана шундай технологияларидан бири дидактик ўйинли технологиялар ҳам таълимда ўқувчиларнинг ўзлаштириш сифат самарадорлиги учун хизмат қилмоқда.

Маълумки, ўқувчиларнинг билиш фаолияти ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар дидактик ўйинли дарслар дейилади [1]. Дидактик ўйинли технологиялар ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини ўйин фаолияти билан қўшиб олиш боришдан иборат. Дидактик ўйинлар мусобақа, рақобат, ўзаро ёрдам, ҳамкорлик тарзида олиб борилади. Бунинг учун ўқитувчи дидактик ўйиндан кўзда тутилган мақсад, уни амалга ошириш йўллари, ўйин мазмуни ва иштирокчилари фаолиятини аниқлаб олади. Дидактик ўйин дарслари таълим ва тарбия бериш, ўқувчилар фаолиятини йўналтириш, касбга йўналтириш, ўқувчиларнинг мулоқат ва нутқ маданиятини ривожлантириш, улар билимларини чуқурлаштириш ва шахсни ривожлантириш вазифасини бажаради [2].

Биз қуйида Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият– энгилмас куч” асарини ўрганишда “Гроссмейстер” дидактик ўйинини ишлаб чиқдик. “Гроссмейстер”-сўзи немисча сўздан олинган бўлиб, “буюк магистр”, “катта уста” маъносини англатади. Бу ўйин қуйидаги тартибда амалга оширилади.

1-босқич. Ўқувчилар рангли карточкалар орқали 5 та гуруҳга бўлинишади, ўқитувчи ўйин тартибини эълон қилади ва доскага 5 бўлим бўйича саволларни жойлаштиради ҳамда баҳолаш тартиби билан таништиради. 1–2- саволлар содда саволлар бўлиб, кўк карточка билан рағбатлантирилади. 3–5- саволлар мураккаб саволлар ҳисобланиб, яшил карточка билан баҳоланади. Карточкаларнинг олди томонида савол рақами орқа томонида эса, савол ёзилган бўлади.

3-босқич. Гуруҳлар билан келишган ҳолда бир бўлим саволлари четга олиб қўйилади. Бу бўлим саволлари ғолиб гуруҳ билан ўйналади.

4-босқич. Савол танлаш ҳуқуқини олиш учун гуруҳларга ўқитувчи бир савол билан мурожаат қилади. (Масалан, Милетлик файласуф Фалес 3 та ўзига хос томонлар билан дунёга келганлигидан фахрланар экан. Булар нималар? Жавоб:1-хайвон эмас одам бўлиб дунёга келганлигидан, 2-аёл эмас эркак бўлиб дунёга келганлигидан, 3-варвар эмас, юнон бўлиб дунёга келганидан) Саволга жавоб топган гуруҳ савол танлаш ҳуқуқига эга бўлади ва ўйин бошланади.

5-босқич. Ўйин давомида тўпланган карточкалар орқали ғолиб гуруҳ аниқланади ва шу гуруҳ билан четга олиб қўйилган бўлим саволлари ўйналади. Бунда мағлуб гуруҳлар ўйиндан четлатилмайди. Улар фақатгина ғолиб гуруҳ саволга жавоб берганидан сўнг жавоб бериш ҳуқуқига эга бўлади.

6-босқич. Мутлоқ ғолиб гуруҳ аниқланади ва уларга “гроссмейстер” мақоми берилади ва рағбатлантирилади.

Саволлар

1-бўлим. Тил ва адабиёт

1. Давлат тилининг ҳуқуқий мақоми қачон мустақамланган? (1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида 4-модда. Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ўзбек тилидир)

2. Юксак маънавият-енгилмас куч асарида бир асарга нибатан шундай эътироф келтирилади: “Улар оилада энг кичик фарзандларига ҳам “сиз деб мурожаат қилишади”. Бу қайси асар? (Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” асари)

2-бўлим. Тарих ва дин

1. “Муслмонларнинг эътиқодини тузатувчи” — деган юксак унвонга сазовар бўлган аллома? (Мотурудий)

2. “Дин ва миллатнинг хужжати”-деган юксак унвонга сазовар бўлган аллома? (Бурхониддин Марғиноний)

3. АЙСЕКО қанақа ташкилот? (Ислон конференцияси ташкилотининг Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилот) [2].

3-бўлим. Файласуфларнинг маънавият борасидаги қарашлари

1. “Шамчироқ ёнишдан тўхтамас экан — сен тириксан. Агар у ўчса — сен ҳалок бўласан”- дейди Ибн Сино. Бунда шамчироқ нимага, шамчироқ ёғдуси нимага, шамчироқ мойи нимага ўхшатишган? (Шамчироқ-руҳ, шамчироқ ёғдуси-билим, шамчироқ мойи-Аллоҳ закоти)


2. Абу Али Ибн Сино шундай дейди: “Ҳакимнинг уч қуроли бўлмоғи лозим”. Булар қайсилар? (сўз, гиёҳ ва тиғ)

Ҳуқуқ асослари

1. Инсоннинг энг устувор ва муқаддас ҳуқуқи... (тинч ва осойишта яшаш ҳуқуқи)

2. Ислон Абдуғаниевич Каримов Ўзбекистон раҳбари сифатида қачон иш фаолиятини бошлаган? (1989 йил 23 июн)

Бугунги кунда амалий машғулот дарсларида қўлланиб келинаётган ушбу дидактик ўйин тингловчиларни таълим жараёнида фаол иштирокини таъминлаш билан бирга уларни мустақил ва тезкор фикрлашга ҳамда мавзуга оид маълумотларни жадаллик билан ўзлаштиришга хизмат қилмоқда.



ШАҲСНИНГ ИЖТИМОЙ ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЭТНОПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ

Ганишер Хасанович Тагаев
СамДУ МОМ ўқитувчиси

Мустақиллик йилларида тарих фанига эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ўтган йиллар мобайнида давлатимиз раҳбарининг кўрсатмалари асосида Ватан тарихини мустақиллик руҳи билан суғорилган ҳолда халққа етказиш бўйича кўплаб ишлар амалга оширилди. Зеро, “... ўз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ” дир

Таълим тизимидаги замонавий ислохотлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳамда бозор иқтисодиёти чуқур илдиз отиб бораётган даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига мувофиқ бир қатор янги вазифаларни юзага келтиради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” деб, ёшлар сиёсий фаоллигини оширишга даъват этдилар.

Мамлакатимиз истиқлолга эришганидан кейин халқимизнинг ўзлигини англаши, миллий қадриятлар, тарихий анъаналарга бўлган эътиборнинг ортиши ва миллий-этник ўзликни англаш ҳиссини кучайиши натижасида ўзбек халқи этногенези ва этник тарихига оид салмоқли тадқиқотлар яратилди. Қолаверса, узок йиллар давомида аждодларимиз томонидан яратилган бебаҳо меросимизни, миллий қадриятларимиз ва урф-одатларимизни қайтадан жонланиши ҳамда уларнинг энг ибратли жиҳатларини жамият ҳаётига олиб кириш борасида қатор хайрли ишлар амалга оширилди. Бошқа томондан эса айнан кейинги ўн йилликларда дунё миқёсида кечаётган

улкан глобализацион жараёнлар ва турли тарихий-этнографик минтақалараро коммуникация тизимини такомиллашуви этномиллий анъаналарга жиддий таъсир қилмоқда [3; 6].

Миллий қадриятлар шахснинг ижтимоий тараққиётида нечоғлик зарурлиги, халқимизда юксак инсонпарварлик қадриятлари тикланаётганлиги ва такомиллашаётганлигини ифодаловчи ўзига хос дунёқарашида кўришимиз мумкин.

Миллий қадрият деб, муайян халқнинг расм-русуми, анъанаси, фазилатлари, ахлоқ ва одоби, яшаш тарзи, байрамлари, шу халқнинг аксарият қисми томонидан эъзозланишга лойиқ бўлган иншоотлар, миллий кийимлар, уй-рўзгор буюмлари, рўзгор тутишлари айтилади. Масалан, ўзбекларнинг меҳнатсеварлиги, меҳмондўстлиги, хушхулқлиги ва мулойимлиги, турли тоифадаги одамлар билан ўзаро иноқлашиб кетишлиги, кечиримлилиги, мулоҳаза ва тафаккур билан иш кўриши, тинчликсеварлиги ўзбек миллий қадриятлари бўлиб ҳисобланади.

Асрлар давомида аждодлардан авлодларга мерос бўлиб қолаётган анъана ва удум, қадрият ва маросимларнинг ҳар бирида тарбиянинг ўзига хос кўриниши мавжуд. Ёш авлодни маънан баркамол этиб тарбиялашда шубҳасиз, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланиш зарур. Бунинг учун этнопедагогикадан фойдаланамиз.

Этнопедагогика халқ таълимининг моҳиятини очиб беришга хизмат қилади ва ундан ҳозирги замон шароитларида қандай фойдаланиш йўллари таклиф этади, халқ анъаналарини табиий равишда кўп асрлик тараққиётга асосланган этник (эл-элатлик) гуруҳлари тажрибаларини тўплайди ва тадқиқ қилади. Этнопедагогиканинг мавзу соҳаси ўзгармайди: ижтимоий ўз-ўзини англаш ҳаракатига тааллуқли ижтимоий шартлар ўзгаришига боғлиқ равишда вазифалар шаклланади ва аниқланади.

Ўзбек халқи педагогикаси тарихида ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда кўп асрлар давомида қўлланилган кўплаб усул ва воситалар, миллий урф-одат ва анъаналар, тарбия ҳақидаги ғоялар мужассамдир. Халқ педагогикасида ифодаланган ғоялар, тажрибалар халқ яратган афсоналарда, оғзаки ижод намуналарида, ёзма ёдгорликларда ўз ифодасини топган, улғу мутафаккир олимларнинг илмий ва амалий жиҳатдан асосланган асарларида баён этилган.

Ўзбек халқининг ёш авлодни ҳаётга тайёрлашда кўп асрлар давомида қўллаган усул ва воситалари, тадбир шакллари, ўзи хос урф-одати ва анъаналари, тарбия ҳақидаги ғоя ва ҳаётий тажрибаси халқ педагогикасида мужассамлашди. Ҳали мактаб бўлмаган, педагогик фикр таркиб топмаган даврдаёқ қабила аъзоларининг болаларда меҳнатсеварлик, жанговорлик, ахлоқ-одоб, нафосат, дўстлик, меҳр-шавқат, инсонпарварлик сифатларини таркиб топтириш соҳасидаги ақл-идроқи ва усуллари ўша даврдаги ҳаётий тажрибанинг меваси сифатида бизнинг давргача етиб келди ва халқ педагогикаси сифатида шаклланди [4; 10-11].

Ҳар бир халқ педагогикаси бошқа халқлар маънавий-маданияти билан ўзаро алоқада бойиб боради. Халқлар ҳаётида урф-одат ва анъаналардаги ўхшашлик улар яратган ёдгорликлар мавжуддир. Аммо, бундан қатъий назар, ҳар бир ёдгорлик уни яратган, ижод этган халққа мансубдир, унинг миллий ёдгорлигидир. Шу сабабли ҳам халқ ижодий асарларида миллийлик хусусияти намоёндыр. Асарлар номи, уларда тилга олинган ҳудуд, буюм, ўсимлик, қушлар, ҳайвонлар, турмушда қўлланган асбоблар номи ҳам бунинг ёркин далилидир.

Шахснинг ижтимоий тараққиётида давомида этник қадриятларни ёшлар онгига самарали сингдиришда этнопедагогика фани ўз олдига бир қатор вазифаларни кўяди:

- халқимизнинг миллий қадрият ва анъаналарини оила муҳитида таркиб топтириш, бунинг учун эса ота-оналар, бобо-бувиларнинг фарзандлар билан бўладиган кундалик мулоқот вақтларини кўпайтиришга эътибор қаратиш;

- таълим муассасаларида билим ва тарбия уйғунлигига эришиш, педагоглар ва жамоатчилик томонидан ёшларнинг интернет тизимидаги мулоқотлари мазмунини жиддий назоратга олиш, уларни вайронкор ғояларни тарғиб этувчи хорижий сайтлар таъсиридан ҳимоя қилиш;


- таълим муассасаларида адабиёт, санъат, фан ва маданият соҳаларида ўтказилаётган маърифий тадбирларни миқдорини ошириш;

- миллийлик ва миллий маънавий қадриятлар уйғунлиги мавзуида олимлар, ёзувчи ва шоирлар билан давра суҳбатлари ва учрашувлар ташкил этиб бориш;

- оила, мактаб ва таълим муассасаси ҳамкорлигидаги ишлар салмоғини оширишдан иборат ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир халқнинг ўзига хос миллий қадриятлари ва маданий мероси мавжуд бўлиб, улар шахснинг ижтимоий тарбиясида муҳим ўрин тутади. Шахснинг маънавий ва руҳий камолотида ижтимоий тарбиянинг ўрни беқиёс эканлигини инобатга олган ҳолда, унинг

ушбу тарбия турини ривожлантиришда айнан миллий ва этник кадрларнинг элементлари устувор бўлиши шарт.



ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

*Ш.Холбаев-СамДУ МОМ ўқитувчиси
Э.З.Аҳмадов - СамИСИ талабаси*

Бугунги кунда тараққиёт стратегиямизнинг учинчи иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналиши белгилаб олинган бўлиб, биринчи набатда ёшларимизни ва одамларимизни иқтисодий саводхонлигимиз ва маданиятимизни юксалтириш долзарб масала ҳисобланади. Шунингдек, ўқувчиларнинг компетентлигини оширишда иқтисодий тарбиянинг ўрни катта ҳисобланади. Бугунги кунда иқтисодий таълимнинг барча босқичларида ўқув дастурларининг изчиллиги ва ўзаро мувофиқлиги таъминланди, “Иқтисодий билим асослари” ўқув дастурларида умумий ва қўшимча таълимнинг интеграциялашувини, шу билан бирга ўқитиш мазмуни-моҳиятини реал ҳаётнинг эҳтиёжларга максимал даражада яқинлаштириш кўзда тутилади. Шунингдек, жаҳон бозоридаги конъюктуранинг ўзгариб бораётганлиги, барча жараёнлар глобаллашиш янада тезлашаётган бир вақтда ўқувчилар компетентлигини ҳам ошириб боришни тақазо қилмоқда.

Шарқ мутафаккирларининг илмий ижодиётида иқтисодий тарбияга оид бир қанча таълимотлари, ижобий йўналишдаги ғоялар, фикр-мулоҳазалар мавжудлиги билан ўзига хос хусусиятларга эгадир. Бу эса ёш авлодни янада ушбу алломаларни ижодини кизиқиш билан ўқишга олиб келади.

Иқтисодий тарбиянинг ўзига хос хусусиятларидан бири шуки, у ўқувчиларни мустақил ҳаётга тайёрлайди, иқтисодий саводхонликларини юксалтириб, ижодий қобилиятларини шакллантиради.

Ўқувчиларни компетентлигини оширишда шарқ мутафаккирларининг қарашларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Шарқ мутафаккирларининг қарашларида меҳнат ва ҳунар, ҳалол меҳнат билан топилган бойлик масалалари улуғлаш каби халқнинг кўп минг йиллик иқтисодий ғоя ва қарашлари тўпланган ва ўз аксини топган. Масалан, Абу Али Ибн Сино иқтисодий тарбияда киши тежамкорлик ва мулкий билимларни ўзлаштирибгина қолмай, ҳар қандай вазиятларда ўзини ана шу нормаларга муносиб тута оладиган кишилар иқтисодий тарбияланган ҳисобланишини таъкидлайди. Ибн Синонинг мазкур қарашда иқтисодий тарбияланган кишида барқарор маънавий мотивлар шаклланган бўлиши, бу мотивлар эса ўша кишини жамиятда муносиб ҳуққ-атвор билан рағбатлантиришга, ёш авлодни жамиятга, меҳнатга, ўзига муносабатни ижобий маънавий фазилатларга мувофиқ равишда тарбиялаш - тарбияланувчи шахсни, ҳам маънавий ҳам моддий жиҳатдан юксалишга ундайди.

Абу Наср Фаробий фозил жамият ва фозил шаҳар (ёки мамлакат) шундай бўладики, шу мамлакатнинг аҳолисидан бўлган ҳар бир одам касб-ҳунар билан шуғулланишини ўз қарашларида ифодалайди. Фаробийнинг мазкур қарашда ўқувчиларимиз касбий компетенциялар шаклланишига, касб-ҳунарли бўлиб турмуши форовонлигини оширишга хизмат қилади.

Имом ал-Бухорий асарларидаги ҳадисларда эса, "Чарво боқинлар чунки у барокатдир", "Қайси бир мўмин бирор экин экса ёки мевали дарахт ўтқазса-ю, улардан қушлар, одамлар ёки ҳайвонлар эса, бу унинг учун садақа ҳукмида бўлади", "Илмни ўрганиб сўнг уни бошқаларга ўргатмаслик гўёки молу дунёни йиғиб, уни сарф қилмай, кўмиб қўйиш билан баробардир"-дея таъкидланган, Мазкур қарашларда эса, шахсий уй хўжалиги шароитида чорвачиликни йўлга қўйиш, форовонликни ошириш омилини билиб олади, экологик барқарорликни таъминлашда, форовонликни ошириш, шунингдек иқтисодиётни маънавият билан уйғун ҳолда ривожланишига хизмат қилади ва компетентликни оширилишида аҳамиятлидир.


Соҳибқирон Амир Темурнинг давлатчилик ва дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик салоҳияти, илму фан, санъат ва меъморчиликка оид қарашлари, ҳаётнинг маъно-мазмуни, инсонни улуғлайдиган эзгу ишлар ҳақида билдирган фикрлари, дину диёнат ва адолатни жойига қўйиш,

салтанат ишларини кенгаш ва тадбир асосида амалга ошириш, ҳар бир масалада узоқни кўзлаб, эл манфаатини ўйлаб иш тутиш билан боғлиқ ибратли фазилатларини алоҳида таъкидламоқ керак. Айнан мана шундай масалалар унинг тафаккурининг маҳсули бўлган “Темур тузуклари” асарида ҳар томонлама аниқ, ишонарли ва таъсирчан ёритилган.

“Яна амр этдимки, кимки бирон саҳрони обод қилса ёки кориз қурса, ё бирон боғ кўкартирса, ёхуд бирон хароб бўлиб ерни обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олмагинлар, иккинчи йили раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили (эса олиқ - солиқ) қонун - қондасига мувофиқ хирож йиғсинлар.”¹-дейилади “Темур тузуклари”да. Мазкур фикр қарашдан эса, мамлакат ободлиги масаласи учун солиқ тизимининг рағбатлантирувчи функцияси ишлаганлигини кўриш мумкин. Бу эса юртимиздаги солиқ ислохотларимизда ҳам кўзга ташланиб туради.

"Тажрибамда кўрилганким, азми қатъий, тадбиркор, хушёр, жанг кўрган, мард, шижоатли бир киши мингта тадбирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир. Чунки, тажрибали бир киши минглаб кишига иш буюради" 2 -дейилади “Темур тузуклари”да. Тадбиркор борасидаги мазкур фикр қарашдан эса, мамлакатимизда олиб борилаётган иқтисодий ислохотларимизда тадбиркорлик масаласи иқтисодий сиёсатимизнинг устувор йўналишида эканлиги эса “Темур тузуклари” асарининг иқтисодий билимларнинг ривожланишининг тамал тошини қўяди десак муболаға бўлмайди. Шу нуқтаи назардан "Темур тузуклари" асарининг аҳамияти юксак бўлиб, иқтисодий таълимда ундан фойдаланиш долзарб масалалигича қолаверади. Шунингдек, бугунги иқтисодий сиёсатимиздаги кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ялпи ички маҳсулотдаги салмоқли улушининг йилдан йилга оширилиши, мамлакатимиз иқтисодиётининг ривожиди бу соҳанинг ўрни бекиёс эканлигини англайди. Шунингдек, таҳлил қилиш компетенциясининг оширилишига сабаб бўлади.

Хулоса қилиб айтганда шарқ мутафаккирларининг иқтисодий тарбияга оид қарашлари халқчил тарзда ёндошилганида бўлиб ўқитувчиларнинг компетентлигини оширилишида ғоят аҳамиятлидир.



БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИНГ ЎРНИ.

*Д.Қурбонова-СамДУ МОМ ўқитувчиси,
А.Абдуманнотова-СамДУ талабаси*

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан халқ маънавиятининг тикланишига, бой тарихий меросимизнинг ўрганилишига, анъаналаримизнинг сақланиши маданият ва санъат, фан ва таълимнинг ривожланиши билан бевосита боғлиқ. Маънавият- узлуксиз давом этадиган жараён. Маънавияти юксак бўлган шахслар мамлакатни дунёга, шахсни эса унинг маънавий қиёфаси танитади. Маънавият таълим-тарбия жараёни билан боғлиқ, бошқача айтганда таълим-тарбиясиз маънавият бўлмайди.

Умумий ўрта таълим мактабларида жумладан, бошланғич синфларда маънавий-маърифий ишларнинг кўлами кенгайиб, мазмуни эса сифат жиҳатдан янгиланиб бормоқда.

Шубҳасиз, унда ўқитувчининг ўрни, унинг шахсий ва касбий сифатлари муҳим рол ўйнайди. Бошланғич таълим Концепциясида таъкидланганидек: “Бошланғич синф ўқитувчиси барча психологик- педагогик воситаларни қўллаган ҳолда, ўқувчиларда яхлит тарздаги ўқув фаолиятини шакллантира олиши керак”³.

Бугунги кунда ўқитувчининг мавқеи ўқув-тарбиявий жараённинг бошқарувчиси сифатида тавсифланган. Шу жумладан, бошланғич синф ўқитувчиси педагогик жараённи тўғри бошқара олиши учун етарлича билим, кўникма ва малака ҳамда касбий компетентликка эга бўлиши лозим. У даставвал болаларга меҳр- муҳаббат қўйиши ва уларни ўзига жалб эта олиши керак.

¹Темур тузуклари. Т., Ўзбекистон, 2015, 145-бет.

²Темур тузуклари. Т., Ўзбекистон, 2015, 14-бет.

³ Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi. Tuzuvchilar: p.f.d. prof. R.G.Safarova va boshqalar. - T.:2015, 24b

Педагогик адабиётларда таъкидланишича касбий компетентлик- мутахассис тамонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллаш олишидир.

Бошланғич синф ўқувчисининг касбий маданияти унинг етуклик даражасини белгиловчи омиллардан бири муаллимнинг ташқи қиёфаси, кийиниш маданияти ҳисобланади. Кичик ёшдаги ўқувчиларга сабоқ бераётган педагогнинг кийиниш маданиятига эътибор бериши, бошқача айтганда кийимларини тўғри танлаши ўқувчиларда ёқимли тасаввур уйғотади. Шунингдек, тоза-озода кийиниши, ўзини тута билиши, бағрикенглиги, муаммоларни чуқур фикр мулоҳаза юритиб ҳал этиши унинг маънавий жиҳатдан етуклигидан далолат беради.

Республикамызда бугунги кунда фаолият кўрсатаётган 400 мингдан ортиқ педагогнинг 120 мингга яқинини бошланғич синф ўқитувчилари ташкил этишни эътиборга олсак, қўйилаётган масаланинг нечоғлик долзарб эканлигини билиш қийин эмас.

Бошланғич синф ўқувчиси мавжуд билим, кўникма ва малакаларини ҳаётда қўллаш олишлари талаб этилмоқда. Бошланғич синф ўқувчиси айна пайтда синф раҳбари сифатида ҳам фаолият кўрсатиб, ўқувчиларни миллий ғоя ва мафкурамизга садоқат руҳида тарбиялаш каби тушунчаларни болалар қалбига сингдириб боради. Ўқувчиларнинг қобилият ва қизиқишларига қараб уларни турли тўғарақларга жалб қилади. Ҳафтада бир марта ўтказиладиган маънавий соатларини юқори савияда ташкил этади. Ўқитувчининг ҳар бир ҳаракати ўқувчи шахсининг камол топтиришга хизмат қилади. Касбий компетентликка эга бўлган бошланғич синф ўқитувчиси ўқувчилар билан индивидуал ишлашни ҳам йўлга қўяди. У ўқувчилар фаоллигини ошириш мақсадида ота- оналар билан яқиндан алоқада бўлади. Ўқитувчи ўқувчилар маънавиятини шакллантириш учун болаларнинг кийинишига, синф хонасининг жиҳозланишига ҳам эътибор қаратиши керак.

Бу борадаги ҳолатларни ўрганишимиз ва кузатишларимиз шу нарсани кўрсатмоқдаки, амалга оширилаётган ишлар давр талабидан орқада қолмоқда. Бошланғич таълим ўқувчисининг маънавий-маърифий тайёргарлигини оширишда уларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш учун қуйдагиларга эътиборни қаратиш лозим:

Бошланғич таълим ўқитувчисининг маънавий-маърифий фаолиятини такомиллаштириш учун муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг маънавий-маърифий соҳани ривожлантириш билан боғлиқ қарор, фармон ва кўрсатмаларини чуқур ўрганиш тизимли равишда йўлга қўйилса;

олий таълим муассасаларининг бошланғич таълим йўналишига қабул жараёнларида абутуриентларнинг нафақат билим, кўникма ва малакаларига балки уларнинг маънавиятига ҳам эътиборни қаратиш керак;

бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг маънавий-маърифий тайёргарлигини таъминлаш учун ижтимоий-гуманитар ва педагогик туркум фанларининг имкониятларидан оқилона фойдаланиш зарур;

бошланғич таълим соҳасида фаолият кўрсатаётган ўқитувчиларнинг китобхонлик маданиятини ошириш лозим;

синфдан ташқари ўтказиладиган маънавий-маърифий тадбирларни тайёрлашда ижодкорлик руҳи етишмайди;

бошланғич таълим ўқитувчиларининг маънавий-маърифий компетентлигини ошириш учун уларнинг ушбу соҳада амалга оширган ҳисоботларини вақти-вақти билан тинглаб бориш лозим;

бошланғич синф ўқитувчиларининг маънавий- маърифий салоҳиятини ошириш учун улар билан педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ҳудудий маркази ўртасидаги узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш асосида дарс ва дарсдан ташқари тарбиявий тадбирларни тизимли асосда йўлга қўйиш бошланғич синф ўқитувчиларининг маънавий-маърифий фаоллигини оширади.

---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШДА МАЪНАВИЙ МЕРОСИМИЗДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Ф.Эшназарова – СамДУ МОМ ўқитувчиси,
И.Игамова-СамМИ ўқитувчиси*

Таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмиш қолдиқларидан тозалаш ва ривожланган демократик давлатлар даражасига кўтариш, жамият равнақи учун юксак маънавий ва

ахлоқий талабларга жавоб берувчи юкори малакали кадрлар тайёрлаш миллий тизимини таркиб топтириш “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” нинг асосий мақсади ҳисобланади. Шахсни ҳар томонлама ривожлантиришга йўналтирилган таълим – тарбия тизимининг илмий-назарий асосларини яратиш ва шахсга йўналтирилган таълим – тарбия тизимини назарий-методологик жиҳатдан қуроллантириш - бугунги кунда педагогика фанининг бош мақсадидир.

Мустақил Ўзбекистонда таълим тизимини ўсиб келаётган ёш авлод таълим-тарбиясининг миллий ғоялари, талаблари асосида ташкил этиш, уни жамият тарққиёти истикболлари ва жаҳон андозаларига жавоб бера оладиган даражада бўлишини таъминлаш бугунги куннинг долзарб масаласидир.

Юқорида баён этилган юксак маъсулиятли аммо, шарафли вазифаларни муваффақиятли уудалаш ҳар бир педагогик ходимдан юксак касбий маҳорат ва билимдонлик талаб этади.

Педагогик маҳорат – ўқитувчи ижодкорлигининг олий намунаси бўлиб, йиллар давомида шаклланади. Унинг юксак маҳоратни эгаллаши ғоят мураккаб жараён бўлиб, педагогика фанининг долзарб вазифаларидан биридир.

Милоддан олдинги V асрларда қадимги Юнонистон (Греция)да болалар гуруҳ-гуруҳ қилиб ўқитила бошланган ва шу зайдла мактаб таркиб топган.

Афинада милоддан олдинги V асрларда фалсафа, санъат, адабиёт, педагогика ривожланди. Ақлий, ахлоқий, эстетик ва жисмоний тарбия узвий бирликда амалга оширилди, бунда асосий этибор болани маънавий ва ахлоқий жиҳатдан камол топган инсон қилиб етиштиришга қаратилди. Бу жараёнда педагогик назария педагогик фалсафанинг қисми сифатида ривожланди.

Педагогик назарияни ривожлантиришда Сукрот, Платон, Демокрит, Аристотел ва бошқа мутафаккирлар таълимоти катта аҳамият касб этди.

Демокритнинг фикрича, болаларга намуна бўлиш, сўз орқали таъсир кўрсатиш, ишонтириш ва далиллар билан тарбия бериш, уларни меҳнат қилишга одатлантириш орқалигина ёзишга, мусиқага, жисмоний машққа ўргатиш мумкин.

Сукрот ҳақиқатни баҳс орқали, суҳбат йўли билан билиш, англаш ғоясини илгари сурди. Сукротнинг фикрича тарбиядан қутилган мақсад инсонни билимли бўлишга эриштириш, уни юксак ахлоқли қилиб камол топтиришдир.

Сукротнинг таълимотига кўра, инсон, энг аввало, умумий ахлоқ мезонларини, инсон учун муқаддас бўлган фазилатларни англаб олиши керак.

Аристотел таълимотига кўра болаларнинг ёш хусусияти ҳисобга олинган ҳолда, жисмоний, ахлоқий ва ақлий тарбия узвий бирликда амалга оширилиши керак.

Аристотел бола тарбияси давлат ва жамоа ихтиёрида бўлиши зарурлигини таъкидлайди. Чунки давлат тарбияда ўз олдига аниқ бир мақсадни қўяди

Конфуций таълимотида инсон фаолиятини чеклаб қўядиган ҳар қандай қонун ва қоидаларни қоралади, табиат ва оламни шарафлади, кишиларни табиийликка чорлаш ғоясини олға сурди. Конфуций ва унинг таълимотини ҳимоя қилганлар инсонпарварликка эришиш учун ҳар бир киши хулқ-одоб меъёрига амал қилган ҳолда, ўз-ўзини тарбиялаш, шу асосда маънавий камолотга эришиши кераклиги ғоясини тарғиб қилдилар.

Шарқ марифатпарварларидан Саъдий Шерозий ўзининг “Тулистон” ва “Бўстон” асарларида одамлар ўртасида инсоний алоқа бўлиши зарурлиги ғоясини илгари суради. У инсониятни бир бутун тана деб билади, ҳар бир одамни эса унинг бир қисми ҳисоблайди.

Саъдийнинг фикрича, ақлий тарбия билимни эгаллаш ва уни ҳаётга тадбиқ этиш билан боғлиқдир, ақлий тарбия уни ҳаётга тадбиқ этиш жараёнида ривожланиб боради ва тажрибада қўлланилади.

Мирзо Абдулқодир Бедил ўзининг “Ирфон” асарида табиёт, ижтимоиёт, адабиёт, фалсафа масалалари хусусида фикрлар баён қилиб, кишиларни, бинобарин ёшларни ҳам илм-марифатга, адолатга даъват қилиб, хунар, санъат, шахс эркинлиги, дўстлик, муҳаббат, вафодорлик, адолатни мадҳ этди. Унинг ўқитиришича, ҳамма инсон ҳурматга лойиқ, эҳтиромга сазовордир, у меҳрубонликка муҳтождир. Айни вақтда, инсон ўз Ватанининг содиқ фарзанди, ўз элининг ғамхўри бўлмоғи керак.

Миллатимизга мансуб алломалардан бири бўлган Абу Наср Фаробийнинг ўқитиришича, ахлоқшуносликнинг асосий вазифаси- инсонларга хулқ-атвор қоидаларини ўргатиш, асосий мақсад- бошқа кишиларга бахт-саодатга эришиш йўллари кўрсатишдир. Фаробийнинг таъкидлашича, инсонда маълум касб-хунарга, санъатга қизиқиш кучли бўлади. Инсон ана шу фазилатга эга бўлиш учун ўзининг туғма ва фикрий фазилатларини ишга солади. Муаллим эса, ана

шу қобилиятни намоён бўлишига кўмаклашиши, ўзи севган касбни эгаллашига ҳар томонлама ёрдам бериши керак.

Буюк аллома Абу Райҳон Беруний ўз дидактик қарашларида табиат, жамият-инсон табиатини билдирувчи омил эканлигини таъкидлаб, кишилар воқеаларга мустақил ва онгли ёндошишлари зарурлигини айтади. Беруний инсоннинг асосий вазифаси меҳнат орқали кўзланган мақсадга эришиш, яхшилик орқали яхшилик кўриш ғоясини олға суради.

У маърифат ва билимдонлик даражаси, кишиларнинг мулоҳаза юритиш ҳолати тўғрисида фикр билдирар экан, ҳар бир нарсани аниқ синчиклаб ўрганиш, билиш, шундан кейин бир хулосага келиш кераклигини, бу ишда тажрибага асосланишни алоҳида ўқтиради.


Буюк аллома Абу Али Ибн Сино ўз асрларида ижтимоий- фалсафий, тиббиёт, дунёвий билимлар билан бирга, маърифий фикрларни ҳам баён этган. У одамда нарса ва ҳодисага онгли муносабатда бўлишни ривожлантириш ғоясини олға сурди. Чунки онглилик инсон бахтининг асоси, заминидир. Ибн Синонинг фикрича, ҳар бир одам ақлий, ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан кучли, етук бўлиши керак. Ҳар бир инсон бу хислатни эгаллаган ҳолда камол топиши мумкин.

Таниқли олим Маҳмуд Қошғарий ўзининг “ Девону луғатит турк” асарида халқларнинг урф- одатлари, анъаналари, кадриятларининг ўзига хос руҳий- маънавий оламини баён этган. У эрк, озодлик, мустақиллик инсонни ҳамма вақт фаол ҳаракат қилишга чорлаганлигини ўқтиради. Унинг фикрича , озодлик, мустақиллик истаган инсон лоқайдлик қилмаган, унинг учун курашган. Маҳмуд Қошғарий инсоннинг руҳий олами, маънавияти илм-фан, маърифат ва маданият билан боғлиқлигини таъкидлайди. У илм аҳлининг панд-насихатини қабул қилиб, уни амалга оширишни яхши хислат деб ҳисоблайди, катта тажрибаси ва панд-насихатлари ҳам инсон маънавиятига таъсир кўрсатувчи омил бўлишини таъкидлайди.

Ўз даврида, ўзининг сайъ-ҳаракати билан таълим сифатини кўтаришга, мадрасаларда ўқиш-ўқитиш тизимини жонлантиришга эришган Муҳаммад Тарағай Улуғбек ўз атрофига даврининг илғор фикрли олимларини тўплаб, улардан мадрасаларда машғулотларни юқори савияда ўтказишни талаб этди. Олим-ўқитувчилар ҳар бир ўқувчининг дарсида бирор янгиликни билиб олишларига этибор бердилар. Улар машғулотларни Улуғбекнинг таълим юқори савияда, қизиқарли, мазмунли, ўзаро узвий бўлиши ҳақидаги ғояларига амал қилган ҳолда ўтказдилар. Улуғбек уларни ўқувчиларни ҳар томонлама камол топтиришга, ҳуқуқларини ҳимоя қилишга, руҳиятларига этибор беришга, онгли ва ҳақиқий саводхон қилиб етиштиришга даъват этди.

Буюк мутафаккир Алишер Навоий ўз ижодий фаолиятида тарбиянинг мақсади – келгуси авлодни халқпарвар, Ватанпарвар, билим соҳиби, инсонпарвар қилиб вояга етказиш ғоясини олға суради. Жамиятнинг бойлиги ҳам, равнақи ҳам меҳнатда эканлигини таъкидлар экан, Алишер Навоий, ёшларни меҳнатни севишга, эъзозлашга даъват қилиб, меҳнатни ахлоқий гўзаллик омили сифатида улуғлайди.

Навоийнинг фикрича, жамиятнинг аъзоси бўлган ҳар бир одам ўз халқига хизмат қилиши, ёрдам бериши, фойда келтириши, халқ манфаатини ўз манфаатидан юқори қўймоғи керак. Навоий инсонга бўлган муҳаббатни Ватанга бўлган муҳаббат деб билади ва халқни, Ватанни севишга, Ватан тўғриси билан яшашга чорлайди.



BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

*G.Xolboyeva - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM o'qituvchisi
X.Achilova-Samarqand shahar 54- umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinfi o'qituvchisi*

Har qanday xalq qadimiy yoki keyinroq tarkib topishidan qat'iy nazar o'z milliy tili, etnografik qiyofasi, hayot tarzi, ruhiy-emotsional xususiyatlari, urf-odatlari, an'analari, rasm-rusumlari, iqtisodiy munosabatlari va xo'jalik yuritish usullari, tabiiy muhitga moslashish jarayonida paydo bo'lgan etno-ijtimoiy xususiyatlari, milliy jozibasi, tafakkurlari uslubi va boshqalarga ega. Ushbu xususiyatlar har bir millatning milliyligini belgilab beradi.

Ota-bobolarimiz asosan o'zlarining o'zbekona axloq-odobi, ma'naviyati va xulq-atvori bilan dunyo hamjamiyatida yuksak obro'ga, nufuzga, qadr-qimmatga ega bo'lib kelgan, hamda shunday bo'lib qolishi darkor. Lekin hozirda ko'pchilik o'quvchi-yoshlarda barchaning ko'z o'ngida tarkib topayotgan va odatga aylangan ovro'pacha soxta xulq-atvor elementlarini, ya'ni, jinsga mos bo'lmagan kiyinishi,

bo'yanishiga ko'nikishi,, jamoat joylarida saqich chaynashi, qizlarning boshyalang yurishi, jamoat joylarida qizlarning o'pishib ko'rishishi, o'g'il bolalarning g'ayri tabiiy ko'rishishlari kabi xulq-atvor elementlari sharqona milliy qadriyatlarga mos kelmasligi barchaga ayon. Hozirda ba'zi yosh zamondoshlarning o'zlarini me'yoridan ortiq "madaniy" etib ko'rsatishga intilish kabi xulq-atvorni o'rganayotganligi bag'oyat achinarlidir. Ularning oddiy sharqona axloq-odob qoidalari va ma'naviy xulq-atvor elementlaridan uzoqligi kishini taajubga soladi. Shu nuqtai nazardan hozir o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyat, odatlarni tarbiyalash bag'oyat dolzarb masalalardandir va ota-onalarga, keng jamoatchilik oldiga bu sohada katta mas'uliyat yuklaydi.

O'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar davomida orttirilgan boy tajribasini o'zlashtirish asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda g'oyat muhim va dolzarb masaladir. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarga doir pedagogik manbalarini hayotga tadbiq etishni, bolalarni milliy-madaniy an'analar, urf-odatlar va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'ydik. Bu tarbiya xalqimizning o'tgan davrlar mobaynida yaratgan va avlodlarga qoldirgan tarbiya sohasidagi sara milliy-madaniy merosini ta'lim muassasalarida jalb etilishi tabiiy holdir.

Milliy qadriyatlar ulug' mutafakkir olimlarning ilmiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Buni ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'oriy, Kaykovus va boshqa buyuk zotlarning asarlarida ko'ramiz. Bu ulug' allomalar o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlar uchun ko'zgu deb biladilar va o'zlaridan keyingi avlodga taqdim etadilar.

Har bir xalqning madaniyati, iqtidori, ulug'vorligi, buyukligi o'sha xalqning betakror an'analari va qadriyatlarida to'liq aks etishi mumkin. Millatning madaniy saviyasi asrlar davomida shakllanadi. Madaniy tafakkur qabul qilgan har bir odat, an'ana avlodlar ko'z oldida asrlar davomida sinovdan o'tadi. Ana shunday sinovlardan o'tgan an'ana, urf-odatlargina haqli ravishda xalqning ma'naviy qadriyatlariga aylanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qadriyat ijtimoiy-tarixiy hodisa va jarayon bo'lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati jamiyat a'zolarining unga bo'lgan munosabati asosida belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ham ma'naviy qadriyat bo'lib, inson shaxsini ma'naviy kamolotga xizmat qiladigan ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Shunga ko'ra, qadriyatlardan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida, xususan oilaviy tarbiyada foydalanishning o'ziga xos xususiyati mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, avvalo milliy tarbiyamiz, milliy xususiyatlarimizni yoritish muhimdir.


Milliy tarbiya o'qituvchidan o'ziga xos pedagogik mahoratni talab qiladi. Buni targ'ibotchilik mahorati deb atash mumkin. O'qituvchi-targ'ibotchi muvaffaqiyatning eng muhim shartlaridan biri – dalillar sistemasida foydalanishdir. Buning uchun dars, ma'ruza haqqoniy, hayotiy, tekshirib ko'rilgan dalillar bilan bezalmog'i kerak. "milliy tarbiya, milliy qadriyat kerak-juda muhim", - har bir o'quvchi, o'qituvchidan yangi, qiziq ma'lumotlarini, dalillarni kutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda, ajdodlar merosidan foydalanish, buyuk allomalar timsolini yoritish, ularda shu allomalarning, shu xalqning avlodi ekanligidan faxrlanish, shu Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va mustahkamlashda, shu buyuk zot, ulug' xalqqa nisbatan munosib farzand bo'lish, ularning davomchisi ekanligini ongida shakllantirmoq kerak. Bu maqsadlarni amalga oshirish, ularni hayotga kengroq joriy etishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarida, ommaviy mashg'ulotlarda, suhbatlarda, tarixiy kechalarda, maktab tadbirlarida, bayramlarda, milliy an'alarga bag'ishlangan tadbirlarda talabalar ongida shu fazilatlarini tarkib topishida alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari maktablarda o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarida jahon madaniyatiga o'lgan hissasini qo'shgan bobokalonlarimiz ilmiy merosini o'rganish, Vatanimiz jahon sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligini, bizning galdagi vazifalarimiz shu merosni va nufuzni saqlab qolish va yanada rivojlantirmog'imiz lozimligini o'quvchilar ongiga singdirishimiz zarur.

O'quvchilarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalashda maktab miqyosida olib boriladigan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda xalqning boy merosidan unumli foydalanish, uning tizimli asosini ishlab chiqish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni samarali amalga oshirishiga sababchi bo'ladi, buni biz o'zimiz olib borgan tajribalar va muqaddam olib borgan ishlarni tahliliy xulosasidan bilish mumkin.

Darhaqiqat, bugungi kunda o'quvchilarning ma'naviy - ma'rifiy ishlarini yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shulardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, - kasb-hunar kollejidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirishni taqoza etmoqda. Chunki maktabda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish O'zbekiston xalqining milliy

taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi ekanligini har bir o‘quvchilar chuqur his qilishi va uni mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilmog‘i lozim.



БОЛА ТАРБИЯСИДА МУЛОҚОТНИНГ ЎРНИ

Н.Я.Хидирова СамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ психология 3-гуруҳ тингловчиси
М.Хатамова-Булунгур туман 66-мактаб ўқитувчиси

Бола камолотида мактабгача таълим муассасасининг аҳамияти жуда муҳим. Бунда, энг аввало, у атрофдагилар билан ўзаро мулоқотга киришади, тенгқурлари сафида зарурий сифатларини ривожлантиради. Бирга овқатланиб, дарс-сабоқ олиш, кўпчилик бўлиб ухлаш, биргаликда ўйнаш қабилар болани яхши томонлама тарбиялайди. Шериклик, дўстлик туйғулари айнан боғчада улғайиб катта бўлаётган болада шаклланади.

Боғчага борган боланинг дунёқараши кенг ҳамда атроф-муҳит билан муносабатга киришиши осонроқ бўлади, миллий ва замонавий ўйинларни ўзлаштиради. Кўпчилик ичида ўз овқат қошиғи (идишлари), шкафи, дафтар-ручкаси, дивани, ўйинчоқлари борлиги келажакда ҳаётда ўз ўрнини топиши учун замин яратади. Бола фикрлашни ўрганади, тенгдошлари билан мулоқот асосида ўз савиясини оширади, келажакда мақсадларга эришишда илдам ҳаракат қилишни бошлайди.

XX аср бошида АҚШ да, кейинчалик эса Европа мамлакатларида етим, ташландиқ болалар учун махсус болалар уйлари пайдо бўлди. Ушбу масканларда болакайлар учун барча шароитлар яратилганди: кийим-кечак, ширин таом, иссиқ хона. Бироқ кўп ўтмай қайғули статистика олимларни ташвишга сола бошлади: болалар уйидаги болакайларнинг аксарияти бир йилга бормай вафот этишди. Соғлом, қувноқ болакай тўсатдан тарбиячига кулмай қўяр, иштаҳаси йўқолиб, кўп хархаша қиларди. Шунда яхшироқ озиклантириб кўришди, лек бу ёрдам бермади. Болакайлардан ҳеч қандай касаллик аломатлари ҳам топилмади. Муаммони Германиядаги болалар уйидаги энага шарофати билан ҳал этишди. Гап шундаки, бу энага болани елкасига боғлаб олиб, кун давомида бир дақиқага ҳам ундан айрилмасди: иш жараёнида ҳам, танаввул чоғида ҳам, ухдаганда ҳам. Кўп ўтмай бемор болакайларга қувноқлик ҳам, иштаҳа ҳам қайтди. Шу тариқа маълум бўлдики, болакай нафақат овқатланиши, ичиши, ухлаши лозим, шу билан бирга унга катта одамлар билан мулоқот ҳам сув билан ҳаводек зарур экан. Шу тарзда психологияда янги тушунча-мулоқотга ташналик вужудга келди. Катта ёшли одамга қараш, унинг табассумидан баҳраманд бўлиш, унинг овозини эшитиш – бемор болакайга зарур бўлган дори шундан иборат эди. Мулоқот дефицити оқибатида келиб чиқувчи хасталикка госпитализм дея ном беришди.

1956 йили франциялик руҳшунос Марсель Жебер Угандада болалар ҳаракатларини ўрганиш чоғида африкалик болакайлар европалик тенқурларидан жисмоний ҳамда руҳий томондан илгарилаб кетганини аниқлади. Маълум бўлишича, африкалик она боласини европалик онадан фарқли тарзда тарбиялайди. Болакай туғилганидан бошлаб она уни елкасига матога ўраб олиб юради. Она қаерда бўлмасин, ким билан суҳбатлашмасин, болакай доим ёнида бўлади. Албатта, у суҳбатга аралашмайди, аммо қизиқиш билан кузатади. Энг асосийси, ҳаёт манбаи бўлмиш она кўкраги доим ёнида. У ухлаётиб ҳам онасининг ёнида, унинг нафасини ҳис этиб ётади. Европалик болакай эса каравотда, шифтга термулганча ётади. Озиқланиш эса қатъий режим асосида. Яқин киши билан мулоқот, янги таассуротлар, хавфсизлик туйғуси – буларнинг барчасини африкалик болакай керагидан ортиқ тарзда олади. Европалик болакай эса булардан маҳрум. Шу боис ривожланишда у африкалик тенқуридан ортда қолиб кетади. Ота-онанинг фарзандга меҳр-эътибор кўрсатиши, содда оламига ошно бўлиши унга тўғри тарбия бериш, эғнини бутлаш, еб-ичириш сингари муҳим ва зарурий вазифалардан бири. Бироқ тирикчилик ташвишлари, тезкор замона шиддатидан гоҳида ҳатто ўзидан, соғлигидан ҳам эътибор, вақтни қизғанадиган бўлиб қолган йигирма биринчи аср одами ҳар доим ҳам зарур вақтда фарзандига эътиборли бўлмаслиги – инкор қилиб бўлмайдиган аччиқ ҳақиқат.


Минг афсуски, бугунги тезкор замонда ота-оналарнинг ўз фарзандларига тарбия тугул, эътибор бериши ҳам баъзан ноёб ҳодисага айланиб қолаётгандек туюлади. Атрофдаги одамларни кузатар эканмиз, бунга қайта-қайта амин бўламиз. Айрим ота-оналар учун боланинг қорни тўқ, усти бут бўлса бас, қолгани билан у қадар қизиқишмайди. Болани ҳамма нарса билан таъминлаб қўйишади-ю, яна ўз ишлари, ташвишлари билан банд бўлиб кетишади. Ваҳоланки, одамзод учун

фақат моддий эҳтиёж биринчи ўринда турмайди. Инсон рухий, маънавий эҳтиёжларини ҳам қондиришни истайди, яқинлари ва айниқса ота-онасидан меҳр-эътибор кутади. Бу эҳтиёж гўдаклик чоғидан то умрининг охирига қадар уни тарқ этмайди. Ўз яқинларидан меҳр-эътибор кўрмаган бола кўнглида бир кемтик билан яшайди, ўзига ишончи бўлмайди. Бундай болаларнинг тенгқурлари билан чиқишиб кетиши, дўст орттириши жамиятда ўз ўрнини топиши қийин кечади. Энг ёмони, у ўз қобиғига ўралиб олади. “Мени ҳеч ким яхши кўрмайди. Ҳеч ким менинг ишларимга қизиқмайди” деган бузғунчи ва тушқун ўй таъкибида кун кечиради. Ростда, ўз ота-онасидан эътибор тополмаган бола атрофидагиларга қандай қилиб кўнглини оча оларди. Аввалига бунга эътибор бермаган ота-оналар бола улғайиб, хатти-ҳаракатлари кўзга ташлана бошлагач, бундан ташвишга тушиб қолишади ва “Боламнинг кўнглига йўл топиб бўлмайди. Унга ҳеч нима ёқмайди” деб жиғибийрон бўлишади. Ваҳоланки, уларнинг аксарияти фарзандининг нимани ёқтириши, кўнглидаги кечинмалари билан қизиқиб ҳам кўришмаган. Улар болалари қайси овқатни хуш кўришини билишади, аммо қандай китобларни кўпроқ ёқтириши, қайси кўшиқни кўпроқ тинглашини айта олишмайди.

Ҳозирги тезкор замонда айрим болаларнинг ўз ота-онасига бемехр, безътибор бўлиб бораётганининг асл сабаби ҳам аслида мана шундай эътиборсизлик замирида яширин эмасмикин? Ота-она боласига етарлича эътибор қилолмагач, фарзанд улардан узоклашиб бораверади, қалбида аввал мавжуд бўлган илиқлик аста-секин сўнади. Шунинг учун ота-она меҳрини ҳеч нима, дуённинг ҳеч бир неъматини боса олмайди, дейишади. Бола моддий неъматлар, энг замонавий айфонлар билан кўмиб ташланган, ҳашаматли қасрда яшаб, қимматбаҳо машиналарда юрган тақдирда ҳам ота-она томонидан меҳр ва эътибор бўлмаса, ўзини бахтли, руҳан бутун ҳис қилмайди.

Педагоглар ва руҳшуносларнинг айтишича, ота-онасидан ўзи истагандек эътибор кўрмаган боланинг хатти-ҳаракатларида энг аввало, атрофдаги ҳамма нарсага бефарқлик, сушт муносабат кузатилади. Болаликда бу болалар буюмларга унчалик қизиқиш билдиришмайди. Янги ўйинчоқларни кўрганда, кўпинча кўркув ва тушунарсиз таассуротлардан беркиниб олиш истагини ҳис қилишади. Улар муносабатлардаги фарқларга бефарқ, ўзига хос ҳиссий тарангликни намоеън қилишади. Бу уларнинг ривожланишига ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Руҳшунослар шуни ҳам афсус билан таъкидлашадикки, ота-онаси эътиборсизлиги туфайли боланинг феълида тажовузкорлик белгилари пайдо бўлиши мумкин. Айниқса, болага онасининг эътибори, меҳр-муҳаббати етишмаганда, у турли усулар билан бунинг ўрнини тўлдиришга уринади. Бундай ота-оналар боланинг ўзини яхши тутишини шунчаки қабул қилишса, тажовузқорона ҳаракатларига тез ва ҳиссиётлар ила муносабат билдиришади. Гарчи, бу ғазаб, ранж ҳислари бўлса-да, барибир, болага етишмаётган ҳиссиётлар-да. Бола жазоланса ҳам, хафа бўлса ҳам ич-ичидан ота-онасининг эътиборини тортганидан мамнунлик сезади. Шу тариқа ота-оналар ўзлари англамаган ҳолда болаларнинг феълида салбий жиҳатларни шакллантириб қўйишади.



ЎСМИР БОЛАЛАР ТАРБИЯСИ

*Г.Б.Шерттойлақова СамДУ МОМ психология 3-гуруҳ тингловчиси
Ф.Ачилова – Булунғур туман 21-мактаб ЎТИБДЎ*

Балоғат ёши нима дегани? Бу вақтда организм ўсади, гормонлар жўш уради, ҳис-ҳаяжонлар юқори чўққида, баджаҳллик ва ғазабни ичга ютолмаслик ҳам шу даврга хос. Ота-оналар гоҳо шу севиб-ардоқлаб ўстирган ўз фарзандлари эканлигига ишаноламай қолишади. Болаларга уларни умуман хурмат қилмайдигандек қуринади, аммо хулоса чикаришга шошилманг.

Ота-оналарнинг вазифаси сабрли булиш ва ҳамма вақт ёрдамга тайёр туриш куйида усмирлар билан қандай муносабатда булишга доирайрим тавсияларни бериб утамитиз.

1.ЭРКИНЛИК БЕРИНГ

Ушбу ёшларга йигит-кизлар купинча ота-оналарига узларининг тамоман мустақил эканликлари, уларнинг ёрдамларига, йул-йуриқларига зарурат йуклигини курсатмоқчи булишади. Нима ҳам дейсиз, оналар ва оталар катталарга иш тутишларигатугри келади, фарзандингизнинг хатти-ҳаракатларини куздан кочирмаган ҳолда уларга бироз эркинлик беришга мажбурсиз. Шунингдек, унинг уз мухитидаяшаш ҳукукини ҳам хурмат қилинг (хонасига тақиллатмасдан кирманг, унинг буюмларига тегманг болангизнинг худудида уз тартибларингизни урнатишга

харакат килманг). Рад жавобини эшитишни одатий тарзда қабул килинг. (биз билан театрга борасанми? Йук? Майли биз билан бирга овкатланасанми? Оч эмасмисан? Ундай булса қачон егинг келса айтасан)

2. ГАПЛАШИШГА ХАР ДОИМ ТАЙЁР БУЛИНГ

Хар доим ёнингизда булишни талаб килманг. Бу уни сиздан узоклаштиради. Ота-оналар очик мулоқотга доим тайёр туришлари керак. Болалар очик суҳбатларни ёктиришмайди, индамас булиб қолишади. Бундан хафа булманг. (нима учун менга ҳечнима айтмайсан?) агар фарзандингиз ниманидир айтса, уни эътибор билан тингланг ва куллаб-қувватланг, аклли маслаҳат бериш, қойиш, қурқитиш жуда осон. Лекин бундай ёндашувлар билан фарзандингизнинг сизга булганишончини йукотасиз. Шунинг учун уни худди катталарни тинглагандек тинглапг.

3. ИШОНИНГ

Умуман олганда, болалар ота-оналаридан ҳеч нарсани яширмаслик-лари лозим, қачонки, ота-она болани назорат қилишиб. Қуп нарсаларни улар учун ман қилишса болалар улардан ниманидир яшира бошлашади. Агар болангизга ишонсангиз, у сиздан ҳеч нарсани яширмайди. Болаларга хар доим ишониш қийинроқ, чунки у катталардек иш тута олмаслиги, алданиб қолиши, бирор ноҳушликка йулиқиши мумкин. Шунинг учун уни бутунлай уз холига ташлаб қуймасдан, сенга ишонаман, фақат воқеалардан мени хабардор қилиб тур қабилда иш тутинг.

4. МАҚТАНГ РУҲЛАНТИРИНГ

-Имтиҳонга боришга қурқаясанми? Нимадан қурқасан? Телевизор қаршида утиргандан қура имтиҳонга тайёрланиш керак эди!

Нима деб уйлайсиз, бу гапларингиз билан болангизга ёрдамлашдингизми? Узига булган ишончни оширдингизми? Сизнинг вазифангиз ҳақлигингизни ҳаммага қурсатиш эмас, болага ёрдам беришдир. Болани қанча қуп мактаб қуйсангиз (хатто энг оддий ютуқлари учун ҳам) унинг узига булган ишончи ортиб боради. Сизга уз ютуқлари ҳақида айтиб бериш ёқимли булади ва бундай вазият ҳаётида тез-тез такрорланиб туришига интилади. Фарзандингиз қатта ёшли булса ҳам ота-она томонидан руҳлантириш ва мактаб қуйиш у учун жуда муҳим.

5. ДЎСТЛАРИ БИЛАН ДЎСТЛАШИНГ

Агар усемир болангизнинг дустларини қойсангиз–болангизни узингиздан узоклаштирадиз. Ундай пайтларда болангиз сизни эмас, дустларини танлайди, улар билан сиздан бекитикча учрашади. Кейинсиз болангиз қаерда эканлигини билолмай ҳуноб буласиз. Яхшиси, фарзандингизнинг дустларини уйингизга таклиф қилинг, улар билан суҳбатлашинг, қизиқишларини суранг, улардан қуп нарсаларни билиб оласиз. Фақат улар билан дустона муносабатда булинг, насихат қилманг, узингизнинг катталигингизни таъқидлаб, ақллигингизни қурсатманг.

Агар болангизнинг дустларидан бири сизга ёқмаса, углингизга буни” сенинг дустинг аҳмоқва қиройли эмас демасдан, балки” Менга унинг...нимаси ёқмади деган маънода айтинг.

Агар болангизнинг ёмон дустлар орасига тушиб қолганини сезсангиз, ҳовотир олаётганингиз ҳақиқий дуст қандай булиши ҳақида гапириб, унинг дустлари билан такқослаб гапиринг ва узингиз билган бошқа дустларининг даврасида булиши маъқулроқ эканлигини таклиф қилинг.

6. ХАТОЛАРИНИ ҚЎРСАТИНГ

Қўпинча ота-оналар ўз қаттиқ қўлликликлари ва жазолаб туришлари сабаб фарзандлари ўзларини ёқтирмай қолишлари, хафа бўлишларидан қўчишади. Бундай муносабат болаларнинг “қулоқсиз” бўлишлари, назоратнинг йўқолишига олиб келади.

Лекин улар йўл қўйган хато жазоланишга лойиқ бўлса, буни ортга суриш керакмас. Бола ўз хатсини билсин, иккинчи бор яна шундай йўл тутмаслиги учун. Хатолар ва уларнинг тузатилиши болага яшаш сабоғини ўргатади. Тарбия усуллари, жазоланиш ҳар бир болага турлича таъсир қилади. Қимдир боласини жазолаш учун уни қўчага чиқармай қўяди, қимдир уни айбини оғир меҳнат билан ювишини истайди, қимдир фарзанди билан дилдар суҳбатлашади ва муносабатларни ойдинлаштириб олади. Фақат ота-онагина ўз фарзандини яхшироқ билади ва унга нима кераклигини тўғри танлайди. Лекин тарбия усули ёки жазоланиш боланинг ёдида сақланиб қолиши, бу ҳолат иккинчи бор такрорланмаслиги керак. Балки бошида болангиз бунга рози бўлмас, Сиз билан фикри бир жойдан чиқмас, лекин охир-оқибатда ота-онаси ўзига ҳеч қачон ёмонликни соғинмаслигини у тушунади.

7. ПУЛНИ ҚАДРЛАШНИ ЎРГАТИНГ

Болангиз билан бирга банкка бринг, қандай пул ишлаб топишингизни сўзлаб беринг, қанча пулга нима сотиб олиш мумкинлигини ва энг асосийси, нимани биринчи сотиб олишни ўргатинг. Дўқонга қирганда маҳсулотларнинг нархини қузатиини сўранг, биргаликда сотиб олинадиган


нарсаларнинг маъкул келадиганини танланг. Балки белгиланган пул ва олиниси керак бўлган махсулотларнинг рўйхати бўйича дўконга бирга боришга одатланарсиз. Болангиз оилавий бюджетни ўргансин. Оилавий бюджетни қандай қилиб тузишингиз ва харажатларни қандай амалга оширишингизни болангизга ўргатиб боринг. Озгина бўлса-да, болангизнинг пул жамғариб бориши унинг пулнинг кадрига етиш ва керакли харидни амалга оширишга ўргатади. Таътил пайтида болангизга кундалик харажатлар учун бериладиган пулни беришни тўхтатманг ва уни жамғариб боришга ўргатинг. Лекин болангизнинг берилётган пулдан ортиқча талаб қилишига йўл қўйманг.

8.ТАНЛОВДА КЎМАКЛАШИНГ

Келажакда нима билан шуғулланишни танлаш ўсмирлар учун жуда қийин ҳолат. Ана шундай пайтда ота-онанинг кўмаги керак бўлади. Имкон даражасида бор нарсалардан фойдаланишни ўргатинг, тўғарақларга ёздиринг, мастер-класс машғулотларига олиб боринг, тарли хил касбдагилар билан таништиринг, балки касб танлаш ҳақидаги суҳбатга ҳам олиб бориш лозим бўлар. Булар ҳақида шунчаки айтиш ва дўстларингизнинг ишхонасига олиб бориш мумкин. Боладан нимани исташини аниқ билишини талаб қилманг. Агар унда танлов бўлгандагина тўғри қарор қабул қила олади.

БУ МУҲИМ!

Бола билан детектив ўйнаманг – ҳеч қачон унинг ижтимоий тармоқлардаги akkaунтларини бузиб кирманг, суратларини, гап-сўзларини текшириш мақсадида у билан виртуаль дўстлашишга ҳам уринманг. Агар буни сезиб қолса у сиздан ҳар доим ҳамма нарсани яширадиган бўлиб қолади. Фарзандингизнинг тарбиясига эътиборли бўлсангиз, унинг феъл-атвори, юриш-туришида ҳамма нарса Сизга маълум бўлса, болангизнинг нималар билан бандлигини унинг кўзларидан ҳам билиб олаверасиз. Агар ундан хавотирлансангиз, буни фарзандингизга очиқ айтинг: Сен уйга кеч қайтсанг хавотирламаман, 10 сония вақтингни менга атаб, соғ ва омон эсанлигингни айтиб, қўнғироқ қилиб қўйгин.



ОТА –ОНА МА’НАВИЯТИ БОЛА ТАРБИЯСИНИНГ АСОСИ

L.Nomozova-Pastdarg'om pedagogika va sport kolleji o'qituvchisi
Sh.Shodiyeva-Samarqand shahar 25-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan majlisdagi tabrik so'zida (1997 yil, 7 dekabr) "... Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf, odatlarni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir". Va yana "Istiqlol va ma'naviyat" nomli asarida "Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish ota-onasiga, vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir",- deb bildirgan fikrlari bag'oyat qimmatlidir.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi qator vazifalarini sanab ko'rsatgan: 1. Bolaga yaxshi ot qo'ymoq; 2. Oqil va mehribon enagaga topshirish; 3. To'y-tomoshga qilib, sunnat to'y o'tkazish; 4. O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish; 5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, spxhiylikni o'rgatish.

O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi 73-moddasi "Ota-onalarning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarida "Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart"¹,deb belgilab qo'yilgan. Ana shu g'oyalar oila tarbiyasi mazmunini va ota-onaning vazifalarini belgilashga asos, negiz bo'ladi.

Albatta bunday barkamol farzandni tarbiyalash oilada ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Oila" bo'limi 64-moddasida "Ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar"²-deb ta'kidlangan. Mazkur modda ota-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-47bet

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 1992yil, 21 bet.

onalardan o'zlariga yuklatilgan vazifalarini nazariy-ilmiy jihatdan bilishni va hayotda tadbiiq qilishni talab etmoqda. Buning uchun avvalo ota-onalar oila tarbiyasining maqsadi, vazifasi, mohiyati, mazmuni, shakli, metodlari to'g'risila atroflicha keng ma'lumotga ega bo'lishi shart.

Oilada ota-onalar bolalar tarbiyasini o'zlarining uzoq kelajagini o'ylab tashkil etishlari darkor. Shu o'rinda "Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang, daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang-odam tarbiyala",-deb bitilgan qadimgi sharq maqolalaridan birini eslash kifoya.

Haqiqatan ham oilada bolalarni oilaga, Ona-Vatanga sodiiq va sadoqatli etib tarbiyalash uchun birinchi navbatda ota-onalarning umumiiy hamda pedagogik madaniyatlarini oshirish-hozirgi oila tarbiyasining dolzarb muammosidir. Biz tomonimizdan ushbu maqolada ilmiy pedagogik jihatdan asoslanayotgan va tavsiiya etilayotgan xulosalar oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi ma'lumotlarining hamda pedagogik madaniyatlarining ortishiga va mustahkamlanishiga bevosita amaliiy yordam beradi degan fikrdamiz. Bizningcha, ota-onalar oila tarbiyasining quyidagi yo'nalishdagi eng asosiiy vazifalarini bilishlari zarur va bolalar tarbiyasida tadbiiq etishlari darkor:

- farzardlarga oilani boshqarish to'g'risida ma'lumot, ko'nikma, odatlarni va ularning ma'niviiy-axloqiiy saviiyasini tarkib toptirmog'i;

- farzandlarni dunyoga keltirishi, ularga munosib ism qo'yishlari, voyaga yetgunlariga qadar boqish hamda oilaga, vatanga foydali barkamol inson etib tarbiyalashlari, tayyorlashlari;

- farzandlar orasida spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalarni iste'mol qilmaslik haqida targ'ibot ishlarni olib borishi va shu sohadagi faoliyatlarini uzluksiz nazorat qilishi, man etishi;

- farzandlarda milliiy istiqlol g'oyasi, milliiy ong, milliiy g'urur, millatidan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashi;

- farzand-oilada ota-onaning, oila va ajdodlar hayotini davom ettiruvchisiligini tushuntirishi, anglatishi va unga amaliiy milliiy qadriyatligini tushuntirishi, anglatishi, ardoqlashi va odatlantirishi;


- Ajdodlarni ardoqlash va ularga munosib farzand bo'lishga, marhumlarning, shahid bo'lganlarning ruhini shod etish va xotirlashga odatlantirishi;

- farzandlarning qonuniiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi hamda maktabgacha, umumiiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim olish uchun javobgar;

- fuqarolarni, ayniqsa, keksalarni, xotin-qizlarni, nogironlarni, bolalarni, ota-onalarni, opa-singilni, aka-ukalarni, qavmi qarindoshlarni qadrlash, izzatlash-hurmatlash va ular bilan muomala qilishga, yordam ko'rsatishga odatlantirishi;

- farzandlarning iste'dod-qabiliyatini hisobga olib kasb tanlashga yo'llashi, tashabbusini boshqarishi, hamda yangicha fikrlashga, ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka o'rgatib, tayyorlab borishi;

Shunday qilib ota-onalarga oila tarbiyasining vazifalari haqida ma'lumot berish, pedagogik madaniyatni oshirish oilada farzandlarni oilaparvar, millatparvar, vatanparvar, ijtimoiy faol, ma'naviiy boy barkamol insonni shakllantirishning, oilani mustahkamlashning hamda jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishning zarur sharti bo'lmog'i darkor.



ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ИЖТИМОИЙ АСОСЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ОТА-ОНАЛАРНИНГ ЎРНИ

*Д.Мамадиёрова-СамМИ ўқитувчиси
Уроқова М- Самарқанд шаҳар 107-МТМ педагоги*

Фарзандларнинг баркамол бўлиб тарбияланиши ота-оналарнинг педагогик маданияти билан амалга оширилиши барчага маълум. Аксинча ота-оналарнинг фарзанд тарбияси ҳақидаги билимсизлиги, маълумоти камлиги, етарли эмаслиги оилага, жамиятга, асосан фарзандларга бахтсизлик, қийинчиликлар ва заҳмат келтириши ҳаммага аён. Оила тарбиясида ота-оналарнинг фарзанд тарбияси борасидаги ҳаракати, юқоридаги муаммоларни, нуқсонни бартараф этишда ҳал қилувчи амалий аҳамият касб этади.

Шунингдек, ота-оналарнинг фарзанд тарбиясидаги ҳаракатсизлиги, суст ҳаракати, бефарқлиги нафақат фарзандларнинг умумий камолотигагина эмас, балки ота-оналарнинг келгусидаги кексалик ҳаётига ҳам бевосита ёмон таъсир кўрсатиши аниқ. Бу ҳақда машҳур ўзбек педагоги Абдулла Авлоний «Сихатимиз, саодатимиз, сарватимиз, қаноатимиз, сабримиз,

фазилатларимиз ал-ҳосил, бутун ҳаётимиз ҳаракатимизга боғлиқдир»[2.20] –деб билдирган фикри қимматлидир. Бизнингча бу фикр бевосита ота-оналарнинг оилада фарзандларни тарбиялашдаги ҳаракати, ғайрати, фаоллиги билан ҳал этилади десак тўғри бўлади. Бизнинг кўп йиллар давомида ота-оналар билан олиб борган суҳбатларимиз, кузатишларимиз ва ҳозирги оилалар турмуш тарзининг ривожланиш тажрибалари мазкур педагогик ғоянинг ҳаётийлигини исботлаб турибди.

Оилада ота-оналар фарзандлар тарбиясида ҳаракатчан, ғайратли ва фаол бўлсалар, шу оилада фарзандлар тарбияланганлиги юқори бўлишини таъминламоқда ёки аксинча.

Шунинг учун мазкур мавзунинг ижтимоий амалий аҳамиятини ҳисобга олиб Ўзбекистон республикаси кадрлар тайёрлаш Миллий дастурида: «Умумий ҳамда педагогик маданиятни ошириш мақсадида, мамлакат аҳолиси орасидаги маърифий ишлар такомиллаштирилиб борилади»[1.55] – тарзда истиқболли мақсади белгиланган. Шунинг учун ҳам ҳозир оилада, ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясидаги ҳаракатини, фаоллигини ошириш ва таъминлаш долзарб педагогик муаммо ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ёндашганда ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясидаги ҳаракати, фаоллиги педагогик маданиятни таркиб топтиришнинг зарурий шarti деб ҳисоблаш мумкин.

Бизнингча, оилада ота-оналарнинг фарзандлар тарбияси борасидаги ҳаракати, фаоллиги куйидаги педагогик маданият таркибларидан ташкил топади ва оила тарбиясининг самарадорлигини таъминлайди. Булар:

- ✓ оила ҳаётининг келажагини, ақлий жиҳатдан тушуниб, англаб олишларига;
- ✓ оиланинг келажагини оила шароитида тадбиқ этиш билан боғлиқ кўникма, одатларни мустақил бажаришларига;
- ✓ оила истиқболига, мақсадига эришишдаги шарт-шароитни яратишга ва тарбия воситаларидан (маблағ, асбоблар, ашёлар) ўз ватида фойдалана олишига;
- ✓ оила истиқболлини фарзандлари онгига таъсир кўрсатиб ишонтиришларига ва уларда фаолликни тарбиялашларига;
- ✓ кўйилган истиқболни амалга оширишга фарзандларни йўналтира олишга, ўргатишга ва уларни оила ҳаётида қўллашга тайёрлашга;
- ✓ истиқболни амалга оширишда фарзандларнинг ютуқ ва камчиликларини таҳлил қилиб рағбатлантириш ва жазо чораларини вақтида кўришига;
- ✓ фарзандларнинг меҳнат, дам олиш ва оила ҳаётини мақсадга мувофиқ ташкил қилишга доир керакли кўникма, одатларни таркиб топтиришга ҳамда уларда мустақилликни шакллантириб боришга;
- ✓ оиланинг моддий манфаатларини жамият манфаати билан уйғун боғлаб олиб бориш кўникмаларини фарзандларида тарбиялаб бора олишга ва ҳоказо.

Юқоридаги таъкидланган педагогик маданиятнинг таркиблари, қирралари ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясидаги раҳбарлик фаолиятини ташкил этади. Буни оила ҳаётида тадбиқ этиш учун ота-оналар фарзандлар тарбияси тўғрисида назарий, илмий билимларга эга бўлиши ва нуқсонларсиз узлуксиз қўллаш олиши шарт.

Фарзандлар тарбиясида ҳаракатчанлик билан иш тутган оилада вояга етган фарзандлар ақлий, ахлоқий, меҳнат, жисмоний, иқтисодий ва маънавий томондан баркамол бўлиб шаклланади. Тўғри ўз вақтида тарбия топган фарзандлар бошқа оилаларда тарбияланган тенгдошларидан ақлан илгарилаб кетади, фикрлашга ўрганади ва уларда мустақиллик шаклланади. Энг муҳими ҳаракатчан ота-оналарнинг намунавий оилавий турмуш тарзи, ҳаёти давом этади. Оқибатда оилада тарбияланган фарзандлар оила тарбиясининг истиқболли келажак ривожланишини ўз вақтида ота-оналарининг педагогик раҳбарлигида англаб олишга эришади. Зарурий оилада фарзандларнинг баркамол тарбияланиши учун қулай соғлом тарбиявий муҳитга замин яратади. Бу оила тарбиясида ҳал қилувчи педагогик омиллигини, барча ота-оналар билишлари зарур. Аммо ҳаётда баъзи ота-оналар бу ҳақиқатни тушуниб етмайди, натижада оилалар моддий жиҳатдан турлича мавқега эга бўлишади. Агар ана шу ота-оналар ҳам буни англаб етсалар ўша оилалар ҳам иқтисодий томондан барқарор ва мустаҳкам бўлган бўлур эди. Шунинг учун фарзандлар тарбиясида ота-оналарнинг ҳаракати, фаоллиги ҳал қилувчи роль ўйнайди. Мабодо ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясида ҳаракатчанлиги таъминланмаса, шу оилада тарбияланган фарзандларнинг тақдирлари қийин кечади. Фарзандларнинг мустақил оила куриши кечикади, кўплаб моддий қийинчиликларга дуч келади, оила ҳаётида муаммолар кўпаяверади. Бу эса мазкур оила аъзоларининг турмуш тарзига қолверса, соғлиғига ва умрига ёмон таъсир кўрсатади ва ҳоказо.

Демак, фарзандларнинг оилада табиий имкониятларини ишга солишда ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясидаги ҳаракати, фаоллигини шакллантириш педагогик маданиятни таркиб топтиришнинг таркиби бўлмоғи зарур. Шунингдек, оилада ота-оналар педагогик маданиятини ошириш, таъминлаш оилага содиқ ва миллатга муносиб баркамол фарзандлар тайёрлашнинг зарур

шарти бўлмоғи даркор. Мавзунинг долзарблигини ҳисобга олиб оилаларда, маҳалла кўмиталари ва меҳнат жамоаларида муҳокама қилиб, оила ва ижтимоий ҳаётда жорий этилса, мақсадга мувофиқ бўларди.

- - - - -

O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TEMURIYLAR DAVRI TARBIYASIDAN FOYDALANISH

A.Abdumannotov - SamDU MOM dotsenti
A.Abdumannotova - Sam DU talabasi

“Bugungi yoshlarimiz qalbida, ongida, tafakkurida milliy g'ururni, vatan tuyg'usini, insonga uning oilasini, xonadoni va maxallasini kindik qoni to'kilgan aziz joy – ona Vatani – jonajon O'zbekistonni qalbdan sevishni anglatish kerak. Bu yosh avlod ongiga bu sifatlarga xos fazilatlarini singdirish, psixologik va pedagogik jihatdan murakkab va ko'p qirrali va uzoq muddat ta'lab qiluvchi jarayon hisoblanadi”,¹- deb ta'kidlaydi akademik A.Asqarov.

O'sib kelayotgan avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo'lgan, komil insonlar qilib tarbiyalashda, shubhasiz, tarixiy xotira, madaniyat, ma'rifat, buyuk allomalarimiz va ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimizning hayoti va ma'naviy me'rosini o'rganish borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarida ta'kidlaganidek: “Ma'naviyatni tiklash tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurish uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman irodali insondir”.²

Darhaqiqat, tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Ma'lumki, milliy tariximizda Amir Temur va temuriylar davri muhim rol o'ynaydi. Markazlashgan davlatning tashkil topishi, ilm fan, san'at madaniyat, bunyodkorlik ishlarining amalga oshishiga sabab bo'ldi. Qo'lga kiritilgan yutuqlarda temuriylar davri tarbiyasining o'rni bor, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi-milliy tariximizning ajralmas qismi mustaqillik yillarida milliy tariximizni, jumladan, temuriylar davri tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Taniqli olim Alibek Rustamov bu haqda to'xtalib: “Temur va temuriylarga xos bir muhim xususiyat ularning har tamonlama a'lo darajada ta'lim olganligidir. Temur davridagi ilm-u amal va ta'lim-tarbiya tabiiy va ijtimoiy qonunlarga uyg'un falsafiy aqidalarga asoslangan edi”,³- deb ta'kidlagan.

Sohibqiron bobomiz “Tuzuklar”ida maorif va yoshlar tarbiyasi to'g'risida ko'pgina g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan, fuqarolarning axloqi, yoshlar tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu ma'naviy merosdan bugungi kunda o'quvchi-yoshlar tarbiyasida foydalanish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda.

Sharqda azaldan bolalarni tarbiyalash an'anaviy ildizlarga ega. Masalan, Amir Temur saroyida bolalar - shahzodalar 4 yoshdan boshlab o'qitilgan. Dastlab ularga xat savod o'rgatilgan, 4-8 yoshida ularga maxsus qissaxonlar biriktirilib qo'yilgan. Qissaxonlar Abu Muslim, Hazrat Ali qissalari, payg'ambarimiz pandnomalari, iskandar Zulqarnayn kabi xalq qissalari va dostonlarini hikoya qilganlar. Manbalarda ta'kidlanishicha, tarbiyalanuvchi 4 yashar, qissaxon esa 10-12 yashar bo'lgan. Ular bo'sh paytlarda birga o'ynab yurishgan. Qissaxonlik bolani faqat qahramonlik, sadoqat, poklik ruhida tarbiyalab qolmasdan balki bola xotirasini mustahkamlash uchun ham xizmat qilgan. Tarixchi olim B. Ahmedovning fikricha, Mirzo Ulug'bek 4 yasharligida Hamza degan bola unga qissaxonlik qilgan. Bola sakkiz yoshga kirganda uni madrasaga berishgan. Bolalarga madrasada diniy va dunyoviy bilimlar berishgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bek keyinchalik musiqaga bag'ishlab 5 ta risola yozgan. Ularning ba'zilari harbiy marshlar bo'lib, nog'ara va karnay vositasida ijro etilgan.

Temuriylar davrida shahzodalarga ov qilish maxsus o'rgatilgan. Ov qo'shining jang qilish yo'llarini o'rgatuvchi jarayon bo'lib, shahzodalarni chiniqtirgan. Temuriy shahzodalarga harb ilmini

¹ Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi - T. O'zbekiston HMIU, 2015, 550 b.

² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q - T.: Sharq, 1998, 8-9 b.

³ Rustamov A. Amir Temur muvaffaqiyatlarining ma'naviy omillari. “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni” mavzusida o'tkazilgan halqaro konferensiya tezislari 1996, 23-26- oktyabr- T.; O'zbekiston 1996, 18-b.


o'rgatish uchun maxsus ustozlar yollangan. Ular dastlab ot minish san'atini o'rgangan, so'ngra nayza otish mahoratini egallashgan. Ot ustida chovgon o'ynaganlar, qilichbozlikka alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, poyga qo'yish, ko'pkari, uloq chopish kabi o'yinlar ham harbiy ilmi doirasiga kirgan. Bu jarayonlar shahzodalarga 7-8 yoshdan 12 yoshgacha o'rgatilgan. 12 yoshdan boshlab har bir shaxzoda "Suluk ul- mulk" – "Podshohlar uchun qo'llanma" bilan tanishtirilgan. Amaliy saroy odobi o'rgatilgan.

Temuriylar davrida malikalar biror bir musiqa asbobini chalishni bilishi, she'r ilmi va nafis san'atning bazi turlarini egallashlari shart edi. Zebunisobegim, Gulbadanbegim, Nodirabegim kabi malikalar shu sohada muayyan yutuqlarga erishgan.

Temuriy shahzodalar va malikalarning odob-axloqi, tadbirkorligi, ziyrakligi, topqirligi, oqila va donishmandligi, ilm- ma'rifat homiysi bo'lishi, irodaliligi, iffatliligi kabi sifatlar temuriylar davrining ma'naviy yuksakligidan dololat beradi.

Milliy tarbiyamizning rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'lgan Amir Temur va temuriylar davrida shakllangan ta'lim- tarbiya jarayonlarining ijobiy jihatlaridan bugungi ta'lim tarbiya jarayonidan tizimli ravishda foydalanishimiz lozim.

Aniqrog'i temuriy shahzoda va malikalarga xos bo'lgan sabr-chidamlilik, qat'iylik, or-nomus, diyonat, adolatparvarlik, mardlik va jasurlik, kasb-hunar egasi bo'lish, mehnatsevarlik, chaqqonlik va epchillik, to'g'ri qarorlar qabul qila olish, vatanparvarlik kabi fazilatlarini dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlar qalbiga singdirib, ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA'NAVIV-AXLOQIV SIFATLARNI SHAKLLANTIRIV OMILLARI

A.Abdumannotov - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM dotsenti

B.Xo'jayorova - SamDU tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmaskuch" asarida "Ma'naviyat– insonni ruhan poklaydigan, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon, e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"¹, - deb ta'kidlagan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, aqlan teran, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilik va o'zgarishlarni o'z vaqtida anglay oladigan, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki kelajagi buyuk davlatni yuqorida ko'rsatilgan sifatlarga ega bo'lgan shaxslargina barpo eta oladi.

Yosh avlodda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dastlab oilada keyinchalik uzviylik va uzluksizlik asosida ta'limning keying bosqichlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi. Jumladan, maktabgacha ta'lim bolalarda ma'naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirishning dastlabki bo'g'inidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy tizim yaratishga oid 2016- yil 29- dekabrda "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishning chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida, 2017- yil 30- sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, 2017-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda viloyatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ham maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning fikricha, inson umrida oladigan axborot va ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Ushbu dalilning o'zi bolalarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'cha tarbiyasini olmagan bola o'rtasida sezilarli darajada farq bo'lishi ko'pchilikka ayon. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tizimi qaytadan ko'rib chiqilib ushbu yo'nalishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'limga qamrab olingan 3-7 yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

¹ Karimov I.A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch.- T.; "Ma'naviyat", 2008,19-20-b.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun "... Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqimizning boy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish"¹, - zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, "Bolajon", "Bilimdon" tayanch dasturlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni mashg'ulotlar jarayonida o'yin faoliyati orqali sayohatlar, suhbatlar, kitob o'qishga qiziqtirish orqali, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham shakllantirish mumkin. Bog'chada bolalarning o'zaro do'stlashishi, birgalikda o'yinlar tashkil qilishi, dastlabki mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash orqali, bolalarni bir-birlariga yordam berishga o'rgatish ularga berilgan topshiriqlarni vijdonan bajarishni tarbiyalash orqali bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p jihatdan tarbiyachining bilimiga, mahoratiga, saviyasiga, kompetentlik darajasiga bog'liq. Masalan, tarbiyachi yiqilib qolgan bolani joyidan turg'azib qo'yishi, uning kiyim boshlarini tuzatishga yordam berishi, o'yinchoqlardan foydalanishda o'zaro hamkorlikka o'rgatish, bolalarga ovqatlanishdan oldin qo'l yuvish, sochiqdan foydalangandan keyin uni belgilangan joyga ilib qo'yishni o'rgatish, dilbandlarimizga qo'lini ko'ksiga qo'yib salomlashish ko'nikmalarini shakllantirishimiz lozim. Ularda ona tabiatimizga, muqaddas Vatanimizga boy o'tmishimizga, milliy qadriyatlarimizga, mehr-muhabbatni shakllantirish kelgusida shaxsiy manfaatlar bilan Vatan va umumxalq manfaatlarini uyg'unlikda his qiladigan farzandlarni voyaga yetkazish uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Har bir tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his qilishi;

Tarbiyachining o'zida samiyiylik bag'rikenglik, kechirimlilik, kek saqlamaslik, bolalikning sirli dunyosini chuqur anglash kabi shaxsiy kompetentlikning yetarli bo'lishi;

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda tarbiyachialarda kasbiy kompetentlikning yuqori darajada bo'lishiga erishish;

Tarbiyachining umummadaniy va maxsus kompetentligi belgilangan talablarga javob berishi lozim;

Pedagog olimlar va mutaxassislar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga oid davr talablariga javob beradigan metodik qo'llanma va uslubiy tavsiyalarga ehtiyoj mavjud;

Muammoni hal etishda "Maktabgacha ta'lim" jurnalining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish;

Tarbiyachi va pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi omillarga alohida e'tibor berilsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qo'yilgan davlat talablari bajarilgan bo'ladi.



¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq", 1997, 63b

OILADA BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHDA YOSH OTA-ONALARNI AMALIY TAYYORLASH

Zilola Ahrorova - SamDU MOM amaliy psixologiya kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchisi

Oilada bolalarni komil inson etib shakllantirish uchun ularning aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil etish pedagogika psixologiya mutaxassislari, ota-onalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, aqliy tarbiyani to'g'ri tashkil qilish tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bolaga aqliy tarbiya bermay turib uni oila va ijtimoiy xayotga tayyorlab bo'lmaydi. Oilada bolalarning bilimli bo'lishi haqida O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksining 73-moddasida «Ota-onalar bolalarining bilim olishlari uchun mas'uldirlar»¹, deb belgilangan. Demak, oilada ota-onalar o'z farzandlarining umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatishlari va qulay shart-sharoit yaratib berishlari lozim. Oilada ota-onalarning vazifasi farzandlari o'qishi, o'rganishi uchun o'quv xonasi, jihozlar, darsliklar va badiiy kitoblar bilan ta'minlashdan iborat.

Oilada bolalarni bilimli etib tarbiyalashda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga iborat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz», -degan bildirgan fikri amaliy ahamiyatga ega. Chindan ham bilimli odam teran fikrlaydi, mustaqil bo'ladi, boshqalarga tobe bo'lmaydi va o'z kuchiga ishonadi. Aksincha bilimsiz insonda esa bu sifatlar tarkib topmaydi. Oqibatda inson mustaqil bo'la olmaydi va oilada ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun oilada farzandlarni aqliy tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.


Bolaning aqliy tarbiyasini me'yorida tashkil qila olmay oilada aqliy tarbiyaning maqsadi bakalavrlar, ota-onalarga va ayniqsa bolalarga bilimli bo'lmasdan o'z maqsadiga erisha olmasligini tushuntirish, anglatishdir.

Oilada aqliy tarbiyaning vazifasi esa olgan bilimlarni shaxsiy hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma, malaka, odatlarni tarkib toptirish orqali komil inson bo'lishiga tayyorlashdan iborat.

Ammo, faqat ota-onalarning farzandlarni, aqliy tarbiyalash haqidagi bilimlarning, ma'lumotlarning o'zi yetarli emas. Ana shu bilimlarni bolalar ongiga singdirish bo'yicha amaliy ko'nikmani o'zida tarkib toptirishi va uni hayotda qo'llashni uddalay olishi shart. Aks holda ota-onalarning bu boradagi harakatlari, intilishlari zoye ketadi. Yana ota-onalar bolalarga aqliy jihatdan ta'sir ko'rsatish qoidalarini va uning metodikasini bilishi hamda ularga nisbatan talabchan bo'lishlari lozim. Talabchan bo'lmasa, yosh bola ilmning mohiyatini, hayotdagi ahamiyatini avval tushunmaydi, oqibatda rivojlanishdan orqada qoladi. Muhimi ota-onalar bolaga singdirilayotgan bilim, uning kelajagi uchun juda ham zarurligini hayotiy misollar bilan tushuntirib unga ishonirish kerak. Masalan, bilimli inson o'z shaxsiy xayotini o'zida bor bo'lgan bilimi asosida to'g'ri tashkil qiladi va o'z maqsadiga yetadi, yaxshi yashaydi hamda baxtli bo'ladi. Oilada bolaning aqliy ta'lim-tarbiyasi quyidagi shakl, metod va qirralardan tashkil qilinsa uning samaradorligi ta'minlanadi degan xulosani aytishimiz mumkin (1-slayd).


Oilalar sharoitida ota-onalarning eng asosiy vazifasi bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini, maylini tarbiyalashga erishishidir. Buning uchun ota-onalar bolalar tomonidan so'raladigan turli savollarga befarq bo'lmasligi, ularning bilishga oid intilishlarini, diqqat bilan kuzatib borishlari va harakatlarini qo'llab-quvvatlashlari juda foydali. Bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda qiziqqan yo'nalish bo'yicha ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, taniqli allomalarning uy muzeylariga sayohatga borish ular hayoti faoliyati bilan tanishish, kinofilmlar ko'rish, internet axborotlarini o'rganish kabi oilaviy tarbiyaviy tadbirlar bolalar bilimlarining ortishiga, mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-bet



Oilada farzandlarning o'quvchilik yoki talabalik davrlarida oynai jahon orqali tomosha qiladigan «O'yla, izla, top», «Zakovat», «Intellektual ring», «Iqtidor», «Chempion sirlari», «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar», «Mo'jizalar maydoni», «Rangin dunyo» kabi ko'rsatuvlar va ularning muhokamasini ota-onalar boshchiligida tashkil qilish bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Shunday qilib oilada bolalarning, aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil qilish, komil insonni shakllantirishning, oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashning, oilani mustahkamlashning qolaversa mamlakatni iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlantirishning tarkibiy qismi bo'lmo'g'i zarur.



BOLALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA OTA-ONALARNING O'RNI

*R.Nomozova-Ishtixon pedagogika kolleji o'qituvchisi
U.Ahrorova - Samarqand shahar 54- umumiy o'rta ta'lim
maktabboshlang'ich sinf o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 73-moddasi "Ota-onalarning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarida "Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart"¹,deb belgilab qo'yilgan. Ana shu g'oyalar oila tarbiyasi mazmunini va ota-onaning vazifalarini belgilashga asos, negiz bo'ladi.

Albatta bunday barkamol farzandni tarbiyalash oilada ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Oila" bo'limi 64-moddasida "Ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar"²-deb ta'kidlangan. Mazkur modda ota-onalardan o'zlariga yuklatilgan vazifalarini nazariy-ilmij jihatdan bilishni va hayotda tadbiiq qilishni talab etmoqda. Buning uchun avvalo ota-onalar oila tarbiyasining maqsadi, vazifasi, mohiyati, mazmuni, shakli, metodlari to'g'risila atroflicha keng ma'lumotga ega bo'lishi shart.

Oilada ota-onalar bolalar tarbiyasini o'zlarining uzoq kelajagini o'ylab tashkil etishlari darkor. Shu o'rinda "Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang, daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang-odam tarbiyala",-deb bitilgan qadimgi sharq maqolalaridan birini eslash kifoya.

Yoki ota-onalarga halqning "Har kim ekanin o'rar", hikmatini esalatish o'rinli. Agar ota-onalar oila tarbiyasining vazifalarini aniq, ravshan tasavvur eta olamasalar, bolalar tarbiyasi no aniq, taxminiy, maqsadsiz olib boriladigan va natijalari esa shunga yarasha kechadi. Har bir ota-ona o'z farzandlarining kamolini ko'rishni, hayotda baxt-saodatga erishuvini va keksayganda farzandlari oldida piru badavlat, izzat-hurmatli, ardoqli ota-ona bo'lishini xohlaydi va shunga harakat qiladi. Bunday ardoqli ota-ona bo'lish uchun esa oila tarbiyasining vazifalari nimalardan iboratligi to'g'risida ilmiy ma'lumotga ega bo'lishni kundalik hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Shu o'rinda ota-onalar oila tarbiyasining vazifalarini nafaqat bilish emas, balki hozir o'z farzandlari ongiga zaruriy fazilatlarini o'z vaqtida, o'rnida singdirmas ekan, keksaligida farzandlar oldida izzat-hurmatga sazovor, ardoqli ota-ona bo'la olmasligini eslatish joiz.

Shuning uchun qomusimizda belgilangan ota-onalik ma'suliyati ularning maxsus pedagogik bilimlarga, ko'nikmalarga va pedagogik madaniyatini tarkib toptirishni obyektiv hayot talab qilmoqda. Bu talabning oilada tadbiiq qilinishi haqida O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturida "... Umumiy hamda pedagogik madaniyatni amalga oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi"³,-deb o'rinli ta'kidlangan.

Haqiqatan ham oilada bolalarni oilaga, Ona-Vatanga sodiq va sadoqatli etib tarbiyalash uchun birinchi navbatda ota-onalarning umumiy hamda pedagogik madaniyatlarini oshirish-hozirgi oila tarbiyasining dolzarb muammosidir. Biz tomonimizdan ushbu maqolada ilmiy pedagogik jihatdan asoslanayotgan va tavsiya etilayotgan xulosalar oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi ma'lumotlarining hamda pedagogik madaniyatlarining ortishiga va mustahkamlanishiga bevosita amaliy

¹O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-47bet

²O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 1992yil, 21 bet.

³Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . – Toshkent, 1997 yil, 55 bet

yordam beradi degan fikrdamiz. Bizningcha, ota-onalar oila tarbiyasining quyidagi yo'nalishdagi eng asosiy vazifalarini bilishlari zarur va bolalar tarbiyasida tadbiq etishlari darkor:

- farzandlarga aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy, iqtisodiy, siyosiy huquqiy, ekologik jihatdan ta'lim-tarbiya berish va ularni hayotda qo'lash bilan bog'liq ko'nima, odat hamda xulq-atvorni tarkib topdirishi;

- farzandlarni oilani, mahallani, ona-Vatanni, halqini, uning an'analarini, urf-odatlarini, qadriyatlarini sevish, qadrlashga, e'zozlashga o'rgatishi va odatlantirishi;

- farzandlarda milliy istiqlol g'oyasi, milliy ong, milliy g'urur, millatidan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashi;


- farzand-oilada ota-onaning, oila va ajdodlar hayotini davom ettiruvchisiligini tushuntirishi, anglatishi va unga amaliy milliy qadriyatligini tushuntirishi, anglatishi, ardoqlashi va odatlantirishi;

- ajdodlarni ardoqlash va ularga munosib farzand bo'lishga, marhumlarning, shahid bo'lganlarning ruhini shod etish va xotirlashga odatlantirishi;

- farzandlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi hamda maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim olish uchun javobgar;

- fuqarolarni, ayniqsa, keksalarni, xotin-qizlarni, nogironlarni, bolalarni, ota-onalarni, opa-singilni, aka-ukalarni, qavmi qarindoshlarni qadrlash, izzatlash-hurmatlash va ular bilan muomala qilishga, yordam ko'rsatishga odatlantirishi.

Shunday qilib ota-onalarga oila tarbiyasining vazifalari haqida ma'lumot berish, pedagogik madaniyatni oshirish oilada farzandlarni oilaparvar, millatparvar, vatanparvar, ijtimoiy faol, ma'naviy boy barkamol insonni shakllantirishning, oilani mustahkamlashning hamda jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishning zarur sharti bo'lmog'i darkor.



ИСТОРИЯ ГОРОДСКОЙ УРБАНИЗАЦИИ БУХАРЫ В ПОЗДНЕЕ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Нафиса Рахматовна Ёкубова,

студентка 4-курса факультета истории СамГУ

Бухара - один из древнейших городов мира, областной центр современного Узбекистана и всегда занимал одну и ту же территорию, которая в одни периоды были несколько меньшей, в другие - большей, но всегда наиболее древняя часть ее, обжитая свыше полутора тысячелетий тому назад, была занята городской застройкой.

Бухара на том этапе своей истории, который предшествовал строительству последней городской стены, сохранившейся без существенных изменений до начала XXв., оставалась неизученной. Строительство новой стены, расширившее границы города и знаменовавшее собой большие изменения во всем его облике, было важным этапом в истории Бухары. Оно представляло значительный шаг вперед по пути развития городской жизни.

“Город достиг своего расцвета при правлении шейбанида Абдулла-хана II (1557-1598), т.е. во второй половине XVIв., была перестроена юго-западная часть стены, которая охватила Джуйбар”.

Сравнительное изучение материалов этнографического обследования Бухары XIX-начала XX в. и исторических источников XV-XVIвв. позволило установить границы того города, который сложился после разрушения его в 1220 г. монголами и просуществовал до перестройки городских стен в XVIв.

Установление этого факта дает возможность судить о состоянии городской жизни и темпе ее развития в этот период. Между началом и концом XVIв. город вырос очень значительно.

Как свидетельствует этнографическое исследование города конца XIX-начала XXвв., жизнь охваченных стеной городских кварталов резко отличалась от жизни находившихся за ее пределами пригородов, сохранявших сельский облик и сочетавших развитие в них ремесла с сельским хозяйством подобно тому, как оно издревле сочеталось с промышленными занятиями во многих отдаленных от города селениях Бухарского ханства

Свой современный облик город приобрел во времена династий Шейбанидов и Аштарханидов в XVI-XVIIвеках, когда были построены большинство из его мечетей и медресе, караван-сараев и бань, крепостных стен и ворот, а также крупные архитектурные ансамбли и

усыпальницы. До настоящего времени сохранились стены старинной цитадели, более 140 архитектурных памятников мусульманской эпохи (минарет Пои-Калян, медресе Кукельдаш и Улугбека, Ляби-Хауз, мавзолей Исмаил Самани. В сохранившихся памятниках четко прослеживаются черты местной самобытной архитектурной школы и мастерство бухарских зодчих.

Население города Бухары формировалось в процессе длительного и сложного исторического развития. Периоды расцвета города неоднократно сменялись периодами полного или частичного запустения, после чего он снова заселялся.


“Последний период почти полного запустения Бухары падает на XVIII в., когда, по свидетельству источника конца XVIII-начала XIX вв. Гулшан-ал-мулк”, в результате междоусобиц и хозяйственной разрухи в городе остались заселенными всего два квартала.

Сведения о том, как скоро и кем заселилась Бухара после этой катастрофы, неполны.

По-видимому, значительное место среди населения ожившей и восстановившейся к концу XVIII в. Бухары заняли многие из бежавших от разрухи бухарцев, которые снова вернулись в родной город при наступлении более благоприятных времен и которых оказалось немало. Доказательством этому может служить сохранение бухарцами таджикского языка, несмотря на узбекоязычность большей части населения сельских районов г. Бухары.¹⁴

Возвращение в г. Бухару большого количества прежних жителей доказывается еще и тем, что многие жилые кварталы в конце XIX-начале XX вв. были известны под теми же названиями, под которыми мы находим их в письменных источниках XV, XVI, XVII вв.

До наших дней сохранились стены Арка-старинной цитадели и еще более 140 памятников, каждый со своим неповторимым стилем постройки, удивительные кварталы и узкие улочки старого города, где сохранились целые районы древней планировки. В начале 90-х гг. Исторический центр Бухары вошел в список объектов Всемирного культурного наследия ЮНЕСКО. Таким образом, большая часть города является архитектурным памятником.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPITENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

H. Qoraboyev SamDU MOM o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so’ng mamlakatimiz ta’lim tizimida, xususan, boshlang’ich ta’limda keng qamrovli ijobiy o’zgarishlar amalga oshirildi.

Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasida “Boshlang’ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda o’qituvchining kasbiy kompetentligi va o’qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg’or tajribalar, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang’ich ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega” ekanligi takidlangan.

Boshlang’ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o’qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang’ich sinif o’qituvchisi barcha psixologik-pedaogik vositalarni qo’llagan holda, o’quvchilarda yaxlit tarzda o’quv faoliyatini shakllantira olishi kerak.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida o’qituvchining mavqei o’quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, o’qituvchi, shu jumladan, boshlang’ich sinif o’qituvchisi pedagogik jarayonni to’g’ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo’lishi lozim. O’qituvchi ko’p jihatdan o’quvchi uchun o’rnakdir. SHuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o’ziga jalb eta olishi kerak.

SHaxsga yo’naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang’ich ta’limni tashkil etishni nazarda tutgan holda o’qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida boshlang’ich sinif o’qituvchilarini

¹ Воронский Д.Г. Автореферат на тему: «Гулшан-ал-мулк» Мухаммада бен Яъкуба Бухори», -Ташкент,1949. стр. 9.

tayyorlash, qayta tayyorlash, ular malakasini uzluksiz oshirish mazmuni va texnologiyalari takomillashtirishi lozim.

O'qituvchining kasbiy madaniyati va etukligini ko'rsatuvchi muhim omillardan biri uning kiyimi hisoblanadi. Pedagog kiyimining to'g'ri tanlanishi o'quvchilarda yoqimli tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Chunki o'qituvchining kostyumi uning kasbiy etukligi va shaxsiy sifatlari: tartiblilik, shaylanganligi, jiddiyliqi, ozodaligi, tarbiyalanganligi, madaniyatlilikini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qulaylik tug'diradi. SHuning uchun ham o'qituvchilarning kiyinish qoidalariga qat'iy rioya qilishlarini ta'minlash lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi uning pedagogik- psixologik, mutaxassislik bilim, ko'nikma, malakalariga ,pedagogik mahoratiga ham bog'liq. Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga joriy etishda ham o'qituvchining kompetentligi ko'zga tashlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi uning o'z ustida ishlashida ,Jumladan kasbiy bilim,ko'nikma,malakani takomillashtirib borish, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy faoliyat bilan bog'liq salbiy odatlarni muntazam ravishda bartaraf etishva ijobiy sifatlarni o'zlashtirib borish.


Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbining mutaxassisi sifatida kompetentligini takomillashtirib borish quydagilarda namoyon bo'ladi. Aniq maqsad, intishish asosida pedagogik jarayonni samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirib faoliyatiga joriy etish, ilg'or texnologiyalar, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish, faoliyatiga fan- texnikaning so'ngi yangiliklarini samarali tadbiiq etish, kasbiy malakalarni takomillashtirish, ko'nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarni izlash yo'lida olib boriladigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashi va kasbiy kompetentligi takomillashtirishning ososiy omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda quydagilarga e'tibor qaratish lozim:

- pedagogika- psixologiyaga oid bilimlarini takomillashtirib borish;
- o'z ustida ishlash;
- ta'lim jarayonini tejalashtirish, boholash va qayta aloqani o'rnata olish;
- ta'lim jrayonida o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- axborot kommunikatsion texnologiyalarini bilishi, bilimlarini oshirib borishi va kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanish;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritish;
- o'z fanini mukammal bilish va bilimlaridan ta'lim jarayonlarda ulardan foydalanish;
- hozirgi zamon ta'lablaridan kelib chiqqan holatda xorijiy tillardan birini bilish ham o'qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirib borishning asosiy shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81 -b.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.
3. Ishmuxamedov R. va b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.- T.:Iste'dod, 2008
4. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya- iqtisod” nashriyoti, 2009.
5. Tolipov O'.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashrieti, 2006.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАР БИЛАН ТАНИШТИРИШ УЗВИЙЛИГИ

К.Курахмедова – Самарқанд педагогика коллежи ўқитувчиси
З.Бадалова – Самарқанд шаҳар 85-МТМ психологи

Инсоният пайдо бўлибдики, инсон ҳамиша одамийлик қиёфасини, феъл-атворида ўзига ярашадиган хатти – ҳаракатларни мужассамлаштиришга интилган.

Мамлакатимизда мустақиллик шароити ва шарофати, аввало, иқтисодий асосни барпо қилиш, ҳақиқий демократик жамиятни ташкил этиш, шу жамиятда яшайдиган жисмонан соғлом маънавий жиҳатдан етук, баркамол, одобли, миллий қадриятларни ҳурмат қиладиган шахсни тарбиялашни талаб этади. Ҳар бир шахсда бундай сифатларни таркиб топтириш биз тарбиячи – педагоглар болаларни мактабгача таълим ёшидан бошлаб уларни ахлоқ–одоб меъёрлари билан таништириб боришимиз лозим.

Мактабгача ёш – шахснинг дастлабки камол топиш давридир. Етти ёшга бориб бола ахлоқий ривожланиш даражаси кўрсаткичи унинг шахси йўналиши етарли даражадаги кўрсаткичи сифатида унинг шахс йўналиши етарли даражада аниқ кўзга ташланади.

Мактабгача таълим ёшидаги болаларни ахлоқий тарбиялаш бу икки томонлама жараён дир. Бир томондан, у болаларга катталар, ота-оналар, педагогларнинг актив таъсирини, бошқа томондан тарбияланувчиларнинг хатти–ҳаракатлари, ҳис-туйғулари ва муносабатларида намоён бўладиган фаоллигин назарда тутилади. Шунинг учун педагог муайян мазмунни амалга оширад, маънавий таъсир кўрсатишнинг турли усулларин қўллар экан, бажарилган иш натижаларини, тарбияланувчиларнинг ютуқларини диққат–эътибор билан таҳлил қилиши керак.

Хулқ–атвор меъёрлари ва қоидалари ахлоқ–одоб моҳиятини ташкил этади. Шахснинг ахлоқий ривожланишида одамларнинг бирга яшашлари, фаолиятлари жараёнида шаклланган ва ривожланган, бойиган ҳолда авлоддан–авлодга ўтадиган оддий ахлоқ меъёрларини эгаллаши катта аҳамият касб этади.


Болалар билан режали, изчил иш олиб бориш уларнинг ахлоқий тасаввурларини ҳам, ҳаққоний ахлоқий хулқ - атворлари даражасини ҳам оширади; мактабгача ёшидаги болаларда кўп нарсани ўз қўллари билан қилиши ва қилинган ишларидан қувониши натижасида катталар меҳнатини кадрлаш кўникмалари ривожланади; умум фойдаси учун қилинадиган ишларда ўзлари иштирок этишга, бирга ўйнаш, шуғулланиши, умумий мақсадларни қўйиш ва амалга оширишга интилиш вужудга келади.

Ҳар бир бола шахсини, унинг бугунги ва истиқболдаги ахлоқий ривожланиши ҳақида ғамхўрлик педагогларнинг кундалик эътиборини талаб этади. Бунда бола шахси ва болалар жамоасини шакллантириш вазифалари узвий равишда қўшиб олиб борилади.

Болаларга ҳар қандай фаолият – ўйин меҳнат, машғулот муайян тайёргарликни талаб этишни; қандай ўйинчоқлар ёки қўлланмалар керак бўлишини, масалан расм солиш ёки бирор .буюм яшаш, ўйин ёки меҳнат учун нима керак бўлишини олдиндан билиш муҳим эканлигини тушунтириш фойдалидир. Бошқаларга халақит бермасдан қаерда ва қай тарзда қулайроқ ўтириши, иш жойида машғулот учун зарур бўлган материалларни қай тарзда яхшироқ жойлаштиришни айтиб туриш керак. Бола ҳамма зарур нарсаларни ҳозирлаб қўйилган деб ишонч ҳосил қилмаганича, ишни бошламаслигини яна бир бор эслатиб қўйиш лозим. У ўзининг ташқи кўриниши қандай аҳволда эканлигини, кийим – кечакларининг тозаллигини кузатиши зарур.

Мактабгача таълим ёшидаги болалар фаолиятининг ҳар бир тури (ўйинлар, машғулотлар, меҳнат) уларни ахлоқ маданиятини шакллантириш билан боғлиқ бўлган муайян тарбиявий вазифаларни амалга ошириш учун энг қулай имкониятлар яратишни тушунтиради. Ўйинда маънавий ҳиссиёт, ахлоқий хатти-ҳаракатлар, жамоатчилик кўникмалари, дўстона муносабатлар, ўйин қоидаларига риоя этиш, шеригига, умумий ниятда кўзланган мақсадга ҳурматда бўлиш кўникмалари, машғулотларда–ўқув фаолияти маданияти, интизомлилик, Уюшқоқлик, тарбиячи сўзига, умумий топшириққа ҳурмат; меҳнат фаолияти жараёнида–меҳнатсеварлик, тежамкорлик, тартиблилик, масъулият ҳисси, биргаликда ҳаракат қила олиш, меҳнат қуроқларини ва энг юқори натижалиликни таъминловчи кўникма ва малакаларни регионал қўллаш шакллантирилади. Ҳар қандай фаолият тури жараёнида маданий хулқ–атвор асоси ҳисобланган маънавий онг, ахлоқий сифатлар ва одатларни шакллантириш билан боғлиқ бўлган тарбиявий вазифаларни кенг доирасини амалга ошириш зарур.

Ахлокий тарбия бутун педагогик жараён орқали амалга оширилади. Бироқ тарбиячи-педагог болалар билан олиб борадиган кундалик ишда аниқ фаолият турида энг мувофақиятли амалга ошириладиган вазифаларни ажратиб олиш мумкин экан. Жумладан, кундалик маиший турмуш фаолиятида, аввало, маданий хулқ-атвор кўникмалари шаклланади, хушмуомалалик қоидалари ўзлаштирилади, катталарга хурмат, итоаткорлик, тенгдошларига эътибор, уларга баҳолиқудрат ёрдам беришга интилиш тарбияланади. Баркамол инсон шаклланиши учун, тарбия шундай ташкил этилиши керакки, ахлокий талаблар болалар хулқи, уларнинг ўзаро муносабатлари учун йўналиш бўлиб қолсин.



THE ROLE OF TEACHER IN SOCIETY

Kushakova N-SamDU MOM o'qituvchisi
Sayimova G- Pastarg'on tumani 17- umumta'lim
maktab ingliz tili o'qituvchisi

Teachers play extraordinary part in the lives of children for the formative years of their development. The importances of teachers in something that cannot be understand. Their influence can and will stretch on long after the final bell ring, beyond the walls of the actual school. The role of teacher is complex, far beyond what people would assume as just someone who teaches youth.

Life is its own education, with formal schooling playing only a small fraction. However, that does not undermine the role of the teacher. Those who sit in the class room have a good bit of influence of shaping the minds of the future. There are many out there who instruct and lecture information in the classroom but very few people who actually teacher. Actually get through and shape the youth of today to be the pillars of society, to be all that they can be.

In many ways, there will be times where children will see their teachers a bit more than they might see their parents during most days. This is the case in the lower grades, where children are in school, seven, eight, and nine hours a day, with a single teacher at the lower grade levels.

What a modern teacher should be like

As it has been already said, a modern teacher is a mentor. This should be a person with a vision and determination to dedicate themselves to educating the future generation. It is not enough to deliver information, as all information now can be found online. The main teacher's job is to show how to use this information and why to use it. Below is the list of main qualities a modern teacher should have.

A great teacher should be determined to their goal. The goal is to assure that students get the education and understand why they need it. A teacher without a passion cannot succeed, as only passion can sparkle the interest in pupil's minds.

Adapted to change.

Nowadays everything is changing in seconds. For this reason, teaching methods are becoming old and need to be revised. A great teacher should constantly adapt to change in a society and particularly adapt to the way young learners perceive the world.

Self- development

A modern teacher cannot allow themselves to stop learning. If you want to keep up with development of the world, and if you want to be a great teacher, you should never stop learning.

Open to feedback

Teachers should be open to comments on their methods and strategy. This can help them to see the weaknesses and avoid them in future.

A teacher plays a key role in pupils' life

It is often believed that a student's interest in education has much to do with a teacher. A good teacher shows the students what they can do and what they need to learn to do what they cannot do at the moment. Teaching should be gradual, letting the students see their progress in achieving higher and higher levels.

Not only a teacher needs to deliver the information, but they also need to help students see their future prospects. Teachers should encourage students. Learners should feel free to open discussions and present their points of view. In the long run, a teacher needs to inform students about different possibilities open to them at college. Learners often do not know what the best is for them.

In every education centre or educational establishments teachers nowadays use a computer to teach the data and make different kinds of lessons. In our modern life It is very difficult to imagine the schools without computers. A school has to store millions of lessons and activities. With the helping of innovation technologies the lessons are interesting and effective. Moreover, a pupil who doesn't work with computer would be in a difficulty for some hours or some days to put up with the technologies and pick up information about his tasks at school, while a teacher was indicating trough the monitor of the computer. Another important aspect of this is that pupils are able to catch all information easier,

As for Teachers can make their papers and documents, put information, make corrections, print or send documents using computers by themselves. It makes life much easier. They can spend the rest of the time watching TV with his family or working on something new.

The teacher plays various roles – the teacher is a facilitator, a timekeeper, a vibe watch, a note taker. To be successful with the consensus making, some guiding principles must be applied - inclusiveness, accountability, facilitation, shared control, commitment to implementation. Magic happens when everyone is in agreement.

Brainstorming

Brainstorming is a group creativity technique designed to generate a large number of ideas for the solution of a problem. In 1953 the method was popularized by Alex Faickney Osborn in a book called Applied Imagination. Osborn proposed that groups could double their creative output with brainstorming. The most important outcome of brainstorming is improving team work. Some disadvantages of brainstorming, for example not feeling free to present unusual ideas, were eliminated by electronic brainstorming. The aim of brainstorming is to generate a great number of ideas.

The teacher has to create a criticism-free environment, to present the problem and organize the discussion. It must be clear, how to measure progress and success, the way for evaluation of the process. The solution of brainstorming must be clear for all.


Mind Map

Mind maps help avoid linearly thinking, the problems are solved more creatively. You can use a sheet of paper, the central idea is written in the middle of the paper. Then you can add new ideas using words, combine them, add a structure. It is a visual method, there are a lot of possibilities, how to create a mind map. Later on you can modify the information.

Heuristic Methodology

The heuristic method of learning is based on learning by discovering, on constructivism and on active interaction of teachers and pupils. An outcome based on the heuristic .The method include entertaining activities to stimulate the kids' exposure to the scientific phenomena they meet in the every day environment, to develop the child's curiosity and analytic mind, to have training effects on the family, scholar and social scales.

The teacher's role in pupil's life is also defined as psychological. A teacher is also an educator and psychologist who has to read children emotions. A teacher should help students overcome their fears. Teachers shape learner's mind and the way they see the world. A good teacher can inspire, while a bad one can kill the inspiration. For this reason, the role of a teacher is even more significant than we can imagine.



TALABA-YOSHLAR ORASIDA OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARI TASHKIL QILISH

M.A.Hotamov Sam DU o'qituvchisi:

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ta'lim muassasalari hayotida katta o'rin egallaydi. Birinchidan, talabalar, o'qituvchilar va oliy ta'lim muassasa xodimlarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirib, foydali ko'nikma va malakalarini tarbiyalab, ularning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, o'yinlarning tayyorgarligi va qiziqishni hisobga olib, bellashuvlar sharoitini tug'diradi. Har xil tayyorgarlikdagi sport musobaqasi qatnashuvchilarning musobaqa qoidalarini bajarib natijalar va ballar to'plashi shu oliy ta'lim muassasada jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'zining yo'nalishiga qarab, o'quv mashg'ulot, tashviqot va targ'ibotchi, sport musobaqalariga bo'linadi. Sport musobaqalari katta foyda beruvchi

tashkiliy-ommaviy, sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan biridir. Badantarbiya elementlari belgilari o'zga tadbirlar bilan birga to'g'ri ishlatilsa odamlar sog'lig'ini mustahkamlaydi, umrini uzaytiradi va kayfiyatini yaxshilaydi hamda ish faoliyat jarayonini unumli qiladi.

Ibn Sino qayd qilib o'tgan badantarbiya turlariga o'zaro tortish, musht bilan turtish, kamondan o'q otish, tez yurish, nayza otish, irg'ib osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo'lini silkitish, bir vaqtda oyoq uchlarida turib qo'llarini oldiga va orqaga cho'zib tez harakat qilish mashqlari kiradi.

Mana, ko'rib turibsizki, buyuk olim Ibn Sino tavsiya qilgan badantarbiya mashqlarining turlari bugun bizga yetib kelibgina qolmay, balki shu turlardan halqaro musobaqalar o'tkazilib kelinayapti, ushbu harakat o'yinlari Osiyo va Olimpiada o'yinlari dasturidan ham o'rin olgan.

Jismoniy tarbiya mutaxassislari yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish mehnatga va hayotga tayyorlash hamda aholini sog'lomlashtirish vazifalarini bajaradilar. Shuning uchun ular o'z sohalarini yetuk mutaxassislari va mohir sportchilar bo'lishlari kerak. Ular jismoniy tarbiya jarayonida harakatlarga o'rgatish, harakat malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda jismoniy mashqlar texnikasiga o'rgatishda o'zlari nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada tayyorgarligi bilan o'rnak bo'lishlari kerak. Shu bilan birga tarbiyachi mutaxassislar ahloqiy va ma'naviy yetukligi shug'ullanuvchilarga har qanday yordamga tayyorligi ularda iroda va ruhiy fazilatlarni tarbiyalashda mohir do'st ekanligi bilan ajralib turishlari kerak. Tarbiya jarayonining ko'p qirraliligi va murakkabligi jismoniy tarbiya mutaxassisi zimmasiga ko'p mas'uliyat yuklaydi.

Jismoniy tarbiya mutaxassislarning pedagogik mahoratlari ularni o'tiladigan o'quv malumotlarini nazariy va amaliy jihatdan to'liq egallagan bo'lishlari bilan belgilanadi. Shug'ullanuvchilarni jismoniy mashqlarga o'rgatishda pedagogik ta'lim uslublari va texnologiyalardan foydalanish darajasi ham jismoniy tarbiya mutaxassislari mahoratli darajasini belgilaydi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari shug'ullanuvchilarda faqatgina jismoniy fazilatlarni, mashqlar texnikasi va taktikasini tarbiyalabgina qolmay, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini, milliy istiqloq g'oyalarini, sport yutuqlari bilan Vatanni dunyoga tanitish ma'suliyatini hamda ahloqiy va estetik fazilatlarni shakllantirib tarbiyalab boradilar.

Jismoniy tarbiya mutaxassislarning pedagogik mahorati ham jismoniy tarbiya jarayonlari kabi ko'p qirralidir. Pedagogik mahorat shug'ullanuvchilarni jismoniy fazilat va qobiliyatlarini takomillashtirishda, harakat faoliyatida mustaqillikni rivojlantirishda, jamoatchilik ruhini tarbiyalashda, shug'ullanuvchilar shaxsiy xususiyatlari, hatti-harakatlarini tushunishda, qiziqishlari, talablari ehtiyoj va intilishlarini mohirlik bilan amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari o'z ishini ustasi bo'lishi va uni sevishi, jismoniy jihatdan barkamol, sog'lom, sport texnik mahorati yuqori darajada bo'lishi kerak. Mutaxassislarning malakasi va jismoniy tarbiya sohasidagi maxsus bilimlari qanchalik keng bo'lsa tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'ladi. Har bir pedagog o'z fani bilan tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Jismoniy madaniyatning va jismoniy tarbiya fanining o'ziga xos xususiyati jismoniy tarbiya jarayonida mutaxassising tashqi qiyofasi alohida ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya mutaxassislari talaba-yoshlarni jismoniy takomillashtirishga harakat qilar ekan uning o'zi jismonan barkamol, gavda tuzilishi uyg'un holda rivojlangan, harakatlari estetik jihatdan ifodali, qaddi-qomati kelishgan harakatlari ma'noli va erkin bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya mutaxassisi shu bilan birga madaniyatli bo'lishi, estetik tarbiyalangan, badiiy ma'lumotli, didli, sinchkov, ijodiy faol, shirin muomalali bo'lib, talaba-yoshlarda ham sifat va fazilatlarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratishi kerak. Jismoniy tarbiya mutaxassisi shirin suhan va shug'ullanuvchilarga mehribon bo'lish bilan birga, quvnoq, hamda yumor hissiga boy bo'lishlari kerak. Shuningdek ular shug'ullanuvchilarni harakat faoliyatini bajarishda talabchan va pedagogik odobga ega bo'lishlari muhim. Jismoniy tarbiya mutaxassislarni tarbiya jarayonini boshqarish malakasi mukammal bo'lishi zamonaviy talablardan tarbiya jarayonini boshqarish uchun jismoniy tarbiya mutaxassislari mamlakatda va xorijda jismoniy tarbiya bo'yicha ilg'or tajribalardan habardor bo'lishi va ularni egallagan bo'lishi kerak.

Shuningdek tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga ahamiyat berish kerak.

Tarbiya jarayonini milliy istiqloq g'oyasi yo'nalishida bo'lishi.

Shug'ullanuvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq holda har biriga individual yondashish.

Shug'ullanuvchilar oldiga yuksak talablar qo'yish va ularni xurmat qilish

Tarbiya jarayonini jonli faol, quvnoq shaklda o'tkazish.

Pedagogik talablar bilan tarbiyaviy ta'sir bo'lishini ta'minlash.


Jismoniy harakatlarga o'rgatish jarayoni shug'ullanuvchilarning ma'naviy xislatlarini tarkib toptirish va uni hayot, jamiyat, ehtiyoji bilan mehnat faoliyati bilan bog'lab olib borish zarur, jismoniy tarbiya jarayoni shug'ullanuvchilarni yangi jamiyat qurish uchun kurashda faol ishtirok etishga

ruhlantirish lozim. Shug'ullanuvchilarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash uchun qanday yashayotgani, nima haqida o'ylashi, kimlar bilan do'stligi ishlab chiqarishda qanday ishlashi, o'quv yurtida qanday o'qishi, oilada, jamoat joylarda o'zini tutishi bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi va boshqalarni jismoniy tarbiya mutaxassislari to'liq bilishi kerak.

Jismoniy tarbiya mutaxassislari shug'ullanuvchilarni jismoniy qobiliyatlar rivojlanganlik darajasini bilishi, shaxsiy xarakter xususiyatlarini, aql idrok xissiyot irodalarini ahloqiy sifatleri va statik ehtiyojlardagi individual farqlarni o'rganish zarur. Tarbiyachi talabalarni o'rganishda pedagogik kuzatishlar kundaligi tutishi unga shug'ullanuvchilarni xarakterlari hulq atvori va boshqa faktlarni yozib borishlari kerak. Shug'ullanuvchilarni har tomonlama bilish asosidagina jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Talabalarni jismoniy tarbiya va sport turlariga ommaviy jalb etishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning xizmatlari keng o'rin tutadi. Talabalarni jismonan sog'lom va ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda to'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish tadbirlarining roli katta.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish tadbirlari talabalarni yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishlarida, nazariy va amaliy bilimlari takomillashib borishlarida hamda axloqiy sifatlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega.



YOSHLARDA AXLOQIY FAOLLIKNI OSHIRISH VA TOLERANTLIGINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Holiqov Yunus Ortiqovich SamDU MOM o'qituvchisi

O'zbekiston o'z oldiga demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni oliy maqsad qilib qo'ygan. Unga erishishning yagona yo'li, yoshlarda axloqiy fazilatlarini demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdir. Har bir xalq turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlardan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratiyaga o'ziga xos tarzda yondashadi. Shu ma'noda, I.A.Karimov: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat nohush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi"[1: 8-9-b], deganida demokratiya va fuqarolik jamiyatini joriy etishning sharqona xos-xususiyatlar, axloqiy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillariga tayangan holda yurtimizda imkoniyatlardan kelib chiqish zaruratini kun tartibiga qo'yishimiz mumkun bo'lib hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kunda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bu borada xalqimiz azal-azaldan ilm-u fanni rivojlantirish, yosh avlodni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, farzandlar tarbiyasi va ularning komil inson bo'lib voyaga yetishiga katta e'tibor qaratib kelgan. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq davlatimiz tomonidan yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Darhaqiqat bugungi kunda davlatimiz kelajagi bo'lgan yoshlar har tomonlama yuksak bilim va salohiyatga ega, ma'nau yetuk hamda har qanday yot g'oyalarga qarshi kurasha oladigan barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun ma'naviy g'oyaviy tarbiyaning o'rni katta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi: Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi. Bunda, asosan, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalari ko'zda tutilgan.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda, umuman, dinga, ayniqsa, ota-bobolarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan urf-odatlar, qadriyatlarga va ular e'tiqod qilgan islom diniga munosabat tubdan o'zgardi. Bag'rikenglik g'oyalari

yanada e'tibor kuchayib xalqimiz ongiga ijobiy tasir eta boshladi. Bu esa, o'z navbatida, yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilgan. Shuning uchun ham har bir davrda bag'rikenglik odamlar qalbi va ongiga har doim ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu sababli ham jamiyatni rivojlanish, ya'ni taraqqiyotga bosqichma-bosqich erishib kelganini ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov dinlararo bag'rikenglik g'oyasi yuksak ma'naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ong-u shuurida shakllanib kelgani, u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi va jamiyatimizda o'ta muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida ko'plab fikr bildirar ekanlar, "Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam" deb e'tirof etadilar. Bunday do'stona aloqalardan xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimizda azaldan musulmonlar va xristianlarning birgalikda hamjihat bo'lib yashashlari xalqimiz diniy-ma'naviy totuvligining yuksak namunasi va barcha dinlar uchun bag'rikenglikning eng maqbul namunasi deb deyish mumkin. O'zbekiston hukumati oqilona, diniy bag'rikenglik siyosatini olib bormoqda. Milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bag'rikenglik:

birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy bag'rikenglik tarzida ko'zga tashlanib tursa;

ikkinchidan, o'z-o'zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o'zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo'ladi;

uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi.

Shunday qilib, bag'rikenglik bor joyda qilingan gunohlar kechiriladi, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinadi, xayrli va savobli ishlarga qo'l urish uchun keng imkoniyatlar ochiladi, oilada totuvlik, insonning ma'naviy vujudida esa tansihatlik va xotirjamlik hukm sura boshlaydi, xalqlar va mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, qolaversa, do'stlik va birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib boraveradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz urf-odati an'analari halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan. Oila er-xotin, ularning farzandlari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat guruh boshqacha aytganda, xonadoni, ya'ni mikro muhitdir. Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni beqiyos. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas fazilatlarining poydevori oilada qaror topadi. «Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi».

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axloqiy muhit keng ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, u fuqarolarning ma'naviy-axloqiy qonuniyatlar va xususiyatlarni o'zlashtirishi hamda ehtiyoj darajasida unga amal qilish bilan belgilanadi. Ilm-fanda har bir muhitning ahamiyati ayri holda ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ijtimoiy munosabatlarning tadrijiy rivojlanishi, jamiyatdagi barqarorlik, totuvlik va shaxsning o'z iqtidorini, imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishi ma'naviy-axloqiy muhitga bog'liq bo'ladi.



FALSAFA TARIXIDA IDEAL VA BADIY-ESTETIK IDEAL KATEGORIYALARINI O'RGANILISHI

Suvanova Dilnura - Sam QXI o`qituvchisi
Fayzullayeva Nilufar - SamQXI talabasi

Ideal muammosi falsafiy tafakkur tarixida turlicha talqin etilgan. Xususan, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, faylasuf olimlar tomonidan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va estetik ideallar haqidagi ilmiy izlanishlarga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu izlanishlarning falsafiy tizimini turkumlashtirish va izohlash alohida o'rganiladigan masala bo'lganligi bois biz idealning falsafiy tafakkur tarixidagi o'rni bilan bog'liq ayrim jihatlarga e'tibor qaratishni lozim, deb topdik. Falsafiy tafakkur tarixida ideal va uning mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, falsafiy mazmuni masalalari ko'pgina allomalar tomonidan o'rganilgan. Bu borada Aflotun, Arastu, Konfusiy, Forobiy, Ibn Sino, R.Dekart, B. Spinoza, J. Russo, D. Didro I. Kant, Gegel, Feyerbax kabi faylasuflarning qarashlari va nazariyalarini alohida e'tirof etish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, ideal tushunchasi falsafaga I.Kant tomonidan kiritilgan bo'lib, faylasuf idealni aqlning zaruriy, yuksak namunaga to'g'ri keladigan me'yor sifatida tavsiflaydi.1 E.V.Ilenkovning fikricha, «ideal» (yunoncha idea) - inson yoki jamiyat, sinflarning xulq-atvor yo'l-yo'riqlari va xususiyatlarini belgilovchi, namuna, qoida, ideal obraz.2 A.I.Yasenko esa «ideal» tushunchasini insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog'lab, maqsadning maqsadidir deb ta'riflaydi. Rus tilidagi internet ma'lumotlarida «Ideal» (lot. Idealis, yunon. idea- timsol, g'oya) - oliy qadriyat; eng yaxshi tomonlar; namunali shaxsiy sifatlar; vijdon va burchning oliy axloqiy qadriyati», deb qayd etiladi.

Garchand, mazkur ta'riflar idealning rasional mohiyatini belgilab bersa-da, ularni to'laqonli deb bo'lmaydi. Yuqoridagi ta'riflarni bir-biri bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ularda idealning xususiyatlari umumnazariy ta'rifga aylantirib yuborilganligini ko'rish mumkin. Idealning inson tafakkuridagi namuna, mukammal timsoli, normasi axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning ichki xususiyatlar bilan yo aralastirilib yuboriladi yoki bu ideallar belgilari orqali umumiylikni ifodalashga harakat qilinadi. Shuning uchun ta'riflar yo barcha ideallarga xos xususiyatlarni qamrab olmagan yoki ayrim ideal shakllari bilan chegaralanib qolgan.

So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan idealning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik jihatlarni ilmiy tahlil qilishga, idealning milliy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Bular orasida S.S.Agzamxodjaevaning tadqiqotlarini alohida e'tirof etish mumkin. S.S.Agzamxodjaeva «ideal» va «ijtimoiy ideal» tushunchalarini tadqiq qilgan holda idealning klassifikatsiyasini berishga harakat qilgan. Ushbu klassifikatsiyada badiiy-estetik idealning o'rni alohida ko'rsatilgan1.

“Falsafa. Qomusiy lug'atda esa «ideal (fransuzcha ideal, lotincha idealus qiyofa, mezon, mukammal) - orzu intilishning oliy maqsadi. Keng ma'noda: u yoki bu narsa, hodisaning eng yaxshi, eng qadrlil, eng mukammal holati. (masalan, «ideal gaz» masalani hal qilishning ideal yo'li, tor ma'noda shaxs (inson) qobiliyatlarini ifodalovchi namuna»2, deb ta'rif berilgan. «Ideal»

tushunchasining ma'no va mazmuniga doir yuqoridagi ta'riflar bir-birini to'ldiradi, biroq, bu ta'riflar bizning nazarimizda, idealni eng yuksak va olijanob maqsad, orzu va tilak sifatida idrok etish masala mohiyatini cheklab qo'yadi. Chunki ideal faqat maqsad, orzu va tilakdan iborat emas. Agar maqsad, orzu va tilak ideal sifatida olinsa, idealning umummillat miqyosida yoki kishilar uchun mushtaraklik jihati fikran chetda qoladi. Bundan tashqari, “Falsafa. Qomusiy lug'at” da «axloqiy ideal kishilar xulq-atvorlari, xatti-harakatlarini, jamoa manfaatlari asosida, muayyan tarzda, tartibga soladi» deyilishi noto'g'ridir. Chunki, har bir jamoa o'z manfaatlari asosida kishilar xulq atvori, xatti-harakatini tartibga solsa, unda umubashariy, milliy va individual xususiyatlar axloqiy idealda aks etmay qoladi. «Ideal»

tushunchasi barcha falsafiy kategoriyalar (moddiylik va ma'naviylik, abadiylik va o'tkinchilik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, mutloqlik va nisbiylik, umumiylik va alohidalik, tasodif va zaruriyat, yaratuvchanlik va yaratilganlik, mukammallik va nomukammallik, va hokazo) ni qamrab oladi va ular o'rtasidagi aloqadorlik yoki ziddiyatlarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Xususan, Platon barcha voqelik, yagonalik va alohidalik, hatto umumiylik tushunchalarini ideal g'oya, mutlaq abadiyat nuqtai nazaridan

¹ Falsafa. Энциклопедик луғат. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. –Б.122.

² Қаранг: Ильенков Э. В. Философия и культура.– М.: Издательство Политической литературы, 1991-С.195.

¹ Агзамходжаева С.С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2007. – 13 б.

² Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.142.

tushuntirishga harakat qilgan. Uning nazarida inson ongida paydo bo'ladigan tasavvur, tushuncha ideal obraz sifatida abadiylik, yagonalik, mutlaqlik, zaruriy voqelik xususiyatiga ega. SHunga ko'ra ideal obraz ma'lum narsa va hodisalarning voqelikdagi nusxasi tarzida g'oyalardan dunyosidan iboratdir.

Ideal muayyan g'oya, fikr, obraz tarzida va ta'sirida shakllanadi, bu omillar nazariy, amaliy, axloqiy, badiiy-estetik jihatdan inson faoliyatini, ruhiyati va maqsadini oydinlashtiradi. Shu tariqa individ ongida tug'ilgan obraz - g'oya ideal sifatida xalq, millat va jamiyat ijtimoiy tajriba va faoliyatiga ta'sir etadi, jamiyatning ma'naviy mulkiga aylanadi. Lekin inson hayoti va tafakkurining murakkab jarayon ekanligi shunda ko'rinadiki, hamma g'oya, fikr, obrazlar ideal darajasiga ko'tarilmasligi mumkin.

Ideal haqidagi bu kabi qarashlar olmon mumtoz faylasufi I.Kant ta'limotida «ideal masalasi»ni insonning ma'naviy-axloqiy takomili bilan bog'lashga olib keldi: idealni - «maqsad qilib qo'yish va unga erishish uchun intilish bilan bog'liqdir», deb bildi. SHuningdek, faylasuf axloqiy idealni ham, estetik idealni ham voqelikdan emas tafakkurdan, aqlidan izlamoq kerakligini uqtiradi. Bunda ideal narsa va hodisalarning empirik voqelik tufayli tug'ilgan g'oyalardan emas, tafakkur salohiyati bo'lgan xayolda paydo bo'lgan har xil obraz, tushuncha va tuyg'ularning mantiqiy yaxlitligidan vujudga keladi.

Ideal adabiyot va san'atda o'zining «mutloqlashgan» va «intiholashgan» holatini badiiy obrazlar timsolida namoyon etadi. Bu sohada umumiylik (me'oriy sifatlar) va individuallik (fe'l-atvor belgilari) yaxlitlik va bo'lak, axloqiylik va erkinlik, mohiyat va sabab, zaruriyat va tasodiflarning kesishish nuqtalari ideal obrazlar timsolida ifoda etiladi. Shuning uchun san'atda ifoda etiladigan go'zallikka ideal sifatida qaraladi.

Yuqoridagi ta'riflardan shu narsa aniqki, inson o'z tasavvuri va qalbidagi «ideal inson» obrazi bilan tushuntirish mumkin. Demak, sub'ektning ideal haqidagi tushunchasi, ramzi, real voqelik, inson ehtiyoji, salohiyati, faoliyati bilan tutashganda, ideal sub'ektiv obrazning ob'ektiv qiyofasiga aylanadi. Shuning uchun ideal qiz, ideal inson, ideal ota-ona, ideal rahbar haqidagi tasavvur va izlanishlar faqat obraz-namunaning voqelashuv jarayonidagina sinovdan o'tadi. Masalan, «tilla» odamlar ongida rangli metallarning ideali hisoblanadi. Lekin bu idealga ega bo'lishning o'zi inson baxti va saodatini belgilamaydi. Ideal hayotda reallashuv jarayonida sinovdan o'tgani uchun u insonga yo quvonch, baxt-farog'at yoki azob-uqubat keltirishi mumkin. Bu o'rinda tilla ideal sifatida yaxshilik va yomonlikning, to'g'rilik va o'g'rilikning dialektik birligini ifodalashning yorqin timsoliga aylanadi. Zargar, tadbirkor va olijanob inson uchun tilla go'zallik va ezgulik ideali, qallob va o'g'ri uchun esa, vijdotsizlik va axloqsizlik uchun tekin daromad vazifasini bajaradi. Shuning uchun ideallar millat va jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy salohiyatlariga binoan shakllanib boradi.

Axloqiy idealning ijtimoiy falsafiy mohiyatini o'rgangan tadqiqotchi A.Samadovning fikricha, «ideal tushunchasining ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy, milliy va individual mazmun-mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqib, uni odamzod ongidagi biror narsa, voqea yoki g'oyalarning mukammalligini, namuna, o'rnak, mezon darajasidagi obrazi sifatida ifodalovchi, har bir millatning dini, ijtimoiy-ma'naviy tajribasi, shaxsning qobiliyat va ehtiyojlariga, faoliyat turiga, yoshiga, jinsiga, millatiga binoan shakllanadigan mukammallik namunasi maqomidagi haqiqat, go'zallik, olijanoblik va pokdomonlik timsoldir»¹. Ushbu fikrdan xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotidagi murakkabligi ideal tushunchasini ichki xususiyatlariga ko'ra ajralib chiqishiga va dialektik birlikda rivojlanishiga olib kelgan. Natijada diniy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, axloqiy va estetik ideallar haqidagi tasavvur, tushuncha va qarashlar shakllangan.

Badiiy-estetik idealning shakllanishida estetik didning alohida o'rni bor. Aslida estetik did bilan badiiy-estetik ideal o'zaro aloqadorlikdadir. Estetik didi shakllangan odamning ideali bilan ushbu didi rivojlanmagan kishining estetik ideali o'rtasida jiddiy farq mavjud. Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his—hayajon, sub'ektiv baxolash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik did deganda – insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaiylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi. Masalan, osmonni qora bulut to'liq qoplab olganini ko'ra–bila turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yulga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini echmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosatsiz deb ataymiz, qalampir nusxa rangli ko'ylak, jinsi shim va ayni paytda kirza etik kiyib, salla o'rab olgan odamni ko'rsak, uni didsiz deymiz. Birinchi hodisada biz tabiiy sharoitga moslashmay, o'ziga jabr qilayotgan kishini, ikkinchisida ham gigienik, ham axloqiy qonun-qoidalarga amal qilmay tarbiyasizligi tufayli uy egasini

² Каранг: Кант И. Критика чистого разума. – Ростов на Дону: Феникс, 1999 – С.465.

¹ Самадов А. Ахлоқий идеалнинг ижтимоий-фалсафий моҳияти ва унинг баркамол авлод тарбиясидаги ўрни. Тошкент, фан.ном.дисс. автореф 2011, 6-бет


ranjitgan odamni, uchinchi hodisada kiyinishdagi uyg'unlikni tushunmagan, go'zallik bilan bachkana yaltiroqlilikning farqiga bormagan kimsani ko'ramiz. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchramiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Zero, fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy–tug'malikka borib taqalsa–da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did murakkab tarbiya jarayonini taqazo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Badiiy-estetik idealni etarlicha o'rgangan S.S.Agzamxodjaeva o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagi iqtiboslardan foydalangan ya'ni "badiiy-estetik ideal bir tomondan, estetik did, ikkinchi tomondan, estetik qarashlar o'rtasidagi munosabatlarning ko'rinishidir". Demak, badiiy-estetik ideal estetik did bilan estetik qarashlarni o'zida uyg'unlashtiruvchi voqelikdir. Bu o'rinda L.N.Stolovichning badiiy-estetik idealni oddiy badiiy voqelik darajasida talqin etayotgani ko'zga tashlanadi. Badiiy-estetik ideal oddiy badiiy-estetik voqelik, san'at asari yoki qarash emas, u mavjud estetik borliqni mukammallashtirishga qaratilgan obraz, g'oya, tasavvurdir. Idealning estetik did va estetik qarash bilan bog'liqligini hech kim inkor qilmaydi, ammo idealning gipotetik xususiyatini, kelajakka yo'naltirilganini esdan chiqarmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, badiiy-estetik idealning shakllanishida go'zallik, ulug'vorlik, hayoliylik, mo'jizaviylik, uyg'unlik singari xususiyatlar asos vazifasini o'taydi. Ayni paytda u fojiviylik va kulgililik tushunchalarida ham o'zini namoyon etadi, xunuklik va tubanlik kabi hodisalarni baholashda ishtirok etadi.

Foydalangan Adabiyotlar:

1. Фалсафа. Энциклопедик луғат. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – Б.122.
2. Қаранг: Ильенков Э. В. Философия и культура.– М.: Издательство Политической литературы, 1991-С.195.
Қаранг: Яценко А.И. Целепологание и идеалы. – Киев: Наука, 1977. – С.171.
3. [http:// slovari. nsk. ru/ tolk/ ideal.](http://slovari.nsk.ru/tolk/ideal)



ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШДА РАХБАР КОМПЕТЕНЦИЯСИ

*Мушарраф Исамутдиновна Салахутдинова-
доцент, Самарқанд давлат университети*

Жаҳонда тезкор тараққиёт ва глобаллашув жараёни бораётган бир пайтда, жамият бошқарувини самарали амалга оширишда барча жабҳаларда раҳбар кадрлар ўрни муҳим аҳамият касб этади.

«Тараққиётнинг ҳар бир босқичи – бу маҳаллий раҳбар учун янгидан-янги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўлидаги масъулиятли вазифалар демакдир. Бу – ҳаёт қонунияти, биз уни инкор этолмаймиз», - деб таъкидлаган эди биринчи Президентимиз И.А. Каримов. Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатининг И.А. Каримов томонидан илгари сурилган асосий тамойиллари фуқаролик жамиятига оғишмай татбиқ этиш талаб қилинмоқда. Бу талабни ҳаётга аниқ ва пухта жорий этиш барчамизнинг муқаддас бурчимиздир.

Республикамиз Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг дастлабки нутқи ва китоби “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак” – деб номланиши ҳам шундан далолат беради.

Жамоада меҳнат самарадорлиги психологик иқлимга боғлиқ. Жамоа психологик иқлимини раҳбар ва жамоадаги лидерлар ҳосил қилишади. Раҳбар компетентлиги жамоада турли низоларнинг юз бермаслигига ва юз берган тақдирда ҳам уларни конструктив ҳал қилинишига сабаб бўлади.

Бугунги кунда долзарб ва ўрганилиши лозим бўлган муаммо шуки, жамоада конфликтлар юзага келишининг асосий сабаблари – манфаатлар тўқнашуви, қондирилмаган эҳтиёжлар, социал адолатсизлик, стресслар, раҳбар томонидан вазиятга мос бўлмаган бошқарув услубини қўллаши, расмий ва норасмий лидерларнинг турли позицияларда бўлиши, шахсий антипатия, гуруҳбозлик ва бошқалардир.

Жамоада, умуман, ижтимоий ҳаётда низоларни бартараф этишда «конфликтга киришиш маданияти» тушунчасини киритиш лозим, деган фикр бугунги кунда бошқарув соҳаси учун долзарблик касб этмоқда.

Сабаби, кузатишлар кўрсатадики, аксарият шахслар низога киришганда низони юзага келтирган муаммо ҳақида эмас, балки оппозициянинг шахсий, баъзан интим ҳаётидаги хато ва камчиликларига, уларнинг ҳаётларидаги оғриқли нуқталарига эътиборни тортиб гапира бошлайдилар. Инсон шахсиятига тегиш эса, албатта, вазиятни деструктив ҳолатга олиб келади.

Кўриниб турибдики, жамоада низоли вазиятларни бартараф этишда раҳбар:

Раҳбарлик компетенциясига.

Мулоқот маданиятига.

Ижтимоий интеллектга.

Касбий ва ҳаётий тажрибага.

Имидж ва харизмага.

Соғлом руҳиятга эга бўлишлари керак.

Бу ҳам замонавий раҳбарнинг фаолиятида муҳим ва долзарб жиҳат.

Раҳбар шахсининг психоаналитик таҳлилидан келиб чиқиб – айбдорлик ҳисси юқори, «ҳаётдан хафа», комплексли, ўз-ўзига паст ишончга эга раҳбар шахс албатта соғлом руҳиятга эга бўла олмайди. Бу эса жамоадаги муносабатларда психологик конфликтларни ҳосил қилади. Юқоридаги ҳолатларнинг конфликтга сабаб бўлишини битирув иши иловасида келтирилган тест таркибидаги баъзи саволлардан ҳам англаш мумкин.

Инсон ҳаёти бошқалар билан бўладиган турли муносабатларнинг узлуксизлигидан иборат бўлган жараёндир. Ана шу муносабатлар эса ҳар доим ҳам бир текис, силлиқ ва тинч давом этавермайди. Ҳаётнинг бир текис давом этишини турли низо ва зиддиятлар бузиб туради. Биз уларни конфликтлар деб атаймиз.


Жамоада вужудга келган ҳар турли низоларга нисбатан ҳам пассив эмас, фаол ёндошган маъкул. Биз ўзимизни бир томоннинг ёнини олган ёки иккинчи томон учун бўйсунган ҳолда эмас, балки, мана шу низоли вазиятни вужудга келтирган муаммони аниқлашга ҳаракат қилиб, бутун жамоа диққатини шахслараро муносабатларни тафтиш қилишга эмас, балки муаммони аниқлашга, унинг ечимини қидиришга, томонларнинг ҳар бирининг манфаатларини ўзаро яқинлаштиришга, ҳар икки томонни ҳам ўзаро қониқтирадиган ечимни қидиришга сафарбар этишимиз лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017.-104 б.

Боймуродов Н. Раҳбар психологияси: Олий таълим, халқ таълими, соғлиқни сақлаш, ўрта махсус, касб-хунар таълими бошқармаларининг маъмурий ходимлари учун қўлланма. – Т.: «Янги аср авлоди», 2005. – 152 б.

Гришина Н.В. Психология конфликта. – СПб.: Издательство «Питер», 2000. – 464 с.



ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR

*M.Nuraliyeva, S. Toshniyozova – Samarqand pedagogika kolleji o'qituvchilari
A.Umarova-Samarqand ISI qoshidagi 1-akademik litsey o'qituvchisi*

Ta'lim va tarbiya –bir butun jarayon. Ularni bir-biridan ajratgan holda amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash singari tamoyillarga asoslanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari tez o'zgaruvchan dunyo sharoitida nimaga o'rgatish va qanday o'rgatish kerak kabi savollarga javob izlashlari lozim. Shu bois, interfaol usullar, o'qitish muhitini yaratish orqali o'qitish hamda o'qitish shakllari, ta'limdagi yangi innovasiyalarni muntazam ravishda o'rganib borishni taqozo etadi.

Innovatsiya (inglizcha) innovation-”yangilik kiritish” degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, mamlakatimiz hayotining hamma jabhalarini innovation jarayonlar qamrab olayotganligi qatorida ular

o'qitishning yangicha, noan'anaviy usullari shaklida ta'lim-tarbiya amaliyotiga tobora keng joriy etib borilmoqda. Innovasion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiquvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborot va bilimlarni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xoxish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiyasi hosil bo'lib, bu esa o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ichki yaqinlashuviga imkoniyat yaratadi.

“Interfaol” o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mustaqil fikr mulohaza yuritishi, munosabat bildirishi kabi ko'nikmalarni shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, kafolatlaydi, baholoydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritishga harakat qiladi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilish, shuningdek, aniq va teran fikrlash, o'z fikrlarini ixcham, tushunarli, jo'yali bayon qilish malakasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darsliklaridagi ba'zi mashqlarda o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan materialni mustaqil ravishda topish talab etiladi. Bu esa yangi usullarni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyada o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishda, erkin va teran fikrlashga, fikrlarini ravon ifodalashga o'rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati naqadar beqiyos ekanligi allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Bu borada mutaxassislar, olimlar qator tadqiqotlarni amalga oshirgan va yangi usullarni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishga muvaffaq bo'lgan bo'lsalar, tajribali o'qituvchilar ulardan foydalanish barobarida yanada takomillashtirishga intilmoqdalar.

Biz interfaol usullardan o'rinli va samarali foydalanayotgan, yangilikka intiluvchan o'qituvchilar tajribasiga, shuningdek, o'z tajribamizga tayangan holda ona tili va adabiyot darslarida yuqori samara berishi mumkin bo'lgan ba'zi usullar va ulardan foydalanish borasida o'z mulohazalarimiz hamda tavsiyalarimizni keltirib o'tamiz.

“Zinapoya” usuli. Bu usuldan deyarli har bir darsda foydalanish mumkin. Zinapoya chizilgan plakat taxtaga ilib qo'yiladi. Antonim so'zlar o'rganilayotganda antonim juftliklarnig bittasini “zinapoya” katakchasisga solib qo'yamiz. Juftlikning ikkinchisini o'quvchilar o'zlari topishi talab qilinadi. Bu ish guruhlarda bajarilsa, qaysi guruh zinapoyalardan bosh zinaga chiqa olishi shart qilib qo'yiladi. O'quvchilardan tezkorlik talab etiladi, chunki guruhlardan qaysi biri bosh zinaga birinchi bo'lib chiqa olsa, o'sha g'olib bo'ladi va rag'bat bayroqchasini oladi.

“Davom ettir” usuli. O'quvchilar nutqini maqollar bilan boyitish, xalq ma'naviy xazinasining noyob javohirlaridan bahramand qilish har bir ona tili va adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar juda ko'p uchraydi. Antonimlarni o'rganish jarayonida yoki har bir darsning “quvnoq daqiqalari”da “davom ettir” usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va bir guruh boshlagan maqolning davomini topish va aytish vazifasi ikkinchi guruhga topshiriladi.

1-guruh 2-guruh

Yaxshiga yondosh Yomondan qoch

Kattaga hurmatda bo'l Kichikka izzatda bo'l

Do'st achitib gapirar Dushman kuldirib

“Aqliy hujum” - sinfdagi har bir o'quvchiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning barcha fikrlarini, shu jumladan, aytarli to'g'ri bo'lmaganlarini ham inobatga olinadi.

“Tarmoqlar” (Klaster) metodi – fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilar bilan bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni hamda ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Bu metod biron bir mavzuni chuqur o'rganish, avvalo o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“So'z top” usuli. Alifbodagi harflar yozilgan tarqatma materiallar stol ustida turadi. Ikki guruhdagi ikki o'quvchi chiqib harf tanlaydi. Tanlangan harf qatshashgan so'zlar ikki ustunga yoziladi. Masalan:

1-guruh 2-guruh

V harfi Sh harfi
bosh shamol
bola shaftoli
botir shashka
bo'ron shim

1 daqiqa davomida eng ko'p so'z topgan guruh g'olib bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchilarga bolaga do'stona munosabatdagi dastur asosida ish olib borilayotgan ta'lim muassasalarida interfaol darslar yangi struktura bo'yicha loyihalanmoqda va bu o'z samarasini bermoqda.



РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГА - ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.

*Мусинов С. доцент СФ, ТУИТ,
Шодиерова М.- студент СФ, ТУИТ.*

Профессиональное мышление педагога обеспечивается образованием. Именно развитое педагогическое мышление педагога, в котором протекают процессы анализа, синтеза, умозаключения и др. может стать основой формирования профессиональной компетентности. Следовательно, по выражению В.Н.Спецнадея, и оно должно быть системным[1]. Системный анализ, по его мнению, является основным для принятия оптимальных решений, что особо важно в организации модульного обучения.

Психические корни деятельности во взаимной связи мышления, речи и труда показаны в древнейшем религиозно-философском произведении – Авесто. Единство мыслей, слов и деятельности, которые глубоко социальные и аксиологичны, обеспечит результативность труда и жизнедеятельности. Обеспечение такого единства сложный, системный процесс. Еще Давид Юм (1711-1776 гг) отмечал, что люди стараются разрешить все проблемы, кроме проблем мышления и поэтому никогда не приходят к точному заключению.

А древне - восточный мыслитель Абу Хамид Мухаммад ал-Газзолий (1058-1111 гг.) подчеркивает, что только человек не имеет о себе никаких знаний и не хочет этого знать. Профессор Л.Б.Наумов во второй половине XX века исследует проблемы развития профессионального мышления врачей как основы их профессиональной компетентности и приходит к заключению, что ни одна кафедра в вузе не обеспечит развитие профессионального мышления студентов.

Мы с 1986 года ведем исследование развитости педагогического мышления преподавателей СамГУ им. А.Навои, СФ ТУИТ, студентов педагогического факультета, на основе чего происходит развитие их деятельностной компетентности. Исследованием охвачено более 1200 студентов, магистров и преподавателей. Из опрошенных только 21% дали частично правильное определение понятия «мышление» и «педагогическое мышление». Они не знают особенностей педагогического мышления, что определяет их профессиональную компетентность.

Профессиональное мышление педагога, которое состоит из системы понятий, суждений и умозаключений – это такая интеллектуальная деятельность, которая предполагает отражения в сознании педагога закономерностей учебно воспитательного процесса, качественных изменений в сознании и поведении познающего и осознание взаимосвязей и отношений этих закономерностей для верных, практических выводов.

Профессиональное мышление образуется на основе сохраненных в памяти понятий, терминов, категорий, принципов каждой науки. На наш взгляд, каждый специалист должен знать хотя бы 50% терминов, понятий и категорий изучаемой дисциплины по их словарному толкованию. Эти знания при модульном обучении превращаются в умения, которые определяют способность.

Модульное обучение – это самая творческая, сложная и ответственная деятельность по производству новых психических качественных образований. В этом производстве познающая личность ищет, находит и воспринимает целевую информацию, сохраняет нужную ее часть в памяти, при помощи самостоятельно выполненных мыслительных операций, как анализ, сопоставление, типизация, синтезирование, умозаключение и начинает представлять и понимать

информацию. Только после этого данная, понятая информация, апробируясь на практике, постепенно превращается в умения и навыки, которые в совокупности образуют способности. Этими психическими процессами управляет педагог как организатор, менеджер, инженер, лидер.

Педагог учит познающего к самоуправлению этими психическими новообразованиями. Педагог сегодняшний и будущий – это профессионал, который на высоком уровне знает педагогику, кибернетику, философию образования, психологию, физиологию, математику, историю и культуру. В будущем будет развиваться новая отрасль педагогики – педагогическая кибернетика, которая органично вплетается в структуру теории, способов и методов достижения результативности обучения посредством модульного подхода.

Мировой опыт по совершенствованию образования свидетельствует, что решение проблем образования начинается с профессиональной подготовки педагогов. Без качественного роста педагогического профессионализма, как отмечает исследователь И.Г.Захарова, -мы будем обречены оставаться в прошлом [1].

В деле подготовки преподавателей к модульному обучению студентов важное значение имеет их знание таксономии Б. Блума. На первый взгляд категории Б.Блума кажутся доступными, лёгкими и понятными. На самом деле овладение преподавателями и студентами таксономией Б.Блума очень трудно, серьёзно, требует волевого системного напряжения восприятия, памяти, мышления, воображения. Тут помогут целеполагание, способности, характер.

Педагог согласно таксономии Блума накапливает информацию согласно цели обучения, обеспечит познающего способами овладения (восприятия) этой информации, сделает эту информацию достоянием памяти. Если цели обучения включают обеспечение понимания этой информации познающим, педагог создает все условия для понимания и осмысления этой информации студентом (организация самостоятельной реферативной работы, написание эссе, проведение операции «мозгового штурма», «ЗХУ», создание кластера, синквейна, двучастного дневника и т.д.).

Понятая информация может использоваться на практике. Это прямой выход на экономические результаты. Чтобы осмысленная информация превратилась в умения и навыки, которые образуют способность решать практические задачи, их неоднократно необходимо апробировать на модельные ситуации, решать ситуационные практические задачи. Превращение знаний в умения и навыки намного сложнее и труднее овладения этими знаниями.

Овладение информацией, ее понимание и реализация – это нормальный повседневный процесс. Богатство любого общества и сегодня и завтра – это нововведение, открытие нового, рождение новых идей. Этому важному процессу подготовки студентов к творчеству способствует педагог, который научит их анализу и синтезу, которые являются основными процессами практического профессионального мышления студентов.

Мы, изучая и анализируя таксономию Б.Блума, выявили то, что между категориями «знание» и «понимание» должна быть еще одна категория – «представление». На основе полученных знаний надо вызвать у студентов четкие, ясные, системные представления, которые помогут им улавливать причинно - следственные связи между предметами, явлениями, процессами, которые помогут осмыслению получаемой информации.

По категории «представление» мы выбрали десять глаголов действия, используя которых студент вызывает у себя такое представление, понимает сущность явления, увиденную форму заполняет содержанием.

Таким образом, педагог как субъект управления организует и руководит психическими качественными сдвигами во внутреннем мире развивающего специалиста возможно пришло время целенаправленной профессиональной подготовки психолога вуза, который бы вел координирующую роль в профессиональном становлении студентов, помогал бы преподавателям, студентам и руководящим органам в деле оптимизации профессиональной компетентности методом модульного обучения.

Модульное обучение успешно комбинируется с традиционной системой обучения, гуманизирует педагогический процесс в целом, т.е. коренным образом поднимает преподавателя и студента на качественно новый уровень взаимоотношений.

Обучающий (или учебный) модуль это логически завершенная, автономная единица содержания учебной дисциплины, включающая в себя информационный и деятельностный аспекты, усвоение которых должно завершаться соответствующей формой контроля знаний, умений, навыков, сформированных в результате овладения обучаемыми данным модулем. Эти

структурные и содержательные аспекты системы модульного обучения должен знать каждый преподаватель и уметь их использовать в своей творческой деятельности.

Составленный педагогом обучающий модуль состоит из:

- название модуля;
- интегрирующая дидактическая цель;
- целевой план действий учащихся;
- банк информации (собственно учебный материал в виде обучающей программы);
- методическое руководство по достижению целей;
- практические занятия по формированию необходимых умений;
- выходной контроль (контрольная работа, которая строго соответствует целям, поставленным в данном модуле).

Преподаватель, составляющий модуль обучения должен уметь жестко структурировать учебную информацию, содержание обучения и организацию работы обучающихся с полными, логически завершенными учебными блоками. В модуле нужно четко определить цели, задачи и уровни изучения темы, назвать умения и навыки, все заранее запрограммировать: не только последовательность изучения учебного материала, но и уровень его усвоения. Система контроля и оценки учебных достижений – рейтинговая; накопление рейтинга происходит в процессе текущего, промежуточного и заключительного контроля.

Обучающий модуль требует проблемную подачу материала, показа внутренних противоречий науки, техники, культуры, нравов. Акцент делается не на сообщение готовых знаний, а на побуждение студентов к размышлению, к самостоятельному поиску информации, к самостоятельным выводам и сообщениям, а также «перенос на себя», то есть апелляция к жизненному и речевому опыту студентов. Большое значение может сыграть и правильный подбор текстов для внеаудиторного чтения с учетом интересов, способностей и уровня подготовки студентов.


Другая особенность модульного обучения состоит в том, что педагог, читающий определенный предмет должен стремиться понять и знать особенности профессии, которой будет обладать студент и связывать живыми примерами свою дисциплину с особенностями этой профессии.

Модульный подход к обучению направлен на построение образовательных программ и требует от преподавателей и студентов приспособления к новым структурам образовательных программ и подходов к процессу обучения, что является одним из основ профессиональной компетентности. Это позволяет оперативно реагировать на потребности студентов, работодателей, рынка труда и плавно произвести изменения в содержании и структуре образовательных программ. Такие модули ориентированы на достижение запланированного результата обучения, т.е. компетентности.

Модули образовательных программ имеют свойства логической завершенности, где наблюдается относительная обособленность содержания модуля от остального учебного материала. Содержание этого блока информации связано с содержанием других блоков.

Использованная литература:

1. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании.-М.:2008 г.
2. Мусинов С.,Кубаев С.,Холмуродова Н. Компетентная подготовка педагогов вуза к модульному обучению студентов. Монография.Германия.-2017,-135 с.



МАЪНАВИЙ, МАДАНИЙ МЕРОСЛАРИМИЗ ОРҚАЛИ ЎҚУТИВЧИЛАР ҚАЛБИГА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗНИ СИНГДИРИШ

Н.Халматова-СамДУ ХХТХҚТУМОҲМ ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” талаблари асосида республикаимиз узлуксиз таълим тизимида амалга оширилаётган таълим-тарбия жараёнини такомиллаштириш ўқитувчисиз тасавур этиш мумкин эмас. Ўқитувчи бу- таълим жараёнининг ҳам субекти, ҳам ташкилотчисидир. Ўқитувчи- амалиётчиларнинг малака ошириш тизимини такомиллаштиришда таълимий ҳамда маънавий-маърифий қадриятларимизнинг

ўрни бекиёс. Бугун миллий кадриятларимиз ҳалқимизнинг миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда бош омиллардан бири бўлиб, хизмат қилмоқда. Жумладан, «Мустақиллик», «Наврўз», «Рўза ҳайити», «Қурбон ҳайити» каби миллий байрамларимизни кенг нишонлашимиз, барчамизга ўзлигимизни англашга ёрдам бермоқда. Шундай экан, миллий кадриятларимизни тикланишига ҳамда тарғибот қилинишига ижобий таъсир кўрсатаётган жараёнларни илмий ўрганиш, олинган натижаларни замонавий талаблар асосида ҳолисона таҳлил қилиш ва амалда қўллаш муҳим муаммолардан биридир. Бу борада, Президентимизнинг 2002 йил 24-октябрда «Ўзбекистон болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш тўғрисида»ги фармонида «...болаларда спортга меҳр ўйотиш, ўсиб келаётган ёш авлод онгида спорт билан шуғулланиш, соғлом турмуш тарзига амал қилиш, маънавий ва жисмоний камолга интилиш, уларни салбий таъсирдан ҳимоя қилиш, ҳамда зарарли одатлардан ҳолос этиш, болаларни барқарор феъл-атворли, ватанига меҳр-муҳаббат ва ўз мамлакати учун ғурур-ифтихор руҳида тарбиялаш борасидаги чора-тадбирлар комплексини амалга ошириш» деб алоҳида кўрсатма берилгани, бугунги замонавий талаблардандир. Ушбу илмий мақоламизнинг мақсади, кадриятларимизни тикланишига, уларни ҳалқимизга, айниқса болаларимизга, кенг тарғибот қилишда жисмоний маданият таълими жараёнларининг аҳамиятини ўрганишга қаратилган илмий тадқиқотларимизнинг натижаларини баён қилишдан иборат. Марказий Осиёда яшаб ўтган буюк мутафакирлар Ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Маҳмуд Паҳлавон, Амир Темур, Алишер Навоий, Абдулла Авлоний ва бошқалар бой тарихий, маънавий, маданий мерос қолдирганлар.

Айниқса Абу Али Ибн Синонинг буюк асари «Гиб қонунлари» да «Бадантарбия» илми хусусида ёзиб қолдирган илмий асосланган маълумотлари бугунги кунда ҳам инсониятга хизмат қилмоқда.

Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», достонида Фарҳоднинг куч-қўдрати буюк жасоратларни амалга оширишга ёрдам бергани, Амир Темур тузукларида ҳар бир инсон юксак жисмоний етуқликка эга бўлиши, бўларнинг барчаси инсоннинг жисмоний баркамоллигини таъминлашда хизмат қилувчи ғоялардир.

Республикаимиз миллий истиқлолни қўлга киритган дастлабки кунларданок таълим-тарбияни тубдан янгилашга эҳтиёж сезилди. Бу эҳтиёж мамлакатимизда жадал амалга оширилаётган таълим ислохотларининг юзага келишига замин яратди. Хусусан, аниқ мақсадларга йўналтирилган таълим-тарбия уйғунлигини таъминлаш замон талабларига айланиб бормоқда. Айни пайтда ҳалқимиз истиқболини белгилаб берувчи ёш авлодни билимдон мутахассис сифатида тарбиялашнинг самарали йўллари қидирилмоқда.

Жисмоний маданият таълим-тарбияси жараёнида Марказий Осиёда яшаб ижод этган буюк мутафакирларимизнинг бой маънавий, тарихий, маданий меросларидан ва ғоясидан фойдаланиб, миллий маданиятимизни ёшларга сингдириб бориш куннинг асосий талабларидан биридир.

Ҳаётимизга янги сўзлар, тушунчалар кириб келди. Уларнинг мазмун ва моҳиятини тушуниш, жамиятдаги воқеа ва ҳодисаларни тўғри англаш, баҳолаш фуқаролар дунёқараши ва маънавиятини янада шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Истиқлол ҳалқимиз ҳаётига сўз ва фикр эркинлиги билан бир қаторда илгари таъқиқлаб келинган кўпгина тушунчаларни қайтарди. Эндиликда «Кадриятлар», «Мустақиллик», «Истиқлол», «Миллий ифтихор» каби тушунчалар ўзининг асл мазмунига эга бўлмоқда. Миллий кадриятларимизни аслига келтириш ва ривожлантиришда ҳалқимизнинг кўп асрлик анъаналари, маданияти, урф-одати, миллий байрамлари, бой қадимий мероси ўзининг алоҳида ўрни ва аҳамиятига эга. Маданий ва маънавий меъросимиз, асрий анъаналаримиз авлод-аждодаларимиздан бизларга етиб келган, бугунги ҳаётимиз учун хизмат қилаётган энг катта маънавий бойлик, буюк хазинадир. Хўш миллий кадриятлар ўзи нима? – Уларни моҳияти, асосий жиҳатлари нимадан иборат? – Кадриятлар жуда сермазмун ва кўпқиррали тушунча бўлиб, у инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган табиат ва жамият ҳодисаларининг йиғиндисини ифодалайди. Кадриятлар ижтимоий хусусиятларга эга бўлиб, у кишиларнинг амалий фаолияти жараёнида шаклланади ва ривожланади. Кадриятлар кишиларнинг турли соҳалардаги, аввало ишлаб чиқариш, меҳнат соҳасидаги фаолияти учун фойда келтирган нарса ва ҳодисалар мажмуи билан боғлиқ равишда юзага келади. Аста секин инсон фаоллигининг орта бориши оқибатида нисбий мустақил соҳа сифатида амал қила бошлайди. Инсоннинг манфаатлари, эҳтиёжларини қондира олмаган, орзу истаклари, идеалларига мос келмайдиган табиат ва жамият ҳодисаларини кадрият деб ҳисоблаш нотўғридир. Миллий кадриятлар – мураккаб ижтимоий – руҳий ҳодиса бўлиб, у миллатнинг, тили, маданияти, тарихи, урф-одати, анъаналарини, жамики моддий ва маънавий бойликларини, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий


хаётининг барча томонларини камраб олди. Инсонинг қайси миллатга мансуб эканлиги ҳақидаги тасаввур фақат ғоягина эмас, балки туйғу ҳамдир. Бу туйғу кишиларда миллатнинг тарихи, руҳияти, ҳозирги ҳолати ва хусусиятини тушуниш, ҳис қилиш шаклида мужассамлашган бўлади.

Мустақилликка эришганимизда сўнг таълим-тарбия, одоб-ахлоқ масалаларида туб бурилиш даврида миллий кадриятларимиз ўз қадрини ростлади. Ёшларда миллий ифтихор, миллий ғурурни шакиллантириш ва мустаҳкамлашга алоҳида аҳамият берилди бошланди. Ҳозирги пайтда тараққиётимиз тақдирини маънавий жиҳатдан етук одамлар ҳал қилади. Ақлий заковат, руҳий, маънавий камолот инсофу-диёнат, мурувват, меҳр-оқибат – булар маърифатли, маънавиятли инсоннинг асосий фазилатидир. Ана шу фазилатларни ёшларимизда янада шакллантириш олимлар, зиёлилар, ўқитувчилар, тарбиячилар зиммасига юкланади.

Биз келажаги буюк давлат барпо этмоқчи эканмиз ҳар томонлама ривожланган, баркамол, ақлий, миллий кадриятларимизни ҳурмат қиладиган ва уларга тўла риоя қиладиган инсонни тарбиялаш зарур. Зеро мустақиллик – янги жамиятни шакллантириш, янги давлатни барпо этиш билан бирга таълим тарбияда янги жамият фуқароларини топишдек катта масъулиятни ҳам қўяди. Ана шу юксак вазифани ҳал этишда мустақилликнинг дастлабки кунларидаёқ ўтмиш маданиятимизга, кадриятимизга асосланиб, мустақиллик тамойиллари белгиланади. Миллий ва умуминсоний кадриятларимизга асосланиб, (мустақиллик тамойиллари) жамиятни янгилаш, тарихимиз, маънавий меросимизни тиклаш, тарбия масалаларини ҳал этишга жиддий киришилди. Халқнинг маданий кадриятлари маънавий мероси минг йиллар мобайнида шарқ халқлари учун қудратли маънавият манбаи бўлиб хизмат қилган.

Узоқ вақт давом этган қаттиқ мафкуравий тазйиққа қарамай Ўзбекистон халқи авлоддан авлодга ўтиб келган ўз тарихий ва маданий кадриятларни ҳамда ўзига хос анъаналарни сақлаб қолишга муваффақ бўлди.

Халқимиз сиёсий мустақилликка ва озодликни қўлга киритгач, ўз тақдирининг чинакам эгаси, ўз тарихини ижодкори, ўзига хос миллий маданиятнинг соҳибига айланди. Мустақиллигимизни дастлабки кунларидан аждоқларимиз томонидан кўп асрлар мобайнида яратиб келинган ғоят улкан, бебаҳо маънавий ва маданий меросни тиклаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган ниҳоятда муҳим вазифа бўлиб қолди. Биз маънавий кадриятларни тиклашни, миллий ўзликини англашнинг ўсишдан халқнинг маънавий сарчашмаларига, унинг илдизларига қайтишдан иборат узвий табиий жараён деб ҳисоблаймиз.



О'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Tashtemirova N.N. – Guliston davlat universiteti HXTXQTMOHM katta o'qituvchi
Mannabov J.T. – Samarqand davlat universiteti HXTXQTMOHM o'qituvchi,

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha “competence” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

O'qituvchining kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga

bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to'plami». A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.


Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

1. O'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi;

2. Har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulot o'yin, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollarini hisobga olish;

3. Pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish;

4. O'z ish o'rnini tashkil etish, zarur qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash, ularni berilgan talablar asosida yuritish.



ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА МАЪНАВИЙ ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ МУОММОЛАРИ

*Зиёдуллаев Х - СамМИ доценти
Муродова Ш - СамМИ ўқитувчиси
Саидова К - СамМИ ўқитувчиси*

Ёшларда илмий дунёқарашни шакллантириш табиат, ижтимоий жамият, тафаккур ҳамда шахс фаолияти мазмунининг ривожланиб боришини белгилаб берувчи диалектик қарашлар ва эътиқодлар тузилишидир. Унда ижтимоий – ғоявий, фалсафий, иқтисодий, табиий-илмий, маънавий-ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий ва экологик билимлар негизида шаклланган эътиқодлар намоён бўлади.

Илмий дунёқарашга эга бўлиш шахсга касб танлаш атроф муҳитга, ижтимоий муносабатлар, меҳнат фаолияти ва ишлаб чиқариш жараёни, субъектларга нисбатдан маълум муносабатнинг қарор топиши, шахс томонидан зиммасидаги ижтимоий бурчларнинг тўлақонли англаш ва уларнинг бажаришига эга бўлиш учун замин яратади. Ёш авлод илмий дунёқарашининг шаклланишида табиий, ижтимоий ва гуманитар асосларнинг улар томонидан пухта ўзлаштирилиши муҳим аҳамиятга эга. Шахснинг илмий дунёқарашига маънавий-ахлоқий қиёфаси, ҳаётий ёндашув ва қадриятлари, ахлоқий тамойиллар акс этади.

Маънавий ва илмий дунёқарашнинг бойиб бориши шахсий сифат ва фазилатини бойитади, барқарорлаштиради. Эзгу ғоялардан таркиб топган дунёқараш шахс ижобий фазилатлардан ташкил топган дунёқараш шахс ижобий фазилатларини бойитади. Дунёқараш уз моҳиятига кўра, илмий вафалсифий тизимга эга. Шахс илмий ва маънавий дунёқарашнинг шаклланишида ақлий тарбия муҳим ўрин тутди. Ақлий тарбия шахсга табиат ва жамият тараққиёти тўғрисидаги билимларни

бериш, унинг ақлий қобилияти, тафаккурини шакллантиришга йўналтирилган педагогик фаолият бўлиб, уни самарали йўлга қуйиш асосида дунёқараш шаклланади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида ёшларга ақлий тарбияни беришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни ва «Кадрлар таёрлаш Миллий дастури» мазмунига ҳам билимли, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрлар тарбиялаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири эканлигига урғу берилади. Малакали кадр булиб етишиш илмий, маънавий билимларни пухта эгалаш демакдир.

Ақлий тарбия ёшларни илм-фан, техника технология ҳамда ишлаб чиқариш соҳаларида қўлга киритган ютуқлар билан таништириш, уларда ижодий эркин, мустақил фикрлаш касб танлаш кўникмаларини ҳосил қилишга замин яратади.

Ақлий таълим ва тарбия бирлиги асосида шахсга тафаккур ақлий тафаккурнинг мавжуд даражасини белгилаш бир қадар мураккаб бўлиб, қуйидаги белгиларига кўра аниқланиши мумкин:

1. Илмий билимлар тизимининг мавжудлиги
2. Мавжуд илмий билимларни ўзлаштириб олиш жараёни
3. Фикрлаш қуникмасига эгаллик
4. Билимларни эгаллашга бўлган қизиқиш ҳамда эҳтиёжининг юзага келганлиги.

Ақлий тафаккур узоқ муддат ҳамда тинимсиз изланиш натижасида юзага келиб, унинг негизида илмий қараш ва этикод ётади. Ақлий тарбияни самарали ташкил этиш шахсда илмий тафаккурни ривожлантиради. Илмий тафаккур инсон ақлий фаолиятининг юксак шакли саналиб, ижтимоий воқеа ҳодиса ва жараёнларда илмий ёндашувни англайди.


Дунёқараш негизида акс этувчи ижтимоий – фалсафий, табиий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий, эстетик ва экологик билимларнинг такомиллашган кўриниши: муаян ғояга чексиз ишонч бўлиб, унинг шаклланиши бир неча босқичда кечади. Биринчи босқичга улар беқарор ва вазият тақозосига кўра, ўзгарувчанлик хусусиятини касб этади. Иккинчи босқичда маънавий – ахлоқий қарашларнинг барқарор тамойилларга айланади.

Шарқ мутафаккирлари ўз асарларида билим ҳамда инсон ақлий тафаккури масалаларига алоҳида ўрин берган. Масалан, Абу Наср Фаробий инсон томонидан борлиқни англаниши, табиат сирларини англаниши, табиат сирларини англанишида илм-фаннинг ролини ҳал қилувчи омил сифатида баҳолайди. Алломанинг фикрига, инсон танаси, мияси сезги органлари у туғилганида мавжуд бўлган бўлса, ақлий билимли, маънавийни, руҳиятини, интеллектуал ва ахлоқий сифатлари, характери, дини, урф-одатлари, маълумоти ташқи олам, ижтимоий муҳит таъсирида, ижтимоий муносабатлар жараёнида шаклланади.

Абу Наср Фаробийнинг этирофига, инсон билимларини ўзлаштирар экан, тирик мавжудотнинг яратилиш тарихигача булган маълумотларини қзлаштира олади, уларни яратади, илмий жиҳатдан асослайди.

Абу Райхон Беруний қуйидагиларни илгари суради: ташқи сифати ҳамда хусусиятлари ҳақида билим олмай, балки тафаккури, ақли туфайли нарса ва ҳодисаларни таққослайди, бир-бири билан солиштириб кўради, ўз билимларини чинлигини аниқлайди. Ёшларни касбга йўналтириш ва маънавий дунёқарашини шакллантиришнинг бир неча мақбул шакл, ва метод ва воситалари бўлиб, улар сифатига маънавий, ахлоқий, ижтимоий – ғоявий, иқтисодий, ҳуқуқий, эстетик ва экологик маъзуларида ташкил этилувчи суҳбатлар, баҳс-мунозалар, муаммоли вазиятларни яратиш асосида ёшларни фикрлашга ундовчи амалий тренинглари, дебатлар, мустақил ишлар, ишганлик ўйинлари самарали саналади.

Ёшларда илмий дунёқараш ва касб танлашда устувор ўрин тўтган мафкуравий ғоялар ва уларнинг моҳиятидан тўлақонли хабардор бўлиш ўзига хос аҳамиятга эга.



ЁШЛАРНИ ЎҚИТУВЧИЛИК КАСБИГА ЙЎНАЛТИРИШДА ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Қўчқорова О.А - СамМИ ўқитувчиси
Зийдуллаев Х - СамМИ доценти
Ибрагимова Д - СамМИ ўқитувчиси

«Метод» сўзининг юнонча таржимаси «тадқиқод» «усул» мақсадга эришиш йўли каби маъноларни англатади. Философия луғатида ушбу тушунча умумий тарзда «мақсадга эришиш усули» дея шарҳланади.

Таълим тарбия жараёнида ёшларни касбга йўналтиришда «таълим методлари дастлаб уларнинг онгида муаян йўналишдаги ёшларнинг умумлашма лойиҳаси тарзида намоён бўлади. Мазкур лойиҳа амалиётга ўқитувчи ва ўқувчилар фаолиятининг ўзаро туташуви, ўқитиш ва ўқишга қаратилган аниқ ҳаракатлар, амаллар ёки усуллар мажмуаси сифатида жорий этилади. Метод таълим тарбия жараёнида бошқа шаклларда намоён бўлмайди, бунинг боиси метод ўзида умумий ҳолда фаолиятнинг дидактик моделини ифода этади.

Таълим методлари таълим мақсади ва мазмунини ёритишга хизмат қилади, унинг ёрдамида Таълим мазмунини ўзгартириш йуллари ифода этилади, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро ҳаракати, хусусияти акс эттирилади. Метод биринчидан таълим мақсадига эришиш воситаси жараёнида намоён булса, иккинчидан таълим фаолиятини ва касбга йўналтиришнинг амалга ошириш шarti хисобланади.

Ёшларни касбга йўналтиришнинг таълим методлари қўйидаги асосий функцияларни бажаради; мотивацияли ривожлантирувчи, ташкилий таълимий тарбиявий.

Бу функциялар таълим методини қўллаш жараёнида бир-биридан ажратилган ҳолда ёки кетма-кет жорий этилмайди, аксинча, бир-бирига сингиб кетади.

Мисол учун ,ташхисли функция ўқитувчининг бир қатор методлардан яхлит фойдаланишнинг эвазига бажарилади.

«Таълим методи» тушунчаси билан бирга кўп ҳолларда «методик усул» (синонимлари – педагогик усул, дидактик усул) тушунчаси ҳам қўлланилади. Таълим методининг таркибий қисми унинг муҳим унсури методини жорий қилишдаги алоҳида қадам сифатида таърифланади. Хар бир таълим методи муайян таълим усуллари чатиштириш орқали ёшларни касбга йўналтириш аҳамиятини касб этади.

Таълим фаолиятида қўлланиладиган усулларни қўйидаги гуруҳга ажратиш мумкин; масалан ўрганиш, йул-йуриқ кўрсатиш, топшириқ бериш, намойиш орқали амалга оширилади.(2)

Таълим методларини танлаш қўйидаги мезонлар асосида аниқланади: дидактив мақсад асосида; таълиммазмуни асосида; ўқувчиларнинг ўқув қуникмаси асосида; ўқитувчининг тажрибаси ва касбий тайёргарлиги даражаси асосида.

Дидактик жараён тузилмасига кўра таълим методлари қўйидаги 3 гуруҳга ажратилади;

-Ўқиш ва меҳнатга рағбатлантирувчи ҳамда мотивлаштириш методлари;

-Ўқув билиш фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш методлари;

-Ўқув билиш фаолиятини бошқариш методлари


Таълим методлари тизимида муҳим ўрин тутадиган оғзаки баён қилиш методларининг ўзи ҳам қўйидаги турларга ажратилади; ҳикоя, суҳбат, тушунтириш, маъруза. Ҳикоя ўқитувчи томонидан мавзуга оид далил, ҳодиса ва воқеаларнинг яхлит ёки қисмларга бўлиб, тасвирлаш воситалар ёрдамида образли тасвирлаш йули билан ихчам, қисқа ва изчил баён қилиниши мумкин.(3)

Таълим тарбия жараёнида методнинг самараси кўп жихатдан ўқитувчининг нутқ ма ҳорати, сўзларни ўз ўрнида, ифодали баён қилиши, шунингдек, ўқувчиларнинг ёши ривожланиш даражасини инобатга олган ҳолда ёндошувга боғлиқ бўлади. Шу боис ҳикоя мазмуни ўқувчиларнинг мавжуд билимларига таяниши, уларни кенгайтиришга хизмат қилиши зарур.

Суҳбат методи фанга қадимдан маълум, хатто ундан ўз фаолиятида Сукрот ҳам моҳирона фойдаланган. Суҳбат таълим жараёнида кўп функциялар ақлий фикрлаш, касб танлаш, ҳозир жавоблик, мулоқот маданияти ва бошқа сифатларни шакллантиради, бажаради, аммо асосийси ўқувчида фаолликни юзага келтиради

Суҳбат кўпроқ ўқувчиларни янги билимлар, билимларни таништириш, билимларни тизимлаштириш ва мустаҳкамлаш, назоратни ташкил этиш ҳамда ўзлаштирилган билимларни

ташхислашга ижобий натижаларни беради. Сухбат турли кўринишларда яъни кириш якуний индивидуал ва гуруҳли сухбат тарзда ташкил этилади.



YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIVATINI YUKSALTIRISHDA ILMIY-MADANIY MEROSDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

H. Bekmirzayev, J. Tursunov, A. Shakarov – Samarqand pedagogika kolleji o'qituvchilari

Har bir xalq o'z o'tmishi, o'z tarixiga ega. Asrlar davomida kishilarning tinimsiz izlanishlari, fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissalarini tufayli hozirgi rivojlangan jamiyatda yashayapmiz. Dunyo fani rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, dunyohamjamiyatida tan olingan buyuk allomalar qatorida bizning avlodlarimizning nomlari ham ko'p takrorlanadi. Bu bejiz emas, albatta. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Qoziizoda Rumiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi o'nlab avlodlarimizning dunyo fani, madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi, bizga qoldirgan ma'naviy merosi biz uchun har doim dasturilamal bo'lmog'i lozim.

Ta'bir joizki, Xoja Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib va boshqalarning asarlarida ham dunyoviy bilimlar bilan birga mehnat tarbiyasiga, kasb-hunar o'rganishga oid fikrlar keng yoritilgan. Masalan, buyuk alloma Alisher Navoiy "Mahbub-ul-qulub" asarida muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanini ham sevishi zarurligini uqtiradi. Navoiy o'qituvchini jamiyatning eng obro'li va hurmatga loyiq a'zosi sifatida qadrlaydi, shogirdlar o'z muallimini hurmat qilishini va e'zozlashini uqtiradi.

Mustabid tuzum davrida o'zbek xalqining asrlar davomida yaratib kelgan milliy - ma'naviy qadriyatlarini toptab kelinishi oqibatida o'zbek xalqi o'tmish avlodlari uchun muqaddas bo'lgan va ularning mehnati bilan yaratilgan ma'haviv boylıklardan bahramand bo'lish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib keldi. O'tmishda yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar, san'at namunalari, milliy an'analar, urf-odatlar kamsitilishi bilan birga, ularni asrab-abaylash va kelajak avlodga etkazish turli yo'llar bilan bog'ib kelindi.

Jamiyatda yashaydigan har bir fuqaroning ongu tafakkuri sog'lom bo'lar ekan, bunday yurtda yashayotgan kishilarning milliy ma'naviy qadriyatlarga, adabiyotga, san'atga, mafkuraga bo'lgan qarashlari ham ijobiy tomonga o'zgaradi. Mustaqillikdan so'ng xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlarga e'tibori yanada yuksaldi. Milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarning yuksalishida, an'analarimizning shakllanishida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining ham o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun ham jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo'shgan ajdodlarimizning ma'naviy merosini yurtimiz kelajagi bo'lmish o'quvchi yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning lolzarb bazifalaridan biridir.

Ma'lumki o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan muhim kompetensiyalardan biri-umummadaniy kompetensiyadir. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabilar umummadaniy kompetensiyaning ko'rinishlaridir. Bu kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy omillari quyidagilar:

-o'qituvchi kasbiy intilishi, ta'sirchanligi, intellektual faolligi, maqsad sari intiluvchanligi, mehnatsevarligi, kamtarligi, oratorlik sifatiga, va pedagogik madaniyatga ega bo'lishi kerak;

-qadimiy an'analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu bilan birga, o'quvchilarimiz ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik va umuminsoniy fazilatlarni singdirish, xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylash hamda o'rganish maqsadida sayohatlar uyushtirish lozim.

O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiri, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy-madaniy markazlarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodlarning paydo bo'lishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandchilik va savdo sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor, nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand

shahrida o'tkazilgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi ro'li va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konfernsiyaning ochilish marosimida so'zlagan nutqida ana shu jihatlariga e'tibor berib shunday degan edi: "Bugungi kohferensiyaning maqsadi- O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va rolga baho berishdan iborat".

Bu ulug' allomalarning ilm-fan sohasiga baxshida etgan hayoti ular erishgan va bugungi kunda butun insoniyatni hayratga solib kelayotgan yutuqlari - bu hech shubhasiz, haqiqiy ma'naviy jasorat namunasidir. O'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari, ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, butun insoniyatning ma'naviy mulkidar. Ana shunday buyuk allomalarimizning boy ilmiy merosini, uning jahon hamjamiyatidagi ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirish yoshlarda g'urur – iftixor hislarini uyg'otibgina qolmay, ilm-fanga qiziqishlarina ham o'stiradi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

Birinchidan, uch ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqimizning ilmiy-madaniy merosi dunyo tamadduni taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rstganligini dalillar orqali tushuntirish:

Ikkinchidan, birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Qayerda tinchlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oily o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng muhimi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi", degan so'zlarining ma'nosini ochib berish:


Uchinchidan, Buyuk Ipak Yo'li, Ma'mun Akademiyasi, Bag'dod Akademiyasi, Ulug'bekning ilmiy maktabi Sharq xalqlari tarixida muhim o'rin tutganligini ko'rsatib berish:

To'rtinchidan, zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar: Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Mahmud Qoshg'aruy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa mutafakkirlarning merosi jahon ahamiyatiga molik bebaho boylik ekanini tushuntirib berish:

Beshinchidan, buyuk ajdodlarimizning bebaho asarlarini jahon mulkiga aylantirishda katta hissa qo'shgan xorijlik va mahalliy sharqshunos olimlarning xismlari haqida so'zlab berish:

Oltinchidan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan bebaho tarixiy silsila bundan buyon ham davom etajagi, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarning berayotgan samarasi haqida o'quvchilarga ma'lumot berish.

Aha shu maqsadlarni amalga oshirish uchun kollejlarda o'quvchilar allomalarimiz asarlarini, ularning hayot yollarini o'rganishlari lozim. Chunki, ularning asarlarida mehr-oqibat, axloq-odob, halollik, poklik, do'stlik, ota-ona va farzandlarning haq - huquqlari kabi barcha insoniy tuyg'ular, burch va vazifalar o'z ifodasini topgan. Kollejlarda ma'naviyat asoslari. odobnoma, adabiyot, xorijiy tillar va boshqa darslarni o'qitish jarayonida yuqorida qayd etilgan mana shu insoniy tuyg'ularni o'quvchilar ongiga singdirish o'qituvchi oldidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalardan biridir.



ABU NASR FOROBIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

*Azad Hasanovich Vaisov - Urdu HXTXQTMOHM
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi*

Millat, uning taraqqiyoti va kelajagi avvalambor yosh avlodning ta'lim tarbiyasi bilan bog'liq. Yer yuzida insonlar turli jamiyatlarga bo'linib yashar ekan, shu jamoa orasida bir – birlaridan xulq-atvori va aql-zakovati bilan ajralib turadilar. Shunday ekan jamiyatda yashayotgan insonlarning asosiy vazifasi yoshlarni komil inson qilib o'stirishdan iborat. Bu o'rinda, o'zbek xalqi ta'lim va tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratdi. O'zining boy ma'naviy merosi hamda ko'p yillik tajribalari asosida kelajak avlodni tarbiyalab, o'stirib kelmoqda.

Bizga ma'lumki, tarbiya - muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tamonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, bu ikkala tushunchalar qancha tarixiy bosqichni bosib o'tmasin, har bir davrda dolzarbligi bilan o'z qiymatini yo'qotmagan.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan, o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqqan "Muallimiy soniy" unvoniga sazovor bo'lgan buyuk mutaffakkir

Abu Nasr Forobiyning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim –tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. "Ta'lim – degan

soʻz insonga oʻqitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, maʼlum hunarni egallash uchun zarur boʻlgan xulq normalarini va amaliy malakalarni oʻrgatishdir.” - deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadi: «Taʼlim – degan soʻz xalqlar va shaharliklar oʻrtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar oʻrtasidagi tugʻma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan soʻzdir. Taʼlim faqat soʻz va oʻrgatish bilangina boʻladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, yaʼni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat boʻlgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan boʻlishi, oʻrganishidir»

Forobiy taʼlim tarbiyaga bagʻishlangan asarlarida taʼlim – tarbiyaning muhurligi, unda nimalarga eʼtibor berish zarurligi, taʼlim – tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv toʻgʻrisida», «Ixso – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql maʼnolari toʻgʻrisida» kabi asarlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari oʻz ifodasini topgan.

Forobiy oʻz ishlarida taʼlim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida taʼlim bergan boʻlsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda oʻz oʻrni va xususiyati bor ekanligini alohida taʼkidlaydi.

Forobiy «Baxt – saodatga erishuv toʻgʻrisida» asarida bilimlarni oʻrganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning taʼkidlashicha, avval bilish zarur boʻlgan ilm oʻrganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni oʻrgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni oʻrganish lozim. Undan soʻng, umuman, jonli tabiat oʻsimlik va hayvonlar haqidagi ilm oʻrganiladi, deydi.

Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga koʻra, u oʻz asarlarida insonga tarbiya va taʼlim berish zarurligini aytadi va bunda taʼlim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy oʻrinda boʻlishini taʼkidlaydi. Bunga erishish uchun esa, taʼlim-tarbiyada tabiiy hodisalaridan foydalanish va bu yoʻlda boshqa kishilar bilan toʻgʻri munosabatda boʻlib, jamiyatning ichki tartib-qoidalarini toʻgʻri oʻrganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni yetishtirish zarur deb hisoblaydi.

Bundan tashqari Forobiy taʼlim-tarbiya usullariga taʼrif berib, ular haqida shunday yozadi: “Amaliy fazilatlar va amaliy sanʼatlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yoʻl bilan hosil qilinadi: Birinchi yoʻl - qanoatbaxsh soʻzlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi soʻzlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi gʻayrat, kasb-intilish, harakatga aylantiriladi.


Ikkinchi yoʻl (yoki usul)-majbur etish yoʻlidir. Bu usul gapga koʻnmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatilardi. Chunki ular oʻz istaklaricha, soʻz bilan gʻayratga kiradiganlardan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni oʻrganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi boʻlib, kasb-hunarlarini va juzʼiy sanʼatlarni egallashga intilishi boʻlsa, bunday odamlarni majbur etmaslik, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahlarga aylantirishdir”. Bundan koʻrinib turadiki taʼlim va tarbiya berish jarayoni oʻquvchining hissiyotlari va xohish-istagidan kelib chiqadi, yaʼni ayrim toifadagi tarbiyalanuvchilarni toʻgʻri yoʻlga solish uchun ularni ilhomlantirish, aniqrogʻi oʻrganishga ishtiyoq uygʻotish, qaysar, gapga kirmas oʻquvchilarni biroz majburlash orqali toʻgʻri yoʻlga solish yaʼni ularni bilim oʻrganishga undash orqali kasb egasiga aylantirishdir.

Bu jarayonlarni amalga oshirish vazifasini esa pedagog oʻqituvchiga yuklaydi. Tarbiya jarayoni oʻqituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va maʼlum maqsadlarga yoʻnaltirilishi lozim, chunki har bir odam baxtni va narsa-hodisalarni oʻzicha bila olmaydi. Unga uning uchun oʻqituvchi lozim deb hisoblaydi.

Forobiyning oʻz davri yoshlari uchun aytilgan fikrlarining qadri hozirda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Bu ulkan maʼnaviy merosdan biz pedagoglar samarali foydalanishimiz va yosh avlodga yetkazishimiz darkor.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. – T.:Maʼnaviyat,2008
2. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: 2005.
3. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: “Sharq”, 2000.



АМАЛИЙ ФАНЛАР ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАЪНАВИЙ- МАЪРИФИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Салимжон Сабиржанович Таджибаев - Андижон Давлат
Университети ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ катта ўқитувчиси*

**Ўқитувчининг малакаси ёшларнинг ақл-заковати,
камолотини белгилайди. Айниқса, муаллим ўз маҳоратини
оширишдан, ўз устида ишлашдан тўхтамаслиги айни муддаодир.**

Ш.М.Мирзиёев.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Фармони билан қабул қилинган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш, бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган.

Мураккаб, машаққатли, қутилмаган ҳолатларга бой, аммо жамиятнинг зарурий эҳтиёжи ҳисобланган таълим-тарбия тизимини янгича кўриниш ва янгича мазмунда амалга ошириш, дарс жараёнида инновацион педагогик ва ахборот технологияларни самарали қўллаш орқали таълим самарадорлигига эришиш давр талабидир. Таълим муассасаси ўқитувчиси ўз ҳаётида шахсий, ижтимоий, иқтисодий ва касбий муносабатларга киришиши, дуч келадиган муаммоларнинг ечимини ҳал этиши, энг муҳими ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўлишини таъминлашда асосан педагог кадрлар салоҳияти ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Демак, жамиятдаги барча янгилинишларни уйғунлаштириш учун шахсий етуқлик билан бирга, касбий компетентлик ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Инсон ҳаётига кириб келадиган ҳар қандай янгилик унда сергакликни, ҳаттоки норозиликни уйғотади. Шунга кўра, узоқ йиллар давомида анъанавий усуллар билан ишлаб келган педагоглар бугунги куннинг ўзидаёқ такомиллаштирилган Давлат таълим стандартлари асосидаги ўқув жараёни талаб даражасида ташкил эта олмайдилар. Бунинг асосий сабабларидан бири, уларда касбий компетенциянинг тўлиқ шаклланимаганлигидир.

Касбий компетенцияни шаклланиш босқичлари:

1. Ўз-ўзини таҳлил қилиш ва зарур нарсаларни англаш.
2. Ўзини ривожлантиришни режалаштириш мақсад, вазифа белгилаш.
3. Ўзини намоён этиш ва камчиликларини тузатиш.

“Кадрлар тайёрлаш миллий Дастури”да таъкидланганидек, замонавий таълим-тарбия ишларини давлат стандартлари даражасига кўтариш учун малака ошириш тизимида замонавий таълим технологияларини жорий этиш давр талаби бўлиб қолмоқда.

Шу маънода, юртимизнинг ҳар томонлама тараққий этиши, юксалишида илм-фаннинг, хусусан, амалий фанларнинг роли беқиёс даражада каттадир. Таълим-тарбия жараёнида амалий фанларни ўқитиш жараёнида уларнинг назарий, педагогик ва психологик жиҳатлари билан узвий боғлаган ҳолда янада такомиллаштириб бориш орқали таълим-тарбия тизимининг барча бўғинларида сифат ўзгаришларига эришиш мумкин.

2016 йил 30 декабрда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг бир гуруҳ олимлар, илм-фан вакиллари билан бўлган учрашувида таъкидлаб айтдики: “Ёш авлодни салоҳиятли кадрлар этиб тарбиялашдаги биринчи босқич – мактаб таълимини тубдан такомиллаштириш, илмий кадрлар ва юксак малакали мутахассислар тайёрлаш жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш зарур. Бу йўлда ҳеч нарсани аямаймиз.”

Жамиятимизнинг барқарор ривожланишида, хусусан таълимда эришилаётган ютуқларда малака ошириш тизимининг ҳам ўз улуши бор.


Амалий фанлар ўқитувчиларининг маънавий- маърифий тайёргарлигини оширишда улар билан турли маънавий-маърифий учрашувлар, экскурсия ва кўргазмалар мунтазам ташкил этиб борилиши зарур.

Хусусан, Андижон Давлат Университети ҳузуридаги ХТХҚТМОХМнинг “Амалий фанлар ва мактабдан ташқари таълим методикаси” кафедраси профессор- ўқитувчилари томонидан тингловчилар учун тасвирий санъат, мусиқа маданияти, амалий санъат ва спорт соҳасида Республика ва Жаҳон миқёсида юксак даражага эришган инсонлар билан мунтазам учрашувлар,

давра суҳбатлари ташкил этилади. Шу билан бир қаторда амалий фанлар бўйича малака ошираётган тингловчилар ҳам ўзларининг ижодий кўргазмалари, бадиий ва амалий спорт чиқишларини марказ тингловчиларига намойиш этадилар.

Ўтказиладиган мана шундай тадбирлар орқали ўқитувчилар ўзларининг касбий компетенцияларини такомиллаштириш баробарида, бир бирларидан турли услуб ва методларни ўзлаштирадидилар, ҳамда ўзларининг педагогик фаолиятларида қўллашга ҳаракат қиладилар.

Ўқитувчининг компетенция пирамидаси



Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, хулоса қиладиган бўлсак, ўқитувчиларнинг касбий компетенциясини такомиллаштириш малака ошириш тизимида фаолият юритаётган ҳар бир мутахассиснинг биринчи галдаги вазифаси бўлмоғи лозим.



ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI INSONIY FAZILATLARNI YUKSALTIRISH

*Laylo Sufijonova-Andijon viloyati Marhamat tumani
7-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

Ta'lim - o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta'lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar faqatgina sinfdan o'qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, axborot-kutubxona muassasalarida va albatta oilada mustaqil tarzda shug'ullanish orqali egallanadi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar tez-tez qulog'imizga chalinib turadi. Xo'sh, bugun har bir o'quvchi yoki kitobxon ushbu "madaniyat" me'yorlariga amal qilyaptimi? "Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. Boisi bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatimiz yoshlari maktab darsliklari, shahar kutubxonalaridan ko'ra Internet va mobil kutubxonalardan kengroq foydalanishmoqda. Bu qaysidir ma'noda kitobxonga qulaydir. Ammo, bu kitobxonlik yoshlarimizni kitobdan uzoqlashtirib yuborayotgandek, nazarimda.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasini

ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Talantli kitobxonni tarbiyalashning ilk bosqichi esa maktab davriga to'g'ri keladi.

Maktabda adabiyot darlarini o'qitish jarayonida turli-tuman o'zbek va jahon adabiyoti namunalari kitobxon e'tiboriga havola etamiz. Sir emaski, aksariyat berilayotgan asarlar parcha holida beriladi. Shu mavzuda hamkasblar fikrini eshitsak ular bundan norozidek tuyiladi. Asarning parcha holida berilishi tabiiy holat, chunki asar uchun ajratilgan vaqt shuni talab etadi. Ammo, mohir pedagog bundan imkoiyat sifatida foydalanishi lozim.


Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini paydo qiladi. Ma'lumki, kitobxonni avvalo kitobda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Asta-sekin bu qiziqish uning hissiyotiga ta'sir etib, tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslay boshlaydi, tasvirlardagi go'zallikni anglay boshlaydi, qahramonlarning xarakteri haqida o'ylay boshlaydi, muallifning maqsadi bilan qiziqadi. Faqat bu borada biz kitob vositasida tarbiyalashning yangi usul va mexanizmlarini yaratishimiz lozim.

Agar bola uchun kitob to'g'ri tanlangan bo'lsa u faqatgina insoniy fazilatlarni yuksalishi uchun xizmat qiladi. Bolani to'g'ri so'z, mehribon, oqko'ngil, saxiy, dovyurak va albatta yovuzlikka qarshi kurashuvchi qilib tarbiyalaydi.

Haqiqatdan ham adabiyotning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati beqiyos. Asrlar mobaynida shakllangan, avlodlardan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan o'zbek adabiyoti milliy g'oyamizni yoshlar ongiga singdirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. SHu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvarda imzolangan — “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi hamda 2017 yil 13 sentyabrdagi — “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi PQ-3271-sonli qarori ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir. Ushbu farmoyish va qarorda yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligi qayd etilgan. SHuningdek, chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda etkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga etkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagani alohida ko'rsatilgan. Bu bejiz emas. Nega deganda, globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun jahondagi ko'pgina bosma nashrlarning adadi kamayib, ularning onlayn versiyasi ko'proq o'qilmoqda.

Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir». SHu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Shunday ekan biz bugun barkamol avlodni voyaga yetkazmoq uchun ularni kitob bilan oshno qilishimiz, kitobni mayoq qilib qo'llariga tutqazishimiz lozim. Qalb tarbiyasini esa, biz kattalar o'zimizdan boshlashimiz kerak. Shundagina biz haqiqiy kitobxonlarni tarbiyalagan bo'lamiz. Bu orqali esa o'quvchilarni ma'naviy boy, dunyoqarashi keng, insoniy fazilatlar egasi, haqiqiy Vatanparvar qilib yetishtirishimiz mumkin bo'ladi.



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

*Элдорбек Абдурасулович Ўринбоев-Андижон Давлат
Университети ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ ўқитувчиси*

Мустақиллик йилларининг ilk кунларидан бошлаб юртбошимиз томонидан спортга катта эътибор берилмоқда. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 1992

йил 14 январда “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2002 йил 24 октябрдаги ПФ-3154-сонли “Ўзбекистонда болалар спортни ривожлантириш жамғармасини тузиш” тўғрисидаги фармони, ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3-июнь, ПҚ-3031-сонли «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ва Халқ таълими вазирлигининг 2017 йил 3 июндаги 189-сонли буйруғи Ўзбекистонда спортни ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Бу эса биз жисмоний тарбия ўқитувчилари ва мураббийлар зиммасига янада кўпроқ маъсулият юклайди.

Жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳолининг, айниқса ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабларига мос шарт-шароитлар яратиш, спорт мусобақалари орқали ёшларда ўз иродаси, кучи ва имкониятларига бўлган ишончни мустаҳкамлаш, мардлик ва ватанпарварлик, она Ватанга садоқат туйғуларини камол топтириш, шунингдек, ёшлар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ишларини тизимли ташкиллаштириш ҳамда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантиришга йўналтирилган кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Юртимиз вакилларининг Олимпия ўйинлари, жаҳон чемпионатлари, Осиё ўйинлари ва чемпионатлари ҳамда халқаро мусобақаларда юксак натижаларга эришаётгани, дунёда Ўзбекистоннинг обрў-эътибори ва спорт салоҳияти янада ошаётгани, Республикамиз ҳудудларида жаҳон андозаларига мос муҳташам спорт иншоотлари барпо этилаётгани, ўқувчи ва талаба ёшлар ўртасида уч босқичдан иборат «Умид ниҳоллари», «Баркамол авлод» ва «Универсиада» спорт ўйинлари оммалашиб бораётгани айниқса эътиборлидир.

Шу билан бирга, мамлакатимизнинг барча ҳудудларида оммавий спортнинг инсон ва оила ҳаётидаги муҳим аҳамияти, унинг жисмоний ва маънавий соғломликнинг асоси эканини тарғиб-ташвиқ қилиш, ҳаётга катта умид билан кириб келаётган ёшларни зарарли одатлардан асраш, уларга ўз қобилият ва истеъодларини рўёбга чиқаришлари учун зарур шарт-шароитлар яратиш, улар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ҳамда мақсадли тайёрлаш тизимини такомиллаштириш борасида муҳим ва долзарб вазифалар турибди. Бу ишларни амалга оширишда жисмоний тарбия ўқитувчилари ва спорт мураббийларига ўзига хос вазифаларни юклайди:

Ўқитувчиларнинг ўқувчилар ўртасидаги муносабати ;

Ўқитувчининг руҳий ҳолати;

Ўргатиладиган мавзунинг муҳим даражаси (мақсади, вазифаси, эришиладиган натижа);

Шу ўринда жисмоний тарбия фанини асосчиларидан бири П.Ф.Лесгафт фикрича жисмоний тарбия машғулотларини ўқитувчи тушунтириши орқали ташкил этишнинг тарафдори бўлган. Шахсий намуна сифатида кўрсатиб беришни маъқулламаган. Тарбияланувчи фикр юритмайдиган, механик тарзда бажарадиган бўлиб қолади деб санаган. Ўша давр олимларининг берган фикрига кўра ўқитувчи билганини ҳам кўрсатиб маъно мазмунини тушунтириб беришни исботламоқчи бўлган. Замонавий ўқитиш тизимининг педагогик технология ўз моҳиятига кўра субъектив хусусиятга эга бўлиб, яъни:

- педагогик фаолият (таълим-тарбия жараёни)нинг самарадорлигини ошириши;

- ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро ҳамкорликни қарор топтириши;

- ўқувчилар томонидан ўқув предметлари бўйича пўхта билимларнинг эгалланишини таъминлаши;

- ўқувчиларда мустақил, эркин ва ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантириши;

- ўқувчиларнинг ўз имкониятларини рўёбга чиқара олишлари учун зарур шарт-шароитларни яратиши;

- педагогик жараёнда демократик ва инсонпарварлик ғояларининг устуворлигига эришишни кафолатлаши зарур. Масалан: Жисмоний тарбия дарслик ва журналлар билан ишлаётганда педагогик технологиянинг мана бу методидан фойдаланиш тавсия этилади.

“Ажурли арра” методи

“Ажурли арра” методи тузилиш жиҳатдан ўзида қуйидаги босқичларни қамраб олади. Жисмоний тарбия фанида назарий маълумотларни тезлик билан етказиб беришга хизмат қилади (Енгил атлетика бўлимлари ҳақида)

1. Топшириқни бўлиш. Топшириқ ва матнли материаллар бир нечта асосий қисмларга (ёки мавзуларга) киритилади. (юриш, югуриш, сакраш, улоқтириш, кўпкураш)

2. Эксперт гуруҳлар. Қўлида бир мавзуга оид ўқув топшириқлари мавжуд бўлган талаблар мавзуни муҳокама қилиш, бошқаларга ўргатиш режасини эгаллаш учун эксперт гуруҳга бирлашадилар. (Ҳар бир инвертар ва меъёрлари ҳақида ҳужжат бўлиши керак)

3. Бирламчи гуруҳлар. Ўқувчилар ўзларининг бирламчи гуруҳларига қайтадилар ва эксперт гуруҳларда ўрганганларини ўқитишади. (Мустақил ўзларининг тили билан ўргатади)

“Ажурли арра” методи моҳиятига аниқлик киритиш учун баъзи бир тавсияларни ёритиш лозим.

1. Ўқитиш жараёнида ҳамкорликка ишлашига ва қисқа вақт ичида катта ҳажмдаги ахборотларни ўзлаштиришларига имкон яратилади.

2. У ёки бу фаолиятни дарсда амалга ошириш учун ўқувчиларга бошланғич ахборотларни узатиш зарурияти туғилса, маъруза ўрнини боса оладиган самарали инструментарий ҳисобланади.

3. Ўқитувчи мураккаб мазмунли мавзулар бўйича ўқувчиларни дарсга тайёрлаш учун олдиндан уларнинг ҳар бирига мўлжалланган алоҳида ахборотли пакет тайёрлайди. Унда дарсликдан, қўшимча тарзда газета, журнал, мақолалардан материаллар бўлиши керак.

4. Ҳар бир ўқувчи 2 гуруҳ таркибида иштирок этади: дастлаб “ўз уйи” (бирламчи) гуруҳига, кейин эса “эксперт гуруҳига бирлашиб, ўқув элементларини мустақил ўрганишади. Эксперт гуруҳини тезда ташкил этиш учун ўқувчилар олган ахборотли пакетларда ҳар бир мавзуга оид материаллар бир хил рангдаги қоғозларга ёзилган ёки рангли қалам билан қоғознинг бирон-бир бурчаги бўялгани маъқул.

5. Ҳар бир гуруҳда 3 тадан 5 тагача тингловчи (тингловчиларнинг сонига қараб) бўлиши мумкин. Ҳар бир тингловчи “ўз уйи” дагиларни қайта учрашиш жойини аниқлаб олиши керак.

6. Ўқитувчи тингловчиларни “рангли” топшириқлар асосида гуруҳга бирлаштиришни таклиф этади ва улар алоҳида мавзулар бўйича экспертга айланади. Мисол учун, “қизил”ларни аудитория хонаси охирида, “кўк”ларни эса мактаб йўлакчасида учрашиш белгиланади. Ҳар бир эксперт гуруҳда 3 тадан кам ўқувчи бўлмаслиги керак.

7. Гуруҳларга ахборотли пакет тарқатилади. Ҳар қайси гуруҳ турли хил материаллар тўпламини олишлари ва уларни ўқиши, муҳокама қилиши, айнан шу ахборотлар бўйича экспертга айланиши лозим, ўқув материаллари тўпламини олишлари ва уларни ўқиши, муҳокама қилиши, айнан шу ахборотлар бўйича “эксперт” бўлиши учун ўқувчиларда вақт етарли бўлиши керак. Бу учун агар материаллар мураккаб ва катта бўлса, эҳтимол, бир дарс тўлиқ талаб қилинади.

8. Тингловчиларга қуйидаги топшириқлар берилади:

- пакетдаги материалларни кунт билан ўрганинг ва муҳокама қилинг;


- бир-бирингиздан сўранг ва ўқув материалларини ҳар бирингиз тушуниб олганингизга ишонч ҳосил қилинг;

- ўз “уйингиз” гуруҳини ўқитиш зарурлигини ҳисобга олиб, материалларнинг муҳим ўқув элементларига эътиборни қаратинг:

9. Тингловчиларнинг ўз “уйларига” қайтишларини илтимос қилинг. Ҳар бири ўз “уйи”-гуруҳига ахборот беради. Шаксиз, “уй” гуруҳида эксперт гуруҳларидан биттадан ўқувчи бўлиши шарт, тингловчи ўрганиб келган материалларни ўз гуруҳи тингловчиларига ўргатиш жавобгарлигини бўйнига қараб яна бир соат давом этиши мумкин.

10. Ўқувчилар бир-бирларидан ахборотларни ўрганишиб бўлишгач, ўқитувчи олдиндан режалаштирилган фаолият турини ўтказиши мумкин.

Бу машғулот олдиндан билган ва фаолиятида фойдаланиб келаётган тингловчиларда ўргатиш ва мустақамлаш тизимини тезлик билан янгиликларни гуруҳда ўргатиш ҳиссини оширади.



XXI АСР – ЗАМОНАВИЙ ТАРИХ ЎҚИТУВЧИСИ

*Н.М. Ҳасанова-АВХТҲҚТВУМОҲМИжтимоий-иқтисодий
фанлар методикаси кафедраси ўқитувчиси*

**Энг аҳамиятли вазифа ёш авлодга пухта билим бериш,
уларни руҳий етук инсон қилиб тарбиялашдир**

Ш. Мирзиёев

Мамлакатимиз ўз тараққиётининг янги даврига қадам қўйган ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича

Ҳаракатлар стратегияси асосида барча соҳаларда кенг кўламли ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бу борада таълим соҳасида ҳам янгиланиш жараёнлари юз бермоқда.

Таъкидлаш зарурки ислохотларнинг муваффақияти, мамлакатнинг дунёда ривожланган, замонавий давлатлар қаторидан муносиб ўрин эгаллаши энг аввало таълим - тараққиёти ривожин билан боғлиқ.

Шу боис ҳам илм – фан, таълим – тарбия жараёнлари самарали ташкил этишда кўплаб ўзгаришларга туртки бўлган, ўтган давр мобайнида Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасининг бевосита таълим-тарбия соҳасига дахлдор 70 дан зиёд фармони, қарор ва фармойиши қабул қилиниб, амалга оширилмоқда.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев таълим – тарбиянинг бугунги кундаги долзарб аҳамияти юқори эканлиги ҳақида тўхталиб, “...бугунги кунда шиддат билан ўзгариб бораётган ҳаёт олдимишга кўяётган бир-бирдан мураккаб ва муҳим масалаларни ҳал қилиш ҳақида ўйлар эканмиз, уларнинг ечими айнан таълим-тарбия билан, ёшларнинг дунёқарабини замонавий билим, юксак маънавият ва маърифат асосида шакллантириш билан боғлиқ”. дея таъкидладилар.

Дарҳақиқат таълим-тарбия тизимини қанчалик ислоҳ қилинса, эътибор қаратилса, мамлакат тараққиёти шунчалик юқорилаб боради. Чунки мамлакатни келажаги, шу юртда таълим-тарбия топаётган ёш авлоднинг қанчалик эгаллаган билим ва малакасига, олган билимларини эса ҳаётга тадбиқ эта олишидадир. Бунда асосий вазифани амалга оширишда уларга таълим-тарбия бераётган ўқитувчи-мураббийларнинг қанчалик маҳоратига боғлиқдир.

Ўқитувчининг касбий маҳорати эса, энг аввало, ўқувчи ёшларни ўқитиш, уларга билим бериш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш, моҳирона ўқув тарбияда, шахснинг баркамоллиги, дунёқараши, қобилиятини ривожлантиришга қаратилган жараёндир.

Шу боис ҳам Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сонли “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида узлуксиз таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга киришилди. Мазкур Қарорда белгиланганидек педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими самарадорлигини янада такомиллаштириш, уларнинг касбий компетентлигини 1 доимий ривожлантириш мақсадида бир қатор долзарб вазифалар белгилаб берилди.

Ўқитувчи – аввало жамиятнинг ёш авлод таълим-тарбиясига қўйган ижтимоий буюртмасининг асосий ижрочисидир. Шу билан бирга касбий маҳоратга эга, кўплаб ўзида турли компетенцияларни² шакллантира олган замонавий педагог ҳамдир³.

Демак юқоридагилардан кўриниб турибдики, таълим сифатини оширишда ўқитувчининг ўрни беқиёсдир.

Шу жумладан келажагимиз эгаси бўлган ёшларни тарбиялашда, уларнинг дунёқарабини шакллантиришда ҳам ўзини ўзлигини, кадр қимматини, ҳуқуқ ва эркинликларини, ўтмиши ва бугунги кунини объектив ҳолатда астойдил тушуниш, солиштириш ва таққослаш асосида тўғри баҳолаш натижасида вужудга келадиган тасаввур ва хулосаларига эга бўлишида, тарих фани ўқитувчилари ҳам алоҳида ўринга эгадирлар.

Сабаби тарихини пухта ўрганган, тарихий хотирасига эга, ўтмишини унутмаган инсонда, кечаги кунидан етарлича сабоқ, фахр ва ибрат туйғулари билан бирга, эртанги кунини учун тузилган режа ва андозалар ҳам бор бўлади албатта. Зеро улуг алломаларимиз ҳам ёзиб қолдирганидек, ...тарих инсонни истикболга даъват этади, зотан, унинг мураббийлик, тарбиячилик, йўналтирувчилик кучи ҳам худди ана шунда.

¹ **Касбий компетентлик** – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллаш олиниши.

² **Компетенция** (лот. “competere” — дойиқ, мос, мувофиқ, яроқли деган маънони англатади) – билим, амалий кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётда дуч келадиган амалий ва назарий масалаларни ечишда фойдаланиш ва қўллаш олиш қобилиятидир.

³ **Компетентлик** (лот. “competens” – лаёқатли, қобилиятли шахс) муайян бир ҳолат хусусида тўғри мулоҳаза юритишга имкон берадиган билимга эга бўлиш, далил-исботли фикр, кишининг муайян соҳадаги савиясини ифода этадиган атама.

Шу боис ўқувчи ёшларнинг тарих фанини аниқ ва тўлақонли ўзлаштириши учун бугун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларида фойдаланиш, янги инновацион технологияларини қўллаш олиш, дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуалстентлар, кўргазли воситалардан фойдаланган ҳолда дарсларни тўғри ташкил этиш зарурати кундан-кунга фаоллашмоқда.

Бу албатта ҳар қанақа замонавий инновацион ўқитишнинг илғор ғояларидан тарих ўқитувчиси ҳам хабардор бўлиши керак деганидир.

Ҳозирда таълим сифатини оширишда бирдек маъсулятга эга замонавий тарих ўқитувчиси ўз фанини мукамал билиши билан бирга, қўйидаги алоҳида сифатларга ҳам эга бўлиши талаб этилмоқда.

Энг аввало шахсий имиджга эга бўлиши, замонавий Ахборот коммуникацион технологиялардан фойдалана олиши, бир неча хорижий тилларни билиши, замонавий инновацион ғояларга ва юксак педагогик маҳоратга эга бўлиши, ҳукумат томонидан чиқарилаётган барча ҳуқуқий меъёрий ҳужжатларни ўрганиб бориши зарур.

Бугун замонавий ўқитиш тизимида янгиликлар талайгина, илм-фан қўплаб ютуқларга эришмоқда, ахборот қўлами кенгаймоқда, ривожланиш тобора такомиллашмоқда, бу албатта жамиятнинг бир бўлаги ўқитувчига ҳам қўплаб маъсулият юклямоқда, шу билан бирга қўплаб қулайликлар ҳам яратмоқда. Улардан талаб этилаётган бирдан бир вазифа ва тўғри танлов, кўпроқ изланиш, ўқиб ўрганиш, ҳар қандай янгиликларга тўғри ёндашиб, таҳлил қилиш керакдир. Зеро француз файласуфи Дени Дидро сўзлари билан айтганда “Инсон ўқишдан, изланишдан тўхтаб экан, фикрлашдан ҳам тўхтаб қолади”.

Хулоса қилиб, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов сўзлари билан айтганда, “Шуни унутмаслик керакки, келажагимиз пойдевори, билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда халқимизнинг эртанги қуни таълим ва тарбияга боғлиқдир”.

KOMPETENSIYAVIY MAQSADGA ERISHISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI

*Go'zalxon Egamberdiyeva-Namangan viloyati
Mingbuloq tumani 45-maktab o'qituvchisi*

O'zbekiston ta'lim taraqqiyoti yillar davomida yuksalish sari odimlab bormoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'sib kelayotgan yosh avlodning hayotda o'z o'rnini topishiga, yoshlardagi mavjud qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishga, jamiyatda mustaqil fikrlovchi, zamonaviy dunyoqarashga ega, milliy o'zligini anglagan, vatanparvarlik, milliy g'urur kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „Yoshlarimizning mustaqil fikrleydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.“ deya ta'lim sohasiga berayotgan e'tiborlari, shuningdek, 2018-yilni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili“ deb e'lon qilishlari ham zamonaviy, innovatsion texnologiyalarni raqobat darajasida rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Ayniqsa, 2017-yil 6-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qarorining qabul qilinishi, Davlat ta'lim standartidagi o'zgarishlar buning yorqin dalilidir. Ayni payta boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etilayotgani ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib bormoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi globallashuv va axborotlashuv zamonida yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz va jahon madaniyati yutuqlari asosida dunyo yoshlari bilan tenglasha oladigan, hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarni yaxshi va yomonini ajrata oladigan etib tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz zarur tayanch kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Bu hayotiy kompetensiyalar esa ta'lim- tarbiya jarayonida shakllantirib boriladi.

Bizga ma'lumki Davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'limning malaka talablariga bilim, ko'nikma, malaka bilan birga kompetensiyaviy talablar ham qo'shilgan bo'lib, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning maqsadi egallangan bilim, konikma, malakalarni o'z shaxsiy hayotida

qo'llay oladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishga qaratilgandir.

Maqsadlar amalga oshirishida, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan pedagogik faoliyatini innovatsiyon loyihalar asosida, ya'ni interfaol metodlar, multimediyali elektron dasturlar, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borishni talab etadi. Buning uchun pedagogdan ijodkorlik, kuchli mahorat, mehnat talab etiladi. Darslar jarayonida samaradorlikka erishishda faqatgina tayyor metod yoki multimediyalardan foydalanish emas, balki, o'qituvchi o'zi ham yangi elektron darsliklar yaratishi, yangiliklar olib kirishi, zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, mavzularga oid hayotiy tushunchalar berishi, kerak bo'lsa ko'rsatish, bajartirish lozim. Masalan, o'qish, ona tili, matematika, tabiat fanida fasl, tabiat, mehnat turlariga oid mavzularda o'quvchilarni tabiatga olib chiqish, bog'bon, dehqonlar mehnatini o'z ko'zlari bilan ko'rsatish, birga mehnat jarayonlarida ishtirok etib ko'rish kabi amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash muhimdir. Shunda bola faqat eshitib, o'qish bilan chegaralanmay bevosita o'zi bajarib ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda kompetensiyaviy bilimga ega bo'lgan o'quvchi nafaqat ma'lum darajadagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallaydi, balki ularni hayotga qo'llay oladi, uchraydigan muammolarni mustaqil hal qiladi, turli vazifalarni ota-ona ko'magisiz ham bajara oladi, ya'ni intellektual bo'ladi. Bunda barcha fanlardagi tayanch kompetensiyalar yig'indisi yordam beradi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda, ya'ni o'quvchilarda kompetensiyaviy qobiliyatlarni shakllantirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisiga quyidagi talablarni bajarish tavsiya etiladi:

-boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zaro tajriba almashishlari va yangi zamonaviy metodlar bilan uzluksiz tanishib borishi ;

-bugungi kun zamonaviy o'qituvchisi eng yangi, oxirgi axborotlarni boladan oldin unga yetkazishga intilmog'i, axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi ;

-boshlang'ich sinf fanlar kesimida multimediya materiallarini darslarda qo'llash hamda elektron resurslardan foydalanish bilan cheklanib qolmay, yangilarini yaratish yo'llarini o'rganishi;

-o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga oid kuzatish, ko'rish, bajarishi mumkin bo'lgan amaliy ishlarni ham bajarishiga imkon yaratishi, masalan turli ekskursiyalar, mehnat jarayonlarini tashkil etishi;

-boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida respublika, viloyat miqyosida ommalashtirilgan dars ishlanma, tavsiyanomalar bilan tanishib borishi va ta'lim samaradorligiga hissa qo'shuvchi tajriba ishlarini ommalashtirishi;


-ingliz tili o'qituvchilari bilan darslar jarayonida qanday muvofiqlashtirish ishlarini olib borish mumkinligi masalalarini ko'rib chiqishi;

-maktabda "Eng yaxshi ochiq dars" namunalarini o'tkazib, ilg'or o'qituvchilar tajribasini o'rganib borishi;

-har qanday texnologiyalarni milliy xususiyatimiz bilan hamohang bo'lishini unutmazlik kerakligini bilishi zarur.

O'quvchilarda kompetensiyaviy bilimlar birdaniga shakllanmaydi. Boshlang'ich sinfdan boshlab yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar asosida darslar tashkil etilsa, olgan bilimlarini to'laqonli hayotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Darhakikat, ta'lim tizimidagi tub islohotlar har bir o'qituvchidan bilim, yuksak madaniyat, yuqori malaka, ijodkorlik, mas'uliyatni his etishni talab etadi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham yildan-yilga mas'uliyat yuklanmokdagi, endi ular oddiy o'qituvchi emas, balki eng faol, eng etuk, har tomonlama bilimga ega, o'quvchi uchun na'muna bo'ladigan innovatorga aylanmog'lari darkor.



ИЛҲОР ПЕДАГОГИК ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА ОММАЛАШТИРИШ.

Зулфия Ҳайдарова - Наманган ДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ катта ўқитувчиси
Камола Оқилова - СамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ ўқитувчиси

Маълумки, ҳар бир миллат тарих ва замон воқеаларининг фаол иштирокчисига айланар экан, унинг жаҳон цивилизацияси ёки мамлакатдаги маъзеи ва обрў – эътибори доимо шу миллатнинг салоҳияти- ақлий, маънавий потенциалига боғлиқ бўлиб қолади. Шунинг учун ҳам, мамлакат келажаги унинг таълим тизимининг ривожланганлиги даражаси билан белгиланади.

Педагогик маҳорат туғма талант ёки наслдан-наслга ўтувчи хусусият эмас, балки унинг негизида изланиш ва ижодий меҳнат ётадиган мураккаб фаолият бўлиб, у ўқитувчилар учун бир қилинган иш усули эмас, балки ҳар бир ўқитувчининг ўз устида изланиши, ижодий меҳнати давомида ташкил топади ва ривожланади.

Бу ўринда илғор ўқитувчининг педагогик маҳорати ва тажрибаларини бошқа ўқитувчи ўрганиши, ундан ижодий фойдаланиши ва ўз фаолиятини илғор тажрибалар билан бойитиши зарур. Бу эса “устоз-шоғирд” аъёнларини вужудга келтиради. Ўқитувчининг педагогик маҳорати, асосан, синфда, аудитория машғулотларида яққол кўринади. Чунки ўқув машғулотлари ўзининг мазмун ва моҳиятига кўра ўқитувчининг ўқув юртидаги асосий ишидир. Шунинг учун у илмий-ғоявий жиҳатдан етук ва оммабоп бўлиши, турмуш билан, ўқувчи ёки талабаларнинг тайёргарлик даражаси билан узвий алоқадор бўлиши зарур. Таълим жараёнида ўқитувчи билан талабалар ўртасида ўзаро жонли тил мулоқоти, фикр алмашув муносабатлари, самимий ҳурмат ва асосий мақсадга эришишда яқин ҳамкорлик лозим. Мазмуни саёз, амалий тажрибадан, турмушдан ажралиб қолган, умумий сўз, қуруқ насихатгўйликдан иборат бўлган, расмий учун юзаки ўтказиладиган дарс (маъруза) ва бошқа ўқув машғулотлари ўқувчи талабаларни қизиқтирмайди, уларни илмий, ғоявий жиҳатдан етарли даражада озиклантмайди. Шу сабабли, дарсларни шундай ташкил қилиш керакки, уларнинг таъсирида талабаларда шу фанга нисбатан турли қарашлар, илмий тафаккур ва эътиқодлар вужудга келиши ва шаклланиши лозим.

Таълим ва тарбия жараёни таъсирчанлигининг янада юксак бўлиши ўқитувчининг илмий салоҳиятига, ёшлар олдигаги обрўсига, шахсий сифатларига, илмий истеъдодига, таълим соҳасидаги тажриба ва маҳорати ҳамда ўқувчи ёки талабалар билан ўрнатилган дўстона муносабатига, умуман олганда компетенциясига боғлиқдир.

Бир сўз билан айтганда, ўқитувчи қуйидаги маданиятни; ўқитувчининг умумий маданияти; ўқитувчининг касбий маданияти; педагогик фикрлаш маданияти; педагогик мулоқот маданияти; педагог учун энг зарурий нутқ маданиятини эгаллаган бўлиши лозим.

Педагогик ижодкорлик манбаи - бу педагогик тажрибадир. Илғор педагогик тажриба деганда, биз педагогнинг ўз педагогик вазифасига ижодий ёндошишини, ўқувчи-талабаларнинг таълим-тарбиясига янги, самарали йўл ва воситаларни қидириб топишини тушунамиз.

Ижодий ишлайдиган педагог фақат ўқувчи-талабаларни муваффақиятли ўқитиш ва тарбия бериш, илғор иш тажрибаларини ўрганиш билангина чекланиб қолмасдан, тараққиётчилик кўникма ва малакаларига ҳам эга бўлиши зарур. Ҳозирги замон фан ва техника тараққиёти педагогнинг ижодкор бўлишини, фаннинг муҳим муаммолари юзасидан эркин фикр юрита билиш, фан ютуқларини ўқувчи ва талабаларга етказа олиши, тадқиқот ишларига ўргата олишини талаб қилади.

Педагогик фаолиятнинг энг зарурий ва эмоцияларга, ҳиссиётларга бой бўлишини ҳисобга олсак, жуда оғир муаммолар, дарс жараёнларидаги қутилмаган ҳолатлар, энди ўрганаётган ўқитувчининг фаолияти ҳам, ўз фанининг моҳир устаси бўлган ўқитувчига тажрибасини тинимсиз ошириб боришига имкон яратади. Тажрибали педагоглар доимо ўзларида қандайдир педагогик қобилиятни намоён қилаётган ёки ривожлантираётган бўладилар.

Педагогик маҳорат - бу фаҳм-фаросат билан таълим-тарбия жараёнига раҳбарлик қилиш, тарбияланувчини қалбан ҳис қилиш ва тарбияланувчига авайлаб, ижодий далиллик, илмий таҳлил ва истиқболни ҳисобга олган ҳолда ёндашиш бўлиб, унга педагогик билимлар, педагогик фаросат, ҳис этиш, педагогик малака, илғор педагогик тажрибаларни ўзлаштириш қабилар қиради.

Педагогик маҳорат ўз-ўзича вужудга келмаганидек, тажриба ҳам ҳеч бир ҳаракат, қизиқиш ва ўрганишсиз, синовсиз, таваккал қилишсиз юзага чиқмайди.

Педагогика соҳасида инсон омилини бош вазифа қилиб олиш, ҳар бир кишининг ўз ўрнида виждонан ва мавжуд имкониятлардан тўлиқ фойдаланган ҳолда ишлашга эришиш таълим-тарбиянинг асосий тажрибаси саналади. Педагогик фаолиятда муаллимнинг ижодий меҳнатини ривожлантирмасдан бунга эришиш мумкин эмас. Шунинг учун педагог жамиятда рўй бераётган ўзгаришлар моҳиятини тушуниши, ўзи қилаётган ишнинг аҳамиятини билиши жуда муҳимдир. Ҳозирги замон ўқитувчиси билимларнинг кенг қўламдаги захирасига, педагогик маҳоратига ва обрўга эга бўлиши керак. Ҳозирги кунда педагогик олий таълим муассасаларида малакали мутахассис тайёрлаш тизими яхши йўлга қўйилган. Лекин, эътироф этиш керак: ўқитувчи ўқув юртида қанчалик етук таълим олган бўлмасин, барибир у доимо малакасини ва тажрибасини ошириш ва умумлаштиришга муҳтож бўлади.

Бу эса ҳар бир педагогнинг доимо ўз устида ишлаши, изланиши, илғор тажрибаларни ўрганиши, малакасини оширишини тақозо этади.


Бугунги кунда таълим муассасаларида кўплаб ўз ишининг устаси-ўқитувчилар фаолият олиб бормоқдалар: Ёилнинг энг яхши фан ўқитувчиси, илғор тажрибага эга педагог, ижодкор ўқитувчи, изланувчан ўқитувчи кабилар. Булар юқори малакали, маданиятли, муаллифли дастурларини ишлаб чиққан, педагогик технологияларни иш жараёнида қўллаётган, индивидуал ўз иш услубига эга, ишга масъулият билан қарайдиган, соҳага оид ижобий тажрибаларни ўрганиб, дарсларида қўллайдиган, иш фаолиятига танқидий кўз билан қарайдиган, ижодий салоҳиятини тўла намоён қила оладиган, ўсиб келаётган ёш авлодга таълим-тарбия беришда юқори натижаларга эришаётган мутахассислардир.

Илғор иш тажрибаларини амалиётга жорий этиш ўзаро узвий боғлиқда бўлган қуйидаги 5 та босқич орқали амалга оширилади:

- 1-босқич: Илғор иш тажрибаларни аниқлаш;
- 2-босқич: Илғор иш тажрибаларни ўрганиш;
- 3-босқич: Илғор иш тажрибаларни умумлаштириш;
- 4-босқич: Илғор иш тажрибаларни оммалаштириш;
- 5-босқич: Илғор иш тажрибани тарғиботини ташкил этиш.

Таълим жараёнига ижодий ёндошиш натижасида яратилаётган бу янгиликлар муайян мактаб доирасида қолиб кетмасдан туман (шаҳар), вилоят, Республика микёсида оммалаштирилиши, бу билан таълим методикаси бойитиб борилиши зарур.

Илғор иш тажрибаларини ўрганиш ва оммалаштириш ўқитувчиларнинг касб маҳоратларини такомиллаштиришнинг энг қулай шаклидир. Илғор иш тажриба ўқитувчининг ўз педагогик фаолиятига ижодкор ва новаторларча ёндошиб, ўқувчиларга таълим ва тарбия беришнинг янги йўллари излаб топишдир.



МАФКУРАВИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДАГИ АҲАМИЯТИ

*Малудахон Хошимовна Усмонова - НамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ
ижтимоий-иқтисодий фанлар методикаси кафедраси ўқитувчиси*

Бугунги кунда илм-фан, техника, технология ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиб бораётганлиги, таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини оширишга асос бўлган талабларни қайта кўриб чиқиб, ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этишни талаб этмоқда.

Мамлакатимизда халқлар ўртасидаги ўзаро моддий ва маънавий алоқалар бошқача айтганда, “Глобаллашув” шу қадар кучайиб кетдики, эндиликда мазкур жараённи назорат қилиш қийин бўлиб қолди. Лекин, бу жараёнда “Билимга чанқоқ, истеъдодли ёшларни топиб, уларни Ватанга фидойий инсонлар қилиб тарбиялаш муқаддас вазифамиздир”¹

Ёш авлодни ҳар жиҳатдан баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг мафкуравий иммунитетини кучайтириш ҳозирги ўта мураккаб даврда ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда.

Ўқувчи-ёшларни мафкуравий иммунитетини шакллантириш эса кўп жиҳатдан шу авлод вақилига таълим-тарбия бераётган устоз-мураббийларнинг, ўқитувчи-педагогларларнинг билимига, касб малакаси ва маҳоратига, дунёқараш ва савиясига, маънавияти, ғоявий етуқлиги ва ахлоқига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Замонавий ўқитувчининг бу каби фазилатларини бир жумла билан айтганда мафкуравий компетентлик дейиш мумкин.

Компетенция—бу фан бўйича эгаллаган назарий билим, амалий кўникма ва малакаларини кундалик ҳаётида дуч келадиган амалий ва назарий масалаларни ечишда фойдаланиб, амалиётда қўллай олишидир.

Компетентлик эса, (лот: лаёқатли,қобилияти бор)шахс билим, кўникма ва тажрибаларининг унинг ижтимоий-профессионал мавқеи ва ўзига тегишли вазифаларни бажариш, муаммолар ҳал қилишга етарлиги ҳамда ҳақиқий мослик даражаси.

Таълим-тарбия жараёнида педагог кадрларнинг мафкуравий компетентлигини оширмасдан туриб ёш авлодни маънавий ва ғоявий жиҳатдан баркамол қилиб тарбиялаб бўлмайди. Шу маънода

¹Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. Т:“Шарқ”,1998-16 б

бугунги давр шароити ва талаблари халқ таълими тизимида фаолият олиб бораётган барча педагог кадрларда мафкуравий компетентликни шакллантириш масаласини долзарб қилиб қўймоқда.

Мафкуравий компетентлилик - бугунги кун учун янги тушунчадир.. Фанга янги кириб келган мафкуравий компетентлик жумласига “...бу шахснинг соҳасида чуқур билимга эгаллиги ва ўзига ишонган мафкура бўйича кучли эътиқод (мафкуравий иммунитет)нинг шаклланганлиги ҳамда ўз мафкурасидаги ғоя ва қарашларни бошқа инсонларда ҳам шакллантира олиш малакаси”,-деб таъриф берилади.

Мафкуравий компетентлилик яхлит бўлиб кўринсада, бироқ унда учта асосий компонент мавжуддир. Яъни улар қуйидагилардир:


- ✓ Мафкура соҳасида чуқур илмий-назарий билимга эга бўлиш;
- ✓ Муайян мафкура (назариясидаги ғоя ва тамойиллар)га нисбатан кучли
- ✓ ишонч ва эътиқод (мафкуравий иммунитет)нинг шаклланганлиги;
- ✓ Ўзи ишонган мафкуранинг ғояларини бошқа инсонларда ҳам шакллантира олиш учун муайян (ички, илмий-назарий ва ташқи ташкилий-методик) кўникма ва малакаларга эга бўлиш кабилардир.¹

Таъкидлаш керакки, бирор бир шахсда юқорида кўрсатиб ўтилган уч компонентнинг биргалиқда мавжуд бўлиши, бу шахсда мафкуравий компетентлилик мавжудлигини кўрсатади. Аксинча бўлса, яъни муайян шахсда юқоридаги компонентлардан бирининг мавжуд эмаслиги унда мафкуравий компетентлилик тўла шаклланмаганлигини билдиради.

Барчамизга маълумки, мамлакатни тараққий эттириш учун аввало, таълим-тарбия жараёни ҳам шакл, ҳам мазмун жиҳатдан ўзгариши керак. Бунинг учун эса аввало, бу жараёни ташкил этувчи асосий шахс-ўқитувчи ўзгармоғи, унинг касбий ва мафкуравий компетентлиги замон талабларига мослашиб бормоғи лозим.

Педагогик касби ҳақида сўз борганда албатта бу касб учун касбий компетентлилик билан бирга мафкуравий компетентлилик ҳам ўта зарур эканлигига эътибор қаратиш муҳимдир.Зеро, касбий компетентлилик деганда “ўқитувчининг маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳияти, яъни унинг касбий имкониятлари салоҳияти тушуниладиган бўлса, мафкуравий компетентлилик деганда ўқитувчининг мафкуралар бўйича чуқур билимга эга эканлиги ва бунёдкор мафкура бўйича унда кучли эътиқоднинг мавжудлиги ва ўзи ишонган бунёдкор мафкурадаги ғоя ва қарашларни бошқа инсонлар жумладан, ўқувчи-ёшларга ҳам сингдира олиш малакаси тушунилади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, ёш авлоднинг интеллектуал салоҳиятини кучайтириш ва айни вақтда уларни маънавий ва ғоявий жиҳатдан баркамол қилиб тарбиялашда таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган педагог кадрларнинг мафкуравий компетентлиги энг асосий омил ҳисобланади. Шундай экан , халқ таълими тизимида фаолият олиб бораётган барча педагог кадрлар мафкуравий компетентликни шакллантириш бугунги куннинг долзарб вазифаси эканлигини унутмаслиги лозим.Биринчи Президентимиз Илом Каримов айтганларидек,”...дунёда юз бараётган туб ўзгаришлар жараёнида эгаллаб турган ўрнимизни холисона ва танқидий баҳолашимиз, кечаётган давр билан ҳамқадам бўлишимиз шарт”²



ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСINI ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА ОММАЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Насибахон Орзикулова –НамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ,
Илгор тажриба ва халқаро ҳамкорлик
илмий-ахборот тадқиқотлар бўлими бошлиги*

Маълумки, илгор тажриба педагогик фаолиятнинг самарадорлигини оширишнинг ҳал қилувчи усули бўлиб, катта аҳамиятга эга.

¹Таълим тизими ходимларининг мафкуравий компетентлигини шакллантири зарурати// масофа.uz

²Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма м

ажлисидаги маъруза// “Халқ сўзи”,2010йил 13 ноябрь

Илғор педагогик тажриба – бу энг фойдали, энг кулай, энг мувофик фаолият бўлиб ижодий изланиш натижасидир. Бу албатта, ўқув-тарбия жараёнини энг муҳим томонларини ҳал этишга ёрдам беради.

Педагогик тажриба – муаммоли вазиятларга жуда бойдир. Илғор педагогик тажриба деганда биз, ўқитувчининг ўз педагогик вазифасига ижодий ёндашишини, ўқувчиларнинг таълим-тарбиясида янги, самарали йўл ва воситаларни қидириб топишини тушунамиз.

Илғор педагогик тажриба ўқитувчи томонидан қўлланиладиган иш шакли ва усуллари, услуб ва воситаларидир. Улар воситасида ўқув-тарбиявий ишларда энг юқори натижаларга эришилади.

Илғор педагогик тажрибани ўрганиш, унга асосланиб янги педагогик ҳодиса ва қонуниятларни очиш ўқув-тарбия жараёнига яхши сифатли ўзгаришлар, илғор технологияларни киритади, ўқувчиларнинг билиш фаолиятини бошқариш, янги кўринишдаги ўқув жараёнини моделлаштириш муаммоларини ечишга сабаб бўлади.

Илғор тажрибаларни ўрганиш ва оммалаштириш энг аввал мактабдан бошланади. Бу ҳар бир мактаб директори, ўқув ишлар бўйича директор ўринбосари, маънавий ва маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари ҳамда метод бирлашмалар фаолиятининг асосини ташкил этмоғи керак. Мактаб педагогик жамоаси илғор тажриба эгасининг фаолиятини тўлиқ билиши, ўрганиши ва унинг фойдали томонларини маъқуллаши натижасида метод бирлашма, туман, шаҳар методика бўлимларига ўрганиш учун тавсия этилади.

Педагог касби-ўзгармас ва қотиб қолган касб эмаслигини ҳар бир педагог яхши билиши керак.

Йил давомида ҳар бир методист ўқитувчи, раҳбарлар, педагогик комиссия ўқитувчи-педагогнинг иш тажрибасини ўрганар экан, бунда қуйидагиларга чуқур эътибор қаратиш тавсия этилади:

- Сиёсий онги, маънавий ахлоқи;
- Ўқитувчининг дарс бериш маҳорати;
- Ўқитувчининг фаолиятига қисқача тавсифнома;
- Билим даражаси, интилувчанлиги, изланувчанлиги;
- Ўрганилаётган иш тажрибасининг мазмуни;
- Дарсга тайёргарлиги, материалларни тайёрлаш ва фойдалана билиши;
- Тажрибасини оммалаштиришга тавсия этиш;
- Ўқитувчига методик тавсиялар бериш;
- Илғор тажрибани оммалаштириш учун ҳар бир туман, шаҳар методхоналарида Педагогик фаолияти бўйича тавсифнома
- Иш тажрибасининг мазмуни
- Мураккаб дарсларнинг ишланмаси
- Илмий, методик мақолалари
- Дарс ишланмаси намуналари
- Очиқ дарсларнинг материаллар йиғма жилди
- Альбомлар, букламалар
- Дарс, учрашувлар ёзиб олинган дисклар
- Фотосуратлар, тарқатмалар

Бу материаллардан барча ўқитувчилар танишиб чиқиб ўз иш фаолиятларида қўллаш имкониятига эга бўладилар.

Илғор тажриба эгаси ишини методик хат орқали ҳам оммалаштириш мумкин, яъни: энг яхши педагогик хона кўрғазмасида; курс машғулотида, “Маҳорат дарслари” да; илғор тажриба мактаблари машғулотида; илмий-амалий конференциялар, семинарларда; маънавий-маърифий тадбирларда.

Илмий-амалий конференцияларда илғор тажрибаларни ўрганишнинг энг муҳим воситалари оммавий ахборот манбалари - радио, телевидение, матбуот ва янги турдаги дисклар орқали амалга ошириш тавсия этилади.

Илғор тажрибаларни ўрганишда яна: педагогнинг ўқув-тарбия жараёнини йўналтиришдаги билим, маълумотларни ўқув-тарбия жараёнида қабул қилишлари ва унга жавобан ҳаракат натижалари; аниқ қўлга киритилган педагогик натижа;

илғор тажрибани қўллаган педагогнинг методик, педагогик, психологик, касб маҳоратини умумий баҳолаш, ҳамда таҳлил этиш томонларига эътибор берилади.

Умумий ҳолатда юқорида тилга олинган илғор тажрибаларни аниқлаш, ўрганиш ва оммалаштириш ишларига мактаб, туман, шаҳар методика хоналари ва халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказлари профессор-ўқитувчилари, методистлари ўртасида доимий ҳамкорлик ва узвийлик асосида мақсадга самарали эришиш мумкин.

Бу борада Наманган Давлат университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказида ҳам асосий эътиборни вилоят бўйича энг илғор тажриба эгалари изланувчан ўқитувчилар фаолиятига қаратмоқдалар. Улар билан яқиндан методик ҳамкорлик ишларини атрофлича ўрганиш, оммалаштириш масалаларида аввалги йилларга нисбатан янгича ёндошув билан бир қатор ижобий ишларни амалга оширмоқдалар.


Ҳозирда ҳудудий марказнинг Илғор тажриба ва халқаро ҳамкорлик илмий-ахборот тадқиқотлар бўлимида вилоят халқ таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган илғор тажрибали кўплаб фидоий ўқитувчи ва тарбиячилар аниқланиб, уларнинг тажрибалари ҳақида маълумотлар банки яратилди. Бугунги кунда педагогларнинг иш тажрибалари рисола тарзида ҳамда, кўплаб матбуот саҳифалари, телевидение орқали оммалаштирилиши амалга оширилмоқда.

Илғор тажриба эгалари билан ҳамкорликда уларнинг кўплаб методик тавсиялари вилоят мактаблари мактабгача ва мактабдан ташқари муассасаларига ўқув-тарбия жараёнида тадбиқ этиш учун юборилди.

Марказимиз кафедралари томонидан “Маҳорат мактаблари”да фаолият кўрсатаётган педагоглар фаолиятини кенгроқ ўрганиш ва оммалаштириш мақсадида барча ТШХТМФМТТЭБлари билан илмий-амалий ҳамкорлик алоқалари ўрнатилган, шартномалар тузилган. Тасдиқланган ҳамкорлик режалари асосида ҳар ойда фанлар кесимида профессор-ўқитувчилар томонидан курс тингловчилари учун “Маҳорат дарслари” ташкил этилмоқда.

Шунингдек, илғор тажрибали педагоглар фаолиятлари тўғрисидаги кўплаб маълумотлар кафедралар электрон кутубхонаси жамғармасига киритилган.

Келгусида вилоятимиз барча таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган педагог ходимларимиз илғор, тажрибали ўқитувчилар фаолияти ўрганилган маълумотларни Илғор тажриба ва халқаро ҳамкорлик илмий-ахборот тадқиқотлар бўлими ҳамда кафедралардан олишлари мумкин.



O'QUVCHILARNI MA'NAVIY VA MILLIY RUHDA ULG'AYTIRISH

E'zozxon Kasimova- FarDU huzuridagi XTXQTMOHM Pedaagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedراسи mudiri
Odinaxon Toshtemirovna Mo'minova- Farg'ona viloyati Oltiariq tumani XTBga qarashli 19 - o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

“...Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota na'munasi, ajdodlar o'giti bilan singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib, jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”, degan edi, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti: Islom Karimov.

Ma'naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim va tarbiasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Inson asosan ikki yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin : birovlarining bevosita ta'siri ya'ni o'rgatishi shuningdek donolar fikrlari, o'g'itlari asarlarini o'qish orqali; inson o'zining fikrlashi, odamlar xatti xarakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

Inson dunyoga kelgach, har kun nimanidir o'rganadi. U avvalo mo'jazzgina oilada ota – onasi, maktabda tarbiyachi ustozidan, mahallada qo'ni – qo'shni, o'rtoq do'stlari ta'sirida ulg'ayadi. Bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib, tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan boy odob axloqqa doir bilimlarni

o'rgatish e'tiqodga aylantirish, komillikka yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya berish deganda kimnidir maxsus xonaga o'tqazib, faqat band nasixat berishni emas, balki o'yin davomida, uy yumushlari jarayonida ilm ilm o'rgatish vaqtida hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo'sinda tushuntirish, qolaversa shahsiy o'rnak ko'rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim. Shu omillar bir – biri bilan qo'shib olib borilishi kerak. Milliy pedagogika asoschilaridan biri A.Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim – tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy – ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytmoqda, mazmuni sifat jihatdan yangilanmoqda. Bu o'z navbatida talim tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchidan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, fidoiyligni ma'suliyatni hamda o'z kasbining xaqiqiy ustasi, jonkuyari bo'lishni talab etadi.

O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Shuning uchun ma'naviy ma'rifiy ishlarning yangi shakl va mazmunini boyitib borish talab etiladi. Lekin har qanday vaziyatda u buyuk tariximiz ma'daniyatimiz, qadriyatimiz, urf odatlarimiz mustaqilligimiz g'oyalari asosida shakllanishi, rivojlanishi kerak. Mustaqilligimiz tufayli o'zbek xalqi o'z tiliga, o'z diniga, o'zligini anglashga, tarixini xolis o'rganishga, milliy va madaniy merosi, qadriyatini qayta tiklash imkoniyatlariga ega bo'ldi. Bu milliy madaniyatning boyishida va yuksalishida muxim ijtimoiy siyosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zero vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustaxkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab avaylash, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga, ona yurtiga muhabbat, istiqlolimizga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish o'zi tug'ilib o'sgan ona zaminni e'zozlash va uni himoya qilish har bir fuqaroning, xususan, yoshlarimizning muqaddas burchidir.

Shaxsning ma'naviy barkamolligi xalq pedagogikasida, diniy ma'daniyatda, pedagogik qadriyatlarda alohida etiborga sazovor bo'lib kelgan. Ma'naviyat juda keng qamrovli, mazmundor tushunchadir. Uning shakllanishiga o'z vaqtida islom falsafasi, Qur'oni Karim, ayniqsa tasavvuf ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ma'naviyatni millat ongi va tafakkuriga singdirishda buyuklarning asarlari muhim ahamiyat kasb etgan. Milliy ta'lim tarbiyaning bosh maqsadi – shahsni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish va shakllantirish, uni har tomonlama yetuk, yuqori axloqli va ma'naviy pok inson qilib tarbiylashdan iborat. Shaxsni tarbiyalash va o'qitishda milliy an'ana va qadriyatlarining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Ta'lim tarbiya jarayoni zamonaviylikni, an'anaviylik bilan o'zaro bog'lash negizida quriladi, ya'ni maktab amaliyotida zamonaviy ilmiy pedagogika va tarbiyaviy ish tajribasi an'anaviy xalq tarbiya madaniyati bilan birgalikda foydalaniladi.

Xususan, o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarni o'rganish va uni e'zozlashga o'rgatish bu borada olib boriladigan ishlarning eng asosiysi hisoblanadi. Chunki kelajakda qadriyatlarimizning qanday holatda bo'lishini huddi shu yoshlar belgilaydi. Bugungi maktab partasida o'tirgan yoshlar kelgusida yetuk bilimli mutaxassis, o'z xalqining haqiqiy jonkuyari bo'lishi milliy qadriyatlarimizni to'la bilishi, o'zlashtirgan, ularni qadrlaydigan bo'lishi kerak. Maktab ostonasiga ilk qadamlarini qo'ygan bolakay birinchi galda o'qituvchisining aytgalariga quloq tutadi. Uning hatti harakatlari, gap so'zlariga taqlid qiladi. Shuni unutmanki farzand tarbiyasida bir qarashda arzimasek ko'ringan soniyalar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa ijtimoiy siyosiy, xuquqiy ilmiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida, shaxs axloqiy sifatlarining kengayib boyib borishiga xizmat qiladi. Shunday qilib axloq insonlarga xos bo'lgan ijobiy hislatlarni atrofda qilarga namoyon qila olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Odob va axloq bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. O'qituvchi o'quvchilari bilan ta'lim jarayonida bevosita muloqotda bo'lar ekan, ularning aqliy kamoloti, mustaqil fikrlashi, tafakkurini yangi bilimlar boyitib borishiga alohida e'tibor berishi lozim. Aqliy kamolotga o'z ustida tinimsiz ishlash, fidoiyligi, bilimga chanqoqlik kabi xususiyatlar orqali erish mumkin. Mustaqil fikrlash esa jamiyatda kechayotgan siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlarni anglash, taxlil etishdan boshlanadi. Tafakkur inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar orasidan keragini asrab olish va amaliyotga tatbiq etish demakdir.

O'quvchining xulqi, ma'naviy olami uning atrofida qilarga va o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatida aks etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi yoki maktab rahbari ma'naviy merosning tarixiy bosqichlaridan habardor bo'lishi, amaliy faoliyatda ularga tayanishi, bolalarni ana shu tamoyillar asosida tarbiyalashi lozim. Maktab partasida o'tirgan bola kelajakda chinakam shaxs bo'lib yetishishida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. U albatta, umumpedagogik sir-asrorlardan xabardor bo'lishi kasb mahorati, o'quvchilar bilan do'stona muloqotga kirisha olish qobiliyati, qolaversa yuksak ma'naviyatga ega bo'lishi kerak. Mashg'ulotlar davomida ta'lim tarbiyaning samarali usullarini tanlay olish, natijani avvaldan rejalashtirish har bir o'quvchining dunyoqarashi hamda maktab jamosidagi muhitni o'rganish o'qituvchi faoliyati uchun juda foydali.

O'quvchining ma'naviy extiyojini qondirish mustaqil izlanishga o'rgatish hamda fanga bo'lgan qiziqishini turli ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar o'qituvchi va o'quvchi orasida muloqot o'rnatishga yorda beradi. Masalan: o'qish va odobnoma darslarida „Allomalar - millatimiz fahri“, „Biz - Temur avlodlari“ va „Xalq og'zaki ijodi na'munalari“ kabi mavzulardagi tadbir va bahs – munozaralarni tashkil etish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan samarali foydalanish, boy an'ana va urf – odatlarimizni o'quvchilar qalbiga singdirish muqaddas burchimiz bo'libgina qolmasdan, barkamol avlod tarbiyasining muhim omillaridan biri hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” I.Karimov . 2008 – yil.
2. “Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari” Safo Ochil O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish 2000 – yil
3. “ Ma'naviyat – millatning kuch qudrati” A.O'rinboyev 2011 – yil

KOMPITENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'OYANING O'RNI

Dildora Mamatkarimova - Guliston tumani 27-IMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Inson ma'naviyatini shakllantirishda ilmiy va badiiy adabiyotlarning o'rni alohida ekanligi ma'lum. Jumladan, ma'naviyatli inson o'qishdan to'xtamaydi, buyuklar aytganidek: “Insonlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar”. Kitoblar insonni ma'naviyatini boyitish bilan bir qatorda, dunyoqarashini ham, fikrlash qobiliyatini ham o'zgacha charxlaydi. Bu bilan esa inson ma'naviyati yetuklik sari asta sekin qadam tashlab boraveradi. Borib-borib vaqtlar o'tishi bilan yig'ilgan tafakkur durdonalari jamiyat uchun xizmat qiladigan bir yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Inson ongi qanchalik rivojlanib bormasin, u yana o'qishga, bilim olishga intilishi so'nmaydi, akchinchu kuchayib boradi.

Kompitentlikni shakllantirishda, eng avvalo, dars jarayonidagi ma'naviyat haqida to'xtalib, o'qituvchining har bir xatti-harakati bola uchun o'rnak bo'lishligi aniq, deb hisoblaydigan bo'lsak, ikkinchi tomondan qaralganda u yo'naltirayotgan yo'nalish yoki berayotgan bilimning har bir nuqtasi ostiga bekitilgan ma'naviyat haqida ham to'xtalib o'tish kerak. Binobarin, har qanday jamiyatda kelajakni yoshlar qurishadi. Ertangi kun uchun bugundan boshlangan ijobiy tadbirlar albatta o'z samarasini beradi.

Afsuski, ko'pgina ota –onalar farzandining o'qish joylariga borish bu yoqda tursin, hatto telefon qilib farzandining qanday muammolari va yutuqlari borligidan xabar ham olishmaydi. Bu bilan biz ota-onalarni yomonlashdan ancha yiroqmiz, biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir inson kamolotga yetishish davrida o'z ota-onalari mehri va e'tiboriga muhtoj bo'lishadi.. Shaharga o'qish uchun yuborilgan talaba dastlabki kunlarda o'qishga bo'lgan munosabati yaxshi bo'ladilar(aksariyat hollarda). Keyinchalik ota-onalari farzandlariga haddan ziyod ishonib qo'lishlari natijasida bolalar turli yo'llarga kirib qolishlari mumkin. Bunda ta'lim muassasalarini ham ayblari bor, lekin muassasada 6 soat o'qishlari mumkin. Qolgan vaqtlardagi (18 soat) u muassasadan tashqarida bo'lishadi. Shu bois bolaning asosiy vaqtlari uyda va ko'chada bo'lishi bilan belgilanadi. Bola shaxsi tarbiyasi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmagan holda, ta'lim muassasalarida berilgan bilim va tarbiya jarayonini uyda albatta mustahkamlash lozim. Aks holda, e'tiborsiz qoldirilgan o'quvchi turli bahonalar bilan dars tayyorlamaydi yoki davomadi pasayib ketadi. Bu esa borib-borib o'quvchini turli salbiy illatlar orttirib olishlariga xizmat qilsa ajabmas. Ko'rinib turibdiki, milliy g'oyasi shakllanmagan bolada jamiyat bilan aloqa qilish vositasi ham shakllanmaydi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, bola tarbiyasi faqat ta'lim muassasalarida emas yoki faqat ota-onalarning imkoniyatlaridan emas balki ular orasidagi yoki ular o'rtasidagi tinimsiz muloqotlar natijasida yuzaga keladi.

Inson kamol topishida ma'naviyat, milliy go'ya darslarini o'tilishi katta o'rin tutadi. Bola tarbiyasi o'ta mashaqqatli ish bo'lganligi sababli unga berilayotgan tarbiya jarayoni ham keng ko'lamda o'ylanib, ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.


Insonda Vatan hissi, uni sevish, ardoqlash, o'tmishga hurmat bilan qarash tushunchalari, o'zgalar fikrini hurmat qilish, o'z fikrini erkin bayon qila olish ko'nikmasi maktabdayoq shakllanib boradi. Maktab darsliklarida o'itilayotgan milliy istiqlol g'oyasi fani bugungi kun davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirda dunyo ahlini aqlini shoshirib qo'yayotgan ommaviy mafkura va g'oyalar ham bizni chetlab o'tayotgani yo'q. Ommaviy madaniyat atalmish bizning mentalitetimizga yot bo'lgan G'arbcha mafkuralar yoshlar

ongida umuman iz qoldirmayapdi deyish qiyin, albatta. Sababi oddiy, biz ularni qalbiga begona g'oyalarning kirib ketishiga yo'l qo'yib bermoqdamiz. Buning uchun milliy g'oya targ'ibotini chuqurroq olib borish, Vatanni sevish, uni tom ma'noda anglay olish zarur. Hayotning mazmunsizlanishiga asos bo'luvchi beg'amlik haqida I.Karimov "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida ham alohida to'xtalib dushmandan qo'rqmaslik, nari borsa u o'ldiradi, do'stdan ham hayiqmaslik u ham nari borsa siringni sotadi, ammo loqayddan qo'rqish, u qilayotgan ishlarga loqaydlik bilan jim qarab turaverishi insonning qalb-qalbigacha ta'sir etishligi alohida aytilgan.

Har bir o'quvchilarimiz qalbiga nur bag'ishlayotgan milliy istiqloq g'oyasi bugunning dolzarb mavzulari bo'lishi lozim. Bola tarbiyasi haqida fikr yuritish kerak bo'lsa, bolaning sog'lom bo'lishi bir tarafdin jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tamondan qaralganda albatta bola ruhiy sog'lom bo'lishi talab etiladi. Bunda har bir o'quvchining fikrlashi, dunyoqarashi, bilim darajasi va saviyasi inobatga olinishi kerak. Bilim olish jarayonini kitoblar va turli gazeta va jurnallar bilan bog'lash mumkin, ammo shuni alohida takidlash joizki, bilim olishning zamonaviy usullaridan biri bu fan texnikaning rivojlanishiga ham bog'liqdir. AKT va YPT davr talabi bo'lib turgan bir paytda izlanuvchan o'quvchi va talabalar (o'qituvchilar ham) internet atalmish o'rgamchak to'ri ta'siriga tushib qolish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu jarayonning ilk ko'rinishlari telefonlardir. Ota-ona o'z farzandlari haqida ma'lumot olib turishlari uchun telefon olib berishadilar. Keyinchalik bu telefonlar yaxshirog'iga (oxirgi modeldagi-internet ishlatish uchun qulay bo'lgan) almashtirish hollari ularning internet haqida dastlabki tushunchasini shakllanishiga asos bo'ladi. Bu bilan esa dastlab maktab o'quvchilari internetdan qanday foydalanish sirlarini tengdoshlaridan o'rganishlariga to'g'ri keladi. Bora-bora bu o'rgamchak to'ri ta'siriga tushib qolishlariga xizmat qiladi. Biz farzandlarimizga noto'g'ri tarbiya berayapmiz deyishimiz to'g'ri emas, lekin telefondagi internet ma'lumotlarining aksariyat qismi bola shaxsini to'g'ri shakllanishida salbiy oqibatlar keltirishi mumkin.

Ba'zi o'quvchilar hamisha ustozlarining gaplariga quloq tutadilar va ular bergan bilim bilan bemalol bellashishlari ham mumkin. Ota-onalarining gaplarini ikki qilsa qiladilarki, ustozlarining fikrlariga ergashishadi. Bu esa pedagogik kasbimizdagi sharaflı nuqta hisoblanadi.

Kompetentlikni shakllantirishda milliy g'oya, inson ma'naviyati shakllanmas ekan, u olayotgan bilimlar behuda. Shunday ekan har bir olinajak bilim va xulosa muhimdir. Ma'naviyatga e'tibor sust bo'lgan muhitda hech qanday sivilizatsiya bo'lmaydi. Ma'naviyat esa bu bilim, odob, dunyoqarashlarning mujassam shaklidir. Manaviyatli shaxs uchun lozim bo'lgan yana bir tushuncha bor, bu yurt ishqı. Yurt ishqini esa albatta milliy istiqloq g'oyasi haqidagi kompetentlik vududga keltiradi.



O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

N.N. Tashtemirova–Guliston davlat universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi katta o'qituvchi,

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rında shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdanbevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

O'qituvchining kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va

texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to'plami». A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani etarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

O'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi;

Har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulot o'yin, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollari hisobga olish;

Pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish;

O'z ish o'rnini tashkil etish, zarur qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash, ularni berilgan talablar asosida yuritish.

O'QUVCHILARNI FANGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING O'RNI

*Salohiddin Xalilov -Navoiy davlat pedagogika institut
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Inson kamolotida ilm egallash, dunyoqarashni to'g'ri shakllantirish, aqliy rivojlanish, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ulug' fazilatlardan hisoblanadi.

Xo'sh, yosh avlodning ana shunday ulug' fazilatlarini to'g'ri shakllantirishda o'qituvchining o'rni qanday?

Bolani har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va pedagogik mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga qanday muomalada bo'lishni, o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni tatbiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri singdira oladi. Barchamizga ayonki, kerakli bilimni o'z vaqtida o'zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri anglay olgan, ma'naviy dunyosi sog'lom o'quvchigina komil inson bo'la oladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlarini o'z kasbiga sadoqatliligi, e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bolalarni jonidek aziz ko'rishidir. Maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan fanlarni chuqur bilishi, uning metodikasini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Fanni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarni shu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, o'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'quvchilar o'qituvchi bilimni va bu bilimni bolalarga yetkaza

olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu fanga bo'lgan qiziqishini, fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi.

Bola maktabda o'qir ekan, nafaqat ta'lim-tarbiya oladi, balki shaxs sifatida shakllanadi ham. Bu davrda vaqtining asosiy qismini maktabdosh, sinfdosh do'stlari va ustozlari davrasida o'tkazadi. Shunday ekan bola tarbiyasida atrofidagi do'stlari va ustozlarining ta'siri ahamiyatlidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan barcha ustoz va murabbiylarimiz doimo buni yodda saqlamoqlari va o'zlari yetarlicha savodxon bo'lishlari shart. Endigina 6-7 yoshga to'lgan bolalarimiz ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab savodxonlik darajasida faqatgina ustozining so'zini tan oladi. Ularning fikrini hattoki, ota-onalar ham o'zgartirishi mushkul. Shu sababdan barcha o'qituvchilar: ilmiy, nutqiy, ijodiy, mantiqiy, kasbiy savodxonliklarga ega bo'lishlari shart va muhimdir.

O'zbek xalqi o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelishgan va har bir zamonning shart-sharoiti, talablaridan kelib chiqqan holda bu talablar o'zgarib, takomillashib, murakkablashib borgan. Ulug' mutaffakir Abu Ali ibn Sino o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy, mehribon bo'lishi;
ta'limda turli usullardan foydalana olishi;
bilimlarni talabalarining yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
har bir so'zining bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi;
talabani xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
fanga qiziqitira olishi;
berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi
lozim.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, "mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap, so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga o'rin bo'lmasa...".

Navoiy ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Xulosa qilib aytganda, biz o'qituvchilar oldida ma'naviy merosimizdan xabardor, aqli, bilimdon, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdek yuksak va ma'suliyatli vazifa turar ekan, o'z oldiga barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan har bir ustoz va murabbiyning o'zi avvalo yuqorida ta'kidlangan pedagogik odob va pedagogik mahorat talablariga javob berishlari, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishlari kerak. Bolalarga boshlang'ich sinflardanoq manmanlik va kamtarlik, johillik va bosiqlik, sabr-toqatlik va sabrsizlik, yaxshilik va yomonlik kabi sifatlarini hayotiy misollar bilan tushuntirish orqali bolalar ongiga barkamol shaxsning vazifalarini ham singdirib borishlari lozim.


Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa mutafakkirlarning merosi jahon ahamiyitiga molik bebaho boylik ekanini tushuntirib berish:

Beshinchidan, buyuk ajdodlarimizning bebaho asarlarini jahon mulkiga aylantirishgda katta hissa qo'shgan xorijlik va mahalliy sharqshunos olimlarning xismatlari haqida so'zlab berish:

Oltinchidan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan bebaho tarixiy silsila bundan buyon ham davom etajagi, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarning berayotgan samarasi haqida o'quvchilarga ma'lumot berish.

Aha shu maqsadlarni amalga oshirish uchun kollejlarda o'quvchilar allomalarimiz asarlarini, ularning hayot yollarini o'rganishlari lozim. Chunki, ularning asarlarida mehr-oqibat, axloq-odob, halollik, poklil, do'stlik, ota-ona va farzandlarning haq - huquqlari kabi barcha insoniy tuyg'ular, burch va vazifalar

o`z ifodasini topgan. Kollejlarda ma`naviyat asoslari. odobnoma, adabiyot, xorijiy tillar va boshqa darslarni o`qitish jarayonida yuqorida qayd etilgan mana shu insoniy tuyg`ularni o`quvchilar ongiga singdirish o`qituvchi oldidagi amalga oshirilishi lozim bo`lgan eng muhim vazifalardan biridir.



QADIMGI O`ZBEKISTON HUDUDIDA DIZAYN SAN`ATI

X.Suvonova-Sam DAQI arxitektura fakulteti I bosqich talabasi

“Dizayn” termini yaqindan qo`llanila boshlangan bo`lsada, uning paydo bo`lishi tarixi butun dunyoda, jumladan, qadimgi O`zbekiston hududida uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Bular ota-bobolarimiz barpo etgan binolarda, ulardagi rang-barang me`morchilik bezaklarining bir-biri bilan uzviy bog`lanib ketishida, xalq amaliy san`ati bezaklarida yaqqol ko`rinadi.

Me`morchilikda xalq amaliy bezak san`atining keng qo`llanishi O`zbekiston hududida qadimdan urf bo`lgan. Ilk yer egalari davrida qasrlar, ibodatxonalar va boylarning uylari tarnov, hoshiya singari bezaklar bilan mohirona bezatilgan. Bu davrdagi ibodatxona va qasrlardagi devoriy rasmlar ham me`morchilikka uzviy bog`liq bo`lgan. Tantanali marosimlarga mo`ljallangan ulug`vor xonalar, derazadarchadan xoli bo`lib, yorug`lik faqat yuqoridan tushib turgan. Shu kunlargacha saqlanib qolgan devoriy naqshu-nigorlar bamisoli o`sha davrdagi murakkab, jo`shqin hayotning darakchisidek namoyon bo`ladi.

O`sha davrlarda bunyod etilgan bino devorlaridagi suratlar, naqshlar O`rta Osiyo tasviriy va amaliy san`atining xususiyatini o`zida namoyon etar edi. Elchilarning tantanali suratda shoh qabulida bo`lishlari, shoh saroyida qahramonona janglar va mardona shikorlar tasvirlangan bir-biridan maroqli manzaralar musavvirlar yoqtirgan asosiy mavzular bo`lib, O`zbekiston hududida istiqomat qilu vchi ilk o`rta asr aholilarining ijtimoiy, madaniy va axloqiy ideallarini o`zlarida to`la aks ettirar edilar.

IX-X asrlarda O`zbekiston hududida bezakli naqshu-nigorlar keng tus oldi. Bezak san`atida rang va naqsh ramziyligi birinchi o`ringa qo`yildi. Naqshlardagi ramziylik O`zbekiston xalqlarining liboslariga, zargarlik buyumlariga, uy - ro`zg`or ashyolariga va uy - joy bezaklariga ham uzbiy ravishda ko`chib o`tdi.

X-XI asrda Chingizxon bosqini davrida hozirgi O`zbekiston hududidagi madaniy hayotni izdan chiqarsa-da, butunlay yo`q qilib tadshlay olmagan.

Buyuk Amir Temur va temuriylar davrida fan va madaniyat, me`morchilik, xalq amaliy san`ati yuksak darajada rivojlandi. Bu davrni G`arbdagi “Sharq Renessansi” davri deb e`tirof etilgan. “Bizning kuch - qudratimizga ishonmaganlar, tarixiy madaniyatimizga, biz qurgan binolarga boqsin” - deb bejiz aytmagan edi sohibqiron Amir Temur. Bularning isbotini bu davrda yaratilgan va bugungi kunlarda ham betakror go`zalligi, salobati bilan o`z ahamiyatini yo`qotmagan me`moriy yodgorliklarda, xalq amaliy bezak san`ati namunalari yaqqol ko`rish mumkin. Samarqanddagi Shohi Zinda, Bibixonim, Go`ri Amur, Shaxrizabzdagi Oqsaroy, Turkistondagi Ahmad Yassaviy kabi o`nlab me`moriy majmualar ana shu davrning namunalari.

XVI-XVII asrlarga kelib, syujetli devoriy rasmlar deyarli chizilmay qo`yildi, ular o`rniga fundamental kompozitsiya bilan kundal usulida ishlov berish rivojlandi. (Buxorodagi Baland machit, Xoja Zayniddin xonaqosi (XVI) va Abdulazizxon madrasasi (XVII) Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII) va h.k.).

XIX asr va XX asrning boshlarida hozirgi O`zbekiston hududida mahalliy badiiy me`morchilik maktablari yuzaga kela boshladi. Ular nafaqat o`zlarining hajm planli kompozitsiyalari bilan, balki bezakli jihozlarning g`oyat nafisligi bilan ham ajralib turar edilar. Farg`ona vodiysida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan, ichiga islamiy naqsh tushirilgan va qizil hamda yashil bo`yoqlar bilah jilolangan turunjlar afzal turgan bo`lsa, Xorazmda musavvirlar butun yuzani geometrik naqshlar bilan to`ldirib, moviy va noranj rangli bo`yoq berishni xush ko`rganlar. Bu davrda barpo etilgan binolar ichida juda ko`p xalq me`morchilik san`ati namunalari saqlanib qolgan. Turar joy binolari, jamoat va mahalla machitlari, saroy va o`quv yurtlari binolarining shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatilgan. Devorlarda gulli butoqlar, daraxtlar, guldonli guldastalar aks ettirilgan, shiftlar esa turli-tuman naqshlar bilan oro berilgan. (Qo`qondagi Xudoyorxon saroyi, Quvadagi Zaynobbiddinboyning uyi, Toshkentdagi knyaz Romanov saroyi, Marg`ilondagi Saidahmadxo`ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Moxi Xosa saroyi va boshqalar).

Xalq amaliy san`atining barcha sohalari va ulardagi yuksak mahorat bilah bajarilgan badiiy-bezak namunalari ham yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelgan. Arxeologik topilmalar eramizdan avvalgi davrlarda ham kulolchilik, kandakorlik keng rivojlanganligini ko`rsatadi. Maxsus mis qotishmasidan yasalgan mis to`g`nog`ichlar metall buyumlar ishlashning ilk namunalari hisoblanadi. To`g`nag`ichlarda

kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni birinchi ming yillikning o'rtalarida kandakorlikda "hayvonot uslubi" paydo bo'lganligini isbotladi. III-VIII asrlarda O'rta Osiyoda kandakorlik yuqori darajada rivoj topgan. Qimmatbaho metallardan chiroyli bezak buyumlari ishlangan.

Amir Temur hukmronligigacha buyumlar asosan bronza va misdan tayyorlangan. Bu davrda qimmatbaho metallardan tayyorlangan idishlar ko'pgina islom mamlakatlarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p buyumlar ishlangan. Keyinchalik qizil misdan har xil ko'zalar, dekchalar, idish-tovoqlar, jezdan va sariq misdan shamdonlar, oq misdan ko'zalar, tog'oralar, katta-kichik piyola va shu kabilar yasalgan. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlangan.. Mis va uning qotishmalaridan yangi-yangi buyumlar yasalgan: to'g'ri to'rtburchakli barkashlar, qorni sharsimon hamda bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, yarim doira ketmonlar, siyohdonlar, xovoncha va boshqalar ishlangan. XII-XIV asrlarda kandakorlar bezaklarga kumush va oltin iplarni qadab, zeb berib, naqshlarni juda nafis bo'lishiga harakat qilganlar. Amir Temur o'z davrida xalq hunarmandchiligi rivojlanishiga katta e'tibor bergan. Bu davrda buyumlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. Metall buyumlarni bezash yanada takomillashdi, naqshlar noziklashdi. Registon maydoni yaqinidan topilgan xazinalar, ya'ni piyolalar, ko'zalar, qopqoqlar, tagliklar, qozonchalar buning yorqin dalilidir.


Kulolchilik Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Miloddan avvalgi uch ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan kulolchilik XII-XIV asrlarga kelib tez rivojlandi. Ustalar turli kulolchilik buyumlarini yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrdan G'ijduvon, Rishton, Samarqand, Shahrisabs, Toshkent kabi kulolchilik markazlari paydo bo'ldi.

Mustaqil Respublikamizda shaharlarni obodonlashtirish va ko'rkiga - ko'rk qo'shish, mavjud tarixiy obidalarini va san'at durdonalarini qayta ta'mirlash, ularni saqlash, kelajak avlodga yetkazish, zamon andozalari talablariga javob beradigan inshootlarni qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, zero bu bunyodkorliklar yoshlar ongida go'zallikni his qila olishni rivojlantiradi, yuqori estetik didni sakllantiradi, san'at asarlarini, tarixiy va me'moriy yodgorliklarini asrab avaylashga undaydi.

Adabiyotlar:

N. Abdullayev. San'at tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1986yil.

S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, "Mehnat", 1991yil.



ADABIYOT FANI O'QITUVCHILARI MA'NAVIY-MA'RIFIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA OMON MUXTOR ROMANLARINING O'RNI

Xo'jamqulov Anvar – SamDU huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi

Adabiyot – so'z san'atining boshqa san'atlar bilan o'zaro aloqadorligiga doimo ahamiyatli hodisa sifatida qaralgan ekan, ijod mahsuli sifatida yuzaga kelgan asarlarni ham asliyati (san'at turlari) kabi o'zaro taqqoslash, solishtirish holatlari onda-sonda bo'lsa-da, uchrab turadi. O'tgan XX asr va ayniqsa, uning so'nggi choragida san'at asarlarining turli-tuman bo'y ko'rsatishi: shakliy, emotsional-tematik(hissiy-mavzuviy), ifoda yo'sini tarzi-tarovati san'at ixlosmandlarini ham turli ko'ylarga solgani bor gap. Shu jumladan, badiiy adabiyotni voqe'lantiruvchi, uni ro'yobga chiqaruvchi, ta'bir joiz bo'lsa, uning bor bo'yi-bastini ko'rsatib beruvchi vosita – badiiy asarlar ham turli ko'rinishlarining yuzaga kelganligi kitobxonlarda o'ziga xos aks-sado berdi.

Ko'pgina manbalarda turg'unlik davri adabiyoti deb nom olgan XX asrning 70-80 yillari an'anaviy ijod yo'lida zerikkan, balki hayiqqan ijodkorlarning noan'anaviy yangicha, novatorona izlanishlariga sabab bo'lgan, binobarin ijodda "o'tish davri"ga ko'prik vazifasini o'taganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Yurtimiz istiqloлга erishganidan so'ng yangi adabiyot – istiqloл davri adabiyoti yuzaga keldi. Bunda dastlab ne qilarini bilmay xorij adabiyotidan "najot istagan" yoki quruq madhiyaboqlikka mukkasidan ketganlar ham bo'ldi. Buni ko'ra bilgan atoqli so'ztaroshlarimiz ularga "tishi o'tmasa, tosh chaynamasligi"¹ kerakligi yoki ulardan "bir tosh nari qochish"² kerakligi yuzasidan va shunga o'xshash

¹ Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006.

² Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., Sharq, 2004.

boshqa ko'plab "maslahatlar" berdilar. Mana shunday bir vaziyatda o'zining yangicha, noan'anaviy romanlari bilan hech qo'rqmay "tahlikali" ijod maydonida saf tortgan ijodkorlardan biri – Omon Muxtordir.

"To'rt tomon qibla" trilogiyasini tashkil etgan "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba"; "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ffu", "Muhabbat o'limdan kuchli" romanlari o'zbek adabiyotida roman janri qoliplarining o'zgarishiga sabab bo'lgan vositalardir, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z vaqtida bu "vosita"larga turli salbiy munosabatlar bilan bir qatorda iliq fikrlar ham aytili. Jumladan, Hamid G'ulom so'z yuritayotganimiz ijodkor xususida: "Omon Muxtorning keyingi yillarda e'lon qilingan asarlari o'zbek nasrida va umuman, o'zbek adabiyotida voqea bo'ldi. Adib badiiy ijodda o'ziga xos uslub egasidir... Ijodning tub mohiyati, ijtimoiy ildizlari va milliyliigi nuqtayi nazaridan qaralganda, Omon Muxtor asarlari original romanlar – o'zbek xalq qissalariga yaqindir", – desa, roman janrining usta ijodkarlaridan biri Odil Yoqubov: "Asarning juda ko'p fazilatlaridan tashqari – sujetning, kompozitsion qurilishining g'aroyibliigi va hokazo – yana bir xususiyati borki, bu haqda alohida aytish lozim. Gap shundaki, asar biz o'rganib qolgan va adabiyotning eng katta yutug'i deb hisoblanib kelingan an'anaviy usul, ya'ni sotsialistik realizm uslubiga batamom zid, yangi uslub asosida yozilgan. Bu asarda ("To'rt tomon qibla" trilogiyasi nazarda tutilmoqda. Muallif izohi) Markes romanlarining shabadasi yaqqol sezilib turadi", – deydi. Ushbu fikrlardan anglash mumkinki, Omon Muxtorning "yangiligi"ni hamma ham salbiy munosabat bilan qarshi olgani yo'q. To'g'ri, bu "yangilik"larni kamchiliklardan holi deb ham aytib bo'lmaydi, biroq o'z o'quvchisini topgan asarlarning doimo qadrlovchilari mavjud bo'lgani kabi adib asarlarining ham qadrlovchilari vaqtida topildi. Adib asarlari xususida ko'plab munozaralar ham yuzaga keldiki, bu ham ijodkor asarlarining ahamiyati nechog'lik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, adabiyotshunos olim Umarali Normatovning "Ijod sehri" kitobida "Romanning yangi umri" mavzusidagi Dilmurod Qur'onov bilan bo'lgan adabiy suhbat o'rin olgan. Ushbu suhbatda Omon Muxtor romanlariga nazar tashlanib, ushbu romanlarning xususiyatlari haqqoniy baholangan. Masalan, D.Qur'onov ijodkor asarlarini shunday baholaydi: "O.Muxtor ijodiy izlanishlaridagi eng maqbul jihat shuki, uning modern adabiyotiga xos usul va qarashlarni o'zlashtirishda yuksak darajadagi ijodiylik kuzatiladi. Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi, natijada ular milliy adabiy zaminning o'zidan o'sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi..." Shuningdek, D.Qur'onovning: "Fikrimcha, O.Muxtor romanlari poetikasini atroflicha chuqur tadqiq etish orqali adabiyotshunosligimiz, adabiy tanqidchiligimiz oldidagi ko'plab chigal masalalarni oydinlashtirish mumkindek ko'rinadi", – degan fikrlari adib ijodini o'rganishning ahamiyatini belgilab beradi. Yuqorida nomi qayd etilgan suhbatda munaqqid U.Normatovning fikrlari ham muhim asoslarga ega: "Omon Muxtor yangi romanlarida zamonaviy jahon romanchiligi tajribalarini yodga tushiruvchi xususiyatlar talaygina – ularda an'anaviy realizmga xos aniq zamon, aniq makon tushunchasi yo'q, hodisa-voqealarni ayni hayotdagidek gavdalanirish, izchil bayon etish, qahramonlar ruhiyatini urf bo'lgan realizm mantiqi asosida ochish, ifodalash ham yo'q: reallik bilan hayotlot, o'ng bilan tush ayqash-uyqash holda keladi, aniqrog'i, voqea-hodisalar real hayotda emas, hayolparast qahramonning hayolida, ongida kechadi; qahramon ongida reallik bilan hayotlotning qo'shilib-chatishuvidan iborat g'aroyib dunyo, hayotning o'ziga xos badiiy modeli yaratiladi..."

Umuman olganda, modern adabiyoti mahsuli sifatida yaratilgan romanlar, jumladan, Omon Muxtor romanlarining badiiy quvvati, kompozitsiyasi, sujet tarkibi yengilgina hazm qilinmaganidan ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ham adibning noan'anaviy yo'lda yozilgan romanlari xususida oxirgi xulosani aytib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, ijodkorning yutug'i ham aslida ushbu bahslarni yarata olganidadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi.
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., Sharq, 2004.
3. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006.

КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-ТУШУНЧАВИЙ ВА ТОИФАВИЙ АСОСЛАРИ

М.А.Тилакова Чирчиқ давлат педагогика институти илмий тадқиқотчиси
Ш.Нишанов. Жиззах давлат педагогика институти ҳузуридаги
қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази

Ўқувчилар креатив қобилиятларини ривожлантириш давлат аҳамиятидаги ва ижтимоий-педагогик статусликдаги муаммо бўлиб ҳисобланади. Ўқувчиларда асосий креатив – интеллектуал-ижодий қобилиятларни ривожлантириш – ҳозирги замон таълим тизимида биринчи даражали вазифадир. Бинобарин, янги авлод шахсининг креатив – иждодий ривожланиши, унда юксак идрок қилиш фаоллиги билан интеллектуал-ижодий фикрлаш дадил, турланувчан, ранг-баранг, мантикий-тахлили, ўзига хос, ностандарт, янги – “ўз”, иждодий тасаввурга эга бўлган, ўзиники, тугалланган, умумлаштирилган, махсулдор сингари шундай муҳим қобилиятларнинг ривожланиши – замон талаби, ўқув, ҳаётий, меҳнатга оид ва социал-ижтимоий муваффақиятнинг асосидир. 1 Ўқувчиларнинг бундай креативлигининг муваффақиятли ривожланиши ўқишдан ташқари шароитларда, айниқса, ўз халқи ва бошқа халқларнинг тарихий-маданий меросини ўрганиш жараёнида бўлиши мумкин. Масалан, Ўзбекистон ҳудудида сақланиб қолган, миллий бойлик ва жаҳон қадрияти ҳисобланган бутун дунёга машҳур меъморчилик ёдгорликларини келтириш мумкин. Бунинг устига, ҳозирги замон ёшлари ўз халқининг тарихи ва маданиятига фаол қизиқишларини билдирмоқдалар. Шундай қилиб, шахсни ривожлантиришнинг энг муҳим мезони сифатида креативлик – иждодкорлик ҳисобланади. Креативлик – шахснинг иждод қилишга қобилиятининг мавжудлигини кўрсатувчи тавсифидир.

Ўқувчилар креатив қобилиятларини ривожлантириш муаммосини ечишнинг муҳим шarti сифатида “Ўзбекистон тарихий-маданий ёдгорликлари: креатив ўрганиш” мавзусидаги синфдан ташқари машғулотларнинг педагогик жиҳатдан мақбул бўлган ва самарали тарбиявий мазмуни, жараённинг ўзининг структуравий-мазмундор асоси ҳисобланади. Ўзбекистоннинг тарихий-маданий мероси – қадимий меъморчилик ёдгорликларини ўрганиш жараёнида ўқувчиларнинг интеллектуал-ижодий сингари креатив қобилиятларини ривожлантиришга йўналтириш билан амалга оширилади. Бунда креатив қобилиятларни, хусусан, интеллектуал-ижодий қобилиятларни талаб қиладиган топшириқлар ва бошқа тадбирларнинг ҳар хил турларида эгалланган тарихий-маданий билимлар, эмоционал-эстетик ва меъморий-бадий таассуротларнинг интеллектуал-ижодий жиҳатдан акс эттирилиши назарда тутилади.

Креатив. Креатив - creatio - лот. – бунёдга келтириш, яратиш, одатдан ташқари ғояларни келтириб чиқариш, фикрлашнинг анъанавий схемаларидан четга чиқиш, муаммоли вазиятларни тез ҳал қилиш қобилияти тушунилади. Креативнинг диққат марказида иждодкорлик мавзуси турибди. Психологияда бу тушунча иккита йўналишда: – иждодкор шахснинг ҳаётий тажрибаси ва индивидуал хусусияти (шахсиятли омилар); иждодий фикрлаш ва унинг махсуллари (креативликнинг омилари – фикрлашнинг бир онлиги, аниқлиги, ўзгарувчанлиги, муаммоларга нисбатан сезувчанлиги, ўзига хослиги, топқирлиги, уларнинг ечимини топишда конструктивлиги) сифатида кўриб чиқилади.

Креативлик. Креативлик (инглиз. creativity) – ўзига хос қадриятларни яратиш, ностандарт, иждодий қарорларни қабул қилишга оид индивидларнинг чуқурликдаги хусусиятини акс эттирувчи қобилият.

Ностандартлик ва иждодий ечимни яратилган-янги, ўзига хос, интеллектуал-ижодий фаолият жараёнида – фаол идрок қилиш ва иждодий кўтаринки руҳ асосида “барча маънавий кучларнинг иждод объектида тўлиқ равишда тўпланганлигида, эмоционал кўтаринкилик ҳолати тушунилади. 2 Креативлик – бу ҳиссиётларда, мулоқотда, фикрлашда, фаолиятнинг ҳар хил турларида намоён бўладиган иждодий истеъдодлар. Бу ғояларни шакллантириш ва турли “махсуллар”ни яратишнинг иждодий жараёнидир. Бу янги ғояларга нисбатан зехнлилик, қандайдир янги мазмунга нисбатан танқидий муносабат деб тушунилади.

Бугунги кунда креативлик, тавсифлар комплексига боғлиқ бўлган барқарор шахснинг вазифаси сифатида қабул қилинади. Шунинг учун, креативликни ривожлантиришдаги асосий масала – шахсиятли сифатларни аниқлашдан иборат. Айнан, улар туфайли ҳам, шахс ўзини намоён этади. Креативлик ўз ичига алоҳида муаммоларга нисбатан сезувчанликни, ахборотнинг етишмаслигини киритади. Креативлик ифодали ва оғзаки бўлади.

Креатив қобилиятларнинг асосий мезонлари: ўзгарувчанлик (ақл, фикрлашга оид), бир онлилик (вақт бирлигидаги ғоялар сони), ўзига хослик (фикрлашга оид, янги ғоялар), метафориклик (ғайриоддийлик, ғаройиблик, ассоциациявийлик), идрок қилишлик, сезувчанлик (ғояга, ғояларга, тафсилотлар кабиларга бўлинади. Бунинг барчаси зарурий мотивация асосида ривожланади.³ Бунда яна қуйидаги қобилиятлар: қизиқувчанлик (хайратланиш қобилияти, синчқовлик, очиклик), аниқлик (фикрлашни аниқлаштириш қобилияти), такомиллаштириш, ижодий маҳсулга тугалланганликни бахш этиш, дадиллик (ечимлар ва хулосаларга оид) киради.

Креативлик ва интеллект. Креативлик интеллект билан боғлиқ (ақлий қобилиятлар структураси, ақлий операциялар, дадил мулоҳазалар тизими, фаол идрок қилишга оид фаолият. Вазиятга нисбатан самарали индивидуал ёндашув. Креативлик – бу фаол ижодкорлик, интеллектуал даражадаги ижодий қобилиятлардир. Шундай қилиб, креативлик интеллектга боғлиқ атама ҳисобланади.

Ўқувчиларида интеллектуал-ижодий қобилиятлар айниқса, фаоллашган (ёшига оид креативлик) бўлади. Шунинг учун интеллектуал-ижодий фаолиятни олдиндан айтиб бериш мумкин. Бу ерда ўқувчиларнинг шунга ўхшаш фаолиятга, яъни, энг аввало, ижтимоий-шахсиятли аҳамият ва кўрамликни касб этувчи, “ўзининг” фаолиятига йўналганликка қизиқиши айниқса, муҳим

Интеллект–фикрлаш. Интеллект (лот. Intellectus – тушуниш, ақл) – ақл, инсоннинг фикрлаш қобилияти, англаш, тушуниш. Тушуниб етиш – ақлий қобилиятларнинг нисбатан мустаҳкам структураси; бу – тушуниш, ақл – инсон ақли, фикрлаш қобилияти. Биз интеллектни ақлий операциялар тизими, муаммоларни ечишнинг услуги ва стратегияси, идрок қилиш фаоллигини талаб қиладиган вазиятга нисбатан индивидуал ёндашувнинг самарадорлиги (яъни, когнитив услуб) билан тенглаштирамиз. Бу –ақлий операциялар, муаммолар, турли масалалар ва вазиятларни индивидуал, самарали, идрок қилиш билан фаол ечиш қобилияти. Бу яна нафақат,ижодий топшириқларга, балки, “социомаданий ҳаётга самарали қўшилишга, муваффақиятли мослашишга нисбатан қобилиятлар ҳисобланади. Интеллект – айнан, ақлий қобилиятларнинг нисбатан мустаҳкам назарий ва амалий фикрлашнинг структураси.⁴

Интеллектнинг базавий структуралари инсоннинг эмоционал-иродавий хусусиятларига, амалий ва назарий ўзаро муносабатлар қобилиятига, унинг ҳаётининг шароитларига боғлиқлигини ифодалайди.

Интеллектнинг мазмуни индивиднинг тегишли ижтимоий муҳим фаоллиги, муҳити (ўқиш, ишлаб чиқариш ва б.)га боғлиқ.

Интеллектуал фаолият – ақлий масалалар, вазифалар ва муаммоларни ечиш жараёнидир. Унинг предметли мазмуни билан эмоционал компонентнинг бўлиши шарт.

Фикрлаш объектни танлаш, мақсадли мулоҳаза асосида уни идрок қилишдан бошланади аммо, фикрлашда асосий бўлиб, қарор қабул қилиш ҳисобланади. Фикрлашнинг аввал эгалланган билимлар, маълум тажриба билан мос келиши муҳимдир.

Фикрлашнинг турлари:

- ✓ оғзаки-мантикий, кўрғазмали-ифодали, кўрғазмали-таъсирчан(назарий, амалий, мантикий-тахлилиий фикрлаш);
- ✓ интуиция, амалий, аутистик (воқелиқдан ички кечинмаларга кетиш билан фикрлаш);
- ✓ маҳсулдор, репродуктив, ихтиёрий, беихтиёрий фикрлаш;
- ✓ аниқ-абстрактли, ақлий, изоҳловчи, гипотетик, тадқикий, тахлилиий, қиёсий, қидирув, баҳоловчи фикрлаш.

Фикрлашда масалалар мотивациявий асосда ўз ечимини топади. Масалан, фикрлашда эмоциялар, олдиндан пайқаш ва мақсадни англаш катта аҳамият касб этади. Фикрлашнинг натижаси – нутқий “маҳсулот” (ёзма ёки оғзаки), бўлиб бошқаларга етказиш учун асосан, умумлаштиришни талаб этадиган мулоқотда пайдо бўлади.⁶

Фикрлашнинг эслатиб ўтилган турларидан мантикий-тахлилиий фикрлашнинг устуворлиги (қадимий-меъморчилик ёдгорликларини идрок қилиш жараёнида) айниқса, назарий, амалий ва ижодий фикрлашлар қўлланилган.

Назарий фикрлаш – фикр – сўз – ички нутқ – интеллектуаллашган нутқ тушунилади. Зарурий тушунчалар, мулоҳаза мантиқи – оғзаки-мантикий, абстракт, кўрғазмали-ифодали

мулоҳаза асосида амалга оширилади. Уч йўналишда: фикрлашнинг тушунчавий тартиби, нутқий интеллект ва ҳаракат қилишнинг ички режаси. Машғулотлар риторика – оммавий нутқ билан режалаштириш, тузиш ва чиқиш; фикрнинг ёзма равишда баён этилиши (баён, иншо) мумкин. Материалнинг мазмуни ва баён қилиниши шаклига эътибор бериш биланмасалан, топшириқнинг – матн тузиш: асосий сўзлар ёки тушунчалар бўйича; аниқ мавзуга; расм, фотосурат бўйича; матн мазмуни режаси (ёки схемаси)ни тузиш; режа бўйича (матнга оид), унга ном (мавзу) бериш ва бошқалар.

Назарий интеллект – фикрлашни шакллантиришнинг шарт-шароитлари: тушунчалар ва тоифаларни ўзлаштириш, интеллектуал масалаларни ечиш, режалаштириш (ҳаракатларни), риторика – нутқий фикрлашнинг ривожланиши сифатига амал қилинади.

Амалий фикрлаш – билимларни мустақил равишда эгаллаш. Амалий интеллектга қўйиладиган талаблар: амалий масалаларни тез ечиш, тўғри маъно, топқирлик, зийраклик, интуиция, чуқур ўйланганлик, режалилик, мустақиллик, тежамкорлик, тадбиркорлик, тезкорлик. Вазифалар: китоб билан ишлаш – конспект ёзиш, матнлар тезисларини ёзиш, кўчирмалар; ҳисоботни, кундалик дафтарни юритиш.

Амалий фикрлаш (интеллект)ни такомиллаштириш: интеллектуал вазифаларни (мустақил, ижодий, маҳсулдор тарзда) тез ва самарали ечиш. Масалан, қизиқиш ва қобилият билан муносабатдор бўлган (онгли равишда, мотивациявий тарзда) муаммо, фаолиятни танлаш.

Ижодий фикрлаш – субъектив жиҳатдан янги маҳсулотни яратиш ва уни яратиш бўйича идрок қилиш фаолиятининг ўзида янги ҳосилалар билан тавсифланадиган фикрлаш тури.

Унда ўқувчиларга–тилга оид воситалар асосида, умумлаштиришларнинг ҳар хил турлари билан маълум бўлган тушунчалардан, мантиқий конструкциялардан ва алгоритмлардан, планлардан, схемалардан фойдаланиш лозим бўлган мантиқий-таҳлилий фикрлаш киради.

Бадий фикрлаш – санъат асарларини идрок қилишга йўналтирилган интеллектуал фаолият. Бу идрок қилувчининг интеллектуал потенциали воситасида унинг аломатлари, хусусиятлари ва спецификаси тўғрисидаги тасаввурлар билан боғлиқ бўлган асарни бадий жиҳатдан ўзлаштириш услуби ёрдамидаги маънавий-амалий фикрлаш тушунилади. Унда эстетик аспект муҳим: масалан, ҳозирги кунда қадимий-меъморчилик объектининг эстетик аҳамияти тўғрисидаги мулоҳаза. Ўқувчиларнинг, айниқса, идрок қилишга оид фаолиятидаги (етарлича шаклланган), тарихий-маданий меросни (энг аввало, назарий, амалий, ижодий, кўргазмали-ифодалади, оғзаки-мантиқий, кўргазмали-таъсирчан ва ҳаттоки, интуитив) ўрганишга йўналтирилган фикрлашга мурожаат қилиши ўқувчиларнинг идрок қилиш фаолияти жараёнини бойитади. Бунда тушунча, мулоҳаза, умумлаштириш, хулоса каби фикрлаш шакллари маъқуллаш зарур. Яна ўқувчиларнинг мотивациявий соҳасини ҳисобга олиш; уларнинг эмоционал маданиятига эътибор бериш, рефлексиясини тажрибадан ўтказилади. Фикрлаш фаолияти тўғрисида ижтимоий жиҳатдан мўлжалланган фаолият сифатида эслатиб туриш лозим. 7

Ижод – фикрлаш. Индивидуал ижод (жараён) ва интеллектуал фаолият уларга қўйиладиган талаблар тушунилади.


Кўриб чиқамиз: ижодни; моҳиятини, у нимани талаб қилишини; ижодий қобилиятлар; интеллектуал ижод – қобилиятлар; фаолият, интеллектуал-ижодий фаолият; моҳияти, структуравий-даражавий компонентлари, схемаси ва технологиясини; интеллектуал ижодни, унга қўйиладиган талабларни.

Ижодкорлик – унинг натижаси сифатида, Ўзбекистон меъморчилик санъати ёдгорликларига бағишланган интеллектуал-ижодий “маҳсулот”нинг яратилиши ҳисобланган ўқувчиларнинг идрок қилиш фаолиятига эътибор қаратилади. Бу ижодкорлик жараёнида маълум даражадаги мотивлар, билимлар, маҳоратлар ва қобилиятлар бўлиши зарур. Бу янгилиги, ўзига ҳослиги, юксак идрок қилиш даражаси, интеллектуал-ижодий потенциали билан ажралиб турган, Ўзбекистон тарихий-маданий қадимий-меъморчилик ёдгорликлари тўғрисидаги интеллектуал-ижодий “маҳсулот”нинг яратилишини ифодалайди. Ўқувчиларнинг интеллектуал ижодида – бу яна самарали методлар, воситалар, идрок қилиш-маърифий фаолияти, жамоат билан мулоқотнинг анланган қидирувидир. Демак, ижод – вужудга келган вазифани аввалдан маълум бўлган услублар ёрдамида ечиш учун талаб қилинганнинг доирасидан чиқиб кетадиган, унинг энг олий шаклидаги фикрлаш экан 8

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –б
2. Коменский Я.А. Буюк дидактика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1970. -430 б.

3. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. –Тошкент: Ёзувчи, 1996. 272 б.
4. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития /В сб. «Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи». – Алматы: Респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. – 235-259 б.
5. Нишонов С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: Пед. фанлари докт. дисс. автореф. – Т., 1998. – 37 б.
6. Моляко В.А. Психология творческой деятельности. – М.: Высшая школа, 1998. – 117 б
7. Кузнецова Л.Б. Учащимся – о культурно-историческом наследии. – М., 1999. – 111 б.
8. . Молчанов Л.А. Школьникам – о памятниках истории Великой отечественной войны. – М., 1999. – 121 б.



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ.

Эгамбердиев Рустам Нарзуллаевич
Региональный центр переподготовки и повышения
квалификации работников народного образования
при Джизакском государственном
педагогическом институте

Политические и социально-экономические изменения, происходящие в нашей стране, вызвали обновление системы образования.

Сегодня большинство школ и дошкольных учреждений пытаются отойти от традиционной системы, частично изменяя формы и содержание образовательного процесса. Появление образовательных учреждений нового типа вызвано стремлением социума к преодолению единообразия, целенаправленной ориентацией на потребности и интересы населения. Происходит переход к инновационному типу образовательного процесса, новым педагогическим технологиям и новому содержанию учебной и воспитательной работы.

Многие учреждения осваивают новые образовательные программы и технологии работы с детьми. Осуществляется интеграция дошкольного, начального общего и дополнительного образования через реализацию программ развития детей на базе дошкольных учреждений, школ и учреждений дополнительного образования, взаимодействие образовательных учреждений с научными, медицинскими организациями, учреждениями культуры, создаются правовые, научно-методические, организационно-управленческие, практические предпосылки для введения стандарта образования. Поиск инновационных путей в системе образования детей связан с тем, что в современном обществе после некоторого спада значимости образования оно вновь становится безусловной ценностью. Спектр умений и навыков, которыми овладевает ребенок, современные родители начинают рассматривать как базу для его возможной успешной карьеры в будущем.

В контексте изменений системы образования происходит обновление дошкольного образования. В настоящее время развивается сбалансированная вариативная сеть дошкольных учреждений в соответствии с «Типовым положением о дошкольном образовательном учреждении» и образовательными потребностями семьи. Однако на современном этапе прогрессивная тенденция развития образования в дошкольном учреждении стала склоняться в сторону превращения детского сада в школу для малышей. Смещение приоритетов в воспитании и обучении дошкольников может быть объяснено, на наш взгляд, сужением и обеднением в современной педагогике сущности понятия «образование» (относительно трактовки П.Ф. Лесгафта), которое сводится сегодня к овладению определенной суммой знаний, умений и навыков, а не формированию мировоззрения и освоению опыта человечества в определенном направлении. В этой связи возросший спрос на так называемые образовательные услуги, появление различных центров образовательных услуг приводят нередко к искажению целей и задач дошкольного образовательного учреждения. В сущности, вопрос часто сводится к узко трактуемой подготовке к специализированному обучению. При этом отодвигается понятие о самоценности дошкольного возраста, его самостоятельности.

В современном образовании детей ярко проявляются противоречия между достижениями в области обучения и потерями в состоянии их здоровья. Становится очевидным, что сегодня

необходим научный взгляд на деятельность образовательных учреждений не только с точки зрения решения задач обучения, но и целенаправленного воспитания здорового поколения.

Проблема «Здоровый ребенок» решается в педиатрии и педагогике не первый год. Однако, ни одну проблему в современном обществе невозможно решить только на административном (запретительном) или идеологическом (просветительском) уровне. Ее можно решить только комплексно, путем создания новых экономических, социальных, правовых и других условий и всестороннего учета их возможных последствий.

Сегодня острота проблемы здоровья детей обусловлена изменившимися экологическими условиями, экономическими и демографическими процессами, происходящими в обществе. Социальная ситуация в обществе по-прежнему остается тяжелой. Это отражается на демографических процессах. Депопуляция носит не ситуативный или региональный, а постоянный прогрессирующий характер. Последствия этого процесса многочисленны, тяжелы и затрагивают все сферы жизнедеятельности общества. По данным экспертов, величины потерь от старения населения, ухудшения воспроизводственного и трудового потенциала будут значительно больше, чем потери экономического кризиса. Для их компенсации потребуется период времени, измеряемый поколениями.

В структуре детской инвалидности преобладают психоневрологические заболевания, заболевания внутренних органов, опорно-двигательного аппарата, нарушение зрения и слуха. Среди причин, способствующих возникновению инвалидности у детей, основными являются ухудшение экологической обстановки, неблагоприятные условия труда женщин, рост травматизма, отсутствие условий и культуры здорового образа жизни, высокий уровень заболеваемости родителей.


В складывающейся ситуации вопрос формирования, сохранения и укрепления здоровья ребенка, начиная с самых ранних этапов его развития, приобретает особую актуальность. В условиях возрастания объема и интенсивности учебно-познавательной деятельности, гармоничность развития организма дошкольников невозможна без оптимальных физических нагрузок. Являясь биологической потребностью человека, движения служат не только обязательным условием формирования всех систем и функций организма, но и являются средством предотвращения многих заболеваний.

Катастрофическое снижение уровня здоровья жителей нашей Республики диктовало переориентацию с начала 90-х годов научных исследований на проблемы физического воспитания оздоровительной направленности. Таким образом, особенностью построения и проведения занятий в настоящее время является необходимость учета отклонений в состоянии здоровья детей.

Изменения в содержании, формах, методах дошкольного образования связаны с происходящей в обществе переоценкой ценностей, с изменением общественного сознания. Все силы родителей направлены на обеспечение материального достатка в семье, что влечет за собой уменьшение времени воспитания детей. Поскольку дети и родители нуждаются в квалифицированной помощи и проблема перестройки деятельности дошкольных учреждений с целью наиболее полного удовлетворения нужд семьи, стала в последние десятилетия особенно остро. Поэтому так важно сохранение дошкольных учреждений, главной задачей которых является воспитание духовно богатой, физически здоровой, эстетически развитой личности. Однако при признании целесообразности традиционной системы физкультурно-оздоровительной работы в дошкольных учреждениях, следует отметить, что реализация ее отдельных компонентов во многом отстает от требований сегодняшнего дня. Последние годы, как ученые, так и педагоги, работающие с дошкольниками, активно ищут эффективные пути физического совершенствования дошкольников. В то же время, не все инновационные процессы, происходящие в физической культуре дошкольников, однозначно могут быть определены как положительные. Сегодня существует насущная необходимость в научно обоснованных подходах выявления проблем в физической культуре дошкольников и поиске путей их решения.

Литература

1. Галагузова М.А., Галагузова Ю.Н., Штинова Г.Н., Тищенко Е.Я., Б.П.Дьяконов «Социальная педагогика» курс лекций, Москва ГИЦ «Владос» 1999.
2. Данилин Е.М. «Использование системы А.С. Макаренко в деятельности ВТК», М.-1991.
3. Беличева С.А. «Основы превентивной психологии», М-1993.
4. Божович Л.Я. «Личность и ее формирование в детском возрасте», М., 1998.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

*N.Ergasheva JDPI huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari"
kafedrası o'qituvchisi*

Bilim olish jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar: darsning yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalaridan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, o'quvchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini orttirishda fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish konsepsiyasining aniq belgilanishi va unga amal qilinishi ijobiy natija beradi. Uyumiy o'rta ta'lim maktabining eng muhim maqsadi o'quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdan iboratdir. O'quvchi vaqt o'tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular butunlay izziz yo'qolib ketmaydi. Olingan bilimlar, garchi o'quvchilar unutganda ham, xotirada ma'lum darajada iz qoldiradi. Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Ba'zan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi.

O'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlar xotirada mustahkam saqlanishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratishi shart.
2. O'quv materialidagi asosiy fikr o'rganilgan masala bo'yicha o'quvchiga tanish bo'lgan g'oyaga bog'langan bo'lishi kerak.
3. Bilimlar o'quvchilarning qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina ular bolaning boyligiga, yutug'iga aylanadi va u bilimlarni esidan chiqarmaydi.
4. O'quv materialini o'quvchining amaliy ishlari va mashqlariga bog'lab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Ta'limning hozirgi sharoitida bolalarning individual xususiyatlarini o'rganish va ularga yakka tartiba yondashishni amalga oshirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, o'qitishning birinchi bosqichida o'qituvchining bevosita boshchiligida bajariladigan o'quv ishlaridan keng foydalaniladi, o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kerakli ishga mohirlik bilan yo'naltirib turishi kerak. Ammo hozirgi vaqtda o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ta'sirli metod sifatida o'quvchilarning mustaqil ishlariga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. O'quvchilarning mustaqil ishlari hozirgi vaqtda o'qitishning hamma bosqichlarida, shu jumladan, yangi bilimlarni berish bosqichida ham kuzatiladi. Bu muhim hodisa hozirgi zamon ta'limining o'quvchilarning umumiy rivojlanishlariga yo'naltirilganligini yana bir karra ta'kidlaydi.

Mustaqil ish - o'quvchilarning o'qitish jarayoniga qo'shiluvchi, o'qituvchining bevosita qatnashuviziz, maxsus ajratilgan vaqt davomida uning topshiriqlari bo'yicha bajariladigan ishdir. Bunda o'quvchilar topshiriqda qo'yilgan maqsadga erishishga o'z kuchlarini sarflaydilar, aqliy yoki jismoniy (yoki ikkalasini birgalikda) harakatlar natijasini biror ko'rinishda ifodalab, ongli ravishda intiladilar.

O'quvchilar bilan bajariladigan mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:


- a) didaktik maqsadlar bo'yicha. Bu ishlar o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga (idrok qilishga) tayyorlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga, ilgari o'tilgan materialni takrorlashga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.
- b) o'quvchilar mustaqil ishlayotgan material bo'yicha: darslik bilan, didaktik material ustida, bosma asosli daftar ustida ishlash va hokazo;
- v) o'quvchilardan talab qilinadigan faoliyat xarakter bo'yicha: bu nuqtai nazardan ishlarni berilgan namuna bo'yicha, berilgan qoida bo'yicha va hokazo bir- biridan farq qilinadi;
- g) tashkil qilinish usuliga ko'ra: umumsinf ishi, bunda sinfning hamma o'quvchilari bitta ishning o'zini bajarishadi; guruh ishi, bunda o'quvchilarning har xil guruhlari har xil topshiriqlar ustida ishlashadi, individual ish, bunda har bir o'quvchi maxsus topshiriq ustida ishlaydi.

Matematikadan deyarli har bir darsda 2- 3 ta qisqa vaqtli mustaqil ish o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Shu vaqtning o'zida o'quvchilarni mustaqil ishlashga yetarlicha tayyorlamay turib, ularga topshiriqni bajarishda mustaqillik berish ko'pincha o'quv vaqtini isrof qilishga olib keladi.

Ta'lim rivojlanib borgani sari mustaqil ishlarning hajmi, murakkabligi oshira boriladi.

O'quvchilarning ish tezligi, mustaqillik darajasi o'sadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darsning turli bosqichlarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarning har biri ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi. Masalan, o'tilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalardagi zaif tomonlarni aniqlash maqsadida tashkil qilinsa, yangi mavzuni o'rganishdan oldin shu mavzuga oid materiallar asosida uyushtiriladigan ishlar o'quvchilarni yangi o'quv materialini faol idrok etishga tayyorlaydi. Mavzu o'rganilgach, tashkil qilinadigan mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlashga va malaka hosil qilishga xizmat qiladi.



O'QUVCHILARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNI ROLI.

*K.Hakimov JDPI huziridagi VXTXQTMO hududiy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi o'qituvchisi*

Komil insonni voyaga etkazishda boshlang'ich ta'lim shubxasiz mustaxkam poydevor ro'lini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bulishlari shart!" -degan so'zlariga asosan mustakillik yillarida ta'limni tubdan islox qilish borasida benihoya ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi o'rta maktab o'qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 12 yanvar kuni "Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda bolalar adabiyotining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratdilar.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning maksadi, milliy hamda jaxon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustakil fikrlash, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni urgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustaxkamlab borishdan iborat.

O'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

bolalarda matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgarlar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qaxramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qaxramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlash mashg'ulotlari o'qish darslari bilan boglab olib boriladi.

O'quvchilar o'qituvchi raxbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsa, keyinroq bolalar yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar, o'quvchilar milliy va jaxon adabiyotlarini o'qib, taxlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o'quvchilarning ogzaki

hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgaralar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi. Xususan, ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining zamonaviy asarlarini tanlab, oquv jarayoniga joriy etish masalasiga alohida urgu berilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qish fanini o'qitishda, milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrozli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarini hosil qilish va rivojlantirish; oquvchiarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustaxkamlab borishdan iborat.


Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda sinfdan tashkari o'qish uchun berilayotgan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uygotishi, yoki obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilxomlantirishi zarur.

Taniqli ital'iy bolalar yozuvchisi J.Rodarning no'ananaaviy ertaklari bor. Turkum ertaklarida ertakning birinchi va ikkinchi tugashi aks ettiriladi. Ya'ni o'quvchi ertakni yozuvchi yozganidek emas, o'zi istaganidek tugallashi mumkinligiga ishora beriladi. "Maqolni davom ettiring", "O'zimiz she'r yozamiz", Ertakni siz qanday tugatgan bo'lar edingiz?" kabi usullardan foydalanib, ularning ijodkorlik va topqirlik xislatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dars jarayonida fanga oid kompetentsiyalar o'quvchining o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bu esa bola zehni oshish, ularni nutq va so'z boyligining kengayishiga, fikrini mustaqil, erkin bayon etishga asos bo'ladi. "Mening shahrim", "Mening oilam", "Obod mahallam" kabi insholar tanlavi ham o'quvchilarning ochilmagan qirralari, ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Bolalar uchun yozilgan kitoblar yosh avlodni o'z fikrini mustaqil bildirish, uni boshqa fikrlar bilan taqqoslay olishi, mavzu mazmunini yengil o'zlashtirishi va tabiiyki fanga bo'lgan qiziqishining oshishiga sabab bo'ladi. Bolalar uchun yozilayotgan eng yaxshi asalar yosh avladni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar yaratishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, madaniyatimiz, fan va texnika yutuqlari bilan tanishtiradi, va o'quvchilarda faxr tuyfularini o'stiradi.



МАКТАБЛАРДА СПОРТ ТЎГАРАК МАШҒУЛОТЛАРИ ВА СОҒЛОМЛАШТИРИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАР.

*Абдукарим Жўрабаев Маматқулович
ЖДПИ ҳузиридаги ХТХҚТМОҲМ ўқитувчи*

Жамиятнинг ўсиб келаётган ёш авлод саломатлигига муносабати ва таълим жараёнининг тарихий ривожланишини ўрганиш натижалари шуни кўсатадики, инсон саломатлигини муҳофаза қилиш иқтисодий, сиёсий, ижтимоий муаммолар билан чамбарчас боғлиқдир. Жамият тараққиёти билан боғлиқ тарзда "саломатлик" тушунчаси ўз доирасига жисмоний ҳамда ахлоқий-маънавий саломатлик йўналишларини қамраб олади. Саломатлик икки йўналишда кўриб чиқилади: бу жамият саломатлиги ва яқка шахс саломатлигидир. Жамият саломатлиги бир қатор демографик кўрсаткичлар билан белгиланади. Булар: туғилиш даражаси, ўлим даражаси, ўртача умр кўришининг давомийлиги, касалликка чалиниш статистикаси кабилардир. Саломатлик муаммоси билан шуғулланувчи тадқиқотчилар ижтимоий-иқтисодий муаммолар билан боғлиқ тарзда шахс саломатлигининг ёмонлашувига асос бўла оладиган бир қатор сабабларни кўрсатиб ўтганлар.

"Индивидуал шахс саломатлиги"ни олимлар турлича шарҳлайди. Аммо индивидуал шахс саломатлигининг ягона мезони бугунги кунга қадар ишлаб чиқилмаган. Шунинг учун ҳам барча муаллифлар инсон саломатлиги эндоген, конститутцион мослашган, генетик сабаблар билан боғлиқ, деб ҳисоблайдилар. Бироқ, улар бир қатор ижтимоий омиллар таъсири остидадир. Жумладан, муҳит, оила, таълим, тарбия ва ҳоказолар. Ҳозирги замон психологияси ва физиологиясининг илмий асосларига таянган ҳолда шахс саломатлигини муҳофаза қилишга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини вужудга келтириш бугунги кунда муҳим ижтимоий-педагогик аҳамиятга эга. Ўқув жараёнининг психофизиологик ҳамда психопедагогик кийинчиликларини, ўқувчилар саломатлигини назорат қилиш асосида уларнинг индивидуал ва ёш

жихатдан ўзига хослигига таянган ҳолда аниқлаш лозим. Таълимни ахборотлаштириш ва компютерлаштириш, телекоммуникацион ва ахборотлаштириш технологияларининг янги воситаларини ўзлаштириш, таълим мазмунининг мунтазам модернизациялаштирилиши, кенг қўламли ахборотларнинг мутахассислар тайёрлашга йўналтирилиши, замонавий ишлаб чиқариш талабларига жавоб бериш таълим жараёнида ўсиб келаётган ёш авлод саломатлигининг ёмонлашувига таъсир кўрсатувчи омиллардир. Ўқув юкмаси ҳажмининг кенгайиши ўқувчилар саломатлигининг ёмонлашувига асос бўлади. Асаб бузилиши ҳолатлари, умумий маданият даражасининг пасайиши, зарарли одатларнинг тарқалишига имкон берадиган ҳолатлар: чекиш, гиёҳванд моддаларнинг истемол қилиниши, ҳаракатсиз ҳаёт тарзи, норатсионал овқатланиш шулар жумласидандир. Маълумки, таълим жараёнида-таълим олувчилар ҳамда педагоглар иштирок этади. Саломатликни муҳофаза қилишга йўналтирилган ўқув майдонини ташкил қилиш учун биринчи навбатда ўқувчилар ҳамда педагоглар соғлигининг ёмонлашувига таъсир қиладиган омилларни аниқлаш лозим. Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни ташкил этишнинг муҳим вазифалари биринчи навбатда соғлом инсон сиёсатининг муҳимлигидан келиб чиқади. Улар қуйидагилар: -оптимал психологик микроиклим, ижтимоий ҳамда моддий шароитни вужудга келтириш. Жисмоний саломатликни тарбиялаш имконини берадиган, маънавий бой, юксак ахлоқли, билимли шахс, ўзи ва бошқа халқларнинг анъаналарива маданиятини ҳурмат қиладиган ёшларни тарбиялаш, соғлиқни сақлаш ва тиклаш мақсадида даволаш ҳамда мослаштириш тадбирларини ўтказишга бўлган эҳтиёжни шакиллантириш, соғлом тумуш тарзи ва саломатликнинг қимматини англаштириш назарда тутган ҳолда ўқувчилар, педагоглар ҳамда ота-оналар онгини ривожлантириш учун руҳий тузатиш жараёнини амалга ошириш, соғлом турмуш тарзини шакиллантириш назарияси ва амалиёти масалалари бўйича таълим жараёни субъектларининг малакасини ошириш, таълим жараёнида саломатликни муҳофаза қилишга йўналтирилган технологияларни ташкил этиш ва улардан фойдаланиш, саломатликни сақлаш ва мустаҳкамлашга йўналтирилган синифдан ташқари тадбирлар қўламини кенгайтириш ва сифатини таъминлаш, саломатлик имкониятлари чекланган болалар учун истиқболда таълимни кенгайтирган ҳолда (инклюзив таълимни) ташкил этиш, саломатликни муҳофаза қилишга йўналтирилган ўқув жараёни тажрибаларини оммалаштириш ҳамда фаоллик кўрсатиш кабилар. Бугунги кунда мутахассисларнинг эътироф этишларича, носоғлом турмуш тарзи ўсмирларнинг ноижтимоий хулқ-атвори туфайли вужудга келмоқда. Бу асабга фаол таъсир қилувчи нарсаларнинг зарарлари ҳақида ёшларни огоҳлантириш орқали баргараф этиладиган ҳолатдир. Бундай ҳолатлар ёшлар онгида тескари педагогик таъсир кўрсатади ва уларда негатив ҳолатларни индексификациялаш имконини беради. Агар шу маънода шахс ривожланиши, унинг ёш хусусиятлари билан боғлиқ бўлган вазиятларда катталар бирон нарсдан огоҳлантурса ва қандайдир ҳаракатни таъқиқласа, руҳиятга фаол таъсир қиладиган ходисалар ёшларнинг кўпроқ эътиборини жалб қила бошлайди. Педагоглар ёшлар муҳитида кўпроқ қўрқув солувчи ахборотларни тарқатганда улар барча тўсиқлардан тезроқ кутилишга интила бошлайдилар. Юқоридагилардан келиб чиқиб. Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнлар қуйидаги тамойилларга таянган ҳолда ташкил этилади.

-таълим жараёни субъектлари ҳолатларини ташхислаш ва ҳисобга олиш,

-таълим жараёни субъектларининг соғлом турмуш тарзи ва ҳаётий тайёргарликка нисбатан ягона шахсий руҳий эҳтиёжлари,

-атрофдагилар ва ўзининг саломатлиги учун ижтимоий маъсуллик.

-фойдаланиладиган воситаларнинг янгилиги,

-соғлом турмуш тарзини моддий ҳамда маънавий жиҳатдан барқарорлаштириш.

Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни амалга оширилиши қуйидаги омилларнинг таъсирига боғлиқ. –педагогларнинг шахсияти ва уларнинг соғлом тумуш тарзини эгаллашга йўналтирилганлиги, -саломатликни муҳофаза қилишга йўналтирилган педагогик технологияларни кенг қўллаш учун таълим муассасасида моддий-техник базанинг етарлилиги, -педагогик жамоанинг ижодий имкониятларга эгаллиги, -ҳар томонлама сифатли педагогик назоратнинг мавжудлиги кабилар. Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни такомиллаштириш ва ривожлантиришга таъсир кўрсатувчи асосий омиллардан бири сифатида таълим муассасаси раҳбарларининг бошқарув фаолиятини ва ҳамкорликда бошқарувни илмий асосда ташкил этиш заруриятини келтириш мумкин. Саломатликни муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлашга йўналтирилган ўқув жараёнига раҳбарлик қилиш таълим муассасаси директори зиммасига юкланади. Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни ташкил этишда мактаб

директори куйидагиларни назарда тутиши керак, -таълим муассасаси директорининг таълим жараёни субъектлари онгига педагогик психологик коррекция методларини мохирлик билан қўллаш соҳасида етакчи мавкега эгаллиги, –давлат ва жамоатчилик ташкилотлари билан алоқа ўрната олиш, -таълим жараёни ҳар бир субъектининг вазифаларини унинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда аниқлаш, -таълим муассасаси барча таркибий қисимларининг фаолиятини мувофиқлаштириш, - таълим муассасаси фаолиятининг барча турлари устидан назорат ўрнатиш, -моддий ҳамда маънавий барқарорлаштириш методларидан фаол фойдаланишни амалга ошириш имкониятига эга бўлади. Бошқариш амалиётидан маълумки, раҳбарлик фаолияти ўзига хос мураккаб жараён бўлиб, у раҳбардан нафақат олий маълумотга, балки етарли касбий тайёргарликка, бошқарув йўналишида билим, кўникма ва малакаларга, шунингдек, маълум тажрибага ҳам эга бўлишни талаб этади. Умумтаълим мактабларида соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни ташкил этишнинг муҳим йўналиши санитар-гигиеник меъёрлар ва воситаларнинг фаолият кўрсатиш даражасини ҳисобга олган ҳолда уларнинг моддий-техник негизини мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун куйидагиларни қриб чиқиш зарур:

-техник қурилмаларнинг мазмуни ва таъмирини амалга ошириш режаси, иситиш, сув билан таъминлаш. Ёритиш, муҳандислик йўллари таъмирлаш каби чора-тадбирларни ва санитар-гигиеник меъёрлар ҳамда қоидалар асосида ўқув қуроллари, айнан:


- а) юқорида кўзда тутилган тадбирларни молиялаштириш,
- б) микроклимни сақлаш талабларига риоя қилиш, ёритиш, мебеллар, санитар-гигиеник меъёрлар асосида ўқув хонаси жиҳозларини сақлаш,
- в) давлат санитар-гигиеник текширишлари асосида берилган тавсияларга риоя қилиш, санитар-эпидемиологик назорати талаблари асосида ҳужжатларни тўплаш, -ҳаётнинг гигиеник йўналишлари меҳнатни муҳофаза қилиш, техник хавфсизлик ва ёнғинга қарши хавфсизлик бўйича педагоглар, ўқитувчилар билан ўқув машғулотларини ўтказиш, -тиббий хизматни ташкил этиш кабилар.

Фақат шу асосдагина соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнлар самарадорлигига эришиш мумкин. Бугунги кунга келиб таълим муассасаларида ўқувчи саломатлигини мустаҳкамлашга йўналтирилган комплекс дастурлар билан ишлаш кўникмасига эга бўлган педагогларни тайёрлаш долзарб масалалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Тилолов М. Р.Здоровьесберегающие педагогические технологии в образовательном процессе колледжа. (материалы международной научно-практической конференции 22-23 декабр) «Перспективы профессиональной подготовки специалистов XXIвека» Алматинская индустриально-педагогическая академия. Алмата. 2005. С. 42-46.

2.Трещева О.Л. Программно-методические основы обучения здоровому образу жизни учащихся общеобразовательных школ. 2000 г. N 10 С.29-Владенская О. В. Здоровый образ жизни как проблема социального воспитания. Тезисы докладов и выступлений на 2-ой Всероссийской научно-практической конференции 14. 11. 2001.-



O'QUVCHILAR BILIMIDAGI BO'SHLIQLARNI BARTARAF ETISHDA XTB, MAKTAB VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI TASHKIL ETISH.

*N. Ergasheva JDPI huzuridagi XTXQTMOI hududiy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari"
kafedrasi o'qituvchisi*

Bo'shliqlarni bartaraf etish uchun dastlab uning hosil bo'lish sabablarini aniqlash lozim. Uning sabablari quyidagilardan iborat:

O'quvchilar bilimida bo'shliq paydo bo'lishiga

ta'sir etuvchi omillar:

Maktabda yaratilgan sharoit.

1. O'quvchi uyining uzoqligi. O'quv moddiy baza.

2. Ota-onasining befarqligi. Darsliklarning yetishmasligi.

3. O'quvchi xotirasining zaifligi. O'qituvchi kasb-mahoratining

4. Dars davomidagi kayfiyati. yetishmasligi.

5. Salomatligi. Mavzularning murakkabligi.

6. Davomati.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi hamda bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etishga quyidagicha yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalq ta'limi bo'limi metodika kabinetining vazifalari:

Umumta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va tashkil etish.

Ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan elektron jadvallarni o'rganib chiqib, monitoring natijalarini fanlar, alohida mavzular hamda bilim, ko'nikma, malakalar kesimida tahlil etish.

Tahlillar asosida murakkab mavzular bo'yicha fan o'qituvchilari uchun dars ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Monitoring natijalari bo'yicha dars berayotgan fanidan zaruriy bilim va malakaga, yetarli tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun maxsus o'quv-amaliy seminarlar tashkil etib, o'qishlarga jalb etish, zarur hollarda muddatidan oldin malaka oshirish kurslariga yuborish va malaka oshirish kurslaridan o'tishlarini qattiq nazorat ostiga olish.

Maktab rahbarining vazifalari:

Har bir chorak yakunlari hamda o'quv yili yakunlari bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalarini haqqoniyligini ta'minlash va ushbu natijalarni pedagogik kengashlar, metodik kengashlar va metod birlashmalar yig'ilishlarida ko'rib chiqishni ta'minlash.

Monitoring jarayoni bilan barcha o'qituvchilar faoliyatini qamrab olish va ularning faoliyatiga xolisona baho berish.

O'quvchilari bilimida bo'shliq aniqlangan o'qituvchilardan fani bo'yicha testlar olinib, bilim darajasini aniqlash. Malakasi yetarli bo'lmagan fan o'qituvchilari hamda yosh mutaxassislar uchun tajribali ustoz-murabbiylarni biriktirish, muassasada bilim mahoratlarini oshirish uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish.

O'qituvchilar darslarini tahlil qilish jarayonini nazoratga olish va maktab o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosariga dars tahlilini amalga oshirish borasida yordam ko'rsatish.

Tajribali va malakali o'qituvchilarning ishlarini o'rganish va ommalashtirish.

Maktab moddiy-tehnika bazasini yaxshilash va kompyuter texnikasi, telefon va modem aloqasi bilan ta'minlanishiga erishish.

Homiy tashkilotlar, ota-onalar yordamida kutubxona fondini boyitish hamda barcha sinf o'quvchilarini 100 foiz darsliklar bilan ta'minlanishiga erishish.

Uzoq manzildan qatnab o'qiydigan o'quvchilarga kelib-ketishlari uchun sharoit yaratib berish (transport vositalari).

Maktabda kuni uzaytirilgan, korreksion guruhlar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish.

Maktab o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari:

O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni muntazam ravishda aniqlash va muntazam to'ldirib borish chora-tadbirlarini belgilash.

O'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarning o'z vaqtida to'ldirilib borilishini ta'minlash maqsadida o'quvchilar bilan to'ldiruvchi so'rovlar o'tkazish uchun alohida daftarlar yurgizish.

Har bir o'tkazilgan nazorat ishlari sinflar, fanlar kesimida chuqur tahlil qilinib bo'shliqlar paydo bo'lish sabablarini aniqlash.

Bilim, ko'nikma, malakalarni DTS talablari darajasida to'liq o'zlashtira olmagan o'quvchilar uchun fanlardan qo'shimcha mashg'ulotlar jadvalini tuzish va bajarilishini nazoratga olish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari:

O'quvchilar davomatini qattiq nazoratga olish, davomati past bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish.

Oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan o'quvchilarga sinf rahbarlari bilan hamkorlikda moddiy yordam ko'rsatish.

Noqobil oilalar bilan olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish.

Metod birlashmalarining vazifalari:

Monitoring natijalarini metod birlashma yig'ilishlarida o'rganib chiqish.

O'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash.

O'zlashtirishi past, bilimida bo'shliqlar hajmi katta bo'lgan o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar, o'qituvchilar uchun ochiq darslar tashkil etish.

Bo'shliqlar paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan ishlarni yo'lga qo'yish.

Fanlardan murakkab mavzular bo'yicha dars ishlanmalari, tavsiyalar, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish va ommalashtirish.

Sinf rahbarlarining vazifalari:

O'quvchilar davomatini qattiq nazoratga olish, sababsiz darsga qatnashmayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularni o'qishga kelmaslik sabablarini to'liq o'rganish va o'qishga jalb etish;

Mashg'ulotlarga past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni jalb etishda fan o'qituvchilariga ko'maklashish;

Kam ta'minlangan va noqobil oilalar bilan ish olib borish;

DTS talablarini bajara olmagan o'quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan yakka tartibda ish olib borish

Fan o'qituvchilarining vazifalari:

O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

Elektron javdallar asosida aniqlangan bo'shliqlarni bartarf etish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;

Mashg'ulotlarga past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni jalb etish;

Jadval asosida yakka tartibda yoki guruhlarda mashg'ulotlar olib borish va chorak davomida tahlil qilish.

Mashg'ulotlarni innovatsion metodlardan foydalanilgan holda olib borish (o'quvchining sog'lig'i, xotirasi, oilaviy sharoiti inobatga olingan holda mashg'ulotlar o'tkazish ijobiy samara beradi).

Bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldirmaslik.

O'quvchilarning ota-onalarini DTS talablari bilan tanishtirish.

O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mazularni aniqlash, qo'shimcha adabiyotlar, tavsiyalar, metodik qo'llanmalar va internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish borasida o'z ustida ishlash, o'quv-seminarlarida qatnashish, ilg'or tajribalarni o'rganish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan darslarda samarali foydalanish.

Har bir fan o'qituvchisida bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha quyidagi ish hujjatlari bo'lishi lozim:

O'qituvchining "bo'shliq bilan ishlash" daftari. fanidan mavzular kesimida chorak yakuni bo'yicha monitoring nazorati natijalariga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar

REJASI

No	Amalga oshiriladigan ishlar rejasi	Bajarilish muddati	Amalga oshirish shakli
1	Aniqlangan bo'shliqlar bo'yicha mavzular ro'yxatini shakllantirish	Chorak yakunida	Ro'yxat shakllantirish
2	O'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda tabaqalashtirish va mashg'ulotlarni shu asosda	Chorak yakunida	Qo'shimcha mashg'ulotlar
3	Darsdan keyingi tashkil etiladigan qo'shimcha mashg'ulotlarda mavzular yuzasidan Ziyonet, Internet tarmoqlari va qo'shimcha manbalardan olingan	Chorak davomida	Ma'lumotlar banki
4	Mashg'ulotlar jarayonida IPT va AKT vositalaridan samarali foydalanish	Chorak davomida	Mashg'ulotlar jarayoni
5	Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali va didaktik vositalarni o'quvchining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda	Chorak davomida	Psixologik tahlil va pedagogik tayyorgarlik
6	Mavzular o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgandan keyingi monitoring ishlarini o'tkazish	3 kun ichida	Takroriy nazorat

fanidan - chorak yakuni monitoring nazorati natijalariga ko'ra mavzular kesimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha tabaqalashtirilgan o'quvchilar bilan ishlash

JADVALI

O'zlashtirish darajasi past o'quvchilar

No	O'quvchilarning ismi, sharifi	Sinfi	O'quvchilar bilan olib boriladigan faoliyat mazmuni
1			
2			

fanidan chorak yakuni bo'yicha monitoring nazorati natijalariga ko'ra mavzular kesimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan ishlab chiqilgan kengaytirilgan dars ishlanmalar

RO'YXATI

Dars ishlanmalarining mavzulari	O'qituvchining ismi, sharifi	Sinfi	Ishlab chiqilgan dars ishlanmaning qaysi dars turi va qaysi darajadagi o'quvchilarga mo'ljallanganligi

_____ fanidan _____ chorak yakuni bo'yicha monitoring nazorati natijalariga ko'ra mavzular kesimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'yicha

MALUMOT


No	Mavzularning nomlanishi	O'qituvchining ismi, sharifi	Sinfi	Mashg'ulot o'tadigan kunlari sanasi va vaqti
1				
2				

__ tuman(shahar) XTBga qarashli maktabida fanidan 1- chorak yakuni bo'yicha monitoring (Barcha choraklar ham xuddi shu jadvallar asosida tahlil etib boriladi.)

No	Mavzularning nomi	Qaysi sinfga mo'ljallanganligi	Monitoring nazorati natijalarida aniqlangan Samaradorlik darajasi	Mashg'ulotlardan keyingi natijalar asosida aniqlangan samaradorlik darajasi (% hisobida)
1				
2				

Bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilar bilan ishlash rejasi:

1. Sinfdagi bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilarni aniqlash
2. O'quvchilar bilan yakka-yakka suhbat o'tkazish va ularning qiziqishlarini aniqlash
3. Bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilarning ota-onasi bilan suhbat o'tkazish
4. Alohida reja va jadval asosida mashg'ulotlar olib borish
5. Bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilar uchun maxsus jurnal tutish va doimiy monitoringini olib borish
6. O'quvchi uchun murakkab bo'lgan fan uchun alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish va uni doimiy baholash
7. O'zlashtirishda boshqa o'quvchilarga yetib olgan bolalarni rag'batlantirish (ota-onasiga tashakkurnoma yuborish, sinf majlisida e'tirof etish)
8. O'qituvchining bilimida bo'shliqlar mavjud o'quvchilar bilan ishlash yuzasidan ish tajribasini pedagogik kengashlarda, seminarlarda, matbuotda ommalashtirish.



ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА КАК ОСНОВА ВОСПИТАНИЯ.

*Шавкат Нишанов Турабович - Заведующий кафедрой методики обучения языков
РЕГИОНАЛЬНОГО центра переподготовки и повышения квалификации работников
народного образования при Джизакском государственном педагогическом институте
Тен Эльзара Иззетовна-Учитель русского языка и литературы школы №1 города Джизака*

Можно ли утверждать, что литература сегодня воспитывает человека?

Литература в целом – это один из способов познать мир, человечество, самого себя. Литература как нельзя лучше передаёт мысли, взгляды автора, его отношение к жизни, реальности. И каждый писатель создаёт свой художественный мир, с которым согласится и примет его тот или иной читатель.

Художественная информация содержит мощный эмоционально-интеллектуальный заряд, в котором адекватно выражено ценностное отношение художника к миру», а «художественное творчество можно рассматривать как непосредственный «язык ценностей». На ценностях держится мировая культура и, в частности, отечественная литература.

Представления о ценностях являются основой духовного существования человека. Это высшие запросы и устремления человека, идеальные образования, проявляющиеся как двигатель человеческого поведения, как внутренние целевые ориентиры личности.

Однако особенность современной ситуации заключается в том, что глобальный «антропологический кризис» рубежа XX-XXI веков затронул и сферу ценностей, которые оказались перед угрозой редукции и даже тотального уничтожения. Философия прагматизма, утверждающая, что современный мир не нуждается в духовных измерениях, властно овладевает сознанием человека. Не менее драматична ситуация в искусстве, где произошла радикальная переоценка ценностей, а по сути - освобождение от ценностей, которые хранились и приумножались человеком столетиями.

На наш взгляд, литературу можно разделить на два вида: классика и современная проза. Только разбив её на эти два вида, можно задать вопрос: “Правда ли, что литература сегодня воспитывает читателя?” Ответить на этот вопрос, мы думаем, смог бы каждый, кто читал русскую поэзию, русскую классику и произведения современных писателей.

Стоит ли говорить, что, к примеру, А.С.Пушкин воспевал ценности человеческой души, природы, жизни? Стоит ли говорить о том, что классики вкладывали в создаваемое произведение всю свою душу, все свои знания и приобретённый опыт? Обратимся теперь к современным авторам. С нашей точки зрения, целью их творчества не является просвещение читателя и старание раскрыть им глаза. Их цель – деньги, слава, популярность и известность среди читателей. Они не думают о назначении и смысле своего произведения. Ведь, если приглядеться, смысла никакого абсолютно нет. Есть только единая “дешёвая” схема, по которой они работают, и свои деньги они зарабатывают только на необразованности людей, на их глупости и низости. Удовлетворять потребностям читателя – вот основная цель современного автора. Подобные произведения не идут во благо развития человека. Эта литература – не воспитывающая, а разлагающая наш народ, а в особенности молодёжь.

Мы не смеем утверждать, что на данный момент не существует авторов, произведения которых воспитывают читателя. Наоборот. Есть такие, но их – считанные единицы. Стиль их написания – интересен, практически безупречен, язык – чист и не засорен ненормативной лексикой и жаргоном. И опять-таки, эти авторы учились у тех же русских классиков и поэтов: у Пушкина, Лермонтова, Достоевского, Толстого, Лескова, и многих других.

И только прочтение, и сравнение русской классики и современной прозы дают право так говорить, ибо всё познаётся в сравнении.

Создавая общезначимые идеи – образы, вырастающие до всечеловеческих символов, оно выражает смысл всего исторического развития. Гамлет, Дон Кихот, Князь Мышкин Мастер и Маргарита – это уже не просто художественные образы это символы культурно –значимых общечеловеческих ценностей.

Но является ли литература таким, же искусством в наше время и несет ли она воспитательную функцию? На этот вопрос может ответить каждый, кто читал классическую и современную литературу.

Читая произведения как «Война и Мир», «Анна Каренина», «Гранатовый браслет», «Преступление и наказание» мы меняемся, у нас меняется отношение к жизни, и мы становимся

лучше. Они затрагивают нас до глубины сердца и воспитывают нас. Но почему в наше время нет таких произведений, которые давали бы такой, же эффект, если есть, то очень мало. Может потому что людей больше не интересует эти ценности души, любовь, сострадание, совесть! Ведь это трагедия нашего времени – отсутствие хороших произведений. В современных произведениях не пишут о проблемах человеческого сердца, находящегося в конфликте самим собой, а только этот конфликт может породить хорошую литературу, ибо ничего иное не стоит описания не стоит труда. Почему классики вкладывали создаваемое произведение всю душу, все свои знания и приобретенный опыт. А если мы обратимся к современным писателям, о чем они пишут? Они пишут не о любви, но о пороке, о поражениях, в которых проигравший не теряет, о победах, не приносящих, ни надежды, ни что самое страшное жалости и сострадания. Они пишут как равнодушные наблюдатели. Думают ли они о назначении и смысле своего произведения? Эта литература не воспитывающая, а разлагающая наш народ, а в особенности молодежь, Писатели не должны забывать, что их долг создавать такие произведения которые будут воспитывать, и будут помогать человеку понять, что он выстоит перед трудностями, что человек бессмертен потому, что обладает душой, духом, способным к состраданию, жертвенности и терпению.

Они должны не просто создавать летопись человеческой жизни, их произведения должны стать фундаментом столпом помогающим человеку выстоять и победить. Современные писатели должны вспомнить о старых идеалах человеческого сердца - любовь и честь, жалость и гордость, сострадание и жертвенность – отсутствие которых убивает литературу.

Одним из могучих стимулов и средств самовоспитания является художественная литература. Произведения реалистической художественной литературы отражают жизнь людей во всем многообразии ее проявлений. Читая познает различные жизненные пути, которые проходят персонажи произведений, характеры персонажей, их нравственные и волевые черты.

В силу яркости изображения живые образы художественной литературы оказывают более действенное влияние на сознание читателя, чем понятия научных сочинений. Они дают не только знания, но и пробуждают мысли и чувства, стимулируют воображение, заряжают волю к действию. Благодаря всему этому образы художественной литературы способствуют формированию многих сторон личности: интеллектуальной, морально-волевой, эстетической.

«Чем же сильна литература?» — спрашивает М. Горький и отвечает: «Насыщая идеи плотью и кровью, она дает им большую наглядность, большую убедительность, чем философия или наука».

Человек, писал М. Горький, нуждается в героях, и он находит их не только в жизни, рядом с собой, но и в персонажах художественной литературы.

Художественная литература доступна для всех, но глубина ее понимания зависит от того, умеет ли читатель ее читать и каков сам читатель, его вкусы и интересы, морально-мировоззренческие установки.

От личности читателя зависит, что он выбирает для чтения — так называемое «чтиво» или подлинно художественные произведения. Первого рода книги — чисто развлекательные, они ничего не дают, кроме сиюминутного удовольствия, вторые — глубоко влияют на читателя, воспитывают его.

Нельзя ограничиваться самокритикой и благими намерениями. Под влиянием того или иного произведения можно составить программу самовоспитания или скорректировать уже имеющуюся и систематически работать над собой.

В заключение следует сказать, что чтение художественной литературы должно стать обязательным для каждого человека с детского возраста и до глубокой старости.

Литература доставляет много радости, она просветляет умственный взор, обогащает духовный мир читателя, вольно или невольно оказывает положительное влияние на характер.

Воспитание художественной литературой не тяжкий труд, а увлекательный, доставляющий глубокое удовлетворение. Тот, кто не читает, лишает себя многого. Может быть, ему не понравилась книга, которую кто-то порекомендовал прочесть? Пусть тогда возьмет другую, третью, четвертую, пока не найдет то, что отвечает его потребностям и вкусам. Постепенно втянувшись, он перейдет к другому жанру, глубже станет понимать художественные произведения, а через это и самого себя.

Литература

1. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. М., 1986. С. 503.
2. Франк С.Л. Сочинения. М., 1990. С. 101.

Маънавияти юксак халқни ҳеч бир таҳдид кўркита олмаслигини, ҳеч бир куч енга олмаслигини исботловчи бу асар ўзининг ғоятда содда, самимий, ҳақиқий манба эканлиги билан қимматлидир. Бу асар ғоясини ўқиб, ўрганиш ва дарсларга тадбиқ қилиш республикамизда маънавияти юксак ёшларни тарбиялаш, камол топтиришнинг асоси эканлигини билишимиз ва буни оғишмай амалга оширишимиз биз педагогларнинг асосий вазифамиздир.

Дарсларда халқ оғзаки ижоди материалларидан фойдаланиш – ўқувчиларда ўз Ватанига, ўз юртига бўлган меҳр-муҳаббатни тарбиялайди. Шу билан биргаликда барча фан ўқитувчилари синф раҳбари сифатида ҳам фаолият олиб борадалар. Тарбиявий соатларда ўқувчиларнинг маънавиятини шакллантиришга хизмат қиладиган асарлардан унумли фойдаланиш катта аҳамият касб этади. Масалан, «Юксак маънавият – енгилмас куч» асаридан намуна келтириш мумкин: «Эрта баҳорда табиатнинг қандай уйғонишига эътибор беринг – тош қотиб ухлаб ётган дарахт новдаларига бир кечада жон кириб, қуртак чиқара бошлайди, ерга ташланган уруғ тупроқни ёриб чиқади. Ҳатто бир қарашда ҳаёт аломати йўқдек туюладиган тоғу тошларда ҳам ям-яшил майсалар кўкаради, қирмизи лолалар алвон гиламдек очила бошлайди. Буларнинг барчаси табиат бағридаги қузга қуринмас мислсиз қудрат – энергиянинг ажаб бир тарзда намоён булиши билан боғлиқдир». Бу матннинг мазмунини ўқитувчи ўқувчилар билан биргаликда таҳлил қилишади. Унда, табиатнинг муъжизаларга бой эканлиги, Яратган ҳар бир мавжудотга жасорат қурсатиш имконини берган экан, нима учун уни қузатиб турган одамзот бундан ибрат олмаслиги керак? – деган саволга, ўқувчиларнинг ўқитувчи ҳамкорлигида баҳс-мунозара олиб борган ҳолда, ушбу матннинг мағзини чақишга йўналтириш орқали уларнинг маънавий дунёқараши шаклланишига қўмақлашади.

«Ҳибатул ҳақойиқ», «Қутадғу билиг», «Қобуснома», «Соадатнома» каби таълимда тарбиянинг юксаклигини кўрсатувчи панднома асарлар ва уларнинг аҳамиятини кўрсатувчи, Хоразмий, Беруний, Яссавий каби буюк алломалар мисолида тарбияловчи турли тадбирлар тарбиявий ишлар режасидан ўрин олиши муҳимдир. Бунинг учун ҳар бир ўқитувчи ўз фанини ўқитишнинг энг самарали замонавий педагогик технологияларини пухта билиши ва бу соҳадаги янгиликларни узлуксиз ўрганиб бориш орқали ўз касбий маҳоратини мунтазам ошириб бориши талаб қилинади.

Дарс таълимнинг асосий бўлинмас қисмидир. Ўқувчи ва ўқитувчи учун ўқиш фаолиятининг аксарият қисми дарсда мўлжалланади. Она тили машғулотида ўқувчиларнинг қандай қобилиятларини тарбиялашимиз керак деган савол туғилади.

Инсон келгусидаги ҳаётни режалаштирар экан, бевосита тарихга назар ташлайди, бугун билан боғлайди. Таҳлил асосида яратилган натижа истикболдаги ҳаётни тасаввур қилишга имкон беради. Буларнинг барчаси тил, нутқ орқали амалга ошириши, ҳеч ким учун сир эмас.

Аждодларимиз томонидан мерос қилиб қолдирилган билимлар, маълумотлар ёзув, тил воситаларида ўзлаштирилади, сўнгра тўпланган билимлар, маълумотлар ёзув, тил воситаларида ўзлаштирилади, сўнгра маълумотларни ҳаётий тажрибалар билан бойитиб кейинги авлодга қолдирилади. Шундай экан, она тили дарсларида ўқувчиларнинг сўз бойлигининг ошиши, нутқи раво бўлиши, бошқалар билан мулоқотга киришиб, ўз ҳатти-ҳаракатларини онгли бошқариш йўллари билишлари, турли ахборот ва маълумотларни билиб, дунёқараши ва билимларини бойитиб, мустақил фикр юрита оладиган бўлиб, ҳаётнинг ҳар жабҳасида керакли қарорларни чиқарадиган қобилиятлари тарбияланиши кўзда тутилган. Бунинг учун она тили дарсларида фанлараро уйғунлик асос қилиниб олиниши муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитувчи ўзи ва ўқувчилар учун дарснинг мақсадли йўналишини белгилаши ва буни аниқ ифодалаши муҳимдир, яъни – дарс нима учун кераклигини билиши мақсадга мувофиқдир. Шу боис, дарснинг таълимий, тарбияловчи ва ривожлантирувчи вазифаларини белгилаши керак бўлади.


Она тили дарсларидаги таълимий мақсадда ўқувчилар бир-бирига узвий боғлиқ бўлган тил тушунчалари, қоидалари ва таърифлар ҳақида билим олади, тарбияловчи мақсадда ўқувчилар билим эгаллаш жараёнида, уларни ўраб турган атроф-муҳитга, одамларга, воқеаларга ва дунёга нисбатан муносабати шаклланади, ривожлантирувчи мақсадга эса, олган билимларини амалиётда татбиқ этиш жараёнида юзага келадиган қобилиятларини ривожлантиради.

Бу ўринда ўқитувчи билан ўқувчининг, ўқувчи билан синфдошларининг муносабатида дўстона муҳит аҳамиятлидир. Чунки дарс – бола ҳаётининг бир қисмидир. У чегаралаб қўйилган бўлмаслиги керак. Она тили дарсларини ўқитувчилар ижодий ёндашган ҳолда ташкил қилсинларки, унда кашфиётлар рўй берсин, ҳақиқатлар туғилсин, чўққилар забт этилсин, изланишлар давом қилсин. Шундагина, қизиқувчан, эркин ижод қилишга қодир, баркамол шахсни шакллантираемиз.

Ўқувчи ўқувчиларни фаоллаштирадиган, ўзи ва ўрганувчи учун қулай бўлган йўлларни, усул ва услубларни, ўқитиш шакллари метод ва вазиятларни излайди, замонавий педагогик технологияга суяниб ўқув жараёни самарадорлигини оширади. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиб, ўқув жараёнининг юқори сифат ва самарадорлигига эришади. Ўқитувчининг ҳар бир дарс мақсади ва мазмунига мос келадиган мотивация меъёрини ишлаб чиқиши муҳим аҳамият касб этади. Ўқувчиларни дарсга қизиқтиришда дидактик ўйинларнинг аҳамияти бекиёсдир. Дидактик ўйинларни-таълимий ўйинлар ҳам деб айтиш мумкин. Ҳар бир дидактик ўйиннинг ўзига хос мақсади бўлади. Масалан, Синквейн методининг аҳамиятли томони шундаки, ўқувчилар қисқа вақт ичида берилган мавзу юзасидан шеъринг матн тузганларида миллий маданиятимиз ва маънавиятимиз ҳақида фикрлашиб, матн яратадилар. Қуйида, намуна келтираемиз:

Ватан
Қадрли ва жонажон
Севамиз, ардоқлаймиз, асраймиз.
Сенга фидо бўлсин жоним!
Она юртим.

Хоразм фан бешиги. Алломалар юрти. Азал – азалдан Хоразмда буюк кашфиётлар қилинган, илм – фан чўққиларини забт этиш учун изланишлар, тадқиқотлар олиб борилган. Ал Хоразмий, ал-Беруний, Н.Кубро, Замахшарий, П.Маҳмуд, Огаҳий, Феруз каби ижодкорларнинг ҳаётини ўрганиш, уларнинг миллий кадриятларимизни тараннум этган ғояларини ўқувчилар қалбига сингдириш комиликка етакловчи омиллардир. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, миллий руҳда сугорилган бадиий асарларнинг тахлили асосида, ўқувчилар ўз тарихини ўрганиб, минг йиллаб инсонларни эзгуликка, садоқатлиликка, қатъиятлиликка ўргатиб келган миллий кадриятларимизга нисбатан муҳаббати кучли, маънавияти юксак даражада ривожланган инсон, Ватанимизнинг улуг бир келажаги учун меҳнат қилишга ўзида куч ва қудрат топа оладиган баркамол авлод бўлиб шаклланади.



СИНФДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Кулимов Айбек Каримович- УрДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ “Аниқ ва табиий
фанлар методикаси” кафедре мудури,
Шихова Инобат Омоновна- УрДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ катта ўқитувчиси*

*“Математика фани ўта жиддий
фан бўлиб, уни озгина бўлса ҳам қизиқарли қилиши
имкониятларини қўлдан бой бермаслик керак”
Б.Паскал*

Синфдан ташқари ишлар-умумий ўрта таълим мактаби ўқув тарбиявий ишининг таркибий қисми, ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил этиш шаклларида бири бўлиб ўқувчиларни баркамол шахс сифатида шакллантириш ва уларни ҳаётга тайёрлашда кенг имкониятлар яратади. Синфдан ташқари ишларга ўқувчилар билан ўтказиладиган ва уларга тарбия ҳамда билим беришга қаратилган турли хил машғулотлар тизими киради. Бундай машғулотлар педагогик жамоа, синф раҳбари, ёшлар ташкилотлари раҳбарлиги ва болаларнинг ўз-ўзини бошқариш ташкилотлари томонидан дарсдан ташқари вақтда уюштириладиган барча тадбирлар мажмуидир. Дарс машғулотларида ўқитувчининг 30-40 ўқувчига тушунтириши билан кўпчилик янги мавзунинг моҳияти ва қоидаларини тўла англай олмайди. Қуруқ ёдлаш ёки тушунмаслик келиб чиқади. Натижада бола дарсдан зерикади, бекор ўтиради, бировлардан кўчиради, дарсга ҳалакит бериб шовқин солиб ўтиради: ўқувчи ва ўқитувчиларни чалғитади. Бу каби кўнгилсизликларни олдини олиш мақсадида нималарга эътиборни қаратиш лозим? Қачон ўқувчилар кимё ва математика фанларини жисмоний тарбия, мусиқа каби фанлар қаторида орзиқиб кутишади? Қачон кимё ва математика фани ўқитувчисини эса ўз яқини, иккинчи ота-онаси деб қабул қилади? Қачон ўқитувчи ўқувчиларнинг севимли инсони, ҳақиқий устозига айланади?

Мақолада ҳам педагог, ҳам фан ўқитувчиси сифатида мазкур саволга жавоб топишга уриниб кўрдик. Уларнинг айримларини эътиборингизга ҳавола қилмоқчиман.

Бунинг биринчи сабаби ўқувчи ва ўқитувчи орасида улкан жарлик, чексиз масофа борлиги, бир-бирига нисбатан ишончсизликнинг борлигидир.

Иккинчи сабабларидан бири оилада ота-оналар фарзандининг қайси ўқитувчида, қандай муҳитда, неча баҳога ўқиётгани билан қизиқмаслиги.

Учинчиси ўқитувчининг ўз фанини севмаслиги, ўқувчиларни ўз қариндоши, укаси, фарзанди каби кўролмаслигидадир.

Тўртинчиси синфдан ташқари ишларнинг хўжақўрсинга, қоғоздагина бажарилишидадир.

Ушбу мақолада сабабларнинг ижобий ечимини топишга уриниб, ўқувчилар фаоллигини оширувчи усуллардан бири ўқувчиларни синфдан ташқари ишларини ташкил қилиш орқали эришиш мумкин деган жавоб устида тўхталмоқчимиз.

Бугунги кун ўқитувчиси ҳар тамонлама билимли, изланувчан, жонкуяр, меҳнатсевар, фидоий бўлмоғи, ўз устида тинмай изланиши лозим. Акс ҳолда, ўқувчиларнинг фанга қизиқишларини ошира олмайди. Бунинг учун, ҳар бир фан ўқитувчиси 45 дақиқалик дарси билан биргаликда яхши тайёргарлик билан ўтказилган синфдан ташқари машғулотлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Мактаб курси бўйича синфдан ва мактабдан ташқари ишларнинг турлари хилма-хил бўлиб уларга қуйидагилар киради:

Фан тўғарақлари;

олимпиадалар;

фан турнири;

ҳафталиклар;

беллашувлар;

деворий газеталар;

ноёб кўргазмали қуроқлар яшаш мусобақалари ўтказиш;

кечалар;

олимлар билан учрашувлар;

уч авлод учрашувлар;

экскурсиялар;

мустақил ишлар...

Юқорида санаб ўтилган ишларнинг барчаси ўқувчиларнинг фанларга бўлган қизиқишларини оширибгина қолмай балки, илмий, дунёвий, мантикий билимларини, дунёқарашини бойитади.

Тўғарақларни авваломбор, синфлар кесимида ташкил қилиш, ёки яқинроқ синфлар, 5-6, 7-8, 9-11 синфлар кесимида олиб бориш ва бу тўғарақларга шу синфларда дарс берадиган тажрибали устозлар раҳбарлик қилиши мақсадга мувофиқдир. Бундай машғулотларни бошланғич синфлардан бошлаш мақсадга мувофиқ бўларди. Чунки, бу ёшда ўқувчиларда бирор фанни ўрганишга бўлган қизиқиш ҳали аниқ, яхши шаклланмаган бўлиб, фикрлари тарқоқ бўлади. Мазкур муаммони бартараф қилишга эса тўғарақ машғулотлари орқали эришиш мумкин.

Ҳар бир тўғарақ ўз режаси, журнаliga эга бўлиши ва доимий юритилиб бориши, назорат қилиниши лозим.

Тўғарақ режасини тузишда уни 40-60 минут ҳажмдаги машқларга бўлиб тузиб, ҳар бир машғулотни 3-5 қисмдан иборат қилиб ўтиш лозим.

Дарс машғулотларида ўрганилган билимларнинг барчасини ўзлаштириш имконияти йўқлигини ҳисобга оладиган бўлсак, айниқса синфдан ташқари тадбирларнинг аҳамияти ниҳоятда катта эканига яна бир бор амин бўламиз. Агар ўқувчи, тингловчи ҳеч бўлмаганда бир марта ўзи мустақил равишда бирорта масалани ҳал қилса, у албатта, унутилмас ҳаёжонли дамларни бошидан кечиради ва ғалаба нашидасини суради, математик қобилияти ўсади, тафаккури бойийди. Бундай “кичик” ғалабалар, айниқса, болалик чоғларида юз берса, инсон бу онларни ҳаётининг охиригача хотирасида сақлаб қолади. Ўқувчилар устозлари билан биргаликда бирорта қизиқарли масалани ҳал этиб, уни тўлиқ ўзлаштириб олганларидан кейин, ўзлари мустақил равишда масала ечиш, фан билан жиддий шуғулланиш, синфдан ташқари машғулот ўтадиган фан дарсини интизорлик билан кутиш оддий футбол, компьютер, теннис ўйини каби мароқли бўлиши мумкинлигини англашлари мумкин. Бунинг натижасида улар учун ўша фан севимли фанга, келажакда ўзлари мазкур фаннинг сеҳрли оламининг қироли ёки қироличасига айланишлари ажаб эмас.

Мамлакатимиз мустақилликка эришган дастлабки йиллариданоқ ёшларнинг таълим-тарбияси, билимли бўлиши ва уларнинг келажакда жаҳон таълими стандартлари талабларига жавоб берадиган, ривожланган давлатларнинг ёшлари билан қобилиятлари ва илмий иқтидори орқали беллаша оладиган авлод бўлиб етишишига катта аҳамият бермоқда. Чунки болаларнинг ҳар

кандай интилишлари, орзу-умидлари, ниятлари ва талаб-истакларининг юзага келиши, энг аввало, синф машғулоти ва синфдан ташқари ишлар жараёнида шаклланади ва ривожланади. Аудитория, синф хоналарида олиб бориладиган дарслар, амалий машғулотлар ўзининг таъсирчанлиги ва ҳаётга алоқадорлиги билан қанчалик муҳим бўлмасин, барибир, у ёш авлодни ҳар томонлама ривожланган, комил инсон даражасига етказишда, мантиқий тафаккурини оширишда етарлича аҳамият касб этолмайди. Буюк файласуф алломамиз Абу Райҳон Берунийнинг: “Бизнинг мақсадимиз шогирдни толиктириб қўймасликдир. Ҳадеб бир нарсани ўқий бериш зерикарли бўлади ва тоқатни - тоқ қилади. Агар шогирд бир масаладан бошқа масалага ўтиб турса, у худди турли-туман боғ-роғларда сайр қилгандек бўлади, бир боғдан ўтар ўтмас, бошқа боғ бошланади. Киши уларнинг ҳаммасини кўриши ва томоша қилгиси келади. Ҳар бир янги нарса роҳат бағишлайди,” деб айтганларини тўғрақ машғулоти учун шиор қилиб олишимиз керак. Бир хилликка асосланган машғулотлардан қочиб янгилик ўргатадиган, ўқувчини эркин ва мустақил фикрлашга ундайдиган тадбирлар, синфдан ташқари машғулотлар орқали биз ушбу фикрнинг исботига яна бир бора амин бўламиз. Чунки, бугунги кунда фанларни ўқитишдан кўзда тутилган асосий мақсад- ҳозирги замон бозор иқсоидиёти шароитларини ҳисобга олган ҳолда ҳар бир жамият аъзосининг меҳнат фаолияти ва кундалик ҳаёти учун зарур бўлган математик билим, кўникма ва малакани бериш, шунингдек, ўқувчиларнинг ҳаётий тасаввурлари билан амалий фаолиятларини умумлаштириб бориб, математик тушунча ва муносабларини улар томонидан онгли ўзлаштиришларига ҳамда ҳаётга татбиқ эта олишга интилишдан, компетенциявий ёндошувга асосланган ДТСга жавоб беришдан иборат. Булар билан бир қаторда ўқитувчи дарс вақтида, мавзуга боғлиқ бўлган тушунчаларнинг фанга киритилиши, уларнинг ривожланиб бориши ва бу соҳадаги комусий олимларнинг ҳиссаларини тушунтириши лозим. Синфдан ташқари ишлар мазмунида ўқувчиларнинг фақатгина фанга қизиқишни оширишга қаратилмай, балки фаннинг халқ хўжалигидаги ўрни ва аҳамиятини кўрсатиш билан ўқувчиларнинг ишлаб чиқаришда фаолият кўрсатишини кўчатиришни ҳам кўзда тутати.

Ўқув жараёнида дастурда кўрсатилган катта ҳажмдаги материалларни бериш қийин, чунки вақт чегараланган, шунинг учун ҳам синфдан ташқари ишларни оқилона ташкил этиш ўқитувчилардан катта ижодий ташаббускорликни ва машғулотларга пухта тайёргарликни талаб этади.

Синфдан ташқари ишлар ўқувчиларнинг дарслик бўйича эгаллаган билим, малака ва кўникма, лаёқатларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш билан бирга уларнинг билиш фаолиятини активлаштиради, математик тафаккурини ривожлантиради, барча компетенцияларни ривожлантиради.

Синфдан ташқари ишларнинг мақсади ўқувчиларни тарбиялаш, ўз-ўзини тарбиялаш ва қайта тарбиялаш жараёнидир. Ҳар бир ишнинг ўзига хос, маълум қонун-қоидалари бўлганидек, бола тарбиясининг ҳам ўзига хос бир қатор муҳим қоидалари борки, уларга амал қилиш тарбия ишининг самарали бўлишини таъминлайди. Бу қоидалар синфдан ташқари ишларнинг мазмуни ва ташкил этилишини доимо янгиланган туришни талаб этади. Ўқитувчилар ўқувчилар тарбиясини ҳаёт билан боғлар эканлар, уларга ўзларида имон-эътиқодни тарбиялаш, мантиқий мушоҳада қилиш қобилиятини, математик тафаккурни бойитиш имконини берадилар. Хулоса қилиб айтганда синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларнинг математик тафаккурини ривожлантиришда куйидаги тавсияларни эътиборингизга ҳавола қиламиз:

Синфдан ташқари ишларни давр талабига жавоб берадиган ҳолда ўтказиш керак.

Ёшларимизни эркин мустақил, ижодий, мантиқий фикрлашга, математик мушоҳада қилишга ўргатиш керак.

Ўқувчиларнинг маънавий, ахлоқий, инсонийлик сифатларини тарбиялаш керак.


Жамиятда юксак маънавий фазилатларни камол топтириш, шаклланаётган миллий мафқурани ўқувчи – ёшлар онгига мукамал етказиш керак.

Мустақил юрт келажаги учун қайғурувчи ёшларни, инсоният тараққиёти учун курашувчи онгли, мушоҳадали инсонларни, кўпайтиришимиз, синфдан ташқари ишлар самарадорлигини оширишимиз лозим.

Адабиётлар рўйхати.

С.Алиханов. Математика ўқитиш методикаси .– Т.: Чўлпон. 2011й. 304 б.

Н.Эшпулатов, А.Акмалов. Математикадан синфдан ташқари машғулотлар. – Т.: Ўқитувчи. 2007й. 47 б.



DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN UZBEKISTAN

*Niyazmetova Shakhsanam Kutlimuratovna- English teacher
Regional Centre of Retraining and Qualifying Public Educational
Staff at Urgench State University*

Teaching helps teachers to bridge the gap between theory and practice, to step into the professional teaching environment by sharing, cooperating, and collaborating with their more experienced peers, and to observe seasoned teachers in the classroom.

Changes in the modern educational system in Uzbekistan make the training and professionalism of teachers necessary to improvement of their professional competence. The main purpose of modern education is to match current and future needs of the individual, society and the state, the preparation of multi-developed personality of a citizen of the country, capable to social adaptation in the society, to the beginning of employment, self-education and self-improvement. An open-minded teacher, predicting the results of his operations and modeling educational process is a guarantee of achieving the goals. That is why nowadays demand for skilled, creative, competitive teacher, being able to educate a person in a modern, rapidly changing world has sharply increased.

The term "professional competence" had been actively used since 90s of the last century and the concept became the subject of a special, comprehensive study of many researchers dealing with educational activities (T.I. Rudnev, G.Stein, Fullan M.G., Freeman D. and G. Crookes etc). Under the professional competence of teachers one can understand a set of professional and personal skills required for successful teaching. It wouldn't be inappropriate to state that those ones can be called professionally competent teachers, who carry out teacher communication and various teaching activities on a high level, consistently achieving excellent results in training and educating the students.

The development of professional competence means the development of creative individuality, susceptibility to the formation of educational innovations, ability to adapt to a changing in the educational environment. Professional level of teachers is directly related to socio-economic and spiritual development of society.

But none of these methods will be effective if the teacher himself/herself is not aware of the need to improve their own professional competence. Therefore follows the need to motivate and create favorable conditions for teacher professional progress. It is very essential to create the conditions in which the teachers realize own needs to improve their professional qualities. Analysis of personal pedagogical experience activates professional self-development of the teacher, resulting in developing skills in research activities, which are later integrated into a teaching activity. The teacher should be involved in the development of higher educational establishment management that promotes the development of his professionalism.

Development of professional competence is a dynamic process of incorporation and modernization of professional experience leading to the development of individual competencies, the accumulation of professional experience, involving ongoing development and self-improvement.

The process of formation of professional competence as much depends on the environment, so the environment should encourage professional self-development. The higher educational establishments are established on democratic system of governance. This is both the system of incentives for employees, and various forms of teacher monitoring, which may include questionnaires, tests, interviews, and intra-institutional events to share experiences, competitions, and the presentation of their own achievements. These forms of stimulation can reduce the level of emotional anxiety of the teacher and influence the formation of beneficial psychological atmosphere in the team.

Key indicators of professional competence of teachers of foreign languages include the necessity to develop skills in students' communicative and interpersonal communication, components of which are linguistic, thematic, socio-cultural, educational and cognitive competence.

Basing on the above-mentioned points the authors are trying to create conditions for the revealing of self-reliance and creativity of students in solving communication problems in pedagogical activity, thereby allowing students to see their own development and achievements. Reflexive competence means the real characteristics of learning opportunities for the student and the ability of English language teacher to determine the type of lesson in accordance with the objectives and content of educational material to justify the selection of its content and optimality of the selected methods and techniques of training, i.e. skillfully relate learning theory to practice, the ability to project the received data on the individual potential of a particular individual student and specific learning environment.


The success of students' activities in the English classes depends on how the teacher has laid the basis of students' motivation for learning and self-education. Informational technological competence of teachers of foreign language called to play a big role in it. Indicators of that competence include mastering proper computer skills as well as knowledge of modern teaching technologies to find necessary information and analyze it.

1. Vygotsky, L. S. 1997. Educational psychology, trans. R. Silverman. Boca Raton,

2. Yorks, P. M., and F-. I. PoHo. 1993. Engagement rates during thematic and traditional instruction.

3. Sandra B. Loughran is assistant professor and early childhood specialist in the Elementary Education Department at Dowling College on Long Island, New York. She founded a primary school in 1995 and has been involved in teacher training for several years.

4. Montessori: The science behind the genius (Hardcover) by Angeline Stoll Lillard (Author), An Vu (Contributor)



ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАНЛАГАН КАСБИНИ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ

*Юнусова Феруза Абдужабборовна. Андижон вилояти Булоқбоши тумани
12-мактаб технология фани ўқитувчиси.*

Бизга маълумки “Технология” фани, ўқувчиларни келажакда эгаллайдиган касбнинг амалий кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган. 8-9 синф ўқувчилари келажакда эгаллайдиган касбнинг фаолияти ҳақида маълумотга, таассуротга эга бўладилар. Дарс ўтиш жараёнида ҳар бир ўқувчининг қизиқиши, бирор фанга лаёқатини билиб оламиз. “Технология” дарсини ўтишда, қизиқарли ташкил этишга имкониятлар катта. Мисол тариқасида, бир синфнинг ўзида математика, физика, кимё, биология, тарих, иқтисод, дизайн ва замонавий технологияга қизиқадиган ўқувчилар бор. Технология фани ўқув режасида пазандачилик, салатлар тайёрлаш, мунчоқлардан буюмлар яшаш, тикувчилик, каштачилик мавзулари бор. Менинг таклифим ўқувчиларнинг ҳар бирини қизиқишини ҳисобга олиб, дарсни ташкил этиш ва тайёргарлик қилиш. Масалан 9-синфда “Баҳор” салатини тайёрлаш мавзуси бор. Ўқувчиларни сонига қараб уларни гуруҳларга бўлинади. Салат ҳақида умумий маълумот берилди ва унга кетадиган масалликлар ҳамда тайёрлаш жараёни видеороликда кўрсатилади. Салат сўзи латинча “herba salata” сўзидан келиб чиққан бўлиб, тузланган кўкат деган маънони англатади. Бир ёки уч тўрт хил сабзавотлардан ташкил топган яхна таом салат деб аталади. Салатга кетадиган масалликлар: 200гр-қайнатилган мол гўшти, 1 дона помидор ва 1 дона бодринг, 1 дона пиёз, 1-дона қайнатилган тухум, 50-гр пишлоқ укроп ва майонез. Тайёрланиши: ҳамма масалликлар сомонча шаклида, пиёз ҳамда кўкат майда қилиб тўғралади, ҳамма масалликлар майонез билан аралаштирилади.

1-гуруҳ: Кимё, биология фанига қизиқадиган ўқувчиларга салатда қўлланиладиган сабзавотларни калорияси, витамин ва минераллари ва уларни инсон организмга бўлган аҳамияти ўрганилади.

2-гуруҳ: Тарих, фанига қизиқиши бўлган ўқувчиларга: салат (газак) ким томондан ихтиро қилинган ва менюга киритилган, шулар ҳақида маълумот.

3-гуруҳ: География фанига ҳизикқан ўқувчиларга эса, қайси географик қитъадан хонақиллаштирилган.

4-гурух: Иқтисод,математикага қизиқадиган ўқувчиларга,100гр салатга кетадиган масаллиқларни нархини ҳисоблаб,10-20-30 кишига кетадиган масаллиқ ва уни нархларини ҳисоблаш вазифаси берилади.

5-гурух:дизайнга қизиққан ўқувчиларга,салатни қандай идишларда ва ҳар хил замонавий услубларда безаш топшириғи берилади.(расм. мультимедиа)

6-гурух:замонавий техника-технология, турли мослама ва асбобларда қирқиш усуллари берилади.

1:Сабзавотлар инсон организми учун энг керакли бўлган маҳсулот ҳисобланади. Помидор бир йиллик ўт ўсимлигидир,сабзавот экини сифатида кенг экилади. Ҳозирги кунда помидорнинг жуда кўп нави дунёнинг турли мамлакатларида етиштирилади. Таркибида витамин А, В1, В2, РР, С эфир мойи ва бошқа минерал моддалар бор. Бодринг ҳам бир йиллик ўт ўсимлигидир у ковок гуллилар оиласига мансуб.Бодриннинг шифобахшлигига сабаб унинг таркибида С, А, В1, В2, В3, В6 дармондориларнинг бутун бир мажмуи, шунингдек кальций, темир, магний, рух ва яна кўплаб минерал моддалар мавжудлигидир. Пиёз лоладошлар оиласига мансуб икки йиллик ва кўп йиллик ўтсимон ўсимлиқлар туркуми, сабзавот ва манзарали экин. Пиёзнинг таркибида қанд, магний, С витамини, эфир мойи, шунингдек А, В, В2, лимон ва олма кислоталари ва бошқалар бор. Пиёз одам организмида учрайдиган турли хил микробларга қарши восита ҳисобланади.(1-жадвал)

1-жадвал

№	Маҳсулот номи	А	В1	В2	РР	С	В3	В6	Эфир мойи
1	Мол гушти (100)гр	00.1	0.10	0.19	4.2				
2	Тухум (1-дона)	0.65	0.07	0.16	0.12				
3	помидор(1-дона)	2	0.06	0.04	0.5	40			
4	бодринг(1-дона)	3	0.07	0.08	0.4	30		0.01	10
5	пиёз(1-дона)	2	0.02	0.03	0.02	40	0.3		0.05
6	Пишлоқ (100)гр								
7	Укроп	0.02	0.05	0.06	0.04	2			10

2-3гурух: Помидор итальянча “помо-дори” сўзидан олинган бўлиб “олтин олма” деган маънони англатади.помидор илк бор Америка материгида келиб чиққан. Кейинчалик испанлар Америкада мустамлакалар ўрната бошлаганидан сўнг бутун дунёга тарқалган. Ҳозирги кунда помидорнинг жуда кўп нави дунёнинг турли мамлакатларида етиштирилади.

Бодринг ажойиб маҳсулот. Унинг 100гр бор-йўғи 16 килокалорияга эга. Унинг ватани Ҳиндистон, аммо ҳозир дунёнинг кўпгина мамлакатларида етиштирилади. Пиёзни Ўрта Осиёнинг ва Афғонистон халқлари тўрт минг йиллар илгари деҳқончиликка киритганлар. Шу марказдан Эронга, Мисрга у ердан Европага тарқалган.

4-гурух: Қўйидаги гурух ўқувчилари жадвални (2-жадвал)тўлдирадидилар

2-жадвал

№	Маҳсулот номи	1 п	сум	10 п	сум	20 п	сум	30 п	Сум м
1	Мол гушти	200-гр	6000						
2	Тухум	1дона	500						
3	Помидор	1дона	1000						
4	Бодринг	1дона	800						
5	Пиёз	1дона	200						
6	Пишлоқ	50-гр	1500						
7	Укроп	1 боғ	200						

Шундай услубда дарс ўтилса ўқувчиларнинг дарсга қизиқиши таъминланади. Ўқувчиларда ДТС да белгилинган 6-та компетенциялар тўлиқ эгалланади. Келажакда эгаллайдиган касбий кўникмаларини шакллантиришига, кенгайтиришига имкон беради. Мақсад ҳозирги кунда биз тарбия бераётган ўқувчиларни олдига қўйилаётган муаммо, билим, кўникмани ўзи мустақил эришиш,мураббий томонидан фақат асосий билимлар берилиб ўқувчиларни ўзи мустақил эришишини тарбиялаш. Келажакда ўқитувчи фақат “йўналтирувчи” баҳолувчи бўлиш керак. Тўғри танланган касб,истак,қизиқишидан келиб чиқиб танланган касб эгалари юқори ютуқларга эришишади ва давлатимиз иқтисодий ривожланишига ҳиссасини қўшади.

МЕҲНАТ – РОҲАТНИНГ ПОЙДЕВОРИ.

Арабова Гулноза Зарифовна-Андижон вилояти Олтинкўл тумани 1-умумтаълим мактаби технология фани ўқитувчиси

Ҳазрати инсон ер юзида яралибдики, буюкликка эришиши, ҳақиқий том маънода инсон бўлишида МЕҲНАТнинг ўрни беқиёс. Чунки меҳнат орқали у яшаш учун курашди, янгиликларни яратди ва яратиб келмоқда. Ўз ҳаётини гўзаллаштириб, роҳат – фароғатда яшашнинг асосий манбаси, калити Меҳнат эканлигини англаб етди.

Ўзбекистон Оллоҳ назари тушган макон. Бу юртда яшаётган ҳар бир инсон ўз маконини кўз қорачиғидай асраш билан бирга, юртбошимиз томонидан яратиб берилган шарт-шароитлар, чексиз имкониятлардан фойдаланиб, меҳнатлари орқали уни Ер сайёрасининг бетакрор, гўзалликда тенги йўқ Ватанга айлантирмоқда.

“Миллий тарбия” тушунчасини барчамиз тилдан қўймай, ўқувчини тарбиялашда унга риоя қиламиз. Бу тушунча кўп қиррали тушунчадир. Лекин мен “Миллий тарбия” тушунчасини технология фанига мослаб, бамисоли шиор каби “Миллий тарбия ва меҳнат таълими” деб қабул қиламан. Унинг миллий кадрятлар асосида олиб борилувчи мақсадга йўналтирилган тарбиявий фаолият, ўқувчиларда миллий стереотипларни мақсадли шакллантириш, маънавий бойитиш жараёни эканлиги шундан далолат беради. Мустақил Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларининг миллий тарбия тизими – бу ўзбек халқининг ўзига хос миллий маданий феъл-атвори, ахлоқ қоидаларига ва миллий мустақилликнинг тарбиявий талабларига асосланувчи, халқ ҳаётининг барча жабҳалари билан чамбарчас боғлиқ, янги, ҳеч кимдан кам бўлмаган баркамол авлодни шакллантиришнинг педагогик жараёнидир.

Ўзбек халқининг асрлар давомида давом этиб, ривожланиб келаётган урф-одатларимиз борки, бу ёши улуғларимиз улғайиб келаётган ёшларни тарбиялаш, меҳнатни, касбни улуғлашга ўргатишда сира ҳам чарчамайдилар. Шу сабабли давлатимиз қонунларида ҳам ёшларни тарбиялашда меҳнат таълимига ҳам алоҳида эътибор берилган. Ҳақиқатда баркамол шахсни тарбиялашда, албатта, меҳнат таълимининг алоҳида ўрни бор. Ушбу ўқув фани ўқувчиларда ақлий ва жисмоний меҳнат турлари, меҳнатга оид кўникма ва малакаларни ривожлантириш каби таълимий мақсадларга измат қилади. Шунингдек ёшларни меҳнат ва касбларни кадрлашга ўргатиш, ижтимоий ҳаётда уларнинг аҳамиятини тушунтириш, касб асослари (технологияси) ҳақида билим ҳосил қилиш ҳамда мактаб давридан болада касбий тайёргарликни шакллантириш меҳнат таълими фани ўқитувчиларининг асосий вазифасига киради. Хусусан, меҳнат куруллари, воситалари, жараёнлари, ҳудудий ишлаб чиқаришнинг асосларини ўргатиш, техника ва технологиялар асосида эгалланаётган касб-хунар соҳаси хусусиятлари, шу соҳанинг илғор вакиллари фаолияти билан таништириш ҳозирги кунда умумий ўрта таълим мактабларида меҳнат таълими фанининг асосий мақсади. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун биз меҳнат таълими ўқитувчилари фан бўйича йил давомида амалга ошириладиган ишларни белгилаб олишимиз зарур.

Меҳнат таълими фанининг ўқитиш самарадорлигини оширишда амалий машғулотлар асосий ўринни эгаллайди. Амалий машғулотларда ўқувчилар бевосита ишлаб чиқариш жараёнида қатнашиш орқали (саноат, қишлоқ хўжалик ва умумий овқатланиш корхоналари, устахоналар, ташкилот муассасаларда ёки хунарманд усталар ҳузурида) бозор муносабатлари қоидаларини ўрганиши ҳам асосий вазифа бўлиши керак.

Барча фанларда бўлгани каби меҳнат таълими фанининг ўқитилишида ҳам ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш самарадорликка хизмат қилади, жумладан, меҳнат таълими дарсларида ахборот мажмуи – маълумотномалар, мультимедиялар, мавзуларга оид технологик хариталар, иш қобилиятини ташкил этишга оид фильмлар, тарқатма материаллар, кўргазмали куруллар, схемалар, расмлар, чизмалардан фойдаланиш мумкин.

Ўқитувчи ижодкор бўлиши зарур. Ижодкор, изланувчан ўқитувчигина меҳнат таълими дарслари доирасида ўқувчиларни касб – хунарга йўналтиришнинг самарали усулларида оқилона фойдалана олади. Дарсдан ташқари ўтказиладиган тўғарак машғулотларини ўқувчиларни касб – хунарга йўналтиришда тўғри танланган усул жуда аҳамиятли.

Дарс машғулотларида берилган билимларни мустаҳкамлашда, ўқувчининг қизиқишини янада ошириш, унинг иқтидорини янада ривожлантиришда мактабларда ташкил этилган фан тўғаракларининг фаолият олиб боришларининг ўрни жуда катта эканлигини ёдимизда доимо тутушимиз шартдир.

Тўғарак ўқувчини доимо ўзига чорловчи маскан ҳисобланади. Ўқувчи севган машғулоти билан шуғулланиши, изланиши, мойиллик орқали қизиқиш, қобилиятининг очилиши, дунёқарашининг кенгайиши, гўзалликни яратиши, интилиш шу ўринда тўғарак давомида ақлан ва жисмонан дам олиши керак. Бунинг учун эса устоз – ўқитувчи томонидан шароитлар яратилиши керак. Барча техника, меҳнат қуроллари билан жиҳозланган ёруғ, озода, қулай, замонавий миллий безатилган ўқув хонаси ташкил этилиши керак.

Масалан мен фаолият юритаётган Андижон вилояти Олтинқўл туманида жойлашган 1-сонли умумтаълим мактабимизда “Сервис хизмати йўналиши” технологияси ўқувчи қизларга алоҳида махсус йўналтирилган ўқув хонасида ўтилади. Фан бўйича олиб бориладиган тўғараклар ҳам режа асосида худди шу синфхонасида ўтказилади. Синфхонаси қизларни касб- ҳунарга йўналтириш ва турмушга тайёрлаш асосида жиҳозланган бўлиб, ҳар бир тўғарак турларидан намуналар, стендлар, қизлар кутубхонаси, қизлар учун тиббиёт, психолог маслаҳати, “Қизларжон”, “Бекажон юмушлари” каби бурчақларини, табиат маскани ва бир қатор қизиқарли моҳир – сеҳрли қўллар ишларидан намуналар кўриш мумкин. “Қизларни турмушга тайёрлаш” йўналишлари, “Оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлиги” бурчаги, “Тадбиркор ва ҳунармандлар” уюшмаси ҳамкорлиги бурчақлари фаолият юритмоқда. Бундай ўқув ва тўғарак синф хонасида қизларжон фикрлари, таклифлари, муаммолари дўстона қабул қилинади ва ўрганилади.

Тўғаракда берилган уй вазифаларини масъулият билан бажаришлари ва машғулотларга қизиқиш билан қатнашишлари биз устозларни қувонтиради.

“Иш қуролинг соз бўлса, машаққатинг оз бўлар” мақоли асосида амалий машғулотлар олиб борилади.

Ўқувчиларни касб – ҳунарга йўналтиришда миллий қадриятларимизнинг ўрни, шунингдек халқ ҳунармандчилигини “Устоз - шогирд” “авлоддан авлодга”, “Оилавий ҳунармандчилик” фаолияти натижасида асрлар давомида ҳунармандчилик турларини сақланиши, ривожланиши, замонавий – миллий кўринишда давом этаётганлиги ҳақида чуқур ўргатиш, кўрсатиш, иштирок эттириш, қизиқтириш, шу билан биргаликда муомала маданиятини ҳам ўргатиб бориш бизнинг олдимизга қўйилган вазифамиздан биридир. Чунки қадимги юнон донишмандларидан бири Суқрот “Ўзлигингни бил, шунда сен ҳам оламни била оласан!” фикрини илгари суришида қуйидагини назарда тутган: ўз-ўзини кузатиш, англаш, назорат қилиш, ўз фаолиятига танқидий кўз билан қарай билиш, мустақил фикрлаш, ўзининг жисмоний имкониятларига, ирода сифатларига, жамоа ичида ишлай олиш маҳоратига, одамлар билан муомала қилиш ва меҳнат маданиятига аниқ баҳо бермоғи зарур. Шу сабабли биз дарсларимизда ўқувчиларнинг тили, нутқига ҳам эътибор бермоғимиз керак. Оддий мисол, қиз бола бўлғуси она, хонадон бекаси. Шу боис қиз фарзанд тарбиясига қадимдан бувиларимиз, онахонларимиз жиддий эътибор қаратганлар. Қизларга болалигидан уй-жойларни саранжом тутиш, меҳмон кутиш, уй-рўзғор юмушлари, умуман орасталик ўргатилиши бежиз эмас. Бу кўникмаларни ўқувчи қизларда шакллантириш мактабларда технология фани ўқитувчиси зиммасидаги вазифадир. Ўқитувчи нафақат кўрсатиб, ўргатиши балки ўзи ҳам ҳар томонлама намуна вазифасини ҳам ўташи зарур. Ўқувчи ўқитувчининг барча хатти-ҳаракатини кузатади: унга тақлид қилиб, ҳатто сўзлашиш маданиятини ҳам ўқитувчидан кўчиради. Дарсларда пазандачилик, тикув-бичув ишлари, турли меҳнат маҳсулоларини яратиш билан бирга улардан даромад олишни ҳам ўргатишимиз, бунинг учун эса атрофдагилар билан муомалага кириша олиш кўникмаларини ҳам ривожлантирсаккина, ўз мақсадимизга эриша олишимиз мумкин. Бунинг учун, аввало, ўзимиз-ўзимизни тарбиялаган, касбимизнинг туб моҳиятини англаган, келажак авлоднинг ҳаётида энг муҳим инсон бўлишимиз учун интилувчи устоз, ижодкор эканлигимизга ишонч ҳосил қилишимиз даркор.

Агар инсон ўзи қизиққан касб, ўзи хоҳлаган ҳунар билан шуғулланиб, меҳнат қилса, ундай инсондан бировга, жамиятга нисбатан ёмонлик кутиб бўлмайди. Чунки бундай инсонлар қалбан гўзал ва оиласи учун, унинг бекаму – кўст бўлиши учун бор кучини меҳнатга сарфлайди. Оилавий даромадга соғлом фикр билан ўз ҳиссасини қўшади.

Инсон касб – ҳунарсиз оқил инсон эмас, кимгадир соғлом ҳолатда қарам бўлиши танбаллигини кўрсатади. Бундай фикр – мулоҳазаларни доимо ёшларга ўқитиб бориш жуда катта фойда.

Лекин ўқувчини меҳнатга ўргатишда ўқитувчи ўзи ёлғиз кўзлаган натижага эриша олмайди. Миллий меҳнат анъаналари, урф – одатларини билиш, хабардор бўлиш, кези келса, иштирок этиш, давом эттиришда аввало, оила, ота – она, қариндош – уруғ, қўшнилари, маҳалла муҳим ўрин эгаллайди.

UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

*Bo'stonov Abduqahhor Sodiqovich – NamDU
huzuridagi XTXQTMoxm katta o'qituvchisi*

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, o'zgarishlar tezligi avlodlar almashinuvi tezligidan ilgarilab borayotganligi uchun jamiyatimiz bugungi kunda ko'proq o'z ustida ishlaydigan, erkin fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor insonlarga ehtiyoj sezmoqda. Bularning hammasi o'qituvchilarning uzluksiz malakasini va pedagogik salohiyatini oshirishni talab etadi 1.

Hozirgi davrda pedagog xodimlar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy talablari va innovatsion usullarini bilishi hamda ularga asoslanishi, ilg'or pedagogik tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatiga tadbiiq etishi, pedagogik jarayonlar subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini o'zlashtirgan bo'lishi zarur 2. Zotan, o'qituvchining o'z ishiga ustaligi, moslashuvchanligi, ma'naviyati va intellektual salohiyati nafaqat ta'lim sifatiga, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'sir etadi. Jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarda o'qituvchi yetakchi rolda ekanligini anglash uning ijodiy va kasbiy mahoratini, malakasini oshirishga katta e'tibor berishni talab etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagog kadrlar malakasini oshirishni bir tomonlama tushunish mavjud. Ya'ni, pedagog xodim qachon, qaysi malaka oshirish institutida (markazda) malaka oshirganligi ma'lumot uchun hisobga olinadi. Boshqacha aytganda, ko'pchilik malaka oshirish deganda ta'lim muassasasining buyrug'i bilan malaka oshirishga yuborilish, u yerda maxsus o'quv dasturlari bo'yicha kursni o'tab, sertifikat olishni tushunadi.

Aslida malaka oshirishni murakkab pedagogik jarayon sifatida hisoblab, unga uzluksiz va tizimli yondashuv zarur. Har qanday tizim esa o'zini tashkil etuvchi komponentlariga ega bo'ladi 3. Uzluksiz malaka oshirish jarayoni asosiy komponentlariga: ochiq darslar, o'zaro dars kuzatishlar, seminarlar va treninglar, konferensiyalar, ilg'or pedagogik ish tajribalarni o'rganish, uzluksiz metodik xizmat tuzulmalari (metodik kengash va metodbirlashmalar faoliyati, tajriba-tayanch maktablaridagi mahorat darslari) faoliyati malaka oshirish ta'lim muassasalarida to'g'ridan to'g'ri yoki masofadan o'qish, pedagogning o'z ustida ishlashi kiradi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonining asosiy maqsadi – rahbar va pedagog xodimlar shaxsiga va ularning kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ular oldida turgan ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni, shuningdek, rahbar va pedagog xodimlarning o'z kasbi va lavozimi yo'nalishidagi pedagogik va boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorligining yetarli darajada emasligi o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishdan iborat bo'lishi zarur.

Ta'lim tizimida uzluksiz malaka oshirish jarayonining barcha bosqichlari va yo'nalishlarida pedagog xodimni o'z kasbiy tajribalarini, professional kompetentligini anglashga, tahlil qilish va baholashga, ehtiyojlarni aniqlash va to'ldirishga yo'naltirish zarur. Mazkur jarayonda pedagog xodimning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy-ijtimoiy maqomini o'stirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak. Chunki, malaka oshirish jarayoni pedagog xodimlarning nafaqat kasbiy, shu bilan birga yashash tarzi va hayotiy muammolarini hal etishga ham qaratilishi kerak.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida pedagog xodimlarda kasbiy va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Malaka oshirishga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda rahbar va pedagog xodimning o'z faoliyatini qayta anglashi va baholashi. Bunda rahbar va pedagog xodimlar o'z faoliyatini tahlil qiladilar va baholaydilar, maqsad, vositalar va natijalar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni, tushunmovchiliklarni hamda o'zini o'zi rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlaydilar. Bunda faoliyatning odatiy stereotiplarini yo'qotish, yangi tushunchalar asosida o'zining shaxsiy va kasbiy faoliyati haqida tasavvur hosil qilish, eskirgan va samarasiz uslublar yordamida o'z faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tushunib yetish nazarda tutiladi. Ular o'z faoliyatiga nisbatan reflektiv munosabatda bo'lishga

¹ Ta'limdagi islohotlar strategiyasida sog'lom bola masalasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Qarshi, Nasaf, 2014. –b. 165

² “Mahorat maktablari” faoliyati samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Namangan, 2015. –b. 5

³ //Xalq ta'limi// jurnali. 2016-yil 6-son 69-bet.

o'tadi va avvalgi faoliyatini tanqidiy tahlil qilish asosida kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayonining faollashuvi vujudga keladi.

2. Kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarni va yangiliklarni, shu bilan birga mavjud muammolarni anglashga nisbatan intilishning o'zgarishi. Bunda rahbar va pedagog xodimlar bilimi, ko'nikma va malakalarining yangilanishi, ma'naviy va madaniy salohiyatning rivojlanishi hamda axborotlar almashinuvi amalga oshadi, ularda kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarning o'zgarishi va ayni vaqtda shaxsiy o'zgarishlar vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tajribalar boyiydi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayoni samaradorligi, mazkur jarayonning natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi bir qator omillar orqali ifodalanadi:

✓ kasbiy faoliyatning yuqori darajasiga erishishga undovchi motivatsion xatti-harakatlarni ifodalovchi omillar;

✓ natijaga erishish uchun yo'naltirilgan mavjud hatti-harakatlar izchilligi bilan bog'liq bo'lgan omillar;

✓ kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish choralarining subyektiv asoslari bilan bog'liq bo'lgan omillar;

✓ shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy (tashqi), biopsixologik (ichki), pedagogik (tashkil etuvchi) va yo'naltiruvchi omillar.

Mazkur omillarning ta'sir ko'rsatish darajasi ta'lim muassasasidagi ta'limiy muhit, tarbiyaviy munosabatlar va ularning rivojlanish darajasi orqali ifodalanadi.


Uzluksiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- mazkur jarayon tanqidiy va tahliliy xarakterga ega bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish;
- subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish;
- shaxsiy imkoniyatlarni takomillashtirish uchun zarur psixologik muhitni vujudga keltirish;
- axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonini ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarning shaxsiy yo'naltirilgan faoliyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan o'zaro ta'sir tizimi, ta'limning yangi mazmuni, refleksiv ta'limiy muhitni tashkil etishning yangi vositalari sifatida ko'rib chiqish zarur.

Pedagog xodimlarni nafaqat kasbiy faoliyatga motivlashtirishni rivojlantirish, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish uchun ham shart-sharoitlar yaratish zarur. Mazkur jarayonda refleksiv ta'limiy muhitni tashkil etish ularning shaxsiy kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ta'limning demokratlashuvi va shaxsga yo'naltirilishiga sabab bo'lmoqda. Ta'limda har qanday o'zgarishlar bo'lishidan qat'iy nazar, o'qituvchi jamiyat taraqqiyotining asosiy targ'ibotchisi, bosh strateg va texnolog bo'lib qolaveradi.



МАЛАКА ОШИРИШ МАРКАЗЛАРИ ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Сабоат Орифова Наманган-ВХТХҚТХМ педагогика ва психология, таълим технологиялари кафедраси ўқитувчиси

Маълумки, ҳозирги кунда мамлакатимиз таълим тизимини ривожлантириш бу борада жаҳон мамлакатларининг илғор ғоялари, тарбиявий, таълимий назариялари, мутахассислар тайёрлашнинг бой амалиёти, ҳозирги замон техникаси ва технологиясидан фойдаланиш ҳамда миллий, ҳудудий хусусиятларини ҳисобга олиб, уларни маҳаллий шароитларга мослаштириш, шу негизда янгисини ишлаб чиқиш ва кенг кўламда қўллаш бош омил саналади.

Бу борада аввало педагог шахси ва унинг касбий маҳоратини ошириш учун олиб борилаётган кўплаб илмий - амалий анжуманлар, семинарлар, тадбирлар узлуксиз давом этмоқда. Қувонарлиси шундаки мана шундай тадбирларда қатнашишнинг ўзи шахсан ўзимнинг касбий фаолиятим бўйича зарур маълумотлар олишга ва амалиётда қўллашим учун катта ёрдам бермоқда.

Кўп йиллардан буён педагоглар билан ишлаш мобайнида уларга педагогика, психология фанлари ва бу фанларнинг ўқитувчи учун зарур бўлган маълумотларини тезроқ, осонроқ ва қулайроқ усулларини қўллаш борасида тажрибалар йиғдик. Олиб борилаётган амалий машғулотлар жараёнида айнан психологик тренингларнинг самараси жуда яхши натижа бермоқда. Куйида ана шундай машғулотлардан наъмуналар келтирамиз:

Танишув

Мақсад: Қатнашчиларни яқиндан таништириш ва нотаниш аудитория олдида фикрини эркин гапиришга ўрганиш.

Ўтказиш қоидаси: Бошловчи (тренер) коптокни хоҳлаган қатнашчига отади ва тингловчи ўз исмини айтиб, малака ошириш марказига келишидан асосий мақсадини айтиши ва у қатнашчи ҳам контокни бошқа қатнашчига отиши керак ва ҳоказо барча қатнашчилар ўз фикрини билдиради.

Соат

Мақсад: Қатнашчиларни ўз-ўзини тушуниш ва таҳлил қилишга ўргатиш:

Ўтказиш қоидаси: Қатнашчиларга навбат билан ўзларининг кундалик фаолиятида куннинг қайси вақтида ўзларини яхши хис қилишлари ва нима учун айнан шу вақтни танлаганликларини айтиб берадилар.

(Изоҳ: тингловчилар кўпроқ ўз ҳаракатларига ўзи жавоб берадиган вақтни танлайди, тренер танланган вақт эркинликдаги вақт эканлиги, эркинликнинг ўзига хос томонларини изоҳлаб беради)

Рухият ва ҳаракат

Мақсад: Қатнашчиларни ўз руҳий ҳолатлари ва ҳаракатларини таҳлил қилишга ўргатиш.

Ўтказиш қоидаси: Қатнашчилар навбат билан доира стулдан ҳар доимги табиий юришларини юриб беради. Қолганлар эса ана шу юришга қараб ундан мазмун топишга уринадилар. Масалан: жиддий, лоқайд, безовта, хотиржам ва ҳоказо.

Назорат ва тузатиш машки

Мақсад: қатнашчиларни касбий маҳоратини ошириш.

Ўтказиш қоидаси: Қатнашчилар икки груҳга бўлинади: ҳар бир жуфтлик куйидаги муаммоли вазиятларни таҳлил қилиб, бу вазиятлардан чиқиш бўйича фикрларини билдиради. Бошқа қатнашчилар қўшимча фикр мулоҳазалар билдиришлари мумкин.

Ўқувчи аълочи ўқув материални яхши ўзлаштиради, лекин феъл атвори кўпчиликни кайфиятини бузади.

Ўқувчи ювош, ўз кучига ишонмайди дарсга тайёр бўлса ҳам ҳеч қачон қўл кўтармайди.

Доим кеч қолувчи ўқувчи.

Сизни хатоингизни тўғрилайдиган ўқувчи.

Дарсингиздан зериккан ўқувчи

Рухан тушган ўқувчи.

Ўқувчи тўполончи ҳар дарсда шеригига танчлик бермайди.

Ҳаёли паришон ўқувчи.

Ўқувчилар гуруҳидаги руҳий муҳитни бузиб турадиган (ғийбатчи) ўқувчи.

Тенгқурларидан билим жихатдан илгарилаб кетган ўқувчи. У бу мактабдан қониқмаяпти.

Ўз-ўзини бошқариш

Мақсад: Қатнашчиларни турли хил вазиятларда ўзларини дарсга руҳий тайёрлашга ўргатиш.

Ўтказиш қоидаси: Тренер шундай кўрсатма беради: Қатнашчилар ўзларини бўш қўйиб, фараз қилинг сизни бугун дарсга киришга умуман хоҳишингиз йўқ. Шунда агар ҳозир кайфиятим бўлганида, қувонч билан синфга кириб ўқувчиларимга янги маълумотлар берар ва бундан кўнглим ёришган бўлар эди, болаларга нимадир берганимдан ички қониқиш ҳосил қилар эдим


Ва ҳоказо сўзлар билан ўз –ўзларига таъсир қилишга ўргатилади.

Менга ёқдингиз

Мақсад: Инсонларни яхши томонларини кўришга, уларни рағбатлантиришга, ўзидаги нуқсонларни тарбиялашга ўргатиш ва гуруҳда руҳий яқинликни шакллантириш.

Ўтказиш қоидаси: Тренер бошчилигида қатнашчилар малака ошириш курсига келганларидан буён шу гуруҳда кимнинг қайси хислати ёққанлигини копток отиш орқали бажаришлари керак. Масалан, “менга фалончининг муомала маданияти ёқди”, “менга ўз фанини яхши билиши ёқди ” ваҳоказо.

Психологик тренинглар ўтказиш тренердан катта маҳорат талаб этади.



ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ

Ш.З.Тайланова - СамДУ. доц.

Талабаларда қадриятлар тизимини ривожлантириш мураккаб педагогик ҳодиса бўлганлиги сабабли қатор назарий-методологик ёндашувларга таянишни тақозо этади.

Энг аввало, талабаларда қадриятлар тизимини ривожлантиришнинг назарий-методологик асоси сифатида мазкур жараёнда педагогик соҳанинг ўзига хосликларига доир қуйидаги жиҳатларни ажратиб кўрсатишга имкон берувчи тизимли ёндашувнинг ўзига хосликлари аниқлаштирилди:

- ✓ ўзига хос тузилишга ва таркибий қисмларга эга яхлит жараён;
- ✓ кўплаб омилларга, шу жумладан, ташқи муҳитга бевосита боғлиқликда муваффақиятли амалга ошувчи жараён;
- ✓ педагогика олий таълим муассасалари талабалари билан олиб бориладиган чора-тадбирлар тизими сифатида юзага чиқувчи жараён;
- ✓ талабаларни педагогик фаолиятга тайёрлашнинг таркибий қисмини акс эттирувчи жараён;
- ✓ шартли равишда икки (а) педагогика олий таълим муассасаларининг ўқув-билиш, илмий, маънавий-маърифий фаолияти; (б) талабаларнинг ўз-ўзини ривожлантириши ва ўз-ўзини такомиллаштириши) шаклда амалга оширилувчи жараён.

Мазкур ёндашувнинг аҳамиятини бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ошириш масаласини ёритиб бериш орқали янада, аниқлаштириш мумкин.

Бугунги кунда мутахассис шахсини яхлит тарзда шакллантиришга қўйиладиган талаблар, айниқса, бўлажак ўқитувчиларда қадриятлар тизимини ривожлантиришда долзарб аҳамият касб этади.

Педагогика олий таълим муассасаларидаги таълим-тарбия тизимида олиб борилаётган ислохотларда бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини такомиллаштириш асосий ўрин эгалламоқда. Педагогик таълим тизимида инновацион технологияларнинг доимий ўзгариб бориши бўлак ўқитувчилар фаолиятига бўлган нуқтаи назарининг ва касбий педагогик маданиятига нисбатан қўйилган талабларнинг янгича ўзгаришига олиб келди. Ҳозирги даврда бўлажак ўқитувчидан ўз фаолияти, таълим-тарбия қонуният, тамойил ва методларини чуқур англаш, талабаларнинг шахс сифатида шаклланиши ва уларнинг тарбиясини самарали йўлга қўйиш – бугунги куннинг муҳим талабидир.

Маълумки, бугунги кунда замонавий педагогика фани методологияси педагогик жараёнга яхлит ҳодиса сифатида қараш, уни бир тизимда жойлашувчи алоҳида таркибий қисмлар бирлиги тарзида тушунишни талаб этади. Педагогик маҳорат ҳам яхлит педагогик жараённинг таркибий қисмларидан бири сифатида мазкур жараёнга тизимли ёндашувни талаб этади. Ана шу асосдан келиб чиқиб, энг аввало, “тизим”, “тизимлилик”, “тизимли ёндашув” тушунчаларининг моҳиятини аниқлаштириб олиш зарур. Чунки мазкур тушунчаларни тадқиқотчилар аксарият ҳолларда ўз тадқиқотларининг методологик асоси сифатида қайд этадилар.

Тизим (юнонча *systema* – яхлит, қисмлардан таркиб топган, бириктирилган) муайян яхлитлик, бирликни ҳосил қилувчи, ўзаро таъсирлашув ва боғлиқликда бўлган кўплаб элементларни англатади. Тизим – тартибли равишда жойлашган ва ўзаро боғлиқликда бўлган қисмлар бирлигини ифодаловчи яхлитликдир.

“Тизим” бу муайян таҳлитда тартибга келтирилган элементлар тўплами бўлиб, улар ўзаро боғлиқ ҳолатда, муайян яхлит бирликни ҳосил қилади.

“Тизимлилик” тушунчасини жараёнлар ва борлиқдаги ҳодисаларнинг тизим ҳосил қила олиши, тизимнинг мавжудлиги, моддий дунёнинг ҳамда уни билиш шаклларининг тизимли қурилишга эгаллиги каби ҳолатларни акс эттира олиши тўғрисидаги хулосага келиш мумкин.

Тизимли ёндашув – илмий билиш ҳамда ижтимоий амалиёт методологиясининг йўналиши бўлиб, унинг асосида объектларни тизим сифатида қабул қилиниши ётади. Тизимли ёндашув тадқиқотчини объект яхлитлигини очиб беришга, унинг алоқалари турли типларини аниқлашга ҳамда уларни ягона назарий кўринишга келтиришга йўналтиради. Тизимли ёндашувнинг методологик ўзига хослиги унинг тадқиқотларни қуйидагиларга йўналтириши билан изоҳланади: объект яхлитлигини ва уни таъминловчи механизмларни очиб бериш; мураккаб алоқаларининг

турли типларини аниқлаш ҳамда уларни ягона назарий кўринишга келтириш; шунингдек, объектнинг яхлитлик хусусиятларини, унинг тузилмаси ҳамда динамикасини белгилаш имконини берувчи мураккаб объект ўзаро боғланган моделларининг иерархик тизими тўғрисидаги тасаввурларни амалга оширади. Демак, тизимли ёндашувдан келиб чиқадики, мураккаб объект (tizim)нинг ўзига хослиги унинг таркибий қисмларининг алоҳида хусусиятларини инкор этмайди, аксинча, маълум бир таркибий қисмлар орасидаги алоқа ва муносабатларга доир боғланишларни ҳосил қилади.

Яхлит тизимнинг асосий белгилари қуйидагиларда намоён бўлади:

1. Яхлит тизимнинг асосий белгиси айнан тизимий интеграл ва уни ташкил қилувчи таркибий қисмларнинг жамоавий сифати (ёки сифатлари)нинг мавжудлигидир.

2. Яхлит тизимнинг ажралмас аломати унинг таркибий қисмлари, зеро, тизим улардан таркиб топади ҳамда усиз мавжуд бўла олмайди. Бироқ таркибий қисмлар тасодифий объектларнинг йиғмаси эмас. Улар тизим билан интеграциялашган, айнан ушбу тизимнинг таркиби ҳисобланади. Тизимнинг мақсадга мувофиқ фаолият кўрсатишини таъминлаш борасида уни тадқиқ қилиш, лойиҳалаш, таркибий қисмларини аниқлашга тизимли-тузилмавий ёндашув деб аталади.

Тизимли-тузилмавий (амалий, асосли) ёндашув объектнинг тузилиш хусусиятларини яхлит, таркибий қисмларга берилган вақт оралиғи бўйича бўлақланган ҳолатда қараб чиқишни кўзда тутди.

3. Яхлит тизим – мақсадли тизим, у муайян мақсадни амалга оширишга интилади. Мақсад тизимда уни ҳосил қилувчи муҳим омиллардан бири сифатида юзага келади. Бироқ, мақсад унга эришиш учун муайян ҳаракатларни амалга оширишни тақозо қилади. Тизимнинг муҳитда мақсадга эришиш учун амалга оширадиган ҳаракатлари айнан унинг функцияларини ташкил қилади. Функциялар мақсадга нисбатан унга эришиш усули сифатида юзага чиқади. Тизимнинг мақсадга эришиш учун муҳитдаги ўзини тутиши нуктаи назаридан тадқиқ қилиш ва лойиҳалашга тизимли-функционал ёндашув дейилади.

4. Ҳар қандай тизим ўзгармас, барча даврлар учун бир хил бўлиб қолмайди. У абсолют, абадий эмас, чунки қарама-қаршиликлар мавжудлиги унга ҳам хосдир. Ҳар бир тизим нафақат фаолият кўрсатади, балки, шу билан бирга ривожланади; у ўз ибтидосига эга, у яралиш даврини ўтайди, таркиб топади ва ривожланади. Тизимлар назариясида тизимнинг яшаш вақти унинг асосий тавсифий белгиларидан бири ҳисобланади.

5. Тизимни унинг вақт бўйича ривожланиши нуктаи назаридан тадқиқ қилиш ва лойиҳалаш тизимли ёндашув деб аталади.

Тизимли ёндашув объектнинг юзага келиши, яралиши ҳамда таркиб топишини тизимли-генезис сифатида белгилаб беради.

6. Ҳар бир тизим ўз навбатида ўзидан юқори даражада турувчи метатизимнинг таркибий қисми саналади, шу каби у ўзидан қуйи даражада турувчи таркибий қисмлардан иборат. Бошқача қилиб айтганда, ҳеч бир тизим бошқалардан изоляцияланмаган, балки кўплаб алоқалар билан бошқа турли тизимий ва нотизимий уюшмалар билан таъсирлашиб туради. Тизим ўзига нисбатан ташқи бўлган муҳитда ҳаракатда бўлади, ривожланади, у билан кўплаб коммуникациялар орқали боғланади. Тизимни унга нисбатан мавжуд бўлган бошқа тизимий ва нотизимий уюшмалар нуктаи назаридан ўрганишга тизимли-коммуникатив ёндашиш деб аталади.


7. Тизимга доимий равишда ўзида унинг турғунлигини бузишга қаратилган таъсирлар кўрсатиб турилади. Ушбу таъсир аввало ҳар қандай тизимнинг ичида мавжуд бўлган қарама-қаршиликлар оқибатида юзага келади. Шу билан бирга ресурслар етишмаслиги, қаттиқ чеклашлар каби ташқи салбий таъсирлар ҳам мавжуд. Бунга қарамасдан тизим яшайди ва ривожланиб боради. Демак, ташкил этувчи қисмларнинг ўзига хос йиғмаси, ички тузилма ва бошқалар билан бирга бошқа тизим ҳосил қилувчи, тизимни ҳимояловчи омиллар ҳам мавжуд. Тизимнинг яшовчанлигини таъминловчи ушбу омилларга бошқарув дейилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.

2. Артыков Н. Формирование нравственной личности учащихся на основе национальных и общечеловеческих ценностей: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Т., 2000. – 37 с.

3. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2002. – 146 с.



ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ

Д.Азизова

Қарши ДУХХТХҚТМОҲМ ўқитувчиси,

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида амалга оширилган кенг кўламли ислохотлар миллий давлатчилик ва суверенитетни мустаҳкамлаш, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, жамиятда қонун устуворлигини, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини таъминлаш учун муҳим пойдевор бўлди, халқимизнинг муносиб ҳаёт кечириши, жаҳон талаблари даражасида таълим олиши ва касб эгаллаши, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини рўёбга чиқариш учун зарур шарт-шароитлар яратди.

Дарҳақиқат, бугунги кунда мактабгача таълимида болалар билимининг сифат ва самарадорлигини жаҳон талаблари даражасига кўтариш, болаларнинг жисмонан бакувват ҳамда ақлан етук этиб тарбиялаш вазифаси давлат сиёсати даражасига кўтарилганлиги ҳаммамизга маълум. Шу билан бирга, узлуксиз методик хизматни самарали ташкил этилишида бош – қош бўладиган тарбиячиларнинг касбий ва маънавий салоҳият қай даражада, эндигина олий ўқув юртини тамомлаб ўз мутахассислиги бўйича ишни бошлаган мутахассисга узлуксиз методик хизмат кўрсатиш борасида ёрдам беришга маҳорати етадими, оладиган маоши уни оиласининг моддий таъминотини қоплайдими. Шу каби муаммолар кўпдан бери ечимини кутиб турган эди. Бунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 3261-сонли қароридастуриламал бўлмоқда.

Жумладан, касбий-педагогик компетентликка эга бўлишда ўз устида ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Тарбиячининг касбий маҳорати ва компетентлиги мактабгача таълим муассасаси тарбиячиси учун таълимда замонавий ёндашувлар, касбий маҳоратни ошириш йўллари, инновацияларнинг мазмун, моҳиятини ёритиб, касбий компетенциясини ривожлантириш учун имкон яратади.


- ✓ жамият тараққиётидаги таълим-тарбия жараёнининг аҳамиятини;
- ✓ таълим-тарбияжараёнининг технологиялаштиришбосқичларини;
- ✓ инновацион жараён;
- ✓ таълимга технологик ёндашув асосида машғулотларнинг ўқув-тарбиявий мақсадини қўя олиш;
- ✓ тарбияланувчилар фаолияти фаоллигини жадаллашлатириш асосида педагогик технологияларни танлай олиш;
- ✓ мактабгача таълим муассасаларида машғулотларни ташкил этиш;
- ✓ ўйинли технологиялар ва улардан машғулотлар даврида фойдалана олиш;
- ✓ тарбиячи-педагог фаолиятига креатив ёндашув;
- ✓ шахснинг маънавий-ахлоқий сифатларини фаол шакллантириш, таълим-тарбия жараёнини педагогик технология тамойилларига мос равишда педагогик мақсадга мувофиқ ташкил этиш ва амалга ошириш, таълим-тарбия мазмунига оид ахборотларни қайта ишлаш, умумлаштириш ва болаларга етказиш;
- ✓ машғулотларда таълим ресурсларидан фойдаланиш;
- ✓ ўқитиш мазмунига оид ахборотларни қайта ишлаш, умумлаштириш ва болаларга етказиш кўникмалари;
- ✓ ўқув жараёнини ташкил этиш ва самарали бошқариш асосида педагогик технологияни танлай олиши замонавий талаблар асосида машғулотларни ташкил этиш малакаларига эга бўлиши;
- ✓ жаҳон тажрибасида мавжуд инновацион таълим-тарбия технологиялардан хабардор бўлиш ва касбий фаолиятда фойдаланиш компетенцияларини эгаллаши лозим.

Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари ўзини ўзи таҳлил қилиш ва ўзини ўзи тарбиячининг баҳолаш орқали аниқланади. Ўз устида ишлаш – педагогнинг изчил равишда ўзининг касбий БКМ ва шахсий сифатларини ривожлантириб бориш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиши. Ўз устида ишлаш қуйидагиларда кўринади:

- ✓ касбий БКМ ни такомиллаштириб бориш;
- ✓ касбий ва ижодий ҳамкорлик ка эришиш;
- ✓ ишчанлик қобилиятини ривожлантириш;
- ✓ ижобий сифатларни ўзлаштириш.

- ✓ Педагогнинг мутахассис сифатида:
- ✓ аниқ мақсад, интилиш асосида педагогик жараёни такомиллаштириш;
- ✓ изчил равишда янгиланиб бораётган педагогик билимларни ўзлаштириш;
- ✓ илғор технология, метод ҳамда воситалардан хабардор бўлиш;

фаолиятига фан-техниканинг сўнгги янгилекларини самарали татбиқ этиш. Баён этилганларни хулосалаб айтиш мумкинки, таълим-тарбия жараёнида тарбиячининг касбий компетентлиги ва педагогик маҳорати шакллантиришга йўналтирилган таълим технологияларининг жорий этилиши мустақил эркин фикрлаш, изланиш, бир масалага ижодий ёндашиш, масъулиятни сезиш, ўз фикр-мулоҳазаларини батафсил ифода этиш, ҳимоя қилиш ҳамда исботлаш малакаларини ривожлантиради, уларни илмий адабиётлардан унумли фойдаланишга, ижодкорликка, ўз устида мунтазам ишлашга ундайди. Бу болага ҳаётий кўникмаларни эгаллаши ва ҳаётдан тажрибаларни ўрганиши учун, ўз имкониятлари, фаоллиги, ижодкорлиги, масъулиятини намоён қилиш учун имкон ва шароит яратиш; болада бутун ҳаёти давомида ўқиб-ўрганиш, билими, тажрибасини мустақил равишда мунтазам ошириб бориш мотивациясини шакллантириш; таълимда ўқувчи индивидуаллиги ва мустақиллигига таяниш, бола манфаати устиворлигига эришиш имконини беради.



ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА, МУСИҚА ТАРБИЯСИ, БАРКАМОЛ ШАХС ШАКЛЛАНИШИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

М.Аҳмедов -Андижон ХТХҚТУМОҲМ

амалий фанлар ва мактабдан ташқари таълим методикаси кафедраси мудири

Мусиқа дарси ички тузилишининг асосий хусусияти шундан иборатки, бир дарснинг ўзида мусиқа саводи ва мусиқа тинглашни бирлаштириш зарурлигидадир. Биринчи ва иккинчи синфларда дарснинг кўп қисми, яъни 25 миноти жўр бўлиб кўшиқ қуйлашга ажратилади, чунки шу ёшдаги болалар учун ушбу жараён энг осон ва қизиқарли ишдир. Бу синфларда ашула устида ишлаётганда ўқитувчи ўйин элементларидан ритмик ҳаракатлардан, осон рақслардан ва хор овозларидан фойдаланиши мумкин, бу ҳол болалар учун қизиқарли, буларни ҳам болалар яхши кўрадилар.

Биринчи ва иккинчи синф болалари унча катта бўлмаган мусиқа асарларини зўр иштиёқ билан тинглайдилар.

Мусиқа саводига доир олиб борилаётган иш асосан, болаларнинг мусиқавий ўқувини ўстиришда нота ёзувларини ўрганишдан иборатдир. Мусиқа тинглаш ва мусиқа саводи қисмига дарсда тахминан 10 минутдан вақт ажратилади. Шундай қилиб, 1-2- синфлардаги дарс тузилишининг асосий хусусияти дарс давомида болалар диққатини бир нарсдан иккинчи нарсага кўчириш, яъни дарс жараёнларини алмаштириб туришдир. Юқори синфларда болаларнинг диққати ҳийла барқарор ва бир жойга тўпланган бўлади. Масалан, 3-4-синфларда дарснинг кўпроқ қисмини битта топшириқ устида ишлашга ажратиш мумкин. Бунга янги кўшиқ ўрганиш ва композиторларнинг ижоди ҳақида суҳбат ўтказиш билан бирга уларнинг асарларини кўрсатиш ёки мусиқа саводини ўрганиш учун вақт бирмунча кўпаяди. Бироқ дарснинг асосий қисми (тахминан) хор бўлиб ашула айтишга ажратилади.

5-6-синфларда мусиқа дарсини ўтказиш ўқитувчи учун ҳийла қийиндир. Бу ҳол ўқувчиларнинг ёш хусусиятларига боғлиқ бўлади, 11-12 ёшда бола организми кучли ривожлана бошлайди. Бу ёшда болалар бир мунча таъсирчан бўлади, шунинг учун 5- 6- синфларда интизомни сақлаш анча қийин бўлиб, бу кишининг ҳиссиётини кузатадиган мусиқа дарсларида яққол намоён бўлади. Болалиқдан ўсмирликка ўтиш ёшида болалар жуда кўп активлашадилар. Куч - қувватлари қайнаб тошади, ўз фаол қобилият ва кучларини бирор нарсага сарфлашга ҳаракат қиладилар. Болаларда дид, ҳавас ва бирор нарсага нисбатан қизиқиш пайдо бўла бошлайди. Агар бу омиллардан моҳирлик билан ўз вақтида фойдаланилса, болаларнинг куч-қувватлари тўғри йўлга солинса, булар келажакда яхши натижалар бериши муқаррардир.

11-12 ёшли болаларнинг овози анчагина кучли бўла бошлайди ёркин ва жарангдор бўлиб, тембрлари аниқланади. Бу нарса қизиқарли кўшиқ репертуари танлаш, овози яхши, ифодали жаранглашишига эришиш, шу билан бирга ўқувчиларни мазкур предметга қизиқтириш, уларда ҳавас уйғотиш имконини беради. Ўқитувчининг ўз обрўйига эга бўлиши ҳам катта аҳамиятга эга.

Бу ёшдаги ўқувчилар ўз ўқитувчиларига жуда ҳам танкидий кўз билан қарайдилар, бир ўқитувчиларни билимдонлиги ва яхши сифатлари учун ҳурмат қилсалар, бошқаларини шу хусусиятлари бўлмаганлиги учун ҳам ҳурмат қилмайдилар. Агар мусиқа ўқитувчиси чолғу асбобида яхши чалса, кўшиқни яхши, қизиқарли куйласа, мусиқа ва композиторлар ҳақида сўзлаб берган ҳикоялари болаларни ўзига муяссар қилади. Агар бошланғич синфларда мусиқа дарси бутунлай ёки етарли маълумоти бўлмаган ўқитувчи томонидан жуда паст савияда ўтказиладиган бўлса, у ҳолда 5-ва 6-синфларда мусиқа ўқитувчиси яна бир қийинчиликка дуч келади. Натижада мусиқа дарси дастури бажарилмай қолади ва бу хатони юқори синфларда тузатишга тўғри келади. Бундай ҳолларда ўқитувчининг қолоқ ўқувчилар билан олиб борадиган кўшимча дарслари катта аҳамиятга эга.

5-6-синфлардаги дарс тизими ва вақт тақсимлаш тахминан 4-синфлардагига ўхшайди. Хор бўлиб ашула айтишга 25 минут, мусиқа саводига ва мусиқа эшитишга 20 минут вақт ажратилади. Мусиқа саводини ўрганишга бутун бир дарсни ажратиш нотўғри бўлади. маълумки, бу дарс ўқувчилар учун ҳам ҳиссиётли бўлиб, уларга бу дарсни тинглаш оғир ва қизиқарли бўлмайди.

7-8-синфларда болаларга мусиқа таълими бериш тугалланади. Тўлиқсиз ўрта мактабни битирувчи ўқувчиларда маълум бир эстетик дид ҳосил бўлиши, тўғри тушунадиган бўлиши, турли композиторларнинг ижоди ҳақида мустақил фикр юрита олиши, нота ёзувларини бемалол ўқий оладиган, нотага қараб кўшиқ куйлай оладиган бўлишлари керак. 7-8 синфларда ашула дарсларини асосан, 1-синфдан 6-синфгача олган билим ва малакалари аниқланади ва чуқурлаштирилади.

13-14 ёшли болаларнинг ўзига хос хусусиятларига эга бўлиши мусиқа ўқитувчисига кўшимча қийинчилик туғдиради. Бу ёшдаги ўғил болалар овозида мутация бошланади. Натижада синфдаги болаларнинг бир қисми бутунлай кўшиқ айта олмайдилар ёки куйласалар ҳам ўқитувчи назорати остида эҳтиёткорлик билан куйлайдилар. Бундан ташқари синфда болалар оддий ашула айтишни давом эттираётган, мутация белгилари ҳали намоён бўлмаган болалар ҳам бўлади. Қизларнинг овозида унча ўзгариш бўлмаса ҳам организмнинг умумий ўсиши натижасида овоз аппарати ўзгаради.

Бу ҳам уларга эҳтиётлик билан муомалада бўлишни талаб этади. Бу синфларда кўшиқ куйлаш тизимидаги хусусият шундан иборатки, бунда хор бўлиб ашула айтишга оз вақт (15-20минут) ажратиб, қолган вақтни эса мусиқа тинглаш ва саводига, асосан нотага қараб кўшиқ куйлашга бағишлаш керак. Нотага қараб кўшиқ куйлаш катта вақал вазифасини талаб қилмайди, чунки бунда хор малакаларини ўстиришни кўзламайдиган, диапозони кичик ва куйлаш учун қулай бўлган машқлар танланади. Бундан ташқари юқори синфлардаги ўқувчиларнинг сольфеджиодан етарли тайёргарлиги бўлиши керак. Шундагина бутун синфнинг нотага қараб ашула айтишини яқка ёки гуруҳларга бўлиб сольфеджио қилиш билан алмаштирилиб туриши мумкин. Бу ёшдаги болалар мусиқа адабиётини ўрганишга мусиқага жуда қизиқадилар. Шунинг учун дарсларнинг кўп қисмини тўлиғи билан композиторларнинг ҳаёти ва ижодини ўрганишга бағишлаш мумкин. Бу синфларда хор бўлиб кўшиқ куйлаш репертуарини тўғри танлаш, шу билан бирга ўқувчиларнинг овозига қараб, бунда мутациядан ўтган болалар хор партияларидан бирини бир октава паст эркак овози билан айтадиган қилиб, тақсимлашнинг аҳамияти катта.

7-8 синф ўқувчисининг асосий мақсади ва вазифаси ҳамоҳанг барқарор икки овозли (қисман октавани икки хисса ошириб) ашула айтишга эришишдан иборатдир. Албатта, бу синфлардаги дарсларнинг тизими кўп даражада синфнинг таркибига борлиқдир. Шундай синфлар бўладикки, унда ўқувчиларнинг кўпчилиги қизлар бўлади ва баъзи синфларда мутацияси бошланган ўғил болалар деярли бўлмайди. Бундай ҳолларда дарс структурасини 5-6-синфлардагидек тузиш методи тўғри танлангандагина ва болаларнинг ёш хусусияти ҳисобга олингандагина мусиқа дарсларидан яхши натижаларга эришиш мумкин.

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАТСИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚО`ЛЛАШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

E.I. Pardayeva1, N.B. Eshimova2

1 SamDU qoshidagi XTXQTMOM tinglovchisi, 2 Urgut tumani Tadbirkorlik kasb-hunar kolleji.

Hozirgi kunda barcha sohalar kabi o'quv jarayonida ham kompyuter va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, davlatimiz tomonidan ta'lim jarayonini axborotlashtirish hamda o'quv jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2003 yil 11 dekabrda O'zbekiston respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risidagi» qonuni, O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida», O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2006 yil 7 iyundagi «O'zbekiston respublikasi XTV huzurida multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» va boshqa e'lon qilingan qarorlari buning yaqqol misolidir.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Talim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridak yosh avlod tarbiyasi haqida gap ketganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".


Tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi ya'ni "Maktabgacha ta'lim" esa uning davomchisi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ongi, fikrlashi, hotirasi kuchli bo'ladi va olgan bilimni xattoki bir umrga yodida saqlaydi. Ushbu yoshdagi bolalarga berilayotgan axborotlar uning kelajagiga katta tasir ko'rsatadi. Shuning uchun ham "Maktabgacha ta'lim" muassasalari hodimlari doim o'z bilim doirasini yangilab borishi, zamonaviy mutaxassis, tashabbuskor, ijodkor metadis bo'la olishi lozim.

Kompyuter vositasida tayyorlangan animatsiyalar, videofilmlar, slaydlar, multimedia taqdimotlari maktabgacha yoshdagi bolalarga bilimlarni o'zlashtirishda yahshi samara berib, materialni mustaqil o'zlashtirish va nazorat qilish imkonini tug'diradi.

Respublika ta'lim markazi tomonidan yaratilgan elektron multimediyali vositalardan foydalanish esa juda ko'p qulayliklarga ega. Unda asosan "Katta guruh" bolalari uchun foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Elektron o'quv qo'llanmada harflar ketma-ketligi rasmlar bilan keltirilgan bo'lib rasm ustiga sichqoncha tugmasi bosilganda tasvir haqidagi ma'lumot ovoz yordamida jaranglaydi. Bolalar bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi va rasm haqida ma'lumotga ega bo'ladi.




Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar boshlang'ich saboqlarni olishi ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liq. Ushbu elektron qo'llanmalar esa tarbiyachi faoliyatini amalga oshirishida ko'makchi desak mublag'a bo'lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktabgacha talim muassasalarida qo'llashning afzalliklari kichik guruhlarda ham maktabgacha tayyorlov guruhlarida ham bemalol foydalansa bo'ladi.




Masalan harflar, sonlar, hayvonot olami, o`simliklar, tabiat hodisalar va hokazolar. Bunda bolalar ham eshitib, ham ko`rib, takrorlab yaxshi esda saqlaydi.

Maktabgacha yoshda bolalarda diqqatni jamlash, ziyraklikni oshirish, hotirani mustaxkamlash kabi hislatlarni shakllantirish uchun elektron qo`llanmaning yana bir jihatidan foydalanish mumkin.



Bunda bolalar tarbiyachilar bilan birgalikda rasmlarni to`g`ri joylashtirishi va rasmdagi tasvir nomini topishi, qaysi harflardan iborat ekanligini aytishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda kundan-kunga rivojlanib borayotgan mustaqil O`zbekistonimizga yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalash, ularni ma`lum bir maqsad sari intilishlariga yo`naltirishni eng oliy masal deb bilish har birimizning vazifamiz ekanligini unitmasligimiz zarurdir. Ushbu yo`lda eng zamonaviy vositalardan foydalanib, zamon talabiga javob bera oladigan komil insonlarni tarbiyalaylik.



TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI

Hafiza Ro`ziyeva - Pastdarg`om tumani 26-umumiy o`rta ta`lim maktabi amaliyotchi psixologi
A.Artikova-Jomboy yengil-sanoat kasb-hunar kolleji

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi jahonning rivojlangan davlatlari orasida munosib o`rin egallab, dadil qadamlar bilan ilgarilab borar ekan, shubhasiz vatanimizning porloq istiqbolini ta`minlovchi omillarning ahamiyati tobora ortib boraveradi. Ayni paytda, mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta`lim olshi masalalari davlar siyosati darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo`magan porloq kelajagiga jiddiy e`tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Buni birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi fikrlaridan ham yaqqol anglash mumkin;”Ta`lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib esa biz ko`zlagan oily maqsad- ozod va obod jamiyatni barpo etib bo`lmaydi”

O'zbekiston uchinchi ming yilikka yangilanayotgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning hamma jabhalarini, jumladan ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida kirib keldi. Ma'lumki ta'lim har bir jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyati rivojlanishining yuksak ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekiston juda qadimiy va boy tarixga ega. Mashhur ajdodlarimiz bejiz boshqaruvga ko'p e'tibor qaratilgan yozuv ma'lumotlarni bizga meros qilib qoldirishmagan. Amir Temur tuzuklarida, Alisher Navoiy nasihatlarida, Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oni kabi o'tmishning buyuk mutafakkirlari asarlarida hozirgi boshqaruvchilar uchun ham o'z qimmatini yo'qotmagan fikrlar mavjud. Ushbu asarlarda boshqaruv vazifalariga xolis yondashish, ishni puxta rejalashtirish, hukmdorning qanday ish yuritishi ko'rsatib o'tiladi, boshqaruvchilarga tavsiyanomalar beriladi. Bularning hammasi chuqur bilimlarni, mehnatning puxta tashkil qilinishini, ish sifati nazoratining mahalliy sharoitlarini hisobga olishni, atrofdagilarga ta'sir ko'rsatishni, bir so'z bilan aytganda biz boshqaruv deb nomlayotgan jarayonning barcha unsurlarini o'zlashtirishni talab etadi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida yaratilgan malakali kadrlar tayyorlash tizimi o'zining strategik maqsadlarga ega ekanligi bilan mamlakatimizning buyuk kelajagini qurishda muhim rol o'ynamoqda. Shu o'rinda strategiya so'zi qanday ma'noni bildirishiga to'xtalib o'tsak. Strategiya yunonch so'zdan olingan bo'lib, "stratus- qo'shin+ago-boshlab boraman" degan ma'noni bildiradi. Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati, shuningdek umuman boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'atidir. Birinchi navbatda yuksak ma'naviyatli, o'zining mustaqil fikriga ega, zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan ushbu tizim O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini yaqqol namoyon etadi.

To'plangan tajribalardan oqilona foydalanish, ta'lim muassasasini boshqarishga doir strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish quyidagi uzoq muddatli istiqbollarga yo'l ochadi.

Ta'lim muhitida aniq nuqtai-nazarning vujudga kelishi;

Ta'lim muassasasi bilan aloqador faoliyat, turli sub'ektlar kuchini birlashtirish va muvofiqlashtirish;

Istiqbolni ko'ra olish va boshqalar.

Suningdek haqli ravishda bugungi kunda strategik rejalashtirish texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi boshqaruv guruhlari oldida bir qator qiyinchiliklarni bartaraf etish masalalari turibdi.

Strategik boshqaruvga doir tushunchalarning etarlicha o'zlashtirilmaganligi, jumladan ko'pchilik ta'lim muassasalari uzoq muddatga mo'ljallab tuzilgan istalgan rejani strategik reja deb hisoblashadi;

Ta'lim muassasasini strategik rejalashtirishda etarlicha tajribaning mavjud emasligi;

Strategik rejalashtirish, ayniqsa pedagogik hamkorlikka jalb etish metodlari, tashqi va ichki muhitni tahlil etish sohasida boshqaruvga doir texnologiyalardan xabardor emaslik;

Strategik rejalashtirishga tizimli yondashuvning tadbqiq etilmasligi, jumladan strategiya ishlab chiqiladi, biroq strategiyani amalga oshirish, uning monitoringini olib boorish to'liq ta'minlanmaydi;

Rahbar xodimlar- strategik rejalashtirish jarayoni ishtirokchilarida strategik nuqtai nazarning mavjud emasligi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi tubdan isloh qilinishi tufayli qo'yilayotgan zamon talablarini amalga oshirish jarayonining jadallik bilan borishi ko'p jihatdan o'quv muassasalari rahbarlarining ushbu jarayonning yanada samarali bo'lishiga qo'shadigan hissalar va rahbarlik faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishlariga bog'liq ekanligi, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida ta'lim muassasalariga yuqori tashkilotlarning ko'rsatma va direktiv hujjatlaridagi vazifalarni ko'r-ko'rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o'z faoliyatiga har bir ishiga ijodiy yondashadigan, zamon talabiga javob bera oladigan, pedagogika, rahbarlik psixologiyasi fanlaridan xabardor bo'lgan va ulardan mohirona foydalana biladigan, shuningdek mukammal shaxsiy fazilatlarida o'ziga xos xususiyatlarga, boshqaruvchilik qobiliyatiga, muayyan muomala madaniyatiga, imon-e'tiqodga, g'oyaviy-siyosiy bilimga, tashqi qiyofaga ega, his-tuyg'ularni, an'analarni, rasm-rusumlarni anglay oladigan, fidoyilik, qat'iylilik, savodxonlik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik va tadbirkorlikka layoqatli xodimlarni tayinlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobi T.:Sharq 1997 y. B.31-61

Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T.:Ma'naviyat, 2008 y. 176 b-60-61-b.

Ibrahimov X. Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi" – T. 2008 y. 121-125 b

Ahliddinov R.Sh. "Maktabni boshqarish san'ati" Fan nashriyoti. 2006 y. 25-45 b.

ПЕДАГОГИКА ТАЪЛИМИДА БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ИҚТИСОДИЙ ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ИШИГА ТАЙЁРЛАШ

*Мадатов Илхом Юсуп ўгли СамДУ магистранти
Тухташева Рушана Садуллаевна СамДУ магистранти*

Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дартури”да жамиятимизнинг узлуксиз таълим тизимида берган буюртмасига бошланғич таълим (I-IV синфлар) бўғини ҳам мустақил давлатимизнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсати, унинг мақсад ҳамда вазифаларига ҳамоҳанг ҳолда ўз фаолиятини олиб бориши алоҳида таъкидланган. Жумладан, мазкур меъёрий ҳужжатда “Таълимнинг барча даражаларида таълим олувчиларнинг Иқтисодий таълим ҳамда тарбиясини такомиллаштириш ” [1,55] зарурлиги қайд қилинган. Ўзбекистон Республикаси ҳукумати таълим ва тарбияни иқтисодиёт билан чамбарчас ривожлантиришга иқтисодиётнинг сиёсатдан устуворлигини таъминлашга ва ушбу жараённинг тарбияшуносликга таъсири масаласини ўрганишга аҳамият бермоқда. Шу боисдан ҳам мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидан бошлаб “Ўзбекистон Республикасининг узлуксиз иқтисодий таълим – тарбия Концепсияси” [2] қабул қилинган. Мазкур ҳужжатга мувофиқ узлуксиз иқтисодий таълим - тарбиянинг иккинчи босқичи “Бошланғич таълим” га белгиланган бўлиб, унинг I-IV синф ўқувчиларини дарс ва синфдан ташқари машғулотлари жараёнида “Иқтисод алифбоси” билан таништиришлари кўзда тутилган. Бошланғич таълимда ўқувчиларга “Иқтисод алифбоси”ни ўргатиш вазифаси бошланғич синф ўқитувчиси олдида таълимнинг ташкилий шакл, метод ва воситаларини ишлаб чиқиш ва таълим – тарбия жараёнига жорий этишни тақозо этади.

Ушбу кўп қиррали ва мураккаб ишни амалга ошириш бошланғич синф ўқитувчисидан иқтисодий таълим – тарбия назарияси ва методикаси бўйича маълум иқтисодий тайёргарликни талаб этади. Шу муносабат билан Олий Таълим тизимида бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг келгуси педагогик фаолиятида кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар иқтисодий таълим – тарбия бериш бўйича “Педагогика назарияси ва тарихи” [7] фанинг имкониятларини қараймиз.

Ўтказилган таҳлиллар мазкур фанинг қатор мавзу ва саволларини маъруза ва семинар машғулотларида ўрганиш жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчисидан болаларга иқтисодий таълим – тарбия бериш бўйича маълум даражада билим ва кўникмаларни таркиб топтириш имкониятлари мавжудлигини намоён қилди.

Энди бўлажак ўқитувчиларни кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларга иқтисодий таълим – тарбия беришга тайёрлашга бевосита йўналтирилган мавзу ва саволларидан намуналар келтирамиз: 4. “Тарбия мақсади ва вазифаси” мавзусидаги, “Тарбия вазифалари мазмуни шахсининг... фуқаролик, маънавий, ахлоқий, жисмоний, иқтисодий, экологик, эстетик тарбияси ҳақида” (7,9); 14. Илмий дунёқарашни шакллантириш ва ўқувчиларни ақлий тарбиялаш мавзусида; Иқтисодий тарбия ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришнинг таркибий қисми сифатида; Бозор муносабатлари ҳамда иқтисодий ислохотлар шароитида тарбиянинг вазифалари ва мазмуни мавзусида;

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президентимиз И.Каримов жамиятни янгилаш шароитида иқтисодий тамойиллар ҳақида; Дарс, дарсдан ташқари машғулотлар ва оилада иқтисодий тарбия мавзусида;

“Меҳнат тарбияси” мавзусида; Одамларда онгли меҳнатқаш, мулкдорлик психологиясини шакллантириш; Бозор муносабатларини ривожлантириш ва иқтисодий ислохотлар шароитида ўқувчи ёшларни иқтисодий тарбиялаш вазифалари, методлари ва мазмуни...;

Фуқаролик тарбияси мавзусида; Ўқувчиларни фуқаролик руҳида тарбиялашда иқтисодий ҳамкорлик;

“ Меҳнат тарбияси мавзусида: “..Одамларда мулкдорлик психологиясини шакллантириш.

“Бозор муносабатларига ўтиш шароитида таълим муассасаларида (Бошланғич мактабда) меҳнат тарбияси тизими ва унинг мазмуни;

(Ижтимоий фойдали меҳнат ва ўзига – ўзи хизмат кўрсатиш меҳнати..)

Бозор муносабатларини ривожлантириш ва иқтисодий ислохотлар шароитида ўқувчи ёшларни иқтисодий тарбиялаш вазифалари, методлари ва мазмуни;

Таълим тизимини ташкил этиш бўлимида: “Бозор иқтисодиёти шароитида таълим, давлат ва нодавлат, пуллик ва бепул, тижорат ва нотижорат таълим муассасалари” [7,10].

Юқорида келтирилган мавзу ва саволлар бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини мактабда иқтисодий фаолиятга тайёрлашда муҳим ўрин тутишини таъкидлаш баробарида мазкур тайёргарликни янада кучайтиришда иқтисодий тарбиянинг ахлоқий, ҳуқуқий, меҳнат, жисмоний, эстетик тарбия билан ўзаро алоқаси нуқтаи назаридан таҳлил қилиш асқотади.

Маълумки, иқтисодий тарбия баркамол авлодни тарбиялашнинг муҳим воситаси сифатида тарбиянинг бошка йўналишлари билан диалектик ўзаро боғлиқликда ва бирликда амалга оширилади. Меҳнат тарбияси билан иқтисодий тарбиянинг бирлиги қаралганда биз меҳнат тарбияси мотив(важ)лари ва талаблари асосида иқтисодий рағбат омиллари ётганини кўраемиз. Меҳнат инсоннинг ҳаётий эҳтиёжига айланган бозор иқтисодиёти шароитида, унинг усиб борувчи талабларини кондиришга хизмат қилади. Меҳнат тарбияси эса, одамни меҳнатсеварликка тайёрлаб мазкур талабларни иқтисодий имкониятлар, меъёрларга мос равишда шакллантиради.

Шу боисдан ҳам талабалар келгуси педагогик фаолиятларида кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда халқмиз томонидан яратилган ана шундай моддий бойликларга эҳтиёткорона муносабатда бўлишни тарбиялашга алоҳида эътибор беришлари ўқитилди.

Ахлоқий тарбия ўқувчиларда тежамкорлик, ҳисоб – китобли бўлиш, ишбилармонлик сифатларини таркиб топтиришга кўмаклашиш шу тариқа иқтисодий тарбия ахлоқий тарбия билан ҳам ўзаро мустаҳкам боғланган. Тарбиянинг мазкур шакиллари ўзаро бир-бирини тўлдиради, бойитади ва меҳнат таълим жараёнида сифат жиҳатдан такомиллашиб боради.

Юқорида кўрсатилганидек, мактабда ўқувчиларнинг иқтисодий тарбияси меҳнат тарбиясидан ажралмаган ҳолда амалга оширилади. Чунки, меҳнат жараёнида ўқувчиларнинг иқтисодий билимлари уларга яратувчилик характерини бағишлайди. Ўқувчиларнинг меҳнат фаолияти жараёнида уларда ўз ишларини режалаштириш, меҳнат ҳажмини меъёрлаш, моддий ресурсларни тежаш, унумли ва сифатли меҳнат қилишга интилиш, бажараётган ишига маъсулият билан ёндашиш кўникмалари каби иқтисодий сифатлар камол топиб боришини талабаларга аниқ мисолларда исботлаб берилди. Бунда "Бошланғич таълим ва болалар спорти" таълим йўналиши талабаларининг қишлоқ хўжалик ҳамда қурилиш отрядларида ортирган тажрибаларига таяниш, бўлажак бошланғич таълим ўқитувчиларини ўқувчиларга иқтисодий таълим беришга тайёрлаш бўйича вазифасини бирмунча енгиллаштиради. Талабаларнинг унумли меҳнати жараёнида уларнинг иқтисодий таёргарликларини шакллантириш бўйича олиб борилган изланишлар таҳлиллари шундан далolat берадики мазкур жараёнда уларнинг эстетик ва ахлоқий тасавурлари кўшилиб кетишига, бу эса ўз навбатида уларда кам иқтисодий сарфлар билан ишлашни тез суръатлар билан шакллантиришга олиб келиши мумкин.

Адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикасининг “ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ 1998. – Б. 32-64.

2.Ўзбекистон Республикасининг узлуксиз иқтисодий таълим-тарбия Концепцияси // Маърифат газетаси. 1996-йил 17 –август.

3.И.А. Каримов Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон, 1993.


4.Абдалимов М., Каримов Б. Иқтисод алифбоси. – Т.: Фан, 1997.- 27 б

5.Валиева З., Мухибов Е. Иқтисод алифбоси. Бошланғич мактаб 2- синф учун қўлланма. – Т.: Шарқ, 1996.

6.Мактабгача таълим муассасаси болаларида иқтисодий тарбияни шакллантириш. Услубий қўлланма. Тузувчилар: Н.Шодиев, Б.Дониев. – Самарқанд: СамВПХҚТМОИ, 2016.- 52 б.

7.“Педагогика назарияси ва тарихи” фан дастури. Тузувчилар: С.Нишонова, Ж. Ҳасанбоев ва б.қ. – Т.: ТошДПУ, 2003-40 б.

8.Эркабоева Н.Ш мактабгача ёшдаги болаларга иқтисодий таълим-тарбия бериш йўллари. Услубий қўлланма. – Фарғона, 2002. -47 б.



KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

N.Umarova, N.Nasriddinova, Sh. Karimova- Samarqand pedagogika kolleji o'qituvchilari.

Bugungi kunda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish yurtimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ishonchli kafolati sifatida o'qituvchi va murabbiylar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ayni paytda xalq ta'limi tizimining barsha bo'g'inlarida jiddiy ish olib borishni talab etadi.

Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar maqsadli tarzda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida boshlanadi. Ilm, fan va ishlab chiqarishning hozirgi taraqqiyoti yosh mutaxassislarda ilmiy-nazariy bilimlarning cheklanganligini, amaliy faoliyatda yuksak darajadagi malakalarning mukammal tarkib topganligini ko'rsatib turibdi.

Barcha sohalarda ish olib boruvchi mutaxassis o'z kasbining bilimdoni bo'lish bilan cheklanmasdan, ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotda ustalik bilan qo'llay oladigan, ijodiy fikrlaydigan, yangilikni tez o'zlashtirib oladigan, o'zi yangilik yaratadigan bunyodkor shaxs bo'lishi talab etilmoqda. Hozirgi paytda texnika va texnologiya shu darajada rivojlanib ketdiki, buni mukammal bilmagan va ishlata olmaydigan kishi nafaqat ishlab chiqarishda, hatto kundalik hayotda ham biror narsaga erishishi amri mahol. Kollejlarda bo'lajak mutaxassislar faqat dars jarayonida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni to'la egallab olishi qiyin. Shuning uchun ham talabalarning mustaqil bilim olishiga jiddiy e'tibor berish zarur.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, yangi qabul qilingan qonun va farmiy ishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:
o'quvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar;
bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar;
muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar;
qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy yondoshuvni talab etuvchi mustaqil ishlar;

o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish, ish natijalarini maqsadiga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar;

muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalgam oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar;

qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida o'quvchi shaxsini vaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'zi ustida ishlashi va ijodkorlikni shakllanishiga imkon beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlar o'quvchi oldiga ma'lum bir ta'limiy muammoni hal qilishni qo'yadi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni esa, muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil fikr yuritish malakasiga ega o'quvchi nostandart yoki kutilmagan vaziyatlarda tezkor, aniq va to'g'ri qaror qabul qilishga asos hisoblanadigan izlanuvchan ijodiy faoliyatni ta'minlovchi jihatlariga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, o'quvchilar mustaqil ishlarni faqatgina kerakli balni to'plash uchungina bajarishmoqda.

O'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishdagi faolligi jiddiy motiv mavjud bo'lgandagina jadallashadi. Bizga psixologiyadan ma'lumki, motiv biror faoliyatga yoki harakatga undovchi kuchdir.

Mustaqil ishlar mustaqil faoliyat yuritish malakasiga ega mutaxassisni tayyorlashga ko'maklashadi. Mustaqil faoliyat yuritish sifatiga ega mutaxassis faqatgina ko'rsatmalarga binoah faoliyat ko'rsatuvchi oddiy ijrochi emas, balki, masalalar echimiga ijodiy yondashib, yangiliklar yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil ta'lim pedagogika fan taraqqiyotining turli davrlari va bosqichlarida olimlarning diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Hali maktab ta'limi mukammal ilmiy asoslangan darajaga yetmagan paytlarda yetuk mutaxassislar asosan mustaqil bilim olish, tajriba va kuzatishlar o'tkazish, ilmiy-ijodiy izlanish olib borish orqali o'z mahoratlarini takomiliga yetkazganlar. Bu tajriba hozirgi kunda kungacha o'zining ta'sirchanligini saqlab kelmoqda. Ta'lim mazmuni olimlar va mutaxassislar tomonidan bilim oluvchining aqliy va ruhiy ulg'ayganiga mos qilib tanlanadi va bu davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, namunaviy

dasturlar va darsliklarda to'la aks ettiriladi. O'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashnirish bilan jamiyatda o'z o'rnini topishga, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishga, o'zining barcha ehtiyojlarini qondirishga muvaffaq bo'ladi.


Psixologlarning ta'kidlashlaricha, bolaning aqliy ulg'ayishi yoshi va hayotiy tajribalarga mos holda ortib boradi. Quyi sinflarda o'quvchining bilim olishlarida o'qituvchining ta'siri katta bo'ladi. Yuqori sinflarga o'tgan sayin o'quvchini tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ularning qonuniyatlari, turli ilm va kasb-hunar sohalari qiziqish doirasinig kengayishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayrimlariga maktab ta'limi mazmunidan javob topadi. O'quvchilar qiziqishini uyg'otgan ba'zi muammolar yechimsiz qoladi. Bolada ularning asl mohiyatini anglash, sir-asrorlarini bilish maqsadida mustaqil o'qishga ehtiyoj kuchayadi. Bir tomondan darsda o'qitiladigan materiallarni mukammal o'zlashtirish, bilishi shart bo'lgan, o'qituvchi tomonidan baholanadigan, bilimlarni to'la egallash uchun mustaqil o'qish zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zining qiziqishlarini qondirish, kasb-hunar egallash, hayotda o'z o'rnini topish uchun ham mustaqil ta'lim ehtiyoji ortib boradi. Mustaqil ta'lim o'quvchidagi intellektual imkoniyatlarni to'la namoyon bo'lishi uchun imkon yaraatadi. Mustaqil bilimni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

o'quv rejasi va dasturiga kiritilgan, ta'limning u yeki bu bosqichida egallashi shart bo'lgan, sinfda dars shaklida o'qitiladigan fanlarning mazmunini o'rganish;

o'quv rejasi va dastyridan o'rin olmagan, dars jarayonida o'rganilmaydigan, o'quvchining shaxsiy qiziqishi hamda hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida egallanigan bilimlar.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv rejalari tahliliga ko'ra, fan uchun ajratilgan o'quv yuklamasining to'rtidan bir qismi o'qituvchi tomonidan beriladigan nazariy bilimlarga ajratilgan bo'lib, qolgan qismi amaliy, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishi va o'tkazilishida mustaqil o'qish, o'rganish va olgan bilimlarini amalda tadbiq etish bilan band bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlari talabalari ixtisoslik fanlarini o'rganishda har bir mavzuni to'la o'zlashtirish maqsadida darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari adabiyotlardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Suning uchun o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil adabiyotlar bilah ishlashga, ARM dan unumli foydalana olishga to'g'ri yo'naltira olishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilardan o'z-o'zini takomillashtirish, pedagogic mahorat cho'qqilarini egallashlarini talab etadi.



ФОРМИРОВАНИЕ У ШКОЛЬНИКОВ СПОСОБНОСТЕЙ САМОВЫРАЖЕНИЯ И САМОРЕАЛИЗАЦИИ ПОСРЕДСТВОМ КЛАССНОГО РУКОВОДСТВА

*Нарзикулова Ф.Б.К., психол.н., доцент рцпкпипкрнопсамгу;
Кудратова М.К. г. Самарканд, школа №21*

В нашей стране ведется целенаправленная работа по созданию условий духовного роста нашего народа, дальнейшего укрепления в нашем обществе дружбы и согласия, возрождения и развития присущих нашему народу ценностей. Современные реалии школьной жизни свидетельствуют о том, что в образовательном пространстве новая парадигма воспитания обретает новый смысл. В этой ситуации воспитательные процессы в основном зависят от воли и мастерства педагогов, классных руководителей, инициативы администрации и традиций конкретного учебного заведения.

В общеобразовательной школе для формирования у школьников способностей самовыражения и самореализации необходимо так организовывать учебно-воспитательную работу, чтобы учащимся было интересно, полезно и результативно. Ведь от того, каким образом и на каком уровне проводятся внеурочные мероприятия, зависит выбор будущей профессии учащихся, а значит и успешность каждого выпускника общеобразовательной школы в его дальнейшей жизни.

Классный час – это одна из наиболее распространенных форм организации фронтальной воспитательной работы, имеющая свои характерные черты, особенности подготовки и проведения.[1]

Классный час можно назвать специально организованной ценностно-ориентированной деятельностью, способствующей формированию у школьников системы отношений к окружающему миру. Это время, предназначенное для общения классного руководителя со своим коллективом, когда он использует разнообразные приемы, средства и способы организации взаимодействия с обучающимися.

В процессе деятельности по подготовке и проведению классного часа возможно решать следующие задачи: обогащение сознания учащихся знаниями о природе, обществе, технике, человеке; формирование у обучающихся умений и навыков мыслительной и практической деятельности; развитие эмоционально-чувственной сферы и ценностно-смыслового ядра личности ученика; содействие становлению и проявлению субъективности и индивидуальности учащихся, его творческих способностей; формирование классного коллектива, как благоприятной среды развития и жизнедеятельности школьников. Разумеется, решение всех перечисленных задач следует связывать не с каким-то отдельным часом общения учителя со своими воспитанниками, пусть даже блестяще проведенным, а с хорошо продуманной и детально разработанной системой их организации, где каждому классному часу отводится определенное место и роль.

По нашему мнению, в определении тем классных часов и его планировании должны принимать участие не только учащиеся, но и их родители. Очень важно выяснить их мнение о том, какие проблемы следует коллективно обсудить в классе. Существует немало приемов и методов, помогающих обеспечить субъективную позицию учащихся и их родителей в составлении тематики классных часов. Например, такие методы, как социологического опроса: Что следует в первую очередь обсудить в нашем классе? На какой вопрос вы бы хотели получить ответ на классном часу? Какая тема классного часа будет интересной для большинства одноклассников? Коллективное обсуждение, каких вопросов необходимо продолжить? и т.д.

Кроме того целесообразно использовать различные методики: «незаконченное предложение» или «недописанный тезис», например:

«Самая главная проблема в нашем классе это - ...» или «Я считаю, что в нашем классе надо обсудить такую проблему, как ...»; «памятник проблеме века»: школьникам предлагается определить самую острую проблему класса и изобразить ее в живой скульптурной композиции. Эту методику лучше проводить малыми группами: звено, ряд, отряд и т.д. Или же при планировании классных часов, целесообразно проводить методику, как для учеников, так и их родителей на родительских собраниях «строим новый классный дом»: вложить свой кирпичик с темой классного часа на новый учебный год.

При составлении плана классного часа классный руководитель должен продумать и найти ответы на следующие вопросы:

1. Что необходимо сделать для того, чтобы уже в первые минуты классного часа были обеспечены положительный эмоционально-психологический настрой и мотивационная готовность учащихся к участию в коллективном разговоре и деятельности? На наш взгляд на этом первоначальном этапе целесообразно использовать ТСО. Видеоролики, слайд шоу, презентации с включением музыкального сопровождения, активизируют и мотивируют эмоционально-психологический настрой.

2. Когда и как будут представлены результаты подготовительной работы?

3. В какие моменты учащиеся смогут проявить свою индивидуальность и творческие способности?

4. Кто из учащихся сможет исполнить роль «солиста» в данном классном часе?

5. Каким образом необходимо подвести итоги классного часа, чтобы стимулировать дальнейшую деятельность учеников по самопознанию и саморазвитию?

Классный час в нашем понимании – это не какая-то определенная форма работа, а час классного руководителя, та самая составляющая воспитательного процесса, которая позволяет школьному учителю найти время для общения с учениками, открыто провозгласить и высветить запланированное отношение к определенным ценностям. Час классного руководителя - это форма прямого общения воспитателя со своими воспитанниками, при которой школьники под руководством педагога включаются в специально организованную деятельность, которая способствует формированию у них системы отношений к окружающему миру.

К основным характерным чертам классного часа, можно отнести следующие формы организационного характера:

- это форма внеурочной воспитательной деятельности, которой присуще педагогическое взаимодействие с учениками;


- это форма организации фронтальной воспитательной работы с обучающимися, но важно помнить и то, что при подготовке и проведении классного часа возможно использование и групповых, и индивидуальных форм воспитательной деятельности;

- это гибкая по своему составу и структуре форма воспитательного взаимодействия учителя с учениками.

И в заключении хотелось бы отметить, что многолетний опыт в системе образования позволяет констатировать, что весомая роль в учебно-воспитательной работе должна отводиться проведению классных часов. Еженедельно учителя вместе с учениками, тщательно готовятся к проведению классного часа. Общая цель проведения классного часа, направлена на формирование знаний по вопросам социальной жизни: знания о самом себе, о своих близких, о реальной жизни за окном школы и т.д. Кроме того, преподаватель должен научить учеников видеть проблемы в окружающей и собственной жизни, размышлять о них, анализировать и находить пути их решения; научить понимать своих товарищей, пробудить желание помогать им общаться и сотрудничать с ними.

Использованная литература:

1. Ф.Б. Нарзикулова, - «Педагогические технологии воспитательных уроков». Методические указания. – САМОИПИПКРНО, 2016.- 45 стр.



USTAXONA AMALIYOTI MASHG`ULOTLARIDA ILG`OR PEDAGOGOIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH – SAMARADORLIK OMILI

*R.Uralov, Z. Xakberdiyeva, B. Turdiyeva
-Samarqand pedagogika kolleji o`qituvchilari*

Hozirgi davr yoshlari dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi, to`g`ri baho bera oluvchi, o`tkir zehnli, yuksak intellektual salohiyatga ega bo`lishlari uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zamonaviy maktablar qurilishi, o`quv xonalarining zamonaviy jihozlar bilan bezatilishi, barcha turdagi darslik, o`quv qo`llanmalarining chop etilishi – bularning barchasi yoshlar uchun yetarli emas, maktabga, o`quv darsgohiga zamonaviy pedagog o`qituvchi - shaxs kirib kelgandagina jonlanadi, haqiqat hurmatga, do`stlikka asoslangan o`qituvchi- o`quvchi hamkorligi yuzaga keladi.

Ta`lim-tarbiya tizimida innovatsion terminlar, yangi pedagogik texnologiyalar, noan`anaviy usullar haqida ko`plab gapirilmoqda, ularni tashkil etish yo`llari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda, bunda hamkorlikdagi ta`limning yo`lga qo`yilishi va uning samaradorlogi ham e`tiborga olinmoqda.

Ta`lim-tizimidagi sifat o`zgarishlarini hamkorlikdagi ta`limsiz tasavvur etish qiyin. Har tomonlama intellektual salohiyatga ega o`quvchi yoshlar taqdiri oila-mahalla, oila-o`qituvchi, o`qituvchi-o`quvchi hamkorligida hal qilinadi. To`g`ri, o`qituvchi- o`quvchi hamkorligisiz darsni tashkil etib bo`lmaydi. Ammo, mustabid tuzum davrida bir qolipdagi, asosan, o`qituvchi faolligiga asoslangan an`anaviy darslarga ko`p e`tibor berilgan. Mashg`ulotlarda noan`anaviy usullarning kengroq qo`llanishi o`quvchilarning faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni erkin fikrlashga undaydi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Ustaxona amaliyoti mashg`ulotlarining o`quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda, go`zallikni his etish qobiliyatini shakllantirishda o`ziga xos o`rni bor. Shuni e`tirof etish joizki, Respublikamizda ushbu predmet bo`yicha darsliklar, o`quv qo`llanmalar mustaqillikdan keyingina chop etildi, shuningdek, mustaqillikdan so`ng yangi pedagogik texnologiyalarni, ta`lim innovatsiyalarini to`plash, ulardagi ijodiy faoliyat uchun eng samaradorligini tajriba - sinovdan o`tkazish va o`quv jarayoniga tatbiq etish yo`lga qo`yilmoqda.

Ma`lumki, pleyer amaliyotini o`qitishning o`ziga xos yo`nalishi, xususiyatlari bor, shuning uchun o`qituvchi va o`q`uvchi ijodiy hamkorligi uchun eng maqbul noan`anaviy dars usullarini tanlab olish va hayotga tatbiq etish lozim. Noan`anaviy mashg`ulot topshiriqlarini predmetning o`ziga xos xususiyati, mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqqan ma`qul. Ana shunday o`yin-topshiriqlardan tasviriy san`at faniga xos “Mozaika”, “Intellektual ring”, “Tayanch iboralar”, “Ranglar olamiga sayohat”, “Musavvirlar” kabilarni misol keltirish mumkin.

Odatda, noan`anaviy mashg`ulotlar kichik guruhlarni tashkil etishdan boshlanadi, o`quvchilar kichik guruhlarda ishlaydigan birinchi mashg`ulot hal qiluvchi asosiy mashg`ulot hisoblanadi. Shuning uchun, ilk mashg`ulotlarda qator shartlarga rioya qilish juda muhim. Avvalo, guruhlarga bo`linish ham tasviriy san`atga xos va noan`anaviy bo`lgani ma`qul. Masalan, o`quvchilar sonidan kelib chiqqan holda 4 xil rang yoki gullar tasviri chizilgan kartochkalar o`quvchilarga yopiq usulda bittadan tarqatiladi. Bir xil ranglar yoki gullar tasviriga ega o`quvchilar 4 guruhni tashkil etadi. Guruhlarga nom qo`yish ham tasviriy

san`atga xos bo`lishi lozim (“Kamalak”, “Nafosat”, “Yosh musavvir”, “San`at” va h.k). Tasviriy san`at mashg`ulotlariga xos noan`anaviy dars usullaridan biri ”Mozaika ” o`yin-topshirig`idir.

O`quvchilar mozaika, vitraj kabi tasviriy san`at turlarini yaxshi bilishadi. Mashg`ulotlar jarayonida shunga o`xshash tasvirlarni rangli qog`oz, mato parchalari va tashlandiq tabiiy materiallardan yasashga ham to`g`ri keladi. “Mozaika” topshirig`ida o`quvchilar mayda bo`laklanib, konvertlarga solingan, biror tasviriy san`at asarlaridan keltirilgan namunalarni tezlik bilan yig`ib kerakli tasvirni hosil qilishlari kerak bo`ladi. Bunda tasviriy san`at mashg`ulotlarida olingan bilim- ko`nikmalar asqotadi. Ushbu musobaqada guruhning barcha a`zolari birday ishtirok etadilar. Diqqat bilan fikrlash, boshqalar fikriga quloq tutish muvaffaqiyat garovidir. Vazifa hamma ishtirokchilarga bir vaqtda tarqatiladi va o`quvchilar o`qituvchi ishorasi bilan bir vaqtda topshiriqni bajarishga kirishadilar. Qaysi guruh shartni birinchi bo`lib bajarsa, o`qituvchi (trener)ga xabar beradi va yutuqlar albatta baholanadi.

Biz yuqorida ustaxona amaliyoti mashg`ulotlarida qo`llash mumkin bo`lgan noan`anaviy dars usullari haqida to`xtalib o`tdik. Shuningdek, “Mozaika”, “Intellektual ring”, “Tayanch iboralar”, “Aqliy hujum”, “Arilar uyasi” kabi o`nlab noan`anaviy dars usullarini misol keltirish mumkin. Buning natijasida o`qituvchi-o`quvchi hamkorligi biz kutgan samarani beradi, ya`ni pedagogik texnologiyalarning pedagogik mahorat bilan o`rgatilishi yangi yosh avlodning komil inson bo`lib voyaga yetishiga muhim omil bo`lib xizmat qiladi va o`quvchilarga quyidagi muhim sifatlar namoyon bo`ladi:

- o`quvchi yoki talaba erkin fikrlashni o`rganadi;
- tasviriy san`at faniga ixlosi, ishtiyoqi ortadi;
- yashirin iqtidori namoyon bo`ladi, ijodkorligi ortadi;
- so`z boyligi oshadi, savol-javob berish madaniyati shakllanadi;
- o`zini va boshqalarni nazorat qiladi;
- xotirasi mustahkamlanadi;
- vazifalarni to`g`ri anglab yetadi va bajaradi;
- yangilikni tez ilg`aydi, komil inson sifatida rivojlanadi va h.k.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta`lim-tarbiya jarayoniga kengroq joriy etishda o`zaro ijodiy munosabatlar shakllanadi, rivojlanadi, o`qituvchi o`quvchilar bilan, o`quvchi o`quvchilar bilan do`stona munosabat orqali ishonch, birdamlik yuzaga keladi.

“Har bir odam, go`yoki alifbodagi harfga o`xshaydi, so`z yasash uchun o`zaro birikish kerak”,- deb yozgan edi O.Mandelstam. U qanchalik haq ekanini davrning o`zi ko`rsatib turibdi.

Adabiyotlar:

- 1.I.Karimov. “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2008 yil.
- 2.N. Saidahmedov. “Yangi pedagogik texnologiyalar”. Toshkent, 2002 y.
- 3.B.Oripov. “Tasviriy san`at va uni o`qitish metodikasi”. Toshkent, ”Ilm Ziyov”, 2009 y.



БАРКАМОЛ АВЛОД - ЮРТ КЕЛАЖАГИ

*С. Яхяева СамДУ хузуридаги ХТХҚТМОИ ўқитувчиси
Ҳ.Ибрагимова Самарқанд шаҳар 14-умумтаълим мактаб
бошланғич синф ўқитувчиси*

Мустақилликка эришиш халқимизнинг азалий орзуси бўлганлиги учун ҳам бу унинг кўп асрлик тарихида буюк воқеа бўлади. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.Каримов айтганидек, Ўзбекистоннинг истиқлолини мустақамлашда энг аввало инсонларнинг маънавий, ахлоқий ва маърифий қарашларини шакллантириш, оилавий тарбияни мустақамлаш лозим.

Маънавият ва ахлоқийликни қайта тиклаш, халқимизнинг маъданий меросига эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш, инсонпарварлик ғояларига содиқлик, халқнинг миллий маъданияти ва миллий тилига нисбатан хурмат билан муносабатда бўлиш, ҳар бир инсоннинг ўз эътиқоди ва динга амал қилиши, ўзининг диний маросимларни бажо келтириш ҳуқуқига эга эканлиги, ижтимоий адолат қоидаларини рўйобга чиқариш мақсадида кексалар, ногиронлар, етим-есирлар, кўп болали оилаларни ҳимояга олиш, оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, одамлар умрини узайтириш каби масалаларга катта эътибор берилмоқда.

Бугунги кунда оила жамиятнинг асосий негизидир. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.Каримов шундай деган эди: “Бизнинг давлатимизни катта бир оила деб тушуниш мумкин ва лозим. Бунда ўзаро ҳурмат ва қаттиқ тартиб бўлмаса, оиланинг барча аъзолари ўз бурчларини адо этмаса, бир-бирига нисбатан эзгулик билан меҳр-оқибат кўрсатмаса, яхши ва муносиб тарзда яшаш мумкин эмас. Оила турмуш ва виждон қонунлари асосида курилади, ўзининг кўп асрлик мустаҳкам ва маънавий таянчларига эга бўлади, оила демократик негизларга асосланади, одамларнинг талаб ва эҳтиёжлари шаклланади”.

Бугунги Ўзбекистоннинг мустақиллигининг мустаҳкамлиги, аввало унинг фуқароларига, уларнинг амалий фаолиятига, маънавий ва ахлоқий баркамоллигига, ғоявий-сиёсий етуқлигига кўп жиҳатдан боғлиқдир.

Мустақил Ўзбекистоннинг бугуни, эртаси, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий турмуш тарзи ва уни юксак даражага кўтариш ёшлар кўлида. Модомеки, шундай экан, оилавий тарбия асосида эндигина ҳаётга қадам қўйиб келаётган ёшларнинг онгига шундай тушунчани сингдириш керакки, улар давлатимиз ўртага қўяётган муаммоларни бажариш, аввало уларнинг куч-қувватларига, билим ва саботларига, ғайрат шижоатларига, фидокорликларига, меҳнатсеварликларига боғлиқ эканлигини тушуниб етсинлар.

Мамлакатимизда кейинги йилларда қабул қилинган таълим ва тарбия тўғрисидаги қатор меъёрий ҳужжатлар, жумладан Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” 2017 йил 7-февралда қабул қилинган, 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияларида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, муваффақиятли ишлай оладиган, мустақил фикрловчи кадрларни тайёрлашда оила, маҳалла ва мактаб нуфузини янада юқори поғонага кўтаришни тақозо этади.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг 3.2 бандида эса таълим олувчиларнинг ўқиши, турмуши ва дам олиши учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги вазифалар ҳал этилишида жамоатчилик бошқарувини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилган. Бу "Оила, мактаб, таълим муассаси ҳамкорлиги" бугунги куннинг маънавий, маърифий, мафкуравий, тарбиявий зарурати эканлигини билдиради. Ёш авлодни маънавий-ахлоқий тарбиялашда халқимизнинг бой миллий, маданий, тарихий анъаналарига, урф-одатларига ҳамда умумбашарий қадриятларга асосланган самарали, замонавий педагогик технологиянинг ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилиши, шахсни тарбиялаш ва уни ҳар томонлама камол топтиришнинг устуворлигини таъминлаш; умумий ҳамда миллий педагогик маданиятни ошириш; мамлакатимиз фуқаролари орасида миллий мафкуравий тарбия ишларини такомиллаштириш бугунги куннинг муҳим масалаларидир.

Ўзбекистонда рўй бераётган ўзгаришлар бола тарбиясида оила, ота-она, маҳалла, мактабнинг асосий вазифаларини мазмунан янгилаб ҳаётга татбиқ этишни тақозо қилади.

Ёшларни энг аввало оилада соғлом муҳит яратиш, миллий руҳ ва турмуш тарзини ҳисобга олиш, фарзандлар учун ота-она ҳар томонлама ўрнак бўлиши, фарзандларнинг ота-онасига, Ватанга муҳаббат туйғусини шакллантириш лозим.

Оилада ҳуқуқий тарбияни яхшилаш, оила аъзоларининг ўз ҳуқуқ ва бурчларини англаб етишларини ва уларга риоя қилишларини таъминлаш ҳам катта аҳамиятга эга. Фарзандларга чуқур дунёвий билим асосларини бериш, маърифатли ва маънавиятли кишилар бўлиб етишишларини таъминлаш оила зиммасидаги вазифадир.

Болаларнинг маънавий баркамол ва жисмонан соғлом бўлишлари, уларни мустақил фикрлашга ўргатиш, истиқлол ғоялари ва миллий мафкурага садоқат руҳида тарбиялаш оиладан бошланиши лозим.

Болаларнинг бўш вақтларини педагогик нуқтаи назардан унумли ташкил қилиш, уларга қўшимча таълим бериш, итеъодли кадрлар тайёрлашнинг асосий негизидир. Шу билан бирга оила жамият олдида ўз фарзандларининг барча хатти-ҳаракатлари учун жавобгарлигини унутмаслиги лозим.

Ота-онанинг фарзанд оддидаги бурчи, ўзбекона таъбир билан айтганда, фарзандга яхши ном қўйиш, яхши муаллим қўлига топшириб саводини чиқариш, илмли, касб-хунарли қилиш, оилали ва уйли-жойли қилишдан иборатдир.

Зеро Республикамиз Президенти Ш.Мирзиёев айтганидек, "Маҳалла-юрт мустаҳкам бўлсагина, давлатда осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради".

Ўқувчиларни тарбиялашда маҳалланинг ҳам роли каттадир.

"Бир болага етти маҳалла ота-она" деган нақлдан келиб чиқиб, келажак авлодни тарбиялаш ва унга таълим бериш жараёнини амалга ошириш борасида кичик Ватан бўлмиш маҳалланинг олдида бир қатор вазифалар туради.

Маҳалла фаоллари томонидан тарбия муассасалари билан биргаликда таълим-тарбия жараёнида амалга оширилиши керак бўлган масалаларни муҳокама қилишда қатнашишлари ва оқилона ечимларини топишда фаоллик кўрсатишлари керак. Маҳаллада ижтимоий ва иқтисодий ёрдамга муҳтож оилаларни аниқлаб, уларни қўллаб-қувватлаб ва фарзандларининг билим ҳамда тарбия олишларига бош-қош бўлиш, маънан носоғлом оилаларни маҳалла йиғинларида муҳокама қилиш, уларга нисбатан жамоатчилик чора-ларини кўриш, маҳалла ҳудудидаги ўқув-тарбия муассасаларига иқтисодий ва ижтимоий ёрдам кўрсатиш, болаларни ташаббускорлик, меҳнатсеварлик, миллий ғурур, ватанпарварлик, байналмилаллик каби хислатларини сингдириш лозим. Ёшларга диний мазҳаблар ва секталар, ақидапарастликнинг моҳиятини тўғри англаб етишига ота-оналар орқали таъсир кўрсатиш, улуғ аждодларимизнинг тарбиявий ўғитларини сингдириб боришга жамоатчилик маъбудир.

Ўқув-тарбия муассасалари билан биргаликда турли кўрик-танловлар, спорт мусобақалари, анжуманлар, байрам ва беллашувлар ташкил қилиш, ҳар бир ёш фуқарода Ўзбекистонга, унинг табиатига муҳаббат, тарихига қизиқиш, маҳалла ободончилиги, аҳиллиги учун жавобгарлик руҳини шакллантириш талаб этилади.

Болаларга таълим-тарбия беришда мактаб ва педагогларнинг асосий вазифалари Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида мактабда болага бирон-бир касб-корни эгаллаши учун мустаҳкам пойдевор яратиш болаларга таълим беришни илғор педагогик технологиялар, замонавий ўқув-услугий дастурлар асосида ташкил этиш, ўқув-тарбия жараёнларини жаҳон андозаларига мос равишда таъминлаш, ўқувчиларнинг имкониятлари ва қизиқишлари таҳлилдандан, иқтисодий ва ижтимоий муҳитдан келиб чиқиб, уларни турли соҳа бўйича касб асосларига йўналтириш ва таълимда табақалаштирилган ёндашувни жорий этиш, турар жойда ва маҳаллада олиб борилаётган барча тарбиявий, маънавий, маърифий, маданий-оммавий ва спорт тадбирлари маркази- мактаб бўлишига эришиш талаб этилади.

Хулоса қилиб айтсак, бугунги миллий мафкурамизни яратиш, Ўзбекистоннинг мустақиллигини мустаҳкамлаш, жамиятни маънавий таназзулдан фориғ этиш, оилалар мустаҳкамлигини таъминлаш айнан ана шу оилада олиб бориладиган тарбияга боғлиқ. Оиланинг миллий руҳи – халқнинг миллий руҳини белгилайди. Шу маънода оила ҳар бир аъзосида миллий психологияни шакллантирувчи ижтимоий институтдир. Оила маънавияти қанчалик бой, теран ва чуқур бўлса, жамият ҳам шунча бой бўлади. Келажакни қандай бўлиши ёшларга, уларнинг тарбиясига боғлиқ эканлигини ҳисобга олган ҳолда ҳамкорлик қилайлик.



ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СТАРШЕМ ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

*Якубжанова М.К
РЦППКРНО при СамГУ*

Сегодня одним из важнейших направлений образования является его информатизация. Она призвана обеспечить интенсификацию и оптимизацию учебного процесса, реализацию идей развивающего обучения и совершенствование форм и методов его организации. Требования сегодняшнего дня – это начать овладевать ею с самого раннего детства. Поэтому формирование информационной компетенции в старшем дошкольном возрасте объективный и естественный процесс. Детский сад должен способствовать формированию новой системы универсальных знаний, умений, навыков, а также опыта самостоятельной деятельности и личной ответственности обучающихся, то есть современных ключевых компетенций.

Одним из направлений модернизации системы образования является внедрение компьютерных технологий и мультимедиа. Применение в обучении компьютера в сочетании с аудиовизуальными средствами принято называть «новыми информационными технологиями в образовании».

Применение информационных компьютерных технологий на уроках русского языка и литературы не только облегчает усвоение учебного материала, но и открывает новые возможности для развития творческих способностей учащихся:

- повышает мотивацию учащихся к учению;

- активизирует познавательную деятельность;
- развивает мышление и творческие способности ребёнка;
- формирует активную жизненную позицию в современном обществе.

В педагогической деятельности можно выделить три основные формы работы с ИКТ на уроках русского языка и литературы:


1. Непосредственное применение в учебном процессе.
2. Применение ИКТ для организации самостоятельной работы учащихся по русскому языку и литературе внешкольных занятий.
3. Применение информационных технологий для обеспечения познавательного досуга.

Компьютеры и учебные программы можно назвать универсальными средствами обучения.

В зависимости от дидактических целей можно выделить виды компьютерных программ:

- мультимедиа-учебники.
- демонстрационные
- учебные
- тренажеры
- контролирующие
- справочно-информационные

В структуре базовых компетентностей личности современного дошкольника важную роль играет информационный компонент, что обусловлено реалиями жизни. Информационная компетентность дошкольника представляет собой основы, элементы знаний, умений и ценностного отношения к информации и информационным процессам, позволяющим ребенку включаться в доступные ему виды информационной деятельности: познавательной, игровой и др. В образовательном процессе необходимо создавать для старших дошкольников такие условия, которые способствовали бы формированию информационной компетенции. С этой целью, при изучении различных образовательных областей, мы рекомендуем внедрять информационные и компьютерные технологии в образовательный процесс. Развивающее значение использования современных информационных технологий для развития способностей старших дошкольников очень велико. Современные исследования свидетельствуют о возможности овладения компьютером детьми в возрасте трех – шести лет, поскольку в этом возрасте интенсивно развивается мышление ребенка, и компьютер может выступать особым интеллектуальным средством для решения задач разнообразных видов деятельности. Самое главное для эффективного применения компьютера – это развитое логическое, алгоритмическое и системное мышление. Современное представление о работе за компьютером как о творческой созидательной деятельности, требующей наряду с развитым логическим и системным мышлением способности мыслить изобретательно и продуктивно, ориентирует дошкольное образование на развитие у детей умения рассуждать строго и логически, на развитие фантазии и творческого воображения. Применение информационных технологий в образовательном процессе создает эмоциональный настрой, повышает интерес, самообразования, это, в свою очередь, положительно сказывается на уровне знаний старших дошкольников и формирования информационной компетентности. Благодаря мультимедийному способу подачи информации дети легче усваивают понятия формы, цвета и величины; глубже понимают понятия числа и множества; быстрее начинают ориентироваться на плоскости и в пространстве; раньше овладевают чтением и письмом; у детей развивается мелкая моторика, формируется тончайшая координация движений глаз; уменьшается время как простой реакции, так и реакции выбора; воспитываются целеустремленность и сосредоточенность; развиваются воображение и творческие способности. В своей деятельности в развитии и формирования информационной компетентности дошкольника, мы используем такие компьютерные технологии как: обучающие и развивающие игры, презентации, кроссворды, ребусы, медиафильмы, работа в сети интернет и т.д. В этом возрасте дети чрезвычайно любознательны, есть огромное желание познавать окружающий мир. Поощряя любознательность, сообщая детям знания, вовлекая их в различные виды деятельности – всё это способствует расширению детского опыта, информационной компетенции. Итак, подводя итог, можно сказать, что информационные и компьютерные технологии, в совокупности с правильно подобранными (или спроектированными) технологиями обучения, создают необходимый уровень качества, вариативности, дифференциации и индивидуализации обучения и воспитания, тем самым создавая условия для формирования у старших дошкольников информационной компетенции.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

M.Nigmatova Samarqand VXTXQTMOI

Birinchi yurtboshimiz tomonidan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va uning bugungi kundagi ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb hunar va oliy o'quv yurtlari uchun chet tillarni o'qitishning yangi o'quv-reja va dasturlari jahon ta'lim standartlariga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Chet tili mutaxassislari tomonidan yangi darsliklar, qo'llanmalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablar maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Bu talablar zamirida kelajagimiz poydevori bo'lgan farzandlarimizni hech kimdan kam qilmagan holda ta'lim-tarbiya berish turadi. Yosh avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining o'rni va mas'uliyati ortib bormoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar yoshlarimizning chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida chet tillarni o'qitishga bo'lgan qiziqishning shakllantirilishi, uning chet tillarni o'rganish bilan birga ularni hurmat qilish, sevish kabi xislatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. O'zga tilni, o'zga elni hurmat qilgan farzand esa, o'z ona tilini, o'z xalqini va millatining milliy qadriyatlarini har narsadan ustun qo'yadigan barkamol inson bo'lib voyaga yetadi.

Bolalarga chet tillarni o'rgatish uzoq vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi, ammo bu jarayonni maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanishi esa, ertangi kunimizga bo'lgan ishonchning bir ko'rinishidir. Bizga ma'lumki, bolalarga chet tillarni o'rgatish turli usul va vositalar, shuningdek she'r va ashulalar yodlatish, hikoya va ertaklarni sahna ko'rinishlari orqali ijro etib berish, mashg'ulotlar jarayonida o'yinlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa mashg'ulotlarni o'yinlar orqali tashkillashtirish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchining shakllanishiga, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishining ortishiga, fikrlash doirasining kengayishiga turtki bo'ladi.

Bolalarning chet tilini oson o'rganishini ta'minlovchi, ulardagi psixik jarayonlarning rivojlanishiga bevosita xizmat qiluvchi o'yinlardan tarbiyachilar xabardor bo'lsa, amaliyotda qo'llashda muammolarga uchramaydi. Bu o'rinda o'yinning dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yin – bola hayotining mazmuni hisoblanib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Har qanday tortinchoq bola ham o'yin jarayonida o'zining emotsional holatlarini aks ettiradi.

Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida o'yinlardan foydalanar ekan, albatta bolalarning yoshini, qiziqishlarini hisobga olishi shart. Bola biron-bir narsaga qiziqar ekan, ana shu narsani chuqurroq bilishga intiladi. Qancha uzoq vaqt talab qilinmasin u bu narsani bajarishdan zerikmaydi. Bu esa bolada diqqat, iroda, sabr qilish kabi muhim bo'lgan psixologik xususiyatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Bolalarni hafta kunlari bilan tanishtirishda quyidagi "Bu kim?" o'yinidan foydalanish mumkin: Tarbiyachi yettita bolani chiqarib ingliz tilida hafta kunlari bilan nomlab oladi: Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday, Friday, Saturday, Sunday.

Tarbiyachi bolalarga hafta kunlarini raqamlar bilan aytadi.

Tarbiyachi:

haftaning beshinchi kuni kim?

Juma kuni deb nom olgan bola:

I am Friday.

Tarbiyachi:

haftaning birinchi kuni kim?

Dushanba deb nom olgan bola:

I am Monday.

O'yin shu tariqa davom etadi.


"Hafta kunlari" o'yini. Yettita bola ingliz tilida hafta kunlari bilan nomlab olinadi. Olti dona stul qo'yiladi va stullar atrofida bolalar musiqa ostida raqsga tusha boshlaydilar. Musiqa to'xtashi bilan bolalar stullarga o'tirib ulgurishlari kerak bo'ladi. O'tirib ulgurmagan bola davrani tark etadi va stullar soni bittaga kamaytiriladi. Qolgan bolalar esa, ular orasida qaysi hafta kuni yetishmayotganligini topadilar va o'yin bitta hafta kuni qolganicha davom ettiriladi.

Yo'l harakati qoidalari bo'yicha egallagan bilimlarini mustahkamlash, bolalar nutqida chet tili so'z boyligini oshirish maqsadida esa quyidagi "Mashinacha" o'yinidan foydalanish mumkin. Bunda bolalar doira shaklida turib oladilar va mashinalar rolini bajaradilar. Markazda tarbiyachi turadi va

jarayonni boshqaradi. Tarbiyachi o'yinni tushuntirib beradi. Tarbiyachi "yashil", "zelyoniy" yoki "green" desa, mashinalar ovoz chiqarib yo'lga tushadilar. Agar tarbiyachi "qizil", "krasniy" yoki "red" desa, unda mashinalar tezda joylarida to'xtashi kerak bo'ladi. Bunda bolalar hech qanday harakatlarsiz bir nuqtaga qarab turishlari lozim. Tarbiyachi "sariq", "jyoltiy" yoki "yellow" desa mashinalar turgan joylarida ovoz chiqarib harakatlanadilar. Tarbiyachi ranglarni almashtirib turishda juda e'tiborli bo'lishi va har bir bolani to'g'ri kuzatib baholab borishi kerak. Chunki adashib qolgan bolalarni davrani tark etishlari va o'z joylarini egallashlari taklif etiladi.

O'yin bolalar uchun ermak emas, balki ularning ma'naviy tushunchasini boyitishga, kuch, qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan muhim vositadir. Bolalar o'yin jarayonida tevarak-atrofdagi hayot va tabiat hodisalari bilan tanishadilar, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar.

Shunday ekan, o'yin til o'rgatish jarayonida ham yetakchi va muhim faoliyat turi bo'lib qolayveradi.



ONGLI KITOBXONLARNI TARBIYALASHDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINING AHAMIYATI

Tolipova Tursuntosh SamDU huzuridagi XTXQTUMOHM o'qituvchisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishni imzoladilar. Farmoyishda bolalar adabiyotining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish masalasiga alohida urg'u berilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni kitoblarga, badiiy asarlarga qiziqishlarini oshirish, bilimlari asosida kitob ustida ishlash yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, dunyoqarashi va nutqlarini o'stirish hamda kutubxonada mustaqil ishlash tajribalarini paydo qilishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim va nutq o'stirish dasturida sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'quvchilarning bilimlarini kengaytirish, kitobga va bilim olishga havasini tarbiyalash, kitob bilan mustaqil ishlash malakasini takomillashtirish, ularning kitob o'qishga qiziqishlarini oshirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yosh kitobxonlarda kitobni mustaqil o'qishga havas uyg'otish; yosh xususiyatlariga mos bo'lgan adabiyotlar va ularning turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish, mustaqil o'qish uchun kitob tanlash, tanlangan kitoblarni ongli ravishda o'qib, o'qilganlarning mazmunini idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritishga o'rgatish talab etiladi. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Sinfdan tashqari o'qish sinfdagidek dars shaklida emas, balki suhbat, ertaklik, mustaqil o'qish kabi turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ammo, o'qish dasturidagi talablar asosida, sinfdagi dars mashg'ulotlari bilan bog'liq holda o'quvchilar bilimini kengaytirish, o'qish ko'nikma va malakalarini o'stirish maqsadida guruh tartibda olib boriladi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari, o'zbek bolalar yozuvchilari asarlari va O'zbekiston tabiati manzaralari asos qilib olinadi. Sinfdan tashqari o'qish bolaning sinfdan olgan bilimlarini chuqurlashtiradi. O'quvchi maktabga qadam qo'ygan kundan boshlab kitobni mustaqil o'qish malakalari shakllana va bosqichli amalga osha boradi.

1. T a y y o r l o v b o s q i c h i:

Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun STO' mashg'uloti deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor

beradi. Asarni o‘zi o‘qib beradi. O‘quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga o‘rgatiladi, asar mazmunini hikoyalab berishga o‘rgatiladi. O‘qish gigiyenasi, kitobga qanday munosabatda bo‘lish bilan tanishadilar.


2. B o s h l a n g ‘ i c h b o s q i c h :

1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. 1 va 2 –bosqichdagi STO‘ haftada 1 marta o‘tkaziladi. Boshlang‘ich bosqichda 45 daqiqalik dars ajratiladi. Tanlangan asar yaxshi o‘qiydigan o‘quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘qitiladi. Asarning oson o‘qiladigan o‘rinlarini bo‘sh o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitish mumkin. Bu ularda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi. Asar o‘qilgan o‘quvchilar asar nomini, muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, kitobxonlik daftarlariga u haqida qisqa va soddagina qilib muallif, asar nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi.

3. A s o s i y b o s q i c h

2-4 sinfga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarning o‘qish malakalari mustaqkamlanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qiganlariga baho quyiladi. Baho qo‘yishda dastur talablariga asoslaniladi: sinfning umumiy ishlariga qatnashishi, o‘qigan kitoblarning sifat o‘zlashtirishiga miqdoriga, o‘qigan kitobga munosabat bildira olishiga e‘tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o‘qib keladilar, ularning ayrim o‘rinlarini ifodali o‘qib beradilar, o‘qigan asarlarini o‘zaro taqqoslaydilar.

STO‘ darslarini xususiyatlari. STO‘ bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o‘qituvchi o‘qib bersa, o‘qilganlari yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o‘tkazilsa, boshlang‘ich bosqichda butun sinf o‘quvchilari bir xil kitob bilan ta‘minlanadi, barcha o‘quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichida o‘qishga topshirilishi ham mumkin, albomlar tayyorlanadi, kinofilm, diafilmlardan parchalar ko‘rsatiladi, musiqiy daqiqalar o‘tkaziladi, asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdiriladi, kitobni saqlash maqsadida kitobni yamash, urash o‘rgatiladi, «Ertaklar bayramlari», «Ifodali o‘qish konkursi» o‘tkaziladi.



СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ЎРНИ

Н.Халматова Сам ДУ ХХТХҚТУМОҲМ ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикамиз мустақилликка эришиш билан туб ижтимоий ўзгаришлар содир бўла бошлади. Замон нафасига қараб эмас, балки халқ таълимининг барча тармоқларида таълим услубини қолибчиликда қотиб қолган эски йўналишдан воз кечиб, янгича таълимни жорий этишни даврнинг ўзи тақозо қилмоқда. Барча соҳалар қаторида республика халқ таълими тармоғи, жумладан , унинг ажралмас қисми бўлган жисмоний тарбия ва спорт мутахассислари олдига ҳам муҳим вазифаларни кундаланг қўйди. Қадимги вақтлардан бери халқ ҳаётининг мазмунининг маданий, иқтисодий, сиёсий, маиший томонларини ўзида мужассамлаштириб келган нарса-бу халқ ўйинлари ва миллий машқлар эди. Биз халқимизнинг кўп шонли анъаналарини бой бердик, лекин анъанавий халқ ўйинлари, рақслари ва спорт турлари бутунлай йўқолиб кетган эмас. Халқ уни ўз фарзандини эъзозлагани каби авайлаб, қалб қурини бериб, сақлаб келмоқда.

Машҳур юнон донишманди Афлотун бахт ҳақида фикр этиб “Инсон учун биринчи бахт унинг соғлиги, иккинчиси гўзалликдир” деган экан. Чиндан ҳамсиҳат-саломатлик бойликлар манбаидир. Насл-насаби соғлом ва маънавияти юксак халқнинг авлодлари ҳам соғлом-бақувват, иймон эътиқодли ва садоқатли бўладик, бу бахт она Ватаннинг шуҳрати ва қудратининг зўр омилига айланади. Халқнинг ана шундай бахт-саодати учун соғлом авлод керак.

Соғлом ва баркамол авлод деганда биз ҳам жисмоний, ҳам маънавий томондан етук, бардам, ҳар ишга кодир илғор маданиятли кишиларни кўзда тутамиз. Дарҳақиқат, шундай ноёб фазилатларга эга авлодни тарбиялаб вояга етказаятган халқ келажакка очик кўз, ёруғ юз, катта ишонч билан қарайди.

Она табият ато этган олий моҳиятга кўра биз ўзбеклар ҳаётимизнинг, умримизнинг мазмунини фарзандсиз тасаввур этолмайдиган халқмиз. Аждодларимиз ўз наслларини умумбашарий туйғулар, ўлмас шарқ фалсафаси, илмий қадриятларимиз руҳида тарбия қилиб келгандир.


Республикамизда ақлий, ахлоқий ва жисмоний етук баркамол кишиларни тарбиялашнинг хилма-хил воситалари ичида жисмоний маданият машғулотлари алоҳида ўрин тутади. Умумтаълим мактабларида бошқа фанларга қараганда жисмоний маданият дарслари ва спорт машқлари орқали ўқувчиларни баркамол қилиб тарбиялаш имкониятлари жуда кенг. Бунинг учун бугунги кунда ўрта умумтаълим мактабларини ислоҳ қилиш ва ривожлантиришнинг 2009 йилда бўлган умуммиллат дастурида, "Таълим тўғрисида"ги, "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги қонунларда, 2002 - йил 24 октябрдаги "Ўзбекистонда болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш тўғрисида"ги қарорларда катта аҳамият берилган. Жумладан болалар спортини ривожлантиришга қаратилган қарорда "Болаларга спортга меҳр уйғотиш, ўсиб келаётган ёш авлод онгида спорт билан шуғулланиш, соғлом турмуш тарзига амал қилиш, маънавий ва жисмоний камолга интилиш, уларни салбий таъсирдан химоя қилиш ҳамда зарарли одатлардан холос этиш, болаларни барқарор феъл-атворли, Ватанга меҳр-муҳаббат ва ўз мамлакати учун ғурур-ифтихор руҳида тарбиялаш борасидаги чора тадбирлар комплексини амалга ошириш" асосий вазифалардан бири сифатида таъкидлаб ўтилган. Бу жисмоний маданият дарслари ва спорт машқи жараёнида ўқувчиларни баркамол қилиб тарбиялаш ишларини янада кучайтиради.

Баркамол шахсни тарбиялаш масалалари Ибн Сино, Беруний, Аҳмад Яссавий, Маҳмуд Қошғарий, Фаробий, Алишер Навоий, Аҳмад Югнакий ва бошқа яна юзлаб шарқ аллома ва мутафаккирларининг илғор қарашларида асарларида таъкидлаб ўтилган. Алишер Навоий баркамол шахс тимсолини Фарҳод тимсолида яратар экан, уни ўн ёшда йигирма ёшли йигитнинг ақл-фаросати, жисмоний камолати, хунари ва одобу ахлоқига тенглигини тасвирлаб ўтади.

Бу ўқитувчи ва мураббийларининг жисмоний маданият ва спорт машғулотларини бир ёклама, яъни спортчилар тайёрлаш, рекортлар ўрнатиш, энг юқори жисмоний қобилиятларни намоиш қилишдан иборат деб қарашларининг натижасидир. Соғлом авлод энг аввало болалар саломатлиги, уларнинг жисмоний жихатдан баркамол бўлиб ўсиши билан бевосита боғлиқдир. Жисмоний ва маънавий баркамолликни тарбиялаш ҳозирги давр муаммоларидан биридир. Бу ўз навбатида аҳолининг барча қатламларига таълим-тарбия, касб-хунар, меҳнатга муносабат ва Ватанга садоқат ҳис-туйғуларини шакллантириш, уларни такомиллаштириш асосий мақсад ҳамда вазифа бўлиб ҳисобланади.

Маълумки соғлом авлод тарбиясининг муҳим ва маъсулиятли хусусияти шундан иборатки ,оила,маҳалла ва меҳнат жамоаларида онгли равишда ҳаёт яшаш тушунчаларига эга бўлишдир. Ўзаро муносабатлар, ҳурмат-эҳтиром, катталарни кадрлаш мазкур муаммонинг мазмунини ташкил этади. Болаларни соғлом қилиб ўстириш, уларни касб-хунар танлашга ўргатиб, ҳаёт мазмунини амалий жихатдан тасаввур этиш энг аввало оиладан бошланади. Ота-оналарнинг панд-насихатлари, таълим муассасаларида эгалланадиган билимлар, тўй ва турли маросимларда ўқиладиган вазлар, яхши ниятлар болаларга сўзсиз ижобий таъсир кўрсатиши лозим. Шунда болалар ва ўсмир ёшлар соғлом авлод тарбиясига ишонч билан қарайди .

Ўқувчи ёшларни баркамол қилиб тарбиялашда "Алпомиш" ва "Барчиной", "Қувноқ стартлар", "Соғломжон полвонжон", "Умид ниҳоллари", "Ёзги таътил" каби спорт мусобоқалари ҳамда ўқувчиларни ёзги дам олиш оромгоҳларидаги соғломлаштириш спорт тадбирлари катта ҳисса қўшмоқда.



КИЧИК ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ЎҚИТИШ ВА БАҲОЛАШ.

Азиза Пардаева Раҳматиллаевна Сам ДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ

Тилларни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси:

Нодир Солиев 6-умумтаълим мактаби инглиз тили ўқитувчиси

Ҳар бир авлод олдида инсоният яратган жамийки билимларни ўрганиш ва ўзлаштириш вазифаси туради. Ҳаёт тараққиёти ва жамият ривожини шусиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бу вазифани бажаришнинг бирдан-бир йўли ёш авлоднинг ўқув-билув кўникма ва малакасини шакллантиришдир.

Замонавий фан, таълим тизимлари инсон ва шахс ривожини тушунишнинг яхлит назариясини яратишда бугунги кун ёшларининг интеллектуал салоҳиятини аниқлаш ва шу асосда уларнинг фаолиятини амалга ошириш ўта долзарб масала ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда умумий ўрта таълим муассасаларида ўқувчиларнинг билиш жараёнларини уларнинг

кизиқишларини ҳисобга олган ҳолда ташкил этиш, назорат қилиш, билим, кўникма ва малакаларни баҳолаш, қайта боғланиш ёрдамида имкониятларни лойиҳалаш муҳимдир.

Ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш, уларни ўқишга кизиқтириш ва уларнинг фанларга кизиқишини ошириш долзарб муаммодир.

Менга Буюк Британия, хусусан Шотландиянинг топ 3-ўриндаги Гласго Академияси мактабига ташриф буюриб, дарс кузатиш шарафи текканидан фойдаланиб ўз изланишимни қиёсий тарзда олиб боришга қарор қилдим .

Ёш даврлари таснифига кўра Ўзбекистонда, кичик мактаб ёши (7-11 ёш) - 1-4-синф (бошланғич мактаб)га тўғри келади.

Буюк Британия мактабларида ,хусусан Шотландиянинг Глазго Академияси мактабида ушбу даврлар куйидагичадир:

Англия, Увелс ва Шимолий Ирландиядаги ўқувчиларнинг мактаб тизими ҳақида умумий маълумот:

Scotland Шотландия	Age at start of school year –ўқув йили бошланиш ёши	Age at end of school year –ўқув йили тугалланиш ёши	England and Wales –Англия ва Увелс	Northern Ireland – Шимолий Ирландия
Playgroup- болалар яслиси	2-3	3-4	–	Play School- Болалар яслиси
Early Years Centre –мактабгача таълим	3-4	4-5	–	Nursery мактабгача таълим
Primary 1- Бошланғич таълим 1	4-5	5-6	Year 1 1-йил	P1- 1синф
Primary 2- Бошланғич таълим 2	5-6	6-7	Year 2 2- йил	P2-2синф
Primary 3- Бошланғич таълим 3	6-7	7-8	Year 3 3-йил	P3 - 3синф
Primary 4 Бошланғич таълим 4	7-8	8-9	Year 4 4-йил	P4 -4синф
Primary 5 Бошланғич таълим 5	8-9	9-10	Year 5 5-йил	P5-5синф
Primary 6 Бошланғич таълим 6	9-10	10-11	Year 6 6-йил	P6-6синф
Primary 7 Бошланғич таълим 7	10-11	11-12	Year 7 7-йил	P7 -7синф
S1 (First year) Ўрта таълим (биринчи йил)	11-12	12-13	Year 8 8-йил	Year 8 (1st Year) 8 синф
S2 (Second year) Ўрта таълим (иккинчи йил)	12-13	13-14	Year 9 9-йил	Year 9 (2nd Year) 9 синф
S3 (Third year) Ўрта таълим (учинчи йил)	13-14	14-15	Year 10 10 -йил	Year 10 (3rd Year) 10 синф

S4 (Fourth year) Ўрта таълим (тўртинчи йил)	14-15	15-16	Year 11 11 -йил	Year 11 (4th Year) 11 синф
S5 (Fifth year) Ўрта таълим (бешинчи йил)	15-16	16-17	Year 12 12 -йил	Year 12 (5th Year) 12синф
S6 (Sixth Year) Ўрта таълим (олтинчи йил)	16-17	17-18	Year 13 13 -йил	Year 13 (L6th Year) 13 синф

Бошланғич таълим узлуксиз таълим тизимининг пойдевори ҳисобланади. Шунинг учун айниқса бу даврда таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил етиш, ўқувчиларнинг қизиқиш ва эҳтиёжларини, уларнинг ёш ва алоҳида хусусиятлари, қобилиятларини инобатга олиш муҳим ҳисобланади.

Болалар энг кичик ёшданок ижодкорлик, яратувчанликка жуда мойил бўлар экан. Агар шу даврда у билан олиб борилаётган таълим жараёнига фақат анъанавий асосда ёндашилса, ундаги ижодкорликка мойиллик сўниб боради. Ўқув-билув ижодкорликка йўналтирилса - унинг фаоллиги, яратувчанлик қобилияти ошиб боради.

Юқорида айтиб утилган жиҳатларни инобатга олиб шуни таъкидлаб ўтмоқчиманки, The Glasgow Academy мактабида ҳайратланган жиҳатларидан бири бу тўғарақларнинг ҳилма-ҳиллигидир. Бу мактабда тўғарақлар алоҳида алоҳида биноларда ўтказилади ва ўқувчиларнинг қобилиятларини ривожлантиришга жуда катта эътибор қаратилган шу билан бирга тўғарақ турлари жуда кўп: театр, мусиқа, рақс, тикувчилик, фотосурат, газета ва тақинчоқлик каби тўғарақлари мавжуд. Jewellery Club – Тақинчоқ таёрлаш тўғарағида ўқувчилар нафақат битта ҳунар эгаси бўлиш билан бирга яратган тақинчоқларини сотиб, мактаб учун зарур бўлган техник материалларни сотиб олишаркан ёки ҳайрия қилишга сарфлашаркан.

Газета тўғарағида ўқувчилар ўзларининг қизиқишлари, мактабдаги тасуротларини ифодалаб мақола ёзиб чоп қилиш йўлга қўйилган. Бу мактабнинг ютуқлари ҳақида маълумотга эга бўлишга жуда катта ёрдам беради.

Ушбу жиҳатларни бизнинг мактабларда ҳам янада кўпроқ жорий қилсак ўйлайманки нафақат ўқувчилар қизиқишларини орттирамиз балки ота-оналарни ҳам бунга жалб қилган бўламиз.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни ўқиб-ўрганишга ундаш, қизиқтиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш кутилган натижага эришиш имконини беради. Бошланғич таълим бўйича ишлаб чиқилган ДТС талабларига мувофиқ ўқувчиларни фанларга қизиқтириш методларини ишлаб чиқиш ва уларни амалда қўллаш лозим. Бунда ўқувчиларнинг таққослаш, таҳлил қилиш, мавзу юзасидан мустақил фикр билдира олиш кўникмаларини шакллантириш, фанга таъсирчанлигини аниқлашга катта аҳамият бериши зарур.

Бошланғич синф ўқувчиларини фанларга қизиқтиришда интеграциялашган дарсларни ташкил етиш яхши самара беради, ўқувчиларнинг дунёқарашини кенгайтиради.


Ўқув муҳити деганда биз синф хонасининг безатилиши, ёритилиши, озодалиги, хатто парта (мебел)лар жойлашувини тушунишимиз зарур.

Аҳамиятга молик томони шундаки, биз борган мактабда парталар жойлашиши кўпроқ гуруҳ бўлиб ишлашга мўлжалланган экан. Ва бу ўқувчиларнинг бир-бири билан мулоқотини, фикр алмашишига имкон берибгина қолмай балки ўқитувчига гуруҳларга ўқувчиларни баҳолашда ёрдам беради. Лекин бу усул ўқитувчига долзарблиги шундаки ўқувчини индивидуал баҳолашга озроқ ноқулайлик туғдиради.

Баҳолаш тизимига келсак, уларда ПРЕП1 да стандарт баҳоланади, П2 дан 20га яқин баҳолаш усуллари мавжуд бўлиб –Инглиз тили баҳоланиши, Нон-вербал баҳолаш, қобилиятни баҳолаш кабилар шулар жумласидандир. Йилида 2 маротаба (Октябрда П1-П3гача, Февралда П4-П7гача) Миллий баҳолаш ҳам ўқувчиларнинг билим савияси ва ютуқларини баҳоласа шу билан бир қаторда ўқитувчиларнинг ҳам даражасини ҳам баҳолайди. Ушбу баҳолаш он-лайн тарзда ёритилиб борилиши ота-оналар учун ўз фарзандлари ютуқ ва камчиликларидан боҳабар бўлиш имконини беради.

Яна бир аҳамиятли жиҳати шу бўлдики, ўқувчиларнинг субъектив баҳоланишидир. Бунда ўқитувчи кўпроқ субъектив ёндашиб, ўқувчиларнинг барча қобилияти инобатга олинаркан. Бу баҳолаш ҳақида биз биринчи Малгошиянинг дарсларида маълумотга эга бўлдик, сўнг мактабларида ҳам кузатдик.

Ўзбекистон мактабларида ҳам ушбу баҳолаш тизимидан қўшимчалар киритсак, нафақат ўқитувчилар балки ота-оналар учун ҳам болаларининг ўзлаштириш жараёнини кузатибгина қолмай балки бола ўзлаштириши қийин бўлган мавзулар юзасидан маълумотга эга бўлиб, назорат қилиш ва янада яхши шуғулланиш имконини беради деган умиддаман.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШДА СТРАТЕГИК ЁНДАШУВ

Ш.Холбаев - СамДУ ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази бўлим бошлиғи, Ижтимоий - иқтисодий фанлар методикаси кафедраси ўқитувчиси,

А.Насимов - Самарқанд компютер технологиялари ва гидромелиорация коллежи ўқитувчиси

Ҳозирги кунда жаҳонда рўй бераётган глобаллашув шароитида мамлакатимиз барқарор тараққий этиб бориш учун ҳар томонлама модернизациялашган тизимли ёндашувни тақозо қилаётганлиги муносабати билан, олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармон имзоланди. Мазкур Фармон билан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тасдиқланди.

"Ижтимоий соҳани ривожлантириш" деб номланган тўртинчи йўналишда таълим ва фан соҳасини ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилиб, мактабгача таълим муассасаларининг қулайлигини таъминлаш, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим сифатини яхшилаш ҳамда уларни ривожлантириш чоратadbирларини амалга оширишни назарда тутди.

Таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятида бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришда Ҳаракатлар стратегиясининг таълим соҳасидаги устувор йўналишлари таълим тизимини ривожланишининг янги босқичини белгилаб берди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузасида "Яна бир муаммони ҳал этиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади: бу – педагоглар ва профессор-ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий-маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий кадриятларни шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳитни яратиш зарур". 1-дея таъкидладилар. Шу нуқтаи назардан, мактабгача таълимдан тортиб то олий таълим жараёнларидаги дарс ва дарсдан ташқари таълимида педагогларимизнинг ҳар томонлама компетентлигини оширишни тақозо қилади.

Олимларнинг таъкидлашича инсон ўз ҳаёти давомида оладиган барча маълумотнинг етмиш фоизини беш ёшгача бўлган даврда олиб улгуриши келтирилган. Дарҳақиқат, бу даврда инсон боласи дунёни англайди, ўз онатилини ўзлаштиради, ота-она, оила, маҳалла, Ватанга меҳри уйғонади, умрдавомида оладиган билимларга пойдевор қуради. Бунда энг аввало оила асосий рол ўйнаса, мактабгача таълим муассасасининг ҳиссаси ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этади. Шу боис мамлакатимизда айнан мактабгача таълим узлуксиз таълим тизимининг ажралмас бўлагига айланиб бормоқда.

¹Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак! «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 14 январь сони.

Мухтарам юртбошимиз бу борада Олий Мажлисга мурожаатномасида ҳам "Фарзандларимиз тарбиясида энг асосий бўғин ҳисобланган мактабгача таълим тизимининг жамиятимиз ҳаётидаги катта ўрни ва аҳамиятини эътиборга олиб, Мактабгача таълим вазирлигини ташкил этдик. Биз ушбу соҳанинг моддий-техник базасини мустаҳкамлашимиз, жумладан, яқин 3-4 йилда барча ҳудудларда минглаб янги боғчалар қуришимиз, таълим-тарбия сифати ва даражасини янги босқичга кўтаришимиз лозим."¹-дея таъкидладилар. Шунингдек, "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлар йили" Давлат дастури доирасида 2017 йилда кенг қўламдаги ислохотлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрь куни қабул қилинган "Мактабгачатаълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3261-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги "Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5198-сонли Фармони ҳамда "Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги ПҚ-3305-сонли Қарорига мувофиқ: мактабгача таълим тизимини комплекс ривожлантириш, болаларни соғлом ва баркамол этиб тарбиялашнинг барча жиҳати белгилаб берилди. Шунингдек, Юртбошимиз 2017 йил 19 октябрь куни мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилишида "Қайси соҳани олмайлик, биз замонавий етук кадрларни тарбияламасдан туриб бирон-бир ўзгаришга, фаровон ҳаётга эриша олмаймиз. Бундай кадрларни, миллатнинг соғлом генотипини тайёрлаш, аввало, мактабгача таълим тизимидан бошланади", деб таъкидладилар. Шу нуқтаи назардан, мактабгача таълим тизимига эътибор берилаётганлиги, унинг қамровини йилдан йилга ошириб юртимиздага барча болаларимизни тизимга юз фоиз қамраб олишдаги чора-тадбирлар белгиланганлиги келажакда ўзининг албатта самарасини беради.


Хорижий давлатлар, жумладан Жанубий Корея тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, 1982 – йилда мактабгача тарбия ҳақида қонун қабул қилинганлиги ва ҳозирги кундаги тизимга болалар 95 % қамраб олинганлиги, мактабгача тарбиянинг ташкил этилгандан сўнг йиллар ўтиб ривожланган давлат статусини олишга сабаб бўлди. Зеро, юртимизда 2017 йилда Мактабгача таълим вазирлигининг ташкил этилиши, шунингдек мактабгача тарбия тизимимизда ислохотларни изчил амалга оширилаётганлиги стратегик жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади. Буни қуйидагича тавсиф қиламиз:

Йиллар	Тарбияланувчининг ёши	Жараён
2017 йил	3 ёш	МТМга қабул қилинди.
2017 йилдан - 2020-2021 йилгача	6-7 ёш	МТМда таълим ва тарбия жараёнида
2020-2021 йилдан 2024-2025 йилгача	6-7 ёшдан 10-11 ёшгача	Мактабда бошланғич таълим ва тарбия жараёнида
2024-2025 йилдан 2031-2032 йилгача	10-11 ёшдан 17-18 ёшгача	Мактабнинг юқори синф таълим ва тарбия жараёнида
2031-2032 йилдан 2035-2036 йилгача	17-18 ёшдан 21-22 ёшгача	Олий таълимнинг бакалариатура босқичи таълим ва тарбия жараёнида
2035-2036 йилдан 2039-2040 йилгача	21-22 ёшдан 23-24 ёшгача	Олий таълимнинг магистратура босқичи таълим ва тарбия жараёнида
2039-2040 йилдан 2042-2043 йилгача	23-24 ёшдан 26-27 ёшгача	Доктарантура жараёнида
2039-2040 йилдан 2042-2043 йилгача	27 ёшдан умрининг охиригача	Технология яратиш, билим ва илмни экспорт қилиш

Юқоридаги келтирилган жадвалимизда кўришиб турибдики, таълим тизимининг сифатини қай даражада энг қуйи поғонасидан кўтариш масаласи давлат сиёсатининг устувор йўналишида турганлиги, шунингдек, Ўзбекистон ёшлари келажакда хориждаги технологияларни ўрганиб, янги технологияларни яратиш билим ва илмга таянган инновацион иқтисодийётнинг салмоғини ошириш назарда тутилган. Ибн Сино, Беруний, Форобий, Мирзо Улуғбек, Хоразмий каби мутафаккирларимиз қадимда яратувчанлик ва илмий салоҳияти билан бутун дунё тараққиётининг

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 23 декабрь сони.

тамал тошини куйган эдилар. Мазкур жараённи ўз даврида амалга оширган шарк мутафаккирларининг давомчилари - ёш авлодларимиз тўлкинида амалга оширилса албатта жонажон ватанимизда буюк давлат барпо этилади.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ СТРАТЕГИЯВИЙ ФУНКЦИЯСИ

З.Салахова

Тайлоқ туман Халқ таълими мудири

Бугунги кунда ривожланган демократик давлатчиликка интилаётган Ўзбекистон кўп поғонали узлуксиз таълим тизимини қарор топтиришга, жамиятнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришга, ёшларнинг билим салоҳиятини оширишга ва замон талабларига мос рақобатбардош кардларни тайрлашга ҳаракат қилмоқда. ЮНЕСКОнинг тадқиқотларига кўра, жаҳон стандартларига жавоб берадиган миллий фаровонлик даражасига меҳнатга лаёқатли аҳолисининг 40, 60 фоизи олий маълумотли бўлишига эришган давлатларгина етиши мумкин. Таълим-инсоний салоҳият ҳосил қилинишининг таркибий қисмидир. Бутун жаҳон банки экспертлари (192 мамлакат миллий бойлигини таҳлил қилиш асосида) ўтган минг йилликнинг охирида миллий бойликларнинг 16 фоизи ишлаб чиқариш фондлари ҳисобига; 20 фоизи табиий ресурсларга; 64 фоизи эса “инсон салоҳияти” ҳиссасига тўғри келганлиги ҳақида хулосага келишган. Шундай экан, давлатнинг миллий таълим тизимини ривожлантиришга қаратилган замонавий сиёсати Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегиясининг асосий мақсад ва вазифаларидан бири узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, таълим муассасаларини куриш, мактабгача таълим муассасалари тармоғини кенгайтириш ва ушбу муассасаларда болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш, болаларнинг мактабгача таълим билан қамраб олинишини жиддий ошириш ва фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш, чет тиллар, информатика ҳамда математика, физика, кимё, биология каби бошқа муҳим ва талаб юқори бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш, болаларни спорт билан оммавий тарзда шуғулланишга, касб-ҳунар коллежлари ўқувчиларини бозор иқтисодиёти ва иш берувчиларнинг эҳтиёжларига жавоб берадиган мутахассисликлар бўйича тайёрлаш ҳамда ишга жойлаштириш борасидаги ишларни такомиллаштириш, таълим ва ўқитиш сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш асосида олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, олий таълим муассасаларига қабул квоталарини босқичма-босқич кўпайтиришдир. Умумтаълим мактабларида дарс жараёнларини замонавий педтехнологиялар асосида амалга ошириш, ўқитувчиларнинг илмий салоҳиятини ривожлантириш ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш, олий ўқув юртларига тайёр билимли, малакали ўқувчиларни тайрлаш лозим.

Ушбу тизимнинг ижтимоий йўналтирилган иқтисодиёт талабларига мослаштиришга, жаҳон ҳамжамиятига бирлашишга йўналтирилган бўлиши лозим.

Давлатнинг таълим соҳасидаги функцияси тизимли фаолият сифатида куйидагиларда намоён бўлади:

таълим тизимида фаолият юритувчи давлат органлари тармоғини ташкил қилиш ва уни бошқариш, шунингдек тегишли вазифаларни бажаришда иштирок этаётган нодавлат ташкилотларни қўллаб-қувватлаш;

таълим муассасалари тизимини молиялаштириш, уларга нисбатан имтиёзли солиқ сиёсатини юритиш;

таълим тизимини ривожлантириш учун шароит яратиш, уни давлат миқёсида такомиллаштириш чораларини кўриш;

таълим соҳасига инвестицияларни жалб қилиш, илғор технологияларни жорий этиш;

таълим тизимида ўзини ўзи бошқариш ва ўзини ўзи ривожлантириш учун кенг имкониятларини яратиш;

фуқароларнинг билим олиш ҳуқуқини амалга ошириш, уларни умумтаълим ва касбий тайёргарлигини такомиллаштириш учун барча шарт-шароитларни яратиш.

Ҳозирги шароитда Ўзбекистонда юқори сифатли таълимнинг изчил тизимини шакллантириш ва дунёнинг таълим ҳамжамиятига кириш учун камида икки стратегик вазифани ҳал қилиш зарур:

биринчидан, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида белгиланган таълим сиёсати ва таълимни ривожлантириш стратегиясини рўёбга чиқариш, рўёбга чиқаришнинг дастлабки натижалари ва илғор хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда миллий таълим тизимини ривожлантириш ва янада ислоҳ қилиш истиқболларини белгилаб олиш;

иккинчидан, фуқароларнинг таълим олиш ҳуқуқини тўла таъминлаш мақсадида таълим муассасалари тизимини назорат қилишни таъминлаш ва мувофиқлаштириш, илғор таълим технологияларини ишлаб чиқиш ва уларни ўқув жараёнига жорий қилиш.

Давлатнинг таълим функцияси қуйидаги асосий вазилар билан тавсифланади:

ушбу функция давлат функциялари тизимида ўз мустақил ўрнига эга. Бу функция воситасида фуқароларнинг таълим соҳасидаги ҳуқуқва қонуний манфаатларини таъминлаш ва бошқа вазифалар бажарилади;

мазкур функциянинг жўшқин ривожланаётганлиги унинг муҳим жиҳатидир. Унда давлатнинг таълим соҳасидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишдаги фаоллиги ўз аксини топади. Давлатнинг таълим функцияси таълим тизимидаги мутасадди субъектларнинг серкирра фаолиятини мувофиқлаштириш, назорат қилиш, таъминлаш ва қўллаб-қувватлашни кучайтиришда намоён бўлади;

давлатнинг ушбу функцияси муайян барқарорлик хусусиятига эга. Бу хусусият таълимга оид муносабатларнинг мазмуни ва тузилишининг ўзгармаслиги, барқарорлиги билан боғлиқ;

давлатнинг таълим функцияси тарихий тараққиётнинг муайян босқичида бўлган жамият ҳаётининг моддий, маънавий ва бошқа шарт-шароитлари билан чамбарчас боғлиқ бўлади;

давлатнинг таълим функциясини амалга оширишда таълимга оид муносабатларни тартибга солиш, бошқариш, уларга таъсир кўрсатиш ҳуқуқий воситалар орқали рўй беради;


давлатнинг таълим функцияси унинг ижтимоий табиати мазмунини акс эттиради;

ушбу функцияда давлат механизмнинг тегишли таркибий қисмлари, улар фаолиятининг мазмуни ва шакллари намоён бўлади;

таълим функциясида давлатнинг жамият ҳаёти муҳим соҳаларидаги ижтимоий-сиёсий вазифалари яққол ифодаланади.

Ўзбекистон Республикасининг таълим функцияси қуйидаги устувор йўналишларга мувофиқ амалга оширилмоқда: а) зарур қобилиятга, интилиш ва тайёргарликка эга бўлган барча шахсларнинг таълим олиши учун имконият яратиш; б) жамият ва унинг аъзолари ижтимоий манфаатларини ҳимоя қилишда таълим тизимидан фойдаланиш, фуқароларнинг таълим олишда тенгчилиги ва адолатни таъминлаш; в) тенглик асосида нодавлат таълим муассасаларини яратиш ҳисобидан таълим тизимини кенгайтириш, давлат томонидан мувофиқлаштириш, назорат этиш ва қўллаб-қувватлаш функциясини амалга ошириш лозим.

Хулоса қилиб айтганда мамлакатимиз бугунги кунда жадал сурьатлар билан ривожланмоқда. Шу билан бирга таълим соҳасини ҳам замон талабларига мос равишда ривожлантириб бориш лозим. Бунда ўқитувчиларнинг билим, малака, кўникмаларини оширилиши ўқувчиларнинг иқтидорли, билимли бўлиб етилишига сабаб бўлади.



ЁШЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ САВОДҲОНЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СТРАТЕГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Холмаматов Ғайрат Абдусалимович
Таълим сифати мониторинги бош методисти

Умумтаълим мактаб ўқитувчилари замонавий педагогик технологиялар асосида «Иқтисодий билим асослари» фанини ўқитишда кўрғазмали методлардан фойдаланиш таълимнинг сифат ва самарадорлигини таъминлайди. Ўқитишнинг кўрғазмали усулидан фойдаланиб дарс ўтиш педагогиканин асосий вазифаларидан бири эканлиги Я.А.Коменскийнинг «Буюк дидактика» асаридаёқ ўз аксини топган: «ўқувчилар сезиб идрок этиши мумкин бўлган, яъни кўриши мумкин бўлган нарсаларни кўз билан кўриб, эшитиши мумкин бўлган нарсаларни қулоқ билан эшитиб, хиди бор нарсаларни ҳидлаб, таъмини сезиш мумкин бўлган нарсаларни татиб кўриб, ушлаб

кўриши мумкин бўлган нарсаларни эса, ушлаб кўриш орқали билиб олиши мумкин», деган фикрлари ниҳоят ўринлидир.

Глобаллашув жараёнида ўқувчиларнинг ҳар тарафлама билимли, саводли ва замон талабларига мос рақабатбардош кадрларни тайёрлашда умумтаълим мактабларида берилётган билимлар даражасига боғлиқдир. Зеро юксак малакали ёшлар мамлакатимизни янада ривожлантиришга ўз хиссасини кушади. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегиясининг асосий мақсад ва вазифаларидан бири, Иқтисодий ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари белгиланди.

Бунда Макроиктисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш:

макроиктисодий мутаносибликни сақлаш, қабул қилинган ўрта муддатли дастурлар асосида таркибий ва институционал ўзгаришларни чуқурлаштириш ҳисобига ялпи ички маҳсулотнинг барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш;

ҳаражатларнинг ижтимоий йўналтирилганини сақлаб қолган ҳолда Давлат бюджетининг барча даражаларида мутаносибликни таъминлаш, маҳаллий бюджетларнинг даромад қисмини мустаҳкамлашга қаратилган бюджетлараро муносабатларни такомиллаштириш;

солиқ юқини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш сиёсатини давом эттириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва тегишли рағбатлантирувчи чораларни кенгайтириш;

илғор халқаро тажрибада қўлланиладиган инструментлардан фойдаланган ҳолда пул-кредит сиёсатини янада такомиллаштириш, шунингдек валютани тартибга солишда замонавий бозор механизмларини босқичма-босқич жорий этиш, миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш;

банк тизимини ислоҳ қилишни чуқурлаштириш ва барқарорлигини таъминлаш, банкларнинг капиталлашув даражаси ва депозит базасини ошириш, уларнинг молиявий барқарорлиги ва ишончилигини мустаҳкамлаш, истикболли инвестиция лойиҳалари ҳамда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлашни янада кенгайтириш;

суғурта, лизинг ва бошқа молиявий хизматларнинг ҳажмини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш, шунингдек капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва аҳолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба сифатида фонд бозорини ривожлантириш;

халқаро иқтисодий ҳамкорликни янада ривожлантириш, жумладан, етакчи халқаро ва хорижий молиявий институтлар билан алоқаларни кенгайтириш, пухта ўйланган ташқи қарзлар сиёсатини амалга оширишни давом эттириш, жалб қилинган хорижий инвестиция ва кредитлардан самарали фойдаланишдек мақсадалрга эришиш учун умумтаълим мактаб ўқитувчиларга ҳам катта масъулят юкланади. Иқтисодий билим асослари ўқитувчилари «Иқтисодий билим асослари» фанини ўқитишда АКТ воситаларидан ва инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

«Иқтисодий билим асослари» фанини ўқитиш жараёнида қўлланиладиган кўргазмалилик воситалари: ўқитувчининг дарсга тайёргарлигини намойиш қилиши, интерфаол доскалардан самарали фойдаланиши, кўргазмали слайдлар, бозор муносабатлари акс этирилган видеофильмлар, дарс давомида ўқувчиларнинг амалий машғулот қилиши учун материаллардан иборат. Бунинг натижасида «Иқтисодий билим асослари» фанини ўқитишда иллюстрацион ва намойиш этиш усуллари юзага келади. Иллюстрацион усулларга: тарқатма материаллар, амалий машғулот олиб бориш учун керакли воситалар, плакатлар, маркерлар ва киради.

«Иқтисодий билим асослари» фанида «Даромад, фойда ва зиён» ва бошқа мавзуларни ўқитаётган пайтда ушбу мавзу бўйича асосий тушунча ва атамаларни АКТ(ахборот коммуникацион технологиялари)дан фойдаланиб ўқувчиларга тушунтириш, янги мавзу бўйича видеофильм намойиш этиш лозим. Мавзунини ўқувчиларга шу тариқа етказилиши дарснинг сифат ва самарадорлигини таъминлайди. Иқтисодиёт жамиятнинг барча соҳаларига оид муаммоларни ҳал этиб келган. У жамият аъзоларининг иқтисодий тафаккурини шакллантириш билан бирга иқтисодий ресурслардан тежаб фойдаланиш, ишбилармонлик ва тадбиркорлик фаолиятини оширишга хизмат қилади. Иқтисодий билимлар ўқувчиларнинг фаол ҳаётий ёндашувга эга бўлган фуқаролар сифатида тарбиялашнинг зарурий шарти саналиб, бозор иқтисодиёти шароитида пул, бозор, муомала, айирбошлаш, рақобат, талаб, таклиф, банк, кредит, давлат бюджети, суғурта, маркетинг, менежмент, фойда, даромад каби тушунчалар ўқувчилар онгига сингдириб бориш иқтисодий тафаккурнинг ўсишига олиб келади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, янги педагогиктехнология асосида интерактив усуллардан фойдаланиб ўқувчиларга билим бериш иқтисодий тафаккурнинг шаклланишига, билимларнинг самаралилигига олиб келади.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRMOVCHILIKNING OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR

G.A.Ergashyeva SamVXTXQTMOI Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Ro'ziqulova- Samarqand tuman boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Respublikamizda ta'lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan shaxslar qilib voyaga yetkazish barchamizning ezgu vazifamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi

O'zlashtirmaslikning oldini olish uchun sinfda o'tkaziladigan tadbirlar.

o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida

bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga-o'zlari baho beradilar.

O'quvchilar o'zlashtirmasligining oldini olishga yo'naltirilgan maktabda o'tkaziladigan tadbirlar.

Maktab jamoasining o'quvchilar o'zlashtirilmisligining oldini olish bo'yicha olib boriladigan ishlarining muvaffaqiyatining ma'muriyat, kasaba uyushmasi va "Kamalak" bolalar tashkilotining qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Ilg'or o'quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'zlashtirmaslikning oshirilishi bo'yicha umumlashirish ta'birlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruhviy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirilmislikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Sinfda o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sir o'qituvchilar, ota – onalar, jamoatchilik va o'quvchilar tashkilotlarining kuchlarini o'quvchilarning o'qish muvaffaqiyatiga tarbiyaning ta'sirini oshirish maqsadida birlashtirish bilan bog'liq. O'qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay ahloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo'l qo'ymaslik, ta'sirini antipedagogik usullarga yo'l bermaslik zarur.

Bunday iqlim yakdil tashkil e'tilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning uchun ham o'zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta'sirlaridan biri o'quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar tashkilotining rolini oshirish bo'yicha tadbirlar tashkil e'tish muhim hisoblanadi.

Jamoa barcha tarbiyaviy kuchlarning maqsadga yo'naltirilgan ta'siri va birlashishi natijasida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'qishga qiziqishi oshadi.

O'quvchilarni o'zlashtirmaslik sabablari haqidagi psixologik pedagogik konsimum xulosasi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq, uy vazifalarini bajarishning oqilona yo'llarini ko'rsatish, uy vazifalarini bajarishga ketadigan vaqtni domo tahlil qilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'quv ishlarini tashkil etish elementlarini egallash bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil e'tilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning o'z kun tartibini oqilona tashkil e'tishga o'rgatish, uyda va maktabda mustaqil o'quv ishlarini asosiy bosqichlarini ajratish, kitob bilan to'g'ri ishlash, o'quv va mehnat topshiriqlarini bajarishda domiy o'z o'zini tekshirishni, amalga oshirishga

qaratish lozim. Diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari bilan o'quvchilarni tushuntirish muhim.

Tarbiyaviy ishlar vositasida o'zlashtirilmalikning oldini olish sinf jamoasi hayotini shunday tashkil etish bilan bog'liqlik, bunda har bir o'quvchi, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiorloqlari bilan doimiy aloqani his qiladi. Ular bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarning har xil shakllarini tashkil etish va har xil o'quvchini maktabdagi o'zini o'zi boshqarish organlari tizimiga jalb etishni anglatadi.

**Bo'sh o'zlashtiruvchi
o'quvchilar bilan o'tkaziladigan
guruhiv va individual tadbirlar.**

Bunday ishlarni tashkil etishda o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari hisobga olinishi, o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirishga olib keladi. Bu ishda o'quvchilarga ota onalari yordam berishi mumkin. O'quv yili boshida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ota – onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish uchun barcha chora tadbirlarini ishlab

chiqish, ularning uylariga borish, farzandlari o'zlashtirmasliklarini oldini olish bo'yicha hamkorlikda ishlarni ishlab chiqish lozim. Oilaning tarbiyaviy ta'siri mahsuldorligini oshirish maqsadida ota – onalar majlislarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasidagi ularning rolini oshirish haqidagi masalalarni muhokama qilish zarur.


O'qishda orqada qolishning oldini olish olish bo'yicha sinfdagi tadbirlar individual ishlar bilan olib borish lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'quv ishlarni oqilona rejalashtirish va tashkil etishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, muhimini ajratish ko'nikmasiga o'qishda o'z o'zini nazorat qilish uy vazifalarini bajarishga, oraliq va mustaqil ishni shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Maxsus to'garaklardan ma'lum bo'lishicha boshlang'ich sinflarda uy vazifalarini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni nisbatan ko'proq yordam yo'li bilan yechimda o'quvchilar qiynaladigan savollarni o'zlashtirishini, albatta, nazorat qilinishi zarur. Dars qoldirgan o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganligini nazorat qilish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tarbiyaviy ta'sirlarni tanlashda, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ham jamoat topshiriqlaridan chetga qolmasligi, balki bunday topshiriqlarga faol ishtirok etishiga e'tibor qaratmog'i lozim. O'quvchilarda bu topshiriqlarni bajarish jarayonida ongli tartib intizom va javobgarlik hissi shakllanadi.

Ba'zi hollarda topshiriqlarni almashtirib turib, oldindan turlicha yordam ko'rsatib, o'ziga ishonch va hissiy faollikka undash uchun o'qishda va mehnatda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish ham mumkin. Javobgarlik va tartib – intizom evaziga bazi o'quvchilarning o'zlashtirishi yaxshilanayotganligini doimo ta'kidlash lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda ba'zi hollarda majburlash va bo'ysunish choralarni qo'llashlari mumkin, lekin ulardan foydalanish vaqti – vaqti bilan bo'lib, tarbiyaviy ta'sirining boshqa usullari bilan birgalikda olib boriladi. Talabchanlik, adolatli, to'g'ri va me'yoriy bo'lish lozim.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi shaxsining irodaviy intellektual va hissiy sohalarida o'zaro muvofiqlik yo'qligini hisobga olib, topshiriqlarini va o'z – o'zini tarbiyalash vositalarini topishda har kuni yordam ko'rsatish lozim. Bu ishlarni xulosa qilganda jamoa oldida qo'llab quvvatlash orqali ularni rag'batlantirishi mumkin. Bunday hollarda o'quvchilar o'zlashtirmasliklarining oldini olish chora tadbirlari bilan bir qatorda uni yo'qotishga qaratilgan tadbirlar ham zarur bo'ladi. Agar o'zlashtirmaslikning oldini olish bo'yicha tadbirlar umum sinfiy va guruhiviy xarakterga ega bo'lsa, o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar individual xarakterga ega bo'ladi.



ШАХС КРЕАТИВЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ МЕТОДЛАР

Бобоёрова Н.С.

Самарқанд қишлоқ хўжалиги институти

Шахсда креативликни шакллантиришга йўналтирилган машғулотлар фақатгина кўнгилочар характердаги топширик, машқ ёки вазифалардан иборат бўлиб қолиши керак эмас. Балки, талабаларга бериладиган барча топширик, машқ ва вазифалар мавжуд давлат таълим стандартларга


мос келиши, талабаларга билим, кўникма ва малакаларини тўлақонли намоёниш қила олиш имкониятини яратиши зарур. Машғулотлар жараёнида ўқитувчилар талабаларни аста-секин масъулиятдан озод қилиш орқали мустақил таълим олишга рағбат билдирадиган шахс бўлишларига эриша олишлари лозим.

Педагогнинг креативлиги ривожлантиришда унинг маъруза, амалий, семинар ва лаборатория машғулотлари учун ўқув топшириқларини ишлаб чиқишга ижодий ёндашиш кўникма ва малакаларига эга бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун педагоглар ўзларида креативлик қобилиятини ривожлантириш йўлида тизимли, изчил амалий ҳаракатларни ташкил этишлари зарур. Қуйида уларнинг айримлари хусусида тўхталиб ўтилади.

1. Матнли ахборотларни график шаклига ўтказиш. Матнли, айниқса, катта ҳажмдаги матнли ахборотлар талабалар томонидан қийин қабул қилинади. Замонавий шароитда матнли ахборотларни график шаклига ўтказиш талаб этилмоқда. Ўқув ахборотларини график шаклига ўтказишда маълумотларни модел, схема, жадвал, диаграмма, тасвир, кластер, математик, физик, геометрик кўринишларида ифодалаш мақсадга мувофиқдир. Бу тарзда талабаларга тақдим этилган ахборотлар талабалар томонидан самарали қабул қилинади.

2. Махсус тестлар билан ишлаш. Ҳозирги кунда Олий таълим муассасаларининг талабаларида креативлик қобилияти ва сифатлари мавжудлигини аниқлашда Э.П.Торренснинг “Тугалланмаган расмлар” тестидан фойдаланиш самарали натижаларни беради.

Мазкур тест қуйидаги расмлардан иборат бўлиб, талабаларга Д.И.Менделеев даврий системасига асосланиб мис, кумуш ва олтиннинг даврий системада тутган ўрнини тугатиб бериш топшириғи берилади:

№	Даврий системадаги жойлашган ўрни
1	
	
2	

ОТМ талабаларга П.Торренснинг “Тугалланмаган расмлар” тести қўллаш жараёнида тингловчилар томонидан қўплаб таклифлар берилади. Берилган таклифлар талабаларнинг қай даражада креативлик сифатларига эгаллиги, тасаввурининг қанчалик бойлигини ифодалайди.

3.Интерфаол методлардан фойдаланиш. Машғулотларда интерфаол метод (стратегия, графикр организер)лар билан ишлаш талабалар томонидан ўқув ахборотларини тизимли, яхлит ҳолда ўзлаштириш имкониятини яратади. Қолаверса, интерфаол методлар ёрдамида талабалар ўқув ахборотлари билан ишлашда билимларни таҳлил қилиш, синтезлаш, муҳим тушунчаларни тизимлаштириш, объект, жараён, фаолият, воқеа, ҳодисаларнинг умумий моҳиятини аниқ ифодалаш каби кўникма, малакаларни ўзлаштиришга муваффақ бўлади.


Қуйида педагогик туркум фанларини ўқитиш ҳамда талабаларда креативлик сифатлари, ижодий-қасбий фаолият малакаларини шакллантиришда интерфаол методлардан фойдаланишга оид мисоллар келтирилади.

Синквейн стратегияси. Ж.Стилл, К.Мереди́с, Ч.Темил томонидан ишлаб чиқилган “Ўқиш ва ёзиш асосида танқидий фикрлашни ривожлантириш дастури”да ҳар бир талаба (талаба) ва талаба (талаба)лар гуруҳларининг фикрлаш фаоллигини ошириш, уларда танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш учун “Синквейн” стратегиясини қўллаш самарали эканлиги айтилади.

Синквейн тузиш мураккаб жараён бўлиб, уни самарали ташкил этиш учун муайян қоидаларга амал қилиш талаб этилади. Одатда, синквейн тузиш беш босқичли ҳаракатларни ташкил этиш орқали амалга оширилади.

Режалаштирилган мақсадлар тизими ушбу мақсадларнинг бажарилишини таъминловчи ҳаракатлар тизими билан узвий боғланади. Ўқув материалларини ўзлаштиришда таълим олувчини фаол ҳаракатга ундайдиган омил – ўқув топшириқлари ҳисобланади.

Шу сабабли, ўқув топшириқларини тўғри шакллантириш мақсадга мувофиқ саналади. Олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабалар ўқув топшириқларини тўғри шакллантириш кўникма, малакаларига эга бўлиши зарур.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОЛАЛАРГА КАСБ-ХУНАРЛАР ҲАҚИДА ТУШУНЧАЛАР БЕРИШ

Б.Дониёв, Д.Ниёзова
СамДУ ХТХҚТМОМ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мақтабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5198-сонли Фармони ижросини таъминлаш ҳамда мақтабгача таълим муассасаларининг давлат ва нодавлат тармоқларини янада кенгайтириш, давлат ва нодавлат мақтабгача таълим муассасалари ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш шароитларини яратиш, давлат ва хусусий сектор шериклиги шартларида мақтабгача таълим муассасаларининг янги шаклларини жорий этиш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Мақтабгача таълим вазирлиги фаолиятини самарали ташкил этишни таъминлаш мақсадида қатор вазифалар белгилаб берилди.

Ўзбекистонда узлуксиз таълим тизимини жорий этиш билан бир қаторда касб-хунарга йўналтириш ишлари ҳам унинг таркибий қисми сифатида ривожланиб бормоқда. Касб-хунарга йўналтириш ишлари асосан шахс ривожланиши динамикасини узлуксиз кузатиш, касб ҳақида ахборотларни тарбияланувчиларга етказиш, қизиқиш, қобилият ва туғма лаёқатларини аниқлаш, касбий ташхис кўйиш, касбий маслаҳатлар бериш, коррекцион тузатишлар ишларини ташкил этиш, касбий ўзликни англаш, касбий танлов, касбий мослашув кабиларни ўз ичига олади.

Ёшларни касбга йўллаш, ўз қобилияти, қизиқиши, лаёқатига мос касб эгаси бўлишга тайёрлаш муҳим вазифалардан бири ҳисобланиб, тор соҳадаги касбдан аста-секин кенг қамровли, универсал касбга ўтиш муаммоси илгари сурилмоқда.

Педагоглар, психологлар, илмий марказлар ходимлари, халқ таълими соҳасига мутасадди бўлганлар ҳақиқий касб эгаларини тайёрлаш борасида изланишлар олиб бормоқдалар. Аммо, ҳали кўнгилдагидек натижага эришилгани йўқ. “Касб танлаш” деган қисқагина жумла тубида профессионал ҳаёт йўлини чуқур ўйлаб кўришдек муҳим масала ётади. Кўплаб ёшлар ўз келажаги, касб ҳақида етарли тасаввурга эга бўлмасдан ҳаётга киришмоқда, касб эгалари бўлишмоқда. Бу жамият учун ҳам, касб эгаси учун ҳам жиддий зарар келтириши ҳеч кимга сир эмас. Ахир бир ўсмирнинг олий ўқув юртига кириб, уни тугаллагунига қадар қанча харажатлар бўлишини ҳамма биладику. Худди мана шунинг ўзи ҳам касб танлаш ишларини тубдан яхшилашни такозо этади.

Ўйлаб кўрайлик, ҳамма ёшлар ҳам касблар ҳақида етарли тасаввурга, тушунчага эгами? Касблар касб эгасидан қандай сифатга, хусусиятга эга бўлишни талаб қилади? Бу саволларга жавоб топиш мақсадида юқори синф ўқувчилари билан учрашдик. Уларнинг бўлажак касби ҳақидаги фикрларига эътибор беринг.

“Мен солиқчи бўлмоқчиман. Солиқчи энг замонавий касб эгаси-ку. Замондан ортда қолган ютқазади” (Беҳзод М.)

“Мен авваллари моҳир тикувчи бўлишни хоҳлардим, энди бу фикримдан қайтдим. Ҳозир бозор тўла хорижий кийимлар. Одамлар тикувчига қатнаб юришни ёқтирмайди” (Паризод М.).

“Мен фақат менежер бўлишни хоҳлайман. Зўр касб-да. Бутун дунёни кўраман” (Шерзод М.).

“Банкда ишлайман. Бугунги кунда ҳамма гап пулда-ку” (Али М).

Болаларимиз берилган саволларга мана шундай жавоблар бермоқдалар.

Шу боисдан ҳам болаларни ўзлари севадиган касбларини танлашларига уларнинг илк ёшидан, болалар боғчасида ўйинлар орқали, суҳбат ва машғулотлар орқали, эрталиклар орқали уларга тўғри йўналиш беришимиз керак.

Болалар ҳақдир. Бу касбларнинг келажаги порлоқлиги ҳам рост. Даврнинг ўзига хос қонуниятлари ҳам шунда. Аммо давр бир хил кўринишда турмайди, ўзгариб, тараққий этиб бораверади.


Бугун молиячи ёки менежер бўлишни орзу қилган ёшлар шу соҳани яхши биладими? Шу соҳа бўйича аниқ тасаввурга эгами? Ана шундай мулоҳазалар кишини ўйлантириб қўяди.

Ҳақиқатдан ҳам замон талабига мувофиқ равишда касбларга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши табиий. Бозор муносабатларига босқичма-босқич ўтиш даврида солиқчи, молиячи, банк ходими каби муносабатлар жуда керак. Лекин жамиятга бошқа ҳунар-касб эгалари ҳам керак-ку!

Минг-минглаб касблар бор. Бироқ ҳақиқат шундаки, охириги йилларда кўпгина янги касблар пайдо бўлди, шундай экан, меҳнат турларининг янгиланиш жараёни яна ҳам тезкор амалга ошиб бораверади. Ким қайси касбни танлайди, бу ихтиёрий. Бу қонун билан муҳофазаланган. Лекин ўсиб келаётган, ҳаёт остонасида турган ёшларимизни ўз қобилияти, қизиқиши, лаёқатига мос касб танлашида ёрдам бериш ҳар бир ота-она, тарбиячи, ўқитувчи, қолаверса, ўзини билган, англаган ҳар кишининг муқаддас вазифаси бўлмоғи керак, яъни Президентимиз таъкидлаганидек, биз бугун не-не машаққатлар билан кўраётган давлатимиз, ҳар жиҳатдан мустақил мамлакатимиз эртага кимнинг қўлида қолади? Бугунги катта ислохотлар эвазига қўлга киритилаётган ютуқларимизни эртага фарзандларимиз давом эттиришга қодир бўладими-йўқми?”

Ўзбекистон аҳолисининг деярли ярмини 18 ёшга етмаган болалар ташкил этади.

Демак, Ўзбекистоннинг келажагини бошқариб борадиган аҳолининг катта қисми ҳозир болалар боғчаларида тарбияланишмоқда, мактабларда ўқимоқда. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, эртанги кунимиз, келажагимизнинг қандай бўлиши бугунги саъй-ҳаракатларимизга боғлиқдир. Яна шуни унутмаслик керакки, ижтимоий муносабатлар ва ишлаб чиқаришнинг жадал суръатлар билан ўсиши халқ хўжалигининг барча соҳаларида кадрларга бўлган эҳтиёжнинг ортишига сабаб бўлади. Бу эса, ўз навбатида, кадрларни жой-жойига қўйиш масаласини келтириб чиқаради.



BILISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Ra'no Toshniyozova - SamDU HXTXQTMOHM

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Мадина Ўроқова - Оқдарё тумани 5-мактаб она тили ва адабиёт ўқитувчиси

Davlatimizda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda, xalqimiz hayotida nihoyatda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim sohasida ijtimoiy fanlar mutaxassislarini tayyorlashning mazmun-mohiyati o'zgarib, ta'lim oluvchilarning biluv, kognitiv faoliyati natijalarini umumjahon standartlariga moslashtirish yo'lida qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Inson bilish faoliyati nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. O'rtaasr mutafakkirlaridan biri bilish to'g'risida quyidagi fikrni keltirishgan: Inson tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib tafakkurga tomon rivojlanib boradi. Inson aqli- faol, u bilishning asosiy qurolidir”.

Ong inson miyasining shunday funksiyasiki, uning mohiyati tashqi dunyoni to'g'ri, umumlashgan, maqsadga yo'naltirilgan va ijodiy o'zgartirilgan shaklda aks ettiradi. Ong faqat insongagina xos bo'lgan, miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv va ijodiy namoyon bo'ladigan oily funksiyadir.

Ong muammosi tarkibi o'z-o'zini anglash masalasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ma'naviy o'zlikning vertikal ko'tarilish nuqtalari quyidagicha ko'rsatilgan:

Individning ongsiz, jismiy-affektiv mavjud bo'lish bosqichi.

“Men”ning jismoniy kelib chiqish bosqichi.

Ongli “men”ning shakllanish bosqichi.

Axloqiy “men”ning payqo bo'lish bosqichi.

Kosmik oliy “men”ning vujudga kelish bosqichi.

Bunda bilish subyekti bo'lgan inson o'zini obyekt(shaxsiy tasavvur va fikrlar, his-tuyg'ular, kechinma hamda qiziqishlar, maqsad, hatti-harakat, jamoa, oila, jamiyatdagi ahvol) sifatida qabul qiladi. Inson shaxs sifatida o'z-o'zini baholovchidir. O'z-o'zini baholamasdan turib, hayotda to'g'ri yo'l tanlash qiyin. To'g'ri baholash o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z imkoniyatlarini hayot talablariga nisbatan doimiy ravishda chamalab ko'rish, o'z oldiga orzu-maqsadlarni mustaqil ravishda qo'yib borish, ilgari surilayotgan fikrlarni sinchkovlik bilan tekshiruvdan o'tkazish, barcha dalillarni

obdon o'ylab ko'rish, o'zini oqlamagan gipoteza va taxminlardan voz kechishni nazarda tutadi.¹ Shu o'rinda "O'zingni anglasang, Ollohni anglaysan",-hadisini keltirish o'rinli. Ushbu haqiqatni antik davrlarda Suqrot, Platonlar o'z bilish nazariyalarida, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarimiz ijod mahsullarida k'op marotaba ta'kidladilar.

Ma'lumki, nemis faylasuf-pedagogi I.Kant ta'lim va tarbiyaning nazariy masalalariga alohida e'tibor bergan. Ta'lim-tarbiya nazariyasining teranligi uchun kurashgan. «Ma'rifat - insonning o'zi sababchi bo'lgan norastalikdan xalos bo'lishidir. Norastalik o'z aql-idrokidan boshqa bironing boshchilgisiz foydalanolmaslikka sabab bo'ladigan layoqatsizlikdir...»- deb yozgan edi I.Kant o'zining «Ma'rifat nadir? degan savolga javob» nomli asarida. I. Kant hamisha akademik ta'limga dunyoni bilishda ilm-fan va san'atga amaliy ma'no va mazmun baxsh etadigan dastlabki bosqich sifatida qarab kelgan, buning natijasida ular (ilm-fan va san'at) "nafaqat maktab uchun, balki hayot uchun ham yaroqli bo'ladi va o'quvchi o'z vazifasi maydoniga butunlay tayyor holda qadam qo'yadi.; Men sizlarga uslubiy fikrlashni o'rgatishga harakat qilaman" degan doim. Talabalarga ayniqsa, ta'riflar haqida gap ketganda, Kant qo'llaydigan usul ma'qul tushgan. U ma'ruzani shunday olib borganki, go'yo tinglovchilarga va uning o'ziga ham bir xilda noma'lum bo'lgan haqiqatni izlayotgandek taassurot qoldirgan. I.Kant avvaliga o'zini biron-bir ta'rif berishga urinayotgandek qilib ko'rsatar, natijada dastavval jo'ngina ifoda hosil bo'lar, keyin esa uni izchil tuzatishga kirishib ketar va bu holat nihoyat, uzil-kesil va qat'iy ilmiy ta'rif yaratilmagunga qadar davom etgan. Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, I. Kant shu tariqa talabalarni o'zining falsafiy-pedagogik «ustaxonasi»ga olib kirishga tirishgan va ularga chin haqiqatni qay tarzda izlash lozimligini amalda ko'rsata bilgan. I.Kantda tushunchalarni tahlil etish va tizimlashtirish qobiliyati eng kuchli darajada taraqqiy etgan. Buning uchun mavzu jozibador va tushunarli bo'lmog'i zarur, bunga esa uni shunchaki mohirona tanlay bilish bilan emas, balki o'qitish usul va vositalarining oqilona uyg'unligi orqali erishiladi. Umumiy bilim asoslarini bola birdaniga emas, balki muayyan bir izchillik tufayli o'zlashtiradi. Shuning uchun dastlab materialning ko'rgazmaliligi va anik dalillarga asoslanganligiga alohida ahamiyat berib, so'ngra umumiy qoidalarni tushuntirish kerak. Bayon va tasvir bolani o'z ustida mustaqil ishlashga rag'batlantirmog'i lozim. Bilimlarni amaliy harakatlar bilan mustahkamlab borish, masalan, yod olingan grammatik qoidani bir talay mashqlar orqali amalda qo'llay bilish kerak. Tushuntirish (tasvir, bayon) va tekshirish bilan bir qatorda I. Kant dialogik («Suqrotga xos») metodni ham maqsadga muvofiq, deb hisoblagan. Uningcha, bunday usul o'qituvchiga o'quvchini bilim asoslarini mustaqil ravishda ochishga o'rgatishda qo'l keladi. I.Kant chin haqiqatlar mohiyatini ochishning o'zini ta'lim jarayonining mas'uliyatli jihati hamda o'qituvchining eng muhim vazifasi deb bilgan: «...fikrlarga emas, fikrlashga o'rgatmoq lozim, tinglovchini, agar uning kelajakda mustaqil yura olishini xohlasalar, qo'lidan yetaklash emas, balki unga yo'l-yo'riq ko'rsatmoq kerak». E'tibor qilish joizki, aynan tushunmaslik ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni susaytirmoqda, oliy ta'limning nufuzini tushirmoqda. Buning uchun ta'lim jarayoni tarkibini qayta ko'rish, o'zgartirish kerak. Bularning hammasi birinchi navbatda falsafiy-metodologik yo'nalish olishni taqozo etadi. Ma'lum bir namunaga ko'ra o'zlashtirilgan BKMLar o'z-o'zicha ijodkor shaxs asosini tashkil etgan psixologik tuzilishini shakllantirib bera olmaydi. U muammoli ta'lim asosida shakllanadi. Har qanday muammoli vaziyatlarga qurilgan mashg'ulotlar "muammoli vaziyat—muammo-muammo yechimi" tizimiga asoslanadi. Muammo-anglash shaklidir. Shunday qilib o'quv jarayoni tarkibi ta'lim maqsadlari mazmunida aks etadi. An'anaga ko'ra, ta'lim maqsadlari bilim, malaka, ko'nikmadir. Masalani bu tarzda qo'yish shuni anglatadiki, dasturga bilimlarning o'rniga tasavvurlar kiritildi, ko'nikmalar alohida professional operatsiyalarni bajarishda belgilandi. Aniq qo'yilgan o'quv maqsadlari mashg'ulotlarning tub mazmuniga o'zgartirish kiritdi. Ya'ni:

— nazariyalarni bilish va hodisalar haqida tasavvur hosil qilish deyarli boshi berk holatni namoyon etadi;

— tipik, notipik vaziyatlarda; muammolarni yechish ko'nikma va malakalari;

— talaba shaxsini fikriy operatsiyalari zahirasidan foydalangan holda avtomatik qo'llash asosida tizimli fikrlash darajasiga chiqarish, rivojlantirish; narsa-hodisani tizimli munosabatlarda, aloqadorlikda ko'ra olishi.

— talaba shaxsini uning bilish va produktiv kasbiy faoliyati sohasidagi dunyoqarashini shakllantirish, qadriyatlarini, qiziqishlari, maqsadlariga yo'naltirish bilan tarbiyalash.

Axborot asrida muttasil kelib turgan hisobsiz xabarlarining hammasini ham anglay olmaymiz, tushunmaymiz. Natijada inson tushunishdan ko'ra ko'proq biladi. Insoniyatning kamoloti uning bilimlarni tushunishga bo'lgan qobiliyatiga, bilishning bir usulidan, ikkinchi usuliga o'ta olish imkoniyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu butun ta'lim jarayonining falsafiy-metodologik yo'nalishini kuchaytirish ehtiyojini

¹NazarovQ. Bilishfalsafasi.

vujudga keltiryapti. Ta'lim va tarbiyada evristik komponentlarni ko'paytirish zaruriyatini paydo qilyapti. Shuning uchun muammoli ta'lim zaruratga aylandi: muammoli vaziyat-muammo-yechim.

Eng samarali ta'lim usuli dialogdir. Uning ko'rinishlari: suhbat, bahs, diskussiya, tortishuv, debatlar, disput, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, sinektika (aqliy hujum, analogiya, assosiasiya asosida).

Suqrot o'z evristik suhbatlarida sun'iy yaratilgan, yo'naltiruvchi savollari bilan yunonlarni fikrlashga o'rgatdi. Uning savollari turli bosqichlarda turli vazifalarni bajarardi. Inson olamni va o'zini anglash yo'lida turgan doimiy to'siqlarni bartaraf etish bilan falsafiy fikrlashni boshlaydi. Falsafa-tushunish haqidagi fan. Tushunish talaba aynan nimani tushunmaganligini bilganida boshlanadi.

Avvalo, "ta'lim berish" va "o'qitish" tushunchalarining qiyosiy tahlilini berishni lozim topdik. 1

O'qitish

O'qitish –bu tayyor bilimlarni berishdir.

O'qitish bu hali mustaqil, maqsadli, ijodiy fikrlovchi, ma'naviyatli, muammolarni va zamon talablarini anglash degani emas.

O'qitish- bu madaniy me'yorlarni, bilimlarni egallash, hayotni "fan" shaklida bilish demakdir.

O'qitilgan kishi- bilimdon va bilganlarini amalda qo'llay oladigan qobiliyatli mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin shu bilan birga ma'naviy noqis, hayot an'analarini ongsiz qayta ishlovchi bo'lishi mumkin (ota-onam shunday yashagan, men ham shunday yashayapman)

Ta'lim berish

Ta'lim – ta'lim va tarbiyalash jarayonida insonning barcha: ma'naviy, aqliy, jismoniy kuch va imkoniyatlarini o'zaro muvofiq ravishda rivojlantirishdir.

Ta'lim- bir umrlik ijodiy jarayon. Ta'lim so'zining asosi "ilm" ekanligiga e'tibor qaratsak, Inson shaxsi kamol topishi uchun butun umr ilm izlaydi, izlanadi.

Ilmlilik faqat madaniy an'analardan xabardorlik bilan belgilanmaydi. Madaniyat- an'analar, qadriyatlar, bilimlar to'plami.


Ilmlilik- o'z ustida ishlashga tayyorlik, hayotdagi stereotiplarni bartaraf etish malakasidir.

Ilmlilik- madaniy-moddiy maydonda o'z mas'uliyatini anglaydigan individual mustaqillik.

Ilmlinson abadiy qadriyatlarni (ezgulik, idrok, vijdon, mas'uliyat, muhabbat, hamdardlik...) himoya qiluvchi va yangilarini shakllantiruvchi madaniyat vakili.

Demak, ta'lim insonning, umuman, tashqi olam, madaniyat, tabiat bilan aloqasi haqida bilish va o'z vazifasini tushunishni taqozo etadi.

«Axborotni yetkazish bilan hech bir kishiga ta'lim berib va uni rivojlantirib bo'lmaydi. Unga har bir kishi o'z shaxsiy faoliyati bilangina erishishi mumkin. Faoliyatning ilk va muhim asosi insonning mehnatga bo'lgan munosabatidadir»-, deydi A. Disterverg. Xulosa o'rnida aytish lozimki, biz mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxs tayyorlashimiz uchun talabalarning o'zini rivojlantirish, jahon tandartlari darajasidagi kompetentlikka ega bo'lishga yo'naltirilgan muhit yaratishimiz lozim ekan. Buning uchun aniq belgilangan maqsad asosida faol tafakkur darajasidagi o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.



КИЧИК ЁШДАГИ ЎҚУВЧИЛАРГА ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ БЕРИШНИНГ МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ.

*Нуриддинова Майсара Икромовна-
биол.фанлари номзоди, доцент
Исмоилова Рухиона –талаба*

Маълумки, табиат инсонни яратиб, ўз бағрида ўстирди. Инсон ўз фаолияти даврида табиатга таъсир этиб, уни ўзгартирувчи кудратли биотехнологик кучга айланди. Бу кучнинг табиатга таъсири биосферанинг табиат эволюцияси жараёнига нисбатан бир неча бор тезроқ

¹Спицнадель В. Н. Основы системного анализа: Учеб. пособие. — СПб.: «Изд. Дом «Бизнес-пресса», 2000 г. — 326 с. 48-б.

намоён бўлмоқда. Инсон – жамият – табиат орасида вужудга келган ўзаро муносабатлар инкирозга учраб, умумжаҳон миқёсидаги экологик муаммога айланди. Бу эса умумий экология фанини вужудга келтирди. Экологик муаммоларни ҳал этиш учун инсон табиат билан ўзи орасидаги муносабатларни ва уларнинг қонуниятларини яхши билмоғи зарур. Бу масалалар ҳақидаги дастлабки билимларга ўқувчилар бошланғич синфларда табиий фанлар орқали эга бўлишади.

Ҳозирги кунда ёшларга бериладиган экологик билимлар мазмунини илмий – методик жиҳатдан танлаш, ўрганиш, кетма – кетлигини аниқлаш, шакл ва методларини ишлаб чиқиш, педагогик экспериментларда синаб , олинган натижаларни таҳлил қилиб, методик тавсия, қулланмалар яратиб , амалиётга татбиқ этиш муҳим педагогик муаммолардан ҳисобланади.

Мамлакатимизда қабул қилинган “ Таълим туғрисида” ги қонунда ҳамда “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ” да ўқитиш жараёнида илғор педагогик технологияларни кенг қўламда татбиқ этиш барча турдаги таълим муассасалари олдидаги энг долзарб вазифалардан эканлиги алоҳида таъкидланади.

Таълим жараёнида илғор технологияларнинг қўлланилиши машғулотларнинг ранг – баранг қизиқарли тарзда ташкил этилишига олиб келиши билан, ўқув материалларининг чуқур ўзлаштирилишига ҳам кенг имкониятлар яратди. Шундай экан, ҳар бир ўқитувчи ўқитишнинг илғор, самарали усулларини излаши, ёхуд анъанавий усуллардан ижодий фойдаланиши тақозо қилинади.Бундай ишларнинг бажарилиши эса, ўз навбатида ўқувчи ёшларни ватанга садоқат, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабатда бўлиш руҳида тарбиялашда алоҳида аҳамиятга эга.

Маълумки, экологик тарбиянинг муваффақият билан олиб борилиши фақат ўқитувчи бу масаланинг моҳиятини қандай тушунганлигидангина иборат булмай, балки бу масалани ўқув-тарбия жараёнига қанчалик сингдириб бора олишга, бунинг учун зарур шарт-шароитлар яратилишига ҳам боғлиқдир. Бошланғич синф ўқувчиларида билимларни ўзлаштириш , лаёқат ва қизиқишларни ривожланиб боришидан фаол жараён давом этади; улар жуда меҳрибон ва таъсирчан бўладилар, шу сабабдан бу жараён маълум мақсадга қаратилишига атрофдаги табиатга масъулият ҳиссини уйғотиш лозим.Бу ишни ишонарли, мароқли ва жонли қилиб утказиш зарур. Кичик ёшдаги ўқувчиларга экологик тарбия беришда бошқа тарбия шакллари билан бирлашган ҳолда , бир-бирига боғлиқ тарзда амалга ошириш лозим. Бошланғич синфларда экологик тарбия бериш жараёнида ўқувчиларда ватанпарварлик ҳис-туйғулари ривожлантирилади, чунки Ватан жонажон ўлка , унинг табиати, хўжалиги одамлар турмуши орқали билиб олинади, идрок қилинади ва уларга нисбатан муҳаббат ривожлантирилади.

Бошланғич синфларда табиий фанларни ўқитишда ҳар бир мавзуни ўтиш жараёнида экологик тарбия бериб бориш мақсадга мувофиқдир. Предметларароўзаро боғланишни ҳисобга олган ҳолда дарсларнинг ўтилиши экологик тарбия беришда муҳим рол уйнайди. Экологик тарбияни амалга оширишда экскурсиялар уюштириш муҳимдир.Экскурсия машғулотларини самарали утказиш учун қуйидаги ҳолатларга эътибор бериш лозим, деб ҳисоблаймиз:

1.Табиат қўйнида уюштириладиган экскурсия ва сайрлар вақтидадов-дарахтларнинг турли-туманлигига эътибор қаратиш лозим;

2.Тана ва пўстлоқлари,баргларидаги тафовутларга ўқувчилар диққатини жалб этиш керак;

3. Дарахт ва буталарнинг, гулларнинг ва умуман жонли табиатнинг инсон ҳаёти учун аҳамияти ҳақида тушунчалар бериб бориш керак.

Масалан, болалар баҳорда табиатнинг уйғониши, дарахтларнинг куртак чиқариб гуллаши, барг ёзиши, майсалар, ўт-ўланларнинг эса сабза уриши, табиатнинг нафис яшил либосга буркалиши, кузда эса дарахт баргларининг сарғайиши ва тўкилишини кўриб, билиб борадилар. Улар дарахтларнинг ширин-шакар мевалари, манзарали дарахтларни нг салқин соялари, гулларнинг муаттар майин ҳиди ва ниҳоят яшил дустларимизнинг ҳавони тозалаб бориши ҳақида ҳам яхши тушунчага эга буладилар.

Экскурсиялардан олдин фасллар, табиат ҳодисалари, табиат жисмлари, ой, куёш ва бошқалар ҳақидаги шеърлар, мақоллар ва топишмоқларни танлаб ўқувчиларга ёд олдиртириш мақсадга мувофиқдир. Масалан: қўлсиз, оёқсиз эшик очар (шамол), тилла сандиқ очилдию ичидан зар сочилди (куёш) ва ҳоказолар. Экскурсиядан олинган таассуротлар ,шеър,ҳикоя ва топишмоқлар асосида берилган билимлар дидактик уйинлар ўтказишга жуда қул келади. Масалан, “ Баргидан билиб, дарахтнинг номини айтинг” уйинини олиб кўрайлик. Бу ўйинда турли дарахт барглари кўрсатилади. Ўқувчилар “ бу тол барги”, “ бу тут барги” деб қуйилган саволларга жавоб бўлувчи топишмоқ ёки мақолларни айтишади. Ҳайвонот оламидан “ Бу қайси қуш ” уйинини эса қўйидагича ўтказиш мумкин: қушнинг хатти-ҳаракатлари , хусусиятлари суралади. Ўқувчилар эса

унинг қайси қуш эканлигини айтишади. Масалан, “ у бизда қишин-ёзин яшайди, йилда у икки марта бола очади, болаларига йигирма мингга яқин ҳашарот едиради.Шунча ҳашарот 80 тўп олма дарактига зиён етказиши мумкин. Демак, бу қуш фойдали бўлиб , у олмадан кўртлаб кетишдан сақлайди. Бу қушга озор берманг, ҳосил мўл бўлади. Хўш бу қайси қуш”- деб сўралади. “ Бу чумчуқ” –деб жавоб беришади ўқувчилар.Шундан сўнг :Доим тонг отар, чирқ – чириклаб уйғотартопишмоғи айтилиб, жавоби топилади. Ўқитувчи изланиб, мақолларни ўзгартириб, янгилаб туради . Предметлараро боғланишни назарда тутган ҳолда бошқа дарсларда ҳам бу турдаги ўйинлардан ҳам кенг фойдаланиш мумкин. Масалан, математика дарсларида ҳам экскурсия материалларидан фойдаланиб, қуйидаги масалаларни ечиб, дидактик ўйинлар ўтказиш мумкин:

1.Ўзбекистон ўрмонзорларида 500 турдаги фойдали ўсимликлар яшайди, бундан ярими шифобахш ўсимликлардир. Ўзбекистон ўрмонзорларида неча тур шифобахш ўсимликлар яшайди? (500:2—250).

Масалани ечгандан кейинагарда ўқитувчи ўша фойдали ўсимликлар, уларнинг йиғиб олиш йулларива инсон учун фойда келтиришлари ҳақида маълумот берса, дарс яна ҳам қизиқарли бўлади, чунки ўқувчи нима учун унинг кераклигини билиб олса, ундан кейин бу ўсимликларни қандай муҳофаза этиш ҳақида ҳам маълумот олиш учун қизиқади.

Ўқитувчи шу ҳолатларда болаларга ҳар томонлама пухта қилиб маълумот бериши керак.

2.Ўзбекистоннинг сув омборларида 100 та ҳар хил турдаги сув ҳайвонлари яшайди, бундан 70 таси ҳар хил турдаги сув ҳайвонлари бўлиб, қолгани балиқ турларидир.Ўзбекистоннинг сўв омборларида неча хил балиқ турлари яшайди? (100 – 70 *30).

Масалани ечиб булгандан кейин балиқ ва унинг хусусиятлари, яшаш муҳити, озикланиши ҳамда инсон учун фойдаси ҳақида ўқитувчи ўқувчиларга маълумот берса янада мақсадга мувофиқ бўлади.

Шунингдек, она тили ва ўқиш дарсларида ҳам бундай ўйинлардан ва экскурсия материалларидан кенг фойдаланиб дарсларни қизиқарли ташкиллаштириш мақсадга мувофиқдир. Бу эса болаларнинг тез-тез табиат билан мулоқотда бўлиши, ижтимоий –фойдали меҳнатга қатнашиш имкониятига эга булишлари учун асосбўлади. ”Гуллар байрами”, “ Қушлар бизнинг дўстимиз”, “Ассалом Наврўзи олам” ва ҳоказо каби қувноқ эрталиклар ва дақиқалар шулар жумласидандир.

Булар ўқувчиларга экологик - эстетик тарбия беришда энг қулай ва муҳим йуллардан биридир.


Шундай қилиб бошланғич синфларда кичик ёшдаги болаларга экологик тарбия беришда, уларнинг онгида экологик тушунчаларни шакллантиришда турли услублардан фойдаланиш мумкин . Юқоридаги фикрларга асосланиб қайд этиш лозимки бошланғич синфларда экологик тарбия интегратив хусусиятларига эга булиб , уни муваффақиятли амалга ошириш ўқитувчидан назарий ва методик жиҳатдан пухта педагогик тайёргарлиги булишини талаб этади.

Адабиётлар:

1. Нуриддинова М.И. ва Турсунов Қ.Н. - Бошланғич таълимда экологик тарбия асослари. Услубий қўлланма. Самарқанд, 2003 йил.

2. Нуриддинова М.И. - Экологической воспитание школьников на уроках “окружающей мир” и “ природоведения”. “Ўзбекистонда таълим тизими ва уни ривожлантириш истикболлари: кадрлар тайёрлаш миллий дастури амалда”.Халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд, 2010 йил 24-25 сентябрь.

3.Нуриддинова М.И. ва Шодиева М. - Особенности экологического воспитания. “ Таълим муаммолари” журнали, № 1, 2014 йил.



ТАСДИҚ ВА ИНКОР ҒАПЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Юсунова О.С. (СамДУ ўқитувчиси, филология фанлари номзоди)
Мўминова Д.(СамДУ филология факультети 4-курс талабаси)*

Воқеликка муносабатни ёки модалликни ифодалаш нуқтаи назаридан ғаплар тасдиқ ва инкор ғапларга бўлинади. Бири ҳаракат ва ҳолат ифодасини тасдиқлайди, иккинчи инкор қилади. 8-синф мактаб дарслигида кесим ва унинг ифодаланиши мавзусида, академик лицейларнинг 2-

босқич талабалари учун нашр этилган «Ҳозирги ўзбек адабий тили» дарслигининг «Бўлишли ва бўлишсизлик шаклларидаги услубий хусусиятлари» мавзусида, 3-босқич талабаларининг «Ҳозирги ўзбек адабий тили» дарслигидаги «Кесим ва унинг ифодаланиши», «Дарак гаплар ва уларнинг услубий хусусиятлари» мавзуларида тасдиқ ва инкор гаплар тилга олинган [7.57;4.227-228;5.47]. Масалан, «Дарак гаплар ва уларнинг услубий хусусиятлари» мавзусида қуйидаги фикрлар берилган: «Бундай гапларнинг характерли хусусияти шундаки, кесими тасдиқ ёки инкор шаклида турган аниқлик майлидаги феъллар билан, баъзан тасдиқ ёки инкор шаклидаги отлар билан ифодаланади; юз берган ёки юз бериши мумкин бўлган воқеа-ҳодисани тасдиқ ёки инкор қилиш йўли билан ифодалайди» [5.105]. Ўқувчида ушбу фикрлар тўлиқ тушунарли бўлиши учун ўқитувчи, аввало, тасдиқ гап ва инкор гап нималигини айтиб ўтиб, айнан шу қоидага мос келадиган мисоллар келтириши зарур.

Ғ.Абдурахмонов, А.Сулаймонов, Х.Холиёров, Ж.Омонтурдиевларнинг «Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис» номли қўлланмасида бу ҳақида қуйидаги фикрлар келтирилган: «Предметда бирор белгининг мавжудлигини ёки бирор иш-ҳаракатнинг юзага келганлигини, юзага келиши мумкинлигини аниқлашга гап тасдиқ гап дейилади. Инкор гап предметда бирор белгининг мавжуд эмаслигини ёки бирор иш-ҳаракатнинг содир бўлмаганлигини, содир бўлиши мўлжалланмаганлигини аниқлади» [1.36]. Йўлакдаги илгакда осиглиқ турган пахтали чопонини кийиб, бошига пахмоқ рўмол ўради (Ў.Ҳошимов. Тушда кечган умрлар. – Т.: «Шарқ», 1994 .-б.330-б.6).1Демак, Шоматов ўз жонига қасд қилган, демоқчими экспертизангиз? – Бу – аниқ хулоса эмас(25).

Аслида тасдиқ ва инкор шакли фақат дарак гапларда эмас, гапнинг ҳамма турида мавжуд. «Гапнинг тасдиқ ёки инкор формада бўлиши унинг ҳамма турига хос. Лекин логик жиҳатдан қараганда тасдиқ ва инкор ҳодисаси хабар беришнинг энг характерли хусусиятидир. Бу жиҳатдан унинг дарак гап билан яна ҳам зич боғлиқ эканлиги аниқлашади [8.49]. Шу сабабдан лицей дарслигида дарак гап мавзусида тасдиқ ва инкор шаклларига эътибор қаратилган. Бироқ сўроқ, буйруқ, истак ва ҳатто ундов гапларда тасдиқ ва инкор шакли мавжудлигини ўқитувчи таъкидлаб ўтиши зарур.

Сўроқ гапларда ҳам тасдиқ ва инкор шакли бўлади. Чунки нутқ жараёнида шахс, нарса, уларнинг белги-хусусиятларини, ҳаракат-ҳолатнинг бажарилишини аниқлаш баробаридабажарилмаслигини аниқлаш ҳам зарур бўлади: Бўлмаса нега аризангизни қайтариб олдингиз? Нима учун экспертизага бормадингиз?(38) каби. Баъзан ёзувчи қаҳрамон нутқини индивидуаллаштириш учун тасдиқ сўроқ гап ўрнида инкор сўроқ гапдан фойдаланиши мумкин. Масалан, Ў.Ҳошимовнинг «Тушда кечган умрлар» асаридаги терговчи нутқида худди шу ҳолатни кўрамыз:

– Уйингизга бирон шубҳали одам келмадимми? – Йўқ. – Биронта қўшни билан сан-манга борганмисизлар? – Йўқ. – Эрингиз, мабодо, кечаси ташқарига чиқмадимми? – Йўқ. (19) ёки тасдиқ модал сўз ўрнида инкор модал сўздан фойдаланиш кузатилади. Бу асарнинг ўзига хослигини акс эттириш билан бирга унинг жонлилигини ҳам таъминлаган. Сўзлашув услубида, бадиий асарларда таъкидлаш, эмоционал-экспрессивликни ошириш мақсадида сўроқ гапнинг тасдиқ ва инкор шакли ёнма-ён келиши мумкин: Эй! Шовқин-суронингни тўхтатасанми-йўқми? (21) – Эй! Тинчлик борми-йўқми? Ярим кеча бўляпти. (43)

Риторик сўроқ гапларда эса вазият ўзгаради. Шаклан тасдиқ шаклидаги сўроқ гап мазмунан инкорни, инкор кўринишидаги сўроқ гап тасдиқни аниқлади: Кўздек қўшнининг тўйига чиқмасанглар, уят бўлмайдими? (20) Мен сенинг хуторингга бориб тўй қиялманми? (22)

Буйруқ гапларнинг тасдиқ шакли ҳаракатни бажаришга даъват этади, инкор шакли эса ҳаракатнинг бажарилишини тақиқлайди: – Барибир сени каматаман! Қамата қол! – Рустам негадир қулди. – Эшитиб қўй, – деди таъкидлаб. – Ҳамманинг олдида айтялман. Ернинг тагидан бўлсаям топаман-да, сўйиб кетаман! (23) – Йўқ, опа! Сиз кетмайсиз! – Қизиқ йигит экан-ку, бу! – Дўхтир нажот кутгандек атрофга аланглади. (18)

3-босқич талабаларининг «Ҳозирги ўзбек адабий тили» дарслигидаги «Буйруқ ҳамда истак гаплар ва уларнинг услубий хусусиятлари» мавзусида ҳам инкор шаклидаги буйруқ гапга мисол берилган. Чекманг, чекилмасин [5. 109].

Шу дарсликда кесими шарт-истак майлидаги феъллар билан ифодаланган гаплар истак гаплар дейилиши айтилган.[5.110.] Бироқ истак гапларнинг инкор шакли тасдиқ шаклига нисбатан камроқ. Аслини олганда истак гаплар, асосан, сўзлашув ва бадиий услубда учрайди. Қизиқ,

¹Кейинги мисоллар ҳам шу асардан олинди.

уввалло уринадики, кани ақалли бир кулоч сурилса!(34) Сув! Бир култум, ақалли бир култум муздеккина сув бўлса-чи! (73) Қанийди, менга шундоқ келин ато қилса. (89) Аммо айрим ҳолларда истак гапнинг инкор шакли ҳам учраб қолади: Қанақа одам бу? Мен такси чақирган бўлмасам! (153)

Ундов гапларда ҳам инкор ва тасдиқ риторик сўроқ гаплар сингари шаклланади. Эмоционал-экспрессивликни ошириш учун ундов гаплар тасдиқ орқали инкор, инкор орқали тасдиқ шаклида бўлади: Онангни куйдирма. Тез-тез хат ёзгин. Онанг шўрлик бу дунёга келиб, нима рўшнолик кўрди!..(88) Эҳ-хе! Беш йил урушда юриб нималарни кўрмади бу бош!(59)

«Баъзан гапнинг инкор шакли орқали тасдиқ маъноси ифодаланади. Бундай вақтда иккита инкор шакли қўлланилиб, гапга тасдиқ маъносини беради. Инкор шакли орқали ифодаланган тасдиқ маъноси тасдиқ шакли орқали ифодаланган тасдиқ маъносидан кучлироқ бўлади» [5.106]. Маузер ўз киндигини ўзи кесган хилидан. Қиламан деган ишини қилмай кўймайди.(137) Бундан ташқари тасдиқ орқали инкор гап ҳам шаклланиши мумкин: Заводда эртадан кечгача ҳўкиздек ишлаб, уч юз сўм маош олиб кўр-чи, минг кишини тўплаб тўй қила олармикансан.(41) Айрим ҳолларда инкор орқали тасдиқ, тасдиқ орқали инкор шакли оҳанг ёрдамида ҳам ҳосил бўлиши мумкин. Бу ҳолат ҳам сўзлашув ва бадий услубда юз беради: «Кўркмас экансан-а!» деб ўйлади Гриша мамнун бўлиб. Қани, айт гапнинг бўлса, дегандек очик дераза олдида пойлаб турди.(43) Хех! Бир камии салла ўраб намоз ўқиши қолувди. Комиссар Ғаниев намоз ўқиса! (145)

Хуллас, тасдиқ ва инкор гаплар гапнинг барча турларида мавжуд бўлиб, турли воситалар ёрдамида ҳосил бўлади. Бу воситалар, уларни қўллаш вазилавий услублар талаби билан ёки ижодкорнинг услуби, сўзловчининг мақсади билан характерланади.

Адабиётлар:

1. Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). Т.: Ўқитувчи. 1979.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. - Самарқанд: «Зарафшон», 1992. Б.80.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи. 1995.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 2-bosqich talabalari uchun darslik) Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. – B.227-228.
5. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 3-bosqich talabalari uchun darslik) Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. – B.47.
6. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент: Фан, 1991. – 161б.
7. Qodirov M., Ne'matov N., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. (8-sinf uchun darslik) Toshkent, 2010. – B.57.
8. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис. Т.: Ўқитувчи. 1987.



INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Charos Abduraxmonova

- SamDU HXTXQTMO hududiy markaz o'qituvchisi

Mamlakatimizda maxsus ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning mohiyati imkoniyati cheklangan bolalarni erta jamiyatga uyg'unlashtirishning mazmuni, shakl va vositalari hamda samarali yo'llarini aniqlash, amaliyotga tatbiq etish bilan tavsiflanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom farzandlarimiz qatorida tegishli huquq va imkoniyatlardan to'laqonli foydalana olishi, jamiyatimizning barcha sohalarida imkoniyati darajasida ishtirok etishi, yangi avlodning haqli bir vakili sifatida tarbiyalanishida ta'lim turi va shaklining to'g'ri belgilanishi muhimdir. Zero, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy hayot talabiga mos shaxs sifatida ta'lim va tarbiya olishi ta'lim mazmunining bola shaxsi va imkoniyatiga yo'naltirilganligiga bog'liqdir.

Keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizda Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan bir safda sifatli va imkoniyatlariga mos ta'lim olishini ta'minlash ozasidan qator loyihalar, tadqiqotlar amalga oshirildiki, ularning natijalari yakdillik bilan inklyuziv ta'limning ijtimoiy amaliy ahamiyatini asoslab zerdi. O'z - o'zidan savol tug'iladi: Bu ta'lim shakli kimga nima beradi?

Buning amliy yechimi shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar bilan umumiy ta'lim muhitida ta'lim olishi va tarbiyalanishi mazkur bolalarning ijtimoiy hayotning inson oldiga qo'yayotgan bugungi talablariga moslashishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxurlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv -jalb etish degan ma'noni anglatadi, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan uzaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bulsa, dastur va rejani qisman uzgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Xar bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bulib, u gurux tarbiyachisiga maslahatlar beradi va kumaklashadi: maxsus uqitish uskunalari, aparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari utkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bulsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim maxoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi.

Hozirgi kunda rivojlanishida kamchiligi bor bolalar ta'lim tizimi quyidagi turlarda amalga oshirilmoqda:

1. Bolalarning cheklangan imkoniyatlariga moslashtirilgan va itisoslashtirilgan ta'lim muassasalari: maxsus maktab - internatlar va bog'chalar.

2. Umumta'lim muassasalari qoshida maxsus guruhlar.

3. Imkoniyati sog'lom tengdoshlari qatorida ta'lim olishga mos keladigan farzandlarimizning o'zi yashab turgan manzilga yaqin umumta'lim bog'chalari va maktablarida ta'lim-tarbiya olishi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin. Funktsional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funktsional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun aloxida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik tugarak va sportga jalb etish foydalidir. Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni uzaro dustlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bulishga o'rgatadi. Jamiyat nogiron kishilarga tug'ri munosabatda bulishi kerak. Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amhurlik kursatiladi.

Integratsiyalashgan - mujassam, ajratib brlmaydigan qism degan ma'noni bildiradi. Xar bir bola ta'limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqqa ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

Korreksion pedagogika fanida aloxida yordamga muxtoj - anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi: Ular quyidagilardir:

1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);

2) ko'rish qobiliyati zaif (kur, zaif ko'ruvchi bolalar);

3) oligofren (debil, imbetsil, idiot bolalar);

4) og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bulgan bolalar;

6) ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.

7) kompleks nuqsonli kur-kar-soqov bolalar;

Anomal bolalar sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlarga uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsu-yu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy maktab sog'lom tengdoshlari qatori uzlashtiradigan bulsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday

bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida xamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular aloxida yordamga muhtoj.

Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, notug'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa kurgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi uzlashtira olmasligiga, ulgurmovchi uquvchilar orasiga qo'shib qolishiga sabab buladi. Shunday bulsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bulmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni anomal bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan xomilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi xomilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning xomiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi, bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaifliklarning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. To'g'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning ijtimoiy, didaktik, pedagogik, psixologik tadbirlarni amalga oshirsak, quyidagi natijalarga erishamiz:

imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallalarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;

imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o'rtasida teng huquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi;

maxsus ehtiyojli bolaga o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;

jamiyat yanada uyg'unlashadi;

barcha uchun ta'lim sifati yanada yaxshilanadi;


imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;

imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.

Adabiyotlar

R. Mavlonova Boshlangich talimning integratsiyalashgan pedagogikasi 2009, 6-7 b.

J. Yuldashev, Sh. Yuldasheva Intefaol talim sifat kafolatlari, 2009, 16 b.



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI UZLUKSIZ TA'LIMNING BIRLAMCHI, ENG ASOSIY BO'G'INIDIR

*Aziza Qudratova -SamDUQXTXQTMOMX
Firuza Qudratova -Pastdarg'om tumani "Shirintoy" MTM*

*Har bir insonning qalbid a
quyosh yashiringan faqat uning
porlashiga yo'l berish kerak.
Suqrot*

Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi", deb ta'kidladi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi —Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi —Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Farmoni hamda — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi PQ-3305-sonli Qarori imzolandi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2017 yil 9 - iyundagi 5-mh-son buyrug'iga asosida maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari tasdiqlandi.

Ushbu me'yoriy hujjatlardan ko'zlangan asosiy maqsad Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini,

jihozlanishini yaxshilash, eng asosiysi bolajonlarimizning barkamol, sog'lom bo'lib rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqoridagi me'yoriy xujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalariga qo'yidagi vazifalarni quyadi::

bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash;

bolalarning sog'lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash hamda unda o'qishga intilish hissini uyg'otish;

bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta'limni tashkil etish;

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;

bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko'maklashish;

bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg'otish hamda rivojlantirish;

bolalarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirish;

bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish;

bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish;

bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Bu vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida Evropa davlatlari, Yaponiya, Koreya va boshqa taraqqiy etgan mamalakatlarining tajribalari o'rganilib, milliy qadriyatlarimiz urf-odatlarimiz bilan o'yg'unlikda ta'lim faoliyatiga singdirilmoqda.


Maktabgacha ta'lim muassasalarini oily ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Respublikamiz barcha viloyatlarida Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy (XTXQTMOMX) markazlarida "Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari" yunalishida qayta tayyorlov kurslari ochildi. Maqsad maktabgacha ta'lim

muassasalarini oily ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash va tarbiyachilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini malaka talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish. Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi javobgarlik ma'suliyati kattadir. Shunga ko'ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayyotda ular bilan bo'ladigan muomilada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy sifatlarini, qiziqishlarini bilishi, bolaning oilaviy sharoiti bilan qiziqishi lozim hisoblanadi.

Ijodkor, tajribali, hamisha izlanishda bo'lgan tarbiyachilarning ish tajribalarini hamkasblari o'rtasida targ'ibot qilish, ommalashtirish maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun muassasa miqiyosida "Yilning ijodkor tarbiyachisi", "Yilning tashabuskor tarbiyachisi", "Eng faol guruh tarbiyachisi", "Eng yaxshi mashg'ulot", "Eng yaxshi tadbir", "Sport musobaqasi", "Eng chiroyli aplikasiya ishi", "Kim topqiru, kim chaqqon" va boshqa tanlovlarni o'tkazilishini rejalashtirish va xoxlovchilarnigina emas balki barcha tarbiyachilar ishtirokini ta'minlash kerak. Chunki raqobat jarayonida tarbiyachi o'z o'stida ishlaydi, izlanadi, ilg'or va tajribali hamkasblarning ish faoliyatlarini o'rganib, o'zi uchun ko'p yangiliklarni kashf etadi. Bu jarayonni tuman (shahar), viloyat, respublika miqiyosida davom ettirilishi tarbiyachilarni yanada ko'proq izlanishga, adabiyotlar va internet resurslaridan foydalanishga undaydi. Muassasa miqiyosida tarbiyachi o'zi uchun o'zi izlangan bo'lsa, keyingi bosqichda hamkasbi uchun butun jamoa birgalikda harakat qiladi.

Ilg'or ish tajribalarni targ'ibot qilish va ommalashtirishning yana bir yo'li doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida faoliyati natijalarini chop qilib boorish. Chop qilingan maqolalarga o'z fikrlarini bildib, jamoada muhokama qilishdir. Internet keng imkoniyatlarmanbai bo'lib, butunjahonkompyutertarmoqlarimajmuidir, ya'niyagonastandartasosidafaoliyatko'rsatuvchijaxonglobalkompyutertarmog'idir. Internet orqali butun jahon ilg'or pedagog tarbiyachilar tajribalari bilan tanishish va o'z yutuqlari bilan bo'lishish imkoniyati bor. Ish tajribasini umumlashtirishi, uni taqdim qilib boshqalarga yetkaza olishi – maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining kompetentlik darajasi ko'rsatkichi hisoblanadi. "Eng yaxshi bilimlarni o'zlashtirish va eng yaxshi ishlarni qilishni o'rgatadigan ta'lim maskani baxtlidir" – deydi A. Komenskiy.

Biz ozod va obod yurt farzandlarimiz. Uni shundayligicha saqlab qolishimiz va yanada taraqqiy ettirib, jahon miqiyosiga olib chiqishga barcha sharoit va imkoniyatlarimiz bor. Mustaqil fikrlaydigan, milliy qadriyatlarimizni, ajdodlar me'rosini qadrlaydigan, ijodkor, izlanuchan, tadqiqotch, kashfiyotch yoshlarni tarbiyalashda hissamizni qo'shish bizning vazifamiz.



БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИДАН СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРНИНГ ЎРНИ

Г.Эргашева – СамДУХХТХҚТМОХ маркази ўқитувчиси

Ёш авлодни ҳозирги замон фани асослари билан қуроллантириш орқали уларнинг ақлий жиҳатдан максимал даражада ривожланишларига эришиш умумтаълим мактаблари олдида турган энг муҳим вазифалардан биридир.

Ўқувчилар юқори синфларда математика, физика, химия ва бошқа фанларни яхши ўзлаштиришлари учун бошланғич синфларда математика фанини пухта эгаллаши ва амалий кўникмалар ҳосил қилишлари керак. Бошланғич синф ўқувчиларнинг маълумотини ошириш ва дарсларни ўзлаштириш даражасини кўтаришга кўмаклашиши учун, бошланғич мактабда синф машғулотлари билан бир қаторда синфдан ташқари ишларни ҳам ўтказиш зарур.

Синфдан ташқари ва мактабдан ташқари ишлар болалар билан олиб бориладиган таълим-тарбия ишларининг ажралмас қисми бўлиши билан бирга, ўқувчиларнинг билимга ва меҳнатга бўлган ҳавасларини ортиради, шунингдек, ўзлаштириш сифатини оширишга ва ҳулқини яхшилашга таъсир этади. Математикадан синфдан ташқари машғулотлар деганда, ўқувчиларнинг математик билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш мақсадида ташкил қилинган машғулотларни тушунамиз.

Синфдан ташқари ишнинг асосий мақсади ўқувчилардаги фанга бўлган қизиқишни ривожлантириш, уларнинг дарсда олган билимларини тўлдирувчи ва чуқурлаштирувчи математик билим, малака ва кўникмалар билан қуроллантиришдан иборат.

Умуман, бошланғич мактабда синфдан ташқари ишлар синф ишлари билан мустаҳкам боғланган бўлиб, синф ишларининг давоми бўлади, айрим вақтларда эса уни чуқурлаштиради.

Синфдан ташқари ишларнинг икки турини бир-биридан фарқлаш лозим. Унинг биринчиси дастур материални ўзлаштиришда орқада қоладиган ўқувчилар билан ишлаш, бунга қўшимча дарс ва маслаҳатлар киради. Иккинчиси, математикани ўрганишга қизиқувчи ўқувчилар билан ўтказиладиган машғулотлар.

Бу мақсадларнинг бир қисми дарс пайтида амалга оширилади, аммо дарс вақти чегараланганидан, унинг анчагина қисмини синфдан ташқари машғулотларда амалга оширишга туғри келади. Мактаб тажрибасида математикадан кичик ёшдаги ўқувчилар билан бажариладиган синфдан ташқари ишларнинг қуйидаги турлари учрайди:

- қизиқарли математика соатлари ва минутлари;
- математик тўғарақлар уюштириш;
- математика газетаси чиқариш;
- экскурсия ўтказиш;
- математик бурчак ташкил қилиш;
- математика кечалари ўтказиш;
- бошланғич мактабларда математика олимпиадаси ўтказиш.

Оғзаки ҳисоб кўпинча синфдаги ҳамма ўқувчиларнинг «яна, яна» деган истаклари билан ўтказилади. Ўқувчиларнинг талабига кўра, дарсда бошланган ишларнинг давомини дасрдан ташқари вақтга кўчириш мумкин. Ўқувчилар билан ўтказиладиган синфдан ташқари машғулотларни олдин уларнинг талабига кўра, сўнгра ечиладиган мисол, масалалар, ўйин ва қизиқишнинг ортиришга қараб ойда икки марта системали ўтказиб туриш мумкин. Қуйида сизларга бир қанча машғулотлардан намуналар келтирилган:

I. Уйлаб топ. Учта ғоз бизнинг устимиздан учди. Яна учтаси булут устидан учди. Иккитаси сув буйига тушди. Бу ғозларнинг нечтаси ҳавода қолди?

II. Қуйидаги топишмоқларни топинг ва қизиқарли масалалар ечинг.

Йўлимни ёритар икки чирокча, чирокча устида пилик қаламча. Булар нима? (кўз, қош).

Иккита учи бору, иккита ҳалқаси, ўртасида эса битта миҳчаси. Бу нима? (қайчи).

Битта тарелка ичида тўртта конфет бор, бу конфетларни 4 ўқувчига биттадан беринг ва тарелка ичида битта конфет қолсин. (бир ўқувчига конфет тарелкаси билан берилади).

Менинг саккизта ошнам, ҳаммаси ҳам мендан кам. Сен ўнгача санасанг, мени айтмай қўймайсан. (тўққиз).

Шеър билан айтилган масалани эшитинг ва балиқчилар нечта балиқ тутганини ҳисобланг.

Султон тутди – 13 чўртан,


Аъзам тутди – 4 сазан,

Болта тутди – 2 лаққа.

Неча балиқ чиқди қиргоққа. (Жавоби – 19 балиқ).

Математика фанидан синфдан ташқари ишларни ташкил этишда математика бурчагининг бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Математика бурчагида синфда синфдан ташқари ишларнинг натижалари тўпланади. Математика бурчагини ташкил қилишнинг ўқувчилар ва ота-оналарнинг фаолқатнашувида ўқувчи амалга оширади. Булардан ташқари, математик бурчакда масала, мисол ва турли машқларни ечиш учун топшириқлар ёзилган, чиройли безалган жадвал бўлади. Бу ўқувчиларга синфдан ташқари ишлар орасида янги топшириқлар олиш ва уларни бажариш имконини беради. Ушбу жадвалга диққатни жалб қиладиган математик номлар берилади.

Юқорида кўрсатиб ўтилган машғулотларнинг барчаси ўқувчиларни мустақил фикрлашга ва дунёқарашининг кенгайишига олиб келади. Демак, синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларнинг онги ва тафаккури ривожланади, дунёқарашини кенгайтади.



ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Махмудова М.М - СамДЧТИ профессори, пед. фан. док.

Азизова Г.Г - СамДУ ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази ўқитувчиси

Бугунги кунда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури мамлакатимиз иқтисодиёти ва ҳаётининг барча жабҳалари учун юқори малакали, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, таълим, илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг самарали интеграциясини таъминлаш, ёшларни миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида маънавий-ахлоқий тарбиялаш, шунингдек, ўзаро манфаатли халқаро ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган яхлит ўқув-илмий-ишлаб чиқариш комплекси сифатида таълим тизимини босқичма-босқич такомиллаштириш вазифасини муваффақиятли ҳал этишга хизмат қилмоқда.

Шунга қўра, олий таълим тизимида инглиз тили ўқитувчиларининг фаолиятини ташкил қилишда хориж тажрибаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Масалан, биргина 2015 йилнинг декабрь ойига дунё бўйлаб юздан ортиқ таълим масалаларига оид халқаро миқёсидаги анжуманлар режалаштирилган бўлиб, уларнинг ичида Словакияда ўтказиладиган тилларни ўқитиш ва таълим муаммоларини ўрганиш анжумани (CLEaR2015: International Conference on Language Education and Research), Польшада Варшава шаҳрида ўтказиладиган мазкур анжуман ва кўргазмалар натижасида чиқарилган асосий ҳулоса шундан иборатки, янги ахборот технологияларини олий таълимга ва ишлаб чиқариш жараёнига қўллаш сабабли таълим сифати, унинг индивидуаллашувини таъминламоқда ҳамда жамиятнинг ахборотлашув босқичига ўтишини жадаллаштирмоқда.

Шу билан бирга, айнан мустақиллик йилларида расмий таълим билан биргаликда тилларни ўқитишда норасмий марказлар кўплаб очилди ва улар кенг фаолият олиб бормоқда. Кўпчилик хорижий давлатларнинг элчихоналари қошида тил ўқитиш марказлари ҳам очилган бўлиб, улар истак билдирилганлар сафидан эшитувчиларни қабул қилиб, ўз мамлақати тилига ўқита бошлади. Мана шундай тил марказлари Корея, Япония, Ҳиндистон, Хитой, АҚШ, Буюк Британия, Франция ва бошқа элчихоналарда фаолият олиб бормоқда. Элчихоналар таркибида тиллар бўйича турли “тил билимдонлиги” танловлари, хорижий стажировкалар, чет элга ўқишга жўнатиш кабиларни мунтазам ўтказиш анъанага айланган. Мана шундай дастурлардан Япониянинг JUCA ташкилоти, Жанубий Кореянинг KOICA ташкилоти, Буюк Британиянинг BRITISH COUNCIL ташкилоти, АҚШларининг EDUCATION EXCHANGE дастурларини, шунингдек Франция, Ҳиндистон, Хитой, Малайзия, араб давлатлари элчихоналарининг махсус таълимий дастурларини санаб ўтиш мумкин.

Хориж тажрибаларини ўрганиш мобайнида олий таълим тизимида ўқитувчилар чет тилларини ўргатишда бир қанча методикаларни яратишган. Шулардан бири—“Тил портфеллари” деб номланади.

Тил портфеллари. 2010-2011 йилларда таҳсил олувчиларнинг чет тилларни ўзлаштиришларига қулайлик туғдириш мақсадида махсус тил портфеллари методикаси Евро Иттифоқ амалиётига киритилган эди. Ҳозирда мана шундай тил портфеллари кенг ривож топмоқда. Яъни ҳар бир ўқувчининг хорижий тил бўйича ўқиган ва ишлаб чиққан материаллари мазкур портфелга жамланади. Мана шундай тил портфелларининг энг муҳим жиҳати шундаки, ўқувчининг ўзи мустақил равишда ўз тил билиш динамикасини кузатиб бориши, зарур ўринларда тил билиш малакасини кучайтириш зарурлигини англаши имконияти туғилади. Тил портфеллари кейинчалик ўқувчининг мустақил ўқув воситасига айлана боради ҳамда унинг ўқиш ва таълим олиши жараёнига бевосита алоқадорлиги ва манфаатдорлигини таъминловчи бош унсурга айланади.

“Ўз кўли билан амалий қилиб кўриш” бўйича Д.Дьюи мактаби (АҚШ) таълим жараёнини ўқувчиларнинг кундалик ҳаёти, уларнинг қизиқишлари ва эҳтиёжларига яқинлаштиришга сайи-ҳаракат қилган, шу боис ўқувчиларда табиий ривожланиш жараёни тарафдори сифатида ўз таълимотини тарқатган. Таълим жараёнида ўқувчининг табиий импульслари, яъни:

- а) ижтимоий импульси (фикр алмашиш ва мулоқот қилиш эҳтиёжи);
- б) конструктив импульс (ўйин билан машғул бўлиш ва ўйиндаги ҳаракатлар асосида зарур билимларни эгаллаш);
- с) тадқиқ қилиш импульси (ҳамма нарсага қизиқиш, ҳамма нарсани билишга бўлган жуда кучли эҳтиёж);

д) экспрессив импульс (ўзи ва ўз қарашларини ифодалашга бўлган эҳтиёж, ўзини кўрсатиш ва ўз ўрнига эга бўлиш сайи-ҳаракатлари) атрофида таълим жараёнини ташкил қила билишдан иборат қилиб белгиланган.

Вальдорф мактаблари (Рудольф Штайнер, Германия). Биринчи Вальдорф мактаблари 1919 йилда ташкил қилинади. Бугунги кунда мана шундай Вальдорф таълими 60 мамлакатнинг 950 бошланғич таълим мактаблари ва 1400 дан ортиқ мактабгача таълим муассасаларида олиб борилади. Вальдорф мактаблари дунё микёсидаги энг кенг тарқалган хусусий таълим бериш усулларидан саналади. Улар боланинг табиий қизиқишларидан олдинга ўтиб кетмаслик, табиий ривожланиш омилларини сунъий тарзда ўстирмаслик принциплари асосида ишлайдилар. Агар метод энди ташкил топганида унинг тарафдорлари фақат ўнлаб мактаблардан иборат бўлган бўлса, 1975 йиллари мактаб тарафдорлари 100 дан ошган бўлса, 2005 йилга келиб мана шундай мактаб тарафдорлари минглаб мактаблардан иборат бўлган.

Бундай мактабларда ҳар қандай ўқув материали асосий уч блок асосида берилади. Яъни:

-маънавий блок (талаба фаол равишда мантиқий тафаккур қилиш, фикрлаш ва мулоҳазакорликка ўргатилади);

-руҳий-психологик блок (талабанинг хиссий-эмоционал ўсишини таъминлайдиган музика ва рақсга кенг ўрин берилади);

-ижодий-креатив ва амалий блок (энг аввало талаба турли ижодий муаммоларни ечимга олиб келишга амалий жиҳатдан ўргатилади, масалан тикиш, бўяш, расм чизиш, наққошлик) в.б,

Гипнопедия (қадимги грекча – уйқу ва ўқитмоқ сўзларидан олинган) табиий уйқу шароитида маълум бир ахборотларни мияга етказиш ва узатиш методикаси. Ахборотларни узатиш бирор бир шахс, ёки магнит лентаси орқали юборилади. Гипнопедияга нисбатан икки қарама-қарши муносабат мавжуд. Бир томондан, баъзи олимлар унинг имкониятларига жуда ишонмасдан, шубҳа билан қарайдилар. Иккинчи турдаги олимлар эса, гипнопедия ахборот технологиялари ривожини билан ахборот узатишнинг энг мақбул, кам харж, сифатли ва самарали усули бўлиб қолишига комил ишонч билдирадилар. Бироқ бугунги кунда гипнопедиянинг кенг ва турли предметларни ўқитишдаги ўрни ҳақида гапиришга ҳали эрта. Аслида уйқуда маълум бир ахборотларни ухлаётган одам тафаккури ва хотирасига узатиш амалиёти қадимдан мавжуд бўлган. Масалан, қадимги йогалар ва фақирлар Ҳиндистонда, лебашлар Эфиопияда, шунингдек будда монахлари бу усулни кўп қўллаганлар. Замоनावий илмда эса усулни биринчи бор 1923 йилда АҚШ да Д.А.Финней деган педагог томонидан Пенсаколадаги денгиз мактабида қўллаганлиги ҳақидаги ахборотлар расмий газеталарда сақланиб қолган. Собик Совет Иттифоқида бу усул билан махсус шуғилланишган.

Шу боис, 1936 йилда А.М.Святош деган киши амалий тажрибалар ўтказган. Гипнопедияга нисбатан сўнгги энг йирик қизиқишлардан бири ўтган асрнинг 50-60 йилларида келиб чиқди. Гипнопедиянинг ёрқин тарафдорларидан Киевлик олим Леонид Близниченко инглиз тилидаги сўзларни эслаб қолишда гипнопедиянинг имкониятларини таҳлил қилиб чиққан. Бу масалада кўпроқ эътибор хорижий тил фонетикасига, яъни тўғри талаффуз қилиш қаратилган. Киев Олий муҳандислик радиотехник училишисида ташкил қилинган тажриба синови ишлари асосида талабаларда инглиз тили фонетикаси бўйича муаммолар бўлмаган ва ўқувчилар жуда тез ва энгил лексикасини ўрганиш ва хотирада сақлаб қолишга ўрганганлар. Гипнопедия бўлган замоनावий баҳо шундан иборатки, унинг усулларини чет тилини бир бошдан ва тамомила ўрганишда мазкур методни қўллаб бўлмайди, бироқ тафаккур ости ва хотира билан боғлиқ равишда мазкур методикани қўшимча усул сифатида қўллаш мумкин. Яъни гипнопедия хорижий тилларни ўргатувчи методика эмас, балки хорижий тилни ўрганишда унинг товушлар қатлами ва лексик қатламини билиш ва қабул қилишни энгиллаштирувчи усул саналади.


Таҳлиллардан маълум бўлишича чет тилларни ўқитиш жараёнини мутлақо инновацион омилсиз ташкил этиб бўлмайди. Шу сабабли хориждаги самарали методикаларни ўрганиш ва шу асосида ўқитувчининг инновацион педагогик фаолиятини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Бинобарин мамлакатимизда чет тилларни ўқитишда янги сифат ўзгаришлари босқичида ёшларни рақобатбардош мутахассислар сифатида мамлакат иқтисодиётини ўстиришга мақсадли тайёрлаш замон талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, “Баркамол авлод Ўзбекистон тараққийотининг пойдевори”, - Тошкент: Шарк, 1997й

2. “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 10 декабрдаги қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 25 мартдаги “Умумтаълим муассасалари чет тиллари ўқитувчиларининг малакаси ва касбий маҳоратини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 67-сонли қарори.



БОЛАЛАРДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ АСОСИДА ИЖОДКОРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

*З.Қаршиева - СамДУХХТХҚТМОҲ маркази
маркази ўқитувчиси*

Мактабгача таълим узлуксиз тизимининг бошланғич босқичи ҳисобланади ҳамда Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги , “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” қонунинг талаби асосида ташкил этилади. Мактабгача таълимнинг вазифаси соғлом ҳар томонлама етук болаларни тарбиялаш учун зарур булган ташкилий –услугий психологик педагогик шарт-шароитлар яратиш болаларни мактабда мунтазам таълим олишга тайёрлашда ота-оналарга ёрдам беришдан иборатдир.

Мактабгача ёшдаги болаларга таълим тарбия беришдан асосий мақсад ва вазифалари болаларни жисмоний ва ақлий жиҳатдан ривожлантириш уларнинг руҳияти шахсий қобилятлари интилиш ва эҳтиёжларини қондириш миллий ва умуминсоний қадриятларига мустақиллик ғояларига содиқ ҳолда вояга етказиб беришни таъминлаш уларни мактабгача ёшдаги болалар таълим – тарбиясига қуйилган давлат талабларига мувофиқ мактаб таълимига тайёрлашдан иборат.

Маълумки бола дунёга келган кундан бошлаб давлат ва жамият ҳамда

ота-она зиммасига уни соғлом ақлли хушхулқли қилиб тарбиялаш вазифаси қўйилади.

Давлат ва жамиятнинг келажакдаги ёш авлодни қандай вояга етказишга кўп жиҳатдан боғлиқдир. Ўз навбатида жамият тараққиёти миллатнинг маънавий даражаси билан белгиланади.

Таъкидлаш лозимки 80 –йиллардан бошлаб мактабгача таълим тизимида предметли йўналиш вужудга келди. Бу ўз навбатида мактабгача таълим муассасалари учун муайян ўқув предметлар бўйича дастурлар яратишга асос бўлди. Бироқ предметли таълим ўзининг мазмунига кўра тобора мураккаблашиб мактабгача таълимга яқинлашиб қолди. Натижада боланинг уйин фаолиятига асосланган ривожланиш жараёни унинг руҳий ривожланиш билан номувофиқ тарзда мураккаб таълим жараёни билан алмаштирилди. Мактабгача таълим муассасалари учун нашр этилган ўқув адабиётлари билан танишар эканмиз бу соҳада кичкинтой тарбиясига бағишланган ўқув адабиётлари дарслик қўлланмалар оилада фойдаланиш учун махсус қўлланмалар етарли эмаслиги кўзга ташланади. Айниқса мактабгача катта ёшдаги болаларда тасвирий санъат воситасида ижодкорликни шакллантиришга бағишланган ўқув адабиётлар йўқ ҳисобида.

Республикамизда мактабгача таълим муассасалари учун замон талабига жавоб берадиган ўқув педагогик адабиётларни кўпроқ яратиш бугунги куннинг долзарб вазифаси бўлиб қолмоқда. “Мактабгача таълимга қўйиладиган давлат талаблари”да болаларнинг маънавий –маданий етуклиги масаласига ҳам катта эътибор қаратилган ва минимал талаблар белгиланган. Унда мактабгача таълим муассасаларида тарбияланувчиларнинг эстетик тарбияси ҳақида қўйдаги талаблар таъкидланади;

-тасвирий санъат асарларидан завқлана олиш;

-ранглардан ок қора қизил сарик яшил хаво ранг бинафша рангларнинг номини билиши ва уларни бир –бирдан фарқлай олиш;


-қалам ва буёқдан фойдалана олиш;

-қоғоз ва картон билан ишлай олиш ;

-қоғозга тик ва ётик чизиқларни ва олиш;

-аслига қараб ва лойдан мева сабзавот ва турли уйинчоқларни ясай олиш;

Ушбу талабларни бажара олиш мактабгача катта ёшдаги болаларда тасвирий санъат намуналари воситасида ижодкорлик тарбиясини шакллантириш кўникма ва малакаларини ҳосил қилади ва уларнинг мактабдаги фаолиятларида бу кўникма ва малакалар янада ривожланиб боради.



TA'LIM JARAYONIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI

*Xo'jaqulov Sh.O. SamDUHXTXQTMOHM
Eshmurodova D.X. Siyob tibbiyot kolleji*

O'zbekiston Hukumati oliy va xalq ta'limni takomillashtirish, rivojlantirish va tub maqsadlarini aniqlab berish masalalariga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun amalda o'z natijasini bermoqda. Kadrlar tayyorlash milliy modeli, bu – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi. Shunga mos ravishda davlat ta'lim standartlarining, o'quv rejalari va fanlar bo'yicha o'quv dasturlarining hamda o'quv adabiyotlarning yangi avlodi yaratilmoqda. Bunda dunyoning rivojlangan davlatlarida to'plangan taraqqiyparvar tajribalardan ham unumli foydalanilmoqda.

Boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va tavsifiga ko'ra jamiyat xayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga egadir. Insoniyat fantexnika, iqtisodiyot va ijtimoiy yutuqlarini qanchalik ko'paytirib borsa, boshqaruv faoliyatining shunchalik ilmga bo'lgan talabi to'xtovsiz oshib borishi sodir bo'ladi. Boshqaruvning mohiyati obyektiv va subyektiv sharoitlarni qo'yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan nisbat va munosabatda bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Kadrlar tayyorlashning milliy modelida davlat ta'lim standartlari eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham ta'limning maqsad va qimmatini, uning mazmuni va natijalarini, ta'lim kasb dasturlarining asosiy tavsifini, ta'lim jarayoninig shakliy tuzilishini, uning ko'lami va muvaqqat tuzilmasini bosqichma-bosqich hamda yakuniy istiqboliga yo'nalganligi, ta'lim va bilimlilik darajasini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim tizimini to'g'ri boshqarish ikki maqsadga, xususan, o'quv-tarbiya va o'quv-ishlab chiqarish jarayoniga tayanadi. Har ikkala funktsiya birlashib, jamoaning ichki hamkorligini tashkil etadi.

Birinchi vazifa ishlab chiqarish funktsiyasi bo'lib, talabalarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori kasb maxoratlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularni xayotga tayyorlashdan iborat.

Ikkinchi vazifa ijtimoiy vazifa professor o'qshuvchilarni manfaatlarini aniqlash bo'lib, ularning moddiy va ma'naviy talablarini qondirish, samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur mikroiklim, yaxshi kayfiyat xosil qiluvchi qulay sharoitlar yaratish kerak. Bundan tashqari, boshqaruvning yana bir funktsiyasi ham mavjud bo'lib bu ta'lim muassasasi pedagogik jamoa a'zolarining samarasi ishlashlari o'chun ijtimoiy psixologik xolat va xususiyatlarni tarkib toptirishdir. Ijtimoiy-psixologik funktsiya ham bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bular:

- ✓ jipslashtirish;
- ✓ faollashtirish;
- ✓ takomillashtirish;
- ✓ o'z-o'zini boshqarishdir.

Talabalarda va o'quvchilarda amaliy yo'naltirilgan kasbiy pedagogik maxoratni oshirish ular foydalanadigan usullarga o'zgartirishlar kiritish, talabalarda faollik, mustaqillik, kasbiy maxoratni egallashni kuchaytirish ta'lim jarayonini tashkillashtirish va mazmunini yana bir bor qayta ko'rib chiqish o'kituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Bu o'zgartirishlar oliy kasb ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni an'anaviy shaklda olib borilishiga zamonaviy yondashuvni yuzaga keltiradi.

Talabalarda va quvchilarda o'quv materiallariga nisbatan tasavvurni yangicha bo'lishiga olib keladi. Hozirgi kun talabi ta'lim jarayonida asosiy yo'nalishdagi ta'lim mazmunini yanada mukammallashtirishni talab etadi. Ta'lim yo'nalishlari maxsus aniq o'quv predmetlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramay, ularning predmet to'g'risidagi chuqur tassavvurlaridan maqsadga muvofiq chetga chiqqan xolda fanlararo, universallari, ajratilgan yo'nalish bo'yicha bilimlarni boshqa o'quv predmetlariga ham qo'llay olish imkoniyatlarni yuzaga keltirish lozim.


Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning mazmunini yanada mukammallashtirishda o'quv axborotni integrasiya tamoyili asosida o'qitishni joriy etilishiga aloxida e'tibor ajratish lozim, bunda albatta talabalarga kasbiy tayyorgarlikka xos butun bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlanishi e'tiborga olinadi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya berish, har sohada yetuk mutaxassis qilib tayyorlash shu kunning dalzarb masalasidir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari keng joriy etilayotgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal sur'atlar bilan egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini ko'ymoqda. Ta'limning barcha bosqichlari o'quvchilarning tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini

takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishii kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Bugun vaziyat shiddat bilan o'zgarimoqda. Proyekt interfaol doskada o'qituvchining oldindan tayyorlangan ko'rgazmali kartinalari yoki ko'rgazmali slayd-shoulari taqdim etadi. Interfaol doskada ovozli ko'rgazmani yozib yoki chizib ko'rsatishi mumkin, o'qituvchi uchun faqat uni boshqarib borish qoladi. Kuchli va chuqur ko'rgazmali dars jarayonini interfaol doskada, kino yoki teatrga tenglashtirish mumkin. Bunda o'qituvchidan rejissyorlik bilim va intilishni talab qiladi. Chunonchi, o'n yil avval fotosuratlar va videolavxalarni rejissyorlik faoliyatini bajarar edi. Agar, o'quv materiallari oldindan aniq va tushunarli qilib tayyorlangan bo'lsa, u darsning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol doska bilan ishlash oddiy, lekin ijodiy mehnatni talab qiladi. Darslarni bir-biriga bog'lanishini ta'minlashi uchun fayl yoki betlarni oldindan tayyorlab qo'yish kerak. O'qituvchilarning aytishicha, asosiy faylga tayyorgarlik ko'rish boshqa fayllarni rejalashtirish va ta'minlashga yordam beradi. Interfaol doska-obyekt va yozuvlarni, matnlarni ko'paytirishni, rasm va diagrammalarga rang berishni ta'minlab beradi. Tayyorlangan matnlarni rasm va jadvallarni o'qituvchi yashirib turib, keyin ma'ruzaning asosiy qismida ko'rsatishi mumkin. O'qituvchi va talabalar bularning hammasini barcha auditoriya oldida e'tirozsiz hammaning diqqatida namoyish qiladilar.

Darsda faol qatnashuvchi va qatnasha olmagan talabalar uchun ham imkoniyatlar mavjud. Hamma o'rganilgan materiallarni doska xotirasida saqlashi va boshqa payt qayta o'rganish mumkin. Darsning yuqorigi ekranida saqlangan materiallarni o'qituvchi kerakli xolatlarda ochib foylanishi ham mumkin. O'rganilgan barcha materiallarni interfaol doska tez va ixcham yangiliklar bilan ko'rsatib berishi yuqori ko'rtarinikilikni beradi. Albatta, interfaol doskadan talabalar darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, buni inkor etib bo'lmaydi. Ular yangi mavzuni faol muxokama qiladilar va tezda o'rganilgan materialni eslab qoladilar.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, interfaol doska zamonaviy sharoitlarga mos xolda javob beradigan, o'quvchilarni qoniqtiradigan, bilim axborotlari, zamonaviy texnologiyalar asosida aniq o'rgatilgan fan nuqtasiga tayanadi. Interfaol doska yordamida, ulardagi qulayliklar va iqtisodiy tangliklar, shuningdek, yo'qotilgan vaqt, bu va boshqa muammolarni yechish mumkin. Samarali ma'lumot berish maqsadida dars jarayonini kuzatib borish maksimal xolatga erishish mumkinligini ko'rsatadi.



ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИ

*Д.Қаршиева СамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМО
марказининг ўқитувчиси*

Замонавий педагогика ўқитиш ва тарбиялашни шахс қобилиятларини намоён қилишга йўналтириш, кишининг интеллектуал ва маънавий ривожланиш имкониятларини жамиятнинг шахсга қўяётган, ижтимоий жиҳатдан тақозо этилган талабларига жавоб бериши, уларни ўқишга, билимга бўлган имкониятларини рўёбга чиқариш учун қулай шарт-шароитлар яратиш ва ривожланишга қўмаклашади. Замонавий миллий педагогикани айнан шу тарзда тушунмоқ лозим.

Айниқса, бугун дунёда инсон қалби ва онги учун кескин кураш кечаётган, тинч-осойишта ҳаётимизга қарши турли таҳдидлар кучайиб бораётган ҳозирги мураккаб ва таҳликали замонда униб-ўсиб келаётган ёш авлодимизни бегона ва зарарли ғоялар таъсиридан сақлаш, уларни иродаси бақувват, ҳушёр этиб тарбиялаш вазифаси ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда.

Табийки, устоз, муаллим деганда, ҳар қайси инсон кўнглида чуқур ҳурмат эҳтиром ва чексиз миннатдорчилик туйғулари, шу билан бирга ҳеч қандай бойлик билан ўлчаб, адо қилиб бўлмайдиган қарздорлик ҳисси пайдо бўлади. Шунинг учун ҳам эзгулик бунёдкори бўлган, ўқитувчи мураббийларимизга ҳар қанча таҳсин ва тасанно айсақ, арзийди.

Республикамиз биринчи Президенти Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарларида шундай дейилган: “Маърифатпарвар боболаримизнинг фикрини давом этириб, агарки дунё иморатлари ичида энг улуги мактаб бўлса, касбларнинг ичида энг шарафлиси ўқитувчилик ва мураббийликдир, десак, ўйлайманки, айни ҳақиқатни айтган бўламыз. Чиндан ҳам ўқитувчи наинки синф хонасига файз ва зиё олиб кирадиган, балки минг-минглаб мурғак қалбларга эзгулик ёғдусини бахш этадиган, ўз ўқувчиларига ҳақиқатдан ҳам ҳаёт мактабини бажарадиган муътабар зотдир.

Она тилимизда “мактаб кўрган”, “мактаб яратган” деган чуқур маъноли ибораларнинг мавжудлиги ҳам бу муққадас даргоғнинг, захматкаш ўқитувчи меҳнатнинг давлат ва жамият ҳаётида қанчалик муҳим ўрин тутишидан далолат беради.”

Ўқитувчининг кўпқиррали ва мураккаб фаолияти заминиде ёш авлодни одобли, эътиборли қилиб тарбиялаш, уларни илмий билимлар билан қуроллантириш каби муҳим вазифалар ётади.

Ҳозирги замон ўқитувчиси фақат ўз фанини эмас, балки шу фан олдида турган муаммоларни, унинг асосий ривожланиш босқичларини, бошқа фанларнинг, ижтимоий муносабатлар билан боғлиқлигини ҳам чуқур тушуниши лозим.

Ўқитувчининг касбига хос бўлган кўпгина фазилатларни ундаги педагогик такт (одоб) ҳал қилади. Педагогик одоб ўқитувчининг юксак фазилати ҳисобланиб, у ўқитувчини ўқувчилар ва жамоа аъзолари олдидаги обрӯ-эътиборни белгилайди. Ўқитувчи аниқ мақсадни кўзлаш, қатъийлик, меҳнасеварлик, камтарлик каби сифатларга ҳам эга бўлиши керак. Ташаббускор ва ғайратли ўқитувчигина болалар эътиборини қозонишга эриша олади.

Ҳозирги замон ўқитувчисининг асосий фазилатларидан бири ўз касбини севиши, ўз касбига садоқатлилиги, ғоявий эътиқодлилиги уни бошқа касб эгаларидан ажратиб туради. Чунки мактабда таълим-тарбия ишининг юқори савияда олиб борилиши фақат ўқитувчига, унинг касбий тайёргарлигига боғлиқ.

Ўқитувчи шахсига қўйиладиган муҳим талаблардан бири шуки, у ўзи ўқитаётган предметларни чуқур билиши, унинг методикасини ўзлаштириб олган бўлиши зарур. Предметни ва унинг назариясини чуқур билиши, болаларни шу предметга бўлган қизиқишини оширади ва ўқитувчи обрӯсини кўтаради.

Ўқитувчининг юксак маданияти, унинг теран билим доираси (айниқса, Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг халқимизни ўз тарихини маданияти, урф-одатини ўрганиш ва билишга бўлган қизиқиши ортиб бораётган даврда) таълим-тарбия ишларини муваффақиятли кечишига ёрдам беради.

Ҳозирги замон ўқитувчиси миллий қадриятларимизни билиши билан бирга уни омма ўртасида кенг тарғибот қилиши керак.

Ўқитувчи касбига хос бўлган муҳим фазилатлардан бири болаларни севиш, уларнинг ҳаёти билан қизиқиш, ҳар бир шахсни ҳурмат қилишдан иборатдир.

Болани севган, бутун куч ва билимини болаларни келажаги буюк Ватанга содиқ фуқаро қилиб тарбиялашга сафарбар қила оладиган одамгина ҳақиқий ўқитувчи бўла олади. Болага бефарқ, унинг келажаги билан қизиқмайдиган, ўқитувчилик касбига лоқайд одамни ҳақиқий ўқитувчи дея олмаймиз.

Ўқитувчининг саботли бўлишига, ўз ҳиссиётини идора қила олишга, болаларга педагогик таъсир ўтказиш восита ва меъёрларини белгилаш, аниқлашда ёрдам берадиган фазилат жуда кўп.

Юксак педагогик одобга эга бўлган ўқитувчигина синфда муътадил психологик иқлим ўрната олади, болалар қалбига тез йўл топа олади.

Ўз хизмати хусусиятига кўра ўқитувчи ташкилотчилик фазилатига ҳам эга бўлмоғи лозим. Бунинг учун ўқитувчи ҳар доим тегик, ғайратли, ўз кучи ва имкониятига ишонган бўлмоғи зарур. Ташаббускор ва ғайратли ўқитувчи болаларни ўз орқасидан эргаштира олади, ўқувчилар унга эргашадилар.


Ўқитувчилик касби жуда катта руҳий ва жисмоний куч талаб этади, шунинг учун ўқитувчининг саломатлигига ҳам маълум талаблар қўйилади.

Ўқитувчининг овоз пайчалари ривожланган, кўриш қобилияти яхши бўлиши керак, узок вақт тикка тура олиш, кўп юриш, эпчил ҳаракат қилиш каби фазилатларга (айниқса бошланғич синф ўқитувчилари) эга бўлмоғи шарт.

Ўқитувчи шунингдек анатомия, физиология, мактаб гигиенаси фанидан хабардор бўлмоғи, ўз нутқини идора қилишга, адабий нутқ меъёрларга риоя қилиши, овознинг баланд-пастлигига аҳамият бериши (ортиқча баланд овоз билан гапириш ҳам, секин гапириши ҳам болаларни чарчатиб кўяди) нутқнинг жонли, ифодали бўлишига эътибор бериши; болаларни чарчатиб қўймаслик мақсадида дарсда иш турларини тез-тез ўзгартира олиш ва уларга тарбиявий таъсир ўтказишга ёрдамлашиши керак.

Хулоса қилиб айтиш лозимки ҳозирги замон ўқитувчиси нафақат истеъдодли нотик ва билимдон бўлиши, шу билан биргаликда ўз касбий маҳоратини тинмай ошириб бориши ҳамда шу соҳада бошқалар билмайдиган нарсаларни мукамал билиши лозим. Фақат шундагина ўқувчилар қалбиде билим олиш иштиёқини уйғота олиши мумкин.

Бугунги кун ўқитувчиси ўз устида тинимсиз ишлайдиган, ҳар томонлама кенг фикрлайдиган, илғор педагогик ва ахборот технологияларини самарали қўллай оладиган ижодкор шахсга, ёшларнинг юрагига чуқур кириб борадиган юксак фазилятлар эгасига айланишини ҳаётнинг ўзи талаб этмоқда.



BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

N.A.Yunusova SamDUHXTXQTMOH o'qituvchisi
J.R.Rahmonov Guliston Davlvt Universiteti 2-kurs talabasi

O'qitish jarayonining samaradorligi ko'pgina hollarda o'qituvchining bilimiga, darsni to'g'ri tashkil qilish mahoratiga va mashg'ulotni o'tishda mohirona tanlangan darsning u yoki bu shakllariga bog'liqdir. An'anaviy "sinf-dars" tizimida multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, o'quv filmlaridan, didaktik trenajlardan foydalanish – dars samaradorligini oshirishda o'qituvchiga juda katta imkoniyat yaratib beradi.

Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qiladi. Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slyd, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali o'quvchining e'tiborini ko'proq jalb qilib, o'rganilayotgan o'quv materialini qabul qilishni osonlashtiradi, tushunish va eslab qolishga, yorqin tasavvurni shakllantirishga yordam beradi, o'quvchining bilim olishga bo'lgan faolligini oshirib, o'quv mavzusi haqida aniq kompetensiya, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishini ta'minlaydi.

G.K.Selevkoning fikricha, o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan 3 variantda foydalanish mumkin:

1. "kirib kelayotgan" texnologiya sifatida

Kompyuter va multimedia texnologiyalaridan alohida mavzularni hamda didaktik materiallarni o'qitishda;

2. asosiy pedagogik texnologiya sifatida


O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishi jarayonida katta ekranda multimediali taqdimotning ketma-ketlikda namoyon bo'lishi barobarida kerakli materiallarni o'quvchilar daftarlariga ko'chirib olishlari mumkin. Natijada o'qituvchining vaqti tejraladi hamda mavzuni chuqurroq tarzda o'quvchiga etkazishga ulguradi. Buning uchun o'qituvchiga birgina kompyuter va unga ulangan video proektor etarli.

3. monotexnologiya sifatida

O'quv jarayonini boshqarish, o'quvchilarning har bir fanlar kesimidagi monitoringini hosil qilish, o'quvchilarning elektron kundaligini yuritish, joriy baholarini elektron jurnalga tushirib borish, chorak oxirida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlagan holda choraklik baholarini reallik asosida aniqlash. Agar o'quvchi biror sababga ko'ra o'tilgan mavzuni o'zlashtira olmasa yoki kasalligi tufayli darsni qoldirgan bo'lsa, darsda so'ng kompyuter xonasiga kirib qoldirilgan darsni qayta ishlash yordamida o'zlashtirishi mumkin.

Hozirgi paytda masofadan turib ham internet orqali uydagi kompyuterdan qoldirilgan darsni o'zlashtirish imkoni mavjud. Iqtidorli o'quvchi mavzuni boshqalarga nisbatan tezroq o'zlashtirib bo'ldi (bunday o'quvchi har bir sinfda mavjud). Boshqa o'quvchilarni kutib turmasdan keyingi mavzuni o'zlashtirishga ijodiy yondashadi. SHu yo'sinda har bir o'quvchining individual yondashuvi ijobiy natijalarga olib keladi. O'tilgan mavzu, bo'lim hamda butun kurs bo'yicha o'quvchining bilim darajasini test sinovlari bilan bir qatorda interfaol doskalar orqali rasmi testlar shaklidagi mavzulashtirilgan trenajer mashq va topshiriqlar asosida aniqlash o'quv jarayonining samaradorligini va o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Bunda o'quvchilarning yo'l qo'ygan xatolari kompyuter tomonidan aniqlanadi va bo'shliqlarni to'ldirish ustida ish olib boriladi. Har bir o'quvchiga induvidual tarzda berilgan interaktiv didaktik mashqlarda, o'quvchi to'g'ri tasvirli javoblarni variantlar orasidan belgilab olgandan so'ng, to'g'ri javoblar kompyuter avtomatik tarzda tekshiriladi. Bunday usulda o'quvchining bilim darajasi haqqoniylik tarzda tezkor aniqlanadi. Bu dastur fanga bo'lgan qiziqishi bilan birga dasturlashga bo'lgan qiziqishlarini xam rivojlantiradi.

Biologiya darslarida multimediali texnologiyalaridan foydalanish oddiy bo'r bilan doskaga chizilgan chizmadan ko'ra, interaktiv ta'limiy o'yinlar, trenajyorlardan masalan botanika darslarida quyidagi



”O’rnini top”,


“O’ylab yoz”

“Qaysi biri oshiqcha”

kabi mashqlardan foydalanish samaralidir.

Darsda plakatdagi yoki doskadagi xatoni bartaraf qilishdan ko’ra, o’quvchi o’zi kompyuter orqali xatolikni bartaraf qiladi.

Biologiya darslarida foydalaniladigan trenajer mashqlar, darslararo bog’lanishni, vaqt tejamlorligi, AKT foydalanish darajasining yuqoriligi ko’rsatish bilan birga zamonaviy biologik bilimlar olish imkonini beradi.



УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИНИНГ ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА УНЛИ ТОВУШЛАР МУАММОСИ.

Шоҳқадам Мамаюсупович Ҳайдаров филол.ф.н., Жиззах ДПИ ҳузуридаги ХТХҚТМО ҳудудий маркази доценти в.б.

Дунё тиллари орасида туркий тиллар оиласининг ҳам тутган ўрни ва ўз аҳамияти бор. Барчамизга аёнки, маълум тил ҳақида тўхталар эканмиз, аввало унинг ижтимоий ҳаётдаги ролига эътиборни қаратиш лозим. Туркий тилнинг бойлиги, гўзаллиги, жозибадорлиги ва нутқда қўлланилаётган ҳар бир сўзнинг ўз моҳияти мавжудлиги ҳақида ушбу тилдан унумли фойдаланган Алишер Навоий ҳазратлари ҳам тўхталиб ўтган. Даврлар ўтиши билан туркий тиллар оиласига мансуб бўлган ўзбек тилининг товушлар тизими баъзи имловий муаммоларни келтириб чиқармоқда. Жумладан, унли ва ундош товушларимиз тизимидаги муаммоли ҳолатлар бугунги кун ўқувчисини ҳам чалғитиб қўймоқда, назаримизда.

Республикамызда умумий ўрта таълимни янада ривожлантириш борасида бир қатор чора тадбирлар режаси ишлаб чиқилиб, қонун ва қарорлар қабул қилинаётганлиги сир эмас. 2017 йил 15 мартдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 140-сонли Қарори билан тасдиқланган “Умумий ўрта таълим тўғрисида”ги Низом таълим соҳасидаги янгиланишлар ва тузатишларни кўзда тутди. Юқоридагилардан келиб чиқиб, тилимиздаги айрим камчиликларни бартараф этиш фурсати етганлигига эътиборни қаратиш лозим.

Таълимнинг барча босқичларида она тилимиз бўлмиш ўзбек тилига эътибор ва ҳурмат ҳам олий даражага кўтарилишини талаб этади. Умумтаълим мактабларининг 5-синф она тили дарслигида нутқ товушлари мавзусини ўрганиш белгилаб қўйилган. Ўқувчининг ёшидан келиб чиқилганда ҳам бу даврда ҳар қандай ўқувчи қизиқувчан ва интилувчан бўлади. Аммо адабий тилимиз нормаларидан келиб чиқиб ўқувчига тўлалигича маълумот беришга ўқитувчи-педагогларимиз ҳам қийналишмоқда. Чунки умумий ўрта таълим мактабларининг 5-синфлари учун она тили дарслигида “Тилимизда олтита унли товуш бор: **а, о, э, ў, у, и.**”¹, деб унли товушларимиз сонининг бта билан ифодаланиши таъкидланган. Ваҳолангки, адабий тилимизнинг ўзида унли товушларимиз тизими **9** (айрим ҳолатларда **10**) та (**и, а, ў, у товушларининг қаттиқ ва юмшоқ вариантлари**) ни ташкил этади. Шу ўринда диалектология илми билан шуғулланган В.Решетов,

¹ N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo’raboyeva. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To’ldirilgan nashr.-T.: Ma’naviyat, 2015. 122-b.

Ш.Шоабдурахмоновларнинг “�збек адабий тилига асос бўлган шеваларда унли фонемалар сони 6-7 тадан ошмайди”¹ деган фикрларини ҳам таҳлил қилиб кўриш керакдай, назаримизда.

Бу борада туркий тилларнинг аксарияти ўз алифбоси (кирилл, лотин)да унлилар тизимини шакллантирганлар. Чунки туркий тилларнинг сингормонизмга асосланганлиги ҳеч кимга сир эмас. Ўзбек тилига –о лашиш жараёни кучли таъсир ўтказган бўлса ҳам, адабий тилимиздаги унли товушларнинг аниқ ифодаланиши ва тилдаги барча сўзларнинг талаффуз меъёрлари учун ҳозирда алифбомизда мавжуд унли ҳарфлар етарли эмасдек. Тилимизда учрайдиган *икки, игна, ички* ва *мих, сих, бир* сўзларидаги –и, *ака, алам, азиз* ва *Ахмад, нақд, ахмоқ* сўзларидаги –а, *ўлка, ўпка, ўзбек* ва *ўроқ, ўртоқ, ўтлоқ* сўзларидаги –ў, *уст, узум, узук* ва *узун, бурун, тутқун* сўзларидаги –у унли товушлари бир шакл билан ифодаланиб келинмоқда, лекин ушбу мисолларда кўриб ўтганимиздек **и, а, ў, у** унлиларининг қаттиқ ва юмшоқ вариантлари мавжуд. Айни биз келтириб ўтган мисоллардаги ҳолатлар мактаб ўқувчиларида иккиланиш ва ўзига бўлган ишончнинг сусайишига олиб келмоқда.

Юқоридаги *икки, игна, ички* сўзларимизда алифбомиз(кирилл, лотин) даги юмшоқ –и ҳарфи ифодаланган бўлса, *мих, сих, бир* сўзларидаги –и ҳарфини ифодалашда қаттиқ (рус тилига асосланган кирилл алифбосидаги) –ы товуши талаффуз қилинмоқда. *Ака, алам, азиз* сўзларида алифбомиз(кирилл,лотин)даги юмшоқ, тил олди –а унлиси ифодаланган бўлса, *Ахмад, нақд, ахмоқ* сўзларида алифбомиз(кирилл, лотин)да мавжуд бўлмаган қаттиқ, тил олди –а унлисига нисбатан орқароқда яъни –о унлисига яқин –ă (шартли тарздаги) товуши билан ифодаланмоқда. *Ўлка, ўпка, ўзбек* сўзларида алифбомиз (кирилл, лотин)да мавжуд бўлмаган юмшоқ, тил олдида ҳосил бўлувчи –õ (шартли тарздаги) унлиси ифодаланган бўлса, *ўроқ, ўртоқ, ўтлоқ* сўзларида алифбомиз (кирилл, лотин)даги мавжуд бўлган тил орқа, қаттиқ –ў унлиси ифодаланмоқда. *Уст, узум, узук* сўзларида алифбомиз(кирилл, лотин)да мавжуд бўлмаган юмшоқ, тил олди –ü (шартли равишдаги) товуши билан ифодаланган бўлса, *узун, бурун, тутқун* сўзларида алифбомиз(кирилл, лотин)даги тил орқа, қаттиқ –у унлиси билан ифодаланмоқда.

Умум таълим мактабларининг ўқувчилари бундай ҳолатларга дуч келишган бир пайтда мактаблардаги она тили фани ўқитувчилари ўқувчига тушунча бериш борасида мактаб дарсликларидан ташқарига чиқа олишмаяпти. Нагижада ўқувчилар нафақат мавзуни, балки миллатимиз кўрки бўлган она тилимизнинг нозик ва шу билан бирга жозибадор томонларининг туб моҳиятини англашга қийналишмоқда.

Диалектолог олимларимизнинг фикрича, “Тошкент-Фарғона типидagi шаҳар шевалари ҳамда шаҳар шеваларининг талаффуз ва лексик-грамматик хусусиятларига ўхшаш бўлган кишлок шевалари адабий тилнинг шаклланишида етакчи роль ўйнаган”² деган қарашлари бироз ноаниқдай туюлади. Тошкент ва Фарғона шаҳар шеваларида ҳам *бир, узум, ўлка, Ахмад* сўзларидаги унлиларни адабий тилимиз нормаларидаги тасниф бўйича талаффуз қилмайдилар. Қолаверса, тил ижтимоий ҳодиса ҳеч вақт бир ўринда қотиб қолмайди ва бугунги кунга келиб, адабий тилга асос Тошкент ва Фарғона типидagi шаҳар шеваларигина эмас, бизнингча, Республикаимизнинг барча вилоятларини қамраб олган шевалар адабий тилга бироз бўлсада яқинлашмоқда.

Унлилар тизимидаги тушунилиши мураккаб ҳолатлар олий ва ўрта махсус таълим тизимида атрофлича ўргатилаётганлигига қарамай, умумтаълим муассасаларида фаолият олиб бораётган педагог-ўқитувчилар (*Тошкент, Фарғона, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхандарё вилоятларининг айрим туманларидаги ва Жиззах шаҳар умумтаълим мактабларининг бошланғич синф ҳамда она тили ва адабиёти фани ўқитувчилари*) орасида турли хилдаги тушунмовчиликлар ҳамда бахс-мунозараларга сабаб бўлмоқда. Номлари келтириб ўтилган ҳудудларда фаолият олиб бораётган педагогларнинг ҳам эътирозлари ўринли деб ўйлаймиз. Аслида фақатгина номлари айтиб ўтилган ҳудудлардагина эмас, балки адабий тилимизнинг нормаларига мувофиқ ҳолда ҳам унли товушларимизнинг айримларини қаттиқ ва юмшоқ вариантлари мавжуд. Шунинг учун алифбомиз таркибидаги **и, а, ў, у** ҳарфларини юмшоқ ва қаттиқ вариантларини яратиш бугуннинг талаби ҳисобланади. Тўғри, биз у ёки бу шаклни тиавсия қилмоқчи эмасмиз, бу борадаги муаммонинг ечими тилшунослик илми билан шуғулланадиган олимларимиз ҳукмига ҳавола.

2017- йилнинг октябрь ойида ўзбек тилига “Давлат тили мақоми” берилганлигининг 28 йиллиги муносабати билан Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университетида конференция ташкил этилди. Конференциянинг кун тартибидаги масалаларида айна имло ва алифбомиздаги айрим муаммоларга тузатишлар киритиш борасида ягона тўхтамга келинмади.


¹ В. Решетов, Ш. Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси.-Т., 1962. 89-б.

² В. Решетов, Ш. Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси.-Т., 1962. 87-б

Ҳозирда умумтаълим мактабларининг она тили ва адабиёти фани дарсликларининг аксар қисми янги таҳрирдан чиқиш арафасида. Ажабмаски, янгиланаган дарсликларимизда биз фикр юритган масалаларга ҳам алоҳида эътибор қаратилса.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Умумий ўрта таълим тўғрисида”ги Низом.- Т. 2017 .
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.-Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, А.Собиров, В.Қодиров, З.Жўрабоева. Она тили: Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик. Тўлдирилган 4-нашр.- Т.: Маънавият, 2015.
4. В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси. –Т., 1962. 360 б.



О’QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO’NALTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARINING O’RNI

K.S.Oqilova SamDU huzuridagiXTXQOTMO markaz o`qituvchisi
Z.Haydarova NamDU huzuridagiXTXQOTMO markaz o`qituvchisi

Har bir inson o‘z hayotida hurmat va shuhrat qozonishni, atrofda gilarning ye‘tibori va ye‘tirofida bo‘lishni, ularning qo‘llab-quvvatlashini, barchaning sevgisiga, muhabbatiga yerishishni, shu bilan birga mustaqil hayot kechirishni xohlaydi. Sanab o‘tilganlarning barchasiga birvarakayiga yerishishning yo‘li bor, u ham bo‘lsa-qiziqishingiz va qobiliyatingizga mos bo‘lgan “qadrdon” kasbni tanlashdir. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofda gilar ko‘zi o‘ngida o‘zini ifoda yetishni va hayotda o‘z o‘rni, qadr-qimmatini topishni xohlagan, imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo‘lgan o‘quvchilarga xos jihaddir.

Kimki baliq tutish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, bunday faoliyat uchun baliqchining o‘zi ham ma‘lum talablarga javob berishi zarurligi to‘g‘risida xabari bo‘ladi. Bu talablarga: baliq va uning fe‘l-atvori haqidagi bilimlar; zarur uskuna va yarog‘lar; ob-havo va muhitning holati haqidagi joriy axborotlar; paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tasodiflarga tayyorgarlik; amaliy tajriba va boshqalar kiradi. Birgina baliq tutishga shuncha talab!

Kasb bizning yagona tiriklik manbaimiz yekan, unga qo‘yadigan talablarimizni qondirish uchun, biz ham qandaydir talablarga javob berishimiz zarur.

Bugungi kunda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo‘g‘in hisoblangan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari faoliyatida o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi.

Respublikamizda ta‘lim islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, xususan ulkan ummon bo‘lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishda va to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish masalasi ta‘lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Uzluksiz ta‘lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o‘quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi kasbini o‘zi belgilashga tayyorlash umumta‘lim maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan “Aqliy xujum”, “Bumerang”, “Tarozi”, “Yelpig‘ich” , “Kichik guruhlarda ishlash”, “Venn diagrammasi” “Sinkven” kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya yetiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va yekin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning


sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga yega bo'ladi.

"Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizasiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishontirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi.

"Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama yetiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon yetish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi.



ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ХУСУСИДА.

Ҳамроқул Толибович Рафиев. ПФН. СамДУҲХТХҚТМОҲМ

Замонавий жисмоний маданият инсониятнинг энг сеvimли фаолияти сифатида жaxon миқёсида ўзининг ўрнига эга.

Мамлакатимизда ҳам барча соҳалар қаторида, жисмоний маданият соҳасида туп ислохотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси президентининг барча чиқишларида ва айниқса қабул қилинаётган фармон ва қарорларида жисмоний тарбия ва спортнинг мамлакатда ривожланганлик ҳолати холисона танқидий руҳда баҳо берилиб, соҳасини тубдан тартибга келтиришга аниқ кўрсатмалар берилмоқда.

Мамлакатда жисмоний тарбия ва спортнинг салоҳиятини янада ошириш, уни мамлакат аҳолисининг жисмоний ва маънавий юксалтиришга ижобий таъсирини янада кучайтиришда, республикада жисмоний маданият соҳасининг барча йўналишларида фаолият кўрсатаётган, минглаб жисмоний маданият ўқитувчилари ҳамда мутахассисларининг ўз касбини билимдон фидойиси бўлиб, садоқат билан сидқидилдан, ҳалол покиза, барча ахлоқ меъёрларига мос меҳнат қилишларига бевосита боғлиқ.

Бу борада, жисмоний маданият соҳасида фаолият кўрсатаётган жисмоний маданият ўқитувчилари орасида касбий компетенцияларида бир қанча муаммолар мавждлиги ҳаётда ҳамда илмий тадқиқотларда кузатилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси президентининг айниқса 2017 йил 3 июнда, қабул қилинган қарорида, 2018 йил 5 март санасида имзолаган фармонида, юқоридаги муаммоларга алоҳида урғу берилиб, бу муаммоларни тезда ҳал қилиш бўйича кўрсатмалар берилган. Жумладан, фармоннинг бешинчи бандида "Спорт кадрларини, айниқса бошқарув кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг амалдаги тизими жисмоний тарбия ва спорт бошқаруви соҳасида малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжини қондириш имконини бермаяпти" дейилган. Бу кўрсатма жисмоний маданият соҳасида кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишда сифат самарадорлигини янада оширишга даъват этади.

Маълумки, бугунги замонавий жисмоний маданият ўқитувчиси умумтаълим мактабда жисмоний маданият таълимининг сифат самарадорлигини ошириш орқали, мамлакат миқёсида

жисмоний маданиятни юксак даражада ривожланишини таъминловчи асосий мутахассисдир. Шунинг учун ҳам жисмоний маданият ўқитувчиларининг маънавий-марифий тайёргарлигини оширишда, уларнинг касбий компетенциясини такомиллаштиришнинг асосий омилларидан бири сифатида ўқитувчи шахсининг комиллик даражасини янада юксалтириш муҳим аҳамият касб этади.

Бизнинг кўп йиллик илмий кузатишларимиз натижалари шуни кўрсатмоқдаки, жаҳон, мамлакат жисмоний маданиятнинг барча жараёнлари асосан инсонни ҳартомонлама юксак даражада маънан ва жисмонан баркамол этиб вояга етказишга қаратилган. Айниқса, жисмоний маданиятнинг асосий таркибий қисмларидан бири бўлган “Спорт” нинг барча жараёнларида амалга оширилаётган тарбиявий ишларда ўз аксини топган. Бунинг натижасида спорт орқали буюк инсонлар тарбияланди. Жумладан, жаҳон футбол қироли Пеле, футбол юлдузлари Рональдо, Месси, замонавий автопойга юлдузи Шумахер, мамлакатимизда тарбияланган бокс юлдузлари Ҳасанбой Дўстматов, Шахрам Ғиёсов, сузувчи юлдуз қизларимиз Раъноҳон Омонова, бадий гимнастикачимиз Жамила Рахматова ва бошқалар. Шу билан бир қаторда, жаҳон ва мамлакатимиздаги спорт фаолияти жараёнларида баъзан спортнинг ва яхлит жисмоний маданият жараёнларида ахлоқий меъёрларнинг бузилиши жисмоний маданиятнинг таълимий, ахборот, тарғибот, таҳлилий, давлат ҳужжатларида ва б. жиҳатларидаги йўналишларида жиддий номувофиқлик, чалкашлик, мазмун моҳиятга мос келмаслик ва б. ҳолатлар учрамоқда. Буларнинг асосий сабабларига, бизнинг илмий тадқиқотларимизда олинган натижаларнинг таҳлили куйидагиларни кўрсатмоқда:

1. Мамлакатимиз аҳолисининг жисмоний маданият соҳаси бўйича мактабгача таълим муассасаларида – 4 йил, умумтаълим мактабларида – 11 йил, КХК ва Олий таълим муассасасида – 2 йил, таълим олишига қарамасдан, бу соҳанинг мазмун моҳиятини тушуниб, билишида баъзи бўшлиқларнинг борлиги;

2. Жисмоний маданият соҳаси бўйича жисмоний маданият ўқитувчиларининг ОТМ ларида бакалавр йўналишида ҳамда магистр мутахассисларини тайёрлаш, ҳамда қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларида, жисмоний маданият соҳасини бошқарувида ва б.ларда, жисмоний маданият соҳасидаги тушунча ва атамаларининг мазмун моҳиятига оид махсус билимларга етарли эътибор бермаслик оқибатида, соҳанинг таълим йўналишида, яъни умумтаълим мактабларида жисмоний маданият фанини ўқиш ва ўқитишда, ДТС дастурларида, махсус адабиётларда, суҳбат, муомалаларда, сўзлашишларда, ОАВ да ва ҳ.к. ларда жиддий номувофиқликларни учратиш мумкин;

3. Жисмоний маданият жараёнларининг одамларни ахлоқий, маънавий, жисмоний баркамоллигини тарбиялашдаги мазмун –моҳияти барча аҳолига, айниқса мутахассисларга етарли даражада сингдирилмагани, соҳада турли хил коррупцияга яъни зўравонликлар (спортчи ёшини кичрайтириш, спорт мусобақалари жараёнларида фирромлик, фирибгарлик, устозлар томонидан таълим жараёнларида ва илмий тадқиқотларда йўл қўйилаётган камчиликлар, адашишлар, лавозимларни сувистемол қилишлар, ахлоқсизликлар ва бошқа камчиликлар) га йўл қўйилмоқда;

Буларнинг бариси жисмоний маданият жараёнларининг инсон шахсини ҳартомонлама маънан ва жисмонан ҳамоҳанг тарбияланишига салбий таъсири кузатилмоқда.

Жисмоний маданият соҳаси, бўйича юқоридаги аниқланган салбий таъсирларни йўқотиб, жисмоний маданият ўқитувчиларининг комиллик даражасини юксалтириш мақсадида жисмоний маданият педагог ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш жараёнларида куйидаги мавзулар бўйича билимларни чуқурлаштирувчи давлат маърузаларни ўқишни тавсия қиламиз:

1. Жисмоний маданият жараёнларида миллий ва умуминсоний қадриятлардан фойдаланишни такомиллаштириш;

2. Жисмоний маданият соҳасининг тушунча, атамаларини давлат (ўзбек) тилида қўллашнинг ҳолати ва уни яхшилаш йўллари.

3. Жисмоний маданият соҳаси жарёнларида содир этилаётган коррупция элементларини олдини олиш.

Бизнингча ушбу мавзулар бўйича даъват маърузалар, барча таълим муассасаларидаги жисмоний маданият таълими жараёнларида амалга жорий этиш, юқорида кўрсатилган салбий ҳолатларни олдини олишда умуман жисмоний маданият кадрларини айниқса умумтаълим мактабли жисмоний маданият ўқитувчиларининг комиллик даражасини юксалтириб, уларнинг касбий компетенциясини такомиллаштириш имкониятини кенгайтиради.

“SOG‘LOM BOLA TARBIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI” TARBIYANING TA‘SIRCHANLIGI

*Jonibek Do‘stov SamDU “Jismoniy madaniyat fakulteti” o‘qituvchisi
S.Yaxyayeva SamDU huziridagi XTXQTMO markazi o‘qituvchisi*

Zamonaviy pedagogika o‘qitish va tarbiyalashni shaxs qobiliyatlarini namoyon qilishga yo‘naltirish, kishining intellektual va ma‘naviy rivojlanish imkoniyatlarini jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan, ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablariga javob berishi, ularni o‘qishga, bilimga bo‘lgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va rivojlanishga ko‘maklashadi. Zamonaviy milliy pedagogikani aynan shu tarzda tushunmoq lozim.

Pedagogika nazariyasidan ma‘lumki o‘qituvchining tarbiyachilik mahorati quyidagi, o‘zaro bog‘liq tizimlardan iborat:

- texnologik tizim;
- ijtimoiy-psixologik (munosabat) tizimi;
- axloqiy tizim.

Tarbiyachilikning texnologik tizimi asosan rasmiy va ijodiy ishlarni o‘z ichiga oladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil qila bilishi kerakki, bu butun tarbiyaviy ishlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Mazkur tizimda o‘quvchi va tarbiyachi orasidagi munosabat har qanday pedagogik masalani ham to‘g‘ri hal qilinishiga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Tarbiyachilikning psixologik (munosabat) uslubi o‘qituvchidan eng avvalo o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tushunishni talab etadi.

Ma‘lumki, o‘quvchilar har kuni bir-birlari bilan uchrashadilar, bunga quvonadilar, birga tashvish tortadilar. Mohir tarbiyachi bo‘lish uchun bolalar jamoasi va jamoalararo munosabatlarni juda mohirlik bilan seza bilishi kerak. Faqat shundagina tarbiya ishlari bir maromli bo‘ladi va har qanday nizolarning o‘z vaqtida oldi olinadi.

Axloqiy tizimda tarbiyalashda tarbiyachi-o‘qituvchi bolalar bilan tizimli ishlashiga to‘g‘ri keladi. Bunda u:

- bolalarni har qanday narsa, predmetga bo‘lgan munosabatini;
- bolalarni atrofidagi kishilarga bo‘lgan munosabatini;
- bolaning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini yaqqol ko‘ra bilishi kerak.

Tarbiyachilikning axloqiy uslubi o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi munosabatni yaqqol namoish qiladi.

Tarbiyachilik mahorati – har bir pedagogning ob‘ektiv dalillarga asoslangan shaxsiy usulidir. Bu esa pedagogika fanining nazariy qoida – qonuniyatlardan tarkib topgan bo‘lmog‘i lozim.

O‘qituvchi o‘zining tarbiyachilik mahoratini oshirishi va takomillashtirib borishi uchun tizimli, o‘z ustida mustaqil ishlashi, ko‘proq ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni o‘qishi, taniqli ijodkorlar, o‘z kasbining mohir ustalari, olimlar, ilg‘or tajriba sohiblari bilan muloqotda bo‘lishi va ular ish tajribalarini o‘rganishi lozim.

Tarbiyaviy ishlar tajribasidan ma‘lumki, har doim bo‘lgani kabi, hozirgi vaqtda ham axloqiy me‘yorlardan chetga chiquvchi xulqga ega bo‘lgan bolalar hamon uchrab turadilar. Ularni tarbiyalab, xulqidagi nuqsonlarni tuzatish o‘qituvchi-pedagogdan katta mahorat talab etadi.

Tarbiyasi “og‘ir” bolalar bilan ishlash quyidagi tartibda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

- tarbiyasida nuqsoni bo‘lgan bolalar hayotlarini sinchiklab o‘rganib chiqish va sabablarini aniqlash;

- tarbiyaga salbiy ta‘siri bor sabablarning asosiylarini aniqlab olish;
- aniqlangan salbiy sabablardan tuzatish mumkin bo‘lganlarini aniqlash;
- tarbiyasi “og‘ir” bolalar bilan muloqot (aloqa) o‘rnatishga ehtiyotlik bilan yondashish;
- tarbiyasida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni albatta hisob-kitob qilib borish

lozim.

Yuqorida bayon etilgan tartibda olib borilgan ishlar natijasida jamiyatga mansub shaxsni voyaga etganidan keyin uning keyingi hayotini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda katta. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish ishlari oddiy bolalarga nisbatan tarbiyasi og‘irroq bolalarda o‘zgacha yondoshishni talab etadi. Bunda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi muloqot o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyalovchi, eng

avvalo, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bermog'i darkor. U o'zining tarbiyaviy ishlari rejasini oila, atrof-muhit, jamiyatdagi o'zgarishlarga asoslanib tuzmog'i darkor.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda oila, maktab va ayniqsa jamoatchilik hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bulardan tashqari tarbiyasida nuqsoni bo'lgan bolalarga qarindosh-urug'lar va yaqin kishilarning ham ta'sirlari sezilarli bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalar uchun, oddiy bolalardan farqli tarzda, rag'batlantirish va jazolash usullari ham o'zgacha tanlanadi. YA'ni tarbiyasi murakkabroq bola uchun ishlatiladigan so'z ustaligi o'zgacha bo'lishi bilan birga, ularni jazolash usullari qo'shimcha jamoa uslubida qo'l keladi. Har doim ham unga nisbatan yomon fikr va munosabatda bo'lish, uni bolalardan ajratib qo'yish, unga nisbatan boshqacha ko'z bilan qarash – uning tarbiyasini yanada murakkablashtiradi.


O'quvchilarga oddiy so'z ishlatilganda tarbiyasi og'ir bolaga muloyimroq, shirinroq so'zlar aytilsa, uning ko'ngli va ruhiyati ancha ko'tariladi.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda oila, maktab va ayniqsa jamoatchilik hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bulardan tashqari tarbiyasida nuqsoni bo'lgan bolalarga qarindosh-urug'lar va yaqin kishilarning ham ta'sirlari sezilarli bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalar uchun, oddiy bolalardan farqli tarzda, rag'batlantirish va jazolash usullari ham o'zgacha tanlanadi. YA'ni tarbiyasi murakkabroq bola uchun ishlatiladigan so'z ustaligi o'zgacha bo'lishi bilan birga, ularni jazolash usullari qo'shimcha jamoa uslubida qo'l keladi. Har doim ham unga nisbatan yomon fikr va munosabatda bo'lish, uni bolalardan ajratib qo'yish, unga nisbatan boshqacha ko'z bilan qarash – uning tarbiyasini yanada murakkablashtiradi.

O'quvchilarga oddiy so'z ishlatilganda tarbiyasi og'ir bolaga muloyimroq, shirinroq so'zlar aytilsa, uning ko'ngli va ruhiyati ancha ko'tariladi.

Tarbiyasida nuqsoni bo'lgan, tarbiyasi og'ir bolalarni kichik yoshidan boshlab maxsus nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega. Tarbiyasi og'ir bolalarning maktabda o'qishlari davrida ular bilan olib borilgan ishlar samarali natijalar bergandagina ular umumiy nazoratdan chiqariladi. Aks holda ularning maktabni bitirganlaridan keyingi, jamiyatdagi xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, ota-onalar va ayniqsa huquqni himoya qilish organlari tomonidan doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson yomon bo'lib tug'ilmaydi, uning hayotdagi salbiy hislatlari tashqi ta'sir natijasi ekanligini har doim yodda saqlash kerak.



PEDAGOGIK JARAYONDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATINING PSIXOLOGIK TAHLILI

*K.Oqilova SamDU huziridagi XTXQTMO markazi o'qituvchisi
D.Fayziyeva SamMI*

Muloqot insonlar faoliyatlari jaryonidagi ta'sir shaklidir. U yakka shaxsga taaluqli bo'lmay, balki ijtimoiy xarakterga ega.

Pedagogik muloqot o'qituvchining o'quvchilar bilan ijtimoiy psixologik munosabatidir.

Ammo, haligacha fanda muloqotning ahamiyati haqida aniq tushuncha yetishmaydi. Shunday bo'lsada, ayrimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Masalan kishilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, bir-birlariga ko'rsatadigan ta'sirlari yoki ularning o'zaro bir-birlarini tushunishlari kabi tushunchalar mavjud.

Haqiqatdan ham muloqotda ikki tushuncha – munosabat va o'zaro ta'sir kelib chiqadi. Ularning biri o'zaro so'zlashuv va muloqotda ochiq ko'rinsa ikkinchisi ichki, ko'rinmas (ta'sir ko'rsatish) maqsadlar asosida yuzaga keladi. Eng asosiysi muloqot – jamoa fikrini bayon etuvchi vosita hamdir.

Pedagogik muloqotda o'qituvchi ijtimoiy maqsadlarda o'qituvchilar pedagogik jamoa, ota-onalar va fuqarolar bilan muloqotda bo'ladi (ma'ro'za, hikoya, suhbat va h.z.).

Muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u:

- insonlarni bir-birlarini bilishlari;
- ularning o'zaro ma'lumot almashuvlari;
- umumiy faoliyatni tashkil etishlari;
- faoliyatlarini almashtirishlari kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Pedagogik muloqot – o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro kasbiy muloqoti bo'lib, u aniq belgilangan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotida ayrim vaqtlar emosional holatlar ham yuz beradi.

O'qituvchining o'quvchi bilan bo'ladigan ijtimoiy-psixologik muloqoti asosida pedagogik ta'sir o'tkazish amalga oshiriladi.

Pedagogik muloqotning tuzilishi, ayniqsa uning psixologik strukturasi juda murakkab.

O'qituvchi tomonidan o'quvchining ichki dunyosini yetarli darajada o'rganmaslik oqibatida ayrim vaqtlar o'zaro muloqot nizolari ham kelib chiqishi mumkin.

Pedagogik muloqot to'g'risida o'z zamonasida Ya.A.Komenskiy o'quvchi va o'qituvchining o'zaro muloqotini chin insoniy samimiy munosabatlarda tashkil etilishi zarurligini ta'kidlagan.

A.V.Lunacharskiy, P.P.Blonskiylar o'quvchi va o'qituvchining o'zaro muloqoti-jamoa hamkorligida bo'lishini ko'rsatgan bo'lsalar, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylar o'quvchi va o'qituvchi muloqotida eng asosiysi – o'zaro hurmat va bir-biriga bo'lgan talabchanlik deb bilganlar.

O'quvchi ichki dunyosini aniq ko'rolmaslik, uni behuda jazolash, unga nisbatan dag'al muomalada bo'lish yoki qo'rqitish, muloqotdagi eng noxush hollar hisoblanadi.

O'qituvchining o'quvchi ustidan hukmronlik quroli – uning shirinso'zligi, samimiyligi va odamiyligidadir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotida quyidagi didaktik talablar:

1. Bayon qilinayotgan materiallarning g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani hayot bilan bog'langanligiga;

2. Bayon qilinayotgan materialning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga;

3. O'z bayonida o'qituvchi nutqi yagona manba hisoblanib, uni ravon va tushunarli bo'lishi hal qiluvchi omil sifatida foydalanishga;

4. O'qituvchi o'z nutqini bayon etayotgan mavzuda ishlatilgan tariflar, qoida va qonunlar kitobda bayon etilganidan farqli holda o'quvchining yozib olishi uchun mos bo'lishiga amal qilishi kerak.

O'quvchilarga bevosita emosional – irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda tegishli obru-e'tiborga ega bo'lish har bir pedagogdan o'z ustida tinmay ishlashni talab etadi.

Pedagogik muloqotda quyidagi psixologik talablar qo'yilgan:

O'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida ta'limning didaktik talablari bilan birga psixologik talablarini ham mukammal bilishi talab etiladi. Har bir o'quvchi shaxsiga qarab uning ichki dunyosi va xarakteriga mos ravishda muloqotda bo'lishi bilan birga, butun sinf jamoasi bilan taqqoslaganda avtoritar rahbarlik elementlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshmog'i lozim.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayonida uning rahbarlik munosabati ham katta ahamiyatga ega.

O'qituvchining o'quvchilarga kommunikativ ta'siri tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki: o'qituvchi rahbar sifatida o'z muloqoti bilan farq qiladi va quyidagicha ifodalandi:

a) Avtoritar – o'ziga qarashli masalalarga asosiy e'tibor beradi, o'zicha ish tutadi, hych kimning fikrini inobatga olmaydi va o'zicha qaror chiqarib harakat qiladi.

b) Demokratik rahbarlik – avtoritar rahbarlikning aksi, atrofda qilargalarga quloq soladi, ular fikri bilan ishlaydi, hammaga bir ko'z bilan qaraydi, o'zini ular o'rniga qo'yib ish tutadi.

v) Liberal rahbarlik – hych kimning ishi bilan qiziqmaydi, har bir masalaga yuzaki qaraydi, jamoa faoliyatida passiv qatnashadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar ta'lim muassasasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga, pedagogik jamoa faoliyatiga, qolaversa o'quvchilarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan avtoritar rahbarlik ayrim vaqtlarda yuqori reyting ko'rsatgichi berishi mumkin, ammo, nohush psixologik muhitga olib keladi. Rahbarlikning eng qulay va samarali usuli demokratik muloqot munosabatidir. Chunki unda bir-biriga ishonch, o'zaro samimiylilik, maqsad birligi, o'zaro tenglik va hurmat-izzat o'z aksini topadi.

Avtoritar usulidagi munosabat muloqotida pas saviyali madaniyat, o'quvchilar xususiyatlarini inobatga olmasdan yuqori natijalarni ko'zlash, haddan tashqari talablar, ko'zbo'yamachilik, shaxsga sig'inish kabi illatlar namoyon bo'ladi. Eng yomoni bunday rahbar o'zining fuqarolik burchini esdan chiqarganida ko'rinadi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti eng avvalo uning o'quv materiallarini o'quvchilarga tushuntira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ular bilan muloqotda ularning ruhiy kayfiyatlari, qobiliyatlari, nimalarga qodir ekanliklari, umumiy muammo va tashvishlari, tilak va nimani bilish istaklari o'qituvchi uchun yaqqol ayon bo'lmog'i kerak.

Tajribali, qobiliyatli o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlariga qarab o'z uslublarini tanlaydi, ularning materialni o'zlashtirishlari uchun zamin tayyorlaydi va zerikishlari oldini oladi.


O'qituvchining pedagogik muloqotda kattalardan farqli o'laroq bolalarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini uning vaqtinchalik ruhiy holatini doimiy nazorat qilib borishi alohida ahamiyatga ega.

Muloqot jarayonida o'qituvchining nutqi aniq, jonli, talaffuzi yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lishi lozim. Tajribali o'qituvchilar mavzuni bayon etish jarayonida o'zining shaxsiy nutqini nazorat qilib boradi. O'quvchilar o'z ustoz va tarbiyachilariga qat'iylik, kamtarlik, mehnatsevarlik, ishonchlik xislatlarini aniq ko'radilar.

O'qituvchining pedagogik muloqoti uning e'tiqodliligi, axloq, odobliligi, kasbiga va Vataniga sodiqligidir. Bolalarga mehr-muhabbat, ular uchun qayg'urish, ular tashvishiga sherik bo'lish pedagogik muloqotda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'qituvchining pedagogik etikasi va dunyoqarashi uning dars berish jarayonida yoki tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatida aniq seziladi.

Shunday qilib o'qituvchining o'quvchi bilan bo'ladigan muloqoti uning dunyoqarashiga va insoniylik xulq-atvoriga bog'liq. U har doim samimiy bo'lishi kerak.



O'QITUVCHINING KASBIY HAMKORLIGI

L. Maxmadgaziyeva SamDU huziridagi XTXQTMO markazi o'qituvchisi

Ta'lim-tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy hamkorliklariga bog'liq. Umumta'lim maskanlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-pedagoglarni ta'lim-tarbiya sohasidagi keyingi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor qilib turish, ularni o'zaro muloqot tizimini tashkil etish va rivojlantirish o'qituvchi mahoratini oshirishda katta ahamiyatga ega. Mintaqaviy joylashuviga ko'ra ta'lim maskanlarida turli darajadagi kasbiy salohiyat bilan ishlayotgan o'qituvchilar va butun pedagogik jamoalarni birlashtiruvchi ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar, ko'rik tanlovlari, malaka oshirish kurslari hamda boshqa ilmiy, uslubiy, ommaviy tadbirlar ta'sirchanligini oshirish davr talabidir. Zero umumiy maqsad birligiga intiluvchi, turli sharoitlarda faoliyat ko'rsatayotgan turli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratlari zamon talablariga javob bersin. Faqat shundagina ular o'qitayotgan o'quvchilar ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlari qo'ygan talablarni to'la bajarishlariga erishishlari mumkin. O'quvchilar o'qituvchiga samimiylik, kasbiga loyqlik xislatlariga ishonch hosil qilganliklaridagina tabiat qonuniyatlarini, hodisa-voqyealar jarayonini, jamiyat qonunlarini, ijtimoiy hayot munosabatlarini to'la tushunib yetadilar.

O'qituvchining kasbiy hamkorligi, hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbir etishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganar ekan, u eng avvalo undagi maqsadni yaqqol tasavvur etishi hamda o'z imkoniyatlari doirasidagi samaradorlik darajasini aniq bilishi lozim.

Pedagogik texnologiya asosida mashg'ulotlar o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'quvchida mustaqil, keng, chuqur, puxta, mukammal, tez, tanqidiy, ijobiy fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bu esa ularda o'z fikrida qat'iylik, atrofdagilar fikriga munosabat, o'z-o'ziga baho bera olish, hozirjavoblik, harakatchanlik va intiluvchanlik xislatlarini shakllantirishda asosiy zamin hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqoti jarayonida o'quvchilarning mavzudagi materiallarni tushunish (tasavvur etish, taqqoslash, mumshtirish, baholash) darajasini rivojlantirishga harakat qilishi lozim. O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari eng avvalo o'qituvchi tomonidan darsda qo'yilgan muammoga bog'liq. Chunki inson o'z hayotida ma'lum muammoga duch kelgandagina tez, keng va chuqur fikrlay boshlaydi.

O'qituvchi butun dars davomida o'quvchilar diqqatini doimo nazorat qilib borishi va e'tiborni boshqa tomonga ketib qolishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarning interfaol uslublaridan foydalanishda o'qituvchining o'quvchilarga fikr erkinligi berishi, ularni kichik bo'lsa-da ijobiy javoblari yoki fikrlarini rag'batlantirib berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki interfaol uslubda mashg'ulotlar


o'tkazilganda o'quvchilarning fikrlash doirasi keng bo'ladi va bajariladigan mashqlar ko'pligi ularni toliqtirib qo'yishi ham mumkin.

O'qituvchi va o'quvchining faol munosabatiga asoslangan interfaol uslublar o'quvchilarda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikr yuritishni rivojlantirish bilan birga o'qituvchilarni ijodkorlik, tashabbuskorlik va izlanuvchanlikka da'vat etadi.

Muloqot o'qituvchilik kasbining asosiy vositalaridan biri bo'lib, u o'zaro munosabatlar majmuasini o'zida aks ettiradi. O'qituvchida muloqot mahorati faqatgina o'quvchilar bilan emas, balki atrofdagilar bilan ham muloqoti bilan xarakterlanadi.

Pedagogik kasbining asosiy maqsadi hisoblangan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, barkamol insonni voyaga yetkazishdan iboratdir. O'qituvchi o'quvchiga faqat fan asoslarini o'rgatibgina qolmay, balki uni hayotga tayyorlash, undagi mavjud qobiliyat va layoqatni ro'yobga chiqarishga imkon berishi lozim.

Dars jarayonida o'qituvchi bolalar bilan jamiyat vakili sifatida muloqot olib borar ekan, eng avvalo uning obro'-izzati hamma uchun namuna bo'lmog'i darkor. Pedagogik takt (odob)ga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchilar, jamoatchilik orasida obro' topa oladi. O'qituvchining obro'-izzati ta'lim-tarbiya samaradorligiga to'g'ri proporsionalligi hamma ayondir.



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

Ш.А.Хўжақулов СамДУХХТХҚТМОҲ маркази ўқитувчиси
О.Б.Эралиев Сийб тиббиёт коллежи

Ўқув – тарбия жараёнида педагогик технологияларнинг тўғри жорий этилиши ўқитувчининг бу жараёнда ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишга олиб келади. Бу эса ўқувчидан кўпроқ мустақилликни, ижодкорлик сифатларини талаб этади. Педагогик технология асосида ўтказилган машғулотлар ўқувчиларни мустақил фикрлашга имконият яратади. Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув – тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари, интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни бекиёсдир. Инновация – инглиз тилидан олинган бўлиб, янгилик киритиш демакдир. Маълум бир фаолиятда шакл, методлар, муаммоларни ечишдаги янгича ёндашув, илғор технологияларни таълим жараёнида қўллаш орқали юқори натижаларни таъминлаш. Бир сўз билан айтганда жараёнга концептуал ёндашишдир.

Ўқитувчи дарс жараёнида ўз ўқувчиларини фанга ижодкорлик нуқтаи-назари билан қарашларини ташкил этиши, уларда изланувчанлик хусусиятларини шакллантириши ва албатта янги педагогик технологиялар асосида дарсни ташкил этиши керак бўлади. Таълим жараёнини замонавий педагогик технологиялар талаблари даражасида ташкил этиш ҳар бир таълим олувчига давлат таълим стандартлари асосида билим олиш имкониятларини яратади. Бу эса ҳар бир ўқувчининг илмли, ақл-заковатли бўлишини, ўз тилида аниқ, раван, эркин ва мантиқий фикрлашини, ўз мустақил фикрига эга бўлишини таъминлайди.

Дарсни интерфаол методларда ташкил этишнинг қуйидаги афзалликлари мавжуд:

- Ўқитиш мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келади.
- Ўқитиш усуллари таълим жараёнида турли хил якка, жуфт, гуруҳ кўринишларда кечади.
- Ўзаро ахборот бериш, олиш, қайта ишлаш орқали ўқув материали яхши эсда қолади.
- Ўқувчида ўзаро мулоқатга киришиш, фикр билдириш, фикр алмашиш каби кўникмалари шаклланади.

-Ўқувчини мустақил фикр юрита олишга, изланишга, мушоҳада қилишга олиб келади.

Қуйида таълим жараёнида қўллаш мумкин бўлган бир неча интерфаол усуллар ва уларнинг дарс жараёнидаги ўтказиш тартиблари ҳақида фикр юритамиз.

Венн диаграммаси

Ушбу технология ўқувчиларда мавзуга оид маълумотларни йиғиш, уларни таққослаш, фарқ ва умумий жиҳатларини очиб бериш малакаларини ривожлантиради. Икки доира бир-бирига устма-уст қизилиб бўш томонларга далил, тушунча ёзилса, ўрта қисмига шу маълумотларнинг умумий жиҳатлари ёзиб борилади. Бу метод орқали ўқувчиларни танқидий, мустақил, ижодий, эркин фикрлашга ўргатилади. Якка ва гуруҳ усулида ишлаш мумкин.

ФСМУ технологияси

Ушбу технология мунозарали масалаларни ҳал этиш ҳамда ўқув жараёнини баҳс-мунозарали ўтказишда қўлланилади. Чунки бу технология тингловчиларни ўз фикрини ҳимоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очиқ ҳолда баҳслашишига, шу билан бирга баҳслашиш маданиятига ўргатади.

Мақсади: Ушбу технология ўқувчиларга тарқатилган оддий қоғозга ўз фикрларини аниқ ва қисқа ҳолатда ифода этиб, тасдиқловчи далиллар ёки инкор этувчи фикрларни баён этишга ёрдам беради.

Ўтказилиш тартиби: 1. Ҳар бир иштирокчига ФСМУ технологиясининг 4 босқичи ёзилган қоғозлар тарқатилади.

- **Ф** – Фикрларингизни баён этинг.
- **С** – Фикрингиз баёнига бирон сабаб кўрсатинг.
- **М** – Кўрсатилган сабабни тушунтирувчи мисол келтиринг.
- **У** – Фикрингизни умумлаштиринг.

2. Тингловчилар билан, баҳс мавзусини ёки муаммони белгилаб олади.

3. Кичик гуруҳларга бўлиб, уларга ФСМУ технологиясининг 4 босқичи ёзилган катта форматдаги қоғозлар тарқатилади.

4. Кичик гуруҳларга ҳар бирлари ёзган қоғозлардаги фикр ва далилларни катта форматда умумлаштирган ҳолда 4 босқич бўйича ёзишларини таклиф этинг.

5. Кичик гуруҳларни ёзган фикрларини ўқиб ҳимоя қилишларини сўранг.

6. Тренер – ўқитувчи томонидан муаммо бўйича фикрлар умумлаштирилади.

“Бешинчисиортиқча” методи

Ўқувчиларнинг мантиқий тафаккур юритиш кўникмаларига эга бўлишларида ушбу метод алоҳида аҳамиятга эга. Уни қўллашда куйидаги ҳаракатлар амалга оширилади.

- ўрганилаётган мавзу моҳиятини очиб беришга хизмат қилувчи тушунчалар тизимини шакллантириш;

- ҳосил бўлган тизимдан мавзуга таалуқли бўлган тўртта (бешта, олти, ...) тушунчанинг ўрин олишига эришиш;

- ўқувчиларга мавзуга таалуқли бўлмаган тушунчани аниқлаш ва уни тизимдан чиқариш вазифасини топшириш;

- ўқувчиларни ўз ҳаракатлари моҳиятини шарҳлашга ундаш (мавзуни мустаҳкамлаш мақсадида, ўқувчилардан тизимда сақланиб қолган тушунчаларга изоҳ бериб ўтишлари ҳамда улар ўртасидаги мантиқий боғлиқликни асослашларини талаб этиш лозим).

Мавзу моҳиятини ёритувчи тушунчалар ўртасидаги мантиқий боғлиқликни кўрсата ва асослай олиш ўқувчиларда мустақил фикрлаш, шахсий ёндашувларни асослай олиш, шунингдек, тенгдошларининг фикрлари билан шахсий мулоҳазаларни ўзаро таққослаш кўникмаларини ҳам шакллантириди.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, таълимнинг интерфаол усулларини мактаб амалиётида қўллаш, ўқувчиларни ижодий фикрлашга, олинган маълумотларни фаолликда ҳал этишга фикрни эркин баён этишга, ташаббускорликка, ҳамкорликда иш юритишга, фикрни ёзма равишда баён этишга чорлайди.

PEDAGOGIYDAGI HISSIY EMOSIONAL HOLATLARNI BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH

*К.Оқилова SamDU huziridagi XTXQTMO markazi o'qituvchisi
M.Masiyeyeva SamMI*

Bugungi kunda inson o'zi hohlamagan holda kuchli stresslar bilan yashaydi va unda muntazam ravishda asab zo'riqishi to'planib boradi. Ba'zi kishilar atrofda qilargilarga baqirib bu holatdan oson chiqib ketadilar. Shunday kishilar borki, o'zlarining tarbiyasi kuchliligi va madaniyatligi bilan hammasini ichlariga yutadilar va bu bilan salomatliklariga zarar qiladilar. Tibbiyot nuqtai nazardan bunday vaziyatlarda janjal ko'tarish mumkin va kerak, madaniyat nuqtai nazaridan esa teskarisi. Bundan kelib chiqadiki, inson o'zi vaziyatga qarab to'g'ri qaror qabul qilishi lozim.

His-tuyg'ularni tiyish odatda turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. G'azab, hasadgo'ylik ovqat hazm qilish a'zolarini jarohatlaydi, g'am-alam esa qandli diabet kasalligini keltirib chiqaradi. Agar inson biron narsadan doimo qo'rquvda yashasa uning qalqonsimon bezlari zahmat

chekadi. Asabiy zo'riqish, salbiy hayajonlar gipertoniya, yurak faoliyatining buzilishi va infarktga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda o'z hayajonlarini, alamlarini ichida saqlab yuradigan odamlarning salomatligi, o'z g'azabini darrov chiqarib yuboradiganlarga nisbatan yomonroq, ya'ni ular yurak hurujlaridan o'z his-tuyg'ularini ushlab turmaydiganlarga nisbatan ikki baravar ko'proq bezovta bo'ladilar.

Stress – bu organizmning zo'riqish holati bo'lib, organizmning unga qo'yiladigan talablariga javob reaksiyasidir.

Stress zo'riqishning belgilari:

- biror-bir narsada diqqatni jamlay olmaslik;
- ishda xatoliklarga yo'l qo'yish;
- hotiraning yomonlashishi;
- charchash hollari ko'p kuzatiladi;
- tez-tez gapirish;
- fikrni jamlay olmaslik;
- og'riqlarning tez-tez paydo bo'lishi (boshda, oshqozonda, gavdaning orqa tomonida)
- yuqori ta'sirchanlik;
- shug'ullanayotgan ishi quvonch baxsh etmaydi;
- ishtahaning yo'qolishi;

Agar biz o'zimizda zo'riqishni his qilsak uning sabablarini aniqlashimiz kerak.

Stress fiziologik, psixologik, shaxsiy va tibbiy ko'rinishlarga ega. Bundan tashqari har qanday stress odamni yuqori darajali emosional tanqislikka olib keladi.

Fiziologik ko'rinishlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak nafas olishning tezlanishi, yurak urishining tezlashishi, yuzdagi oqarish yoki qizarishlar, qondagi adrenalinning ko'payishi, terlash kuzatiladi.

Psixologik ko'rinishlari, ko'p holatlarda fikrlash qobiliyatining sekinlashishi, fikrni bir joyga to'play olmaslik, xotiraning kuchsizlanishi, sezish funksiyalarining kamayishi, qaror qabul qilishning sekinlashishi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy ko'rinishlar ishonchsizlik hosil bo'lishi o'z-o'zini kuzatishni kamayishi barcha harakatlarda holatsizlik ijodiy hol qilish borasidagi passivlik, hovliqishi, qo'rquv hayajonlanish kabilarning ko'payishi.

Tibbiy ko'rinishlar asabiylashishining kuchayishi, baqirg' chaqirlar, hushdan ketish, kuchsizlanish, bosh og'rigi, uyqusizlik bilan namoyon bo'ladi.

Stress-bu hayajonlanishning yuqori nuqtasidir. Stress tanqisligi davrida qonga adrenalin quyiladi. Bu esa qo'shimcha kuch paydo bo'lishiga yordam beradi. Psixologik darajasida esa shaxsni faollashishiga yordam beradi. Faollashishning kuchayishi natijasida emosional quvvatning oshishi affekt holatiga olib keladi.

Affekt bu o'ziga xos dildagi hayajonlanish bo'lib, kuchli va nisbatan qisqa emosional holatdir. Affekt davrida organizmda jiddiy o'zgarishlar harakatlanishi jarayonida, fiziologik ko'rsatmalarda psixologik reaksiyalarda hosil bo'ladi. Affekt ilojsiz sharoitda, odam kutilmagan va xavfli voqyeadan chiqib ketish yo'lini topmagan vaqtda rivojlanadi. Affekt asosida emosional darg'azablik yotadi. Bu holatda inson organizmida katta kuch paydo bo'ladi va u bu kuchdan xalos bo'lishi kerak bo'ladi. Bu holat asosan jismoniy shaklda bo'ladi.

Bizning hayotimiz real voqyealardan hosil bo'ladi. Lekin biz bu voqyealarga o'zimizcha baho beramiz. Shundan ko'rinadiki, u subyektiv bahodir. Agar bizning kayfiyatimiz va nima qilishni bilmay qolsak bizni o'rab olgan hayot ham bizga yomon ko'rinadi; agar biz dunyoqarashimizni optimistik ruhga o'zgartirsak o'z kuchimizga ko'proq ishona boshlaymiz va hayot bunchalik yomon emasligin ko'ramiz. Bundan chiqdiki, stress hamma vaqt ham tashqi holatning ta'siri bo'lmay, bizning ichki dunyomizga ham bog'liqdir. Har qaysi shaxs asabiylashishini to'xtatishga harakat qiladi, chunki u hayotini zaharlay boshlaydi. Buning uchun bir nechta yo'l qo'llaniladi.

Birinchi yo'l inson ko'zlangan maqsadini bajarishi uchun intiladi. Chunki uning xayolida bu maqsadni bajarish hayot mazmunidir. Buning uchun u katta kuch sarflaydi. Maqsad amalga oshmasa, u ilojsizlik holatiga tushadi. Bunday holat esa surunkali stress holatiga olib keladi va u shaxs sifatida kuchsizlanadi.

Ikkinchi yo'l inson bir qancha muammolar bilan to'qnash kelib, unda optimizm yo'qoladi. Va u «ko'ngilsizliklarni kutish» holatida yashay boshlaydi. Unga o'zi yaratgan dunyosi buzilayotgandek tuyuladi. U o'zini qo'yarga joy topolmaydi, har narsaga jahli chiqadi. Uningcha atrofdagilar uni yomon ko'rsatgandek tuyuladi. Shunday qilib u o'zini stress holatiga tushganligini ham bilmay qoladi.

Uchinchi yo'l ayrim insonlarning o'zi uchun muhim bo'lgan voqyealarni sabrsizlik bilan kutishi natijasida keraksiz betoqatlik hosil bo'ladi. Ko'p holda odamni voqalarni to'g'ri yo'lga solishga harakat qilishi ham sabab bo'ladi. Masalan, oilaviy hayotda uydagilarning barchasi uning yo'l-yo'rig'i bilan yashashga harakat qilishidir. Ayrim ota-ona yoki katta farzandning bu boradagi kuchli harakatlari natijasida janjallar kelib chiqishi stress holatiga olib keladi. Bu vaqtda hamma vaqt asablar tarang tortilib turadi.

Stress insonda qanday bo'ladi? Bu individual qattiq, tarzda bo'lib, inson bunday holatda 2-3 soat, kun yoki haftalab bo'lishi kuzatiladi. Bunda insonga «qarshi, mumkin» belgisi xujum qiladi. Hattoki, bosiq, mulohazali odam ham, bu holatda agressiv bo'lib boradi, hayotdan hafa bo'lib, o'zini kamsitilganday xisoblashi mumkin. Hattoki, yolg'iz bo'lishga, xech kim bilan gaplashmaslikka harakat qila boshlaydi. Yapon psixologlari bu fazani «Inson o'z yuzidan xam jirkanib turadi» deb tushintiradilar. Asosiysi inson bu fazada o'z-o'zini tekshirish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini ishga solish kerak. Bu fazada agar inson o'zini o'ksitilganday, shaxsiyatiga tegilganday his qilsa unda qasdma-qasdiga, jurtaga harakatlar qiladi, chunki inson ba'zida boshqa odamlarni jazolashga ehtiyoj sezib turadi va bu noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin. Keyingi fazalarda o'z-o'zini tekshirish susayib, ongsiz xarakat vujudga keladi. Bu inson psixikasiga ta'sir etib o'z-o'zini tushunmay qoladi. hattoki, gapirayotgan gapi ham mantiqqa tug'ri kelavermaydi. Quvonch nimaligini bilmaydi, keyinchalik bu holatda nima ish qilganini ham eslay olmaydi, bundan juda xafa bo'ladi. Bu holat ham bir necha minut, soat, kun va hafta davom etishi mumkin. Bu fazada insonda juda katta energiya sarflanadi, lekin buni o'zi sezmaydi.

Stress holatini keyingi fazasi «o'zidan ketish» deb ataladi. o'z aybini his qila boshlaydi va «nimaqilib quydim» degan afsuslanish hissi paydo bo'ladi, hatto «bu dahshatli-ku, boshqa qaytarmayman» deb o'z-o'ziga va'da ham beradi. Bir necha vaqtdan keyin bu holat yana qaytariladi va o'z stressini mavzusiga kirish boshlanadi, ya'ni taxlil qila boshlaydi. Ayniqsa, ayollar nazaridan mayda-mayda narsalar ham chetda qolmaydi. Shuniig uchun psixologlar ta'kidlashadiki, ota-onalar farzandlarini nigohida ziddiyatlarni sezsa, ularni muammosi bilan astoydil shug'ulansinlar deb maslahat beradilar, chunki bolalikda bo'lgan har bir stress ham ma'lum vaqtgacha avtomatik tarzda saqlanib, keyinroq yuzaga chiqishi mumkin.

Agar bunday holatdan himoyalaniшни o'rganmoqchi bo'lsangiz quyidagilarga diqqat bilan qarang:

- Stress holatida o'zingizni tinchlantiring. o'zingizga loyiq ish toping va ishda vazmin bo'ling;
- Stress holatini o'zingiz yeching va bu vaziyatdan chiqing;
- O'z stressingizni o'zingiz boshqaring, hych yoqqa shoshilmang;
- Stressda o'zingizni optimistlarday tutib, ular bilan yuz kelganda kundan qochishni emas, himoyalaniшни o'rganing;
- Siz uchun kerakli ishlarni olib qolib, qolganlarini chiqarib tashlang;
- Stressda diqqatingiz tarqoq bo'ladi, bu vaqtda muhim muammolarni hal qilmang;
- Stressda kuchli o'ylanishga sabab bo'ladigan muammolarni hal qilmang;

Biz psixolog sifatida sizlarga ma'qul bo'ladi degan masalada mashqlarni taklif etib ko'ramiz. O'ylaymizki, bu mashqlar sizning hayotingizda yaxshi iz koldiradi. Hayotingizda hafa bo'ladigan holatlarni kamroq tashkil eting. O'z sog'ligingizga e'tibor bering va sizni hafa xolatga tushiradigan so'zlarni saqlamang.

«Ichki nur» mashq.

O'rindiqqa qulay o'tirib, kuzingizni yuming. Fikrlaringiz tiniqlashmoqda. Tasavvur qiling boshingizning tepasida yorqin nur paydo bo'lmokda. Bu nur asta-sekin yuqoridan pastga qarab iliq va tiniq nuri bilan ichingizdan sizning yuzingizni yoritib turibdi, Nurning bir maromdagi harakatidan koshingiz va labingiz atrofidagi chiziqlar silliqlashib, yuzingizning muskullari bushashmoqda. Ensa qismingizdagi zo'riqish yo'qolmokda, yelkalarigiz ham zo'riqishdan ozod bo'lmokda. Ichki nur sizning yangi qiyofangizni shakllantirmokda. Bosik, vazmin, o'ziga ishongan, o'z hayotidan mamnunlik seza boshlayotgan yangi qiyofa. Mashg'ulotni quyidagi so'zlar bilan yakunlang: «Men yangi inson bo'ldim!». «Yosh va sog'lomman!», «Bosiq va vazminman!».

“Stress kundaligi”, “Xursandchilik, quvonch kalendari” ni olib borish ko'nikmalarini egallash


“Stress kundaligi” stress holatining xususiyatlarini qayd etish va o'z kechinmalarini fiziologik, emosional va ahloqiy darajalarini tahlil qilish. Kundalikni muntazam ravishda to'ldirib borish va o'zining stress holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

I.S.Shemetning “Xursandchilik, quvonch kalendari” ijobiy emosional holatlarning, yutuqlarning aktualligini ifodalaydi. Kundalikni quyidagi ko’rsatma bo’yicha muntazam ravishda yuritish lozim:

“Bu kundalikda har kungi quvonch, yutuqlar va muvaffaqiyatlarni qayd etib borish kerak. Barcha uncha muhim bo’lmagan voqyealarni ham yozib boring. Kundalikni yuritishda sizga omad tilaymiz”.

Haqiqatdan ham biz ko’pchilik insonlarning doimo nimanidir o’ylab, hayotdan nolib tynganlarini guvohi bo’lamiz. Ko’pchilik odamlar o’z muammolarini o’zlari hal qilmay, boshqa shahslar qo’liga topshirib qo’yadilar. Oddiy bir misol «qanday yashayapsan?»- degan savolga ba’zi birlar «hozircha yaxshi»- deb javob bersalar, ba’zi birlar: «hayot hozir qiyin», «kungildagiday emas» - deb javob beradilar.

Baxtli bo’lish ham, bahtsizlik ham insonning o’z qo’lida. Baxtni har kim o’z qo’li bilan yaratadi. Biz faqat unga yaxshi yoki yomon deb baho berish bilan cheklanamiz.



ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Юмагулова И.Р. АЛ при институте экономики и сервиса

В современном обществе формирование речевой компетенции вызывает большой интерес, так как существует большая проблема, связанная с явным недостатком языкового воспитания, низкой языковой компетенцией большей части населения. Конечно же, с ранних лет человек должен учиться владеть основными навыками: самостоятельно мыслить, искать наиболее правильные пути преодоления трудностей; владеть богатым словарным запасом, быть коммуникабельным, самостоятельно работать над собственным развитием. В связи с этим требования к русскому языку и литературе в школе включают формирование не только лингвистической, но и речевой компетенции школьников, связанной с культурой устной и письменной речи, правилами и способами использования языка в разных речевых ситуациях.

Попробуем определить основные причины, из-за которых у школьников возникают проблемы с овладением коммуникабельных навыков:

Коммуникативный аспект культуры речи остаётся не полностью разработанным. Современные учебники до сих пор не могут в достаточном объёме обеспечить формирование навыков речевого общения в различных жизненных ситуациях.

Современная жизнь отучает детей думать и оценивать окружающую действительность самостоятельно. Речь детей часто бедна из-за того, что у них нет потребности говорить более выразительно и красиво. Речь – это, прежде всего, общение, т.е. понимание людьми друг друга, диалог. Но современная методика в основном развивает монологическую речь, а умение слушать и слышать собеседника не формируется.

Таким образом, главная цель педагогической деятельности - формирование языковой и речевой компетенций учащихся на основе коммуникативно-деятельностного подхода к процессу обучения, позволяющих на практическом уровне овладеть русским языком. Педагог должен обучать языку в тесной связи с нравственным воспитанием, прививать любовь к своей стране, к своим близким через языковую среду. Умение грамотно выстроить свою речь на высоком уровне возможно, если есть понимание и знание того, как с помощью разнообразных лексических и грамматических средств языка отражается окружающий нас мир, выражаются наши мысли и чувства. Как нужно пользоваться этими средствами, чтобы быть понятным окружающими, и как правильно понять смысл обращённой к тебе речи.

Можно выделить следующие задачи педагога:

1. Научить работать с текстом (выделять главную мысль, вести поиск нужной информации, анализировать её, делать обобщения и выводы);
2. Формировать умение вести дискуссию, слушать и слышать собеседника, отстаивать свою точку зрения, подкреплённую аргументами;
3. Выбатывать навыки создания новых текстов, повышать творческий потенциал учащихся, словесно-логического мышления;

Для достижения цели можно использовать следующие педагогические технологии:

-технология проблемного обучения позволяет всесторонне и гармонично развивать ребёнка;

-технология уровней дифференциации на основе обязательных результатов позволяет отработать образовательные стандарты, предупредить неуспеваемость;

-технология проведения учебных дискуссий развивает навыки публичного выступления;


-технология личностной ориентации (обучение в сотрудничестве развивает взаимответственность, способность обучаться в силу собственных возможностей при поддержке своих товарищей);

-проектная технология позволяет повысить и углубить интерес детей; развивает творческие способности учащихся путем формирования компетентности в сфере самостоятельной познавательной деятельности, критического мышления; помогает школьникам приобрести исследовательские и коммуникативные умения, навыки работы с большим объемом информации;

-информационно-коммуникационные технологии активизируют психические процессы учащихся: память, внимание, восприятие; гораздо активнее и быстрее происходит возбуждение познавательного интереса, формируют информационную культуру.

Важно работать с текстом больших художников слова: так будет постепенно формироваться, создаваться «твердый зрительный образ» слова, предложения, твердая лингвистическая подготовка.

Чтобы сформировать у учеников коммуникативную компетенцию, научить их мыслить самостоятельно, недостаточно насытить урок русского языка условно-коммуникативными или коммуникативными упражнениями, позволяющими решать коммуникативные задачи. Важно предоставить учащимся возможность решать какие-то проблемы, рассуждать над возможными путями решения этих проблем с тем, чтобы учащиеся акцентировали внимание на содержании своего высказывания, чтобы в центре внимания была мысль, а язык формировал и формулировал эту мысль.



БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Ф.Эшназарова СамДУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ ўқитувчиси,
Л. Рахматова Урғут тумани 18 - мактаб ўқитувчиси*

Бошланғич таълимда дидактик ўйинларнинг ўрни беқиёсдир. Ўйинсиз том маънодаги ақлий ривожланиш бўлиши мумкин эмас. Ўйин ўқувчиларда билимга иштиёқ ва қизиқишни уйғотадиган учқундир. Ўйин - бошланғич синф ўқувчиларида маълум сифатларни шакллантириш учун катталар - ўқитувчилар, тарбиячилар, ота-оналар томонидан қўлланиладиган усул ҳисобланади. Ўйин воситасида ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштириш жараёни қулайлашади, турли хил предметлар билан муносабатда бўлишга ўрганади, шунингдек, уларда муомала маданияти шаклланади.

Ўйин воситасида боланинг шахси шаклланади, унда келгусида ўқув ва меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва инсонлар билан муносабатга киришишга оид руҳий хусусиятлар шаклланади. Ўйин орқали болалар борликни ўрганади ва дунёни ўзгартиришга ҳаракат қилади. Шундай қилиб, ўйин инсон фаолиятининг шаклланишига асос солади. Ўйинда инсон борликни акс эттириш қобилиятини намоён қилади. Ўйиннинг энг муҳим аҳамияти шундаки, унда илк бор боланинг дунёга таъсир этиш эҳтиёжи пайдо бўлади ва шаклланади. Дидактик ўйинлар ўқувчиларда мустақил фикрлашни тарбиялашнинг энг тўғри ва самарали методидир. У маълум бир материаллар ёки шарт-шароитларни талаб этмайди, балки ўқитувчидан ўйинни ташкил этиш соҳасидаги билим ва малакаларни талаб этади.

“Ўзим текшираман”

Бундай ўйинлар ўтказишда ўқитувчи кичик ҳажмдаги диктантларни танлайди. Бундай ўйинларни ҳар бир бошланғич синфда дарсинг аввалида ўтказиш мумкин. Ўқитувчи ўқувчиларга кичик ҳажмдаги диктант ёздиради. Барча ўқувчилар ёзиб бўлишгач ўқитувчи ҳаттахтага диктант ёзиб кўрсатади. Диктант ҳаттахтага олдин ёзилиб, усти ёпиб қўйилган бўлса, ўқитувчи пардани очади. Ўқувчилар эса ўқитувчи ёзганига қараб ўзларининг диктантини текширади.

“Ким қўп сўз билади”

Бу ўйин ўқувчиларнинг луғат бойлигини ўстиришга ёрдам беради. Бунинг учун синф икки гуруҳга бўлинади ва 1-гуруҳ ўқувчиларига бошланиши ва тугалланиши бир хил унлидан ташкил топган, иккинчи гуруҳга эса худди шундай: бир хил ундош билан бошланиб, шу ундош билан тугалланган сўзларни доскага ёзиш топширилади.

Масалан: 1-гуруҳ “икки”, “алла”, “укку”, 2-гуруҳ эса “қизик”, “катак” каби сўзларни ёзиши мумкин. Ўйин шартига кўра, гуруҳлардаги ўқувчилар навбат билан шартни бажарадилар. Сўз тополмай ёзишдан тўхтаб қолган гуруҳ ютказган ҳисобланади.

“Жумлани давом эттиринг”

Ўйин қоидасига кўра, биринчи ўқувчи қисқа бирор гап айтади, бошқа бирор ўқувчи айнан шу гапга бошқа бирор гап қўшиб бораверади.

Масалан:

1- ўқувчи; Мен ҳикоя қилдим.

2-ўқувчи; Мен қизиқарли ҳикоя ўқидим.

3-ўқувчи; Мен кеча қизиқарли ҳикоя ўқидим ва х.к.

Сўз кўша олмаган ёки ҳатога йўл қўйган ўқувчи ўйинни тарк этади. 6-7 дақиқа мобайнида ўйин давомийлигини таъминлаб турган ўқувчилар ғолиб бўлади ва баҳоланади.

“Ким нима қилади?”

Ўқувчилар гуруҳга бўлинади ва ҳар бир гуруҳдан биттадан ўқувчи доскага таклиф этилади. Биринчи гуруҳ иштирокчиси “Ким?” ёки “Нима?” сўровига жавоб бўладиган сўзларни ёза, иккинчи гуруҳ иштирокчиси “Нима қилади?” сўровига жавоб бўладиган сўзларни қайд этади. Натижада қуйидаги йиғиқ гаплар ҳосил бўлади.

1-гуруҳ

Ўқитувчи

Ўқувчилар

Куш

Шамол

Гул

Пахта

Ёмғир

Қуёш

2-гуруҳ

Ўқитади

Ўқийдилар

Сайрайди

Эсади

Ўсади

Очилади

Ёғади

Иситади

“Бўлиши мумкин эмас”

Бу ўйинни ўтказишда ўқитувчи матнни ўқийди. Ўқувчилар бўлиши мумкин бўлмаган воқеалар ифодаланган жумла ёки гапни топишлари лозим.

Ҳазил-мутойиба билан ўтадиган бу ўйин ҳам ўқувчилардан зийраклик, синовчанлик ва кузатувчанликни талаб қилиши билан биргаликда, улардан атрофида содир бўлаётган воқеа ва ҳодисаларга бефарқ бўлмасликни ҳам талаб қилади. Ундан ташқари уларнинг дарсдан ташқари бўлган илмий ва бадиий адабиётларга ва илмий-оммабоп филмларга қизиқишни орттиради ва ҳикоя тинглаш кўникмасини шакллантиришга ёрдам беради.

1-вариант: Душанба дам олиш куни бўлгани учун Олим мактабга бормади. У синглиси Вазира билан ҳайвонот боғига борди. Улар ҳайвонот боғида сувда сузиб юрган шерни қафасда сайраётган балиқларни ва каттакон ваҳший булбулни кўрдилар.


2-вариант: Ибратжон ёзги таътил кунларида бувисиникига дам олгани борди. У кишлоқда ўртоқлари билан қор бўрон ўйнади. Бувисига сигирларга дон беришда ёрдамлашди. Бувиси сигир соғаетганда сигирнинг улоқчасини ушлаб турди.

3-вариант: Абдулла жуда билимли бола. У бугун ҳам топширикни жуда яхши бажарди. Ўқитувчи уни мақтади ва “нол” балл қўйди. Абдулла яқинда 2-синфни тугатиб, 1-синфга ўтди.

“Олтин тож”

Ушбу ўйинни ойда бир марта ўтказиб туриш ўтилган мавзуларни мустаҳкамлашга, ўқувчилар билимининг даражасини аниқлашга, билим олиш иштиёқини, интилишини кучайтиришга ёрдам беради. Бироқ йил давомида олтин тож совриндори бўлиб юриш кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларига кўтаринки руҳ беради, уларнинг дарсга, тил ўрганишга бўлган қизиқишларини оширади.

Хулоса қилиб айтганда, дарс жараёнида ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиб, таълимий ўйинлардан фойдаланиш самарали натижаларни қўлга киритишга ёрдам беради.



O'QUVCHILARGA BILIM BERISHDA MATN USTIDA ISHLASH METODLARIDAN FOYDALANISH.

*Ikrom Qo'chqarovich Bo'ronov, Rajab Haqnazarovich Nabiyev,
Jizzax DPI huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi o'qituvchilari*

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma'naviy barkamollik, intellektual salohiyatni ko'rsatib turuvchi asosiy mezon – tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror – vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual – intellektual ko'rsatkichlari: ilmiy – ijodiy tafakkuri, aloqa – aralashuvi, ijtimoiy – siyosiy ehtiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta'sir va aks ta'sir natijasini voqyealantiruvchi bosh vosita sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb – hunar kollejlari tizimi ona tili fani oldiga o'quvchidagi kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Buning uchun ona tili ta'limiy mutaxassislari:

- o'quvchilarning tevarak – atrofdagi buyum, narsa, hodisalar va ularning ilmiy – ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirish;

- o'quvchilarda mazkur buyum va hodisalar orasidagi sabab, shart, oqibat, qarama – qarshi munosabatlar, to'g'ri va teskari aloqani aniq farqlash, voqyea hodisalarni analiz va sintez qilish, uni og'zaki va yozma holatlarda nutqiy vaziyat taqazosiga ko'ra to'g'ri va o'rinli tasnif qila bilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'z fikrini erkin, ravon ifodalay olish, o'z ilmiy iqtidori, bilimi, ularni amaliyotga joriy etish orqali qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni (nutqiy mahorat, matn yaratish mahorati) boshqalarga ham yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish ustida ishlashlari lozim.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili ta'limi samarasini oshirish, pedagog xodimlar va o'qituvchilar jamoasida ilmiy potensialni kuchaytirish, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlikni, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhiga yo'g'rilgan ijobiy – rivojlanuvchi muhitni hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlash – so'z boyligini oshirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, o'quvchini muomila – muloqot san'atidan xabardor qilish, turli mazmun va shakllardagi munshaot matnlari, badiiy – ramziy matnlar ustida. Ijodiy ishlash, egallangan BKMLar asosida kichik matnlar, monolog va dialoglar tuzish orqali o'quvchini mustaqil matn yaratishga o'rgatish kabi ijobiy o'quv motivlarini hosil qilishdan iborat bo'lib, u ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.

Zero, mustaqil yaratilgan matn – o'quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqealanishi, tugal bir mazmunning o'quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Matnlar o'zining qator xususiyatlari bilim bir – biridan farq qiladi O'quvchi matn ustida ishlar ekan turli murakkablik, qiyinchiliklarga duch keladi, muammoli vaziyatdan chiqish, uning yechimlarini topish yo'llarini qidiradi. Matn ustida ishlash faoliyati faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio – videolavhalar ustida ishlash ham o'quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi tabiiy.

Ona tili ta'limida matn ustida ishlash usullari bag'oyat xilma – xil. Biz quyida ularning ayrimlari xususida fikr yuritimiz.

Grammatik usul (an'anaviy amaliyot)

1. Berilgan matndan o'rganiladigan mavzuga oid so'zlarni ajratish, ularni so'z turkumlari bo'yicha guruhlash, so'z yasovchi, o'zgartiruvchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni guruhlash.

1. Matndagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish va aksincha, qo'shma gaplarni soddalashtirish.

2. Ajratilgan sodda va qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish;

3. She'riy asarlar mazmunini nasriy yo'l bilan so'zlab berish;

4. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash;

5. Berilgan gapni morfologik yoki sintaktik tahlil qilish v.h.

Ijodiy usul (yangilangan amaliyot)

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora va tasviriy ifodalar bilan almashtirish, ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash;

2. Ajratilgan so'zlarga ma'nodosh, uyadosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar topish va ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash;

3. Ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish;
4. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish;
5. Matndagi gaplarni kengaytirish (ixchamlash);
6. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish;
7. Muammoli matn ustida ishlash va yechimni topish;
8. Berilgan so'z (so'z birikma, gap) asosida mustaqil matn yaratish;
9. Berilgan elektron tasvir (rasm, chizma, jadval) asosida badiiy (ilmiy, tavsifiy, nazmiy) matn yaratish v.h.

Tabiiyki, ijtimoiy jamiyatda yashovchi har bir shaxs yoshligidanoq o'zaro muloqot, muloqot jarayonida fikrlash va fikr ifodalash zaruriyatini chuqur his qiladi. Insonning ma'naviy hayoti mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba – nutqiy muloqot hisoblansa, insoniyat erishgan taraqqiyot, madaniy merosni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng ishonarli yo'li – ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash – mustaqil matn yaratish malakasini egallashdir. Bunday malakaga ega bo'lishning birinchi sharti – o'quvchilarni tayyor matn ustida ishlashga o'rgatish, matn tarkibida mavjud bo'lgan mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni qiyinchiliksiz aniqlash va bartaraf etish, matn mazmuni, shakli va uslubini turfa yo'nalishda qayta ishlash (ixchamlash, kengaytirish, matn tilini boyitish (epigraf, sitata, ibora va tasviriy vosita, maqol, hikmatli so'zlar kiritish)) ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil va tahrir qilish yo'llarini o'rganishga yo'naltirishdir. Grammatik shakllarni o'rganishdan maqsad – o'rganilayotgan lisoniy qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishni nazarda tutadi. Otlarni alohida turlash, fe'llarni tuslash, fonetika, morfemika, morfologik – grammatik – sintaktik qonun – qoidalarni chuqur va keng ko'lamda o'rganish foydali, bil'aks mazkur faoliyat o'quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarining shakllanishi va avtomatlashuviga yetarlicha foyda bermaydi. Bunda shakl, mazmundan ajraladi, shaklni anglatgan ma'nolari to'laligicha ochilmay qoladi. Aksincha, til hodisalari nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo'limlarini o'rganish matn yaratish va matn tahlili bilan birgalikda, o'zaro uyg'unlikda olib borilsa, o'quvchilar shakl va mazmun o'rtasidagi turli – tuman bog'lanishlarni anglab yetadi va o'z nutqiy faoliyatiga tadbiq etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarining shakllanishida topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar o'quv maqsadiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Ta'limiy mashqlar.
2. Nazorat mashqlari.

Bajarilish o'rniga ko'ra sinf ishlari va uy ishlari farqlanadi.

Fikr ifodalash shakliga ko'ra og'zaki va yozma, analitik – sintetik va sintetik mashqlar uchraydi.

Bog'lanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar tayyor va yaratilajak matnlar ustida olib boriladigan o'quv faoliyatini o'z ichiga oladi.

Analitik xarakterdagi tayyor matnlar ustida ishlashda quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- tanlangan matnga sarlavha toping;
- kirish so'z (asosiy qismni, xulosani)ni ixchamlang;
- berilgan matnda mavjud bo'lgan imloviy xatolarni to'g'rilang;
- gaplarda so'z tartibi, tinish belgilarning ishlatilishida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzating;
- uslubiy va imloviy xatoli matnlar ustida ishlang;
- berilgan matndan kengaytirilishi (ixchamlanishi) mumkin bo'lgan gaplarni toping va bartaraf

qiling;

- berilgan matndan noo'rin ishlatilgan so'zlar, so'z birikmalari, sitatalarni toping va bartaraf

qiling;

- berilgan matnga mos keladigan maqol, hikmatli so'zlar, ibora va tasviriy ifodalar toping. Ularni matn tarkibiga kiriting;

- berilgan matn bilan tuzatilgan (kengaytirilgan) matnni qiyosiy tahlil qiling;

- nima uchun matnda berilgan so'zni (so'z birikma, ibora, tasviriy ifoda) almashtirganingizni tushuntiring;

An'anaviy ta'limning kammahsul, tahliliy usullaridan voz kechib yangi, "o'quvchi – ta'lim - o'qituvchi" tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini ilg'or o'quv texnologiyasi yutuqlariga asoslangan, zamonaviy didaktik materiallar (rangli slaydlar, muayyan o'quv dasturi kiritilgan disketlar; audio – video kasetalar v.h.) bilan qurollantirish, o'quvchilarni jahon ta'lim standartlari talabalariga mos keladigan yangi avlod darsliklari va dasturlari bilan ta'minlash – o'quvchilarda mustaqil matn yaratish jarayonini jadallashtirish va shunday ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. Toshkent "Sharq".
2. Umumiy o'rta ta'limning "Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi". Toshkent "Sharq" 1999 yil 1-maxsus sahifasi.
3. Abduraimova M. Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2001 yil.
4. Nurmonov A, Ikromov I, Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, 2007 yil.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABAQALASHTIRILGAN TA'LIMNING O'RNI

N.A.Yunusova SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markaz o'qituvchisi
D.E.Turobova Samarqand shahar 54-maktab biologiya fan o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. SHu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishiga bog'liq.

Shu sababli – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash bilim samaradorligini ta'minlaydi. Jumladan ta'lim jrayonida tabaqalashtirib o'qitish o'qituvchidan o'z ustida ishlashni talab etsa, o'quvchida o'ziga ishonch o'z ustida ishlash, o'zlashtirilgan bilimlar bilan chegaralanib qolmaslik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ma'lumki tabaqalashtirib o'qitishning maktab, sinf, guruhlar, individual shakllari mavjud. Uning zaminida individuallashtirish yotadi, individual yondashish esa samarali o'qitishning zaruriy sharti bo'lib, u har bir o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos ijobiy tomonlari juda ko'p. Uni amalga oshirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, sinfdagi har bir o'quvchi shaxsini bilim va imkoniyatlarini yaxshi bilib, shu asosda darsni tashkil etishni talab etadi.

Dars berish va yuqori natijaga erishish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu mahorat o'qituvchining o'z bilimi, kuchiga bo'lgan ishonchi, o'quvchi bilimini xolisona to'g'ri baholay olishi, o'z kasbini, o'quvchilarini sevishi, ular bilan birga qadam tashlashidan iborat.

Tabiiyki, bu holat o'quvchilarning bilim sari intilishlarini, qiziqishlarini ortishiga sabab bo'ladi.

Ta'limga bunday yondashuv sinf o'quvchilari o'rtasida, o'quvchi – o'qituvchi, o'qituvchi – ota-ona o'rtasida ayrim nizolarning kelib chiqarishi ham ehtimoldan xoli emas.

Shu sababli, o'qitishni bu yo'sinda tashkil etgan o'qituvchi doim izlanishda bo'lishi, o'z o'quvchilarini individual xususiyatlarini o'rganib, ular ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil eta oladigan nafaqat mahoratli pedagog, yaxshi psixolog ham bo'lishi kerak.

O'qituvchi sinfda o'quvchi shaxsiga tegmagan holda, ularga bildirmay ularni 2 ta toifaga bo'lib oladi va o'z faoliyatini shu asosda tashkil etadi. Ya'ni, o'quvchi uchun ishlatiladigan barcha topshiriq tiplarini tabaqalashtirgan xarakterda tayyorlaydi, jumladan, o'rtacha va tez o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ularning bilimlari, imkoniyatlarini inobatga olgan holda topshiriqlar tayyorlaydi. Masalan nazorat ishi uchun tayyorlanishi lozim bo'lgan testlarni 2 variantda tavsiya qilamiz. 1-variant (tez o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun), 2 –variant (o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun). O'quvchilar bilimini nazorat qilishning bu yo'li o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish uyg'otsa, tez o'zlashtiruvchi o'quvchining o'z ustida ko'proq ishlashiga sabab bo'ladi.

Ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan topshiriqlar quyidagi afzalliklarga ega:


- 1.Topshiriqning "tabaqalashtirilgan" xarakterda ekanligining sir tutilishi va o'quvchi shaxsining hurmat qilinishi kafolatlanadi.

2. О'quvchi imkoniyatlari inobatga olingan holda topshiriqlar tayyorlanadi.

3. О'quvchida o'z ustida ishlash, mavjud bilimlar bilan chegaralanmaslik ko'nikmalari shakllanadi.

4. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar tayyorlash jarayonida o'qituvchining ham pedagogik mahorati oshib boradi.

Tabaqalashtirib o'qitish sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil yondashuvdan voz kechib, har bir o'quvchiga uning imkoniyatlari inobatga olingan holda e'tibor qaratilishiga va o'z navbatida o'zlashtirish samaradorligini oshishiga olib keladi. Bunday o'qitishning asosida o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi, erishilgan bilimlardan cheklanib qolmaslik, yangi bilimlar sari intilish hissi paydo qilish yotadi. Sababi, har bir texnologiya o'ziga xos ilmiy asosga ega bo'lib, ma'lum maqsadni, ta'lim natijasini kafolatlovchi xulosaga ega bo'lish uchun amalga oshiriladi, uning natijasida qobiliyatli, fikrlash doirasi tez va keng yoshlar shakllanadi va ular orqalaridan juda ko'p tengdoshlarini ergashtiradi. Eng muhimi, bu yoshlar davrasidagi suhbatlarda ilmiylik, o'z vatanining qadriyatlariga hurmat, uning boyliklarini asrash va boyitish g'oyalari ustuvorlik qiladi.



МАКТАБ ЎҚУВ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МАЖМУАЛАРИДА ТАЪЛИМ БЕРУВЧИ ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ҚИСКА МУДДАТЛИ КУРСЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Г.В.Елдашева – Низомий номидаги ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТУМОХМ доценти

Ўзбекистонда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш жараёни кечмоқда. Мамлакатимизда ишлаб чиқариш тез суръатлар билан ривожланмоқда. Ишлаб чиқаришда бўлаётган технологик ўзгаришлар мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчилардан доимий изланувчанликни талаб қилмоқда ҳамда меҳнат бозорининг талабларига жавоб берувчи касб эгаларини тайёрлашда ўқув режа ва дастурларни такомиллаштириб, керакли ўзгартиришлар киритиб бориш зарурлигини кўрсатмоқда.

Бунинг учун, ўқитувчилар ишлаб чиқариш соҳасида эришилаётган ютуқларни ва инновацион технологияларни ўзлаштириши, бўлажак касб эгаларига янги технологияларни ўргатиш билан биргаликда, ўқувчилар психологияси ва педагогикани ўзлаштирган бўлишлари талаб этилади. Ушбу вазифани ҳал этиш учун мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларининг малакасини ошириш бўйича қисқа муддатли курсларни ишлаб чиқариш корхоналарида ташкил этиш заруратини келтириб чиқаради. Қўйилган вазифанинг бундай ечими орқали мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларининг янги технологияларни тезкор ўзлаштириш имконияти яратилади.

Юқоридаги муаммоларни ҳал этиш учун ишлаб чиқариш корхонасида замонавий техника ва технологияларни ўрганиш мақсадида мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчилар учун қисқа муддатли малака ошириш курсларини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Ишлаб чиқариш корхоналаридаги қисқа муддатли малака ошириш курсларнинг мақсади - мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларнинг меҳнат бозори, шахс, давлат ва жамият эҳтиёжлари асосида замонавий жиҳозларни ишлатиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш бўйича касбий билими, амалий кўникма ва малакаларини янгилаш ва чуқурлаштириш, самарали ва тезкор малака ошириш.

Малака ошириш курсини ташкил этишда қуйидаги вазифалар амалга оширилиши лозим:

- малака оширишга бўлган эҳтиёжни аниқлаш;
- малака ошириш ўтказиш жойи ва вақтини аниқлаш.
- курснинг ўқув режа ва дастурларини ишлаб чиқиш;
- малака ошириш учун дарс берадиган ўқитувчиларни танлаш;
- курснинг моддий-техник базасини ва ўқув-услубий материалларни тайёрлаш;
- курсларни сифатли ва самарали ўтказиш;
- курсларни баҳолаш ва мониторингини олиб бориш.

Касбга йўналтириш ишининг самарали ишлаши учун меҳнат бозори ва иш берувчиларнинг малакали ишчи кучига, тайёрланган мутахассисларнинг билим ва кўникмаларига нисбатан талабларининг доимо ўзгариб туришини инобатга олиши, ўқув режа ва дастурларини янги ишлаб чиқариш технологияларини инобатга олган ҳолда доимий тарзда такомиллаштириши лозим.

Мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларининг малакасини ошириш бўйича қисқа муддатли курсларни режалаштириш муҳим жараён бўлиб, унинг сифати малака ошириш курсининг самарадорлигининг ошишида асосий омил ҳисобланади.

Қисқа муддатли малака ошириш курсларини режалаштириш учун мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларининг малака оширишга бўлган эҳтиёжи ўрганилиши ва унга асосланган ҳолда курснинг мазмуни танланиши лозим.


Малака оширишга бўлган эҳтиёжни аниқлашда суҳбат ва анкета сўровномаларидан фойдаланилади. Суҳбат ва сўровномалар таҳлил қилингандан сўнг, ушбу ўқитувчиларнинг малака ошириш жараёнида эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар тавсифи ишлаб чиқилади. Албатта, билим, кўникма ва малакалар тавсифи малака ошириш курслари учун турлича бўлиши мумкин. Чунки, ҳар бир касб ўз йўналишидан келиб чиққан ҳолда, ўзига хос хусусиятларга эга бўлади.

Мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларнинг ишлаб чиқариш корхоналарида ўрганишлари лозим бўлган асосий кўникма ва малакалари куйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

- ишлаб чиқариш шароити ва талаблари билан танишиш;
- жиҳозларнинг тузилиши ва ишлаш принципини ўрганиш;
- жиҳозларни ишлаб чиқариш корхонасининг йўриқномасига биноан ишлата олиш;
- техника хавфсизлигини иш ўрнида, цехларда, корхона бўйича ўрганиш;
- фавкулда ҳолатлар рўй берганда иш жойида биринчи ёрдам кўрсатиш йўларини ўрганиш;
- замонавий жиҳоз ва ускуналарга техник хизмат кўрсатишни ўрганиш;
- ишлаб чиқариш жараёнидаги янгилик ва ўзгаришларни ўрганиш.

Қисқа муддатли малака ошириш курсини ташкил этиш учун ҳар иккала томон учун қулай бўлган вақтни танлаш муҳим. Чунки ишлаб чиқариш шундай жараёнки, уни вақтинчалик тўхтатиб бўлмайди. Бундан ташқари, мактабдаги ўқув жараёнига ҳам ҳалақит бермаслик керак. Шунинг учун курс машғулотларини ишдан сўнг (кечки курс), ёки қишки ва ёзги таътил пайтларида ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Қисқа муддатли малака ошириш курсларининг муваффақиятли ва самарали ўтказилиши кўп жиҳатдан унинг тайёргарлигига, яъни услубий жиҳатдан тўғри режалаштирилганлиги ва ташкил этилганлигига боғлиқ бўлади.



O'QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION SHAKLLARI

*B.Q. Xaydarov - f.-m.f.n., TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM
"Tabiiy va aniq fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti
S.S.Jumanazarov – t.f.n., TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM
o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari*

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshiralayotgan keng ko'lamli islohatlar o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonlariga ham yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayoni natijasi o'qituvchilarning umumkasbiy va pedagogik salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunga kelib, maktablarimizdata'lim sifatini keskin oshiradigan, pedagogik muammolarni yechishga ijodiy yondashadigan hamda ularni samarali hal qilishga qodir zamonaviy pedagog-xodimlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu bois, o'qituvchilar malaka oshirish tizimini takomillashtirish, uning mazmunini yangilash va yangi shakllarini izlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu o'rinda, an'anaviy ta'lim shakllarini takomillashtirish, modifikatsiya qilish bilan bir qatorda yangi shakllarini rivojlantirish vata'lim jarayoniga jadal joriy etishga katta e'tibor berilmoqda.

Qator rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasiga nazar solsak, malaka oshirish tizimida mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarningsoni va taktibiga qarab: 1) umumjamoaviy-ma'ruzalar, nazariy

seminarlar, seminar-praktikumlar, treninglar, fan haftalari, pedagogik ko'rgazmalar, multimediali taqdimot ko'rik-tanlovlari, ilmiy-amaliy anjumanlar; 2) guruhiy–fan o'qituvchilari uchun mashg'ulotlar, ijodiy guruhlar, ish o'yinlari, darslarni kuzatish va reflaksiya, ochiq darslarning video tasvirini tomosha qilish, muhokama va tahlili, seminarlar; 3) yakka-tartibda – “ustoz-shogird” shaklidagi murabbiylik, individual ijodiy mavzu bo'yicha mustaqil ish hamda multimediali taqdimot yaratish bo'yicha maslahat va suhbatlar, o'z darslarini o'zi tahlil qilish, mustaqil ta'lim olish kabi shakllarda olib boriladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning bunday shakl va metodlarini, ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, an'anaviy va innovatsion guruhlarga bo'lish mumkin. Quyida ta'lim jarayonini tashkil etishning hozirda urf bo'lib borayotgan ba'zi shakllari xususida to'xtalamiz.

Noan'anaviy ma'ruzalar. An'anaviy ta'limning asosiy shakli bo'lib, ko'p ma'lutotni tez yetkazish, ular orasidagi aloqadorliklarni yaqqol ko'rsat'sh hamda mantiqiy tugalligi va butligi bilan ajralib turadi. Yangi o'qitish uslublarini qo'llash bilan bir qatorda ma'ruza ham takomillashib bordi va uning ma'ruza-muhokama, bahsli ma'ruza, video-ma'ruza kabi turlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Seminarlar. Ushbu ta'lim shakli ishtirokchilarning ta'lim jarayoniga o'zaro faol muloqotga kirishini va ijodiy qobiliyatlarni faollashtirishini talab qiladi. Seminarlar mavzuni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, ta'lim oluvchilarning o'z fikrlarini himoya qilishga hamda boshqalarning fikrlarini tinglashga va hisobga oladigan bo'ladi.

Refleksiv kuzatuv va faol amaliyot. Ushbu trening mashg'ulotlari darslarga qatnashish, mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni tahlil qilish va baholash, shuningdek, boshqa amaliy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, mazkur ta'lim shakli o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, kasbiy faoliyatini tahlil qilish va baholashining hamda o'z-o'zini anglashining muhim vositasi sifatida qaralmoqda. O'qituvchilar o'zining va boshqalarning tajribasini tahlil qilish orqali o'z faoliyatlari haqida muhim xulosalar qiladilar. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning rivojlanishiga olib keladi. Buni “Tajriba” + Refleksiya = “Rivojlanish” formula tarzda ifodalash mumkin. O'qituvchilarning mustaqil ravishda o'rganishi, muammolarni tahlil qilishi va ularga yechim topishga intilishi bilan bog'liq amaliy misollar va vaziyatlarni o'rganish orqali ta'lim olish samarali ta'lim vositasidir.

Konkret vaziyatlar tahlili asosida o'rganish “keys-stadi” metodi (inglizcha “case” – vaziyat, “study” – o'rganish so'zlaridan olingan). Metod muayyan hayotiy vaziyatlarni tahlilidan iborat bo'lib, u ta'lim oluvchilarda zarur kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, malakalarni, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. U katta yoshdagilarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga mos kaladi hamda nazariya va amaliyotni bir-biriga bog'laydi. Bu usul ilk bor AQShda paydo bo'lib, tez orada butun dunyoga tarqaldi.

Mikroo'qitish. Malaka oshirish tizimida keng qo'llanilayotgan innovatsion usul hisoblanadi. Mikro-dars butun darsning bir bo'lagidan iborat bo'ladi. “Laboratoriya” sharoitida tashkil qilinadigan bunday kichik dars jarayoni qisqa vaqt davomida amalda o'qitishning turli metodlarini namoyish qilish, kichik o'quv materialini o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Odatda darsning kichik bir bo'lagi mikro-dars sifatida videotasmaga yozib olinadi. Video yozuvni qayta-qayta tomosha qilish orqali qo'yilgan pedagogik muammoni o'rganish va uning yechimini topish mumkin bo'ladi.


Ilmiy-uslubiy tadqiqot ishi va uning himoyasi. Bu ta'lim shakli o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Menyu” yoki “Shved stoli” ta'lim shakli. Bu ta'lim shaklida malaka oshirishga kelgan o'qituvchilarga rang-barang mavzular tanlov bloklari sifatida taqdim qilinadi. Tinglovchilar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zlari uchun qiziqarli va foydali bo'lgan mavzular blokini, ya'ni o'z o'quv trayektoriyalarini tanlashadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, ta'lim jarayonini tashkil qilishda an'anaviy va innovatsion shakllarni birlashtirib qo'llash uning samadorligini oshishiga xizmat qiladi. Bu ayniqsa, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida katta natijalar berishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar va elektron resurslar

1. Мязина О.Ю. Анализ системы повышения квалификации учителей в зарубежных странах . – Известия ВГПУ, №2(261), 2013 г. Педагогические науки.
2. Котельникова Н. Н. Инновационные формы повышения квалификации учителей в Китае // Педагогика: традиции и инновации: материалы Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, октябрь 2011 г.).Т. II. 2011.151-153.



РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В ПРОЦЕССЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Курахмедова Л.Э. Заведующая ДОУ Самарканда

Организация коммуникативного процесса в сфере дошкольного образования имеет свои особенности, обусловленные спецификой профессиональной деятельности специалистов.

Педагогу необходимо помнить, что при использовании стилей общения следует учитывать становление и развитие образа-Я у ребенка, его стремление быть лучше. В связи с этим педагогическая позиция воспитателя проявляется в признании индивидуальности ребенка, его неповторимости; предполагает создание таких педагогических условий, которые способствовали бы раскрытию у детей потенциальных возможностей, творчества и активности.

Коммуникативные знания и умения могут быть использованы в работе с детьми, родителями, коллегами на различных этапах педагогического общения. Специфика варьирования данными умениями, в зависимости от психологических особенностей коммуникантов, выражается в действиях, входящих в их состав.

Основным видом устноречевой коммуникации, обусловленным выражением мыслей и чувств, как в инициативной, так и реактивной формах, является говорение. Высшим его уровнем признана динамичная, спонтанная, инициативная, действенная речь.

На наш взгляд, при развитии коммуникативной компетентности у педагогов дошкольного образования целесообразна организация методической работы, в процессе которой будет осуществляться решение профессиональных педагогических задач. Реализация такого подхода обеспечивается следующими условиями: включение в содержание методических мероприятий проблемного контекста, создание эмоционально-ценностного фона, мотивация речевой интенции обучаемых, вариативное использование форм сотрудничества, актуализация субъектного опыта в сфере коммуникаций и расширение субъектных функций специалистов сферы дошкольного образования.

Кроме того, необходимо ввести в содержание запланированных мероприятий информацию о значимости эффективной коммуникации в педагогической деятельности, об основных предпосылках формирования коммуникативных знаний и умений у детей дошкольного возраста, о взаимозависимости коммуникативной компетентности воспитателя и коммуникативной компетенции воспитанников.

Формирование у педагогов ценностных ориентаций на эффективную коммуникацию осуществляется посредством организации бесед, диспутов, дискуссий, наблюдений за коммуникативным поведением коллег при взаимодействии с детьми, их родителями, администрацией дошкольного образовательного учреждения, составление и решение на их основе проблемных ситуаций и задач коммуникативного характера, анализ собственных коммуникативных способностей.

Особо значимо проведение педагогических советов, теоретических семинаров, семинаров-практикумов и пр., интегрирующих научные знания из области лингвистики, теории коммуникации, детской психологии, дошкольной педагогики. При этом внимание педагогов следует сконцентрировать на следующих вопросах:

— теоретические аспекты проблемы коммуникации в педагогическом процессе (структурные модели коммуникации, коммуникативные барьеры, закономерности внутреннего взаимодействия);

— конкретные способы речевого поведения в трудных ситуациях взаимодействия (конфликтные ситуации, преодоление критики, выступление на публике, контакты, реализуемые в дошкольных образовательных учреждениях и пр.);

— самопознание своей личности в процессе общения (как меня воспринимают другие, как я воздействую на других в общении, в чем трудности моего общения и т.д.).

В практике обучения коммуникации особенно популярны разнообразные тренинги, участвуя в которых педагоги непосредственно соприкасаются с изучаемой реальностью, приобретают жизненный опыт, моделируемый в групповом взаимодействии. Технологии, используемые в современном коммуникативном тренинге, включают стандартный набор методов активного обучения:

— информация, сообщение, мини-лекция;

- структурированная или управляемая дискуссия;
- мозговой штурм;
- разбор кейса, задачи или упражнения;
- ролевая игра и «разыгрывание» ситуаций в ролях;
- имитационные игры;
- фрагменты деловых игр;
- видеодемонстрации.

На наш взгляд, одним из эффективных методов обучения коммуникации является игра, основанная на понимании личности обучаемого как чувствующего, мыслящего и активно действующего участника событий, приближенных к реальным. Как известно, игра является распространенным многовариантным методом современного образования. Использование различных видов игр в процессе подготовки педагогов к общению с коллегами, детьми и их родителями позволяет радикально сократить время накопления собственного социального опыта, развивает предусмотрительность в выборе коммуникативных тактик и стратегий, преобразует обобщенные коммуникативные знания в личностно значимые.

Сегодня в ходе организации методической работы широко используются ролевые коммуникационные игры. Участники представляют себя в роли действующих лиц конкретной педагогической ситуации и разыгрывают ее в лицах. Одна и та же ситуация может проигрываться несколько раз, чтобы дать возможность участникам побывать в разных ролях и предложить свои варианты решений.


Таким образом, ролевая игра создает условия для того, чтобы педагоги могли:

- уяснить нормы поведения и общения, а также собственные социальные установки, чувства и мысли, связанные с различными ролями;
- развивать умение входить в положение других, лучше понимать их позиции и чувства;
- побывать в ролях и опробовать формы общения в ситуациях, моделирующих реальный образовательный процесс в ДОУ.

Воспитатели, участвуя в игровой деятельности, не бояться совершить ошибки, они спокойно ищут решения, перед ними расширяется пространство выбора стратегии и тактики коммуникативного поведения.

Таким образом, практический аспект развития у педагогов коммуникативной компетентности включает систему тренинговых занятий, деловых игр, элементов театрализованной деятельности, педагогических ситуаций, направленных на осознание себя и ребенка субъектами коммуникации, на практическое овладение коммуникативными тактиками и стратегиями. При моделировании педагогического общения и подборе проблем целесообразно приблизить их к реальным профессиональным ситуациям, к которым могут быть отнесены совершенствование предметно-развивающей среды дошкольных образовательных учреждений, выступление на педагогических советах, проведение индивидуальных и коллективных консультаций для родителей, организация этических бесед с детьми и др.

Следует отметить, что компетентное поведение в процессе общения зависит, прежде всего, от мотивации и готовности включаться в субъективно значимое взаимодействие.



МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК МИЛЛИЙ НИКОҲ МАРОСИМЛАРИНИНГ ТРАНСФОРМАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ЭСТЕТИК ЭВАЛЮЦИЯСИ

Р.Комилов *СамДУ хузуридаги ХТХҚТМО худудий марказ ўқитувчиси*

Ўзбекистон мустақаллик йилларида халқимизнинг миллий анъаналар, турмуш тарзи, менталитети, урф-одатлари ва унинг демографик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда маънавий, ҳуқуқий ислоҳотларни олиб борди. Ўзбекистон ушбу хусусиятларга ва халқаро ҳуқуқнинг умумий қоидаларига таянган ҳолда инсонпарвар, демократик, ҳуқуқий давлат барпо этишни ўзининг мақсади қилиб қўйган. Мустақилликдан кейин жадал ривожлантирилган кадриятлардан бири бу оила ва никоҳ маросимларидир. Миллий никоҳ маросимлари, ёшларнинг муқаддас кадрият бўлган оилага бўлган муносабатини ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий тартибга солиш долзарб масалага айланди.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида ифодаланган инсон ҳуқуқларини барча халқлар ва барча давлатлар бажаришга интилиши лозим бўлган вазифа сифатида эълон қилган. Бу ҳужжатнинг 16-моддасида эса: 1. Балоғатга етган эркаклар ва аёллар, ирқи, миллати ёки динига қараб бирор-бир чеклашсиз никоҳдан ўтиш ва оила қуриш ҳуқуқига эгадирлар. Улар никоҳдан ўтаётганда ҳам, никоҳда бўлган вақтида ҳам ва никоҳ бекор қилинганда ҳам бир хил ҳуқуқлардан фойдаланадилар. 2. Никоҳ никоҳдан ўтаётган иккала томоннинг хоҳиши ва батамом розилиги билангина тузилиши мумкин. 3. Оила жамиятнинг табиий ва асосий ҳужайрасидир ва у жамият, давлат томонидан муҳофаза этилиш ҳуқуқига эгадир¹, деб таъкидланган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ушбу ҳуқуқий мезонлар ҳам миллий, ҳам умуминсоний қадриятлар бирлигида акс эттирилган. Дунё конституциявий тажрибасини миллий-маънавий ва ҳуқуқий қадриятларимизга, ўзбек халқининг бой тарихига уйғунлаштириб, ўзига хос ижтимоий-ҳуқуқий макон яратганлиги диққатга сазовордир. Унда “эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлилиги” (46-модда), “оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, эркин ва тенг ҳуқуқли никоҳ тузиш, фарзандларни вояга етказиш ва тарбиялаш учун ота-оналарнинг бир хил жавобгарлиги” (64-модда) “Оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга” (63-модда), деб² кўрсатилган. Демократик ислохотларни чуқурлаштириш баробарида фуқаролар жамияти талаблари ҳуқуқий мезон сифатида, маънавий-ахлоқий қадрият сифатида рўёбга чиқмоқда. Никоҳ маросимлари, жинслараро тенглик, никоҳ ёшени белгиланиши, оила муқаддас қадрият сифатида жамиятда алоҳида институтга айлантирилиши Ўзбекистонда оила кодексини такомиллаштирига олиб келди. Бу ўз навбатида никоҳга бўлган миллий-этник муносабатларни ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий ва эстетик трансформациясини юзага келтирди.

Никоҳ ва оилавий муносабатларини тартибга солишда ўн икки аср давомида Туркистонда амалда бўлган диний-ҳуқуқий тузим – шариат, мусулмон ҳуқуқи меъёрлари, ҳадисларнинг роли жуда катта бўлиб, рус босқинидан сўнг, “Туркистон АССР тузилгач, 1918 йил 16 декабрда қабул қилинган “Фуқаролик ҳолати далолатномалари, никоҳ, оила ва васийлик ҳуқуқи ҳақида РСФСР қонунлар кодекси”да никоҳ ёшига тўлиш қизлар учун 16 ёш, йигитлар учун 18 ёш деб белгиланган эди”³. Шўролар даврида ҳам ўзбек халқини никоҳ ёшига бўлган ўзгаришлар бўлди, жумаладан, 1928 йил 7 мартда қабул қилинган “Никоҳ, оила ҳамда васийлик ва гражданлик ҳолати актларини ёзиш ҳақида қонунлар кодекси”да қизлар никоҳ ёши 16, йигитлар учун 18 ёш деб белгиланди. Ўзбекистонда мустақилликдан кейин Никоҳ ва оила кодексининг 18-моддасига биноан никоҳ ёши эркаклар учун 18, қизлар учун 17 ёш деб белгиланган бўлиб, 1998 йилдан эътиборан “Никоҳ кодекси”га кўра, қизлар учун 18, йигитлар учун 20 ёш – никоҳга кириш ёши этиб белгиланган эди. Аммо ҳозирга келиб, бу ҳам ўзгарди, яъни 15-моддага кўра, энди никоҳланиш ёши аввалдагидек, эркаклар учун 18, аёллар учун 17 ёш деб белгиланди⁴. Айрим сабабларга кўра, алоҳида ҳолларда никоҳланувчиларнинг илтимосига кўра, никоҳ давлат рўйхатидан ўтказиладиган жойдаги туман, шаҳар ҳокими никоҳ ёшени кўпи билан бир йилга камайтириши мумкин.

Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида қабул қилинган расмий ҳужжатларида ифодаланган никоҳ ва оила қонунларининг асосий тамойиллари аввало бир фуқаро фақат ягона никоҳда бўла олиши, никоҳ томонларининг ихтиёрий розилиги ва тенг ҳуқуқлилиги, оилавий муносабатларда бўлувчиларнинг шахсий ва мулкий ҳуқуқи, мажбуриятлари борасида тенглиги, оиланинг жамият ва давлат муҳофазасида эканлиги, оналикнинг муҳофаза қилиниши ва рағбатлантирилиши, уларнинг муносабатлари давлат томонидан ҳуқуқий тартибга солинишидан иборат. Бундан шундай хулоса келиб чиқадики, мамлакатимизда қонуний ҳужжатларда ифодалаб берилганидек: 1) оила бир умрга қурилади; 2) оилалар яқка никоҳлилика асосланади; 3) оилалар икки томоннинг ихтиёрий розилиги билан тузилади; 4) оилада эрхотин тенг ҳуқуққа эга; 5) оила қурувчиларнинг ёши – қизларники 17, йигитларники 18 бўлиши керак.

Бу никоҳ муносабатларини ҳуқуқий жиҳатдан татибга олиш миллат генафондини ва фуқаролик жамияти талаблари туфайли такомиллашиб боради. Ўтган даврдани ҳуқуқий трансформацияга эътибор берсак, дастлаб диний – шарий никоҳдаги кўрсатмалар менталитет ва диний мансубликдан келиб чиққан бўлиб, қиз ёки ўғил болаларни никоҳланиши балоғат ёшидан бошланган. Хусусан, ҳозирги кунда жиддий хавф деб белгиланган эрта никоҳ қуриш ўз ўтмишига


¹Қаранг: Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. -Нью-Йорк, 1996. –5-бет.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2017. –2,18-бетлар.

³Расулова З.А. Тошкент шаҳри ўзбекларининг оила-никоҳ муносабатлари (XX аср охири – XXI аср бошлари). Тарих фан. ном.автор.р.Т.: 2009, 18-бет.

⁴Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгариш ва кўшимчалар билан) Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: Адолат, 2007. – 8-бет.

эгалигини кўриш мумкин. Мустақилликдан сўнг жамият соҳаларининг маънавий ислоҳ этилиши бу соҳага ҳам жиддий эътибор берилишини билдиради.



O'ZBEK MILLIY URF-ODATLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

O.Toshpulatov *SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markaz o'qituvchisi*

O'zbek xalqi qadim o'tmishdan bugungi kungacha o'zining boy tarixi, ma'naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlariga ega bo'lib, zamonlar osha uni o'z qalbi va ma'naviyatida saqlab kelib avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Unda millatning orzu-umidlari, u yashayotgan tabiiy geografik, ijtimoiy muhit, xalq istidodi, malakasi, qobliyatini, etnik xususiyat hamda belgilari o'z ifodasini topgan.

Jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblangan oila munosabatlari nikohdan boshlangan. Nikoh-yangi oila vujudga kelganligi jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan shar'iy, qonuniy holatdir.

Oilani, avvalo ota boshqaradi, oila oldidagi burchi va vazifasi mas'ulligi sababli, otaning mavqei oilada yuqori turadi. Oila boshlig'i undagi ichki intizomni saqlashi, odob-axloq mezonlariga amal qilishni nazorat qilishi, iqtisodiy-moliyaviy ta'minot vazifalarini bajarishi zarur bo'lib hisoblanadi. O'zbek oilasining tarbiyaviy tomonlaridan yana bir muhim jihati shundaki, unda otaning shariat tartiblari yoki milliy urf-odatlariga muvofiq ayollarning insoniy huquqlarini kamsitmasligi, hurmatini o'rniga qo'yishi, ularga mehribon va xushmuomala munosabatda bo'lishi, farzandlarning bilim olishi, kasb-hunar egalari bo'lishini ta'minlashi, sog'lom o'sishlari uchun mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishlari axloq qoidasi sifatida shakllangan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi jamiyat hayotida alohida o'rin egallab kelgan. Oilada o'g'il bolalarga avlod davomchisi sifatida qaralgan. Qizlarga esa bo'lajak ona va sadoqatli uy bekasi, iffat ramzi sifatida tarbiya berilgan. Voyaga yetish jarayonida o'g'il bola ota ta'sirida, qiz bola esa ona ta'sirida ulg'ayganlar. O'zbek xalqiga mos muhim xususiyatlardan biri bu mahalla ahlining bolalarni tarbiyalashda hamjihatlikda harakat qilishlaridir. Otaning farzand oldidagi burchlari shariat va islomiy qoidalar bo'yicha yaxshi nom qo'yish, xushxulqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli qilib o'stirish, o'qitish, kasb-hunarli qilish, uylantirish, qizlarni turmushga chiqarish kabi vazifalarni ado etishdan iboratdir. Ota-onalar qariganda, mehnat layoqatini yuqotganda farzandlar o'z ota-onalarini holidan xabar olishlari va g'amxurlik qilishlari o'zbekchilikning muhim shartidir.

O'zbek xalqining turmush tarzini uning sharqona dasturxonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dasturxon atrofida o'zbek xalqining samimiyati jo'sh urib turadi, insoniy milliy qadriyatlarimizning ham moddiy, ham ma'naviy ko'rinishlari omuxta va mujassam holatda yuzaga chiqadi. Turli toifadagi kishilar ham dasturxon atrofida hurmat qilinib, iliq so'zlar bilan bir-birini alqydilar. Shunga ko'ra xalqimiz dasturxonini aziz, muqaddas, rizq-ro'z manbai, ramzi deb belgilangan. Taomilga ko'ra tanovul qilishni yoshi ulig' kishi boshlab beradi. Agar oila davrasida bo'lsa avval ota, so'ngra ona boshlaydi.

To'y marosimlari o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixiy davr moboynda shakllangan bo'lib shunday tantanalardan biri nikoh to'yidir. Bunda ikki yoshning yangi hayotga qadam qo'yayotganligi el-ulus, quni-qo'shnilarga ma'lum qilinib, ularning turmush qurishga kirishayotganligi e'tirof etiladi. Nikoh to'yigacha quda-anda taraflar turli marosimlarni bajarishadi. Bu bir-birovini yanada yaqindan bilish, o'zaro ishonchni mustahkamlash, to'ni yaqinlashtirish yo'lidagi harakatlardan iborat. Bular uy ko'rar (qiz ko'rish), sovchilik, sep taxlash, to'qqiz tovoq, qizlar majlisi, betochish, kelinsalom kabi marosimlar. Nikoh to'yigacha bayram kunlari, yakshanba kunlari bozor oqshomi deb nomlangan lagan yoki tog'ora oshi kelinnikiga junatilgan. To'ydan bir kun oldin yoki to'y kuni qizning otasinikida nikoh marosimi o'tkazilib "hutbai nikoh", yani nikoh o'qilgan.

Kuyov kelinni olib ketish uchun kelinnikiga borganda ukki o'rtog'i bilan go'lxan (olov) atrofida aylanadi so'ngra o'rtoqlari bilan go'shangaga (chimildiqqa) kiradi. Dasturxon yozilib, to'qqiz tovoqqa to'qqiz xil taom tortiladi. Chimildiqqa avval kuyov, so'ngra kelin olib kirilgach, oyoq bosish, ko'zguga qarash marosimlari o'tkaziladi, salomnoma qo'shiqlari aytiladi. Kelin kuyovnikiga kelgach ikkalasi olov atrofida uch marta aylanadi.

Kelin salom marosimiga ko'ra kelin kuyovning ota-onasi va qarindoshlariga alohida-alohida salom beradi shu bilan betochar va ko'rmana marosimlari o'tkaziladi.

O'zbek xalqi to'ylaridan beshik to'yi nikoh to'yining mahsuli sifatida oilada ilk ko'rilgan farzand sharafiga beriladi. Beshik chaqaloqning ona tomoni qarindoshlari – bobosi, buvisi, tog'a va xolalari tomonidan tashkil etiladi. Beshik udumi bilan bog'liq chaqaloqqa zarur barcha buymlar tayyorlanadi. Sovg'alar karnay – surnay sadolari jo'rligida olib borilgan. Chaqaloqni beshikka belash marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida qarindoshlar yuz ko'rarga kirib sovg'alar berib, beshik ustiga shirinliklar sohib bolaga, oilaga baxt tilaydilar.

Millatimizning qadimgi to'ylaridan yana biri sunnat (xatna) to'yi bo'lib, undan maqsad islomning sunnatini bajarishdir. To'y o'g'il bolalar 5 yoshga yetgunicha ya'ni tog' yoshlarda 1-3-5 yoshlarda o'tkaziladi. To'yga ko'rpa-to'shak to'y sarpolari tayyorlanadi. To'y oldidan xatmu qur'on marosimi o'tkaziladi. Sunnat to'yi elga osh tortish va unga kelajakda ezgu tilaklar tilash bilan yakunlanadi.

Fasillar bilan bog'liq urf-odatlarlar va bayramlarni bir-biridan qo'yidagicha ajratish mumkin.

1. Qishki mavsumda o'tkaziladigan gap-gashtak va ziyofatlar.

2. Bahorgi tantanali marosimlar, ya'ni Navro'z, shox moylar qo'sh chiqarish, lola yoki qizil gul sayli, loy tutish va boshqalar.

3. Kuzgi marosimlar-hosil yig'imi' shamol chaqirish va uzum sayli kabi marosimlar.

Har bir fasilda o'tadigan urf-odat va marosimlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqimizda Navro'z bayrami alohida ko'tarinki va jozibadorlik, tantanavorlik hamda mehr-oqibatlilik mazmuni ufurib turgan holatda o'tgan.

Sharq mutafakkirlarining, jumladan Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom ilmiy ijodiy meroslarida Navro'z ilk bahorning kirib kelishi, dehqonchilik bayrami sifatida ta'riflanadi. Navro'z ham xalq ham davlat bayramidir. Bayramga bag'ishlab turli sport tadbirlari, karnay-so'rnaylar, dorbozlik, aytishuvlar, ashula va raqs tadbirlari ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Har bir xonadon turli xil pishiriqlar, taomlar pishirganlar eng asosiysi Navro'zning shox taomi sumalak katta dosh qozonlarda tayyorlanib, butun mahalla ahliga ulashiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning tarix sinovlaridan o'tgan bayramlari marosimlari, urf-odatlarini xalqimizning ajoyib fazilatlarini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan jihatlarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik xuslatlarini namoyon etadi. Xalqning o'ziga xos milliy, ruhiy ko'rinishlarining barchasi xalq bayramlarida o'z ifodasini topadi.

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlarini bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.


Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbaya hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas.

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamlı jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqarolarimiz orasidagi o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik fazilatlarining namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning «Shu aziz Vatan barchamizniki» degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim ro'l o'ynamoqda.



WAYS OF TEACHING YOUNG LEARNERS

Ibragimova N Tayloq tuman 4-umumta'lim maktabi Ingliz tili o'qituvchisi

There are many ways to define young learners. Mostly they are associated with children at kindergarden and primary schools. For instance Scott and Ytreberg (1990) focus on children age 5 to 10. Some other sources consider young learners to be in a wider range – aged 4 to 18. Philips (1993) define young learners as children age 6 to 12 years old.

According to Biehler and Snowman (1986) children possess these characteristics:

- ✓ children are full of energy, very active, need a constant change of activities
- ✓ therefore should not work by their desks for too long, they need movement;
- ✓ the need of breaks (change of exhausting and quiet activities); children get easily tired and need time to absorb new energy;
- ✓ fine motor skills are not fully developed: pupils can not be writing for too long;
- ✓ the sight of children can be easily overburden therefore the materials should be written in appropriate size and we can not force pupils to look into distance for too long;
- ✓ we should try to avoid rash and careless activities (children tense to move in a very fast way and they are very often too confident in managing the movement skill);
- ✓ children are picky in choosing their “best-friends”: try to teach them to cooperate with each other;

- ✓ games are fun and the rules of the games should be kept and understood by every single child;
- ✓ use criticism in a very cautious way, children are very sensitive to it; the need to feel the success and the feeling of recognition;
- ✓ young learners worship their teachers ;
- ✓ especially during the first grades at school, children are longing to learn, they are already motivated for learning;
- ✓ they prefer talking than writing, reciting, acting;

Scott and Ytreberg (1990) stress another characteristics of a young learner (aged eight to ten years):

- ✓ they want to learn as much as possible, they constantly ask;
- ✓ they start to be responsible for themselves;
- ✓ they know what they want to do or what they do not want to do;
- ✓ they want to "play fair " and they want their teacher to make the fair decisions
- ✓ they like to work in groups;
- ✓ their mother tongue is fully equipped – they can think in an abstract way, they

Understand symbols, they can make up their minds on what is wrong or right or what is true or fiction;

the highest time when children form their thinking style is at the age of seven or eight, from that point they can understand the adults world in a better way;

Since young learners have limited attention spans, it is important to include several short activities in a lesson and to move quickly from one activity to another. Activities of five to ten minutes in length are most successful. A balance between the following kinds of activities is often useful:

Quiet / noisy activities.

Different skills: listening, talking, reading / writing.

Individual work / pair work / group work / whole-class activities.

Teacher–pupil / pupil–pupil activities.

Build lessons around tasks.

A task is a meaning-focused activity that requires learners to draw on and use their existing linguistic resources to complete a task, such as drawing a picture from oral instructions, or working in pairs or groups and sequencing a series of pictures to complete a story. The key features of classroom tasks for young language learners are:

They have coherence and unity for learners (from topic, activity and/or outcome).

They have meaning and purpose for learners.

They have clear language-learning goals.

They involve the learner actively.

Build lessons around themes.

Lessons can be built around topics or themes, such as animals, friends, food or family, for very young learners; and for older learners, themes can be drawn from subjects in their other classes and the community, such as transport, country life, travel and famous people. Theme-based lessons provide continuity across activities and enable English learning to be connected to the children's lives.

Choose content children are familiar with.

Teaching can also be built around familiar content from the children's culture, such as stories and events (e.g. national holidays or cultural practices). Since the learners will be familiar with talking about these topics in their native language, it will be easier for them to connect with how they can talk about them in English.

Use activities that involve collaboration.

Children enjoy socializing with other children, and activities that work best with young learners are those in which children are working with others in pairs or groups, rather than remaining in their seats, listening to the teacher. Activities that involve collaboration require careful preparation to ensure that children have the words and expressions they need in order to carry out an activity.

Create a supportive learning community in the classroom.

A class of young learners needs to become a community of learners – that is, a group of learners with shared goals, needs and concerns. Thinking of a class as a community means seeing it as a place where each child in the class cooperates and collaborates to achieve the class's common goals. This leads to more productive learning. Children who interact and collaborate with other learners develop a more

positive attitude towards learning and a greater sense of self-confidence than those in other learning arrangements.

Use enjoyable activities that children can accomplish without frustration.

Young learners enjoy taking part in activities that they can successfully achieve, but which also offer some kind of challenge. Activities of this kind depend on the teacher providing language input and modelling for young language learners, where the teacher and the materials are the primary source of language.

Provide rich language support.

Since the learners will have little knowledge of English to call upon, they need careful language support for learning activities. Success will depend on the teacher providing language models, demonstrating the way the activities can be carried out in English and providing the language support an activity depends upon.

Give clear goals and feedback.

Children like to be successful at things they do in class. In order to achieve this, it is important to set clear goals for children and to let them know when they have been successful, or if not, why not. Praise for success is very important for young learners, for example, by using stars, stickers, points or smiley faces.

Use English for classroom management.

Use English for instructions, for routines such as forming groups, for introducing activities, for giving feedback and for other teaching processes.

Use the mother tongue when needed.

While the goal of teaching young learners is to use as much English in class as possible, when teaching homogeneous classes, it is quite appropriate to use the mother tongue when necessary to explain the meaning of words and expressions and to help explain activities. Occasional use of the mother tongue provides a comfort zone for young learners, though the teacher and students should not become over-dependent on it.

To conclude, it is important to show children that English is not only a subject, but it is going to be a medium for communication in today's modern world. That is why it really is crucial to introduce a foreign language during non-language activities, so children realize that English has a real purpose and learning is not only for getting good marks.



БАРКАМОЛ АВЛОДДА УМУММАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Сатторова Ойдин Ургут тумани 29-умумтаълим мактаби ўқитувчиси

Юртимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан таълим-тарбия тизимини ҳозирги давр талаби даражасига кўтариш ҳар томонлама баркамол шахсни шакллантиришга, яъни пировард натижада малакали кадр тайёрлашга боғлиқ. Чунки жамият тараққиётининг асосини унинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланганлиги билан бир қаторда шу жамиятда яшаётган фуқароларнинг интеллектуал ва маънавий салоҳияти ҳам белгилаб беради. Шу нуқтаи назардан қараганда ҳар бир давлатнинг истиқболи, унинг таълим тизими қай даражада эканлиги билан белгиланади. Ҳозирги пайтда таълим жараёнининг шахсга йўналтирилган таълим технологиялари асосида ташкил этилишини таъминлаш долзарб вазифалардан ҳисобланади. Ҳозирги таълим тизимида билимларни эгаллашнинг янги концепцияси-ноанъанавий таълим технологияларининг услубларини қўллашни тақозо этмоқда.

Ноанъанавий таълим технологияси: Ҳамкорликда ўрганиш, моделлаштириш, тадқиқот (лойиҳа) технологияларига бўлинади ва у яхлит узвий тизим асосида олиб борилади. Педагогик фаолият самарадорлиги даражаси эса “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари ёрдамида амалиётда оммалашиб кетди. Олимларнинг фикрига кўра, “компетенция” шахс мукамал биладиган предмет – соҳа бўлиб, унинг фаолият кўрсатиши учун тайёр эканлиги ўлчови ҳисобланади. Яъний Компетенция – билим, амалий кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётда дуч келадиган амалий ва назарий масалаларни ечишда фойдаланиш ва қўллай олиш қобилиятидир.

“Компетентлик” тушунчасини эса ундан фарқли ўлароқ, шахснинг йўналтирилган таснифи,

битирувчининг маълум соҳада фаолият кўрсата олиши кўникмаси эканлигини таъкидлайдилар. Демак, компетенциявий ёндашувга асосланган таълим ёш авлодда мустақиллик, фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш, ташаббускорлик, медиаресурслар ва ахборот-коммуникация технологияларидан ўз фаолиятида оқилона фойдалана олиш, онгли равишда касб-хунар танлаш, соғлом рақобат кўникмаларини шакллантиради. Инсон ўз ҳаётида шахсий, ижтимоий, иқтисодий ва касбий муносабатларга киришиши, жамиятда ўз ўрнини эгаллаши, дуч келадиган муаммоларнинг ечимини ҳал этиши, энг муҳими ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўлиши учун зарур бўлган таянч компетенцияларга эга бўлиши лозим. Таълим жараёнида ўқувчи-ёшлар эгаллашлари керак бўлган таянч компетенциялар муҳим компетенциялардан ҳисобланиб, булар қуйидагилардан иборат:

- коммуникатив компетенция;
- ахборот билан ишлаш компетенцияси;
- шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси;
- ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси;
- умуммаданий компетенциялар;

математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси.

Ўқувчилар эгаллаши лозим муҳим компетенциялардан бири умуммаданий компетенцияга тўхталиб ўтмоқчиман. Умуммаданий компетенцияга:

Ватанга садоқатли, инсонларга меҳр-оқибатли ҳамда умуминсоний ва миллий қадриятларга эътиқодли бўлиш;

бадий ва санъат асарларини тушуниш, таъсирлана олиш;

орапта кийиниш, юриш-туришда маданий меъёрларга ва соғлом турмуш тарзига амал қилиш;

умумбашарий аҳамиятга эга бўлган қадриятларни (урф одатлар, маросимлар, миллий-маданий анъаналар ва.х.к.) билиш, унга ҳурмат билан муносабатда бўлиш;

ўзгаларга нисбатан меҳр-мурувват, саҳийлик, ўзгаларнинг дунёқараши, диний эътиқоди, миллий ва этник хусусиятлари, анъана ва маросимларини ҳурмат қилиш;

халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асраш, жамиятда ўрнатилган одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиш.

Умуммаданий компетенцияларни ёш авлодда шакллантиришнинг асосий омиллари:

- ўқитувчи қуйидаги касбий компетентлик сифатларига эга бўлмоғи лозим: касбий интилиши, таъсирчанлиги, интеллектуал фаоллиги, мақсад сари интилувчанлиги, меҳнатсеварлиги, камтарлиги, кузатувчанлиги, ораторлик сифати, ўқувчи болалар психик ҳолатларини сезувчанлиги, ижтимоий ўзаро ҳаракатчанлиги, педагогик тактга ва педагогик маданиятга эга бўлиши;

- қадимий анъаналаримиз, тарихий меросимизни асраб-авайлаш ва ривожлантириш, шу билан бирга, ўқувчиларимиз онгида демократик қадриятларни шакллантириш, ватанпарварлик ва умуминсоний фазилатларни сингдириш, халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асраш ҳамда ўрганиш мақсадида саёҳатлар уюштириш;

-оилавий тарбия масаласида хатога йўл қўймаслик, аввало ҳар қайси хонадондаги маънавий иқлимни ўзаро ҳурмат, ахлоқ-одоб, инсоний муносабатлар асосига қуриш.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги шиддатли даврда чинакам маънавиятли ва маърифатли одамгина инсон қадрини билиши, ўз миллий қадриятларини, миллий ўзлигини англаши, эркин ва озод жамиятда яшаш, мустақил давлатимизнинг жаҳон ҳамжамиятида ўзига муносиб ўрин эгаллаши учун фидоийлик билан қураша олиши мумкин, ёш авлодни умуммаданий компетенцияларни ва ўқувчилар дунёқарашида ахлоқий қадриятлар ва инсонийлик сифатлари ҳам тушунчаларнинг камол топиши, барқамол шахс бўлиб шаклланишида бугунги замон билан ҳамнафас, мукамал ва билимли ўқитувчиларнинг ўрни бекиёсдир.

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL USULLAR.

Kamola Suvonova – SamDU huzuridagii xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi.

Kadrlar tayyorlash Miliy dasturiga muvofiq mashg'ulotlarda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy usullar Respublikamiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, rivojlanib bormoqda, bu esa o'quvchilar faolligini oshirib, ta'lim samaradorligiga olib kelishi tabiiydir. Ta'lim-tarbiya

jarayonidagi har bir yangilik, yangi noan'anaviy, interfaol usullar insonning pedagogik faoliyatidagi o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, jamiyatning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, interfaol-lotincha "inter" so'zidan oingan bo'lib, "orasida", "o'rtasida" degan ma'noni anglatadi. Ta'limda interfaol usul-bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Interfaol usullarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi-dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida qo'llanilayotgan interfaol dars usullari haqida davr taqozosidan kelib chiqqan holda ko'plab ma'lumotlar to'planmoqda va amaliyotda joriy etilmoqda. Biz quyida tasviriy san'at fani bo'yicha qo'llash mumkin bo'lgan ana shunday usullar haqida to'xtalib o'tamiz.

"Kichik guruhlarda ishlash" mashg'ulotlari boshqa fanlar qatori tasviriy san'at fanlarida ham keng qo'llaniladi, negaki noan'anaviy mashg'ulotlarning aksariyati kichik guruhlarini tashkil etishdan boshlanadi. Bunda o'qituvchi guruhni o'zi belgilagani, shuningdek, guruhlariga bo'linish ham noan'anaviy bo'lgani ma'qul. Masalan, o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda to'rt xil tasviriy san'at janrlari yozilgan yoki tasviri tushirilgan kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi, har bir janrdagi o'quvchilar to'rtta guruhni tashkil etadi. Guruhlarga shu fanga xos - "San'at", "Nafosat", "Kamalak", "Yosh rassom" kabi nomlar tanlanishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlanib, bu vazifa o'quvchilar hukmiga havola etiladi. Bu usulda faoliyat yo'nalishi aniqlanib, yangi dars mavzusi va muammoli vaziyatlar haqida o'quvchilar boxabar qilinadi. Guruhlarga sardor tayinlanib, aniq ko'rsatmalar beriladi, bunda o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turishi kerak. Topshiriqlar va ularning bajarilishi albatta muhokama qilinadi.

"Mozaika" o'yin-topshirig'ida o'quvchilar mayda bo'laklanib, xatjild(konvert)larga solingan, biror tasvirni anglatadigan namunalarni yig'ishlari va kerakli tasvirni hosil qilishlari lozim bo'ladi. Ushbu musobaqada guruhning barcha a'zolari birday ishtirok etadilar. Diqqat bilan fikrlash, boshqalar fikriga quloq tutish muvaffaqiyat garovidir. Vazifa hamma ishtirokchilarga bir vaqtda tarqatiladi va ishtirokchilar o'qituvchi ishorasi bilan bir vaqtda vazifani bajarishga kirishadilar. Qaysi guruh shartni birinchi bo'lib bajarsa, o'qituvchiga xabar beradi va yutuqlar albatta baholanadi.

"Dibat" usuli ko'pchilikka tanish bo'lsada, bu usulni tasviriy san'atga mos holatda tashkil etish haqida fikr yuritmoqchimiz.

Bu usulda o'quvchilar 2 guruhga bo'linadilar. Mashg'ulot bahs, munozara asosida olib boriladi. Har bir guruh ikkinchi guruhga savol beradi, ikkinchi guruh esa javob beradi. Bu jarayon navbati bilan davom etadi. Savollar fanga oid, mushohadaga chorlaydigan, qiziqarliroq bo'lgani ma'qul. Masalan, Kamoliddin Behzod tahsil olgan miniatyura maktabining nomini ayting, degan savolga bir jumlada "Nigoriston maktabi" deb javob berish mumkin, ammo o'quvchilar bahs jarayonida ushbu miniatyura maktabi tashkil etilgan muhit, uning ahamiyati, musavvirning ustozlari, Behzod zamondoshlari haqida ham fikr yuritadilar. Yoki Toshkent shahridagi Milliy bog'da o'rnatilgan A.Navoiy monumental yodgorligi mualliflari haqida savol berilganda ularning ismi, shariflari, bu yodgorlikning yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, haykaltaroshlarning hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumotlar bilan to'ldirilisa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana bir interfaol dars usullaridan biri "Intellektual ring" o'yin-topshirig'i biz darsda qo'llayotgan, samarali natijalar berayotgan usullardan biridir. Ushbu o'yin-topshiriq tezkor savollardan iborat bo'lib, o'quvchilar har bir savolga bir daqiqa ichida javob beradilar. Savollar muhokama qilinmaydi, savollar qaysi guruhga (navbati bilan yoki qur'a tashlash yo'li bilan) berilayotgan bo'lsa, xohlagan o'quvchi bir daqiqa ichida tezkor javob berishi kerak. Savollar tasviriy san'at va umumiy fanlardan iborat bo'lib, umumiy fanlardan har bir to'g'ri javob uchun 2 ball, tasviriy san'atdan har bir to'g'ri javob uchun 1 ball qo'yiladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. BMT binosi qaysi shaharda joylashgan? - 1 ball.
2. Natyurmort nima? - 2 ball.
3. Uchburchakning yuzi nimaga teng? - 1 ball.
4. "A. Temur portreti" muallifi kim? - 2 ball va hokazo.

Savollar ana shu yo'sinda davom ettiriladi. Har bir guruh uchun savollar soni 10 tadan iborat bo'lib, to'g'ri javoblar uchun 15 ball to'planadi. Bunday o'yin-topshiriqlarni har chorak oxirida o'tkazgan ma'qul.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugunki kunda olimlarimiz, ilg'or pedagog o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni boyitish va hayotga tadbiiq etishga astoydil kirishganlar. Biz yuqorida ana shunday texnologiyalarga tayanib ishlab chiqilgan va tajribamizda qo'llanilayotgan ayrim interfaol usullar haqida to'xtalib o'tdik. Zero, Respublika miqyosidagi seminar-trening mashg'ulotlarida, ilmiy-amaliy konferensiyalarda tadbiiq etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar va mashg'ulotlar ishlanmalarini o'rganish, unga ijodiy yondoshib ish faoliyatimizda ko'proq qo'llash lozimligini davr taqozo etmoqda.

МУНДАРИЖА

Сўз боши	3
1-ШЎБА.	
МАЛАКА ОШИРИШ МАРКАЗЛАРИДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАРИ.	
<i>Курахмедов А., Расулова Д.</i> Инновацион фаолият – таълим-тарбия жараёни самарадорлигининг муҳим омили.....	6
<i>Нишанов Ш.</i> Использование интернет-ресурсов на уроках иностранного языка	8
<i>Нарзикулова Ф.</i> Совершенствование профессиональной подготовки слушателей в центрах повышения квалификации с точки зрения инновационного подхода	10
<i>Ҳасанова К., Жамалова Н.</i> Инновацион ғоялар ва технологияларни таълим жараёнига жорий этиш хусусиятлари.....	11
<i>Бакиров О.</i> Ижтимоий гуманитар фанларни ўқитишда дидактик ўйинли дарсларнинг аҳамияти.....	12
<i>Бобоқулов Г., Артикова У.</i> Та'лим-тарбия жараёнида самарали ташкил этишда педагогик технологияларнинг о'рни.....	14
<i>Норматматова Ф., Даниyarова Н.</i> Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilar faolligini oshirish usullari.....	15
<i>Аминов И., Оқназаров Т., Тўғизбоев Ф.</i> Таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширишда ахборот-коммуникацион технологияларидан фойдаланиш ўрни	17
<i>Очилова М., Абдурахмонова Ш.</i> О'қитувчиларнинг касбий kompetentligini oshirishda motivatsiyalashning o'рни.....	18
<i>То'xtayev О., Хайитова М.</i> Odbnoma darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	19
<i>Худойқулов Д.</i> Глобаллашув жараёнида мутолаа маданиятининг ёшлар тарбиясидаги ўрни.....	21
<i>Умаров С., Теміров Х.</i> Та'лим samaradorligini oshirishda malaka oshirish tizimining zamonaviy texnologiyalari.....	22
<i>Sulaymonova F., Ahrorova Z.</i> Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi.....	24
<i>Pardayev Z.</i> O'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish	25
<i>Oqilova K., Haydarova Z.</i> O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalarining o'рни.....	26
<i>Babadjanov A., Oqnaazarov T.</i> Matematika fanini tabiatshunoslik va fizika fanlariga integratsiyasining ahamiyati.....	27
<i>Юлдашев Ж.</i> Таълим тизимида педагогик технологияларнинг аҳамияти	29
<i>Номозов Ф.</i> Малака ошириш тизимида таълим самарадорлигини оширишнинг замонавий технологиялари.....	30
<i>Yunusova N., Ibodullayeva D.</i> Biologiya darslarida interfaol metodlarning foydalanish.....	33
<i>Набиева Х.</i> Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish.....	35
<i>Эшбоев М.</i> Использование информационных технологий на уроках родного языка и литературы.....	36
<i>Нишанов Ш., Эльзара Т.</i> Современный учитель- фасилитатор.....	39
<i>Қулیمов А., Рахимова И.</i> Кадрлар малакасини ошириш жараёнида педагогик инновациялардан фойдаланиш.....	41
<i>Usmonov B., Hayiturodov Sh.</i> Umumta'lim maktablarida pedagoglarning faoliyatini samarali tashkil etish	42
<i>Shodiyeva O.</i> Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalar	44
<i>Ataev A.</i> Teaching foreign language in teacher training courses.....	45
<i>Сапаров С., Аминов И.</i> Таълим тизимини бошқаришда компьютер технологияларидан фойдаланиш сифатини ошириш	47
<i>Жуманиёзова Т., Атабекова У.</i> Физика фанини ўқитишда фанлараро боғланишнинг аҳамияти.....	48
<i>Babadjanov A.</i> Matematika fanini tabiatshunoslik va fizika fanlariga integratsiyasining ahamiyati.....	50
<i>Сулётбаева Э., Кайназарова Л.</i> Мактаб педагогларининг қобилиятларини ривожлантириш масалалари	52
<i>Зулунув Қ.</i> Малака ошириш тизимида инновацион технологияларини жорий этиш муаммолари	53
<i>Муталлибжонов М.</i> Малака ошириш марказларида замонавий инновацион технологиялардан фойдаланишнинг самарадорлик омили.....	55

<i>Otaxanova D.</i> What makes a good English teacher?.....	56
<i>Усмонова М., Атабоева М.</i> Ўқув жараёнарини такомиллаштиришнинг инновацион ёндашувлари	58
<i>Қаршиева З.</i> Мактабгача таълим муассасасида болаларни мактабга тайёрлашда замонавий ёндашувлар	60
<i>Kadirova N.</i> Texnologiya fani mashg'ulotlarida noan'anaviy usullardan foydalanish	61
<i>Боймурзаева Р.</i> Малака ошириш тизимида тингловчиларнинг мустақил фаолиятини ташкил этишга оид инновациялар.....	64
<i>Каримова Н.</i> Таълим тизимида мультимедиялардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	65
<i>Rabbanaeva D.</i> Pedagog faoliyatida kompetentlik darajasining ahamiyati	67
<i>Раимкулова И.</i> Кейс-технологии как средство формирования ключевых компетенций учащихся на уроках русского языка и литературы.....	68
<i>Рахманова З., Мирсаидова М.</i> Использование педагогических инноваций в подготовке учащихся к высшей школе	70
<i>Toshpo'latova N.</i> O'quv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yondashuvi	71
<i>Самъяев А., Эшманова Д.</i> География йўналишида компетенцияларнинг шаклланишида ғарб давлатлари илғор тажрибаларини ўрганиш : муаммолар ва ечимлар.....	74
<i>Rustamova Z.</i> Using the innovation technology in lessons for increasing effective teaching	75
<i>Эргашева Г., Хошимова Х.</i> Таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашда инновацион технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	76
<i>Раҳимова Г.</i> Ўқувчиларда ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини тарбиялашда педагогларнинг информацион компетентлигини ривожлантириш.....	78
<i>Ханкельдиева Н.</i> Инновационные технологии в преподавании математики.....	80
<i>Бердалиева Г.</i> Мактабгача таълим муассасалари машғулотлари жараёнини интеграциялаш	81
<i>Абдураимов И., Ширинов О.</i> Фанни ўқитиш методикасида янги педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш.....	83
<i>Uralov A.</i> Innovatsion ta'lim texnologiyalarida kompetensiya	84
<i>Суяров К.</i> Ўқувчиларда тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиришнинг психологик-педагогик муаммолари	86
<i>Искандаров Э.</i> таълимда инновациялар самарадорлигининг ижтимоий -психологик омиллари.....	87
<i>Махмудова Е.</i> Использование информационно-коммуникационных технологий на уроках в начальной школе.....	89

2-ШЎББА.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА ОММАЛАШТИРИШДАГИ УЗВИЙЛИК.

<i>Qurbonov N.</i> Rahbar pedagogning kompetentlik xususiyatlari	91
<i>Эгамбердиев Р.</i> Ўқувчиларида жисмоний маданиятни шакллантиришнинг педагогик-психологик компетенцияси	92
<i>Hakimov K.</i> Ta'lim samaradorligini oshirishda kompetentsiyaning o'rni	94
<i>Eshquvvatov T., Xolboyeva G.</i> Pedagogning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish masalalari	96
<i>Суддиқова Г.</i> Ёш авлодни мусикий компетентлигини оширишда нафосат тарбиясининг роли.....	97
<i>Xudoyberdiyeva X., Ibragimova N.</i> O'qituvchining kasbiy kompetentligi bugungi kun talabi	100
<i>Eshquvvatov T., G'oyibnazarov J.</i> O'qituvchilar kasbiy mahoratida psixologik tayyorgarlikni oshirish.....	101
<i>Машиарипова Ш.</i> К вопросу о развитии профессиональной компетентности учителя.....	102
<i>Svetlana K.</i> Some recommendations for conducting extra-curricular activities	104
<i>Аекеева Г.</i> Формирование у учащихся информационной компетенции на уроках русского языка и литературы.....	106
<i>Nigmatova M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik treninglardan foydalanish	107
<i>Смайлова Г.</i> Педагогнинг маҳорати ва компетенциявий хусусиятлари	108
<i>Notozova L., Xolboyeva G.</i> Pedagogik kompetentlik o'qituvchi faoliyatining asosi sifatida	110
<i>Normaxmatova F., Ibragimova N.</i> Teaching listening through movie clips	111
<i>Мадраҳимова М.</i> Ўқитувчининг таълим жараёнидаги педагогик маҳорати масаласига доир	112
<i>Солиева С., Муродалиева Ш.</i> Замонавий ўқитувчининг компетенциявий қиёфаси.....	113

<i>Худайбердиева О., Исакова Г.</i> Кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш курслари фаолиятини самарали ташкил этишнинг инновацион асослари	115
<i>То'xtasinov M.</i> Globallashuv jarayonlari davrida ta'lim tizimi xodimlarining mafkuraviy kompetentligini shakllantirishning ahamiyati	117
<i>Хошимова Х., Юсупжоновна Н.</i> Биология дарслари орқали ўқувчиларда компетенцияларни шакллантириш тажрибасидан (“сувда ҳамда курукликда яшовчилар синфи” мавзуси мисолида).....	118
<i>В.Атайева</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	119
<i>Kulaxmetova M., Atayeva B.</i> Muammoli ta'limni tashkil etishda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining roli	121
<i>Jo'rayeva J.</i> Kompetensiyaning shakllanishida yozma savodxonlikni oshirish	122
<i>Majanova G.</i> Yozma savodxonlikni oshirishda individual ishlash kompetensiyasi	123
<i>Uralova G.</i> Xatolarsiz yozish kasbiy kompetensiyalarning asosi	125
<i>Abbarova M.</i> Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi kompetentligi	126
<i>Begmurodova M.</i> Ta'lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuv	127
<i>Xolmuhammedova G.</i> O'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol usullar	129
<i>Tashtemirova N.</i> O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari	130
<i>Авлаев О.</i> Акмеологик ёндашув асосида педагог-кадрлар компетентлигини ривожлантириш омиллари	131
<i>Мухамедов Г., Усаров Ж.</i> Кадрлар сифатини оширишда таълимга компетенциявий ёндашувнинг ўзига хос жиҳатлари	133
<i>Baxriddinova D., Beknazarova X.</i> O'quvchi shaxsini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining uzluksiz ta'lim jarayonidagi ahamiyati	136
<i>Xalilov S.</i> Kasbiy kompetentlik: ko'rinishlari, tuzulishi va zamonaviy yondashuvlar	138
<i>Усмонова Л.</i> Ўзбекистонда педагогнинг касбий компетентлиги, унинг ўзига хос жиҳатлари	139
<i>Хотамова М.</i> Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатларни шакллантириш масалалари	141
<i>Адилов Д.</i> Касбий компетентликни ривожлантиришда очиқ таълим ресурсларининг ўрни	142
<i>Хотамова М., Бобоёрова М.</i> Креатив ёндашув асосида кимё фани бўйича даражали тестлар тўпламини шакллантириш	144
<i>Хотамова М., Бобоёрова Н.</i> Педагогик маҳоратнинг таркибий қисмлари.....	145
<i>Бермуродова О.</i> Компетентностный подход в преподавании Русского языка как иностранного	146
<i>Курбанова Г.</i> Компетентностный подход в обучении русскому языку	148
<i>Fuzailova H., Umarov S.</i> Matematika fanini o'qitishda noan'anaviy usublardan foydalanish tajribasidan	150
<i>Худойбердиева Х.</i> Педагогларнинг инновацион фаолиятини ташкил этиш усуллари	152
<i>Amirullayeva B., Radjabova I.</i> Kompyuter yordamida fizik jarayonlarni modellashtirish va uning istiqbollari	153
<i>Эргашева Г., Хошимова Х.</i> Таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашда инновацион технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	155
<i>Karimova N., Ahrorqulova N.</i> Umumta'lim maktablari fanlarinio'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	157
<i>Yaxshiboyev G', Ergasheva G.</i> O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	159
<i>Ishankulov A., Djumayeva A.</i> “Uzluksiz ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish”	160
<i>Абдуев Ш., Тугалов Р.</i> Малака ошириш тизимида замонавий технологиялардан фойдаланишнинг баъзи бир муаммолари	163
<i>Amirullayeva B.</i> Uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalar va uni tashkil etish usullari.	165
<i>Abdurahmonova Ch., Achilova X.</i> Boshlang'ich ta'limda zamonaviy darslarni tashkillashtirish	166
<i>Yusupova D., Butayeva R.</i> O'quvchi shaxsini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni	168
<i>Фафурова Д.</i> Мактабгача таълим муассасаларидан анъанавий ўйинлардан фойдаланиш	169
<i>Rahmonova G.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	171
<i>Орипов Ж., Туратошева С.</i> Ўқув жараёнларига инновациаларни жорий этишнинг муаммо ва ечимлари	172

<i>Boboqulov G., Jangirova Sh.</i> Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyaelementlarini qo'llashning afzalliklari	174
<i>Кадиров Т., Аминов И.</i> Ахборотлаштириш тизимида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигинитакомиллаштиришнинг асосий вазифалари	175
<i>Qurbonov Z., Sattorova Z.</i> Ikkinchi sinf o'qish kitobidagi "qaldirg'och bilan beshiktebratar"ertagini grafik organayzerlar asosida o'rgatish.	177
<i>Қутбиддинова Ш.</i> Таълим жараёнини ташкил этишда инновацион ёндашув	178
<i>Аминов И., Маннабов Ж., Ахророва Н.</i> Ўқувчиларни ақлан ва рухан комилликка эришишда ахборот технологияларининг ўрни	179
<i>То'хтайев О., Ро'зиёева М.</i> Pedagogik faoliyatda o'qituvchining kompetentligini shakllantirish	181
<i>Бобоёрова Н.</i> Педагогик креативликнинг моҳияти	182
<i>Эшназарова Ф., Кўчқорова О.</i> Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш омиллари	183
<i>Назарова З.</i> Фан ўқитувчиларининг инновацион таълим муҳити талаблари асосида педагогик компетентлигини ривожлантириш йўллари	185
<i>Зоҳидова С.</i> Бўлажак ўқитувчиларни касбий ижтимойлаштириш ва инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ўзаро алоқадорлиги	186
<i>Юлдошева С., Камолова Г.</i> Ўқитувчи компетентлигини оширишда таянч методист мактабларининг ўрни	187
<i>Абдуманнотова Н.</i> Малака ошириш тизимида педагогларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш.	188
<i>Абдуманнотова Н., Мамадиёрова Д.</i> Таълим сифатини оширишда ўқитувчи компетенциясининг аҳамияти.	190
<i>Нарзиқулова Ф., Березникова Н.</i> Психологические особенности готовности поступления детей в школу.....	192
<i>Ғайбуллаева Л.</i> Тарих фани ўқитувчиларининг касбий компетенциясини ривожлантиришда музей педагогикасининг ўрни.	193
<i>Ибрагимов А.</i> Халқ таълими ходимлари малакасини узлуксиз ошириш кўп векторли моделининг тузилмаси	194
<i>Кадиров Т., Аминов И.</i> Ўқитувчилар компетенциясини шакллантиришнинг замонавий технологиялари.....	197
<i>М.Қодирова.Ф. Сатторова</i> Таълимда ўқитувчининг касбий компетентлигини юксалтириш назарияси ва амалиёти.....	198
<i>Kutbiddinova Sh.</i> The competencies of the modern teacher.....	200
<i>Yunusova N., Turobova D.</i> Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirilgan ta'limning o'rni.....	201
<i>Аҳмедов С.</i> Шахсга йўналтирилган таълим ўқитувчисининг компетентлигини такомиллаштириш масалалари.....	202

3-шўъба.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

<i>Ro'ziqulov F., Dusanov E.</i> Bo'lajak kasb-ta'lim o'qituvchisida kasbiy o'z-o'zini anglashini shakllantirish.	205
<i>Xushvaqto'v N.</i> Yoshlarga yuksak vatanparvarlik ruhida ta'lim-tarbiya berishda tarix fanlarining istiqboli	207
<i>Бакиров О.</i> Ижтимоий гуманитар фанларни ўқитишда дидактик ўйинли дарсларнинг аҳамияти.....	210
<i>Тагаев Г.</i> Шахснинг ижтимоий тарбиясида миллий кадрятларнинг этнопедагогик аҳамияти.....	211
<i>Холбаев Ш., Аҳмадов З.</i> Ўқитувчиларнинг компетенциясини такомиллаштиришда шарқ мутафаккирларининг иқтисодий тарбияга оид қарашларининг аҳамияти	213
<i>Қурбонова Д., Абдуманнотова А.</i> Бошланғич таълим ўқитувчисининг маънавий-маърифий фаолиятини такомиллаштиришда касбий компетентликнинг ўрни.....	214
<i>Эшназарова Ф., Игмова И.</i> қитувчиларнинг касбий компетентлигини оширишда маънавий меросимиздан фойдаланиш	215
<i>Холбойева Г., Ачилова Х.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash	217
<i>Хидирова Н., Хатамова М.</i> Бола тарбиясида мулоқотнинг ўрни	219
<i>Шертойлақова Г., Ачилова Ф.</i> Ўсмир болалар тарбияси.....	220

<i>Nomozova L., Shodiyeva Sh.</i> Ота –она ма’naviyati bola tarbiyasining asosi.....	222
<i>Мамадиёрова Д., Уроқова М</i> Oilани мустаҳкамлигини ижтимоий асосларини ташкил қилишда ота-оналарнинг ўрни	223
<i>Abdumannotov A., Abdumannotova A.</i> О’қувчи yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda temuriylar davri tarbiyasidan foydalanish.....	225
<i>Abdumannotov A., Xo’jayorova B.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish omillari	226
<i>Ahrorova Z.</i> Oiladabolalarga aqliytarbiya berishda yosh ota-onalarni amaliytayyorlash	228
<i>R.Nomozova., Ahrorova U.</i> Bolalar ma’naviyatini shakllantirishda oila va ota-onalarning o’rni	230
<i>Ёқубова Н.</i> История городской урбанизации Бухары в позднее средневековье	231
<i>Qoraboyev H.</i> Boshlang’ich sinf o’qituvchisi ma’naviy- ma’rifiy faoliyati – kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi.	232
<i>Куррахмедова К., Бадалова З.</i> Maktabgacha ta’lim ёшидаги болаларни ахлоқий меъёрлар билан таништириш узвийлиги	234
<i>Kushakova N., Sayimova G.</i> The role of teacher in society	235
<i>Hotamov M.</i> Talaba-yoshlar orasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlaritashkil qilish	236
<i>Holiqov Yu.</i> Yoshlarda axloqiy faollikni oshirish va tolerantligining o’ziga xos jihatlari	238
<i>Suvanova D., Fayzullayeva N.</i> Falsafa tarixida ideal va badiiy-estetik ideal kategoriyalarini o’rganilishi	240
<i>Салахутдинова М.</i> Таълим муассасасини бошқаришда раҳбар компетенцияси.....	242
<i>Nuraliyeva, S. Toshniyozova, A.Umarova</i> Ona tili darslarini tashkil etishda innovation texnologiyalar.....	243
<i>Мусинов С., Шодиёрова М.</i> Развитие педагогического мышления педагога - основа развития его профессиональной компетентности.....	245
<i>Халматова Н.</i> Маънавий, маданий меросларимиз орқали ўқувчилар қалбига миллий кадриятларимизни сингдириш	247
<i>Tashtemirova N., Mannabov J.</i> O’qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish yo’llari.....	249
<i>Зиёдуллаев Х., Муродова Ш., Саидова К.</i> Ёшларни касбга йўналтиришда маънавий илмий дунёқарашни шакллантириш муоммолари	250
<i>Кўчқорова О., Зиёдуллаев Х, Ибрагимова Д.</i> Ёшларни ўқитувчилик касбига йўналтиришда таълим методларининг тугган ўрни.....	252
<i>Bekmirzayev H., Tursunov J., Shakarov A.</i> Yoshlarning intellectual salohivatini yuksaltirishda ilmiy-madaniy merosdan foydalanishning ahamiyati	253
<i>Vaisov A.</i> Abu nasr forobiy ijodida ta’lim-tarbiya masalalari.....	254
<i>Tadjiybaev C.</i> Amaliy fanlar ўқитувчиларининг маънавий- маърифий тайёргарлигини оширишда уларнинг касбий компетенциясини такомиллаштириш масалалари	256
<i>Sufijonova L.</i> Adabiyot darslarida o’quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali insoniy fazilatlarini yuksaltirish	257
<i>Ўринбоев Э.</i> Жисмоний тарбия ва спорт таълим самарадорлигини оширишда инновацион ёндашув.....	258
<i>Ҳасанова Н.</i> XXI аср – замонавий тарих ўқитувчиси	260
<i>Egamberdiyeva G.</i> Kompetensiyaviy maqsadga erishishda boshlang’ich sinf o’qituvchisining innovatsion faoliyati	262
<i>Ҳайдарова З., Оқилова К.</i> Илғор педагогик тажрибаларни ўрганиш ва оммалаштириш.	263
<i>Усмонова М.</i> Мафкуравий компетентликининг таълим-тарбия жараёнидаги аҳамияти.....	265
<i>Орзикулова Н.</i> Ўқитувчиларнинг касбий компетенциясини такомиллаштиришда илғор тажрибаларни ўрганиш ва оммалаштириш масалалари	266
<i>Kasimova E., Mo’minova O.</i> O’quvchilarni ma’naviy va milliy ruhda ulg’aytirish	268
<i>Mamatkarimova D.</i> Kompetentlikni shakllantirishda milliy g’oyaning o’rni.....	270
<i>Tashtemirova N.</i> O’qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish yo’llari	271
<i>Xalilov S.</i> O’quvchilarni fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirishda o’qituvchining o’rni.....	272
<i>Suvonova X.</i> Qadimgi O’zbekiston hududida dizayn san’ati.....	274
<i>Xo’jamqulov A.</i> Adabiyot fani o’qituvchilari ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligini oshirishda Omon Muxtor romanlarining o’rni	275

4-шўба.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ СТРАТЕГИЯЛАРИ.

<i>Тилакова М., Нишанов Ш.</i> Креатив қобилиятларнинг назарий-тушунчавий ва тоифавий асослари	277
<i>Эгамбердиев Р.</i> Физическая культура в системе образования дошкольников.....	280
<i>Ergasheva N.</i> Boshlang'ich sinf darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.....	282
<i>Hakimov K.</i> O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ertaklarni roli.	283
<i>Жўрабаев А.</i> Мактабларда спорт тўғарак машғулотлари ва соғломлаштиришга йўналтирилган педагогик жараёнларга таъсир кўрсатувчи омиллар.	284
<i>Ergasheva N.</i> O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni bartaraf etishda ХТВ, maktab va ota-onalar hamkorligini tashkil etish.....	286
<i>Нишанов Ш., Эльзара Т.</i> Художественная литература как основа воспитания.....	290
<i>Сабирова Н.</i> Таълим жараёнида Шарқ мутафаккирлари меросининг аҳамияти.....	292
<i>Кулимов А., Шихова И.</i> Синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларнинг математик тафаккурини ривожлантириш	294
<i>Niyazmetova Sh.</i> Developing professional competence of english language teachers in uzbekistan	297
<i>Юнусова Ф.</i> Ўқувчиларнинг танлаган касбини замонавий ёндашуви асосида тарбиялаш	298
<i>Арабова Г.</i> Меҳнат – роҳатнинг пойдевори.....	300
<i>Во'stonov A.</i> Uzluksiz malaka oshirishning zamonaviy talablari.....	302
<i>Орифова С.</i> Малака ошириш марказлари ўқув машғулотларида психологик тренинглардан фойдаланиш	303
<i>Тайланова Ш.</i> Замонавий ёндашувлар асосида талабаларда кадрятлар тизимини ривожлантиришни моделлаштириш	305
<i>Азизова Д.</i> Тарбиячининг касбий компетентлиги ва педагогик маҳорати	307
<i>Аҳмедов М.</i> Ёшлар тарбиясида, мусика тарбияси, баркамол шахс шаклланишининг муҳим омили.....	308
<i>Pardayeva E., Eshimova N.</i> Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari	309
<i>Ro'ziyeva H., Artikova A.</i> Ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy strategiyalari.....	311
<i>Мадатов И., Тухтаиева Р.</i> Педагогика таълимида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини иқтисодий таълим –тарбия ишига тайёрлаш	313
<i>Umarova N., Nasriddinova N., Karimova Sh.</i> Kasb-hunar kollejlarda mustaqil ishlarni tashkil etish	315
<i>Нарзикулова Ф., Кудратова М.</i> Формирование у школьников способностей самовыражения и самореализации посредством классного руководства.....	316
<i>Uralov R., Xakberdiyeva Z., Turdiyeva B.</i> Ustaxona amaliyoti mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash – samaradorlik omili	318
<i>Яхяева С., Ибрагимова Х.</i> Баркамол авлод - юрт келажаги	319
<i>Якубжанова М.</i> Формирование информационной компетенции в старшем дошкольном возрасте.....	321
<i>Nigmatova M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishda noan'anaviy usullardan foydalanish	323
<i>Tolipova T.</i> Ongli kitobxonlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati	324
<i>Халматова Н.</i> Соғлом ва баркамол авлод тарбиясида ўқитувчининг ўрни	325
<i>Пардаева А., Солиев Н.</i> Кичик ёшдаги болаларни ўқитиш ва баҳолаш.....	326
<i>Холбаев Ш., Насимов А</i> Мактабгача таълим тизимини ислоҳ қилишда стратегик ёндошув	329
<i>Салахова З.</i> Таълим тизимини ривожлантиришда давлатнинг стратегиявий функцияси	331
<i>Холмаматов Ф.</i> Ёшларнинг иқтисодий саводхонлигини ривожлантиришда стратегиянинг аҳамияти.....	332
<i>Ergashyeva G. Ro'ziqulova</i> Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar	334
<i>Бобоёрова Н.</i> Шахс креативлигини ривожлантирувчи методлар	335
<i>Дониев Б., Ниёзова Д.</i> Мактабгача таълим муассасаларида болаларига касб-хунарлар ҳақида тушунчалар бериш.....	337
<i>Toshniyozova R., Ўроқова М.</i> Bilishning ilmiy-nazariy asoslari.....	338
<i>Нуриддинова М., Исмоилова Р.</i> Кичик ёшдаги ўқувчиларга экологик тарбия беришнинг методик хусусиятлари.....	340
<i>Юсупова О., Мўминова Д.</i> Тасдиқ ва инкор гапларнинг услубий хусусиятлари	342

<i>Abduraxmonova Ch.</i> Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogic jihatlari	344
<i>Qudratova A., Qudratova F.</i> Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir	347
<i>Эргашева Г.</i> Бошланғич синфларда математика фанидан синфдан ташқари ишларнинг ўрни.....	348
<i>Махмудова М., Азизова Г.</i> Инглиз тили ўқитувчиларининг фаолиятини ташкил қилишда хориж тажрибаларидан фойдаланиш.....	350
<i>Қаршиева З.</i> Болаларда тасвирий санъат намуналари асосида ижодкорликни шакллантириш.....	352
<i>Хо'жақуллов Ш., Eshmurodova D.</i> Та'лим jarayonida o'qitishning zamonaviy strategiyalari	353
<i>Қаршиева Д.</i> Замонавий ўқитувчи.....	354
<i>Yunusova N., Rahmonov J.</i> Biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	356
<i>Хайдаров Ш.</i> Умумтаълим мактабларининг она тили дарсларида унли товушлар муаммоси.....	357
<i>Oqilova K., Haydarova Z.</i> O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalarining o'rni.....	359
<i>Рафиев Х.</i> Жисмоний маданият ўқитувчиларининг маънавий-маърифий тайёргарлигини оширишда уларнинг касбий компетенциясини такомиллаштириш хусусида.....	360
<i>Do'stov J., Yahyayeva S.</i> "Sog'lom bola tarbiyasining pedagogik va psixologik omillari" tarbiyaning ta'sirchanligi.....	362
<i>Oqilova K., Fayziyeva D.</i> Pedagogik jarayonda muloqotning o'rni va ahamiyatining psixologik tahlili.....	363
<i>Махмадгазиева Л.</i> O'qituvchining kasbiy hamkorligi	365
<i>Хўжақуллов Ш., Эралиев О.</i> Таълим жараёнини самарали ташкил этишда инновацион технологиялардан фойдаланиш.....	366
<i>Oqilova K., Masiyeyeva M.</i> Pedagoglardagi hissiy emosional holatlarni bartaraf etishda psixologik treninglardan foydalanish.....	367
<i>Юмагулова И.</i> Формирование речевой компетенции учащихся на уроках русского языка и литературы.....	370
<i>Эшназарова Ф., Рахматова Л.</i> Бошланғич таълимда дидактик ўйинлардан фойдаланиш	371
<i>Во'ронов I., Nabiyev R.</i> O'quvchilarga bilim berishda matn ustida ishlash metodlaridan foydalanish.....	373
<i>Yunusova N., Turobova D.</i> Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirilgan ta'limning o'rni.....	375
<i>Елдашева Г.</i> Мактаб ўқув ишлаб чиқариш мажмуаларида таълим берувчи ўқитувчиларнинг малакасини ошириш бўйича қисқа муддатли курсларни ташкил этиш.....	376
<i>Хайдаров В., Jumanazarov S.</i> O'qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion shakllari	377
<i>Курахмедова Л.</i> Развитие коммуникативной компетентности педагогов в процессе методической работы дошкольного образовательного учреждения.....	379
<i>Комилов Р.</i> Мустақиллик йилларида ўзбек миллий никоҳ маросимларининг трансформацион хусусиятлари ва эстетик эволюцияси.....	380
<i>Toshpulatov O.</i> O'zbek milliy urf-odatlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	382
<i>Ibragimova N</i> Ways of teaching young learners.....	384
<i>Сатторова О</i> Ургут Баркамол авлода умуммаданий компетенцияларни шакллантиришнинг аҳамияти	386
<i>Suvonova K.</i> Tasviriy san'at mashg'ulotlarida interfaol usullar.....	387

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГ ХОДИМЛАР
КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ:
МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ**

(мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси)

Муҳаррир: Нарзикулова Ф
Техник муҳаррир: Хужакулов Ш
Компьютерда саҳифаловчи: Оқилова К.

ISBN 978-9943-997-87-5

Босишга 15.04.2018 йилда рухсат этилди.
Қоғоз бичими А4. Офсет қоғози. Шартли босма табағи 24,0.
Нашриёт ҳисоб табағи 28,0. Адади 100 нусха. Буюртма № 3.

СамДУ ҳузуридаги халқ таълими
ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг
малакасини ошириш ҳудудий маркази босмаҳонасида чоп этилди.

Самарқанд шаҳар, Бойсунқур кўчаси 3-уй.